O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

R.X.ERGASHEV, SH.SH.FAYZIYEVA, S.N.XAMRAYEVA

QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2018

UO‘K 33:631.1
KBK: 65.32

Taqrizchilar: *i.f.d., akad.* **Q.X. Abdurahmanov;** *i.f.d., prof.* **A.V. Vahobov;**
i.f.d., prof. **N.U. Uzoqov;** *i.f.n.dots.* **Z.S. Shoxo‘jayeva**

E 74 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik / R.X. Ergashev, Sh.Sh. Fayziyeva, S.N. Xamrayeva; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 404 b.

Darslikda “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining muhim masalalari o‘qitishning interfaol va zamonaviy pedagogik uslublariga asoslangan holda tushunarli tilda bayon etilgan bo‘lib, unda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari, qishloq xo’jaligida mavjud yer-suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, qishloq xo’jaligi korxonalarining barqaror shakllanishi, iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil qilinib, istiqbolda qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining barqaror sur‘atda rivojlanish yo’nalishlari ochib berilgan.

Darslikda xorijiy mamlakatlar tajribasi ilmiy jihatdan keng miqyosda umumlashtirildi hamda chet el olimlarining fikr va mulohazalari takomillashtirildi, shuningdek, O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy ko‘rsatkichlari va omillari qiyoslandi hamda tegishli xulosalar berildi.

Darslik oliy ta’lim muassasalari talabalariga, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti masalalarini o‘rganuvchi mutaxassislar, professor-o‘qituvchilar, izlanuvchilar va shu sohaga qiziquvchi ko‘p sonli kitobxonlarga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2017 yil 24 avgustdagi 603-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat berildi

UO‘K 33:631.1
KBK: 65.32 ya721

© R.X. Ergashev, Sh.Sh. Fayziyeva, S.N. Xamrayeva, 2018
ISBN 978-9943-13-716-5
© «IQTISOD-MOLIYA», 2018

MUNDARIJA

So‘z boshi..... 8

I BOB.QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFASI HAMDA TADQIQOT USULLARI

1.1. Qishloq xo‘jaligi jahon va respublika iqtisodiyotining muhim tarmog‘i ekanligi haqida..... 11
1.2. Qishloq xo‘jaligining tarmoq sifatida o‘ziga xos xususiyatlari..... 17
1.3. Erkin bozor munosabatlarini amalga oshirishda fanning predmeti, maqsadi va vazifalari..... 20
1.4. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fanining tadqiqot usullari..... 23

II BOB. JAHON, RESPUBLIKA QISHLOQ XO‘JALIGI, UNING JOYLASHISHI, IXTISOSLASHISHI, JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY SHAROITIDA RIVOJLANISHI

2.1. Qishloq xo‘jaligini joylashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati..... 27
2.2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishning shakl va ko‘rsatkichlari..... 32
2.3. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni konsentratsiyalash..... 40
2.4. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv va konsentratsiyalashning iqtisodiy samaradorligi..... 43
2.5. Qishloq xo‘jaligini kooperatsiyalashtirish va agrosanoat majmuasini integratsiyalashtirish..... 45

III BOB. RESPUBLIKA AGROSANOAT MAJMUASI VA UNI INQIROZ SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

3.1. Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsad va vazifalari hamda tarkibi..... 53
3.2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlar tarkibi o‘rtasidagi munosabatlar..... 61
3.3. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari darajasi..... 64
3.4. Oziq-ovqat va aholi iste’mol mollari majmuasi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi..... 70

IV BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA DAVLAT RAHBARLIGI VA AMALGA OSHIRILAYOTGAN AGRAR-IQTISODIY ISLOHOTLAR

4.1. Erkin bozor iqtisodiyoti, uning mazmun va mohiyati..... 80
4.2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tizimi..... 86
4.3. Qishloq xo‘jaligida yer, suv, mulk, baho, soliq, moliya va kredit islohotlari va ularning natijalari..... 88
4.4. Qishloq xo‘jaligida davlat dotatsiyasi va subsidiyasi..... 95

V BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MULK VA TADBIRKORLIK SHAKLLARI, ULARNING BOZOR RIVOJLANISHI

5.1. Qishloq xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shakllarini barpo etishning zarurligi..... 104
5.2. Qishloq xo‘jaligida davlat mulki va davlat korxonalari..... 106
5.3. Qishloq xo‘jaligida jamoa, xususiy, shaxsiy va aralash mulk turlari..... 110
5.4. Dehqon va fermer xo‘jaliklari, ularning rivojlanishi..... 114

VI BOB. YER-SUV RESURSLARI, INQIROZ SHAROITIDA ULARDAN FOYDALANISH MASALALARI

6.1. Respublikaning yer-suv fondi, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati..... 127
6.2. Yer-suv resurslari, ularning miqdori, turlari va tarkibi, sug‘oriladigan yerlar miqdori, sifati..... 128
6.3. Yer-suv resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi..... 134
6.4. Qishloq xo‘jaligi yerlarini baholash, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli..... 140
6.5. Suv iste’molchilari uyushmasi. Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari..... 144
6.6. Yer-suv resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirish mexanizmlari..... 150

VII BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI, FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

7.1. Moddiy - texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi..... 155

7.2. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo‘nalishlari va innovatsion texnologiyalar..... 161
7.3. Qishloq xo‘jaligida zamonaviy, samarali, ekologik jihatdan foydali hisoblangan texnikalarni, kimyoviy vositalarni va intensiv texnologiyalarni yaratish..... 166
7.4. Fan-texnika yutuqlarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish..... 174

VIII BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING ASOSIY VA AYLANMA VOSITALARI, FONDLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

8.1. Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalar haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati va turkumlashtirilishi 184
8.2. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar..... 188
8.3. Aylanma vositalar haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlashtirilishi..... 194
8.4. Aylanma vositalar, ulardan foydalanish darajasining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar..... 197

IX BOB. MEHNAT RESURSLARI, ULARNING BOZORI, ULARDAN FOYDALANISH VA MEHNAT UNUMDORLIGI

9.1. Respublika qishloqlaridagi aholi, mehnat va mehnat resurslari..... 208
9.2. Mehnat bozori, mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar..... 211
9.3. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar..... 215
9.4. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari..... 221

X BOB. INVESTITSIYALAR (KAPITAL QO‘YILMALAR), MANBALARI, ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

10.1. Investitsiya haqida tushuncha, uning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati..... 225
10.2. Qishloq xo‘jaligida sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)ning manbalari, sarflanish yo‘nalishlari..... 230
10.3. Investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar..... 237
10.4. Investitsiya (kapital qo‘yilma)lar ko‘lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo‘llari..... 239

XI BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA SERVIS, UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

11.1. Qishloq xo‘jaligida servis haqida tushuncha, uning mazmuni va ahamiyati..... 244
11.2. Qishloq xo‘jaligining faoliyat samaradorligini oshirishda servisni rivojlantirish masalalari..... 248
11.3. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy servis samaradorligini ta’minlash yo‘nalishlari..... 261

XII BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI (YALPI VA O‘RTACHA) XARAJATLAR, ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

12.1. Qishloq xo‘jaligida turli xildagi xarajatlarning obyektiv zarurligi.... 268
12.2. Qishloq xo‘jaligida xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi.. 269
12.3. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o‘rtacha xarajatlar) va uning turlari..... 274
12.4. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha xarajatlarini (tannarxini) hisoblash usullari..... 280
12.5. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tannarxini kamaytirish yo‘llari... 285

XIII BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING YALPI VA TOVAR MAHSULOTI, ULARNING TAQSIMLANISHI VA KO‘PAYTIRISH YO‘LLARI

13.1. Qishloq xo‘jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati..... 291
13.2. Qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti tarkibi, o‘zgarishi, sifati va raqobatbardoshligi..... 295
13.3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini taqsimlash, sotish va tovarlilik darajasini oshirish yo‘llari..... 300

XIV BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING BAHOLARI, ULARNING TAKOMILLASHTIRILISHI

14.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlari..... 309
14.2. Qishloq xo‘jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi..... 313
14.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari baholarini takomillashtirish va raqobat muhitini shakllantirish..... 318
14.4. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish omillari..... 320

XV BOB. KORXONALARNING DAROMADLARI, FOYDALARI, ULARNING TAQSIMLANISHI. ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

15.1. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida takror ishlab chiqarish, uning turlari, ularning korxona ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdagi ahamiyati..... 328
15.2. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining daromadlari, olingan foyda va iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati..... 337
15.3. Qishloq xo‘jaligi daromadlarini, foydani va iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar..... 343
15.4. Qishloq xo‘jaligining pul daromadlari, yalpi va sof foydalarini ko‘paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari..... 352

XVI BOB. O‘SIMLIKCHILIK TARMOQLARI IQTISODI

16.1. O‘simlikchilik tarmoqlarining ahamiyati..... 359
16.2. O‘simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotining hozirgi holati..... 362
16.3. Davlatning g‘alla mustaqilligi siyosati..... 369
16.4. Kelajakda o‘simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari..... 374

XVII BOB. CHORVACHILIK (QORAMOLCHILIK, QO‘YCHILIK, ECHKICHILIK) TARMOQLARI IQTISODI

17.1. Chorvachilik tarmoqlarining ahamiyati..... 380
17.2. Chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar..... 385
17.3. Chorvachilik tarmoqlarida mahsulot yetishtirishni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari..... 388
17.4. Chorvachilikda yem-xashak bazasini shakllantirish yo‘llari..... 392

Foydalanilgan adabiyotlar..... 397

SO‘Z BOSHI

Qishloq xo‘jaligining asosiy masalasi bu – qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir. Bugungi kunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste’moli 47,3 foizini tashkil qilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari importi yildan yilga kamayib, uning eksport hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Fermer va dehqonlarimiz qishloq xo‘jaligida asosiy kuch bo‘lib, nafaqat mazkur sohani, balki butun mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning turmush darajasini oshirish, yurtimizni har jihatdan obod va farovon qilishda beqiyos ishlarni amalga oshirayotganini bugun faxr va g‘urur bilan, minnatdorlik bilan qayd etamiz”[1].

Qishloq xo‘jaligini erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun qishloq xo‘jaligini yuritishning turli mulk va mulkchilik shakllarini va tadbirkorlik shakllarini barpo etishning zarurligi, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlar maydoni, sifati, moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligining asosiy va aylanma fondlari mehnat resurslari bozori, mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar) bo‘yicha davlatning siyosati, qishloqda servisni rivojlantirish, xarajatlarni tejash, mahsulot va xizmatlarning baholarini belgilash, raqobatbardoshligini oshirish hamda qishloq xo‘jaligi korxonalarining daromadlarini ko‘paytirish yo‘llarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o‘z samarasini bermoqda.”[2]

Agrar-iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar hamda diversifikatsiyalash natijasida qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning bozor

---

[11] SH.M. Mirziyoyev Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamizdir//Xalq so‘zi. 10.12.2017.
[2]Usha joyda.

shakllariga o‘tildi va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmog‘i oshdi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish, davlat byudjeti subsidiyalari orqali kredit tizimidan foydalanish, hosilni sug‘urtalash va boshqa bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, qishloq xo‘jaligining barqaror va jadal rivoji uchun bir qancha ishlarni amalga oshirish lozim. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida innovatsiyalar, zamonaviy texnika va texnologiyalar hamda xo‘jaligi yuritishning yangicha shakllaridan foydalanish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin. Shu bilan bir qatorda, qishloq va boshqa ASM korxonalari mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga keskin talablar qo‘yilmoqda. Ushbu talablarga javob berish uchun “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fani bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yo‘nalishlarining mazmun va mohiyatini yoritishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlariga, Prezident farmon va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi. Agrar sohada amalga oshirilayotgan asosiy iqtisodiy munosabatlarning ahamiyati Respublika Makroiqtisodiyot va Statistika hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari ma’lumotlaridan foydalanib, jadvallar, rasmlar, diagrammalar, grafiklar yordamida yoritilishiga harakat qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari va Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan (2013 yil 19 apreldagi 128-sonli bayonnomasi hamda №BD-5230100-4.01 bilan ro‘yxatga olingan) “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining o‘quv dasturi asosida yozilgan bo‘lib, ushbu darslikda o‘qitishning yangi ta’lim texnologiyasi, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydanilgan holda har bir mavzu bo‘yicha maqsadi, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu bo‘yicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar va foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining darsligi asosan oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti muammolari bilan shug‘ullanuvchi professor-o‘qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, tadbirkorlar hamda qishloq va suv xo‘jaligi xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu darslik qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti bilan bog‘liq muammolar, masalalar va ularni tarmoq ishlab chiqarishiga joriy etish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz.

Mualliflar “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining darsligi sifatida unga bildirilgan fikr va mulohazalar hamda takliflarni minnatdorlik bilan qabul qiladilar va ularni keyingi nashrlarga tayyorlash va chop etish jarayonida inobatga oldilar. Ushbu darslikni chop etilishiga yordam berganlarning barchasiga samimiy minnatdorchilik bildiradilar.

I-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFASI HAMDA TADQIQOT USULLARI

O‘quv maqsadi: Qishloq xo‘jaligining jahon iqtisodiyoti va respublika iqtisodiyotida tutgan o‘rnini, qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlarini, tarmoqning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini va erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan hukumatning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarini, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasini, hamda “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi, vazifalarini va fanning mazmunini yoritishda qo‘llaniladigan tadqiqot usullarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *moddiy ne’mat, mahsulotlar, ehtiyojlar, iqtisodiy mustaqillik, yalpi ichki mahsulot (YAIM), bozor iqtisodiyoti.*

1.1. Qishloq xo‘jaligi jahon va respublika iqtisodiyotining muhim tarmog‘i ekanligi haqida

Qishloq xo‘jaligining jahon iqtisodiyotidagi o‘rni keyingi yillarda keskin rivojlanib bormoqda, bu esa qishloq xo‘jaligining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati yanada oshayotganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning asosiy omillari bo‘lgan yer, suv, mehnat resurslari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xom-ashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi, asosan ikkita yirik tarmoq-dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha aholi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi o‘simlik va chorvachilik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlaydigan bir qancha tarmoqlarni ham o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan faol aholining taxminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko‘pincha 80-90 foizidan ortig‘i qishloq xo‘jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Qishloq aholisining ijtimoiy muammolari, joylashishi qishloq xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bir qancha mamlakatlarda o‘rmon xo‘jaligi ham qishloq xo‘jaligi tarkibiga kiradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi agrar-iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar hamda sohani diversifikatsiyalash natijalari Respublikamizni MDH

ichida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi yuqori darajada o‘sayotgan davlatlar qatoriga kiritish imkonini berdi (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. **MDH mamlakatlarida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari (2013-2015 yy.),** (%da)

Qishloq xo‘jaligi aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish bilan birga qatorda sanoat tarmoqlari (oziq-ovqat, omixta yem, to‘qimachilik, dori-darmon, atir-upa sanoati va boshqalar)ni xom-ashyo bilan ta’minlaydi. Dehqonchilik tarmoqlari (g‘allachilik, paxtachilik, sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik va boshqalar) hamda chorvachilik tarmoqlari (qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, echkichilik, parrandachilik, pillachilik, baliqchilik kabilar)ni o‘z ichiga oladi. Bu tarmoqlarni birgalikda rivojlantirish moddiy va mehnat resurslaridan to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi.

2015 yilga kelib, jahon aholisi 7 milliard nafardan oshib ketdi va bu ko‘rsatkich yil sayin ortib borishi kutilmoqda. Ularni oziq-ovqat bilan to‘liq ta’minlash uchun har yili oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini 4-5 foiz oshirib borish kerak. Har bir mamlakatda qishloq xo‘jaligining rivojlanishi o‘ziga xos ichki xususiyatlar e’tiborga olinishini talab qiladi. Bu esa tabiiy, ijtimoiy ixtisoslashuvni taqozo etadi.

Mustaqillikka erishganimizdan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport potensialini kengaytirib bormoqda.

Meva va sabzavot mahsulotlari eksportiga qaraganimizda, YAIM eksport salmog‘i 2010 yilda 38,0% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 48 % ga yetgan. O‘zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining tashqi ko‘rinishi, mazasiga ko‘ra jahon bozorida eng xaridorgir hisoblanadi. Darvoqe, O‘zbekistonda yetishtirilgan uzumdagi qand miqdori 18-30%, pomidordagi

quruq modda miqdori 5,5% ni tashkil etdi. Bu Yevropa mamlakatlarida yetishtirilgan shu turdagi mahsulotlar tarkibidagi shunday moddalar miqdoridan ancha ko‘pdir.

2013 yilda Yevropa ittifoqida chetga eksport qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 250,5 mlyard. dollarni, jalb etilgan investitsiyalar hajmi esa 246,2 mlyard. dollarni tashkil etdi. 2013 yilda jahonda chetga eksport qilingan va jalb etilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tarkibida Yevropa ittifoqining ulushi mos ravishda 17,8 va 17,0%ga teng bo‘ldi.

2013 yilda AQSh tashqi tovarlar savdosining umumiy hajmi 3 trln. 909 mlyard. dollarni, eksport hajmi 1 trln. 579 mlyard dollarni, import esa 2 trln. 329 mlyard dollarni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining YAIM ulushi 30,1%ga teng bo‘ldi.

O‘simlikchilik tarmog‘ida 2016 yilda O‘zbekiston bo‘yicha 23184,5 mlrd. so‘mlik mahsulot yetishtirilgan bo‘lsa, shundan 65,1% dehqon, 32,9% fermer xo‘jaliklari, 2%i boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari ulushidir (1.1.1-jadval).

1.1.1-jadval

Ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha eksport va import ko‘rsatkichlari[3] (%), 2016 yil

№	Mahsulot turlari	Eksport	Import
1	Sabzavot	10,8	0,2
2	Poliz	15,1	0,0
3	Meva	13,2	0,1
4	Uzum	15,6	0,0
5	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	0,0	0,3
6	Sut va sut mahsulotlari	0,0	0,1
7	Tuxum	0,0	0,0
8	Un	5,1	10,3
9	O‘simlik yog‘i	0,0	8,3
10	Shakar	0,3	40,3

“O‘zmevasabzavotuzumsanoat”, “O‘zbekagroeksport” va “O‘zbekoziq-ovqat” xolding kompaniyasi faoliyati tahlilining ko‘rsatishicha, tarmoqning eksport potensiali talab darajasida emas.

Buning sababi quyidagilardan iborat:

- tovar ishlab chiqaruvchilar (dehqon, fermer xo‘jaliklari) mahsulotlari sotiladigan bozor haqidagi ma’lumotlarga yetarli darajada ega emaslar;

- meva va sabzavot mahsulotlarini yetkazib beruvchilar bu turdagi mahsulotlarga, jumladan ularning sifatiga qo‘yiladigan talablar haqida yetarli tasavvurga ega emaslar.

[3] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

O‘zbekiston Respublikasida paxta xom-ashyosini eksport qilish maqsadida yirik “O‘zpaxtayog‘sanoateksport” xolding kompaniyasi tashkil etildi. Bu o‘rinda eslatib o‘tish kerakki, respublikamiz paxta tolasini jahon bozoriga olib chiqishi uchun bir necha mamlakatlar bilan aloqa o‘rnatishi talab etiladi. Negaki, jahon bozoriga chiqish uchun albatta, ikki yoki uch mamlakat hududidan o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bu o‘z navbatida mahsulot qiymatiga ta’sir etadi. O‘zbekiston paxta bo‘yicha bir necha baza-terminallarni barpo etdi. Ushbu terminallarning har biri 10 ming tonna paxta tolasini saqlash imkoniyatiga ega. O‘zbekiston Respublikasida 2015 yilda umumiy eksport hajmining 8,0% ini paxta tolasi tashkil qildi. Paxta tolasini mamlakatimizning o‘zida xorijliklarga sotish va Amerika, Osiyo, Yevropa mamlakatlariga jo‘natish imkoniyati yaratildi. O‘zbekiston Respublikasida paxta eksporti jahon ulushining 7% ini tashkil etadi, ya’ni har yili O‘zbekiston 550-600 ming tonna paxta tolasini eksport qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi asosiy tarmoq hisoblanadi. Unda YAIM ulushi 2010 yilda 19,8% bo‘lgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 17,6% ni tashkil qildi. Yer davlat mulki bo‘lib, undan foydalanuvchilarga, ya’ni fermerlarga shartnoma asosida 50 yilgacha muddatda ijaraga beriladi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qulay hududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar yetarli. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperatura 25-35% ni tashkil etib, quyoshli kun 310 dan ortiq bo‘lib, bir yilda birnecha marta hosil olish imkoni mavjud. O‘zbekistonning jami yer maydoni 44,4 mln gektar bo‘lib, shundan 50,8 foizi turli xildagi qishloq xo‘jaligi korxonalari, tashkilotlari hamda dehqon xo‘jaliklari tomonidan foydalaniladi. Ularning yig‘indisi mamlakat qishloq xo‘jaligini tashkil etadi. Asosiy maqsad tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan mamlakat aholisining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini qondirishdir. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- aholi birdaniga iste’mol qiladigan sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini barcha talablarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish;
- qayta ishlash sanoati korxonalarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishdir.

Hozirgi davrda bu tarmoqda aholi iste’mol qilayotgan tovarlarning 85 foizidan ko‘prog‘i ishlab chiqarilmoqda. Ular o‘simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iborat. 2016 yilda O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 17,6 foizi qishloq xo‘jaligida yaratilgan. Shu yilda barcha sanoat tarmoqlarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25,5 foizi, qurilish sohasida esa 7,5 foizi yaratilgan. Raqamlar qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shu yilda qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha turdagi tadbirkorlar tomonidan 23184,5 mlrd. so‘mlik yalpi mahsulot yaratilgan. U asosan 3350,0 ming tonna paxta, 7500,0 ming tonna don, 5113,3 ming tonna sabzavot, 1940,4 ming tonna

meva, 1406,4 ming tonna go‘sht, 896,3 ming tonna sut, 801,6 ming dona qorako‘l teri, 4040,3 mlrd. dona tuxum va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tashkil topgan.

Xitoy iqtisodiyotida YAIMda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 1978 yilda 28%ni tashkil etgan bo‘lsa 2010 yilga kelib 10%ni tashkil etgan, sanoat mahsulotlari esa mutanosib ravishda 48,0%dan 46,8%ga qisqargan va xizmat ko‘rsatish sohasi 28%dan 43,2 foizga oshgan. Yaponiyada esa YAIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 1980 yilda 4%dan 2010 yilga kelib 1%gacha kamaygan.

Barcha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda respublika iqtisodiyotida band bo‘lgan mehnat resurslarining 27,7 foizga yaqini qatnashgan.

Respublika qishloqlarida jami aholining 49% yashaydi. Ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar 25 mln. gektarga yaqin qishloq xo‘jaligi yerlaridan olingan, shundan 369,1 ming gektari ekinzorlardir.

Mamlakat dehqonchiligi sug‘orishga asoslanganligi sababli katta miqdordagi suv resurslarini talab etadi. Lekin bu talabning atigi 60 foizigina ichki suv resurslari bilan qondirilmoqda. Bunday hol Amudaryo hamda Sirdaryo havzalaridan katta miqdordagi suv resurslarini jalb etishni talab etadi. Hozirgi davrda qishloq xo‘jaligida 52-56 mlrd m^3 suv resurslaridan foydalanilmoqda. Tabiatda yer va suv resurslari cheklangan, ular takror ishlab chiqarilmaydigan resurslar hisoblanadi. Shuning uchun ularning har bir gektaridan, 1 m^3 suvdan tadbirkorlik bilan fan-texnika yutuqlarini joriy etib, yil davomida to‘liq va samarali foydalanish lozim.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan ko‘plab qishloq xo‘jaligi texnikalari, kimyoviy vositalar, yoqilg‘i, yonilg‘i-moylash materiallari va boshqa vositalaridan foydalanilmoqda. Masalan, tarmoqda 2016 yilda 105,3 mingga yaqin turli xildagi traktorlar, 41,6 mingtadan ko‘proq yuk tashish mashinalari, 6,2 mingtaga yaqin g‘alla yig‘ishtiradigan, bir mingtaga yaqin paxta teradigan kombaynlar, ko‘plab boshqa texnikalardan foydalanilgan. Tarmoq miqyosida yerlarning unumdorligini, ekinlarning esa hosildorligini oshirish maqsadida 850,3 ming tonna mineral o‘g‘itlardan foydalanilgan. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarilishi natijasida O‘zbekistonning mavqei tobora oshib borilmoqda. Hozirgi davrda O‘zbekiston A va YE tipdagi paxta tolasini ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokiston davlatlaridan so‘ng beshinchi o‘rinni, ularni eksport qilish bo‘yicha esa 2-o‘rinni egallab kelmoqda. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston jahon bozoriga nihoyatda sifatli bo‘lgan qorako‘l terisi, pilla, sabzavot, poliz va bog‘dorchilik mahsulotlarini qayta ishlab, jahon bozoriga tayyor mahsulotlarni chiqarishni ko‘paytirish lozim. Bu borada so‘nggi yillarda chet el investitsiyalari jalb etilib, katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ularni kelajakda jadal sur’atlar bilan rivojlantirish siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan maqsadga

muvofiqdir. Hozirgi davrda mamlakat aholisining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash darajasi yil sayin ortib bormoqda. 2016 yilda respublika aholisining jon boshiga 180 kg.ga yaqin un mahsulotlari, 136 kg paxta xom-ashyosi, 252 kg sabzavot mahsulotlari, 68 kgdan ko‘proq kartoshka, 48 kg go‘sht, 173 kg sut hamda 106 donaga yaqin tuxum ishlab chiqarilgan. Demak, mamlakat aholisining unga bo‘lgan talabi qondirilgan. Kelajakda esa uning sifatini yaxshilashga alohida e’tibor berish talab etiladi. Lekin boshqa mahsulot bo‘yicha xalqimizning meditsina meyorlari bo‘yicha talabi to‘liq qondirilganicha yo‘q (1.1.2-jadval).

1.1.2-jadval

Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal iste’mol normasi

(1 kishi hisobiga)

№	Mahsulot turlari	O‘lchov birligi	Minimal iste’mol normasi
1	Sabzavot	kg/yil	109,2
2	Kartoshka	kg/yil	54,6
3	Poliz	kg/yil	19,6
4	Meva	kg/yil	76,7
5	Uzum	kg/yil	13,9
6	Go‘sht(so‘yilgan vaznda sub mahsulot bilan)	kg/yil	40,2
7	Sut	kg/yil	136,7
8	Tuxum	dona/yil	292,0
9	Un	kg/yil	99,0
10	O‘simlik yog‘i va boshqalar	kg/yil	7,3
11	Meva-sabzavot konservalari	sh.b/yil	13,0

Bunday hol O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini yanada jadal sur’atlar bilan rivojlantirilishini taqozo etadi. So‘nggi o‘n yillarda bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakat qishloq xo‘jaligida erkin bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatini beradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich qat’iy ishonch bilan amalga oshirilishini ta’minlab beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchillik bilan hayotga joriy etilmoqda. Masalan, yer fuqarolarga umrbod meros qoldirish huquqi bilan bepul berilmoqda, fermer xo‘jaligilariga esa 30 yildan 50 yilgacha bo‘lgan muddatda foydalanish uchun ijaraga berilmoqda. Qishloqda mulk islohoti natijasida mulkdorlar sinfi shakllanmoqda va rivojlanmoqda.

Dehqonlarga paxta, g‘alladan tashqari boshqa barcha mahsulotlarni yetishtirishda, ularni sotishda erkinlik berildi. Tadbirkorlarga ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun turli imtiyozli kreditlar berilmoqda. Lekin amalga

oshirilayotgan tadbirlar o‘sib borayotgan talabni to‘liq qondira olmayapti. Shuning uchun qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan barcha turdagi islohotlarni erkinlashtirish, ularni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa kelajakda qishloq xo‘jaligining yuqori sur’atlarda rivojlanishini, respublika iqtisodiyotining yuksalishini ta’minlaydi.

1.2. Qishloq xo‘jaligining tarmoq sifatida o‘ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo‘jaligi – agrosanoat majmuasi (ASM)dagi eng muhim tarmoqlardan biri bo‘lib, mamlakat aholisi uchun oziq-ovqat, qayta ishlash sanoati uchun xom-ashyo yetkazib beradi. Uning asosiy vazifasi mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan extiyojini qondirishdir (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Mamlakat aholisining jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan minimal ta’minlanganlik darajasi (tibbiy meyor bo‘yicha)[4] %

№	Mahsulot turlari	Yillar					2012-2016 yillarda o‘zgarish
		2012	2013	2014	2015	2016	
1	Bug‘doy	102,3	104,6	105,1	106,3	152,6	149,2
2	Kartoshka	126,6	136,3	141,2	144,9	170,3	134,5
3	Sabzavot	238,8	257,9	263,1	275,4	324,2	135,8
4	Meva	89,8	97,5	98,9	101,3	125,2	139,4
5	Uzum	291,4	314,4	318,9	332,9	395,7	135,8
6	Poliz	242,9	262,8	271,8	283,4	326,5	134,4
7	Go‘sht	73,1	76,9	81,0	83,4	169,1	231,3
8	Sut	149,3	158,6	162,7	172,3	223,1	149,4
9	Tuxum	44,0	48,9	51,9	65,9	66,1	150,2

Aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabining deyarli ¾ qismi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobidan qondiriladi. Qishloq xo‘jaligi sanoatga xom-ashyo yetkazib beruvchi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi.

[4]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 50% dan ko‘prog‘i xom-ashyo sifatida ishlatiladi. Bu soha sanoatning yengil, oziq-ovqat, omixta yem va boshqa tarmoqlari uchun xom-ashyo yetkazib beradi.

O‘z navbatida qishloq xo‘jaligi sanoat tovarlarining yirik iste’molchisi hamdir. Sanoat qishloqni traktorlar, avtomobillar, mashinalar, asbob-uskunalar, yoqilg‘i, yoqilg‘i-moylash materiallari, mineral o‘g‘itlar, omixta yem va boshqalar bilan ta’minlaydi. Sanoatda qilinadigan xarajatlarnig qariyb 40 foizi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga sarflanadi. Shunday ekan, sanoatning ayrim tarmoqlari rivoji qishloq xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘liq va ayni vaqtda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining maqsadga muvofiq faoliyati sanoatning qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liq.

Iqtisodiyotning har bir tarmog‘ida ishlab chiqarish vositalaridan foydalaniladi, turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishchi-xizmatchilardan yetarlicha malaka talab qilinadi. Xuddi shunday qishloq xo‘jaligining ham o‘ziga xos xususiyatlari borki, bu tarmoqda tadbirkorlik faoliyatini olib borishda ushbu xususiyatlarni hisobga olish zarur (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos hususiyatlari**[5]

[5] Ushbu rasm va barcha darslikda keltirilgan rasm va diagrammalar mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

1. Tarmoqda yer eng asosiy, almashtirib bo‘lmaydigan ishlab chiqarish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli o‘laroq yerdan foydalanganda eskirmaydi, balki o‘z sifatini saqlab qoladi. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer resurslari o‘zining unumdorligi va joylashish o‘rniga qarab farqlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi turli tuproq-iqlim sharoitlarida olib borilib, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash, kimyolashtirish va tarmoq melioratsiyasi, qishloq xo‘jaligi ekinlarining navini tanlash hamda naslchilikda ushbu xususiyatni e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan olingan natijalar tuproq iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘lib, ayni vaqtda ushbu omilning sanoat ishlab chiqarishga ta’siri yo‘q. Bundan tashqari, tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishnig joylashuvi va ixtisoslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim qishloq xo‘jaligi ekinlarini faqatgina muayyan sharoitlarda yetishtirish mumkin. Ob-havoning qulay yoki noqulay kelishi ham qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish mavsumiy xarakterga ega. Bunda ayniqsa, kuzgi g‘alla yetishtirishda ishlab chiqarish davri bilan ish vaqti o‘rtasidagi sezilarli farqni ko‘rish mumkin. Kuzgi g‘allani tayyorlash va ekish davri avgust, sentabr oylaridan boshlanib, hosil kelasi yilning iyul oyida yig‘ishtirib olinadi. Ushbu davr oralig‘ida ish vaqtida bir necha marta uzilishlar bo‘ladi: ekin maydonlarini tayyorlash, ekish, ekinlar parvarishi, hosilni yig‘ishtirib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish davri esa ekinlarning tabiiy o‘sishi va rivojlanishi sababli uzluksiz bo‘ladi. Mavsumiylik ishlab chiqarishni tashkil etishga, mehnat resurslari va texnikadan foydalanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligining mavsumiylik xarakteri qayta ishlash sanoatida ham aks etadi. Chunki qishloq xo‘jaligi xom-ashyosi yil davomida notekis taqsimlanadi.

5. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositasi (urug‘lik, yem, organik o‘g‘itlar, yosh chorva mollari va boshqalar) sifatida ishlatiladi. Sanoatda esa xom-ashyo boshqa tarmoq korxonalaridan keltiriladi. Ishlab chiqarish texnologiyasi ushbu xususiyat bilan bog‘liq bo‘lib, qishloq xo‘jaligida texnologik jarayon biologik omillar va tirik organizmlarga tayansa, sanoat kimyoviy, fizik va mexanik jarayonlarga tayanadi.

6. Tarmoq yuqori fond sig‘imiga ega bo‘lib, aylanma kapital sekin aylanadi, investorlar uchun ushbu holat unchalik jozibali bo‘lmaganligi sababli bu tarmoqni rivojlantirishda davlatning roli kuchayadi.

7. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi texnikalari (traktorlar, mashinalar, kombaynlar va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikalari) bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yuradi, mehnat predmetlari (o‘simliklar) esa bir joyda joylashgan.

Sanoatda aksincha, mehnat predmetlari (xom-ashyo) ko‘chib yursa, asbob-uskuna, mashina va stanoklar bir joyga o‘rnatilgan.

8. Ko‘pchilik qishloq xo‘jaligi korxonalari bir necha xil tovar mahsuloti ishlab chiqaradi. Dehqonchilik va chorva mahsulotlari aynan bitta xo‘jalik yetishtiriladi. Chunki dehqonchilik chorva mollarini ozuqa bilan ta’minlasa, chorvadan olingan go‘ng organik o‘g‘it sifatida xizmat qiladi.

9. Ko‘p sonli qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bozorda raqobat muhitini shakllantiradi. Birgina tovar ishlab chiqaruvchining o‘zi bozor bahosiga ta’sir ko‘rsata olmaganligi sababli tarmoqda yakka hukmronlik kuzatilmaydi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida qishloq xo‘jaligi xususiyatlariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining talabining noelastikligini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning raqobatbardoshligini hisobga olish zarur deb hisoblaydi[6]

1.3. Erkin bozor munosabatlarini amalga oshirishda fanning predmeti, maqsadi va vazifalari

Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Dastlab “iqtisodiyot” tushunchasi xo‘jaligi yuritishning qonuniyatlari va uy xo‘jaligini boshqarish san’ati ma’nolarida muhim ahamiyat kasb etgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, iqtisodiyot-ning turli tarmoqlarining shakllanishi natijasida ushbu tushunchaning ma’no-mazmuni ancha kengayib, o‘zgarib bordi. Bu quyidagilarda aks etadi:

Birinchidan, iqtisodiyot – bu jamiyatni moddiy boyliklar va xizmatlar bilan ta’minlovchi iqtisodiyot tarmoqlarining majmuidir.

Ikkinchidan, iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan ishlab chiqarish munosabatlaridir. Ishlab chiqarish munosabatlari-moddiy ne’matlarini ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste’mol jarayonlarida odamlar (guruhlar, jamoalar, toifalar) o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlardir. Ishlab chiqarish munosabatlari iqtisodiy qonunlar orqali tartibga solinadi. Iqtisodiy qonunlar deganda, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi doimiy takrorlanib turadigan o‘zaro bog‘liq aloqalar tushuniladi. Jamiyatning, shuningdek iqtisodiy subyektlarning rivojini quyidagi qonunlar tizimi aniqlab beradi: qiymat qonuni, talab qonuni, taklif qonuni va boshqalar.

Rivojlangan ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Ishlab chiqarish kuchlari - bu mehnat

[6] Минаков И.А. и др. Экономика сельского хозяйства. М.: Колос, 2009. 14с.

qilish jarayonida ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltira oladigan insonlardir.

Uchinchidan, iqtisodiyot – bu fan. Ushbu fan o‘zining tadqiqot obyektlari va ko‘lamiga ko‘ra quyidagi qismlarga bo‘linadi: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, korxona iqtisodi, tarmoqlar iqtisodi (sanoat, transport, qurilish, savdo, qishloq xo‘jaligi va boshqalar).

Shuningdek, iqtisodiyot deganda ham fan, ham amaliyot tushuniladi. Iqtisodiyot fani amaliy iqtisodiyotni taqozo etib, quyidagi hayotiy muhim muammolarni hal etish bilan shug‘ullanadi:

- nima ishlab chiqarish - jamiyat ehtiyojini qanday tovarlar va xizmatlar to‘plamini yanada to‘laroq qondira oladi?
- qancha ishlab chiqarish - ishlab chiqarish jarayonida qanday resurslardan va qancha miqdorda foydalanish maqsadga muvofiq?
- qanday ishlab chiqarish- sifat miqdori, usul va vazifalar.
- kim uchun ishlab chiqarish- shaxsiy iste’mol uchunmi yoki daromad olish uchunmi, ishlab chiqarilgan mahsulotni qanday taqsimlash uchunmi?

Ushbu muammolarni bozor iqtisodiyoti sharoitida birmuncha tezroq hal etish mumkin. Chunki bozor iqtisodiyoti ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi erkin almashuvga bog‘liq. Bozor iqtisodiyoti turli mulk shakllariga va ishlab chiqarish o‘rtasidagi erkin raqobatga tayanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning bir to‘xtamga kelishi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning taqsimotini aniqlab beradi. Haqiqiy iqtisodiyot doimo o‘z ichiga bozor va davlat sohalarini oladi, ayrim hollarda davlat tomonidan boshqariladi. Aynan boshqaruv darajasi iqtisodiyotning qanday xususiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fan sifatida tarmoqda iqtisodiy qonunlarning namoyon bo‘lishi, ularning qishloq xo‘jaligi rivojiga ta’siri va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy qonuniyatlarning ishlashini o‘rganadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda turli mulkchilikka asoslangan xo‘jaligi yuritish shakllari paydo bo‘ldi, agrar sohada ko‘ptarmoqli iqtisodiyot shakllandi. Bu esa agrosanoat majmuida ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zgarishiga olib keldi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fani tarmoq fani sifatida bozor sharoitida agrar sohada iqtisodiy munosabatlar tizimini ochib berish vazifasini bajaradi.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti – qishloq xo‘jaligida iqtisodiy qonunlarning amal qilish mexanizmi, agrar sohada ishlab chiqarish

munosabatlarini tadqiq qilishdir. Bundan tashqari, fanning predmeti bo‘lib ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish tamoyillari hamda tovar ishlab chiqaruvchilar amal qiluvchi bozor mexanizmini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti – bu mamlakat qishloq xo‘jaligida turli qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining tashkiliy iqtisodiy shakllari faoliyati.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fan sifatida iqtisodiy nazariyaga tayanadi. Iqtisodiy nazariya fanning metadologik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Fan, avvalo qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilish, ASM iqtisodiyoti, tadbirkorlik, marketing, iqtisodiy statistika, buxgalteriya hisobi fanlari bilan, qolaversa boshqa iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fani ushbu fanlarni o‘rganishning nazariy va uslubiy asosini tashkil qiladi.

Ushbu **fanning asosiy maqsadi** – bozor iqtisodiyotining turli bosqichlarida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha erkin bozor qonun va qonuniyatlarini shakllantirishdir.

Qishloq xo‘jaligining **muhim vazifasi** mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlash hisoblanadi. Ushbu masalani faqatgina qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali hal etish mumkin. Aynan ushbu samaradorlik darajasi aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanganlik darajasini belgilab beradi, shuning uchun ham “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining birinchi galdagi vazifasi bozor sharoitida tarmoqni rivojlashtirishning iqtisodiy asoslarini va xo‘jalik yuritishning samarali usullarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligining rivoji ishlab chiqarish resurslari bilan qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Resurslarning cheklanganligi va taqchilligi sharoitida fan oldida yana bir muhim masala turadi - bu resurslardan to‘g‘ri va samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan moddiy va mehnat xarajatlarini kamaytirish, ya’ni ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish. Shuningdek, agrar sohani isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish, to‘lovga qodir bo‘lmagan korxonalarni qaytadan tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berish kabi muhim masalalarni hal etish fanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fani **tarmoq fani sifatida quyidagi vazifalarni** bajaradi:

- agrar sohada ko‘p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida raqobat muhitini yaratish;

- bozor holati, talab va taklifni tahlil qilgan holda resurslar (yer, kapital, ishchi kuchi, investitsiyalar) bozorini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;
- ilg‘or fan-texnika yutuqlaridan hamda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- qishloq xo‘jaligida investitsion va innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solish darajasi va yo‘nalishlarini iqtisodiy jihatdan asoslab berish.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar har bir hududning xususiyatini hisobga olgan holda hal etilishi lozim. Chunki O‘zbekiston Respublikasining har bir hududi tabiiy-iqlim, iqtisodiy va demografik sharoiti bilan bir-biridan farq qiladi.

1.4. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fanining tadqiqot usullari

Iqtisodiy tadqiqotlar o‘rganishning murakkab jarayoni hisoblanib, o‘z ichiga mavzuni asoslash, maqsad va vazifalarni belgilab olish, tahlil qilinadigan obyektlarni tanlab olish, tadqiqot natijalarini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish kabilarni qamrab oladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar asosida uslubiyat yotadi.

Fanning uslubiyati bu –ilmiy bilimning tamoyillari, tizimi, yo‘llari va qonun-qoidalaridir. Tadqiqotlarning nazariy va uslubiy asosini mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari hamda iqtisodiy fan yutuqlari tashkil kiladi.

Uslubiyat fan tomonidan qo‘llanilayotgan usullarga tayanadi. Uslubiyat umumilmiy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘zining predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilim usullariga ega bo‘ladi. Shuning uchun uslubiyat umumilmiy va xususiy bo‘ladi. **Umumilmiy usullar:** iqtisodiy-statistik, monografik, hisob-konstruktiv, balans, iqtisodiy- matematik usullardir.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti fanini o‘rganishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Ilmiy abstraksiya usuli. Ushbu usulda o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tibor qaratilib, tahlil vaqtida chalg‘itishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalar fikrdan chetlashtiriladi (masalan, talab qonuni o‘rganilayotgan vaqtda faqatgina talab va baho o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinib, boshqa holatlar-davlatning narx siyosati, raqobat, bozorning to‘yinganlik darajasi va boshqalar e’tiborga olinmaydi).

Induksiya va deduksiya usuli bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan, ammo o‘zaro bog‘liqlikdagi fikrlash usulidir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga qarab harakati induksiya, aksincha umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon harakati deduksiya deb ataladi. Induksiya va deduksiya usullari gipoteza haqidagi fikrlarni ilgari suradi. ***Gipoteza***-biror bir voqea-hodisaning ilmiy nazariya bo‘la olishi uchun uni tajribada sinab ko‘rish va nazariy jihatdan asoslab berish uchun beriladigan ilmiy taklifdir.

Taqqoslama tahlil usuli. Eng yaxshi natijalarga erishish maqsadida xususiy va umumiy ko‘rsatkichlarni taqqoslash. Tadbirkor o‘zi qilgan xarajatlar bilan raqiblarining xarajatlarini solishtirishi, muqobil variantlarni topib taqqoslab borishi kerak. «Xarajatlar-natija» singari mashhur bo‘lgan yondashuv ham taqqoslama tahlil usuliga asoslanadi.

Eksperiment (tajriba) usuli. Bu usul tabiiy fanlarda asosiylardan hisoblanib, iqtisodiy voqea-hodisalarni o‘rganishda keng qo‘llaniladi. O‘rganilayotgan voqea-hodisaga omillar ta’sirini, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishda qo‘llaniladi. Qishloq xo‘jaligida mehnatga haq to‘lash, xo‘jalik hisobi, ijara pudrati va boshqalarda eksperimentlar o‘tkazilgan.

Hisob-konstruktiv usuli. Kelajakda muammoni hal etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini aniqlab beradi. Ushbu usul agrosanoat majmui (ASM) tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

Iqtisodiy-matematik usuli o‘z ichiga matematik statistika, ishlab chiqarish funksiyalari va iqtisodiy-matematik modellashtirilishini oladi va h.k.

Asosiy tushunchalar

Iqtisodiyot - cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalangan holda insonlar uchun zarur hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste’molchiga yetkazib berishga qaratilgan faoliyatlar birligini ta’minlovchi iqtisodiy tizim.

Birinchidan, iqtisodiyot - bu jamiyatni moddiy boyliklar va xizmatlar bilan ta’minlovchi iqtisodiyot tarmoqlarining majmuidir. Ikkinchidan, iqtisodiyot - bu ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan ishlab chiqarish munosabatlaridir. Uchinchidan, iqtisodiyot - bu fan. Shuningdek, iqtisodiyot deganda ham fan, ham amaliyot tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti - mahsulot ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Qishloq xo‘jaligi - moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xom-ashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi asosan ikkita yirik

tarmoq - dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha aholi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradi.

Qishloq xo‘jaligining muhim vazifasi - mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashdir. Ushbu masalani faqatgina qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali hal etish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti - fan sifatida tarmoqda iqtisodiy qonunlarning namoyon bo‘lishi, ularning qishloq xo‘jaligi rivojiga ta’siri va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy qonuniyatlarning ishlashini o‘rganadi.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti - qishloq xo‘jaligida iqtisodiy qonunlarning amal qilish mexanizmi, agrar sohada ishlab chiqarish munosabatlarini tadqiq qilishdan iborat.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining tadqiqot obyekti - bu mamlakat qishloq xo‘jaligida turli qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining tashkiliy iqtisodiy shakllari faoliyatidir.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining asosiy maqsadi - bozor iqtisodiyotining turli bosqichlarida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha erkin bozor qonun va qonuniyatlarini shakllantirishdir.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ning tarmoq fani sifatidagi vazifalari - agrar sohada ko‘p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish; qishloq xo‘jaligida raqobat muhitini yaratish; bozor holati, talab va taklifni tahlil qilgan holda resurslar bozorini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish; ilg‘or fan-texnika yutuqlaridan hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish; qishloq xo‘jaligida investitsion va innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish; qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solish darajasi va yo‘nalishlarini iqtisodiy jixatdan asoslab berish.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanning uslubiyati - ilmiy bilishning tamoyillari, tizimi, yo‘llari va qonun-qoidalardir. Fanning uslubiyati umumilmiy va xususiy bo‘ladi.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanini o‘rganish usullari - ilmiy abstraksiya usuli, induksiya va deduksiya usuli, taqqoslama tahlil usuli, eksperiment (tajriba) usuli, hisob-konstruktiv usuli, iqtisodiy-matematik usuli.

Ilmiy abstraksiya usuli - ushbu usulda urganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tibor qaratilib, tahlil vaqtida chalg‘itishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalar fikrdan chetlashtiriladi.

Induksiya usuli - fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga tomon harakati.

Deduksiya usuli - fikrning umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon harakati.

Taqqoslama tahlil usuli – eng yaxshi natijalarga erishish maqsadida xususiy va umumiy ko‘rsatkichlarni taqqoslash.

Eksperiment (tajriba) usuli -tabiiy fanlarda asosiylardan hisoblanib, iqtisodiy voqea-hodisalarni o‘rganishda keng qo‘llaniladigan usul.

Hisob-konstruktiv usuli - kelajakda muammoni hal etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini aniqlab beradigan usul.

Iqtisodiy-matematik usuli - o‘z ichiga matematik-statistika, ishlab chiqarish funksiyalari va iqtisodiy-matematik modellashtirishni oladigan usul.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) - yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Respublika qishloq xo‘jaligi jahon iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi?
2. Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi?
3. Qishloq xo‘jaligining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
4. Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini amalga oshirishdagi xususiyatlar nimalardan iborat?
5. Hukumatning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlari nimalardan iborat?
6. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasi, deganda nimani tushunasiz?
7. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining import va eksport potensiali deganda nimani tushunasiz?
8. Qishloq xo‘jaligida rivojlangan davlatlarning tajribasini qo‘llash imkoniyatlari nimadan iborat?
9. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
10. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining qanday tadqiqot usullari mavjud?

II-BOB. JAHON, RESPUBLIKA QISHLOQ XO‘JALIGI, UNING JOYLASHISHI, IXTISOSLASHISHI, JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA RIVOJLANISHI

O‘quv maqsadi: Qishloq xo‘jaligini jahon, respublika hududlarida maqsadga muvofiq joylashtirish, samarali ixtisoslashtirish hamda kooperatsiyalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini, gorizontal hamda vertikal integratsiyalashtirishning mazmunini, joylashtirish, ixtisoslashtirish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *Joylashtirish, ixtisoslashtirish, kooperatsiya-lashtirish, mehnat taqsimoti, agrosanoatni integratsiyalashtirish, gorizontal va vertikal integratsiya, ixtisoslashtirish darajasi.*

2.1. Qishloq xo‘jaligini joylashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish mehnatning ijtimoiy bo‘linishi geografik (hududiy) bo‘linishining bir shakli bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlaridan yuzaga keladi. Umumiy ko‘rinishda u o‘zida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini hududlar bo‘yicha ma’lum prinsiplar asosida va qator omillar ta’sirida shakllangan tabiat, ijtimoiy, demografik, siyosiy sharoitlarga ko‘ra taqsimlanishini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish – bu alohida tur mahsulotlar ishlab chiqarishni mamlakatning respublika, viloyat va tumanlar bo‘yicha taqsimlash bo‘lib, jarayon uzoq davom etuvchi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ko‘ra o‘zgaruvchandir. Qishloq xo‘jaligini eng to‘liq joylashtirilishini ushbu hududda ma’lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi va u yoki bu turdagi yalpi va tovar mahsulotlarining umumiy hajmidagi alohida hududlarning hissasi kabi ko‘rsatkichlar bilan izohlanadi.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari birligiga uni ishlab chiqarish hajmini o‘stirishdagi mehnat va mablag‘lar sarfini minimallashtirish.Yerdan moddiy mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ushbu hududda boshqalarga nisbatan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng kam tannarxini ta’minlashi kerak. Bu tamoyilni hayotga tatbiq etish uchun O‘zbekiston Respublikasidagi subyektlar, iqtisodiy tumanlari, tabiiy zonalarining ko‘p yillik ma’lumotlari bo‘yicha jiddiy tahlillar o‘tkazishni taqozo etadi.
- Bozor talablarini hisobga olish. O‘ta talabgir bo‘lgan mahsulotni bozorga joylashtirish, hududda yuzaga kelgan ishlab chiqarish shartlari, past rentabelli

mahsulot ishlab chiqarish paydo bo‘lmasligini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi va konsentratsiyalashuviga mos holda amalga oshirilishi kerak[7].

- Hudud iste’molchilarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini-o‘zi ta’minlash darajasini mehnatni hududlararo va xalqaro bo‘linishi bilan bog‘liqligini hisobga olish kerak. Hududda alohida tur mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish, ularning ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berilishini ta’minlash lozim.
- Qishloq xo‘jaligi va sanoat rivojlanishining optimal mutanosibligi. Qayta ishlash korxonalarini arzon xom-ashyo ishlab chiqariladigan zonalarga joylashtirish, ularni xom-ashyo zonasi bilan ta’minlash, shu bilan birga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini iste’molchilarga yaqinlashtirish va yirik shaharlar, sanoat markazlari yaqiniga joylashtirish. Bu esa yetkazib berish xarajatlarini minimallashtirib mahsulotlar yo‘qotishlarini kamaytirishga imkon beradi.
- Transport xarajatlarini qisqartirish, yo‘l tarmoqlarining rivojlanishi, temir yo‘l masofalarining, suv yo‘llarining yetarlicha uzunligi qishloq xo‘jaligi korxonalarini oqilona joylashtirish imkonini beradi, ishlab chiqarish tannarxi past bo‘lgan tumanlardan mahsulotlarni aholi zich joylashgan iste’mol joylariga yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- Mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlab, uning importga bog‘liqlikdan chiqishiga yordam berishini ta’minlaydi.
- Mahsulotlar ishlab chiqarishning muntazam ravishda o‘sishi uchun uni mehnatlar sarfi kamayishiga erishiladigan hududlarda amalga oshirish kerak. Shu maqsadda qator yillar dinamikasida zonalar bo‘yicha iqtisodiy tumanlar, hududlarning mahsulot birligiga mehnat sarfi va moddiy pul xarajatlari tahlil qilinishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirishning asosiy mezoni- mehnat sarfini maksimal darajada tejashdir.

Mamlakat hududi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini joylashtirilishini baholash uchun bu jarayon ta’sirida yuz beradigan asosiy omillarni ajratish kerak.

Ishlab chiqarishni joylashtirish omili deb, xo‘jalik obyekti (korxona) yoki respublika tarmog‘i, iqtisodiy hudud, shuningdek hududiy ishlab chiqarish majmualari joylashadigan kuchlar yig‘ilgan joyni hisobga olish qabul qilingan.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirishning asosiy omillari:

- hududning tabiiy potensiali;
- yer bilan ta’minlanganlik (hudud aholisi jon boshiga to‘g‘ri keladigan haydaladigan shudgor, ozuqa yerlari ajratilgan holda qishloq xo‘jaligi yerining maydoni);

[7] Киселёв С.В. и др. Сельская экономика. М.: Инфра-М, 2008. 110 с.

- qishloq xo‘jaligi ekinlarining tarkibiy o‘zgarishlari va mahsulot diversifikatsiyasini hisobga olgan holda joylashtirish;
- mahsulot sotish bozorlariga nisbatan xo‘jalikning joylashgan o‘rni;
- xom-ashyolarni saqlash va transport vositalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
- aholining tabiiy, tarixiy malakalarini hisobga olgan holda hududning ish bilan ta’minlanganligi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash va mukammallashtirish;
- hududda mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi.

Qishloq xo‘jaligining tabiiy potensiallarini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: tuproq sifati, quyosh kunlari davomiyligi, faol harorat miqdori (issiqlik bilan ta’minlanganlik), umumiy quyosh radiatsiyasi (yorug‘lik bilan ta’minlanganlik), namlash sharoiti yog‘ingarchiliklar miqdori, suv resurslari bilan ta’minlanganlik, ob-havo sharoitining qaytarilishi ehtimoli (qurg‘oqchilik, sovuq urishi, shamol va suv eroziyasi), joylashish sharoitlari va boshqalar. Ushbu parametrlarning qishloq xo‘jaligida turli tarmoqlarga ta’sir etishi bir xil emas.

O‘simlikchilikda tabiiy sharoitda birinchi navbatda, issiqlikni va namlikni ko‘p talab qiluvchi paxta, g‘alla va poliz ekinlarini joylashtirish imkoniyatlari belgilanadi. Bunga nisbatan uncha katta bo‘lmagan maydonlarda don uchun makkajo‘xori, sabzavotlarning ba’zi turlari (baqlajon, bodring), mevali ekinlar (o‘rik, shaftoli, sitrus mevalar, uzum)ni joylashtirishga bog‘liq. O‘stirishga tabiiy potensiallari uncha bog‘liq bo‘lmagan va tabiat sharoitlari jiddiy farqlanadigan hududlarda yetishtiriladigan ekinlarda hosildorlik mahsulot sifati, xarajatlar darajasi (lalmi va kuzgi bug‘doy, qand lavlagi, kungaboqar) keskin farq qiladi.

Chorvachilikni joylashtirishda tabiiy omillar uncha jiddiy ta’sir qilmaydi, ta’sir asosan ozuqa ekinlariga bo‘lishi mumkin. Bu omilga eng ko‘p bog‘liq bo‘lgani yaylovda boqiladigan chorvachilik (qo‘ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik va boshqalar)dir. Bunda asosiy omil - yaylovlarning mavjudligi, ularning o‘lchami, o‘simliklari tarkibi, ulardan foydalanish davrining davomiyli hisoblanadi.

Tabiiy sharoitlar bilan bir qatorda mehnatning hududlararo bo‘linishiga ta’sir etuvchi muhim omil - mamlakat yoki hududning oziq-ovqat bilan ta’minlanadigan aholisi sonining qishloq xo‘jaligi yer maydoniga va mahsulot eksporti orasidagi nisbatidir. Ushbu omilning miqdoriy tasnifi yer bilan ta’minlanganlik, ya’ni yaylov, o‘tloq, ko‘p yillik ko‘chatlar ajratilgan holda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonidir.

Mamlakatning iqtisodiy hududlari orasida yer bilan eng ko‘p ta’minlangani Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro, Qaraqalpog‘iston bo‘lib, ularda aholi jon boshiga 2,4 ga qishloq xo‘jaligi yerlari, shu jumladan 1,5 ga shudgorlanadigan yer to‘g‘ri keladi. Eng kam ta’minlangani Farg‘ona vodiysi -0,44 ga qishloq xo‘jaligi ekin yerlari va 0,22 shudgorlanadigan yerlar to‘g‘ri keladi.

Binobarin, iqtisodiy tumanlar ichida ularning hududiy kengligi va tabiiy-iqtisodiy sharoitlarining sezilarli xilma-xilligi tufayli yer bilan ta’minlanganligida ham jiddiy farqlar bilinadi. Bu farqlar oziq-ovqat va xom-ashyo bog‘liqliklarini iqtisodiy zonalar orasidagina emas, ularning tarkibiga kiruvchi subyektlar orasida ham rivojlantirish zaruratini belgilab beradi. Hududlarni xususiy ishlab chiqarish hisobiga oziq-ovqat bilan ta’minlash talab darajasi va strukturasi bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichlar aholi daromadlari, milliy va maishiy an’analari, demografik strukturasi, oziq-ovqatlarning yetarliligi, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarining o‘lchamiga ham bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ba’zi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini nisbatan yuqori darajada iste’mol qilinishi kuzatila boshlandi. Ba’zi hududlarda non va non mahsulotlari, go‘sht, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste’molining ortib ketgani, o‘simlik yog‘i, sabzavotlar, mevalar iste’moli kamaygani bilan farqlanadi.

Gollandiyada yalpi ichki mahsulotning 3%i qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushiga to‘g‘ri keladi, shu jumladan chorvachilik tarmog‘i mahsulotlari ulushi 55%, issiqxona mahsulotlari 35% va o‘simlikchilik mahsulotlari ulushi 10% ni tashkil etadi. Mamlakatda 113 mingta fermer xo‘jaliklari faoliyat olib boradi, ushbu fermer xo‘jaliklarida chorvachilik, o‘simlikchilik va issiqxona mahsulotlari yetishtiriladi. Birgina sut ishlab chiqarish bo‘yicha Gollandiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining 10% ini tashkil etadi.

Jahon savdo tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra dunyo bo‘yicha eksport qilinayotgan tovarlar tarkibida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushi 2005-2013 yillarda 3,5% ni tashkil etgan bo‘lsa, jami jahon bo‘yicha tovar mahsulotlari ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligining ulushi ushbu yillar davrida 2,5%ni tashkil etgan[8].

Korxonaning joylashish o‘rni - qishloq xo‘jaligini joylashtirishning muhim omillaridan biridir. Tarmoqlar mahsulotlari saqlanish va transportirovka qilinish xususiyatlari bilan farqlanishi sababli bu omilni yetkazib berish, transport yo‘llari, saqlash joylari, qayta ishlash korxonalarining joylashuvi kabi omillar bilan bir vaqtda ko‘rib chiqish kerak.

Temir yo‘llar, suv yo‘li, transport vositalari bilan ta’minlanganligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish, maxsus korxonalarni chuqurlashtirish, tovarlarni iste’molchilarga yetkazib berish muddatlarini kamaytirish va shu bilan yuklarni tashish bo‘yicha xarajatlarni sezilarli qisqartirish imkonini beradi.

Transport vositalari va aloqa yo‘llarining rivojlanishi ko‘p tonnali va tez buziladigan mahsulotlarni saqlanish va qayta ishlash joylariga zudlik bilan

[8]International Trade Statistics 2011.WTO.Geneva, 2011. P. 19; International Trade Statistics 2014. WTO.Geneva, 2014.P. 21.

yetkazishni talab qiladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni joylashtirilishida muhim rol o‘ynaydi. Birinchi navbatda bu sut, sabzavot, uzum, meva va kartoshka kabi mahsulot turlariga tegishli.

Nooqilona tashishga yo‘l qo‘ymaslik uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish yirik shaharlarning atrofida jamlanadi, qayta ishlash korxonalarini esa (meva konserva qilinadigan, vinochilik va boshqalar) xom-ashyo ishlab chiqariladigan joylarga yaqinroq joylashtirish maqsadga muvofiq. Bu bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda yo‘qotishlar kamayishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga erishiladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishlarini joylashtirishda alohida e’tibor hududlardagi mehnat resurslaridan samarali foydalanishga qaratilishi lozim. Aholisi zich joylashgan zonalarda fond va energiya bilan ta’minlanish kerakli darajada bo‘lganda unday joylarga mahsulot birligiga sezilarli mehnat sarfi talab qilinadigan chorvachilik va dehqonchilikning intensiv tarmoqlarini joylashtirish kerak. Mehnat resurslari mavjudligini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkillashtirishning xo‘jalik yuritish tizimi, tarmoqlar strukturasi, tarkibiy o‘zgarishlar, ekin maydonlari va boshqa elementlari hisobga olinishi zarur.

Qishloq xo‘jaligini oqilona joylashtirish ushbu hududda yashovchi aholining tabiiy-tarixiy urf-odatlaridan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini joylashtirish iqtisodiy samaradorlikning asosiysi - yer maydoni birligidan chiqadigan mahsulot va yalpi daromad, mahsulot birligiga moddiy-pul va mehnat sarfi, daromad va rentabellikdir.

Qishloq xo‘jaligi islohotlarini jadallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi F-4058-sonli Farmoni asosida vazirlik tizimidagi korxonalarning samarali barqaror faoliyatini ta’minlash;
- qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suvdan tejamli foydalanish texnologiyalarini qo‘llash;
- har bir hududning tuproq va iqlim sharoitini, kutilayotgan suv tanqisligi hamda iqlimdagi global o‘zgarishlarni hisobga olgan holda sohada amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarning samaradorligini oshirish, urug‘lik va seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, mahsuloti xaridorgir bo‘lgan navlarini tanlash va joylashtirish, resurs-tejamkor, samarali agrotexnologiyalarni joriy etish;
- ekologik toza va raqobatbardosh sabzavot, poliz, kartoshka, meva va uzum yetishtirishni modernizatsiyalash, yangilarini tashkil etish yo‘li bilan aholining qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘laroq qondirish, ularning eksport hajmini oshirish.

2.2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishning shakl va ko‘rsatkichlari

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish asosiy turdagi mahsulotlarni va hajmini oshirish va barcha agrosanoat majmuining iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi mehnatning ijtimoiy taqsimlanishisifatida, alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarishning ustuvorligi sifatida, ba’zanesa tayyor mahsulot ishlab chiqarishdagi alohida bosqichining bajarilishi sifatida ifodalanadi. Bu eng avvalo, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan obyektiv dinamik jarayondir.

Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega:birinchidan, moddiy va moliyaviy resurslarni raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga jamlash (konsentratsiyalash) imkonini beradi; **ikkinchidan,** ilmiy-texnika taraqqiyoti, tarmoq rivojlanishining sanoat yo‘liga o‘tishi uchun zarur sharoit yaratadi; **uchinchidan,** mehnatni tashkil etish shaklini mukammallashtirishga imkon beradi; **to‘rtinchidan,** ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi oshishiga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish tarmoqlar xususiyatlariga bog‘liq: takror ishlab chiqarishning iqtisodiyot va biologik qonunlarini qo‘shib yuborish, ishlab chiqarishning mavsumiy va hududiy xarakteri, mahsulotlarning ko‘p turlarining qisqa muddatlarda kelib tushishi, tez buziladigan mahsulotlarning katta hajmi, mahsulotlar va boshqa ayrim narsalarning bir tekisda iste’mol etilishi. Bu xususiyatlar ixtisoslashuvning shakllariga sur’ati va umuman butun jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligida mehnatning bo‘linishi sanoatdagidek chuqur bo‘lishi mumkin emas, chunki unda ixtisoslashuv bilan bir qatorda, mahsulotlarning alohida turlari bo‘yicha, texnologik jarayonlar bo‘yicha ham mehnatni bo‘lish amalga oshiriladi. Uncha ko‘p bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishgina tor doirada ixtisoslashgan korxonalarga jamlanib, butunlay mustaqil sifatida ajratilishi mumkin. Bunga parrandachilik fabrikalari, mol va qo‘y go‘shti yetishtirish uchun bo‘rdoqiga boqish komplekslari, issiqxona, uzumchilik va bog‘dorchilik xo‘jaliklari kabilar kiradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini ixtisoslashtirish uning rivojlanishiga yordam beruvchi yoki rivojlanishini to‘xtatib qo‘yishga olib keluvchi ko‘plab omillar ta’siri ostida yuz beradi.

Ixtisoslashuvning chuqurlashuviga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish asosida texnikalar, texnologiyalarni mukammallashtirish va shu asosda ishlab chiqarishni tashkil etish, yaxshi yo‘l transport kabilarning mavjudligi yordam beradi. Korxonalar yuqori darajada ixtisoslashgandagina qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalashni amalga oshirish, ishlab chiqarish va mahsulotlarni qayta ishlashning intensiv va

tejamkor texnologiyalarini joriy etish, mehnatning tashkil qilishning ilg‘or shakllaridan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Ixtisoslashishni kechiktiradigan omillar – bu yerdan, suvdan, texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanmaslik, o‘zini-o‘zi ta’minlashga intilish, qo‘shimcha mahsulotlardan foydalanish, xo‘jalikning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash zarurati kabilardir. Bundan tashqari, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlarda ixtisoslashuvni chuqurlashtirishning zarur texnik asoslari yo‘qligi ham ta’sir ko‘rsatadi.

O‘simlikchilikda tor doirada ixtisoslashuv samarasiz, chunki ko‘pgina dala ekinlari mavjud agrotexnika qoidalariga ko‘ra, biologik shartlariga ko‘ra, har yili bir joyga ekilavermaydi. Ularni almashlab ekish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga yer massivlarining tabiiy maydalanishi, tuproq tarkibi, relyefi va boshqa belgilari bo‘yicha ularning bir uchastkadan turlicha xo‘jaligi yuritishda foydalanishni talab qiladi va bu ma’lum ekin va tarmoqlar yig‘indisiga ega bo‘lish zaruratini keltirib chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini ixtisoslashtirish asosiy yoki yetakchi tarmoqni ajratish va ularning ustuvor rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Ixtisoslashuvning chuqurlashuvi quyidagilar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- tovar ishlab chiqarish tarmoqlari sonining qisqarishi;
- intensivlashtirish asosida asosiy tarmoqda ishlab chiqiladigan mahsulotlar hajmini oshirish;
- asosiytarmoq tovarliligini oshirish.

Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuvning qu‘yidagi shakllari mavjud: zonalar bo‘yicha, xo‘jaliklararo, xo‘jalik ichidagi va tarmoq ichidagi.

Zonalar bo‘yicha ixtisoslashuv - bu mehnatning geografik bo‘linishi. U qishloq xo‘jaligining hududiy joylashuvini aks ettiradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish natijalarining iqlim va tuproq sharoitlariga bog‘liqligi mehnatning geografik bo‘linishi zaruratini keltirib chiqaradi. Yirik hududlar (iqtisodiy tumanlar, xo‘jaliklar, viloyatlar) tabiiy-iqlim sharoitga moslashuvi yetarli bo‘lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

Xo‘jaliklararo ixtisoslashuv - bu o‘zida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar orasida mehnatining ijtimoiy taqsimlanishini aks ettiradi. Bozor sharoitida xo‘jaliklar iqtisodiy jihatdan foydali mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashadilar.

Xo‘jalik ichidagi ixtisoslashuv - bu mehnatning xo‘jalik ichidagi bo‘limlar (bo‘linmalar, sexlar, fermalar) orasida bo‘linishi. Bo‘limlar mavjud resurslarni hisobga olib, bitta yoki bir nechta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Xo‘jaligi ichidagi ixtisoslashuv qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining strukturasi bo‘yicha belgilanadi.

Tarmoq ichida ixtisoslashuv - turli korxonalarga jamlangan bir bosqichdagi yakuniy mahsulot keyingi bosqichdagi ishlab chiqarish uchun dastlabki bo‘ladigan texnologik sikllarni alohida bosqichlarga bo‘lib tashlashga

asoslanadigan ixtisoslashuv. Ixtisoslashuvning bu shakli ko‘proq chorvachilikda keng tarqalgan. Masalan, parrandachilikda tuxum ishlab chiqarish inkubator xo‘jaligi, go‘sht broyler xo‘jaligilari bo‘yicha korxonalar bor. Xo‘jaligi ichida ixtisoslashuv bo‘yicha yaratilgan hamma xo‘jaliklar odatda tor doirada ixtisoslashgan bo‘ladi. Korxonalarning xo‘jaligi ichida ixtisoslashuvi ishlab chiqarishning intensivlashtirish va konsentratsiyalash sharoitlaridagina muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Ixtisoslashuv xo‘jaligi ishlab chiqarishining bosh yoki asosiy tarmoqlari yo‘nalishlari bo‘yicha aniqlanadi (paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, g‘alla-chorvachilik va boshqalar). Korxonaning ishlab chiqarish yo‘nalishi oxirgi uch yildagi qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari strukturasi bo‘yicha aniqlanadi.

Xo‘jalikdagi yer, suv, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida bir nechta tarmoqning rivojlanishiga erishiladi.

Qishloq xo‘jaligi mehnatining ijtimoiy taqsimotini boshang‘ich bosqichida faqat ikki tarmoq-dehqonchilik va chorvachilik mavjud bo‘lgan. Keyinchalik o‘simlikchilik va chorvachilik turidagi mahsulot ishlab chiqarishning mustaqil tarmoqlari paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, qo‘ychilik kabilar ham ajralib chiqdi.

Iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari asosiy, qo‘shimcha va yordamchi tarmoqlarga bo‘linadi.

Asosiy tarmoqlar deyilganda xo‘jalik iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydigan va tovar mahsulotda eng ko‘p taqqoslama og‘irlikka ega bo‘lgan tarmoqlar tushuniladi. Ularning orasidan tovar strukturasidagi ulushi 50% dan oshgani asosiy tarmoq sifatida ajralib chiqishi mumkin.

Qo‘shimcha tarmoqlar - asosiy tovar mahsulotiga o‘xshaydi, lekin ular xo‘jalik iqtisodiyotida kamroq ahamiyatga ega, u asosiy tarmoqlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu tarmoqlar mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalanish va qo‘shimcha foyda olish imkonini beradi.

Yordamchi tarmoqlar - notovar, asosiy va qo‘shimcha tarmoqlar rivojlanishiga yordam beradi, masalan, ozuqa ishlab chiqarish.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridan boshqa yordamchi ishlab chiqarish (ta’mirlash ustaxonalar, avtogarajlar, suv va energiya ta’minoti va boshqalar), qo‘shimcha sanoat ishlab chiqarish (qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha qurilish materiallari, taralar va boshqalar) bo‘lishi mumkin. Yordamchi ishlab chiqarishning vazifasi shundaki, u butun tarmoq va bo‘linmalarning to‘xtovsiz ishlashini ta’minlaydi. Yordamchi ishlab chiqarish qish davrida mehnat resurslaridan to‘liqroq foydalanish va qo‘shimcha foyda olishga ham yordamlashishdir.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari tarmoqlarining oqilona ixtisoslashishi quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- minimal mehnat va mablag‘ sarfi bilan maksimal daromad olish uchun raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarish;

- tuproq-iqlim sharoitini hisobga olish;
- texnologiya va tashkiliy tomondan bir-biriga bog‘liq tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish, paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik va asalarichilik, issiqxona va ochiq tuproqdagi sabzavotchilik ishlab chiqarishi (parrandachilik, bog‘dorchilik va sabzavotchilik, ikkala tarmoq ham sermehnat lekin bularning qo‘shib olib borilishi iqtisodiy jihatdan oqlangan);
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining tarkibiy o‘zgarishlaridan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini oshirish;
- mehnat, suv resurslari va texnika vositalaridan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishning mavsumiyligini yengillashtirish va yil davomida pul mablag‘larining maqbul holda tushishini ta’minlash (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun optimal yer maydonlarining o‘lchami[9]

№		2015 yil 1 oktabr holatida		2015 yil 1 dekabr optimallashtirish natijasida		Farq			
		jami fermer xo‘jaligi, soni	o‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	jami fermer xo‘jaligi, soni	o‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	fermer xo‘jaligi, soni		o‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni	
						soni (+,-)	%	ga (+,-)	%
1	Qoraqal. Resp.	3691	80,6	4802	58,7	1111	30,1	-21,9	-27,2
	Viloyatlar:								
2	Andijon	7251	29,8	8538	25,6	1287	17,7	-4,2	-14,2
3	Buxoro	4632	44,4	5273	39,0	641	13,8	-5,4	-12,1
4	Jizzax	7784	55,7	10073	43,2	2289	29,4	-12,6	-22,6
5	Qashqadaryo	10756	51,2	12373	44,8	1617	15,0	-6,4	-12,4
6	Navoiy	1814	48,3	2519	35,6	705	38,9	-12,7	-26,2
7	Namangan	5523	35,7	7397	26,9	1874	33,9	-8,9	-24,8
8	Samarqand	10952	36,9	12641	32,1	1689	15,4	-4,8	-13,1
9	Surxondaryo	5447	45,5	6108	41,2	661	12,1	-4,4	-9,6
10	Sirdaryo	5097	48,6	5459	46,1	362	7,1	-2,5	-5,2
11	Toshkent	6272	53,3	9418	29,6	3146	50,2	-23,7	-44,4
12	Farg‘ona	8805	31,3	10420	26,1	1615	18,3	-5,2	-16,6
13	Xorazm	5490	36,9	6049	33,8	559	10,2	-3,1	-8,4
14	**Jami**	**83514**	**43,9**	**101070**	**36,1**	**17556**	**21,0**	**-7,8**	**-17,8**

[9]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

2.2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklarini ixtisoslashtirish natijalari, (2015 yil)[10]

№	Respublika va viloyatlar	Jami fermer xo‘jaliklari		shu jumladan									
				Paxtachilik va g‘allachilik		Sabzavotchilik va polizchilik		Bog‘dorchilik va uzumchilik		Chorvachilik		Boshqa yo‘nalishlar	
		Soni, birlik	O‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	Soni, birlik	O‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	Soni, birlik	O‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	Soni, birlik	O‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	Soni, birlik	O‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	Soni, birlik	O‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4802	58,7	3732	69,3	223	9,8	250	8,5	388	43,0	209	9,7
	Viloyatlar:												
2	Andijon	8538	25,6	3868	45,7	509	6,3	2443	8,0	460	20,6	1258	7,5
3	Buxoro	5273	39,0	3707	50,8	87	7,2	777	7,5	630	16,2	72	10,7
4	Jizzax	10073	43,2	7216	55,8	419	9,1	1490	5,7	714	24,3	234	8,7
5	Qashqadaryo	12373	44,8	8656	56,9	726	8,9	1985	5,8	797	54,3	209	6,3
6	Navoiy	2519	35,6	1393	57,3	17	6,9	684	8,1	297	12,3	128	5,5
7	Namangan	7397	26,9	3451	49,1	120	7,2	3049	5,8	227	25,7	550	8,9
8	Samarqand	12641	32,1	8556	41,3	428	6,7	2522	9,3	563	36,9	572	9,6
9	Surxondaryo	6108	41,2	3297	65,3			1777	7,8	814	25,0	220	9,5
10	Sirdaryo	5459	46,1	4255	56,1	17	6,8	544	7,9	300	21,5	343	6,4
11	Toshkent	9418	29,6	4788	47,2	339	9,0	3437	5,5	587	48,8	267	9,0
12	Farg‘ona	10420	26,1	4180	52,7	672	8,3	4667	6,6	331	33,4	570	7,6
13	Xorazm	6049	33,8	3596	49,9	98	8,7	1105	5,5	464	24,0	786	9,0
14	**Respublika bo‘yicha**	**101070**	**36,1**	**60695**	**52,7**	**3655**	**8,1**	**24730**	**6,8**	**6572**	**31,2**	**5418**	**8,3**

[10]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida tarmoqlar qo‘shilishining ilmiy asoslanganligi, o‘simlikchilik va chorvachilikning turlicha tarmoqlari orasida ishlab chiqarishning maqsadi, xo‘jalikning o‘ziga xos xususiyatlari, tabiiy-iqtisodiy sharoitlar hisobi, joylashgan joyi, qishloq xo‘jaligi ekin yerlarining strukturasidan kelib chiqib, optimal variantni topish bilan bog‘liq (2.2.2-jadval).

Korxona ixtisoslashuvining asosiy ko‘rsatkichlari - uning darajasi va ixtisoslashuv koeffitsiyenti hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashtirish yo‘nalishi ularda yetishtirilgan tovar mahsulotining strukturasiga qarab aniqlanadi.

Ixtisoslashtirish darajasiga ko‘ra, xo‘jaliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Tor ixtisosli xo‘jalik;

2. Ixtisoslashgan xo‘jalik;

3. Ko‘p ixtisosli (tarmoqli) xo‘jalik.

Birinchi guruhga qoidaga asosan tarkibida bitta tarmog‘i bo‘lib, uning tovar mahsulot strukturasidagi ulushi 90-100 foizni tashkil qilgan xo‘jaliklar kiradi (parrandachilik fabrikasi, bug‘doychilik komplekslari, baliqchilik, issiqxona, meva ko‘chati yetishtirish va shunga o‘xshash xo‘jaliklar).

a) tarkibida bitta asosiy tarmoq bo‘lib, uning tovar mahsulotidan nisbati 50 % dan yuqori bo‘lgan xo‘jaliklar kiradi (paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, parrandachilik xo‘jaliklari);

b) tarkibida ikkita asosiy tarmoq bo‘lib, ularning har biri tovar mahsulotidagi nisbati 20 % dan kam bo‘lmay, birgalikda tovar mahsulotining yarmidan ko‘proq qismini tashkil qilgan xo‘jaliklar kiradi (don-paxtachilik, don-chorvachilik, sabzavot-sutchilik, bog‘dorchilik-uzumchilik);

v) tarkibida uchta asosiy tarmoq bo‘lib, ular xo‘jalik tovar mahsulotini to‘rtdan uch qismini tashkil qilgan hamda tarkibida bir nechta yordamchi tarmoqlar bo‘lgan xo‘jaliklar kiradi (don-paxta-chorvachilik, don-kartoshka-chorvachilik va hokazo).

Ixtisoslashtirishning rivojlanishi xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishi samaradorligi oshishining asosini tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi tizim ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi:

- 1 gektar qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer hamda asosiy va aylanma vositalarning har bir so‘mi hisobiga to‘g‘ri kelgan yalpi va tovar mahsulot qiymati;
- bir sentner mahsulot yetishtirish uchun sarflangan mehnat sarfi (odam-soat);
- bir sentner mahsulot tannarxi, so‘m;

• bir gektar qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer hisobiga to‘g‘ri kelgan daromad miqdori, so‘m.

Korxonaning ixtisoslashuv darajasi **(Yc)** tovar mahsulotlari strukturasidagi asosiy tarmoqning ulushi bilan aniqlanadi.

$$Y_c = \frac{C_{at}}{C_{tm}}.$$

Bu yerda: C_{at} - asosiy tarmoq tovar mahsuloti qiymati, so‘m; C_{tm} – jami tovar mahsuloti qiymati, so‘m.

Ixtisoslashgan asosiy tarmoqning barcha tovar mahsulotdagi ulushi 50% dan ortiq bo‘lsa, ikkita asosiy tarmog‘i bo‘lib, ulardan har biri 25 % dan kam bo‘lmagan korxonalar kiradi. Uch va undan ko‘p tarmoqqa ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonalari ko‘p tarmoqli yoki ixtisoslashmagan deyiladi.

Korxonaning ixtisoslashganini xarakterlovchi boshqa ko‘rsatkich - ixtisoslashuv koeffitsiyenti:

$$K_c = \frac{10_0}{\Sigma Y_i(2_i - 1)}.$$

Bunda Y_i – alohida tarmoqlar tovar mahsulotlarining ulushi %; i– realizatsiyadan tushgan tushum su‘mmasidagi ulushi bo‘yicha zanjirlangan qatordagi tovar mahsuloti turining tartib raqami, 0,2 dan kam koeffitsiyent ixtisoslashuvning past darajasini 0,2 dan 0,4 gacha o‘rtacha 0,4 dan 0,6 gacha yuqori, 0,6 dan yuqori bo‘lsa chuqur ixtisoslashuvni bildiradi. Faqat bir turdagi tovar mahsulotlari ishlab chiqariladigan monotarmoqli korxonalarda ixtisoslashuv koeffitsiyenti 1 ga teng.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ixtisoslashganini xarakterlovchi bilvosita ko‘rsatkichlar sifatida tarmoqlar ekin maydonlari bo‘yicha moddiy-pul va mehnat xarajatlari strukturalaridan foydalaniladi.

Mamlakatning ko‘pgina iqtisodiy tarmoqlarida ixtisoslashgan ham, ko‘p tarmoqli xo‘jaliklar ham keng tarqalgan. Xo‘jalikning har bir turi o‘z yutuqlari va kamchiliklariga ega. Ixtisoslashtirilgan korxonalarda odatda ishchi kuchi, texnikalar, kapital qo‘yilmalar, ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun yaxshi sharoitlar yaratilgani, butun e’tiborni moliyaviy va moddiy resurslarni ma’lum turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga qaratish, shu yo‘l bilan xo‘jalik faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkoni tug‘iladi. Bundan tashqari, tabiiy ofatlar, bozor konyunkturasining o‘zgarishi kabi xavflar ham paydo bo‘lishi mumkin.

Misol. Ixtisoslashtirish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni sifatli va raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Gollandiyada fermer xo‘jaliklari tor

doirada ixtisoslashgan bo‘lib, jami 113 ming fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha yer maydoni 9-10 gektarni tashkil etadi, shundan 15000 tasi issiqxonaga, 12000 tasi kartoshkachilikka, 44000 tasi chorvachilikka, o‘simlikchilikka va issiqxona xo‘jaliklariga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari hisoblanadi. Ayrim fermer xo‘jaliklari ikki turdagi mahsulot, ya’ni naslli buqa urug‘i va kartoshka yoki g‘alla va kartoshka, chorva va yem-xashak yetishtiradi. Ayrimlari esa faqat gul yoki ekinlar urug‘ini yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari va h.k.

AQSHning barcha shtatlaridagi fermer xo‘jaliklari u yoki bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ixtisoslashgan. Ko‘pgina fermer xo‘jaliklari o‘simlikchilik yoki chorvachilik sohasiga ixtisoslashgan. Shunday fermer xo‘jaliklari ham mavjudki, 3-5 turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiradi. Ixtisoslashuv tabiiy-iqlim sharoitiga hamda fermer xo‘jaliklarining joylashuviga bog‘liqdir. Agar ular shaharlar yaqinida joylashgan bo‘lsa, sabzavot, kartoshka va mevachilikka ixtisoslashadi va h.k.

Ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarda tabiiy ofat va bozor konyukturasidan keladigan xavf birmuncha pasayadi. Bu yerda yil davomida mehnat resursi va asosiy vositalardan bir tekis foydalanish mumkin. Tarmoqlarni oqilona qo‘shish qo‘shimcha mahsulotlardan ozuqa sifatida va tuproq unumdorligini oshirish uchun to‘liqroq foydalanish imkonini beradi. Biroq, ko‘p tarmoqli xo‘jalik ko‘p sonli turli-tuman texnikalarni, kapital qo‘yilmalarni, turli malakadagi ishchilarni talab qiladi, ulardan foydalanish uchun uncha yaxshi sharoit yaratib bera olmaydi.

Nobarqaror bozor sharoitlarida ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarning mahsulotlarini sotish ancha iqtisodiy barqaror bo‘lib chiqdi. Ayniqsa, faqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilangina emas, uni saqlash, qayta ishlash, ya’ni agrosanoat turi bo‘yicha rivojlanayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalarigina barqaror va samarali ishlaydi.

Ko‘pgina qishloq xo‘jaligi korxonalari anchagina rentabelli va cheklanmagan savdo bozori mavjud bo‘lganidek, o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshladi (g‘alla, sabzavot, meva va boshqalar). Chorva bosh sonining qisqarishi ozuqa ekinlari ekilishining qisqarishiga mos holda almashlab ekish buzilishiga olib keldi. Ayrim xo‘jaliklar bir yoki ikkita tovar ekinlarini yetishtira boshladilar. Natijada, bularning hammasi xo‘jalik iqtisodiga salbiy ta’sir etadi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni samarali ixtisoslashtirishnigina emas, shuningdek uni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli ishlab chiqarishlarni korxona doirasida birlashtirishni ifodalovchi diversifikatsiyalanishini ham ko‘zda tutadi (firmalar, assotsiatsiyalar va boshqalar). ***Ishlab chiqarish va mahsulot diversifikatsiyasi farqlanadi.***

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan ko‘pgina turdagi ishlab chiqarishlarning bir vaqtda rivojlanishi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar turini kengaytirish.

Mahsulotlarni diversifikatsiyalash - bir xildagi mahsulotni turma-tur sonini ko‘paytirish. Mahsulotlarni real diversifikatsiyalash alohida iste’molchilarning u yoki bu qiziqishlariga javob beradi. Biroq yondosh diversifikatsiya ham mavjud bo‘lib, bunda tovarning sifat tasnifi o‘zgarishsiz qoladi, faqat dizayn va qadoqlash o‘zgaradi, bozorda esa yangi tovar sifatida qimmatroq narxda taklif etiladi. Mahsulotlar diversifikatsiyasi bozorlarda turg‘un talab va taklifga nisbatan kuchli raqobatga ega.

2.3. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni konsentratsiyalash

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini konsentratsiyalash o‘zida ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish kuchlarining yirik korxonalarga to‘planishini bildiradi. Konsentratsiyani chuqurlashtirish - yirik ishlab chiqarishning maydalari oldida ustunligi haqidagi amaldagi iqtisodiy qonunga bog‘liq obyektiv jarayondir. Yirik qishloq xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligi yuqori, mahsulot birligiga kamroq xom-ashyo sarflanadi, unga mehnat sarfi va tannarx pastroq, ishlab chiqarish esa rentabelliroqdir. Ammo qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yiriklashtirish cheksiz davom etmaydi: ishlab chiqarish kuchlarining har bir bosqichdagi rivojlanishida chegaralar mavjud va bunda konsentratsiyaning samaradorligi keskin pasayadi. Bu yirik ishlab chiqarishning maydalariga nisbatan ustuvorlik qonuni qishloq xo‘jaligida mutloq ahamiyatga ega emas.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni konsentratsiyalash quyidagi bir necha yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin:

- markazlashtirish asosida, ya’ni bir necha mayda korxonalarni bitta yirigiga qo‘shib yuborish;
- intensivlashtirish yo‘li bilan - o‘zgarmaydigan ekin yer maydoniga qo‘shimcha qo‘yilmalar hisobiga qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishning ko‘payishi yuz beradi;
- korxona ixtisoslashuvini chuqurlashtirish hisobiga - sanoat texnologiyalari va mehnatni tashkil qilishning ilg‘or formalarini qo‘llash asosida ma’lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish;
- yer va ishlab chiqarishning boshqa vositalarini ijaraga olish asosida - ko‘pgina fermerlar qishloq xo‘jalik ekin yerlarini ijaraga olish hisobiga o‘z xo‘jaliklari o‘lchamini kengaytiradilar;
- agrosanoat integratsiyasini rivojlantirish hisobiga – bu korxona doirasida ishlab chiqarishni saqlash va qayta ishlashni tashkil qilish, binobarin, yetishtirilgan hamma mahsulotlardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi.
- konsentratsiya darajasi ishlab chiqarish hajmi bilan xarakterlanadi.

Agrosanoat ishlab chiqarishi ko‘rsatkichlari hajmi - yalpi va tovar mahsulot qiymati, qishloq xo‘jaligi ekin maydoni, shu jumladan, haydaladigan yerlar (yaylovlar), ko‘p yillik ko‘chatlar, asosiy ishlab chiqarish fondining qiymati,

energitika resurslari va texnikalar mavjudligi, ishchilar soni, chorva moli bosh soni va boshqalar.

Korxonalar va ularning ishlab chiqarish bo‘linmalari o‘lchamining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida yalpi mahsulot qiymatini hisoblash lozim bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich korxonaning ixtisosi joylashuvi, ishlab chiqarishining jadalligi va boshqa o‘ziga xos xususiyatlariga qaramay, o‘lchami bo‘yicha taqqoslashga imkon beradi. Korxona o‘lchamlarini taqqoslash uchun yalpi mahsulotni taqqoslama narxlarda, boshqa holatlarda esa joriy narxlarda ham aniqlash mumkin.

Korxonaning yuqorida sanab o‘tilgan o‘lchamlari ko‘rsatkichlaridan qo‘shimcha sifatida foydalanish mumkin. Tovar mahsulotlar qiymati ma’lum darajada korxonaning butunicha o‘lchami tasnifi uchun zarur, lekin ishlab chiqarish bo‘linmalari o‘lchamlarini aniqlashda bu ko‘rsatkichlardan foydalanilmaydi. Qishloq xo‘jalik korxonasi va uning bo‘linmalari o‘lchamini ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tabiiy holda ifodalangan hajmi bo‘yicha aniqlash mumkin. Shu bilan birga mahsulot ishlab chiqarish hajmi natural holda ham, qiymat ko‘rinishida ham natijaviy ko‘rsatkichdir. Unga qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi, ekin maydonlarining hajmi, chorva mollarining mahsuldorligi, chorva mollari bosh soni va boshqalar ta’sir ko‘rsatadi.

Xo‘jalik va uning bo‘linmalari hajmining eng muhim ko‘rsatkichi ishlab chiqariladigan mahsulot hajmiga bevosita ta’sir o‘tkazadigan qishloq xo‘jaligi ekin maydoni hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich asosida korxonaning mehnat resurslariga, asosiy va aylanma mablag‘larga, kapital qo‘yilmalariga talabi aniqlanadi, u shuningdek, chorva molining bosh sonining miqdori asoslarida ham hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishning hajmiga asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Lekin asosiy ishlab chiqarish fondlarini har yili qayta baholashga to‘g‘ri keladi. Bu asosiy fondlar qiymatining ortishiga, ba’zan esa, hatto ularni natural ko‘rsatkichlarda qisqarishiga ham olib keladi.

Ishchilar soni korxonaning hajmini yetarlicha aniq ifodalaydi. Qishloq xo‘jaligida kichik korxonalarga 10 nafargacha ishchisi bor korxonalar kiradi, sanoatda-100, ulgurji savdoda-50, chakana savdoda-30 nafargacha ishchi bo‘lsa, kichik korxona hisoblanadi.

Chorvachilik korxonasining hajmi ma’lum darajada chorva bosh sonining miqdori bilan ifodalanadi. Chorva mollarining soni va mahsuldorligi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmini belgilaydi. Chorvaning bosh soni hisobi bilan xo‘jalikning ishchi soniga, chorvachilik inshootlari, ozuqalarga talabi hisoblab chiqiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining hajmi ko‘pgina omillarga bog‘liq .Ular:

- davlatning agrar siyosati, tabiiy-iqlim sharoiti, korxonaning ixtisoslashuvi, ASM tarmoqlari moddiy-texnika bazalarining rivojlanishi, mehnat va yer-suv resurslari bilan ta’minlanganligi va boshqalar;

- mulk shakli va xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari isloh qilinganda qishloq xo‘jaligidagi xususiy sektorga, yani fermer xo‘jaliklarini yiriklashtirishga yo‘l qo‘yildi;

2.3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida paxtachilikka va g‘allachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining optimal yer maydonlari o‘lchami[11]

№	Respublika va viloyatlar	2015 yil 1 oktabr holatida		2015 yil 1 dekabr optimallashtirish natijasida		Farq			
		jami fermer xo‘jaligi, soni	o‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	jami fermer xo‘jaligi, soni	o‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, ga	fermer xo‘jaligi, soni		o‘rtacha 1 fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni	
						soni (+,-)	%	ga (+,-)	%
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2710	100,8	3732	69,3	1022	37,7	-31,5	-31,2
	Viloyatlar:								
2	Andijon	3119	56,4	3868	45,7	749	24,0	-10,8	-19,1
3	Buxoro	3190	57,7	3707	50,8	517	16,2	-6,9	-11,9
4	Jizzax	5330	72,0	7216	55,8	1886	35,4	-16,1	-22,4
5	Qashqadaryo	7431	65,0	8656	56,9	1225	16,5	-8,2	-12,5
6	Navoiy	1129	70,3	1393	57,3	264	23,4	-13,0	-18,5
7	Namangan	2648	62,9	3451	49,1	803	30,3	-13,8	-21,9
8	Samarqand	7355	47,8	8556	41,3	1201	16,3	-6,5	-13,6
9	Surxondaryo	2784	75,7	3297	65,3	513	18,4	-10,4	-13,8
10	Sirdaryo	3438	63,2	4255	56,1	817	23,8	-7,2	-11,3
11	Toshkent	3435	75,2	4788	47,2	1353	39,4	-28,0	-37,2
12	Farg‘ona	3040	72,4	4180	52,7	1140	37,5	-19,8	-27,3
13	Xorazm	2655	63,3	3596	49,9	941	35,4	-13,4	-21,1
14	**Jami**	**48264**	**65,1**	**60695**	**52,7**	**12431**	**25,8**	**-12,4**	**-19,0**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15dekabrdagi 362-sonli qarori asosida fermer xo‘jaliklari ixtiyoridagi yer uchastkalari maydonlarini optimallashtirish natijasida ularning yer maydonlari optimallashtirildi (2.3.1-jadval).

Korxonalar va ularning bo‘linmalari o‘lchamlari uchun ixtisoslashuv hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ixtisoslashuvning chuqurlashishi xo‘jalik o‘lchamining kengayishiga yordam beradi. Bunda tarmoqdagi mehnat sig‘imi va mexanizatsiyalashuv darajasi ham muhim o‘rin tutadi.

[11] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Ammo ayrim tarmoqlarda (sabzavotchilik, bog‘dorchilik, kartoshka yetishtirish va boshqalar) mehnat sig‘imi yuqori (sermehnat) va mexanizatsiyalashtirish darajasining pastligi ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirishni sekinlashtiradi, shu jumladan, korxonani yiriklashtirishni ham.

Tabiiy-iqlim sharoiti mamlakatning iqtisodiy tumanlardagina emas, shuningdek, aniq tuman chegarasida ham ko‘rinadi. Shuning uchun turli iqtisodiy tumanlarga joylashgan bitta ishlab chiqarish yo‘nalishidagi xo‘jaligi o‘lchami bo‘yicha keskin farqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining va bo‘linmalarining o‘lchamlari oqilona bo‘lishini asoslashda omillarning hamma kompleksi hisobga olinishi kerak.

2.4. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv va konsentratsiyalashning iqtisodiy samaradorligi

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalashning iqtisodiy samaradorligi tizim ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi:

- qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi, s/ga;
- chorva hayvonlarining mahsuldorligi, kg, gramm, h.q;
- bir gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan yalpi mahsuloti va tovar qiymati, so‘m;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarining 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan yalpi va tovar mahsuloti qiymati, so‘m;
- bir-birlik mahsulot yetishtirish uchun sarflangan mehnat sarfi (odam-soat, odam-kun);
- mahsulotlarning turlari bo‘yicha tannarxi, so‘m;
- mahsulotlar sotishdan olinadigan daromadlar, so‘m;
- bir gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydonlariga to‘g‘ri keladigan daromad miqdori, so‘m;
- mahsulotlarning rentabellik darajasi, foizda va h.k.

Ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar ishlab chiqarishda ixtisoslashuv va konsentratsiyalashni optimal darajagacha chuqurlashtirish iqtisodiy samaradorlikning oshishiga yordam beradi.

Ixtisoslashtirilgan va yirik korxonalarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yuqoriroq iqtisodiy samaradorligiga jadal va resurslarni tejovchi va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash, mehnatga haq to‘lashni tashkil qilish va to‘lashning ilg‘or shakllarini qo‘llash hamda mavjud ishlab chiqarish resurslaridan (yer, suv, texnika, ishchi kuchi va boshqalar) oqilona foydalanish hisobiga erishiladi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash hozirgi davrda keng rivojlandi. Ko‘p turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashgan yirik fermer xo‘jaliklari yaratildi: paxta, g‘alla, sut, go‘sht va yirik shoxli qoramollarni bo‘rdoqiga boqish, parrandachilik, baliqchilik, limonchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik va boshqalar. Amalda yirik chorvachilik komplekslari deyarli ishlatilmayapti, ularning o‘rnida fermer xo‘jaliklari barpo etildi.

Yuzaga kelgan sharoitda ko‘plab ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklar (paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, chorvachilik va boshqalar) ishlab chiqarish yo‘nalishlarini o‘zgartiradi. Natijada qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotlarining paxta-100%, g‘alla-90%, sabzavot-40% fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat yirik fermer xo‘jaliklari samarali faoliyat ko‘rsatadi. Ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. Masalan, AQShda yirik fermalar (yillik mahsulot realizatsiya qilish hajmi 250 ming dollardan yuqori) barcha fermer xo‘jaliklari sonining 5,3% ni tashkil etib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 50% ga yaqinini ta’minlaydi. Ularning ishlov beriladigan yerdagi va kapital qiymatidagi ulushi mos ravishda 24,7 va 22,1 % ga teng. Hamma fermer xo‘jaligining 80,4 % ni tashkil etuvchi mayda fermalarga 100 ming dollargacha realizatsiya qilingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 25% dan kamrog‘i to‘g‘ri keladi. Ular ishlov beriladigan hamma yerning 47,7% ni band qiladilar va kapitalning umumiy qiymatidan 54,1 % ga egalar. Bu mahsulotlar AQSH qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni konsentratsiyalash yuqori darajadaligidan dalolat beradi.

AQSH fermalarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ularning o‘lchami kengayib, yirik fermer xo‘jaliklarining maksimumiga yetishi bilan ortib bormoqda. Ularda 1 ga yer maydoni va 100 doll. kapitalga mos holda realizatsiya qilingan mahsulotning 649 va 48 doll. to‘g‘ri keladi va bu mayda fermalardagiga nisbatan 5 va 8 marta ko‘p.

Mamlakatimizdagi va xorijdagi yirik hamda ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining ish tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirmay va konsentratsiyalashtirmay turib, qishloq xo‘jaligida inqirozning oldini olish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin emas. Yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlarda agrasanoat integratsiyasi asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yagona texnologiya asosida ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan yirik agrosanoat korxonalarida integratsiyalanmaganlarga nisbatan iqtisodiy samaradorlik yuqori. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yetishtirilgan hamma mahsulotlari, shu jumladan, nostandart, tez buziladigan va transportirovkasi kamlaridan ham oqilona foydalanish imkonini beruvchi qayta ishlovchi sex va saqlash

omborlarining mavjudligi sezilarli ta’sir qiladi. Bundan tashqari, agrosanoat korxonalarida yil davomida ish kuchidan ancha oqilona foydalaniladi.

Shunday qilib, agrosanoat integratsiyasi asosida ishlab chiqarishni kelgusida ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash mahsulot ishlab chiqarishni sezilarli oshirish, tannarxni pasaytirish, uning sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini yuksaltirishga olib keladi.

2.5. Qishloq xo‘jaligini kooperatsiyalashtirish va agrosanoat majmuasini integratsiyalashtirish

Kooperatsiya o‘zida hamkorlikni ifodalaydi va ko‘plab tashkiliy ishlar orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi – bu qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan o‘zlarining iqtisodiy va boshqa talablarini qondirish maqsadlarida tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi kooperativlari va ularning hamkorlari tizimi.

Qishloq xo‘jaligi kooperativi – bu xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir. U o‘zida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan kooperativ a’zolarining moddiy va boshqa talablarini qondirish maqsadida pay badallarini birlashtirishga asoslangan hamkorlikdagi ishlab chiqarish va boshqacha xo‘jaligi faoliyatyuritish tashkilotlarini bildiradi.



2.5.1-rasm. **Qishloq ho‘jaligi kooperativlarini tashkil etish va shakllanish tamoyillari**

Qishloq xo‘jaligi kooperativlari boshqa kooperativlardan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan tuzilishi bilan farqlanadi.

“Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi” tushunchasi kooperativni qishloq xo‘jaligi maqomiga nisbatan asos soluvchi yetakchisidir. U o‘zi ishlab chiqaradigan mahsulot hajmining 50% dan ortig‘ini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashkil etishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi kooperativlari quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va shakllanadi (2.5.1-rasm).

Bu tamoyillar jahon amaliyotida kooperatsiyaning 150 yillik tarixi davomida ishlab chiqilgan.

Kooperativ a’zolari: asosiy va uyushma shakliga bo‘linadi. **Kooperativning asosiy a’zosi -** kooperativ ustav (nizom)ida belgilangan o‘lchamda va kooperativga ovoz berish huquqi bilan pay badali kiritgan jismoniy va yuridik shaxslar. **Kooperativning uyushma shaklidagi a’zosi** - dividend olish uchun pay badallari kiritadigan, lekin qonunda ko‘zda tutilgan holatlardan tashqari ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan jismoniy va yuridik shaxs.

Kooperativning asosiy a’zolari yoshi bo‘yicha yoki salomatligi tufayli pensiyaga chiqishi, kooperativdan tashqarida saylanadigan lavozimga o‘tganda harbiy xizmatda bo‘lishi va boshqa kooperativ nizomida ko‘zda tutilgan holatlarga ko‘ra, o‘z a’zoliklarini uyushma asosiga qayta rasmiylashtirishi mumkin.

Pay badallarining uchta turi mavjud: kooperativning asosiy a’zolari uchun majburiy va qo‘shimcha hamda kooperatsiyaning uyushma a’zolari uchun pay badallari. Majburiy pay badali kooperativ a’zolar tomonidan majburiy to‘lanadi.

Uyushma a’zolarining pay badali o‘lchami uyushma a’zo bilan tuzilgan shartnomaning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomga mos ravishda aniqlanadi.

Kooperativ faoliyatida ishtirok etgani uchun, uning a’zolari daromadlarning turli xilini oladilar: kooperativ to‘lovlar, dividendlar va ish haqi.

Kooperativ to‘lovlar - kooperativning asosiy a’zolari orasida ularning kooperativdagi shaxsiy mehnat qatnashuvi va uning faoliyatida ishtirokiga ko‘ra taqsimlanadigan daromadning bir qismi.

Dividendlar - asosiy a’zolarning qo‘shimcha paylari va kooperativning uyushma a’zolari paylari bo‘yicha to‘lanadigan kooperativ daromadining bir qismi.

Faoliyatlarini amalga oshirish uchun kooperativ ishchilar kooperativning a’zosi bo‘lmagan va ma’lum mutaxassislik, kasb yoki lavozimga mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha shaxslarni yollash huquqiga ega. Iste’molchilar kooperativlari o‘z a’zolari orasidan ham ishchilar yollashi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi kooperativlari ishlab chiqarish va iste’molchilik shaklida tuzilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish kooperativi - fermerlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo‘yicha hamkorlikdagi faoliyat uchun tuzilgan tijorat tashkilotidir. Shuningdek, u kooperativ a’zolarining shaxsiy mehnat ishtirokiga asoslangan, qonun bilan man etilmagan faoliyatlarni bajarish uchun ham tuziladi.

Ishlab chiqarish kooperativining boshqa o‘ziga xos xususiyati-kooperativning asosiy a’zolarini uning faoliyatida shaxsan mehnati bilan ishtirokidir.

Ishlab chiqarish kooperativi - tijorat tashkiloti bo‘lib, faoliyatining asosiy maqsadi daromad topishdir.

Ishlab chiqarish kooperatorlariga qishloq xo‘jalik korxonalari kiradi.

Kooperativ xo‘jalik dehqon va fermer xo‘jaliklari boshliqlari yoki shaxsiy yordamchi xo‘jalik yurituvchi fuqarolar tomonidan yerga ishlov berish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa faoliyatlarni bajarish uchun tashkil etiladi.

Sanoat va qishloq xo‘jaligi orasidagi aloqa integratsiyalash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Integratsiya ikki turga: gorizontal va vertikal integratsiyalanishlarga bo‘linadi.

Gorizontal integratsiya– o‘zida bitta tarmoq ichidagi korxonalarning o‘zaro aloqasini aks ettiradi. Umumiy ishlab chiqarish masalalarini hal qilish uchun korxonani kooperativlashtirish asosida u rivojlanishga erishadi. Qishloq xo‘jaligiga qo‘llaniladigani - bu qishloq xo‘jaligi korxonalarining harakatlarini kooperatsiya shaklida, mahsulotlarini almashtirish yoki ishlab chiqarishni optimal konsentratsiyalash va ixtisoslashtirish asosida yuqoriroq mehnat unumdorligiga erishish uchun ishlab chiqarishni hamkorlikda tashkil etishdir.

Gorizontal integratsiya bir qancha qishloq xo‘jaligi tashkilotlaridagina rivojlanadi. Masalan, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining bir qismini birlashtirish yo‘li bilan ixtiyoriylik asosida tuzilgan xo‘jaliklararo korxonalar va tashkilotlardir.

Gorizontal integratsiya ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- birinchisi, alohida bo‘lgan, umumiy ishlab chiqarish jarayonida o‘ziga xos vazifani bajaruvchi ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘rtasida amalga oshiriladi;
- ikkinchisi, bir nechta xo‘jaliklarning imkoniyat va mablag‘larini yirik ixtisoslashgan korxona tashkil etish maqsadida birlashtirish.

Gorizontal integratsiya qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarish aloqalarining mukammallashuviga ham ijobiy ta’sir etadi.

Vertikal integratsiya–tarmoqlararoaloqalarning rivojlanishini o‘zaro texnologik jihatdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari va ularni sanoatda qayta ishlab chiqarilishida aloqador bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarish hamkorligining rivojlanishini ifodalaydi. Bu aloqalar darajasi va xarakteri bo‘yicha farqlanishi mumkin, zarur sharti-turli

tarmoqlarning kooperatsiyalanishidir. Vertikal integratsiya agrosanoat degan nom olgan.

Agrosanoat majmuida diversifikatsiyalangan shakllanish rivojlanadi va u o‘z tarkibiga o‘zaro ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan korxonalar va tashkilotlar kiradigan integrallashgan guruhlarni tashkil etadi.

Integratsiyalashgan ishlab chiqarishga o‘tish ishlab chiqarish kuchlari va tarmoqlararo aloqalarning rivojlanish darajasiga obyektiv darajada bog‘liq bo‘ladi. Integratsiya mehnatning tarmoqlararo bo‘linishi asosida yuzaga kelgan tarmoqlararo o‘zaro aloqadorlikning tashkiliy-iqtisodiy shakllari yetarlicha amaliy natija bera olmaydigan va kelgusida ishlab chiqarish samaradorligining oshishini ta’minlay olmaydigan holatda ishlab chiqarish kuchlari alohida bosqichida rivojlana boshlashi yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida qaralishi mumkin.

Agrosanoat integratsiyasi mahsulot sifatining yaxshilanishi, joriy xarajatlar iqtisodi, mahsulot sifatining oshishi va uni iste’molchiga yetkazib berish muddatining qisqarishi natijada aholi talablarining to‘liqroq qondirilishi bilan izohlanadi.

Integratsiyaning samarasi quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- mahsulot hajmining ko‘payishi;
- joriy xarajatlarning o‘zgarmasligi;
- iqtisodiy yalpi mahsulotning ko‘payishi;
- daromad va rentabellik darajalarining oshishi va h.k.

Agrosanoat integratsiyalashuvi quyidagilarga imkon beradi:

- ishlab chiqarishga ilmiy-texnika yutuqlarini va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning jadallashtirilishi, bir xildagi va yuqori sifatli mahsulotlarni optimal ravishda ishlab chiqarish uchun zarur ustuvorliklar yaratish;
- olinadigan qishloq xo‘jaligi xom-ashyolari va qayta ishlash quvvati orasida oqilona mutanosiblikni ta’minlash;
- mahsulotlarning bir texnologik fazadan boshqasiga o‘tishini tezlashtirish;
- ishlab chiqarish sikli hamma sikllarining yagona takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash;
- qayta ishlashda olingan xom-ashyo va chiqindilardan to‘liqroq foydalanish;
- ASMda mavjud ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalaridan samaraliroq foydalanish;
- boshqaruv xodimlari sonini optimallashtirish va ular uchun qilinadigan xarajatlarni kamaytirish;
- narxni shakllantirsh sohasidagi monopolistik strukturalarga qarshi turish;
- tovar ishlab chiqaruvchilarda sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga iqtisodiy imkoniyat yaratish;

- qishloqning ijtimoiy muammolarini jadal sur’atlar bilan hal qilish va boshqalar.

Yuzaga kelayotgan sharoitlarga ko‘ra, integratsiyalanish darajalari bir xil emasligini, tarmoqlarning birlashuvi ko‘pchilik holatlarda qisman integratsiyalanishdan to‘liq integratsiyalanish yo‘nalishi tomon ketayotganligini xarakterlovchi turlicha tashkiliy shakllar yuzaga kelmoqda.

Asosiy tushunchalar

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish – bu alohida tur mahsulotlar ishlab chiqarishning mamlakatni respublika, viloyat va tumanlar bo‘yicha taqsimlash bo‘lib, jarayon uzoq davom etuvchi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ko‘ra o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish tamoyillari:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari birligiga uni ishlab chiqarish hajmini o‘stirishdagi mehnat va mablag‘lar sarfini minimallashtirish;
- bozor talablarini hisobga olish;
- hudud iste’molchilarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini-o‘zi ta’minlash darajasining mehnatni hududlararo va xalqaro bo‘linishi bilan bog‘liqligini hisobga olish;
- qishloq xo‘jaligi va sanoat rivojlanishining optimal mutanosibligi;
- transport xarajatlarini qisqartirish, yo‘l tarmoqlarining rivojlanishi, temir yo‘l masofalarining, suv yo‘llarining yetarlicha uzunligi hisobga olish;
- mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash;
- mahsulotlar ishlab chiqarishning doimiy o‘sishi uchun uni mehnat sarfi kamayishiga erishiladigan hududlarda amalga oshirishni hisobga olish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirishning asosiy mezoni - mehnat sarfini maksimal darajada tejashdir.

Ishlab chiqarishni joylashtirish omili - bu xo‘jalik obyekti (korxona) yoki respublika tarmog‘i, iqtisodiy hudud, shuningdek hududiy ishlab chiqarish majmualari joylashadigan kuchlar yig‘ilgan joyni hisobga olishdir.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirishning asosiy omillari:

- hududning tabiiy potensiali (yer bilan ta’minlanganlik);
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining tarkibiy o‘zgarishlari va mahsulot diversifikatsiyasini hisobga olgan holda joylashtirish;
- mahsulot sotish bozorlariga nisbatan xo‘jaligining joylashgan o‘rni;
- xom-ashyolarni saqlash va transport vositalari bilan ta’minlanganlik darajasi;

- aholining tabiiy, tarixiy malakalarini hisobga olgan holda hududning ish bilan ta’minlanganligi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash;
- hududda mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi.

Korxonaning joylashish o‘rni - qishloq xo‘jaligini joylashtirishning muhim omillaridan biri bo‘lib, tarmoqlar mahsulotlari saqlanish va transportirovka qilinish xususiyatlari bilan farqlanishi sababli bu omilni yetkazib berish, transport yo‘llari, saqlash joylari, qayta ishlash korxonalarining joylashuvi kabi omillar bilan bir vaqtda ko‘rib chiqish lozim.

Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirishning iqtisodiy ahamiyati:

1. Moddiy va moliyaviy resurslarni raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga jamlash (konsentratsiyalash) imkonini beradi.
2. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, tarmoq rivojlanishining sanoat yo‘liga o‘tishi uchun zarur sharoit yaratadi.
3. Mehnatni tashkil etish shaklini mukammallashtirishga imkon beradi.
4. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi oshishiga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv shakllari:

- ***Zonalar bo‘yicha ixtisoslashuv*** - bu mehnatning geografik bo‘linishi. U qishloq xo‘jaligining hududiy joylashuvini aks ettiradi.
- ***Xo‘jaliklararo ixtisoslashuv*** - bu o‘zida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar orasida mehnatining ijtimoiy taqsimlanishini aks ettiradi.
- ***Xo‘jalik ichidagi ixtisoslashuv*** - bu mehnatning xo‘jalik ichidagi bo‘limlar (bo‘linmalar, sexlar, fermalar) orasida bo‘linishi.
- ***Tarmoq ichida ixtisoslashuv*** - turli korxonalarga jamlangan bir bosqichdagi yakuniy mahsulot keyingi bosqichdagi ishlab chiqarish uchun dastlabki bo‘ladigan texnologik sikllarni alohida bosqichlarga bo‘lib tashlashga asoslanadigan ixtisoslashuv.

Iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi tarmoqlari:

Asosiy tapmoqlar deyilganda, xo‘jalik iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydigan va tovar mahsulotda eng ko‘p taqqoslama og‘irlikka ega bo‘lgan tarmoqlar tushuniladi.

Qo‘shimcha tarmoqlar- asosiy tovar mahsulotiga o‘xshaydi, lekin ular xo‘jalik iqtisodiyotida kamroq ahamiyatga ega, u asosiy tarmoqlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Yordamchi tarmoqlar notovar, asosiy va qo‘shimcha tarmoqlar rivojlanishiga yordam beradi, masalan, ozuqa ishlab chiqarish.

Korxona ixtisoslashuvining asosiy ko‘rsatkichlari - uning darajasi va ixtisoslashuv koeffitsiyenti hisoblanadi.

Ixtisoslashtirish darajasiga ko‘ra, xo‘jaliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: tor ixtisosli xo‘jalik, ixtisoslashgan xo‘jalik, ko‘p ixtisosli (tarmoqli) xo‘jalik.

Mahsulotlarni diversifikatsiyalash - bir xildagi mahsulotni turma-tur sonini ko‘paytirish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini konsentratsiyalash - o‘zida ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish kuchlarining yirik korxonalarga to‘planishini bildiradi.

Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi - bu qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan o‘zlarining iqtisodiy va boshqa talablarini qondirish maqsadlarida tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi kooperativlari va ularning hamkorlari tizimi.

Qishloq xo‘jaligi kooperativi - bu xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri bo‘lib, u o‘zida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan kooperatsiya a’zolarining moddiy va boshqa talablarini qondirish maqsadida pay badallarini birlashtirishga asoslangan hamkorlikdagi ishlab chiqarish va boshqacha xo‘jalik faoliyat yuritish tashkilotlarini bildiradi.

Kooperativ faoliyatida ishtirok etgan a’zolarning daromadlari: kooperativ to‘lovlar, dividendlar va ish haqi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish kooperativi - fermerlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo‘yicha hamkorlikdagi faoliyat uchun tuzilgan tijorat tashkilotidir.

Ishlab chiqarish kooperativi - tijorat tashkiloti bo‘lib, faoliyatining asosiy maqsadi daromad topishdir.

Gorizontal integratsiya - o‘zida bitta tarmoq ichidagi korxonalarning o‘zaro aloqasini aks ettiradi. Umumiy ishlab chiqarish masalalarini hal qilish uchun korxonani kooperativlashtirish asosida u rivojlanishga erishadi.

Vertikal integratsiya - tarmoqlararo aloqalarning rivojlanishini o‘zaro texnologik jihatdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari va ularni sanoatda qayta ishlab chiqarilishiga aloqador bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarish hamkorligining rivojlanishini ifodalaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq ho‘jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash-tirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligini jahon va respublika hududida maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda kooperatsiyalashtirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati nimadan iborat?
3. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishning tamoyillari, omillari va turlarini bayon eting.
4. Korxonaning joylashish o‘rni deganda nimani tushunasiz?
5. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuvning qanday shakllari mavjud?
6. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra qanday tarmoqlar mavjud?
7. Mahsulotlarni diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
8. Gorizontal hamda vertikal integratsiyalashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
9. Xo‘jaliklararo kooperatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
10. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish darajasi va samaradorligi qanday aniqlanadi?
11. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalashning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
12. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish, istiqboldagi rivojlantirish yo‘llarini bayon eting?

III-БОБ. RESPUBLIKA AGROSANOAT MAJMUASI VA UNI INQIROZ SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

O‘quv maqsadi: O‘zbekiston Respublikasining agrosanoat majmuasini barpo etishning zarurligini, mumkinligini, uning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarini, respublika agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari hamda tarkibi va bo‘g‘inlarini, uning ilmiy va amaliy asoslarini, agrosanoat majmuasiga oid chet el tajribalari, mamlakat oziq-ovqat va iste’mol majmuasi hamda davlat oziq-ovqat xavfsizligi va istiqbolda bozor talablarini e’tiborga olgan holda rivojlantirish masalalarinio‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *Agrosanoat majmuasi, agrosanoat tarkibi va bo‘g‘inlari, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, xizmat ko‘rsatuvchi soha, mahsulotlarni qayta ishlash, mahsulot iste’molchilari, oziq-ovqat xavfsizligi, iste’mol majmuasi.*

3.1. Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari hamda tarkibi

Agrosanoat majmuasining shakllanishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlarida rivojlanishning chuqurlashuvi, qishloq xo‘jaligi va sanoat aloqalarining kuchayishi bilan bog‘liq. Ushbu atama bizning mamlakatimizda XX asrning 60-yillarida paydo bo‘ldi.

Agrosanoat majmui (ASM) - qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimot, ayirboshlash va iste’moli bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. ASM tarkibiga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash saqlash, sotish ASM uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari kiradi (3.1.1-rasm).

ASMning asosiy maqsadi - mamlakat aholisini sifatli oziq-ovqat va iste’mo tovarlari bilan talab darajasida ta’minlashdir. Bu muammo ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darajasini yuksaltiradi.

Ishlab chiqarish va muomala sohasining turli davrlarida ASM iqtisodiyotning ko‘p tarmoqlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

ASMning asosiy tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ijtimoiy mehnat taqsimotining dastlabki davrlarida qishloq xo‘jaligi faqat dehqonchilik va chorvachilik tarmog‘idan iborat bo‘lgan. Keyinchalik dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha alohida mustaqil tarmoqlar ajralib chiqa boshladi. Bular: paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik,

bog‘dorchilik, qoramolchilik, qo‘ychilik va boshqalar. Bu tarmoqlar ishlab chiqaradigan mahsulot turi, texnologiyasi, ishlab chiqarishni tashkil etish, qo‘llaniladigan texnikalar tizimining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.



3.1.1-rasm. **ASM tarmoq tuzilmasining bir-biridan farq qilishi**

ASM 4ta asosiy sohadan iborat (3.1.2-rasm).

I soha –ASMni ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlaydigan sanoat tarmoqlarini o‘z ichiga oladi: traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, oziq-ovqat va yengil sanoat mashinasozligi, kimyoviy vositalar va mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish, asbob-uskunalar va texnikalar ta’miri, qurilish. Soha hissasiga yakuniy mahsulotning 10 % i, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 15 % i, ASM ishchilarining 20 % i to‘g‘ri keladi.

II soha – qishloq xo‘jaligi bo‘lib, ASM ning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi 80 ta tarmoqdan ishlab chiqarish resurslarini qabul qiladi va o‘z mahsulotlarini 60 ta tarmoqqa tarqatadi. Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan har bir ishchi tarmoqdan tashqarida 5 ta kishining bandligini ta’minlaydi. Ushbu sohada ASM yakuniy mahsulotining 50 % ga yaqini jalb qilingan va ASM ishchilarining 60 % i band.



3.1.2-rasm. **ASMning sohalari va bo‘g‘inlari**

III soha – qishloq xo‘jaligi mahsulotini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, shuningdek, yakuniy mahsulot realizatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi tarmoqlar va korxonalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu sohaga oziq-ovqat sanoati, (sut va go‘sht sanoati), yengil (tekstil, jun-teri va poyafzal), omixta yem sanoati, tayyorlov va savdo tashkilotlari kiradi. Sohaga yakuniy mahsulot umumiy hajmining 40 % i asosiy ishlab chiqarish fondlari va majmua ishchilarining 20 % i to‘g‘ri keladi.

IV soha– ASM da infratuzilma muhim o‘ringa ega. Infratuzilma tarmoqlari ASM ning barcha sohalariga xizmat ko‘rsatadi. Infratuzilma-takror ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi iqtisodiyot tarmoqlar majmuidir.

Yakuniy mahsulot – yalpi mahsulot (tovarlar va xizmatlar) qiymatidan ishlab chiqarish sarfi chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismidir. Yakuniy mahsulot deganda iste’molga chiqib ketadigan mahsulotni tushunish mumkin. Korxona darajasida uning tovar mahsulotdan farqi yo‘q. **ASM da yakuniy mahsulot** deganda majmuaning barcha sohalarida yaratilgan va yakuniy iste’mol hamda eksportga chiqib ketadigan mahsulot tushuniladi.

ASMni jadal sur’atlar bilan rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri, bu to‘rtta sohaning tenglik va mutanosiblikda faoliyat yuritishidir. Sohalar o‘rtasidagi nomutanosibliklar haqida har bir sohaning yakuniy mahsulot qiymatidagi ulushidan bilib olish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda yakuniy mahsulotning asosiy qiymati III-sohada yaratiladi. Bu sohada qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini chiqimsiz qayta ishlash, tayyor mahsulotni saqlash, qadoqlash va o‘rash ta’minlanadi.

Ushbu soha ASM korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirib, katta miqdorda yakuniy mahsulot olishga yordam beradi. Infratuzilma tarmoqlari o‘zi mustaqil mahsulot ishlab chiqarmasa-da, lekin ishlab chiqarishning yakuniy natijalariga ma’lum darajada ta’sir qiladi.

Infratuzilma 4 guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish, ijtimoiy, bozor va institutsional infratuzilmasi. *Ishlab chiqarish infratuzilmasiga* agrosanoat ishlab chiqarishga xizmat qiladigan quyidagi tarmoqlar kiradi: transport, aloqa, moddiy-texnika ta’minoti tashkilotlari, o‘simliklarni himoya qilish, hisoblash markazlari va boshqalar. *Ijtimoiy infratuzilmaga* ishchilarning me’yordagi mehnat faoliyatini ta’minlaydigan va ishchi kuchini takror hosil qilishga xizmat qiluvchi quyidagi tarmoqlar kiradi: uy-joy kommunal xo‘jaligi, tibbiyot va bolalar muassasalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, sport sog‘lomlashtirish, mehnatni muhofaza qilish, dam olish maskanlari va boshqalar. Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari ishlab chiqarishga xizmat qilsa, ijtimoiy infratuzilma aholining turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi. *Bozor infratuzilmaga* ASM tarmoqlarining mahsulotlarini ishlab chiqish uchun bank-moliya muassasalari, tijorat banklari, mini banklar xizmatlari, birjalar va brokerlik idoralari xizmatlari, axborot-maslahat markazlari, reklama agentliklari, auditorlik, konsalting markazlar, tijorat, ulgurji, savdo yarmarka markazlari va sug‘urta tashkilotlari xizmati kiradi. *Institutsional infratuzilmaga* ASM

tarmoqlarini tartibga solib turuvchi davlat organlari, har-xil uyushmalar, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, biznes fond, ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish, kredit uyushmalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari kiradi. Yakuniy mahsulotning to‘liq nooziq-ovqat turlari farqlanadi.

Yakuniy mahsulotning katta qismi oziq-ovqat kompleksida yaratiladi. Bunga oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’molchiga yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan ASM sohalarining barcha tarmoq va tashkilotlari kiradi.

Agrosanoat majmuasi tarkibi maqsad hamda vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi 4 ta bo‘g‘indan tashkil topishi mumkin:

1-bo‘g‘in – agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari.

2-bo‘g‘in –agrosanoat majmuasining asosiy tarmog‘i hisoblangan qishloq xo‘jaligidan tashkil topadi.

3-bo‘g‘in – u qishloq xo‘jaligini tashkil etish hamda rivojlantirishga xizmat ko‘rsatadigan sohalarni o‘z ichiga oladi.

4-bo‘g‘in –unga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va iste’molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, bozor talabini e’tiborga olgan holda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda yetkazib beradigan savdo tarmoqlari kiradi.

Oziq-ovqat majmui o‘z ichiga yana sakkizta tarmoqni oladi: don mahsulotlari, kartoshka mahsulotlari, qand-lavlagi, meva-sabzavot-konserva, uzum-sharbat, go‘sht, sut, yog‘-moy. Sanab o‘tilgan 8 ta tarmoq yagona tashkiliy-huquqiy shaklga ega emas. Chunki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bir necha o‘zaro bog‘liq sohalarning mustaqil korxonalari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston oziq-ovqat tarmog‘ida don, go‘sht va sut, meva-sabzavot, uzum-sharbat ishlab chiqarish tarmoqlariga yetakchilik qiladi. Ushbu tarmoqlarga jami ishlab chiqarilgan mahsulotning 50 % i, asosiy ishlab chiqarish fondlari 20 % i, ishchi-xizmatchilarning 40 % i to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston ASM xududiy agrosanoat majmui (respublika va viloyat) va mikromajmualarga (assosatsiatsiyalar, agrofirmalar, agrosanoat korxonalari, xolding kompaniyalar, birlashmalar, konsernlar) bo‘linadi.

ASM integratsiyasining dastlabki va eng sodda shakli-uncha katta bo‘lmagan qayta ishlash sexlariga ega *xo‘jaliklardir*. Bu xo‘jaliklardagi sanoat tarmoqlari-yordamchi xo‘jalikdir. U agrosanoat korxonalarini tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Agrosanoat korxonalari - ixtisoslashgan tashkilot bo‘lib, ishlab chiqarish sanoati, qayta ishlash va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgan. Agrosanoat qayta tashkil etilishga qadar bunday shakllanishlar agrozavodlar deb atalgan. Ammo tarkibida mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash bo‘linmalari bo‘lgan hamma xo‘jaliklar ham o‘zida bunday korxonani ifodalayvermaydi. Agrosanoat korxonalariga shtatida qishloq xo‘jaligi

mahsulotlarini qayta ishlash, joylashtirish, qadoqlash va saqlash bilan shug‘ullanuvchi va ixtisoslashgan tarmoqlardan birining kamida 25% mahsulotini qayta ishlab berish bilan band bo‘lgan ishchilari bo‘lgan xo‘jalik (ishlab chiqarish kooperativlari, davlat unitar korxonalari, xo‘jalik jamiyatlari va boshqalar)lar kiradi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quyidagi tarzda tashkil etilishi mumkin:

- xususiy yoki kredit mablag‘lari evaziga qayta ishlash sexlarini qurish;
- qishloq xo‘jaligi korxonalarini qayta ishlash korxonalariga qo‘shib yuborish yoki aralashtirish yo‘li bilan birlashtirish;

Agrofirma - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xo‘jalik ichida (xo‘jaliklararo) integratsiyalash asosida ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish asosida ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonadir.

Agrofirmalarning tashkiliy-ishlab chiqarish strukturasi o‘zida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va savdo korxonalarining yagona texnologik, iqtisodiy va tashkiliy majmuasini ifodalaydi. ASM va birlashmalardan farqli ravishda agrofirmalar hududdagi korxona va tashkilotlarning kamroq sonini birlashtiradi.

Qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarish integratsiyalashning eng murakkab shakli- **agrosanoat kombinati**. Bu mahsulot ishlab chiqarish, sanoat ishlab chiqarishi, saqlash, qadoqlash va realizatsiya qilish bo‘yicha ishlab chiqarish xo‘jaligi majmuidir. U kombinat tarmoqlari va ishlab chiqarishni kooperatsiyalash, integratsiyalash va qo‘shish asosida shakllanadi.

Agrosanoat kombinatiga, qoidaga ko‘ra quyidagilar qo‘shiladi: qishloq xo‘jaligi korxonalari, qishloq xo‘jaligi xom-ashyolarini qayta ishlash firmalari, qurilish va transport tashkilotlari, ixtisoslashgan savdo tarmog‘i.

Qayta ishlash sanoatining muvaffaqiyatli rivojlanishi agrosanoat kombinatining atrofida xom-ashyo zonalarini tashkil etish bilan ta’minlanadi. Xom-ashyo bazasini shakllantirish transport taqqoslama xarajatlari va yo‘qotishlarni maksimal darajada qisqartirish imkoniyatlari, tayyorlash, saqlash va tashishda mahsulot sifatini saqlab qolish bilan erishiladi.

Vertikal integratsiya shakllaridan biri - **agrosanoat birlashmalaridir.** U qoidaga ko‘ra, bitta ma’muriy tumandagi qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari asosida tashkil etiladi. Agrosanoat birlashmasi darajasidagi integratsiya qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, transportirovka doirasi, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va realizatsiyasida birlik va balanslashganlikni ko‘zda tutadi.

Alohida tumanlarda yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan agrosanoat birlashmalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda agrosanoat kombinatlari va birlashmalari turida yaratilgan integratsiyalashgan tuzilmalar xolding kompaniyalari shaklida mavjud. Bu holda mulkiy integratsiya bosh korxona aksiyalari nazorat paketlari vositasida qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash, xizmat ko‘rsatuvchi va boshqa tashkilotlarni tashkiliy-moliyaviy birlashtirish asosida yagona tizim yaratiladi.

Xolding birlashmalari kapital bozorni tezroq tovarlar bilan to‘ldirish maqsadidagi yuqori tezlikda harakatlanishini ta’minlaydi.

Xolding kompaniyalari – bu qator qishloq xo‘jaligi, sanoat korxonalari, hamda sovutgich saqlash, transport, hattoki savdo xo‘jaliklari yig‘indisi bo‘lib, ular ayniqsa, meva-sabzavot, konserva, uzumchilik, vinochilik va boshqa ishlab chiqarishda keng tarqalgan (masalan, “O‘zpaxtayog‘sanoateksport”, “O‘zmevasabzavot”, “O‘zbek-oziq-ovqat”, “O‘zagroeksport”).

Agrosanoat ishlab chiqarishini tashkil etishning shakli – ishlab chiqarish tizimlaridir. Ular o‘zlarida ma’lum tur mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, bosh tashkilotning tashkiliy va texnologik rahbarligi ostida o‘zaro mas’uliyat va manfaatdorlik tamoyillari bilan ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalari, innovatsion texnologiyalar asosida faoliyatning boshqa turlari bilan ham shug‘ullanishini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar guruhining shartnomaviy munosabatlarini ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari o‘zaro bog‘liq, lekin yuridik jihatdan mustaqil faoliyat yurituvchi korxonalarni integratsiyalash zarurligi va maqsadga muvofiqligini tasdiqlamoqda. Bunday yo‘nalishlardan biri moliya-sanoat guruhlaridir. Ular tovar va xizmatlar bozori raqobatbardoshligini oshirish va kengaytirishga, ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga, yangi ish joylari yaratishga yordam beruvchi investitsion yoki boshqa loyihalarni amalga oshirish uchun yuridik jihatdan mustaqil shaxslarni iqtisodiy integrallash asosida tuziladi.

Agrar sohada moliya-sanoat guruhini tuzish korxonalarga xizmat ko‘rsatadigan va qayta ishlaydigan qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarini oqilona kooperativlashtirish uchun zarur. Agrosanoat sohasi va moliyaviy strukturalarning korxonalarini integratsiyalashning turlicha variantlari bo‘lishi mumkin.

Hamkorlikdagi faoliyat haqidagi shartnoma asosida **agrosanoat uyushmalari** tuziladi. U sheriklarining xo‘jalik faoliyati muvofiqlashuviga (qishloq xo‘jaligi va qayta ishlovchi korxonalar, savdo tashkilotlari) va ularning ishtirokini mahsulot realizatsiyasidan tushgan foydani taqsimlashda teng foyda ko‘rilishining ta’minlanishiga asoslangan notijorat tashkilotidir. Uyushmalar ikki tur bo‘yicha tuziladi: tarmoq ichida va oziq-ovqat bo‘yicha. Birinchi holatda tarmoq bo‘yicha boshqarishni tiklash, ikkinchi holatda uyushmaning tashkilotlari va a’zolari mos keluvchi soha bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va qayta ishlash korxonalari bo‘ladi.

Amalda esa kam hollarda notijorat sheriklikning tashkiliy-huquqiy shakli ham qo‘llaniladi.

ASM sohasidagi yana bitta integratsiyalanish - konserndir.

Konsern-qatnashuv tizimi, moliyaviy aloqalar, manfaatlar umumiyligi haqidagi shartnomalar vositasida amalga oshiriladigan birlashuv shaklidir. Integratsiyalashgan tuzilmalarga kiruvchi tashkilotlar nominal ravishda mustaqilligicha qoladi, aslida esa yagona xo‘jalik yurituvchi rahbarga

bo‘ysunadi. Parrandachilik fabrikasiga (2 ta broyler, 1 ta tuxumchilik), omixta yem zavodi, bir qancha non (don) bazasi, shuningdek, xususiy savdo tarmog‘i kiradi. Korxonalarni birlashtirish konsernga ishni yagona birlashtirilgan sikl-g‘alla yetishtirishdan parrandachilik mahsulotlarini realizatsiya qilishgacha tuzish imkonini beradi.

Agroklaster – qishloq xo‘jaligining davlat – ilmiy-tadqiqot – qayta ishlash – biznes kabisubyektlarning o‘zaro bozor tamoyillariga mos munosabatlarini mujassamlashtirgan subyekt hisoblanadi.

Agroklasterlar uch xususiyatga asoslanadi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha hududiy ixtisoslashuv va mahalliylashtirish;
- tarmoqning xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar;
- turli tarmoqlar o‘rtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik o‘zaro aloqalarning shakllanganligi.

Agroklasterning mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlari (tuman hokimligi), qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (tuman fermerlar kengashi va dehqonlar), qayta ishlovchi korxonalarning o‘zaro hamkorlikdagi yoki alohida tashabbusi bo‘yicha tashkil etiladi. Uni tashkil etishning muhim jihatlaridan biri ishtirokchilarining birgalikdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish – qayta ishlash – sotish – ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan hamkorlikdagi loyihalarni amaliyotda qo‘llash orqali bir-birlariga ishonchlarining yuqoriligi hisoblanadi.

Koreyada agroklasterlarni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta’kidlagan holda O‘zbekiston sharoitida ham ularni inobatga olish mumkin. Jumladan:

- qishloq xo‘jaligiga davlatning amaliy yordami va qo‘llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishda yetakchiligi;
- tarixiy va milliy an’analardan foydalanib, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo‘nalishlar, masalan agroturizm, mehmonxona xizmati kabilarni shakllantirish;
- hududiy ixtisoslashuv, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish barqarorligini ta’minlash;
- davlat – universitet – ilmiy-tadqiqot – fermer – qayta ishlash – biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o‘zaro mutanosibligini ta’minlash mexanizmi;
- olimlar mavqei va ilmiy-tadqiqot natijalarining samarali ekanligi hamda ularni qo‘llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasidagi mavqeining yuqoriligi;
- yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;
- marketing tizimiga rivojlanganligi, inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi.

Kapitalning konsentratsiyalanish miqyosi ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash imkoniyatlariga ko‘ra bunday tuzilmalar bozor

konyunkturalari tebranishlarida kuchli barqarorlik kasb etadi, u investitsiya resurslarini samarali taqsimlashga qodir, ularni eng rentabelli yo‘nalishlarga jamlay oladi.

3.2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari tarkibi o‘rtasidagi munosabatlar

ASMning samarali faoliyatini ma’lum darajada iqtisodiy munosabatlar tizimi belgilab beradi. ***Iqtisodiy munosabatlar*** – bu ishlab chiqarish jarayonida korxonalarning iqtisodiy manfaatlarini ro‘yobga chiqaruvchi munosabatlar shaklidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016 yil 12 apreldagi qaroriga muvofiq, 2016 yilgi hosildan boshlab ho‘l meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum xarid qilish bo‘yicha davlat buyurtmasi joriy etildi. Ushbu qarorga asosan “O‘zbekoziq-ovqatxolding” kompaniyasi tarkibiga kiradigan xususiy mulk shaklidagi qayta ishlash korxonalarini xom-ashyo bilan barqaror ta’minlash, ichki iste’mol bozorini qish-bahor mavsumida barqaror ta’minlash maqsadida zahiraga g‘amlash, tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan ho‘l meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish vazifalari yuklatildi. Ushbu vazifalar bilan “O‘zbekoziq-ovqatxolding”, “O‘zbekoziq-ovqatzahira” uyushmasi va “O‘zagroeksport” ixtisoslashtirilgan savdo kompaniyasi shug‘ullanadi.

ASM da mahsulot ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va sotish bilan shug‘ullanadigan korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakli bo‘lib xo‘jalik shartnomasi hisoblanadi (3.2.1-rasm).



3.2.1-rasm. **ASMda mahsulot ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va sotish korxonalar o‘rtasidagi shartnoma turlari**

Xo‘jalik shartnomasi – ishlab chiqarish jarayonida ikkala tomonning majburiyatlarini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat orqali korxona va tashkilotlar ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bahosi va ta’riflarini tartibga soladi, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi, sifati buzilganda, tovarlarni sotish muddati o‘tib ketganda tegishli choralar ko‘riladi.

Shartnomada tomonlarning huquq, majburiyatlari, aniq natijalar bo‘yicha javobgarligi aks etadi. Shartnomaning bo‘limlari quyidagicha:

1. Shartnoma sharti.
2. Tomonlarning majburiyatlari.
3. Hisob-kitob tartibi.
4. Shartnoma shartlari bajarilmaganda tomonlarning javobgarligi.
5. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari.

ASM da turli xil shartnomalardan foydalaniladi, jumladan, kontraktatsiya, oldi-sotdi, yetkazib berish, ijara, kredit, mulk sug‘urtasi shartnomasi va boshqalar.

Kontraktatsiya shartnomasi. Bunda qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi yetishtirilgan mahsulotni tayyorlovchiga yetkazib beradi, tayyorlovchi mahsulotni qayta ishlash yoki sotish uchun ushbu tovarni olishi va belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirishi zarur.

Demak, tomonlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchisi va tayyorlovchisidir. Ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxs, tadbirkor, jumladan, dehqon yoki fermer xo‘jaligi rahbari bo‘lishi mumkin. Tayyorlovchi – qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotish yoki qayta ishlash uchun sotib oladigan tadbirkor (tijorat tashkiloti yoki yakka tartibdagi).

Kontraktatsiya shartnomasi kelgusidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun tuziladi (don va paxta). Shuning uchun ham shartnomani tuzish va amalga oshirish muddatlari to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Kontraktatsiya shartnomasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga davlat xaridini amalga oshirishda keng qo‘llaniladi. Bugungi kunga kelib ham bu o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Biroq, yangi iqtisodiy tizim sharoitida qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘z mahsulotini sotishda ko‘proq oldi-sotdi va yetkazib berish shartnomalaridan foydalanmoqdalar.

Oldi-sotdi shartnomasi. Shartnomada bir tomon (sotuvchi) ikkinchi tomonga (sotib oluvchi) tovarni sotishi kerak. Sotib oluvchi esa ushbu tovarni ma’lum narxga sotib olishi kerak. Sotuvchi tovar ishlab chiqaruvchi ham bo‘lishi mumkin yoki ulgurji va chakana tashkilotlar bo‘lishi ham mumkin. Istalgan narsa tovar bo‘la oladi, faqat oborotdan chiqarilgan yoki chegaralanganlardan tashqari (masalan, qishloq xo‘jaligi yerlari). Oldi-sotdi shartnomasi ayni vaqtda sotuvchida mavjud bo‘lgan tovarga yoki kelgusida ishlab chiqariladigan tovarga tuzilishi mumkin. Sotuvchi tovarni shartnomaga

muvofiq nomi, miqdori, sifati, o‘rami, qadoqlanishiga qarab ko‘rsatilgan muddatda va belgilangan joyga yetkazib berishi shart.

Yetkazib berish shartnomasi. Ushbu shartnomaga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan sotuvchi – ta’minotchi (yoki yetkazib beruvchi) kelishilgan muddatda yoki tovar ishlab chiqariladigan yoki sotiladigan muddatda tijorat maqsadlarida foydalanish uchun tovarlarni yetkazib beradi.

Yetkazib berish shartnomasi – bu shartnomaning mustaqil turi emas, balki oldi-sotdi shartnomasining bir ko‘rinishi. Bunda oldi-sotdi shartnomasi singari mulkdorlik huquqi xaridorda bo‘ladi. Shartnomada tovarning miqdori, assortimenti, sifati, bahosi, to‘lov turi, qadoqlanishi va shu kabi sifatlari haqidagi kelishuvlar aks etmaydi.

Biroq, ushbu shartnomaning o‘ziga xos belgilari mavjudki, ular oldi-sotdi shartnomasining boshqa ko‘rinishlarida uchramaydi. Bular: yetkazib berish shartnomasida sotuvchi yetkazib beruvchi sifatida – tadbirkor (tijorat tashkiloti yoki yakka tadbirkor), oldi-sotdi shartnomasida – har qanday jismoniy va yuridik shaxs namoyon bo‘ladi. Ikkinchi muhim belgi – tovarni sotib olish maqsadidir. Yetkazib berish shartomasida tovar tadbirkorlik qilish maqsadida (sanoatda qayta ishlash, keyingi sotuv va boshqalar) sotib olinadi. Ushbu maqsad shaxsiy, uy, oilaviy iste’mol bilan bog‘liq emas. Aksincha, oldi-sotti shartnomasida tovarlar oldi-sottisi shaxsiy va oilaviy iste’mol uchun ham amalga oshiriladi. Shunday qilib, yetkazib berish shartnomasida ikkinchi tomon ham ko‘pincha tadbirkor hisoblanadi. *Ijara shartnomasi* ASM korxonalari xo‘jaligi faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Shartnoma bo‘yicha ijaraga beruvchi ijarachiga mol-mulkni to‘lov evaziga vaqtinchalik egalik qilish yoki foydalanishga berishi lozim.

Ijarachi tomonidan olingan mahsulot va daromadlar shartnomada kelishilganidek, uning mulki hisoblanadi.

Ijaraga ishlab chiqarish jarayonida o‘zining tabiiy xususiyatini yo‘qotmaydigan narsalar beriladi. Bular: yer uchastkalari, korxonalar, bino inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari va boshqalar.

Shartnoma tomonlari – ijaraga beruvchi va ijarachi, ya’ni mol-mulkni ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi tomonlar. Mol-mulkni ijaraga berish huquqi uning mulkdoriga berilgan bo‘lib, bundan tashqari, ijaraga beruvchilar qonun tomonidan ijaraga berish huquqi berilgan shaxslar bo‘lishi mumkin.

Ijara shartnomasi shartnomada belgilangan muddatda tuziladi. Agar muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, unda shartnoma noma’lum muddatga tuzilgan hisoblanadi. Bunday vaqtda har ikkala tomon istalgan paytida shartnomadan voz kechishi mumkin. Shartnomani bekor qilishdan bir oy oldin bir tomon ikkinchi tomonni ogohlantiradi, agar ko‘chmas mulk ijarasi bo‘lsa uch oy oldin ma’lum qilinadi.

Mulkdan foydalanganlik uchun ijara haqi belgilanadi. Shartnomada ijara haqining miqdori, to‘lash tartibi, muddati ko‘rsatiladi.

Komissiya shartnomasi – ho‘l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari “O‘zagroeksport” ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasi tomonidan xorijiy sheriklar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan eksport shartnomalari, shuningdek fermer va dehqon xo‘jaliklari, agrofirmalar va qayta ishlash korxonalari o‘rtasida tuziladigan komissiya shartnomalari hisoblanadi.

ASMning iqtisodiy mexanizmi tovar ishlab chiqaruvchilarni o‘zida mujassam etadi. Asosiy maqsad ularni ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish mexanizm asosini narx va moliya-kredit munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi tashkil etadi. Uning asosiy vositalari– baho, soliqlar, kredit, sug‘urta hisoblanadi.

ASM iqtisodiy mexanizmi qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasidagi teng almashinuvni, mahalliy ishlab chiqarishni samarali rivojlantirish hisobiga mahsulot bozorlarini to‘yintirishni ta’minlab berishi kerak.

Bozor sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka faqatgina iqtisodiy jihatdan asoslangan narx siyosati orqali erishish mumkin. Chunki narx nafaqat bozor muvozanati orqali, balki ishlab chiqarish xarajatlari va har bir tovar ishlab chiqaruvchining iqtisodiy imkoniyatlari uyg‘unligidan tashkil topadi.

Tovar ishlab chiqaruvchi uchun shu narsa muhimki, sotish baholari foyda olish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish imkonini berishi lozim. Biroq ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlari hamma vaqt ham yetarlicha rentabellikka ega emas, ayniqsa chorvachilikda sarflagan mehnat va moddiy xarajatlarni oqlamaydi.

3.3. Agrosanoat majmuasida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari darajasi

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy o‘zaro bog‘lanishi, ya’ni integratsiyalashuvi natijasida mehnat taqsimoti amalga oshirilmoqda. Bu hol agrosanoat majmuasi ixtiyoridagi barcha resurslardan, shu jumladan cheklanganlaridan ham samarali foydalanilishni ta’minlashga, texnika va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga, ishlab chiqarish jarayonlarini tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash hamda mexanizatsiyalashtirishga, avtomatlashtirishga, elektrlashtirishga, kompyuterlashtirishga hamda tarmoqlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Ularning talab darajasida amalga oshirilishi natijasida xaridorgir, raqobatbardosh oziq-ovqat hamda xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ular iste’molchilarga sifatli va qulay usullar bilan yetkazib berilishi natijasida aholining shu mahsulotlar bilan ta’minlanishi darajasi ortib, majmua tarkibidagi tarmoqlarning foydalari ko‘payadi. Natijada agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi yuksaladi.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorlik darajasini qator ko‘rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin.

Jumladan, **respublika agrosanoat majmuasining yalpi mahsuloti,** bu majmua tarkibidagi tarmoqlar korxonalari bir yil mobaynida ishlab chiqargan tayyor mahsulot va ko‘rsatgan xizmatlar miqdoridan tashkil topadi. Yalpi mahsulotning miqdori har bir tarmoq bo‘yicha absolyut, ya’ni natural ko‘rsatkichlar yordamida hisoblanadi (tonna, dona, banka, litr, shisha idishda, tonna.km, et.gektar). Bu ko‘rsatkichlar yordamida agrosanoat majmuasidagi tarmoqlar yalpi mahsulotining miqdori alohida-alohida aniqlanib, avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslanib, tarmoqlarning qanday holatdaligi aniqlanadi. Masalan, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalari 2000 yilda 2286 dona traktor, 206 dona paxta terish mashinalari ishlab chiqargan bo‘lsa, 2015 yilda esa 2340 dona traktor va 540 donadan paxta terish mashinalari ishlab chiqargan. Bu raqamlar shu muddatda tarmoq mahsulotlarining ko‘payib borayotganligini isbotlaydi. Shu yillarda qishloq xo‘jaligida g‘alla yetishtirish 2,8 mln tonnadan 7,3 mln. tonnaga yetgani uning hajmi 2,6 martaga oshganligini ko‘rsatadi. Natijada non va non mahsulotlari ishlab chiqarishi sezilarli darajada ko‘paydi. Paxta xom-ashyosi yetishtirish hajmi 2000-2015 yillarda 3,6 mln. tonnadan 3,3 mln. tonnaga tushgan, ya’ni 9,2 foizga kamaygan. Shuning natijasida, paxta tolasining miqdori ham 1,2 mln tonnadan 1,05 mln tonnaga tushgan yoki 12,5 foizga kamaygan. Bunday hol o‘simlik yog‘i, sovun ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib kelgan. Shu yillarda spirtli ichimliklar ishlab chiqarish nisbatan oshgan.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, …..2020-yilgacha paxta xom-ashyosini yetishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish haqida so‘z bormoqda.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, shunday hajmdagi yetishtiriladigan paxta hosili, bir tomondan, xom-ashyoni o‘zimizda chuqur qayta ishlashni inobatga oladigan bo‘lsak, avvalo, to‘qimachilik va yengil sanoatning ana shu xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini nafaqat to‘la ta’minlaydi, balki O‘zbekistonning jahon bozoriga paxta tolasi va undan tayyorlanadigan mahsulotlar yetkazib beradigan mamlakat sifatidagi mustahkam mavqeini saqlab qolish imkonini ham beradi”.

Lekin bu natural ko‘rsatkichlar agrosanoat majmuasining umumiy holatini ifodalay olmaydi. Buning uchun agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining qiymatini aniqlash lozim. **Yalpi mahsulot qiymati** majmua tarkibidagi barcha korxonalar bir yilda ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarning, ko‘rsatgan xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidan iborat. Ayrim korxonalarda ishlab chiqarilgan ba’zi mahsulotlarning ma’lum bir qismidan korxona ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun foydalaniladi, ma’lum miqdordagisi esa shu yilning o‘zida sotilmay qoladi.

Yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda mahsulotlarning bir necha marta hisobga olinishini bartaraf etish maqsadida agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymat summasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki, qo‘shilgan qiymat – bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste’mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati (amortizatsiya summasidan tashqari) chiqarib tashlanganidan so‘ng qolgan qismining bozor baholaridagi qiymatidir. Majmua yalpi mahsulotining haqiqiy baholardagi qiymatini respublika yalpi milliy mahsuloti tarkibidagi salmog‘ini aniqlab, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi va o‘zgarishini ham aniqlash mumkin. Agarda agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining respublika yalpi milliy mahsulotidagi salmog‘i o‘sayotgan bo‘lsa, yalpi milliy mahsulot oshgan holda majmuaning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni yuksalayotganligidan dalolat beradi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining haqiqiy baholarda hisoblangan qiymatidan shu yildagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, jumladan, ishlab chiqarishning rentabellik darajasini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimini aniqlashda foydalanish mumkin. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining qator yillardagi o‘zgarishini aniqlash uchun uning yalpi mahsuloti qiymatini o‘zgarmas, ya’ni qiyosiy baholarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda qiyosiy baho sifatida 2003 yildagi o‘rtacha baholar olinmoqda. Shu tartibda yalpi mahsulotning qiymati aniqlanib, uni avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslash orqali agrosanoat majmuasi yalpi mahsuloti qiymatining o‘zgarishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, yalpi mahsulot qiymatiga va boshqa ko‘rsatkichlar darajasiga baholar o‘sishining ta’siri bartaraf etiladi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining 2003 yil baholaridagi qiymati majmuaning real yalpi mahsuloti ekanligidan dalolat beradi. Shu real yalpi mahsulot qiymati ko‘rsatkichidan foydalangan holda agrosanoat majmuasida qator yillardagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, sig‘imi kabi ko‘rsatkichlar darajasini aniqlab, ularning o‘zgarishini ham bilib olish, bu ko‘rsatkichlarni majmua tarkibidagi tarmoqlar miqyosida aniqlab, ularning o‘zgarishini tahlil qilish mumkin.

Agrosanoat majmuasining tarmoqlari bo‘yicha mamlakat eksportidagi, ya’ni valyuta tushumidagi salohiyati yoki ulushi. Uni bilish uchun agrosanoat majmuasi tarmoqlaridagi korxonalarning eksport qilgan mahsulotlariga, xizmatlariga olingan valyuta shaklidagi haq tushumlarining bir yillik yig‘indisini aniqlash zarur. Uni yagona valyuta birligida ko‘rsatish uchun AQSH dollarida davlat kursiga binoan aniqlash lozim, kelajakda o‘z mavqesini oshirib borayotgan pul birligida ham hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Agrosanoat majmuasi barcha valyuta tushumining respublika jami valyuta tushumiga nisbati bilan majmuaning salmog‘ini aniqlash mumkin. Hozirgi davrda bu ko‘rsatkichning salmog‘i 60 foizga yaqinlashib qolgan. Shundan 35-40 foizini paxta tolasini sotishdan olinayotgan valyuta tashkil etmoqda.

Hozirgacha ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining 7-8 foizi chetga eksport qilinmoqda. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida yiliga 1200-

1300 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilmoqda, shundan 550-600 ming tonnasi xorijga eksport qilinmoqda. Toshkent paxta yarmarkasi orqali 800 mln. AQSH dollaridan 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida paxta tolasidan tushadigan tushumni tashkil qilmoqda (3.1.1-jadval).

Demak, mamlakat eksport salohiyatini belgilovchi muhim ko‘rsatkich bo‘yicha qishloq xo‘jaligi bilan “O‘zbekoziq-ovqat”, “O‘zbekmeva-sabzavot kartoshka va poliz hamda uzum”, “O‘zagroeksport”, “O‘zpaxtayog‘sanoateksport” xolding kompaniyalarining salmog‘i katta. Bu yaxshi, lekin kelajakda paxta tolasini chetga sotishning maqsadga muvofiq miqdorini saqlagan holda uni qayta ishlab, iste’mol uchun tayyor aholi iste’moli tovarlari eksportga chiqarilishini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida sabzavot, poliz hamda bog‘dorchilik, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirib, olingan sifatli, ekologik jihatdan toza hisoblangan tayyor mahsulotlarni ham xorijiy davlatlarga sotishni rivojlantirishga alohida e’tibor berish vaqti keldi.

Bu muammoni hal etish jarayonida respublikada qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi, yangi ish joylarining tashkil etilishi va savdo sohalarining taraqqiyotini ta’minlanaydi. Natijada nafaqat iqtisodiy, balki aholini ish bilan ta’minlashdek ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan muammo ham ma’lum darajada hal etiladi.

Aholining oziq - ovqat va xalq iste’moli tovarlari bilan ta’minlanganlik darajasi. Bu ko‘rsatkichning mutlaq darajasini aniqlash uchun agrosanoat majmuasida ishlab chiqarilib, iste’molchilarga sotilgan mahsulotlar (turlari bo‘yicha) miqdorini respublika aholisining umumiy soniga taqsimlash lozim. Shunda jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdori aniqlanadi.

3.3.1-jadval

Ayrim agrosanoat mahsulotlari importi va eksporti natijalari[12], %

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2012	2013	2014	2015	2016
Eksport Paxta tolasi	9,3	8,1	7,4	6,5	5,1
Oziq-ovqat tovarlari	6,4	10,3	11,9	12,1	8,5
Import oziq-ovqat tovarlari	9,3	9,6	10,9	11,2	11,9

[12] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Agarda uning miqdori yil sayin ortib, tibbiyot me’yorlariga yaqinlashsa, bu aholining yashash sharoiti yuksalayotganligidan va xalqning farovon hayot kechirishi ta’minlanayotganidan dalolatdir.

Agrosanoat majmuasi, tarmoqlari va korxonalarda foydalanilayotgan, sarflanayotgan ishlab chiqarish fondlarining, qilinayotgan xarajatlarning samaradorligi. Bu ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun agrosanoat majmuasining yalpi mahsulotini milliy mahsulotini hamda sof foyda summasini ishlab chiqarish fondlariga, xarajatlar summasiga taqsimlash zarur. Shunda 1 so‘mlik ishlab chiqarish fondlari, xarajatlari evaziga olingan yalpi mahsulot, milliy mahsulot hamda sof foyda summasi aniqlanadi. Agarda bu ko‘rsatkichlarning mutlaq (absolyut) miqdori oshib borsa, u holda bu fondlarning, xarajatlarning iqtisodiy samradorligi oshayotganligidan dalolat beradi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, korxonalarining rentabellik darajasi. Uni aniqlash uchun tarmoqlarning, korxonalarning sof foydasini jami xarajatlar summasiga taqsimlab, natijani 100 ga ko‘paytirish lozim. Chunki bu ko‘rsatkich foizda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda agrosanoat majmuasining ijtimoiy samaradorligini aniqlashda bir qancha qo‘shimcha ko‘rsatkichlardan, jumladan, tarmoqlar bo‘yicha bir kishining o‘rtacha oyligi, kadrlarning malakasi, aholi jon boshiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar miqdori va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

ASMning iqtisodiy mexanizmi qishloq xo‘jaligi va sanoatda tovar ayirboshlashni ta’minlab beruvchi mexanizm hisoblanib, qishloq xo‘jaligiga yanada taraqqiy etishiga ko‘maklashadi. Bular jumlasiga baho, soliq, kredit va sug‘urta tizimlaridan to‘g‘ri foydalanish ahamiyat kasb etadi[13].

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining eng muhi vazifalaridan biri aholining iste’mol tovarlariga nisbatan o‘sib borayotgan talabini qondirishdir. Chunonchi, aholi oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlanishi natijasida ularning farovon hayot kechirishlari uchun asos yaratiladi. Bu muammoni agrosanoat majmuasi hal etadi. Agrosanoat majmuasida barcha tarmoqlar o‘zaro uyg‘unlashishi (integratsiyalashuvi) hamda ixtisoslashishi natijasida aholining ikki xil ehtiyojini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilib, iste’molchilarga yetkazib berilishi zarur.

Ulardan birinchisi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish. U oziq-ovqat mahsulotlari majmuasiini tashkil etadi. Unga non va non mahsulotlari, qandolat, shakar, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, choy, uzum vinosi, sut, sabzavot, turli xildagi konservalar va boshqa mahsulotlar kiradi. Bu oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmi uchun zarur moddalarni berib, uning sog‘lom o‘sishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, agrosanoat majmuasi aholi uchun hayot kechirish jarayonida foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqaradi. U aholi iste’moli mollari majmuasini tashkil etadi. Unda poyafzal, kiyim-bosh, gazlamalar, sanoat spirti,

[13]Минаков И.А. и др. Экономика сельского хозяйства. М.: Колос, 2009. 29 с.

texnika yog‘lari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shu majmua rivojlanishi bilan aholining yashash sharoiti yaxshi tomonga o‘zgaradi. Bunda aholining zarur bo‘lgan boshqa buyumlar, vositalar, shuningdek, uy-joy bilan ta’minlanishi, unga turli xildagi xizmatlar ko‘rsatilishi va boshqalar ham e’tiborga olinishi kerak.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishi davlatning oziq-ovqat xavfsizligiga ham bog‘liq. Chunki mamlakat miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi unga bo‘lgan mamlakat ehtiyoji tashqi omillarga (chet el davlatlariga) bog‘lanmagan holda ta’minlashi lozim. Buning natijasida, mamlakat miqyosida siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi sobiq SSSR tarkibida bo‘lgan davrda uning un va un mahsulotlariga bo‘lgan talabi asosan chetdan keltiriladigan mahsulotlar evaziga qondirilardi. Bu holatni respublika mustaqilligi davrida saqlab qolish mutlaqo maqsadga muvofiq emas edi. Shuning uchun ham respublika hukumati o‘tish davrining birinchi yillaridan boshlab, g‘alla mustaqilligi siyosatini amalga oshirdi. Bunga erishish uchun samarali hisoblangan paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga harakat qilindi. Hozirgi davrda mahsulotning bu turi chet eldan sotib olinayotgani yo‘q, chunonchi, bu borada ham davlat xavfsizligiga erishilmoqda, lekin hozirgi davrda respublika aholisining go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog‘ mahsulotlari bilan ta’minlanish darajasi tibbiyot normativiga nisbatan past. Bu masalani hal etish maqsadida agrosanoat majmuasi markaziy bo‘g‘ini hisoblangan qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini intensiv rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda chorvachilik tarmoqlarini ustuvor sur’atlarda rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Jumladan, parrandachilikni sanoat negizida rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qoramolchilik, qo‘ychilik bilan shug‘ullanadigan nodavlat korxonalari uchun har tomonlama iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda. Ularni moliyaviy mablag‘lar bilan barqaror ravishda ta’minlash maqsadida imtiyozli kreditlar berish yo‘lga qo‘yilmoqda, soliq imtiyozlari berilmoqda, ularning ishlab chiqarishlari uchun zarur bo‘lgan chet ellardan keltirilayotgan vositalar bojxona to‘lovlaridan ozod etilmoqda. Bularning hammasi xalq iste’moli mollari miqdorini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan tadbirlar hisoblanadi.

Aholining oziq-ovqat va xalq iste’moli tovarlari bilan ta’minlanishini yuksaltirish uchun eng avvalo, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishini, fan-texnika yangiliklari hamda ilg‘or, samarali va innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga izchil joriy etilishini o‘zaro bog‘liq holda ta’minlash zarur. Shu bilan birga majmua tarkibidagi qayta ishlash tarmoqlari ko‘lamini kengaytirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko‘paytirib, ularning raqobatbardoshligini ta’minlab, sifatni saqlab, aholiga o‘z vaqtida yetkazib berilishiga erishish lozim.

Yuqorida ta’kidlangan muammolarni hozirgi zamon talabi darajasida hal etish uchun:

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi mashinasozlik, neft, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarining qishloq xo‘jaligini va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni arzonroq, sifatli, raqobatbardosh, unumdor ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlashlari;
- qishloq xo‘jaligi tarmoqlari mavjud bo‘lgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalangan holda talabni qondiradigan miqdorda sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishlari;
- qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta’minlash maqsadida ularga turli xildagi xizmatlarni vaqtida, sifatli va arzon narxlarda amalga oshirish, jumladan, ekinlarni suv bilan, texnikalar, kimyoviy vositalar, o‘g‘itlar, ozuqa-yem, yoqilg‘i, yonilg‘ilar bilan ta’minlash, texnikalarni ta’mirlash va xizmatlar ko‘rsatish;
- qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni nobud etmasdan, vaqtida sifatli tayyorlab, qayta ishlab, tayyor holda iste’molchilarga yetkazib berilishini ta’minlash lozim. Bunda mahsulotlarni sotib olib, qayta ishlash korxonalari ko‘lamini rivojlantirishga alohida e’tibor berish lozim. Respublika Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganlaridek, qishloqqa sanoatni olib kirish kerak. Shu bilan tarmoqdagi aholining ish bilan ta’minlanishi va real daromad olishi uchun katta imkoniyat yaratiladi;
- respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o‘rtasidagi barcha o‘zaro munosabatlarni (baholar, soliqlar, to‘lovlar) takomillashtirishga va ularni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlarni hamma bo‘g‘inlarda ishlab chiqib, ularning hayotga tatbiq etilishini ta’minlashga erishish kerak.

Bu tadbirlar tufayli aholining oziq-ovqat hamda iste’mol tovarlari bilan tibbiyot meyorlari darajasida ta’minlanishiga erishiladi. Bu hol davlatning oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanganligidan dalolat beradi.

3.4. Oziq-ovqat va aholi iste’mol mollari majmuasi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, hukumatimiz tomonidan aholini muntazam ravishda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni ijtimoiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri qilib belgiladi. Ushbu siyosat izchillik bilan amalga oshirilib va takomillashtirilib borilmoqda. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida aholini zarur 8 turdagi mahsulotlar bilan ta’minlash va ushbu mahsulotlar narxlarini nazorat qilib turilganligini misol qilib keltirish mumkin. So‘ngra aholi tomorqa yerlari hajmining kengaytirilishi, chorvachilik komplekslarini xususiylashtirish, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklariga huquqiy maqom berilishi va shu asosda ichki o‘zini-o‘zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash

siyosatining qo‘llanishi ham bu sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarning nechog‘liq to‘g‘ri ekanligidan dalolat beradi (3.4.1-jadval).

Shu bilan bir qatorda milliy oziq-ovqat ta’minotini ta’minlovchi kompleks choralar ishlab chiqish “O‘zbekoziq-ovqat” holding kompaniyalari oziq-ovqat mahsulotlari ta’minotidagi murakkablik tashkilot va oziq-ovqat mahsulotlarining xorijdan xarid qilishga bog‘liq bo‘lib qolish mumkinligi kabi muammolarga yechimlar topish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Ularga erishish uchun muhim yo‘nalishlar quyidagicha ifodalanadi:

- mamlakat va hududiy oziq-ovqat mahsulotlari fondini oziq-ovqat mahsulotlari va xom-ashyoning asosiy turlari bilan to‘liq hajmda shakllantirish hamda agrosanoat majmuini eksportga yo‘naltirish uchun ishlab chiqarishni yetarli darajada barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish qobiliyatini oila byudjetidan sarf qilinadigan xarajatlar miqdorini 30-35 foizgacha qisqartirgan holda tibbiy meyorlar bo‘yicha (3500 kkl/kun) iste’mol qilish darajasigacha ko‘tarish;
- oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (paxta-tola) eksporti hisobiga yetishmayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va xom-ashyo importi uchun zarur valyuta resurslari zaxirasini yaratish va uning tarkiblarini takomillashtirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini-o‘zi ta’minlash darajasini barqaror oshirish, import hajmini qisqartirish va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta’minlovchi tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar qabul qilish.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqarorligi va kelajakdagi o‘sishi ichki bozordagi oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi xom-ashyosiga talab va taklifni barqarorlashtirish hamda jahon bozorida faol faoliyatini amalga oshirishga bog‘liq.

Bunda davlatning agrar siyosati agrosanoat majmuini, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari quyi majmui tarmoqlarini va mahsulotlarning aniq turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bu siyosatning ustivor vazifasi – mamlakatni ijtimoiy rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishi hamda importni ratsional darajada qisqartirgan holda agrosanoat majmuini eksportga yo‘naltirish uchun mos ravishda zarur bo‘lgan hajmlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni xom-ashyo bilan ta’minlash bo‘yicha samarali agrosanoat ishlab chiqarishini yaratishdir.

3.4.1-jadval

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi[14]

Mahsulot turi	O‘lchov birligi	2000 y	2012 y	2013 y	2014 y	2015 y	2016 y	2016 yilda 2000 yilga nisbatan, %
Don	kg	159	253,0	258,1	260,1	261,9	259	162,9
Kartoshka	kg	30	69,2	74,4	76,3	77,1	93	310,0
Sabzavot	kg	107	261,5	281,6	291,3	294,4	354	330,8
Meva va rezavor	kg	32	69,1	74,8	76,2	77,3	96	300,0
Uzum	kg	25	40,6	43,7	45,3	46,3	55	220,0
Poliz	kg	18	47,8	51,5	60,1	65,3	64	355,6
Go‘sht (tirik vaznda)	kg	34	56,3	59,1	62,3	63,1	68	200,0
Sut	kg	147	246,2	260,7	270,3	275,4	305	207,5
Tuxum	Dona	51	130,4	144,8	150,3	153,1	193	378,4

Davlat oziq-ovqat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ustuvor vazifasini amalga oshirishda quyidagi vazifalar hal qilinishi lozim:

- agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning dasturiy-meyoriy hujjatlarini hamda aniq dasturlarni davlat va hududlararo miqyosdagi qisqa va o‘rta muddatli tadbirlarga ajratgan holda ishlab chiqish va amalga oshirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari va xom-ashyo resurslarini, tovar ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy rag‘batlantirish va bozor infrastrukturasini rivojlantirish asosida shakllantirishning samarali mexanizmini joriy qilish, jahon bozorida mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari faoliyatini jadallashtirishni ta’minlash maqsadida tashqi iqtisodiy siyosatni erkinlashtirish;
- agrar-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish evaziga narxlar va daromadlar mutanosibligi, takomillashgan soliq, kredit, sug‘urta va boshqa omillarni ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari o‘rtasidagi narxlash munosabatlarini tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish, agrosanoat

[14]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

ishlab chiqarishini indikativ rejalashtirish va bashorat qilishning zamonaviy tizimini yaratish;

- sohani modernizatsiyalash natijasida yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, yerdan foydalanishda davlat nazoratini kuchaytirish; yirik tovar ishlab chiqarishning buzilgan quvvatlarini tiklash, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarida huquqiy va iqtisodiy tenglikni ta’minlash;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishda agroservis xizmatida, savdo va kreditlashda mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalarning kooperatsiya va integratsiyasini rivojlantirishni rag‘batlantirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashning samarali, energiya quvvatlari va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni keng qo‘llash, agrosanoat majmuini davlat siyosatining yagona obyekti sifatida tashkiliy-huquqiy jihatdan rasmiylashtirish va ajratish, boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- agrosanoat ishlab chiqarish va ASM ni yuritish tizimini rivojlantirishning hududiy dasturini ishlab chiqish va tadbiq qilish asosida oziq-ovqat mahsulotlari muammolarini yechishda hududlarning ahamiyatini kuchaytirish va hokazo.

Mamlakat oziq-ovqat ta’minotini yaxshilashda dastlabki qadamlar mahsulot ishlab chiqaruvchilar va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni faollashtirish hisoblanadi.

Bu jarayon bevosita qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim, biroq u davlat va mahalliy darajadagi qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Birinchi navbatda davlatning ishtiroki ulgurji oziq-ovqat mahsulotlari bozori infratuzilmalarining kapital sig‘imini yaratishda moliyalashtirish uchun juda zarur: mahsulotlarni saqlash bazalari, unga ishlov berish, saralash va tashish, shuningdek, axborotlar bilan ta’minlash shular jumlasidandir.

Respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish va import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari darajasini pasaytirish uchun quyidagi choralar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur:

- oziq-ovqat ta’minoti konsepsiyasini, ichki bozorni mahalliy ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirishning respublika va hududiy dasturini ishlab chiqish;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining o‘sishini ta’minlash va ushbu mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlab chiqarish omillaridan (texnologiya, xom-ashyo, materiallar, qishloq xo‘jaligi resurslari)dan foydalanish samaradorligini oshirish choralari;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarayotgan tarmoqlarni ishlab chiqarish-texnologik qurollantirishni tezlashtirish uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish bo‘yicha choralar;

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy va innovatsion texnologiyalarga egalik qilish uchun valyuta bozorlarini shakllantirish asosi sifatida mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmini oshirish bo‘yicha choralar;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmui tarmoqlarida bozor va tarkibiy o‘zgarish va diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish bo‘yicha choralar;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy mahalliy qayta ishlovchi uskuna va innovatsion texnologiyalarni yaratish bo‘yicha choralar va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qayta tashkil qilish jarayonida qishloqda xususiy mulk sinfi shakllandi. Bundan tashqari, sho‘rolar davrida iste’molining 80 foizi import hisobidan ta’minlab kelingan mamlakatimiz o‘ta qisqa fursat ichida g‘alla mustaqilligiga erisha oldi. Natijada g‘alla yetishtiriladigan maydonlar salkam to‘rt baravar yoki 1451,6 ming gektarga, sug‘oriladigan yerlarda esa bevosita 3,8 baravar yoki 1563,7 ming gektarga yetdi. Paxta ekin maydonlari 348,1 ming gektarga qisqardi. Sug‘oriladigan yerlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish ilmiy asoslangan parametrlarga yaqinlashtirildi: ekin maydonlari tarkibida g‘alla ekinining ulushi 40,6 foizga, paxta maydonining ulushi esa 43,6 foizga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, “Paxta yetishtirish hajmini 350 ming tonnaga qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug‘oriladigan yer paxtadan bo‘shaydi. Bu jarayonda, albatta, avvalo mamlakatimiz bo‘yicha paxta hosildorligi gektaridan o‘rtacha 26,1 sentnerni tashkil etib turgan bir paytda hosildorligi 12-15 sentnerdan oshmaydigan past bonitetli yerlarni paxtadan bo‘shatishga e’tibor qaratiladi. Asosan sho‘rlangan, shuningdek, paxta yetishtirishga yaroqsiz bo‘lgan tog‘oldi yerlariga g‘o‘za ekilmaydi.

Bunday qarorga kelishimizning yana bir sababi borki, u ham bo‘lsa, so‘nggi yillarda jahon bozorida paxta tolasining narxi va unga bo‘lgan talabning keskin pasayib ketishi bilan bog‘liqdir.

Paxtadan bo‘shagan ekin maydonlarida avvalo, sabzavot va kartoshka, shular qatorida ozuqa ekinlari, yog‘-moy olinadigan va boshqa o‘simliklar ekiladi, bog‘ va uzumzorlar barpo etiladi”.[15]

Demografik jarayonlar hamda yer-suv resurslari taqchilligi yanada murakkablashib borayotgan bir sharoitda hosildor ekin maydonlari tarkibining bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib o‘zgartirilishi sabzavot, kartoshka mahsulotlari miqdorining ko‘payishi bilan bir qatorda, don va dukkakli

[15]Karimov I.A.Bosh maqsadimiz–mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir// Xalq so‘zi, 2016yil 16 yanvar.

o‘simliklar, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlarining turlari hamda assortimenti kengayishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Mustaqillik sharofati bilan moyli ekinlarga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi. Ya’ni, paxta yakkahokimligi sharoitida ilgari mamlakatimizda yetishtirilmagan yoki yetarli e’tibor berilmagan kungaboqar, saflor, soya va qand lavlagi kabi moyli ekinlar maydonlari sezilarli darajada ko‘paydi. Ushbu ekinlarni qayta ishlovchi maxsus ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi.

Erishilgan natijalar raqamlarda ifoda etiladigan bo‘lsa, istiqlol yillarida don mahsulotlarini yetishtirish 6,5 baravar, kartoshka – 3,8 baravar, sabzavot, meva, uzum – 3,2 baravar, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish o‘rtacha 1,5 – 1,8 baravarga ko‘paydi.

Yurtimiz asrlar davomida oziq-ovqat mahsulotlari bilan nafaqat o‘zini o‘zi to‘la boqib kelgan, balki qo‘shni davlatlarga eksport ham qilib kelgan. Lekin mustamlaka davrida O‘zbekiston sobiq tuzum yengil va to‘qimachilik sanoatini arzon va sifatli paxta-xomashyosi bilan ta’minlovchi bazaga aylantirildi. Shu bois, yurtimizga oziq-ovqat mahsulotlarining muayyan qismi boshqa respublikalardan olib kelina boshlandi. 2001 yilga kelib O‘zbekiston yana don eksport qilish darajasiga yeta oldi.

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining umumiy eksporti hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 2000 yilda atigi 3,5 foizni tashkil etgan bo‘lib, 2015 yilda u 12,5 foizga yetdi. Va aksincha, davlatning oziq-ovqat importiga qaramlilik darajasi qisqarishi kuzatilmoqda. Ya’ni 2000 yilda oziq-ovqat mahsulotlari importi 10,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda mazkur ko‘rsatkich 6,1 foizga tushdi. Bunday natijaga nafaqat meva, sabzavot-poliz, konserva kabi mahsulotlarni keng hajmda ishlab chiqarilishi, balki un-non, go‘sht va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga ham erishildi.

Mamlakat agrar sektori ertapishar va tezpishar meva hamda sabzavot, poliz, yong‘oq, pista-bodom kabi mahsulotlarni ishlab chiqarishda katta salohiyatga ega. Takliflar ichki talabdan yuqori bo‘lib, eksport hajmini oshirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Shu bois, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish maqsadida dehqon va fermer xo‘jaliklari yetishtirgan meva-sabzavot mahsulotlarini sotib olish, ichki va tashqi bozorga olib chiqish va qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash maqsadida fermerlarning agrofirma kabi ixtiyoriy uyushmalari yana qaytadan tashkil qilindi. Agrofirmalar xorijiy davlatlarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmlarining ko‘payishiga muayyan hissa qo‘shishmoqda. Masalan, birgina 2015 yilning o‘zida mavjud 201 ta agrofirmaning 73 tasi yil davomida 49 ming tonnaga yaqin mahsulot eksport qilishga erishdi.

Alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston nafaqat xo‘jaliklararo va agrosanoat kooperatsiyalari hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlamoqda,

balki u MDH davlatlari oziq-ovqat bozoriga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Hukumatimiz agrar sohaning barqaror rivojlanishi uchun katta ko‘mak berib kelmoqda. *Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi quyidagilardan iborat:* qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishda yakka tartibdagi ishlab chiqaruvchilar ahamiyatini kuchaytirish; ularning huquq va majburiyatlarini himoya qilish; dehqon va fermer xo‘jaliklariga samarali faoliyat olib borishlari uchun amaliy yordam berish; kichik va xususiy biznesning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashda qo‘llab-quvvatlash; ularni aholi turmush tarzini oshirish va iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylantirish; iste’mol bozorlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘ldirish va ulgurji savdo tizimini yanada rivojlantirish; mamlakat hududlarida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmini ko‘paytirish va eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahonda iqtisodiy va oziq-ovqat inqirozlari tobora chuqurlashayotgan bir davrda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday agrar siyosat mamlakatimiz aholisi turmush darajasining oshishiga xizmat qilmoqda.

Kelgusida davlat o‘z aholisini ijtimoiy himoya qilish maqsadida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxini nazorat qilishi lozim. Hozirgi vaqtda jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida 40-50 foiz oziq-ovqat mahsulotlarini narxi davlat tomonidan nazorat qilinadi. Kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish darajasini hisobga olib, ichki oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi tadbirkorlik faoliyatini soliqning ortiqcha yukidan xalos etish, imtiyozli kreditlar ajratish, zarur texnologik vositalarini olishda yordam ko‘rsatish yo‘llari bilan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy tushunchalar

Agrosanoat majmui (ASM) - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimot, ayirboshlash va iste’moli bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. ASM tarkibiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash saqlash, sotish ASM uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari kiradi.

ASM ning asosiy maqsadi - mamlakat aholisini sifatli oziq-ovqat va iste’mol tovarlari bilan talab darajasida ta’minlashdir. Bu muammo ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darajasini yuksaltiradi.

Yakuniy mahsulot – yalpi mahsulot (tovarlar va xizmatlar) qiymatidan ishlab chiqarish sarfi chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismidir. Yakuniy mahsulot deganda iste'molga chiqib ketadigan mahsulotni tushunish mumkin. Korxona darajasida uning tovar mahsulotdan farqi yo'q.

ASM da yakuniy mahsulot – majmuaning barcha sohalarida yaratilgan va yakuniy iste'mol hamda eksportga chiqib ketadigan mahsulotdir.

Infratuzilma – takror ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi iqtisodiyot tarmoqlarining majmuidir.

Agrosanoat korxonalari – ixtisoslashgan tashkilot bo'lib, ishlab chiqarish sanoati, qayta ishlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgan.

Agrofirma – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xo'jaligi ichida (xo'jaliklararo) integratsiyalash asosida ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish asosida ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonadir.

Agrosanoat birlashmalari – bitta ma'muriy tumandagi qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalari asosida tashkil etilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, transportirovka doirasi, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va realizatsiyasida birlik va balanslashganlikni ko'zda tutadi.

Holding kompaniyalari – bu qator qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalari, hamda sovutgich saqlash, transport, hattoki savdo xo'jaliklari yig'indisi bo'lib, ular ayniqsa, meva-sabzavot, konserva, uzumchilik, vinochilik va boshqa ishlab chiqarishda keng tarqalgan.

Agrosanoat uyushmalari – sheriklarining xo'jalik faoliyati muvofiqlashuviga (qishloq xo'jaligi va qayta ishlovchi korxonalar, savdo tashkilotlari) va ularning ishtirokini mahsulot realizatsiyasidan tushgan foydani taqsimlashda teng foyda ko'rilishining ta'minlanishiga asoslangan notijorat tashkilotdir.

Konsern – qatnashuv tizimi, moliyaviy aloqalar, manfaatlar umumiyligi haqidagi shartnomalar vositasida amalga oshiriladigan birlashuv shaklidir.

Agroklaster – qishloq xo'jaligining davlat – ilmiy-tadqiqot – qayta ishlash – biznes kabi subyektlarning o'zaro bozor tamoyillariga mos munosabatlarini mujassamlashtirgan subyektdir.

Iqtisodiy munosabatlar – bu ishlab chiqarish jarayonida korxonalarning iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqaruvchi munosabatlar shaklidir.

Xo'jalik shartnomasi – ishlab chiqarish jarayonida ikkala tomonning majburiyatlarini belgilab beruvchi hujjat bo'lib, bu hujjat orqali korxona va

tashkilotlar ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bahosi va ta’riflarini tartibga soladi, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi, sifati buzilganda, tovarlarni sotish muddati o‘tib ketganda tegishli choralar ko‘riladi.

Kontraktatsiya shartnomasi – bu shunday hujjatki, bunda qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi yetishtirilgan mahsulotni tayyorlovchiga yetkazib beradi, tayyorlovchi mahsulotni qayta ishlash yoki sotish uchun ushbu tovarni olishi va belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirishi zarur.

Oldi-sotdi shartnomasi – bu shartnomada bir tomon (sotuvchi) ikkinchi tomonga (sotib oluvchi) tovarni sotishi, sotib oluvchi esa ushbu tovarni ma’lum narxga sotib olishi kerak. Sotuvchi tovar ishlab chiqaruvchi ham bo‘lishi mumkin yoki ulgurji va chakana tashkilotlar bo‘lishi ham mumkin. Bu shartnoma ayni vaqtda sotuvchida mavjud bo‘lgan tovarga yoki kelgusida ishlab chiqariladigan tovarga tuzilishi mumkin. Sotuvchi tovarni shartnomaga muvofiq nomi, miqdori, sifati, o‘rami, qadoqlanishiga qarab ko‘rsatilgan muddatda va belgilangan joyga yetkazib berishi shart.

Yetkazib berish shartnomasi – ushbu shartnomaga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan sotuvchi – ta’minotchi (yoki yetkazib beruvchi) kelishilgan muddatda yoki tovar ishlab chiqariladigan yoki sotiladigan muddatda tijorat maqsadlarida foydalanish uchun tovarlarni yetkazib beradi.

Komissiya shartnomasi – ho‘l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari “O‘zagroeksport” ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasi tomonidan xorijiy sheriklar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan eksport shartnomalari, shuningdek fermer va dehqon xo‘jaliklari, agrofirmalar va qayta ishlash korxonalari o‘rtasida tuziladigan komissiya shartnomalari hisoblanadi.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorlik darajasi ko‘rsatkichlari: respublika agrosanoat majmuasining yalpi mahsuloti; yalpi mahsulot qiymati; agrosanoat majmuasining tarmoqlari bo‘yicha mamlakat eksportidagi, ya’ni valyuta tushumidagi salohiyati yoki ulushi; aholining oziq - ovqat va xalq iste’moli tovarlari bilan ta’minlanganlik darajasi; agrosanoat majmuasi, tarmoqlari va korxonalarda foydalanilayotgan, sarflanayotgan ishlab chiqarish fondlarining, qilinayotgan xarajatlarning samaradorligi; agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, korxonalarining rentabellik darajasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasining agrosanoat majmuasini barpo etish zarurligi va mumkinligini bayon eting?
2. Respublika agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari hamda tarkibi va bo‘g‘inlari nimalardan iborat?
3. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlarning maqsadi va vazifalariga nimalar kiradi?
4. Respublika agrosanoat majmuasining holati, o‘zgarish va muammolari nimalardan iborat?
5. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi mikromajmualarga nimalar kiradi?
6. Agrosanoat korxonalarida qanday xo‘jalik shartnomalardan foydalaniladi?
7. Agrosanoat majmuasiga oid chet el tajribalari va ularni mamlakatimizda qo‘llash imkoniyatlarini bayon eting.
8. Respublika agrosanoat majmuasining mamlakat oziq-ovqat va iste’mol majmuasi bilan bog‘liqligi nimalardan iborat?
9. Agrosanoat majmuasi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini bayon eting.
10. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
11. Mamlakat agrosanoat majmuasini istiqbolda bozor talablarini e’tiborga olgan holda rivojlantirish yo‘llarini bayon eting.

IV-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGIDA DAVLAT RAHBARLIGI VA AMALGA OSHIRILAYOTGAN AGRAR-IQTISODIY ISLOHOTLAR

O‘quv maqsadi: Ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyot va erkin bozor iqtisodiyoti, uning mazmun-mohiyatini, davlatning agrar siyosat yo‘nalishlarini, qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar tizimini va uning huquqiy asoslarini, agrar-iqtisodiy islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish hamda takomillashtirish masalalarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *rejali iqtisodiyot, erkin bozor iqtisodiyoti, agrar siyosat, agrar-iqtisodiy islohotlar, yer, mulk, baho, soliq, moliya va kredit islohotlari, mulkdorlar sinfi, davlat buyurtmasi, dotatsiya va subsidiya.*

4.1. Erkin bozor iqtisodiyoti, uning mazmun va mohiyati

Qishloq xo‘jaligi respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Chunki bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 49 foizdan ko‘prog‘i qishloq joylarda istiqomat qiladi, yalpi ichki mahsulotning 15,l foizi, valyuta tushumlari va ichki tovar aylanmasining asosiy qismi ushbu sektor hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga, agrar sohani isloh qilish jarayonida yuzaga keladigan qator muammolar qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yer, suv va mehnat resurslaridan unumli foydalanishda samaradorlikning pastligi, qishloqda tez sur’atlarda o‘sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta’minlashning talab darajasida emasligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining bozor sharoitlariga moslashish jarayonlari sust kechayotganligi ana shunday muammolar jumlasidandir.

Agrar sohada ushbu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan mulkchilik munosabatlarini samarali boshqarish, ularni maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, **“O‘zbekistonni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida** barcha sohalar qatori qishloq xo‘jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim

vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganimiz sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda”.[16]

Shu sababli, qishloqda mulkiy munosabatlarni takomillashtirish va hududiy mulkdorlar sinfini shakllantirish sohasidagi muammolar yuzasidan ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, amaliy takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish o‘ta muhimdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida qishloq xo‘jaligida haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyati va agrar sohani isloh qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etish respublikamiz iqtisodiyoti uchun nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni rivojlantirish masalalari atroflicha tahlil etilgan bo‘lsa-da, lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida mulkiy munosabatlarni tizimli o‘rganish, shakllanayotgan yangi mulk va xo‘jalik yuritish shakllarining mohiyati va mazmuni, ularning xo‘jaligi mexanizmini samarali boshqarish bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti davrida mulkiy munosabatlarning iqtisodiy mazmuni va uning jamiyat iqtisodiy tizimida mulklarni kim oshdi savdolariga qo‘yish kabi shakl va usullar ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahlili ko‘rsatishicha, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish bilan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish birgalikda yuz berdi.

Mulkchilik munosabatlarini isloh qilish borasida MDH mamlakatlari iqtisodiyotining barchasi uchun quyidagi umumiy qonuniyatlar xosdir:

- ishlab chiqarish vositalariga davlat monopoliyasi o‘rniga turli mulk va xo‘jalik yuritish shakllarini vujudga keltirish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish;
- har bir mamlakat oldida turgan bozor iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan vazifalar va ijtimoiy siyosatdan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotda tuzilmaviy o‘zgarishlar qilish;
- ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- makroiqtisodiy barqarorlikka erishish;
- bozor iqtisodiyoti talablariga mos tarzda moliya-kredit va byudjet tizimini isloh etish;
- milliy valyuta qadrini mustahkamlash va uning erkin konvertatsiyalanishini ta’minlash.

[16] Mirziyoyev SH.M. Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamizdir // Xalq so‘zi. 10.12.2017.

Yuqoridagi qonuniyatlar har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni isloh etish borasida har bir mamlakatning o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari mavjudligini e’tiborga olish lozim. Mazkur xususiyatlar aynan islohot modellarida o‘z ifodasini topadi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiyotni isloh qilishning uch modeli xosdir. Qirg‘iziston Respublikasida iqtisodiyotni isloh etishning radikal (shok-falaj), Qozog‘iston Respublikasida mo‘tadil-radikal modeli qo‘llanilayotgan bo‘lsa, O‘zbekistonda esa iqtisodiyotni isloh etishning “o‘zbek modeli” dan foydalanilgan holda, islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda jahonning ilg‘or tajribasi va boshqa hamdo‘stlik mamlakatlari amaliyoti umumlashtirilib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy rivojlanish xususiyatlari sohasida tubdan o‘zgarishlarni amalga oshirish borasidagi o‘z modeli ishlab chiqildi. U haqli ravishda iqtisodiyotni isloh etishning “o‘zbek modeli” nomini oldi. Bu model uchun bozorga bosqichma-bosqich o‘tish xosdir. Iqtisodiyotni isloh etishning “o‘zbek modeli” mohiyati va mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan bozorga o‘tishning besh tamoyilida o‘zining yorqin ifodasini topdi. Bugungi kunda ushbu tamoyillar asosida iqtisodiyotni isloh etish borasida davlatning iqtisodiy siyosati amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosqichma-bosqichlilik tamoyili - iqtisodiyotni isloh etishning “o‘zbek modeli” uchun xos bo‘lgan jihatlardan biridir. Bu hamda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” asarida quyidagilar ta’kidlanadi: “Bizning bozor islohotlarini amalga oshirish dasturimiz ustuvor vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilishga asoslanadi”.

Davlatimiz rahbarining yana bir boshqa asarida esa, “Biz iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning barcha inqilobiy usullaridan butunlay voz kechamiz. Biz iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning evolyutsion yo‘lidan boramiz” deya ta’kidlanadi.

Iqtisodiyotni isloh etishda “o‘zbek modeli”ning boshqa muhim xususiyatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- xususiylashtirishning to‘lovli tavsifga ega ekanligi;
- xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar esa tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirish uchun sarflanadi;
- xususiylashtirishning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi;
- xususiylashtirish jarayonlarida aholini ijtimoiy himoyalash.

MDH davlatlari orasida faqatgina mamlakatimizda ishlab chiqarish sur’atlarining yildan-yilga o‘sayotganligi (bu ko‘rsatkich ham do‘stlik davlatlari bo‘yicha 78,4 % ni, Rossiyada esa 73,3 % ni tashkil etdi), 2015 yilda MDH mamlakatlarida YAIM hajmi 2000 yilga nisbatan 93,9% ni tashkil etgan bir paytda, bu davlatlar o‘rtasida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib, YAIM hajmining

2016 yilga kelib 7,8 % ga o‘sishi kuzatilganligi iqtisodiyotni isloh etishning “o‘zbek modeli” samaradorligini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

O‘zbekistonda nodavlat mulk shakllarini rivojlantirish quyidagi ikki yo‘l orqali amalga oshirilmoqda:

1. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.

2. Huquqiy va jismoniy shaxslar bilan nodavlat korxonalari tashkil etish.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari natural tarkibining o‘zgarishi yaxshilanmoqda (4.1.1-jadval). Avval ta’kidlab o‘tganimizdek, mamlakatimizda mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning muhim jihati uni amalga oshirishning bosqichma-bosqichligidadir.

4.1.1-jadval

2000-2016yillarda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari natural tarkibining o‘zgarishi[17]

№	Mahsulotlar	2000	2012	2013	2014	2015	2016
1	Paxta xom-ashyosining tonna	3002	3500,0	3450,2	3400,1	3350,8	2959,0
	2000 yilga nisbatan, foizda	100,0	116,6	114,9	113,3	111,6	98,5
2	Sakkiz turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, mingtonna	13555	22413	25642	28995	32341	34986
	2000 yilga nisbatan foizda	100,0	165,3	189,2	213,9	238,6	258,1
3	Shundan: don, ming tonna	3929	7631,2	7893,1	8050,0	7516,3	8261,3
	2000 yilga nisbatan foizda	100,0	194,2	200,9	204,9	191,3	210,3
4	Go‘sht, ming tonna	842	1672,9	1787,5	1806,9	1983,3	2148,8
	2000 yilga nisbatan foizda	100,0	198,7	212,3	214,6	235,5	255,2
5	Kartoshka, ming tonna	731	2057,1	2850,0	2440,7	2638,0	2958,4
	2000 yilga nisbatan foizda	100,0	281,4	307,8	333,9	360,9	404,7
6	Sut, ming tonna	3633	7884,7	7993,2	8340,5	8501,7	9703,4
	2000 yilga nisbatan foizda	100,0	217,0	220,0	229,6	234,0	267,1

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev taklif etganidek: “...fermer xo‘jaliklarida har qarich yerdan unumli foydalanish, daromad hajmini oshirish masalasiga ham alohida ahamiyat qaratishimiz zarur. Shu maqsadda mavjud 2 million 626 ming gektar maydonning umumiy uzunligi 385 ming

[17] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq vasuv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

kilometr bo‘lgan chekka qismlarida sabzavot va poliz ekinlari ekishni yo‘lga qo‘yish orqali 415 ming tonna qo‘shimcha mahsulot yetishtirishga erishish mumkin.

Oddiy hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda har bir fermer xo‘jaligi dalasida bir boshdan, jami 14 ming sog‘in sigir, 21 - 125 fermer xo‘jaligining har birida 50 boshdan, jami 1 million 57 ming parranda, 66 ming fermer xo‘jaligining dala chetlarida 329 ming quti asalari boqish hisobidan 7 ming 200 tonna asal yetishtirishni yo‘lga qo‘yish mumkin.”[18]

O‘zbekiston sobiq ittifoqdan agrar-industrial tavsifga ega bo‘lgan iqtisodiyotni meros qilib oldi. Bu esa YAIM ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligining nisbatan yuqori ulushga ega ekanligida o‘z aksini topadi. Bu ko‘rsatkich 2000-2016 yillar mobaynida quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi (4.2.2-jadval).



2000 yilda O‘zbekiston YAIMning uchdan bir qismi qishloq xo‘jaligida yaratildi. Keyinchalik YAIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 17,6 % gacha

[18] Mirziyoyev SH.M. Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamizdir // Xalq so‘zi. 10.12.2017.

qisqargan bo‘lsa ham, uning ulushi kelajakda 8-10% ni tashkil etishi belgilab olingan.

4.2.2-jadval

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulotning ulushi[19]

Ko‘rsatkichlar		Yillar				
	1995	2000	2005	2010	2015	2016
YAIMda qishloq xo‘jaligining ulushi (foizda)	32,4	34,4	29,5	19,8	18,3	17,6

AQSH iqtisodiyotida YAIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 1980 yilda 3% tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib 1%ni tashkil etgan.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligining ulushi asta-sekin pasayib bormoqda. Masalan, 20 yil davomida u o‘zining 1995 yildagi 32,4% darajasidan 2016 yilda 17,6 % gacha qisqardi. Bu iqtisodiyot industrial sektorning agrar sektordan bir muncha ilgarilab ketganligidan dalolat beradi. YAIMni yaratishda qishloq xo‘jaligining ulushi ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasiga nisbatan teskari bog‘liqdir. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarishda mazkur sohaning ulushi 2000 yildagi 30,4 % dan 2016 yilda 44,8 % gacha pasaydi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar va MDH ning ba’zi davlatlari uchun YAIM da qishloq xo‘jaligi ulushi past ko‘rsatkichga egadir. Masalan, 2010 yilda jahon YAIM da qishloq xo‘jaligining ulushi 4,0 % ni, AQSH esa 1,0 % ni, Fransiyada 2 %, Yaponiyada 1 % ni, Turkiyada 12 % ni va Rossiyada 6,5% ni tashkil etdi. YAIMda qishloq xo‘jaligi ulushining yuqoriligi mazkur sohada ishlab chiqarish kuchlarining nisbatan past rivojlanganligini aks ettiradi. Bundan sohada mehnat unumdorligi past va bandlik darajasi nisbatan yuqori, degan xulosaga kelish mumkin. Masalan, AQSH YAIMida qishloq xo‘jaligi ulushiga nisbatan Rossiya YAIMida qishloq xo‘jaligining unumdorligi AQSH da Rossiyaga nisbatan 8 marta yuqoridir.

Agrar munosabatlar jamiyat iqtisodiy munosabatlar tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur munosabatlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish borasida huquqiy va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi. Qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida yerga bo‘lgan mulkchilik munosabatlari agrar munosabatlarning yadrosi hisoblanadi.

Agrar munosabatlar–bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va qishloq xo‘jaligi vositalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan turli-tuman subyektlar o‘rtasidagi munosabatlardir.

[19] Manba:O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Agrar munosabatlar – bu qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning keng doirasidir. Ayniqsa, mehnatda band aholining sezilarli darajada katta qismi qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mamlakatlar uchun agrar munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot sohalarida band bo‘lgan aholining uchdan bir qismi qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilmoqda.

4.2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiyislohotlar tizimi

Agrar sektordagi asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer aholining asosiy hayot kechirish faoliyatining negizi hisoblanadi.

Mamlakatimizda agrar-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijasida qishloq xo‘jaligida turlicha mulk shakllari, iqtisodiy subyektlarning turli-tumanligi bilan tavsiflanuvchi turli xil xo‘jalik yuritish shakllari qaror topdi. Bular mulkning hissadorlik, ishlab chiqarish kooperativlari shaklida namoyon bo‘luvchi jamoa, yollanma va o‘z mehnatidan foydalanuvchi xususiy mulk shakllaridir. Ayni paytda sohadagi islohotlarning natijasi o‘laroq, yangicha xo‘jalik yuritish shakllari paydo bo‘ldi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida mulkdorlarning mutlaqo yangi sinfi – fermerlar maydonga chiqdi va ularning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda.

Rossiya qishloq xo‘jaligining asosiy yo‘nalishi agrar islohot bo‘lib, yer munosabatlari islohoti hisoblanadi. Ushbu islohotning asosiy vazifasi yerni qayta taqsimlash turli mulkchilik shakllariga asoslangan bo‘lib, yerdan samarali foydalanishdir.[20]

Yerdan oqilona va samarali foydalanish ko‘p jihatdan mamlakatda yuzaga kelgan yer munosabatlari orqali belgilanadi. Ular o‘z navbatida yerga egalik qilish, undan foydalanish masalasida qishloqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar va davlat hokimiyati organlarining barcha darajalaridagi ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Respublikaning umumiy tuproq sharoitlari, relefi va boshqa o‘ziga xosligi sharoitida mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish barqaror hosil olish, yerni suv resurslari bilan ta’minlash va mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish omillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Respublika bo‘yicha sug‘oriladigan yerlar maydoni umumiy ekin maydonining 98,2 % ni tashkil qiladi. Ushbu maydonni sug‘orish uchun yiliga har bir gektarga o‘rtacha 50 m3 ga yaqin suv sarflanadi. Suv resurslari taqchilligining kundan-kunga oshib borishi O‘zbekiston iqtisodiyotining agrar sektorini rivojlantirishni chegaralovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu birinchidan, kam suvdan yillar davrining boshlanishi, ikkinchidan, suv resurslarini taqsimlashda yuzaga kelgan

[20]Минаков И.А. и др. Экономика сельского хозяйства. М.: Колос, 2009. 42.



4.2.1-rasm. **Qishloq ho‘jaligida iqtisodiy islohotlarning yo‘nalishi**

davlatlararo muammolardan, uchinchidan, ularni xo‘jasizlarcha ishlatishdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy islohotlarning mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- qishloqda mulkiy munosabatlarni takomillashtirish hamda haqiqiy yer, mahsulot va mulk egalarini shakllantirish;
- cheklangan yer-suv va boshqa moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga imkon yaratuvchi xo‘jalik yuritish tizimini joriy etish;
- fermer xo‘jaliklari va aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tizim – ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish;
- shartnoma munosabatlarini takomillashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning manfaatdorligini va javobgarligini ta’minlash;
- sanoat va aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, “Fermer xo‘jaligini yuritish uchun yer maydonlari ajratish va taqsimlashning yangi mexanizmi joriy etildi. Unga muvofiq, qarorni tuman hokimi emas, balki Fermerlar kengashi va Yer uchastkalari taqdim etish masalalarini ko‘rib chiqish komissiyasi xulosasi bo‘yicha xalq deputatlari tuman kengashlari qabul qilmoqda”.[21]

4.3. Qishloq xo‘jaligida yer, suv, mulk, baho, soliq, moliya va kredit islohotlari va ularning natijalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoiti agrar sohadagi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov qishloq xo‘jaligini isloh qilishning ahamiyatiga quyidagicha baho beradi: “Agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarning dastlabki bosqichida hamda O‘zbekistonning bozorga o‘tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biz qishloqning ustun darajada rivojlanishini ta’minlashni, qishloq xo‘jaligini sifat jihatidan yangi asoslarda qayta tiklashni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘ydik”.[22]

Qishloq xo‘jaligini isloh qilish jarayonida ushbu sohada katta va ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Mulkchilik munosabatlari tubdan qayta qurildi, ko‘p ukladli, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar vujudga keldi, ularning maqsadga muvofiq faoliyat ko‘rsatishi uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning asosiy maqsadi - inson omilining roli va ahamiyatini, uning ishlab chiqarishning pirovard natijalarini yuksaltirishdan mafaatdorligi va javobgarligini oshirishdan iborat.

---

[21] Karimov I.A.Bosh maqsadimiz–mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so‘zi. 2016. 16 yanvar.

[22] Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T.: O‘zbekiston, 1995. 59-60 b.

Yer islohotlarini bosqichma-bosqich olib borish, birinchi navbatda, sug‘oriladigan yerlarga tegishlidir. Shu sababli, yerdan foydalanuvchilarni kerakli suv bilan ta’minlash, yerlarni ajratish mexanizmini ishlab chiqish masalasi yuzaga keladi. Avval suv xo‘jaligi korxonalari byudjet tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, endi bozor munosabatlari sharoitida suv uzatish va gidromeliorativ tizimlarga texnik xizmat ko‘rsatish uchun pul to‘lash kerak bo‘ladi. Yer munosabatlarini isloh qilish, o‘z navbatida, suv xo‘jaligi tizimida ham islohotlar o‘tkazish zarurligini yuzaga keltirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012 yil 21 maydagi 1758-sonli “2012-2016 yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnika va texnologiya jihatdan qayta jihozlash dasturi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, quyidagilar amalga oshirilmoqda:

- agrar sohada mulk va xo‘jalik yuritish shakllarini yanada rivojlantirish;
- yer resurslaridan samarali foydalanish;
- qishloq xo‘jaligini tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalashni yanada rivojlantirish;
- suv ta’minoti tizimlarini takomillashtirish va suv resurslaridan samarali foydalanish;
- dehqonchilik ekinlari tarkibini tarkibiy o‘zgartirish va takomillashtirish, uning hosildorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash;
- chorvachilikni kompleks rivojlantirish, (4.3.1-rasm).



4.3.1 - rasm. **Agrar iqtisodiy islohotlar va qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish natijalari[23], %**

[23] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilarda o‘z aksini topdi:

1-bosqich.1991-1998 yillarda fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va faoliyat yuritishining asosiy meyoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi;

2-bosqich.1999-2002 yillarda zarar bilan faoliyat ko‘rsatayotgan shirkat xo‘jaliklarini tugatish, ular negizida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish jarayoni rivojlandi;

3-bosqich.2003 yildan fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi;

4-bosqich.2008 yilda fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalarini maqbullashtirish jarayoni amalga oshirilib, ularni iqtisodiy barqaror faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratildi.

1 - bosqich. 1991-1998 yillarda fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va faoliyat yuritishining asosiy meyoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

1991-1997 yillar ichida qishloq xo‘jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, turli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllari yaratildi.

Mamlakatimizda yirik xo‘jaliklar ichida ichki fermer xo‘jaliklari, tuman xokimlarining qarori bilan mustaqil fermer xo‘jaliklari tashkil qilina boshlandi.

1992 yilda “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida” qonun 1998 yil 30 aprelda “Yer kodeksi”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi va shular asosida qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun to‘la huquqiy asos yaratildi.

2 - bosqich. 1999-2002 yillarda zarar bilan faoliyat ko‘rsatayotgan shirkat xo‘jaliklarini tugatish, ular negizida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish jarayonini rivojlantirish boshlandi.

1999-2002 yillarda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq zarar bilan faoliyat ko‘rsatayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiyalash jarayoni boshlandi. Sanatsiyalash davridan so‘ng ham moliyaviy holati og‘ir bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonalarini tugatish va ular negizida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish jarayoni rivojlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli “Qishloq xo‘jalik korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

3-bosqich. 2003 yildan fermer xo‘jaliklarini ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3226-sonli farmoni qabul qilindi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 25 oktabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-3342-sonli farmoni (fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida, yer-

suv, mexanizatsiya, moliya-kredit, soliq, sug‘urta, infratuzilma obyektlarini rivojlantirish ko‘zda tutildi);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarori (kam ta’minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarga chorva moli berish, chorvachilikni va infratuzilma obyektlarini rivojlantirish masalalari);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 apreldagi 842-son “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollar ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori (kuchli ozuqa yetkazib berish va sotishga ixtisoslashgan 13 ta hududiy va 170 ta tuman birlashmalari hamda 1484 ta hududiy shahobchalar tashkil qilindi);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 5 noyabr “Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 725-sonli qarori (hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun mahsulot yetishtirayotgan fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi amaliyotga joriy qilina boshlandi. Bu maqsadda joriy yilda 60 mlrd. sum, 2009 yilda 120 mlrd. so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan).

4-bosqich. 2008 yilda fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalarini maqbullashtirish jarayoni amalga oshirilib, ularni iqtisodiy barqaror faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratildi.

2008 yil 6 oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3077-sonli “Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to‘g‘risida”gi farmoyishi qabul qilindi. Farmoyishga asosan: fermer xo‘jaliklari yer uchastkalarini maqbullashtirish jarayoni bilan mamlakatimizda fermerlik harakatini yanada rivojlantirishning to‘rtinchi bosqichi boshlandi.

Qo‘yilgan maqsad eng avvalo:

- mahsulot yetishtirish miqdorini ko‘paytirish evaziga yuqori daromadga ega bo‘lgan fermer xo‘jaliklari sonini ko‘paytirish;
- yer va suvdan samarali foydalanishni ta’minlash;
- agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida sifatli bajarilishiga erishish;
- tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish uchun yetarli mulkka ega bo‘lishini ta’minlash;
- eng avvalo o‘z daromadi (yoki bank kreditlari) hisobidan texnika va boshqa vositalarni xarid qilinishiga erishish;
- qishloq xo‘jaligi tarmog‘i bilan birgalikda hududlarda kasanachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish asosida yangi doimiy ishchi o‘rinlarini tashkil qilishdan iborat.

Qishloq xo‘jaligida islohotlarni jadallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi “Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi F-4058-sonli farmoni asosida vazirlik tizimidagi korxonalarning samarali barqaror faoliyatini ta’minlash;
- qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suvdan tejamkor foydalanish texnologiyalarini qo‘llash;
- har bir hududning tuproq va iqlim sharoitini, kutilayotgan suv tanqisligi hamda iqlimdagi global o‘zgarishlarni hisobga olgan holda sohada amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarning samaradorligini oshirish, urug‘chilik va seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, mahsuloti xaridorgir bo‘lgan navlarini tanlash va joylashtirish, resurs-tejamkor samarali agrotexnologiyalarni joriy etish;
- ekologik toza va raqobatbardosh sabzavot, poliz, kartoshka, meva va uzum mahsulotlarini yetishtirish, mavjud qayta ishlash korxonalarini ta’mirlash va moderinizatsiyalash, yangilarini tashkil etish yo‘li bilan aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘laroq qondirish, ularning eksport hajmini oshirish;
- lalmi yer maydonlarida dehqonchilikni rivojlantirish, ularda moyli va dukkakli ekinlar salmog‘ini oshirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish;
- chorvachilikni rivojlantirish, jumladan uning ozuqa bazasini mustahkamlash, naslli mollar salmog‘ini oshirish hisobiga chorva mahsuldorligini oshirish bo‘yicha dasturda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish;
- qishloq xo‘jaligida infratuzilma shaxobchalarining faoliyatini yaxshilash, ularning fermer xo‘jaliklari bilan hisob-kitoblarini tartibga solish va shartnomaviy majburiyatlarining to‘liq bajarilishini ta’minlash, fermer xo‘jaliklarini iqtisodiy barqaror rivojlantirish va boshqalar, (4.3.2-rasm). Qishloq xo‘jaligida agrar-iqtisodiy islohotlar natijasida Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yildan-yilga o‘sib bordi (4.3.1-jadval).



4.3.2-rasm. **Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorlik dinamikasi[24], s/ga**

4.3.1-jadval

Respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari[25] (2012-2016 yillar)

№	Mahsulot-lar nomi	O‘lchov birligi		Yillar				2016 yil 2012 yilga nisbatan, %
			2012	2013	2014	2015	2016	
1	Paxta	ming tonna	3500,0	3460,1	3361,2	3350,4	2959,0	84,5
2	Bug‘doy	ming tonna	7140,1	7519,5	7804,8	7501,8	8261,3	115,7
3	Kartoshka	ming tonna	1862,4	2057,1	2250,4	2414,3	2958,4	158,8
4	Sabzavot	ming tonna	6993,7	7767,4	8515,9	8717,8	11275,8	161,2

[24]Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2000-2016 yillar) ma’lumotlari asosida tuzilgan.
[25]Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2012-2016 yillar) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

5	Meva	ming tonna	1871,1	2052,8	2260,9	2391,1	3042,8	162,6
6	Uzum	ming tonna	1090,2	1206,0	1322,1	1457,3	1735,8	159,2
7	Poliz mahsulotlari	ming tonna	1294,7	1418,4	1558,0	1799,3	2044,9	157,9
8	Go‘sht (tirik vaznda)	ming tonna	1564,2	1672,9	1787,5	1893,4	2171,8	138,8
9	Sut	ming tonna	6766,2	7310,9	7884,7	8039,3	9703,3	143,4
10	Tuxum	mln dona	3441,7	3873,7	4379,1	5051,4	6111,7	177,6
11	Qorako‘l teri	ming dona	1022,3	1116,9	1060,6	1121,3	1058,2	103,5
12	Pilla	ming tonna	24,7	25,0	25,4	26,7	27,9	113,0
13	Asal	tonna	3795,1	4887,5	7177,0	8019,9	8516,3	224,4
14	Baliq	tonna	17234,9	25885,1	38156,0	44347,8	48911,3	283,8



4.3.3-rasm. **Qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash natijalari[26], %**

[26]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq vasuv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.



4.3.4-rasm. **Suv tejovchi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish dinamikasi, gektar**[27]



4.3.5-rasm. **Qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanganlik darajasining o‘zgarishi**[28]**, %**

4.4. Qishloq xo‘jaligida davlat dotatsiyasi va subsidiyasi

Agrar-iqtisodiy islohotlar natijasida bir qancha tumanlar, qolaversa, fermer xo‘jaliklari zarar bilan faoliyat ko‘rsata boshladi. Shu sababli qishloq xo‘jaligi

[27]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.
[28]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat dotatsiyasi va subsidiyasi nazarda tutildi.

Davlat dotatsiyasi – bu davlat byudjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag‘lari bo‘lib, zararlarni qoplash uchun qishloq xo‘jaligi korxonalariga beriladigan davlat nafaqalari hisoblanadi.

Davlat subsidiyasi – bu zararlarni qoplash va boshqa maqsadlar uchun qishloq xo‘jaligi korxonalariga qaytarib olmaslik sharti bilan beriladigan davlat yordamidir.

Qishloq xo‘jaligi davlat tomonidan doimiy ravishda tartibga solib turishga muhtoj tarmoq hisoblanadi. Bunga qator sabablar ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tabiiy sharoitlar bilan bog‘liqdir. Ishlab chiqarishning natijasi hamisha ham xo‘jalikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmaydi. Bir meyorda qilingan mehnatning natijalari qishloq xo‘jaligida tabiiy ta’sirlar natijasida turlicha bo‘ladi. Uning mahsulotlarini uzoq vaqt saqlash imkoniyatlari cheklangan. Natijada qishloq xo‘jaligi o‘z mahsulotlarini tezlik bilan sotishga majbur bo‘ladilar. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan juda ko‘plab tadbirkorlar shug‘ullanganliklari uchun ularga narx erkin, talab va taklif asosida shakllanadi. Bu narxlar ko‘pincha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun foydali bo‘lmaydi. Shu sabablarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo‘llab-quvvatlash zaruriyati mavjud. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari yaxshi rivojlangan ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i davlat tomonidan tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solib turilishi va qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Respublikamiz bozor munosabatlariga o‘ta boshlaganidan beri o‘tgan davr saboqlari hamda ilg‘or xorijiy mamlakatlarning tajribalari qishloq xo‘jaligini davlatning faol aralashuvisiz rivojlantirib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Chunki bozor sharoitida agrar soha davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasdan turib, sohalararo raqobatga bardosh berolmaydi (4.4.1-jadval).

Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab – quvvatlash zaruratini dastavval qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda qarash maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo‘jaligi murakkab biotexnik texnalogik hamda ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi.

Unda tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan birgalikda yer, suv, o‘simlik va chorva mollari organizm, yorug‘lik, issiqlik, havo, tabiiy iqlim va jug‘rofiy joylashuv kabi tabiiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayonida turli tavsifdagi ushbu omillar uyg‘unlashib ketadi.

4.4.1jadval.

Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dinamikasi[29]

(2015 yil narxlarida)

Yillar	1 ga ekin maydonini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ming so‘m	Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasi, %
2005	306,7	7,0
2006	318,8	6,8
2007	310,0	6,1
2008	413,8	7,9
2009	509,6	9,2
2010	605,6	10,5
2011	487,0	7,7
2012	530,8	7,9
2013	701,4	8,3
2014	774,5	8,5
2015	803,9	8,9

Ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning serqirraligi va murakkab tizimdan iboratligi qishloq xo‘jalik korxonalarining samarali faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini (ob – havo, tabiiy – iqlim sharoiti va h.k.) boshqarish dehqonlarning imkoniyatlar doirasidan tashqari bo‘lib, ularni oldindan rejalashtirib yoki oldini olib bo‘lmaydi. Ammo, bu omillarning qulay yoki noqulay sharoitlarda kelishi xo‘jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitiga (jonli organizmlar, jug‘rofik muhit, ob – havo va boshqalar) bog‘liqligi dehqonlar faoliyatini rag‘batlantirish va sug‘urtalash kabi bir qator himoya vositalarni yaratishni talab qiladi.

Dehqon manfaati tomonidan yondashsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg‘oqchilik tufayli bekorga sovurilishi mumkin. Bunday paytlarda uning ko‘rgan zararini qisman bo‘lsada qoplamaslik kelgusi yil hosiliga ham tahdid soladi. Ob-havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida, balki butun mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zahiralari bo‘lishi maqsadga muvofiq.

[29]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Hosil mo‘l bo‘lgan yillarda davlat oziq-ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlashi va ob-havo noqulay kelib, tanqislik vujudga kelgan yillari bu zaxiralardan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg‘or davlatlarida (AQSH, Yevropa Hamjamiyati davlatlarida, Kanada) qo‘llab kelinadi va o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tabiiy – iqlimiy sharoitlarga bog‘liqligi bu tarmoqda baholar va daromadlarning barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, qulay ob – havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi bahoning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko‘proq g‘alla, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba’zan baholarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida dehqonlar katta zarar ko‘radi. Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo‘lsa, ular xonavayron bo‘lishi turgan gap. Yoki ikkinchi bir yili ob-havoning noqulay kelishi (qurg‘oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin kamayib ketishiga va natijada narxlarning haddan tashqari qimmatlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda dehqonlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko‘rsalar, iste’molchilar narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Ko‘rinib turibdiki, har ikkala holda ham dehqon ko‘proq zarar ko‘radi va bu holat qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari biologik jarayonlar bilan bog‘liqligi tufayli tez buziluvchan bo‘ladi. Ularni uzoq muddat saqlash yoki olis masofalarga tashish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Qishloq xo‘jaligi korxonalaridan farqli ravishda sanoat, savdo yoki xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘z mahsulotlariga baho belgilashda ancha qulay mavqega ega. Chunki, iste’molchi so‘rayotgan narx qoniqtirmasa, ularni toki bozorda qulay vaziyat vujudga kelgunga qadar tovarlarini sotmay saqlab turishlari mumkin. Qishloq xo‘jaligi korxonalari esa sabzavot, meva yoki sut kabi tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishini kutib, uzoq vaqt ushlab turaolmaydilar. Bu xil mahsulotlar ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng o‘zining iste’mol qiymatini yo‘qotishi mumkinligi sababli fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo‘ladilar.

Ikkinchi tomondan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar respublikamizda ko‘pchilikni tashkil etadi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o‘zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya’ni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida nisbatan ideal raqobat hukm suradi. Odatda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘zgarishi unchalik katta bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, unga bo‘lgan talab elastiklikka ega emas (yoki juda past elastiklikka ega).

Aksincha, qishloq xo‘jaligiga moddiy – texnika resurslari yetkazib beruvchi hamda ularga turli xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar hududlar miqyosida kamchilikni tashkil etib, ba’zan monopol mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari xarid qiladigan sanoat mahsulotlari (texnika, mineral o‘g‘it, yoqilg‘i va h. k.) narxi ko‘p hollarda tez sur’atlar bilan o‘sadi. Natijada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari baholari bilan bu tarmoq uchun zarur bo‘lgan sanoat tovarlari yoki xizmatlar baholari o‘rtasida yirik nomutanosiblik (baholar dispariteti) vujudga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samarasini pasaytiradi yoki umuman, zararli qilib qo‘yadi. Bunday holat hech bir mamlakat manfaatiga mos tushmaydi. Bunday vaziyatda davlat qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun noqulay bo‘lgan texnika ta’minoti hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning monopol mavqeini cheklash choralarini ko‘rishga majbur bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zaruriyati bu tarmoqda kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi.

Ma’lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo‘jaligidagiga nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko‘p foyda keltirishi tufayli qishloq xo‘jaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi.

Ammo, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan – texnika yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag‘lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg‘iz qishloq xo‘jaligi korxonalarning mablag‘lari hisobdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Buning uchun davlat byudjeti hisobidan maxsus mablag‘lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, fermer xo‘jaliklarining ijtimoiy rivojlanishi, ya’ni ular uchun yo‘llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta’minoti, ijtimoiy-madaniy obyektlar qurish kabi umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat homiyligisiz yechib bo‘lmaydi.

Janubiy Koreya milliy qishloq xo‘jaligi kooperativlari federatsiyaning ko‘p tarmoqli – ishlab chiqarish – qayta ishlash – servis sohalarini o‘zida birlashtiradi. Mamlakatda yilning barcha fasllarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarini bir xilda ushlab turish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga imtiyozli kreditlar berish, oziq-ovqat markazlarini tashkil etish, muntazam ravishda kooperativ a’zolarining o‘z bizneslarni amalga oshirishlarida manfaatlari va huquqlarini himoya qilish maqsadida treninglar o‘tkazib turish lozim.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlarini tavsiya etib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va qishloq aholisining daromadlarini

oshirishga qaratilgan fermerlarning biznes va turli takliflarini qo‘llab-quvvatlab, har xil moliyaviy xizmatlar va boshqalarni ko‘rsatish borasidagi bozor tamoyillariga mos mexanizmlardan O‘zbekiston sharoitlariga xos jihatlarini respublika fermerlar kengashi tomonidan foydalanish, respublika va hududlar darajasida dehqonlarning nodavlat tashkilotini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Federatsiya fermer xo‘jaliklarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashda ko‘rsatayotgan amaliy yordami borasida moliyaviy, tashkiliy agroklasterlarni tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solish hamda qo‘llab-quvvatlashda davlat bilan o‘zaro hamjihatlikdagi faoliyatidan foydalanish, buning uchun esa Respublika fermerlar kengashi faoliyatini, Savdo-sanoat palatasi va boshqa nodavlat tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqilishi hamda davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat vakilliklari bilan mustahkam aloqa o‘rnatishlari talab etiladi.

Umuman olganda davlat tomonidan innovatsion faoliyat tartibga solishning tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy mexanizmlarga ajratish mumkin, (4.4.1-rasm).



4.4.1-rasm. **Innovatsion faoliyatni tartibga solish mexanizmlari**[30]

[30]S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.

Asosiy tushunchalar

Agrar munosabatlar – bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va qishloq xo‘jaligi vositalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan turli-tuman subyektlar o‘rtasidagi munosabatlardir.

Agrar islohotlar – davlatning yerga mulkchilik munosabatlari va yerda xo‘jalik yuritish usullarini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Agrar-iqtisodiy islohotlar – qishloq xo‘jaligida tub yoki qisman o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Agrar-iqtisodiy islohotlarning mohiyati quyidagilar:

- qishloqda mulkiy munosabatlarni takomillashtirish hamda haqiqiy yer, mahsulot va mulk egalarini shakllantirish;
- cheklangan yer-suv va boshqa moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga imkon yaratuvchi xo‘jalik yuritish tizimini joriy etish;
- fermer xo‘jaliklari va aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tizim – ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish;
- shartnoma munosabatlarini takomillashtirish, xo‘jaligi yurituvchi subyektlarning manfaatdorligini va javobgarligini ta’minlash;
- sanoat va aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash.

Qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarning yo‘nalishlari:

- Yerdan foydalanish islohoti.
- Suvdan foydalanish islohoti.
- Mulk islohoti.
- Moliya-kredit va soliq islohoti.
- Narx-navo islohoti.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning asosiy maqsadi - inson omilining roli va ahamiyati, uning ishlab chiqarishning pirovard natijalarini yuksaltirishdan mafaatdorligi va javobgarligini oshirishdan iborat.

Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari:

1-bosqich.1991-1998 yillarda fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va faoliyat yuritishining asosiy meyoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

2-bosqich. 1999-2002 yillarda zarar bilan faoliyat ko‘rsatayotgan shirkat xo‘jaliklarini tugatish, ular negizida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish jarayoni rivojlandi;

3-bosqich. 2003 yildan fermer xo‘jaliklarini ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish belgilandi;

4-bosqich. 2008 yilda fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalarini maqbullashtirish jarayoni amalga oshirilib, ularni iqtisodiy barqaror faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratildi.

Davlat dotatsiyasi – bu davlat byudjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag‘lari bo‘lib, zararlarni qoplash uchun qishloq xo‘jaligi korxonalariga beriladigan davlat nafaqalari hisoblanadi.

Davlat subsidiyasi – bu zararlarni qoplash va boshqa maqsadlar uchun qishloq xo‘jaligi korxonalariga qaytarib olmaslik sharti bilan beriladigan davlat yordamidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo‘jaligida rejali iqtisodiyot va erkin bozor iqtisodiyotining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligida davlatning agrar-iqtisodiy islohotlar yo‘nalishlari qanday amalga oshirilmoqda?
3. Yer-suv islohoti qanday tartibda amalga oshirilmoqda?
4. Mulk va baho islohoti qanday natijalar berdi?
5. Qishloq xo‘jaligida soliq, moliya va kredit islohotlarini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillar nimadan iborat?
6. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan agrar-iqtisodiy islohotlar qanday natijalar berdi?
7. Qishloq xo‘jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
8. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga davlat byurtmasi, davlat dotatsiyasi va subsidiyasi qanday amalga oshirilmoqda?
9. Qishloq xo‘jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda chet el tajribalaridan qanday foydalanish mumkin?
10. Qishloq xo‘jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish bo‘yicha nimalarga ahamiyat berish lozim?

V-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MULK VA TADBIRKORLIK SHAKLLARI, ULARNING BOZOR SHAROITIDA RIVOJLANISHI

O‘quv maqsadi: Qishloq xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi mulkchilik turlarini barpo etishning zarurligi, qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik shakllari va mulkiy munosabatlarning mazmuni, tarmoqda xususiy mulkni shakllantirishda dehqon va fermer xo‘jaliklarini tashkil etishning obyektiv zarurligi, qishloq xo‘jaligidagi qo‘shma mulk va unga asoslangan qo‘shma korxonalarning iqtisodiy asoslari bo‘yicha bilimlarni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *mulk, mulkiy islohotlar, jamoa, xususiy, shaxsiy, davlat va aralash mulk, tadbirkorlik shakllari, xususiy va shaxsiy korxonalar, qo‘shma korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklar, qo‘shma mulk, kooperativ (shirkatlar), ko‘p ukladli iqtisodiyot.*

5.1. Qishloq xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shakllarini barpo etishning zarurligi

Mulk, uning mohiyati va jamiyat iqtisodiy tizimida egallagan mavqei borasidagi masalalar hozirgi davrning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalaga iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ammo mulkchilik munosabatlariga oid bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi. Bu ayniqsa, MDH mamlakatlarida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti sharoitida va shu asosida mulkchilik munosabatlarini tubdan isloh etish sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mulk – bu barcha ne’matlarga egalik qilish va foydalanish borasida insonlar o‘rtasidagi mavjud munosabatlardir. Mulkchilik munosabatlari mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Mulkchilik mazmunini oydinlashtirish uchun odatda, quyidagi tizimdan foydalaniladi, ya’ni **subyekt** (ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi yoki boshqa mulkning egasi) mulk subyektlari (mulkning boshqa egalari yoki mulkdor bo‘lmaganlar) hayotiy ne’matlarga egalik qilish yuzasidan insonlar o‘rtasidagi vujudga keluvchi munosabatlar, bu aynan mulk munosabatlarining o‘zginasidir. Egalik qilish insonlarning turli xil hayotiy ne’matlarga nisbatan o‘ziniki kabi munosabatda bo‘lishidir.

Bevosita ishlab chiqarish – bu buyumlashgan o‘zlashtirishdir. Hayotiy ne’matlarga egalik qilish borasida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar bevosita ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi buyumlashgan egalik qilishdan farq

qiluvchi, ijtimoiy munosabatlardir. Kishilar buyumlarni o‘ziniki qilib olgandagina o‘zlashtirishlari mumkin, chunki jamiyatda o‘zganikini o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Boylikning o‘ziniki yoki o‘zganiki bo‘lishi kishilarni mulkdor yoki mulksiz qilib, ular o‘rtasida ma’lum munosabatlarni yuzaga keltiradi. Mulk hayotiy ne’matlarining egalari va begonalar o‘rtasida o‘zlashtirish asosida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlardir. Mulk o‘z subyekti va obyekti mavjudligi bilan tavsiflanadi. Turli-tuman ko‘rinishdagi hayotiy ne’matlar, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi kabilar **mulk obyektlarini** ifoda etsa, hayotiy ne’matlar, korxonalarning mulkdori va mulkdori bo‘lmagan jismoniy va huquqiy shaxslar, **mulk subyektlari** sifatida namoyon bo‘ladi.

Ham moddiy, ham ijtimoiy ne’matlar mulk obyektlari bo‘lib xizmat qiladi. Ammo, mulk munosabatlariga ta’sir ko‘rsatish, o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan, moddiy soha va birinchi navbatda, ishlab chiqarish vositalari obyekti bir muncha katta ahamiyat kasb etadi. Mulkning iqtisodiy mazmuni birinchi navbatda, ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulkchilik bilan aniqlanadi. Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlarni, sinflar va aholining turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tavsiflaydi. Iqtisodiy tizimlarni tavsiflash chog‘ida ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik va uni ishchi kuchi bilan birlashtirish usullariga iqtisodiy adabiyotlarda alohida urg‘u beriladi.

Ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulkchilik - bu iqtisodiy kategoriya sifatida mulk munosabatlarining asosini tashkil etadi. Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik har qanday jamiyatning iqtisodiy asosini tashkil etgan holda, barcha ishlab chiqarish munosabatlarini qamrab oladi. Mulkchilik munosabatlarining muhim unsuri sifatida ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulk borasidagi nazariy qoidalar keyingi paytlarda iqtisodiy adabiyotlarda bir qadar oqilona tanqidga uchramoqda.

Ishlab chiqarish vositalariga va ishchi kuchiga bo‘lgan mulkchilik ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol sohasidagi barcha iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Mulkning iqtisodiy mazmuni, ya’ni ishlab chiqarish vositalariga va ishchi kuchiga egalik qilish munosabatlari barcha ijtimoiy munosabatlarning mazmunini belgilab beradi. Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi, ya’ni ishlab chiqarish kuchlariga egalik qilish munosabatlari qolgan barcha iqtisodiy munosabatlarning mohiyati va asosini tashkil etadi. Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga mulkchilik munosabatlari, bu alohida ishlab chiqarish munosabatlari emas, aksincha yaxlit holdagi ishlab chiqarish munosabatlarining uzviy bir bo‘lagidir.

Mulkiy munosabatlar ashyoviy munosabatlar tarzida huquqiy jihatdan boshqarilgan yoki rasmiylashtirilgandan keyin ular mulk huquqi shaklini oladi.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida turli mulkchilikka asoslangan xo‘jaliklar faoliyat ko‘rsatmoqda, ya’ni jamoa mulkiga asoslangan qishloq xo‘jalik korxonalari, xususiy va shaxsiy mulkka asoslangan fermer va dehqon xo‘jaliklaridir (5.1-jadval).

5.1-jadval

Xo‘jalik shakllari bo‘yicha asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi[31], %

Mahsulot turi	Qishloq xo‘jaligi korxonalari				Fermer xo‘jaliklari				Dehqon xo‘jaliklari			
	2000	*2013*	*2015*	*2016*	*2000*	*2013*	*2015*	*2016*	*2000*	*2013*	*2015*	*2016*
Paxta xom-ashyosi	81,7	1,0	0,1	0,5	18,3	99,0	99,9	99,5	-	-	-	-
Don	67	1,3	1,3	1,3	14,4	80,6	81,2	80,4	18,6	18,1	17,8	18,3
Kartoshka	15,7	0,8	0,4	0,8	4,2	24,1	26,1	23,1	80,1	75,1	73,5	76,1
Sabzavot	20,1	0,7	0,5	0,9	4,9	35,6	37,1	34,8	75	63,7	62,4	64,3
Meva	36,8	1,3	1,3	2,1	4,3	46,4	48,9	45,8	58,9	52,3	49,8	52,1
Uzum	62,3	1,4	1,3	1,5	4,7	54,5	56,3	53,1	33	44,1	42,4	45,4
Poliz	25,3	1,6	1,7	1,6	11,2	50,2	51,9	49,5	63,5	48,2	46,4	48,9
Go‘sht (tirik vaznda)	7,6	2,7	2,4	2,7	1,3	2,7	2,8	2,9	91,1	94,6	94,8	94,4
Sut	4,9	0,7	0,5	0,7	1,5	3,6	3,7	3,6	93,6	95,7	95,8	95,7
Tuxum	39,1	33,8	31,0	31,6	1,0	11,4	13,1	10,7	59,9	54,8	55,9	57,7
Jun	24,6	6,2	6,0	6,5	1,1	6,9	7,1	8	74,3	86,9	86,9	85,5
Qorako‘l teri	66,8	19,6	20,0	11,1	1,1	4,8	5,1	5,4	32,1	75,6	74,9	83,5
Pilla	2,8	4,7	3,5	3,4	97,2	95,3	96,5	96,6	-	-	-	

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida birinchi marta mulk huquqi xususida tushuncha berilib, 164-moddaga asosan: “Mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini kim tomonidan bo‘lmasin har qanday buzilishini bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir” deya ta’rif beriladi.

5.2. Qishloq xo‘jaligida davlat mulki va davlat korxonalari

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yer davlat mulki hisoblanadi. Bu davlatimizning bosh qomusida o‘z ifodasini topgan. Shunga ko‘ra, unga egalik qilish munosabatlarining rivojlanishi natijasida qishloq xo‘jaligida bugungi kunga kelib xo‘jalik yuritishning turli-tuman shakllari vujudga keldi.

Xo‘jalik yuritish subyektlarining turli-tumanligi tufayli iqtisodiy manfaatlarga bog‘liq holda, ularning aniq ko‘zlangan maqsadlari ham turlichadir. Ammo, ayni paytda ular uchun mulk obyektlaridan oqilona foydalanish, ularni istiqbolli rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga jadal joriy etish kabi umumiy jihatlar ham xosdir.

[31] Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida asosida tuzilgan.

Davlat mulkini boshqarishni tashkil etishning samaradorligi ushbu faoliyatning hokimiyat va boshqaruv organlari o‘rtasida funksional tarzda qanday taqsimlanganligiga bevosita bog‘liqdir. Bu o‘rinda, ya’ni munosabatlarning birinchi guruhida davlat sektorini e’tiborga olgan holda uning faoliyati tashkiliy-huquqiy va davlat xazinasini to‘ldirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, davlat mulki: respublika va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan iborat bo‘ladi. Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hukumati va boshqaruvi tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag‘lari, oltin zahirasi, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi.

Xususiy va davlat sektori o‘rtasidagi chegaralarni aniqlashtirishda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasini kamaytirish hamda mulkning xususiy va davlat shakllari o‘rtasidagi nisbatlarini belgilashdan iboratdir.

Davlat mulki mavjud bo‘lishining obyektiv zaruriyati bozor nomukammalliklari bilan ham izohlanadi. Buning sababi tashqi samara, tabiiy monopoliyalarning mavjud bo‘lishi, axborotlar assimetriyasi va shu kabilar.

Shu tariqa iqtisodiyotga davlat aralashuvi darajasining kamayishi va davlat mulki o‘lchamlarini o‘zgartirish har bir davr va har bir mamlakat uchun iqtisodiy erkinlik va xo‘jalik aralashuvi, butun ijtimoiy xo‘jalikning mikro va makraiqtisodiy manfaatlari, xususiy va davlat tadbirkorligi o‘rtasida ma’lum bir maqbul bo‘lgan nisbatlarini ta’minlash borasida iqtisodiy tizimning ichki intilishlarini aks ettiradi. Quyidagi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan omillar qishloq xo‘jaligida davlat mulkining zaruriyat sifatida mavjud bo‘lishini belgilab beradi:

- xususiy sektorning faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan makroiqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, ya’ni an’anaviy tarzda xususiy kapital uchun qiziqish uyg‘otmaydigan, tijorat jihatdan foydasiz bo‘lgan, ammo milliy xo‘jalik uchun takror ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini belgilab beruvchi tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash;
- fan-texnika taraqqiyoti jarayonlarining jadallashuvini belgilab beruvchi va ushbu asosda mamlakatning jahon xo‘jaligida raqobatbardoshligining mustahkamlanishini ta’min etuvchi ilm va kapital sig‘imli qiymatga va tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish;
- ishchi o‘rinlarini yaratish yoki saqlab qolish, mahsulotlarga nisbatan past narxlarni belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida qoloq hududlarni rivojlantirish;
- milliy va ekologik xavfsizlikni ta’minlash;
- shartnoma va kelishuvlarning amalga oshishi uchun shart-sharoitlar yaratish va davlat kafilligini berish.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida davlat mulki g‘arb mamlakatlaridagi xo‘jalik yuritishning aynan shu shakliga nisbatan birmuncha samaraliroqdir, bu

holatni faqatgina davlat mulkining keskin qisqarishi xarajatlarning o‘sishi va ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi bilan izohlab bo‘lmaydi. Bizningcha, hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, yagona iqtisodiy makonni yaratish maqsadida milliy iqtisodiyotda davlat mulki ulushini ma’lum nisbatlarda saqlab qolish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo qiladi. Chunki sog‘lom bozor iqtisodiyoti davlat monopoliyasi bilan chiqishmaydi, monopoliya raqobatga to‘sqinlik qiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining hissasi kamayib, u asosan xususiy mulkka, ayrim hollarda shaxsiy mulkka va jamoa mulkiga aylanadi.

Shu sababli “iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining g‘oyat muhim vazifasi davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat edi”, deya ta’kidlaydi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov. Respublikamizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo‘yicha qishloq xo‘jaligida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida tarmoqda davlat mulki hissasi keskin kamayib bormoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida davlat mulki hissasining keskin pasayishi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning birinchi davri (1990-1994 yillar) ga to‘g‘ri keladi.

Bu davrda qishloq xo‘jaligidagi barcha davlat xo‘jaliklari jamoa va fermer xo‘jaliklariga aylantirila boshlandi. Natijada davlat xo‘jaliklarining yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi hissasi 1991 yilda 34,0 % dan 2015 yilga kelib, 0,2 % ga tushib qolganini kuzatish mumkin. Davlat mulki hissasi iqtisodiy islohotlarning keyingi davrlarda ham pasayish tendensiyasiga ega. Bu qishloq xo‘jaligida davlat korxonalari sonining keskin kamayishida o‘z ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda navbatda turgan muhim vazifalarni e’tiborga olgan holda bugungi kunda bir qancha muammolarni hal etishni o‘z zimmasiga olgan. Bunda davlat bosh islohotchi ekanligi isbotlanmoqda. Hozirgi davrda respublika hukumatining asosiy e’tibori qishloq xo‘jaligining barcha sohalari yagona fan-texnika siyosatiga asoslangan holda rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Bu nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Chunki ilm-fan, yangi, samarali texnika hamda ilg‘or texnologiya barcha yutuqlarning asosiy garovidir.

To‘la fermer xo‘jaliklariga o‘tish qishloq xo‘jaligida yerning meliorativ holatini, uning gumus qatlami yaxshi saqlanib va asta-sekin yaxshilanib borishiga kafolat bera olmaydi. Bunga qishloq xo‘jaligida yer ball-boniteti respublikamiz miqyosida tadqiq etilayotgan davrda 3 ballga va ba’zi viloyatlarda 7-9 ballga pasaygani, yerning sho‘rlanish darajasi oshib, yer maydonlarining ba’zi hollarida ekin maydonlari tarkibidan chiqib borayotgani misol bo‘lishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligida davlat mulki saqlanib qolishining maqsadga muvofiqligi hamda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar va sohalar sifatidagi o‘rni:

- urug‘chilik, naslchilik, ko‘chatchilik, yangi sermahsul, tezpishar navlarni yaratish, ularni rivojlantirish muammolari;
- irrigatsiya-melioratsiya ishlarini rivojlantirish, yerning meliorativ holatini yaxshilash, yer erroziyasiga va sho‘rlanishiga qarshi kurash muammolari;
- iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlarini yaratish va ularni chuqurlashtirish bo‘yicha tajriba eksperimental uchastkalarini tashkil etish va rivojlantirish muammolari;
- yangi texnika va innovatsion texnologiyalarni, agrotexnika tadbirlarini takomillashtirish, dehqonchilik yuritilishida ilg‘or texnologiyalarni yaratish va uni ishlab chiqarishga tatbiq etish muammolari va boshqalar.

5.1.2-jadval

Qishloq xo‘jaligida davlat mulki hissasi bilan davlat investitsiyasi hajmi o‘rtasidagi nisbat[32]

Ko‘rsatkichlar	1990	1995	2012	2013	2014	2015	2016
Davlat korxonalari soni	786	261	12	12	12	12	12
Yalpi mahsulotda davlat mulki hissasi, %	34,0	2,2	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1
Qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yalpi investitsiya hajmi,%	26,7	7,2	5,3	5,4	5,6	5,8	5/6
Qishloq xo‘jaligi asosiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi jamiga nisbatan ulushi, %			4,8	4,6	4,1	4,3	4,3

[32] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish davrida qishloq xo‘jaligida davlat mulki hissasining kamayishi, tarmoq ishlab chiqarish samaradorligining yuksalishiga olib keldi (5.2.2-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizda 1990-2015 yillarda qishloq xo‘jaligida davlat mulki hissasi hajmining pasayishi, shunga mos ravishda tarmoqda davlat investitsiyasi hajmining pasayganligini kuzatish mumkin. 1990-1995 yillarda qishloq xo‘jaligida davlat mulki bilan yalpi investitsiya hajmi hissasi 34,0 % dan 2,2 %ga, tarmoqdagi davlat investitsiyasi hajmi 26,7 %dan 7,2 % ga keskin pasaygan va undan keyingi 2015 yilga kelib mos ravishda 0,1 va 5,8 % gacha pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Qishloq xo‘jaligida davlat mulki hajmining pasayishi, tarmoqda mehnat va xizmat ko‘rsatish sohalari hamda investitsiya bozorlarining yaxshi rivojlanmaganligi, qishloq bozor infratuzilmasining takomillashmaganligi kabi muammolar undagi investitsion faollikning jadallashuviga to‘siq bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishda nodavlat sektorning ulushi 99 % ni tashkil etsa-da, biroq sohaning rivojlanish darajasi davlat mulki hajmi yuqori bo‘lgan sanoat tarmog‘i rivojlanishi asta-sekinlik bilan amalga oshmoqda. Bunga muhim sabablar sifatida qishloqda davlat mulki hajmining pasayishi xorijiy investorlar uchun davlat kafolatlarining ortishiga olib keldi va natijada chet ellik tadbirkorlarning bunday serdaromad sohaga e’tiborlari kuchaymoqda.

Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan davrda davlat mulki va ularga egalik qilish huquqi berilgan davlat korxonalari davlat mulki asosida to‘liq xo‘jalik yuritish huquqiga ega. Korxona mol-mulki bilan to‘la xo‘jalik yuritish huquqini amalga oshirar ekan, mazkur mulkka nisbatan o‘z hohishi bilan qonun doirasida faoliyat yuritadi.

5.3. Qishloq xo‘jaligida jamoa, xususiy, shaxsiy va aralash mulk turlari

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida shirkat xo‘jaliklari jamoa mulkining pay ulushi shaklidagi mulk ko‘rinishi hisoblanadi. Pay ulushi o‘zida shunday mulk munosabatlarini ifoda etadiki, unga ko‘ra jamoa mulkining har bir a’zosi, pay ulushining egasi iqtisodiy faoliyatining yuqori samaradorlikka ega bo‘lishidan manfaatdor bo‘ladi.

Jamoa mulki paylari aksiyalar, shaxsiy hisob raqamlari, omonatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ular quyidagi holatlarda tashkil topadi: hissadorlik jamiyatlarini tashkil etishda; mehnat jamoasi tomonidan korxona mulkini sotib olish va ularga mulkning bir qismini keyinchalik xodimlarga pay ulushi tariqasida taqsimlash sharti bilan tekinga berish natijasida; ijara korxonalarining pay ulushi fondi hisobiga; qo‘shma mulkni payli mulkka aylantirish hisobiga.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamoa mulkining o‘ziga xos shaklishirkat xo‘jaliklari mulki vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi

Fuqarolik kodeksining 49-moddasiga asosan, yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning “biriktirish, qo‘shib yuborish, ajratib yuborish, bo‘lib yuborish va o‘zgartirish” kabi bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ularning orasida bizning shart-sharoitga iqtisodiy samaradorlik yuzasidan eng maqbulini tanlash-o‘zgartirish usulidir. O‘zgartirish – bu korxonaning yaxlitligini saqlab qolgan holda, uning tashkiliy-huquqiy shaklini almashtirishdir. Ya’ni, o‘zgartirish usuli orqali korxona qayta tashkil etilganda, uni mayda bo‘laklarga bo‘linib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu esa qayta tashkil etilayotgan korxona mol-mulkining talon-toroj bo‘lishidan saqlaydi hamda ko‘plab kapital qo‘yilmalar sarflashni talab etmaydi. Zero, korxona qancha ko‘p parchalansa, shuncha ko‘p kapital sarf qilishga to‘g‘ri keladi.

Shu nuqtai nazardan, mustaqillikning dastlabki yillarida Prezidentimiz tashabbusi bilan sobiq tuzum davridagi jamoa xo‘jaliklari o‘rnida o‘zgartirish usuli orqali shirkat xo‘jaliklari tashkil etildi. Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda bu to‘g‘ri tanlangan usul deb baholanmoqda.

Respublikamizda mustaqillikning birinchi yillarida shirkat xo‘jaliklarini tashkil etishning ikkinchi muhim omili ijtimoiy sohaga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, u xo‘jalik yuritish shakli sifatida o‘tish davri talablariga to‘la mos keladi. Unda mulkchilikning xususiy va umumiylik xususiyatlari mujassamlashgan.

Respublikamizda 1996 yilda 26 ta jamoa xo‘jaligini yopiq turdagi qishloq xo‘jaligi aksiyadorlik jamoalariga aylantirish va ular faoliyatini bozor munosabatlari doirasida amalga oshirish hamda ular bo‘yicha o‘tkazilgan tajribadan keyin 1998 yilda “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi qonun va “Qishloq xo‘jaligini isloh qilishga oid qonun hujjatlariga muvofiq, qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) tuzish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 299-sonli qarori qabul qilingandan so‘ng, faoliyat ko‘rsatib turgan jamoa xo‘jaliklari shirkat xo‘jaliklari sifatida qayta tashkil etila boshlandi.

Qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish va shirkat xo‘jaliklarini rivojlantirish nuqtai nazaridan respublikamiz iqtisodiy adabiyotlarda bir guruh olimlar tomonidan tayyorlangan mulkiy pay ulushi asosida qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) tuzish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risidagi Qonunda unga shunday ta’rif berilgan: “Qishloq xo‘jaligi kooperativ (shirkat xo‘jaligi) – bu mahsulot yetishtiruvchi, pay usuliga va oila pudrati (ijarasi)ga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir”. Ushbu ta’rifdan shunday xulosaga kelinadi: birinchidan, xo‘jalik shaklini, uning tashqi ko‘rinishini, iqtisodiy mazmunini ifoda qilsa, ikkinchidan, mulkiy pay, xususiylik belgisi, xo‘jalik a’zosi korxona mulkining ma’lum qismiga egalik qilishi, mulk egasi ekanligi va xo‘jalik faoliyati yakuniga ko‘ra, ma’lum darajada daromad olishini anglatadi. Uchinchidan, oilaviy pudrat (ijara)

korxonaning ichki tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ifoda etadi. U ma’muriyat bilan shirkat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi, ishlab chiqarish bo‘g‘inlarida mehnatni tashkil qilishning asosiy shaklidir.

Pay mulklarga asoslangan shirkat xo‘jaligi shaklini yaratish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asosi sifatida mulkni ko‘p qirrali iqtisodiy kategoriya sifatida e’tiborga olgan holda, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar pay mulk egalari, ya’ni a’zolar va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘rtasida sodir bo‘ladigan mulkiy munosabatlar majmuini belgilash va uni mulkiy huquqlari doirasida takomillashtirish zarur.

Payli mulkchilikka asoslangan, xo‘jaliklarning ahamiyati va afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, yaratilgan mulk va yetishtirilgan mahsulotlar bevosita xo‘jalik a’zolari, mulkdorlar tasarrufida bo‘lishi va ularni ishlab chiqarish iqtisodiy pirovard natijalarini yaxshilashdan manfaatdorligi sababli xo‘jalik yuritish faoliyatlarida bozor mexanizmlari dastaklari va fan-texnika yutuqlarini tezroq o‘rganish hamda joriy etishga majbur etadi.

Ikkinchidan, har bir a’zo umumiy mulkda o‘z payiga ega bo‘ladi va undan mulkiy paylari asosida ixtiyoriy ravishda foydalanish huquqini qo‘lga kiritadi. Pay qanchalik katta bo‘lsa, uning egasi oladigan divident ham shunchalik katta bo‘ladi. Shuning uchun har bir mulkdor o‘z payini ko‘paytirish bilan bir qatorda, dividend manbai hisoblanmish foydani o‘stirish maqsadida ham o‘z samarali va tadbirkorlik bilan mehnat qilishdan manfaatdor bo‘ladi.

Uchinchidan, bu shakldagi xo‘jalikda avvalgi mulkka nisbatan yagona tizim saqlanib qoladi va uni tashkil etgan ichki bo‘linmalar a’zolarini ixtiyoriy asosida faoliyat ko‘rsatadigan mustaqil va erkin xo‘jalik yuritish haq-huquqlarini yangicha ma’noda amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Tadbirkorlik va tijorat ishlari uchun keng yo‘l ochiladi. Sanoatlashgan yangi ish joylari tashkil etish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan, tayyor mahsulotlarni qadoqlaydigan, o‘raydigan uskuna-jihozlarni o‘rnatish, mahsulotlarni saqlash va iste’molchilarga yetkazish kabi muammolarni birgalikda hal etish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi.

To‘rtinchidan, payli mulkdan olinadigan foydalarni muttasil o‘sib borishi o‘z navbatida xo‘jalik hududida markazlashgan maxsus jamg‘armalar, kapital sarmoyalar hisobiga quriladigan ijtimoiy soha subyektlari kengayishiga, uning rivojlanishiga katta moliyaviy mablag‘lar ajratishga va shu asosda qishloqlarni shahar tarzi darajasiga ko‘tarishga sharoit tug‘diradi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: a’zolarning paybay mulklariga asoslangan xo‘jalik yuritish subyektlari deganda jismoniy va yuridik shaxslarning o‘z mulklarini o‘z huquqlari bilan birlashtirib, to‘plangan mulk asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va olingan daromadni mulkdorlar orasida adolatli taqsimlash hamda foyda olishni nazarda tutish lozim.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa mulklarga egalik qiluvchi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi yuridik shaxsdir.

2000-2016 yillarda, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning barcha toifadagi xo‘jaliklardagi ulushi, don ekinlari maydonlari bo‘yicha 72,1 foizdan 2,2 foizgacha, g‘o‘za 79,3 foizdan 0,8 foizgacha, kartoshka 16,7 foizdan 0,9 foizgacha, sabzavotlar 26,8 foizdan 1,6 foizgacha, poliz 40,7 foizdan 2,0 foizgacha, mevali bog‘lar 64,0 foizdan 8,4 foizgacha, tokzorlar 72,2 foizdan 3,7 foizgacha kamaydi.

Tahlil etilayotgan davrlarda, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan ulushi, yirik shoxli qoramollar bosh soni bo‘yicha 10,1 foizdan 1,2 foizgacha, sigirlar 7,7 foizdan 0,9 foizgacha, qo‘y va echkilar 30,4 foizdan 8,4 foizgacha, cho‘chqalar 45,1 foizdan 8,5 foizgacha, otlar 24,3 foizdan 5,5 foizgacha, tuyalar 63,6 foizdan 31,7 foizgacha, parrandalar 35,1 foizdan 26,4 foizgacha, asalari oilalari 43,4 foizdan 7,8 foizgacha kamaydi.

Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlarining, chorva mollari va parrandalar bosh sonining tahlil qilinayotgan davrlarda kamayishi, o‘z navbatida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining kamayishiga ham sabab bo‘ldi (5.3.1-rasm).



5.3.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan ulushi** (foizda)[33]

[33] O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarining faol ishlashini ta’minlash va ularni bozor munosabatlari talablariga moslashtirish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- shirkat xo‘jaligi faoliyatining asosiga mehnatkashlar uchun tushunarli bo‘lgan, shu bilan birga bozor talablariga javob beradigan mexanizmlarni muvaffaqiyatli joriy etish asosida haqiqiy mulk egalarini shakllantirish;
- bozor munosabatlari subyekti sifatida shirkat xo‘jaliklari samarali faoliyatini ta’minlovchi erkin shartnomaviy asoslarda va shunga mutanosib tarzdagi javobgarlik institutlarining faol ishlashiga erishish. Chunki aynan shartnoma instituti shirkat xo‘jaligining ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarini ro‘yobga chiqaradi. Javobgarlik instituti esa shartnomaning erkin, teng kuchli va jiddiyligini ta’minlaydi.
- shirkat xo‘jaligi yirik qishloq xo‘jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi sifatida xususiy, davlat va boshqa jamoa mulki shakllariga nisbatan bir qator afzalliklarga egaligi, ularning mamlakat qishloq xo‘jaligidagi asosiy ukladlardan biri sifatida faoliyat ko‘rsatishini belgilab beradi. Ya’ni ular ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yangiliklarini ishlab chiqarishga tatbiq etish borasida boshqa ukladlarga nisbatan ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lish bilan birga, noqulay tabiiy va iqtisodiy omillarga kuchliroq qarshilik ko‘rsata olish xususiyatiga ega. Shuni unutmaslik kerakki, ko‘plab dehqon xo‘jaliklari o‘z faoliyati davomida shirkat xo‘jaligilari potensialidan rasmiy va norasmiy ravishda foydalanib kelmoqda.

Shirkat xo‘jaliklari tashkil etish jarayonida jamoa xo‘jaliklari a’zolarining manfaatalariga mos ravishda mol-mulkning beg‘araz, pay asosida bo‘lib berilishi, mulkni xususiylashtirish natijasida mulkni sotish va bepul berish shakllarini uyg‘unlashtirib olib borishga harakat qilindi.

Bugungi kunda shirkat xo‘jaliklari bozor munosabatlari sharoitiga to‘la moslasha olganicha yo‘q. Ularning ichki iqtisodiy mexanizmi hamda o‘zga iqtisodiy subyektlar bilan aloqalari borasida eskicha yondashuvlar saqlanib qolmoqda. Bu esa shirkat xo‘jaliklarining kutilgan darajada samaradorlikka erishishi hamda uning a’zolari xaqiqiy mulkdorlarga aylanishi uchun to‘sqinlik qilmoqda.

5.4. Dehqon va fermer xo‘jaliklari, ularning rivojlanishi

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davlat mulki mohiyatini o‘zgartirishni taqozo etadi, bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotida davlat va jamoa mulki mohiyatini yangicha uslubiy asosda qarab chiqishni talab etadi.

Mulk subyekti mulk obyektiga egalik qilish va undan foydalanish imkoniyatlarini ifoda etuvchi, mulk munosabatlarning faol tomonidir (5.4.1-rasm).

Qishloq xo‘jaligida xususiy mulkning mohiyati shundan iboratki, moddiy sharoitlarda ishlab chiqarish natijalari ayrim shaxslarga qarashli bo‘ladi. Bu

turdagi mulkda mehnat natijalari o‘zlashtirishning xususiy mulkchilik qonuniga muvofiq, mulkdorning o‘ziniki hisoblanadi va u mustaqil xo‘jalik yuritib, unga egalik qiladi.

Xususiy mulk - fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, qo‘shma korxonalar, oila tadbirkorligi, ijara jamoa, xususiy korxonalar, korporativ korxonlari, aksiyadorlik jamiyatlari, xo‘jalik assotsiatsiyalari (birlashmalari) mulklarini o‘z ichiga oladi. Xususiy mulk davlat mulki tarkibiga kirmagan barcha mulklardir.

Xususiy mulkchilik jamiyat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususiy mulkchilik mulk egalarida undan unumliroq foydalanish qobiliyatini oshiradi. Mulkdor mulkidan qancha unumliroq foydalansa, o‘zi shuncha ko‘proq manfaatdor bo‘ladi. U iqtisodiyotni barqarorlashtiradi, bozor iqtisodiyotida o‘zaro raqobatni avj oldiradi va qiymat qonunining amal qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



5.4.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligida nodavlat mulk turlari**

Xususiy mulkchilik ishlab chiqarishni ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga olib keladi, davlatga qaramlikni yo‘qotadi, mulkka o‘z xohishicha munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Xususiy mulkchilik jamiyat oldida shaxsning erkinligini ta’minlaydi.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligida *xususiy mulk* boshqa mulk shakllariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- mulk egasi ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita bog‘lanish huquqiga ega bo‘lib, ulardan qay shaklda foydalanishni o‘zi hal qiladi va amalga oshiradi;

- ishlab chiqarish faoliyatida to‘la mustaqilikka ega bo‘ladi, hohlagan mahsulotni qancha yetishtirishini o‘zi hal qiladi;
- doimo iqtisodiy va qonuniy javobgarlikni his etadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ko‘p ukladli agrar iqtisodiyotni barpo etish asosida bozor munosabatlarini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida raqobat muhitini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish yo‘nalishida amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Negaki, fermer xo‘jaliklari o‘z ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xo‘jalik yuritish tamoyillari jihatidan bozor iqtisodiyoti talablariga to‘liq muvofiq keladi. Bular quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- respublikamizda fermer xo‘jaliklarining mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi bozor subyekti sifatida faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy-meyoriy asoslar yaratilgan;
- fermer xo‘jaliklarining xususiy mulk asosida faoliyat yuritishi ularga mustaqil ravishda barcha iqtisodiy va moliyaviy xavf-xatarlarni o‘z zimmalariga olgan holda bozorlarni tanlash imkoniyatini beradi;
- fermer xo‘jaliklarining bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishi, kimga va qancha miqdorda mahsulot sotishni mustaqil hal etishi bozorda raqobat muhitini rivojlantirishga va shu orqali butun iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishiga asos yaratadi;
- fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish natijalarini majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng, mustaqil o‘zlashtirish va tasarruf etishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga kuchli iqtisodiy rag‘batlar paydo qiladi va bozor mexanizmining joriy etilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, fermer xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyatining muhim shakli sifatida iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Buning natijasida, xo‘jalik yuritish shakllari orasida fermer xo‘jaliklarining mavqei yildan-yilga oshib bormoqda.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 16 martdagi 47-sonli “Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish yakunlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 66134 ta fermer xo‘jaliklari tashkil etildi.

Ta’kidlash lozimki, fermer xo‘jaliklari sonining o‘sishi ularning faoliyati samaradorligi darajasi to‘g‘risida to‘liq tasavvur bermaydi. Fermer xo‘jaliklari

faoliyati samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish uchun ularning ixtisoslashuv darajasi muhim ahamiyatga ega (5.4.1-jadval).

Fermer xo‘jaliklari ixtisoslashuv jarayonining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2000-2016 yillarda respublikada chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari dehqonchilikka nisbatan ustun ravishda rivojlangan bo‘lsa, 2012-2016 yillarda dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari va ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari ko‘plab tashkil etilayotganligini, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari salmog‘ining ham yildan-yilga oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

5.4.1-jadval

Fermer xo‘jaliklarining asosiy faoliyati ko‘rsatkichlari[34]

Ko‘rsatkichlar	**O‘lchov birligi**	**2000 yil**	**2012 yil**	**2013yil**	**2014yil**	**2015yil**	**2016yil**
Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotida fermer xo‘jaliklarining ulushi	%	5,5	34,4	34,0	34,1	34,5	32,9
sh.j.: o‘simlikchilikda	%	4,9	56,0	53,7	54,2	55,3	55,7
Chorvachilikda	%	0,6	4,4	4,5	4,8	4,9	9,5
Fermer xo‘jaliklar soni	birlik	43759	70761	73449	80541	96081	132356
Ekin maydoni	ming ga	632,2	3082,5	3101,7	3313,7	5822,5	5810,4
Jami ekin maydonida fermer xo‘jaliklari ulushi	%	16,7	85,0	84,8	85,1	85,9	74,0
Ishchilar soni	ming kishi	294,9	1349,9	1357,4	1591,3	1627,8	1723,4
Shundan: yollanma ishchilar	ming kishi	0,0	443,1	401,3	414,8	421,3	422,7
O‘rtacha bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan:							
- ishchilar soni	kishi	7	20	18	18	19	22
- ekin maydoni	ga	20,3	43,6	42,2	42,8	60,6	43,9

2000-2016 yillarda, fermer xo‘jaliklarining barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan ulushi, don ekinlari maydonlari bo‘yicha 15,8 foizdan 85,4 foizgacha,

[34]Манба: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar).

g‘o‘za 20,7 foizdan 99,2 foizgacha, kartoshka 5,0 foizdan 21,4 foizgacha, sabzavotlar 6,5 foizdan 36,6 foizgacha, poliz 17,5 foizdan 53,8 foizgacha, mevali bog‘lar 7,1 foizdan 61,5 foizgacha, tokzorlar 5,8 foizdan 65,1 foizgacha ko‘paydi (5.4.2-rasm).



5.4.2-rasm. **Fermer xo‘jaliklarining barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan ulushi** (foizda)

Tahlil natijalari, fermer xo‘jaliklarida paxtachilik, donchilik, meva-sabzavotchilik va dehqonchilikning boshqa sohalarining yuqori sur’atlarda rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2000-2016 yillarda fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan don ekinlarining barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan ulushi 14,4 foizdan 80,4 foizgacha, paxta xom-ashyosi 18,3 foizdan 99,5 foizgacha, kartoshka 4,2 foizdan 23,1 foizgacha, sabzavotlar 4,9 foizdan 34,8 foizgacha, poliz 11,2 foizdan 49,5 foizgacha, mevalar 4,3 foizdan 45,8 foizgacha, uzum 4,7 foizdan 53,1 foizgacha ko‘paydi.

Buning sabablari **birinchidan,** hozirgi kunda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining ozuqa bazasi yaxshilanganligi, nasldor mollar sotib olish imkoniyati paydo bo‘lganligi,

ikkinchidan, keyingi yillarda chorvachilikni yanada rivojlantirishga nisbatan e’tiborning ortayotganligidir.

Qishloq xo‘jaligida yer islohotlarini amalga oshirish yer resurslarini turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida qayta taqsimlash asosida amalga oshirilmoqda. Bundan asosiy maqsad yerga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, dehqonlarda yerga egalik hissini kuchaytirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o’z ma’ruzasida, “Fermerlik harakatini rivojlantirish natijasida mamlakatimizda keyingi yillarda 160 mingdan ortiq fermer xo‘jaliklari shakllanib, ular bugungi kunda 10 dan ortiq yo‘nalishlarda samarali faoliyat yuritmoqda. Eng quvonarlisi, 12 mingdan ziyod fermer xo‘jaligi rahbarlarini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etsa, 6 mingdan ortiq fermer xo‘jaligiga xotin-qizlarimiz rahbarlik qilmoqda.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari oxirgi ikki yilda 45 foizga ko‘payib, bugungi kunda ularning soni 75 mingtaga yetdi. Faqat shuning hisobidan joylarda, uzoq-uzoq qishloqlarda yuz minglab yangi ish o‘rinlari barpo etildi. Olib borilgan iqtisodiy islohotlar, fermerlik harakatining rivojlanishi natijasida joriy yilda mamlakatimiz bo‘yicha 8 million 377 ming tonna g‘alla yetishtirildi.”[35]

Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida ilmiy adabiyotlarning ko‘pligiga qaramasdan, haligacha uning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati to‘g‘risida umumiy qabul qilingan ta’rif yo‘q. Uning mohiyati, agrar munosabatlar tizimidagi o‘rni va tuzilmasi muttasil tarzda shakllanib, aniqlashtirilib borilmoqda. So‘nggi yillarda dehqon xo‘jaligi muammolariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy monografiyalar va ilmiy risolalar chop etildi va bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar munosabatlar tizimida dehqon xo‘jaliklarining obyektiv zarurligi asoslab berildi.

Dehqon xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning oddiy bo‘g‘ini sifatida asosan moddiy va xizmat ko‘rsatish sohalaridan tashkil topgan bo‘lib, bugungi kunda dehqon xo‘jaligi ishlab chiqarish faoliyati, norasmiy xo‘jalik pozitsiyasiga asosan uy xo‘jaligida jamlangan. Shu bilan birga, ba’zi bir uy xo‘jaliklari boshqa turdagi, ya’ni uy xo‘jaligi doirasidan tashqaridagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritishi mumkin. Bular uy xo‘jaliklar tomonidan mebel, uy xo‘jaligi buyumlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, transport vositalarini va jihozlarni ta’mirlash, qurilish faoliyati, tikuvchilik, savdo va hokazo faoliyat yo‘nalishlaridir.

Shaxsiy yordamchi xo‘jalik tarkibiga xo‘jalik binolari, mol, parranda, asalari, ko‘p yillik mevali daraxtlar, tomorqa uchastkasi va mayda qishloq xo‘jaligi inventari kiradi. Shaxsiy yordamchi xo‘jalik xarakterini va uning rivojlanish darajasini to‘laligicha ijtimoiy ishlab chiqarish belgilab beradi.

Dehqon xo‘jalik milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishda resurslarni tejamli foydalanadigan xo‘jalik shakli sifatida xarakterlanadi. Dehqon xo‘jaligining bu

---

[35]Mirziyoyev SH.M. Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamizdir // Xalq so‘zi. 10.12.2017.

xarakteri oilaning pul xarajatlarini kamaytiradi va bu bilan oila byudjetini mustahkamlaydi. Dehqon xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning tashkil etilishi, davlatni ijtimoiy ishlab chiqarish sektorida ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini va shu bilan birga aholiga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi.

Dehqon xo‘jaligi va uy xo‘jaligida ishlab chiqarish faoliyati organik jihatdan bir-biriga mos keladi. Dehqon xo‘jaligi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning ma’lum qismi uy xo‘jaligi tomonidan qayta iste’mol qilinadi. Shu bilan birga dehqon xo‘jaligi mahsulotlarining ma’lum qismini uy xo‘jaligidagi qoramol va parranda uchun ozuqa-yem sifatida foydalanadi. Shuning uchun dehqon xo‘jaligi bilan uy xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayoni texnologik jihatdan bir-biriga bog‘liq hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligi subyektlari uchun mehnat jarayoni ketma-ket uy xo‘jaligida keyinchalik dehqon xo‘jaligi faoliyatini shakllantirgan holda davom etishini ifoda etadi. Shuning uchun dehqon va uy xo‘jaliklari iqtisodiy jihatdan bir biriga bog‘liqdir. Mahsulot sotishdan tushgan daromadlar nafaqat dehqon xo‘jaligini ishlab chiqarishni kengaytirishga, shu bilan birga oilani uy xo‘jalik jihozlari bilan ta’minlashga sarf etiladi.

Dehqon xo‘jaligini tashkil etadigan va yuqorida keltirilgan predmet, obyektlariga, uy xo‘jalik obyektlari, uy, mebel, elektr uskunalari, idish tovoq va hokazolar kiradi. Uy xo‘jalik obyektlari uyda yashash uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratadi, unga uyni yig‘ishtirish jihozlari, iste’mol mahsulotlari, sifatli kiyim-kechak va boshqalar kiradi. Uy xo‘jaligiga tegishli yer qishloq xo‘jaligi uchun qanday xizmat qilsa, uning oilasi yashayotgan uy ham shunday xizmat qiladi, ya’ni bir vaqtning o‘zida uy dehqon xo‘jalik predmeti va ishlab chiqarish vositasi vazifasini bajaradi. Uy ta’mirlanganda, tozalanganda mehnat predmeti vazifasini va unda yashaganda dehqon xo‘jaligini yuritish vositasi vazifasini bajaradi. Uy xo‘jaligi insonlar hayot faoliyatining zaruriy elementi bo‘lib hisoblanadi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, so‘nggi yillarda respublikamizda dehqon xo‘jaliklari soni yildan-yilga ortib bormoqda (5.4.2-jadval).

2016 yilda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari soni 4769,0 mingtaga yetib, 2000 yilga nisbatan o‘sish 147,0 foizni, 2005 yilga nisbatan 104,9 foizni va 2015 yilga nisbatan 100,8 foizni tashkil etdi

5.4.2-jadval

Dehqon xo‘jaliklarining asosiy ko‘rsatkichlari[36]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2000 yil	2012 yil	2013 yil	20014 yil	2015yil	2016yil
Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotida dehqon xo‘jaliklarining ulushi	%	66,7	63,5	64,0	64,0	63,8	65,1
Shu jumladan: o‘simlikchilikda	%	22,1	42,9	45,2	44,3	44,9	44,8
Chorvachilikda	%	44,6	92,2	92,1	92,3	92,5	92,4
Dehqon xo‘jaliklari soni	birlik	3243602	4716292	4681378	4703433	4759174	4769000
Ekin maydoni	ming ga	401,5	467,7	470,4	471,3	471,8	472,4
Jami ekin maydonida dehqon xo‘jaliklari ulushi	%	10,6	12,9	12,9	13,0	13,2	13,9



5.4.3-rasm. **2000-2016 yillarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining barcha toifadagi xo‘jaliklardagi ulushi,** (foizda)

2001 yil 1 yanvar holatiga, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan ulushi, yirik shoxli qoramollar bo‘yicha 86,2 foizni, 2017 yil 1 yanvar holatiga 94,1 foizni tashkil etdi. Tahlil

[36] Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar)

qilinayotgan davrlarda, yuqoridagi ulushlarning o‘sishi quyidagi turlar bo‘yicha ham kuzatildi: sigirlar 89,9 foizdan 94,5 foizgacha, qo‘y va echkilar 67,4 foizdan 83,8 foizgacha, cho‘chqalar 44,3 foizdan 78,7 foizgacha, otlar 70,2 foizdan 85,0 foizgacha, tuyalar 33,1 foizdan 62,4 foizgacha, asalari oilalari 50,0 foizdan 74,1 foizgacha (5.4.3-rasm)

Dehqon xo‘jaligida ishlab chiqarish va maishiy xizmat munosabatlaridan tashqari oilaviy nikoh munosabatlari mavjud, ularga har bir oilaning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar kiradi. Lekin bu alohida sotsiologiya va psixologiya fanlariga bog‘liq tadqiqotlarga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan “Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida” gi qonuni ularni rivojlantirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qonunga muvofiq, dehqon xo‘jaliklari tomonidan huquqiy shaxs maqomini olish jarayoni davom etmoqda va ular soni yildan yilga o‘sib borsa-da, ammo bu jarayon juda sust kechmoqda. Bizning fikrimizcha bu jarayonni tezlashtirish uchun quyidagi masalalarni hal etish zarur;

- dehqon xo‘jaliklari o‘rtasida yuridik shaxs maqomini olgan holda faoliyat yuritishning afzalliklarini aniq belgilab berish;
- dehqon xo‘jaliklarining yuridik shaxs maqomini olishi bilan bog‘liq va so‘nggi bosqichlarda yuz beradigan majburiy yig‘im va to‘lovlar mexanizmini qayta ko‘rib chiqish.

Bundan tashqari, dehqon xo‘jaliklarni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Ularni chorva mollari uchun yem-xashak va konsentrat ozuqalar bilan ta’minlash, ularni sotib olishdagi narxlar muammolari va h.k.

Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida qabul qilingan qonunda tomorqa yer uchastkasini dehqon xo‘jaligining boshqa dehqon xo‘jaligiga ijaraga berish huquqi ko‘zda tutilmagan. Bu narsa ham huquqiy xujjatlarda belgilab qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Qonunda dehqon xo‘jaligiga yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanish huquqi berilmagan. Lekin chorvachilik, sabzavotchilik va boshqa sohalar bilan shug‘ullanuvchi dehqon xo‘jaliklarida chetdan jalb qilingan ishchi kuchga butun yil davomida extiyoj bo‘ladi. Shuning uchun dehqon xo‘jaliklarida mehnat kodeksi talablari asosida yollanma mehnatdan foydalanishni qonuniy tarzda belgilab qo‘yish zarur.

1998 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida” gi Qonunida Respublikamizda dehqon xo‘jaliklarining maqomini aniqlashtirish, dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirishning qonuniy mexanizmlarini takomillashtirildi.

Birinchidan, aholining dehqon xo‘jaliklari dehqon xo‘jaligi sifatida qayta nomlanadi va uning tashkiliy mohiyati, maqomi tashkiliy-iqtisodiy hamda huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yildi.

Ikkinchidan, dehqon xo‘jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, maqomi, tashkiliy-iqtisodiy asoslari va uning qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar subyekti sifatidagi xususiyatlari aniq belgilab berildi.

Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 iyuldagi 300-sonli qarori bilan faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zgartirish tartibi tasdiqlandi.

To‘rtinchidan, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida” gi Qonunda ularni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash hamda ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmi belgilab berildi.

Odamlarga yer berilishi iqtisodiy islohotning dastlabki eng qiyin yillarida zarur bo‘lib, u nihoyatda keskin muammolarni hal qilishda juda muhim rol o‘ynadi. Dehqon xo‘jaliklarini mustahkamlash va ularni shakllantirish borasida muhim chora-tadbirlar ko‘rish hisobiga:

- *birinchidan,* mehnatga yaroqli aholining ish bilan band bo‘lmagan ortiqcha qismini, ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishga erishildi;
- *ikkinchidan,* aholining real daromadlarini oshirishga shuningdek, shartnomalar asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanib kelganlarga mehnat daftarchasi berish hamda ular qariganda nafaqa olish huquqini berish bilan ko‘pgina qishloq aholisi uchun ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlashga erishildi;
- *uchinchidan,* aholini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashdagi keskinlikka barham berishga erishildi. Yer uchastkalari olgan oilalar kartoshka, sabzavot, meva, chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan o‘z ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki ularni shaharlardagi dehqon bozorlarida sotishni ancha ko‘paytirib, oziq-ovqat muammosini hal qilishga o‘z hissasini qo‘shadi;
- *to‘rtinchidan,* yakka tartibda uy-joy qurilishi ko‘lamini ancha kengaytirishga muvaffaq bo‘lindiki, bu hol aholini uy-joy bilan ta’minlash, respublika aholisini kommunal maishiy va uy-joy sharoitlarini yaxshilash sohasidagi anchagina muammolarni hal qilishga yordam berdi;
- *beshinchidan,* faqat ijtimoiy nizolarning sababi va manbalarni bartaraf etibgina qolmay, balki yerlarini obodonlashtirishda faol qatnashishi, o‘zi va oilasi manfaatini ko‘zlab foydali mehnat bilan shug‘ullanish barqarorligini ta’minlashga hissa qo‘shdi.

Umuman olganda, dehqon xo‘jaliklari haqidagi qabul qilingan qonun milliy iqtisodiyotda quyidagi beshta muhim masalani hal qilib berdi.

1. Qishloq xo‘jaligida mulkchilik masalasi.
2. Dehqonlarda mulkka egalik hissini shakllantirish va mustahkamlash masalasi.
3. Qishloq joylarda bozor iqtisodiyotini shakllantirish masalasi.
4. O‘zbekistonda mulkdorlar qatlamining paydo bo‘lishiga mustahkam huquqiy asos yaratdi.
5. Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikning rivojlanishiga iqtisodiy-huquqiy asos yaratdi.

Dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida bir qator afzalliklarga ega:

- ishlab chiqarish hajmining kichikligi bozordagi talab va taklif nisbatiga tez moslashishi va ko‘p mablag‘ sarflamay o‘z faoliyati yo‘nalishlarini qayta shakllantirish imkonini beradi;
- oila mehnatiga tayanish uybekalari, qariyalar va bolalar mehnatidan ham unumli foydalanish hamda asrlar davomida shakllanib kelgan dehqonchilik madaniyatini avloddan-avlodga yetkazib berishga sharoit yaratadi;
- xususiy mulk egaligi hamda yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalikka berilishi mulkdan oqilona foydalanishga yo‘l ochadi.

Dehqon xo‘jaligi – bu xususiy mulkka asoslangan bo‘lib, tegishli yer maydonida, oila a’zolari bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarib, oila a’zolarining ehtiyojini qondirish va yuqori daromad olishga intiluvchi, davlat va boshqa bozor subyektlari tomonidan tashqi ta’sirini sezuvchi bozor iqtisodiyoti subyektidir.

Dehqon xo‘jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish kuchlaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-xarajat birligi evaziga mahsulot yetishtirishni har tomonlama ko‘paytirishdan iborat. Shuningdek, yer resurslaridan unumli foydalanish, mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga hissa qo‘shish, o‘zi joylashgan hududlarning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda ishtirok etish kabi bir qatorda vazifalarni yechishda dehqon xo‘jaliklari o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligida dehqon xo‘jaligi boshqa mulk shakllariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- mulk egasi ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita bog‘lanish huquqiga ega bo‘lib, ulardan qay shaklda foydalanishni o‘zi hal qiladi va amalga oshiradi;
- ishlab chiqarish faoliyatida to‘la mustaqillikka ega bo‘ladi, hohlagan mahsulotini qancha yetishtirishini o‘zi belgilaydi;
- doimo iqtisodiy va qonuniy javobgarlikda bo‘ladi. Qonunga xilof har bir ish, ortiqcha sarflangan har bir so‘m mulk egasini o‘z mulkidan ajralishiga olib kelishini yaxshi anglaydi.

1998 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi Qonunida Respublikamizda dehqon xo‘jaliklarning maqomini aniqlashtirish, dehqon xo‘jaliklarni rivojlantirishning qonuniy mexanizmlari takomillashtirildi.

Birinchidan, aholining dehqon xo‘jaliklari dehqon xo‘jaligi sifatida qayta nomlandi va uning tashkiliy mohiyati maqomi tashkiliy -iqtisodiy va huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yildi.

Ikkinchidan, dehqon xo‘jaligining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati maqomi, tashkiliy-iqtisodiy asoslari va uning qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar subyekti sifatidagi xususiyatlari aniq belgilab berildi.

Uchinchidan, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunda ularni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab quvvatlash hamda ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmi belgilab berildi.

Asosiy tushunchalar

Mulk – bu barcha ne’matlarga egalik qilish va foydalanish borasida insonlar o‘rtasidagi mavjud munosabatlardir.

Mulkchilik munosabatlari – mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulk obyektlari – turli-tuman ko‘rinishdagi hayotiy ne’matlar, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi kabilardir.

Mulk subyektlari - hayotiy ne’matlar, korxonalarning mulkdori va mulkdor bo‘lmagan jismoniy va huquqiy shaxslardir.

Qishloq xo‘jaligi kooperativ (shirkat xo‘jaligi) – bu mahsulot yetishtiruvchi, pay usuliga va oila pudrati (ijarasi) ga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

Xususiy mulk - fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, qo‘shma korxonalar, oila tadbirkorligi, ijara jamoa, xususiy korxonalar, korporativ korxonlari, aksiyadorlik jamiyatlari, xo‘jalik assotsiatsiyalari (birlashmalari) mulklarini o‘z ichiga oladi. Xususiy mulk davlat mulki tarkibiga kirmagan barcha mulklardir.

Dehqon xo‘jaligi – bu xususiy mulkka asoslangan bo‘lib, tegishli yer maydonida, oila a’zolari bilan hamkorlikda qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarib, oila a’zolarining ehtiyojini qondirish va yuqori daromad olishga intiluvchi, davlat va boshqa bozor subyektlari tomonidan tashqi ta’sirini sezuvchi bozor iqtisodiyoti subyektidir.

Fermer xo‘jaligi - o‘ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligi a’zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo‘jalik yuritish subyektidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi mulkchilik turlarini barpo etish zarurligi nimalardan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligida mulkiy islohotlar deganda nimani tushunasiz?
3. Qishloq xo‘jaligida mulkchilikning qanday shakllari mavjud?
4. Qishloq xo‘jaligida qanday mulk subyektlari mavjud?
5. Qishloq xo‘jaligida mulk obyektlariga nimalar kiradi?

6. Qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlar), jamoa xo‘jaliklar haqida tushuncha bering.
7. Dehqon va fermer xo‘jaliklarining ta’riflarini bering.
8. Nima sababdan fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda?
9. Xususiy, shaxsiy va qo‘shma korxonalar haqida tushuncha bering.
10. Qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi deganda nimani tushunasiz?

VI-BOB. YER-SUV RESURSLARI, INQIROZ SHAROITIDA ULARDAN FOYDALANISH MASALALARI

O‘quv maqsadi: Respublikaning yer-suv fondi va qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslari, ularning iqtisodiy - ijtimoiy ahamiyati, miqdori, turlari, tarkibi va sug‘oriladigan yerlar miqdori va sifatini tahlil qilish, yer-suvdan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganish, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishda yangi sug‘orish usullarini, texnikalarni joriy etishni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *Yer-suv fondi, yer-suv resurslari, sug‘oriladigan yerlar, yer-suv munosabatlari, yer kadastri, irrigatsiya va melioratsiya, suv iste’molchilari uyushmasi, almashlab ekish, tuproq unumdorligi, havza usul, yer-suv islohoti.*

6.1. Respublikaning yer-suv fondi, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining asoslaridan biri bu-tabiiy resurslardir. Tabiiy resurslarning eng kerakli unsurlariga ega yer va suv kiradi. Yer qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning asosiy omili, mehnatga yo‘naltirilgan obyekt sifatidagi mehnat predmeti, shuningdek, turli xil mahsulotlarning joylashuv makoni, insonlar uchun turar joy hamda hayvonot va o‘simliklar dunyosining yashashiga mo‘ljallangan mehnat qurolidir. Har bir xalq va millat yerni asosiy boyligi sifatida e’tirof etib, bir nechta shart va omillar birlashtirgan holda qishloq xo‘jaligidagi afzalliklarni yer orqali tavsiflaydi.

Yer resurslari – bu quruqlik yuzasining jami yig‘indisi bo‘lib, uning tarkibiga boshqa tabiiy obyektlar kiritiladi. Bular: o‘rmonlar, o‘simlik va boshqa tirik organizmlar, suv obyektlari. Yer resurslarning suv obyektlari o‘z ichiga ko‘llar, ko‘lmak hovuzlar ariqlarni qamrab oladi. Okean, dengizlar va daryolar esa suv resurslari tarkibiga kiradi.

Har bir davlatning yer-suv resurslari tabiat va jamiyatda yashash manbaidir, shuningdek, yer va suv bir-birining mavjudligini taqozo qiladi.

O‘zbekiston hududida foydalaniladigan suv resurslarining 80%i Tojikiston va Qirg‘iziston hududida, 20%i mamlakatimiz ichida shakllanadi. Shundan 92%i qishloq xo‘jaligida ishlatiladi. Sirdaryo va Amudaryo havzalaridagi mavjud iste’mol qilinadigan suv resurslari 114 km^3, shundan Sirdaryo 36,06 km^3 va Amudaryo 78,34 km^3 ni tashkil etadi.

Yer resurslari boshqa resurslar kabi o‘z xususiyatlariga ega:

Birinchidan, yer – tabiat mahsuli, in’omi hisoblanib, u inson mehnati bilan yaratilmaydi. Inson faqatgina yerga o‘z mehnatini yo‘naltirib, yoki yerning ahvolini yaxshilaydi, yoki umuman yomon ahvolga solishi mumkin. Lekin inson o‘z hohishi bilan yer resurslarini hosil qila olmaydi.

Ikkinchidan, yer chegaralangan tabiiy resursdir. Inson xohlagancha yerni ko‘paytirib yoki kamaytira olmaydi. Shu sababli bosh maqsad - yerdan samarali va to‘g‘ri foydalanishdir. Bir mamlakat yer miqdori uning chegaralari bilan aniqlansa, umuman hududlar sifatida esa yer miqdori quruqlik yuzasi bilan belgilanadi.

Yer resurslari jismoniy nuqtai nazardan murakkab majmua hisoblanadi. Bu majmua turli omillar (kimyoviy, fizik, biologik) birlashmasi bilan xarakterlanadi. Yer resurslari turli yer uchastkalaridan iborat bo‘lib, ular bir-biridan tuproq turlari, relefi, miqdori va boshqa tasniflari bilan farqlanadi.

Uchinchidan, yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Shuningdek, yer har doim ishlab chiqarishdagi eng asosiy omil sifatidagi o‘rnini yo‘qotmaydi. Undan mablag‘ni ko‘paytirish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalar orqali qishloq xo‘jaligidagi yerlardan unumli va samarali foydalanish, shuningdek sanoat va uy-joy qurilishi maqsadida ishlatish mumkin. Shu bilan birga texnika taraqqiyoti yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilganiga qaramay, yerni boshqa ishlab chiqarish omillari bilan almashtirib bo‘lmaydi.

6.2. Yer-suv resurslari, ularning miqdori, turlari va tarkibi, sug‘oriladigan yerlar miqdori, sifati

Yer-suv resurslari jamoa mulki hisoblanib, ulardan hech qachon alohida shaxs manfaatlari uchun foydalanilmaydi. Yer barcha uchun birdek muhim va ahamiyatli resurs bo‘lsa, suv hayot manbaidir. Shu sababli davlat organlari yer-suv resurslaridan foydalanishni tartibga solib, taqsimlaydilar.

Yer resurslarning asosiy qismi qishloqlarga to‘g‘ri keladi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, AQSH qishloq xo‘jaligiga mamlakatdagi mavjud yerlarning 90 %ni ajratadi. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida mavjud maydonning 80 %i, Rossiya Federatsiyasida esa 90 %ga yaqin yerlar qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining jami yer maydoni esa O‘zbekistonning yer maydoni 44,4 mln gektar. Shundan 20,8 mln gektari yaylov va pichanzorlar, 30-32 mln gektari haydaladigan yerlarni tashkil etadi va 3 % esa foydalanilmaydigan yerlar chunki bu yerlarda namlik juda kam hisoblanadi (6.2.1-jadval).

6.2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasidagi jami foydalaniladigan yerlar[37]

(2009 yil 1 yanvar holatiga,ming ga)

№	Respublika va viloyatlarning nomi	Umumiy maydon		Ekin yerlar		Ko‘p yillik daraxt-zorlar		Bo‘z yerlar		Pichanzor va yaylovlar		Qishloq xo‘jalik yerlari		Tomorqa yerlari		O‘rmonzorlar		Bog‘dor va sabzavotchilik uyushma-larining yerlari		Butazorlar	Boshqa yerlar
		Jami	Shundan sug‘oriladi-gani	Jami	Shundan sug‘oriladi-gani	Jami	Shundan sug‘oriladi-gani	Jami	Shundan sug‘oriladi-gani	Jami	Shundan sug‘oriladiga ni	Jami	Shundan sug‘oriladi-gani	Jami	Shundan sug‘oriladi-gani	Jami	Shundan sug‘oriladi-gani	Jami	Shundan sug‘oriladi-gani		
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	16135,8	504,5	420,3	420,3	8,8	8,8	9,5	9,5	4749,7	30,2	5188,3	468,8	47,0	34,8	989,6	0,8	0,1	0,1	68,3	9842,5
2	Andijon	430,3	273,5	200,9	200,9	28,7	28,7	2,9	0,5	21,5	0,9	254,0	231,1	50,5	38,2	3,9	3,9	0,3	0,3		121,6
3	Buxoro	4193,7	275,1	200,4	200,4	20,4	20,4	6,9	6,9	2660,3		2888,0	227,7	58,3	45,3	219,1	1,9	0,3	0,2	45,4	982,6
4	Jizzax	2117,9	300,1	485,2	264,1	13,3	12,4	8,4	0,7	758,4		1265,3	277,2	31,7	18,1	164,2	4,8	0,1			656,6
5	Qashqadaryo	2856,8	515,0	681,6	423,8	33,8	31,9	23,1	4,9	1457,3	0,1	2195,8	460,7	78,9	48,4	115,6	5,6	0,4	0,3		466,1
6	Navoiy	10937,5	123,7	109,6	89,5	10,4	10,3	6,9	6,7	8770,0		8896,9	106,5	21,2	15,2	1240,5	1,7	0,8	0,3		778,1
7	Namangan	718,1	282,6	199,2	199,2	35,0	35,0	2,6	2,6	152,7		390,5	237,8	48,6	39,8	24,5	4,9	0,3	0,1		254,2
8	Samarqand	1677,3	379,2	436,3	253,9	60,0	56,4	5,4		793,9		1295,6	310,3	86,1	62,5	13,1	6,0	0,7	0,4		281,8
9	Surxondaryo	2009,9	325,4	281,3	241,3	32,7	31,4	0,3		861,3		1175,6	272,9	61,7	49,6	200,2	2,9			0,1	572,3
10	Sirdaryo	427,5	292,7	255,9	255,9	6,3	6,3	11,1	11,1	22,2		296,5	274,3	19,0	15,0	3,3	3,3	0,1	0,1		108,7
11	Toshkent	1525,8	395,5	341,0	304,0	37,1	30,7	0,9	0,3	433,9	1.5	812,9	337,4	62.4	51,6	81,5	2,8	3,7	3,7	1,2	564,1
12	Farg‘ona	700,5	351,9	249,3	249,3	42,8	42,8			23,8	4,3	315,9	295,4	71.2	52,8	14,7	11,8	0,9	0,9		297,8
13	Xorazm	646,4	276,6	208,6	208,6	13,6	13,6	4,5	4,5	141,2	6,4	367,9	233,1	51,0	43,0	57,5	0,4	0,1	0,1		169,9
14	Toshkent sh.	32,7	5,8	0,6	0,6	0,1	0,1					0,7	0,7	6,7	4,0	1,4	1,1				23,9
	Jami:	**44410,3**	**4311,6**	**4071,2**	**3313,9**	**344,0**	**329,8**	**82,5**	**47,8**	**20846,2**	**43,4**	**25343,9**	**3734,9**	**694,3**	**518,3**	**3129,1**	**51,9**	**7,8**	**6,5**	**115,0**	**15120,2**

[37] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Respublika qishloq xo‘jalik yerlarining tarkibi quyidagilardan iborat (6.2.1-rasm).



6.2.1-rasm. **Respublika qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibi**

- Haydaladigan yerlar. Ular sug‘oriladigan hamda lalmi yerlardan tashkil topgan, tuprog‘i eng unumdor hisoblanadi, ayniqsa sug‘oriladigan yerlarniki. Bu yerlarda suvdan foydalangan holda paxta xom-ashyosi, sholi, bug‘doy, arpaning asosiy qismi, makkajo‘xori, kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirilmoqda. Shuning uchun ulardan yil mobaynida to‘liq va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.
- Yaylovlar va pichanzorlar. Bu yerlarda chorva hayvonlari boqilib, ular uchun turli xildagi yem-xashaklar yetishtiriladi. Bu yerlarda, asosan qo‘ychilik rivojlangan.
- Ko‘p yillik daraxtzorlar maydoni, ya’ni bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar, daraxtzorlar maydoni.
- Zahiradagi yerlar.

Yer-suv resurslaridan foydalanish usullari turlicha bo‘lib, ayniqsa yer fondidan foydalanish uchun insonlar va jamoalar bir-biri bilan raqobat qiladilar. Ular o‘z manfaatlari yo‘lida, shuningdek davlatga foydasi tegishi maqsadida yerlardan foydalanadilar. Rossiya federatsiyasida qishloq xo‘jalik yerlarining tarkibi quyidagicha taqsimlangan: haydalaniladigan yerlar 60%, pichanzorlar 10,7 %, yaylovlar 30 %, ko‘p yillik daraxtlar 1,8% va botqoq yerlar 1,5 %ni tashkil etadi.[38]

Yer fondlarini taqsimlash va davlat hisobidan o‘tkazish turli davlatlarda yer kategoriyalari hamda yer bonitetlariga qarab amalga oshiriladi. Yer kategoriyalari yer fondining bir qismi bo‘lib, ular maqsadli ravishda huquqiy rejim asosida taqsimlangan. Qonun xujjatlari asosida yer kategoriyalari quyidagilarga bo‘linadi (6.2.2-jadval).

[38] Минаков И.А. и др. Экономика сельского хозяйства. М.: Колос, 2009. 71.

Qishloq xo‘jaligida ekin maydoni bu shunday yerlarki, u aniq maqsad yo‘lida, xo‘jaliklar shaklida foydalanishga yaroqlidir. Yer kategoriyalari yig‘ma va shartli tushuncha bo‘lsa, ekin maydoni ma’lum chegara, maydon va joylashuviga ega. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer toifasining asosini ham “qishloq xo‘jaligidagi unumdor yerlar” tashkil qiladi.

6.2.2-jadval

O‘zbekiston yer fondining toifalar bo‘yicha taqsimlanishi (2015 yil)[39]

(ming ga)

№	Yer fondining toifalari	Jami maydon		Shundan sug‘oriladigani	
		ming, ga	jami yerga nisbatan foizi	ming, ga	jami yerga nisbatan foizi
1	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	22264,6	50,13	4213,8	9,49
2	Aholi punktlarining yerlari	235,4	0,53	49,7	0,11
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar	1968,0	4,43	11,7	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	75,5	0,17	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	0,4	0,001	0	0
6	O‘rmon fondi yerlari	8661,2	19,50	29,4	0,07
7	Suv fondi yerlari	815,8	1,84	4,5	0,01
8	Zahira yerlar	10389,4	23,40	1,9	0,004
	Jami yerlar	**44410,3**	**100**	**4311,6**	**9,71**

Qishloq xo‘jaligi mahsulot ishlab chiqarishida diversifikatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar qilindi, ya’ni 1990 yilgacha paxta va boshqa suvni ko‘p talab qiluvchi ekinlar ekin maydonining 50% ini tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yildan keyingi yillarda suvni ko‘p talab qiluvchi ekinlar 30% va suvni kam talab qiluvchi ekinlar 70% ekin maydonlarini tashkil qilmoqda. Quyida respublikamizning 2012-2015 yillardagi qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibi berilgan (6.2.3-jadval).

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. 2000 yil holatiga respublikamiz bo‘yicha korxona, tashkilot, muassasalar va fuqarolar foydalanishidagi jami yerlar 44410,3 ming gektarni tashkil etadi.

[39]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

6.2.3-jadval

O‘zbekistonda 2012-2016 yillarda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibining o‘zgarishi (ming gektar)[40]

№	Ko‘rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
I	Jami ekin maydoni shundan:	3628,1	3656,3	3662,3	3671,4	3706,5
1.1	Jam donli ekinlar, shu jumladan:	1628,1	1642,0	1651,3	1663,4	1689,9
1.1.	Bug‘doy	1404,0	1451,1	1460,1	1450,3	1446,3
1.2	Sholi	76,3	44,9	69,3	72,3	72,3
1.3	Makka doni	40,9	34,1	41,3	42,3	39,7
2	Texnika ekinlari: shu jumladan	1372,4	1380,3	1350,1	1343,0	1332,4
2.1	Paxta	1308,8	1308,8	1280,1	1275,0	1265,1
3	Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari, shundan:	313,7	318,8	320,9	324,1	349,4
3.1	Kartoshka	76,1	78,3	80,1	81,3	84,6
3.2	Sabzavotlar	189,3	137,5	181,0	183,4	206
3.3	Poliz ekinlari	53,7	50,6	52,0	52,6	58,8
4	Yem-xashak	313,9	315,2	316,7	318,9	343,3

Respublika bo‘yicha sug‘oriladigan yerlar 4303,0 ming gektar, bu esa umumiy maydonning 9,7 % ni tashkil qiladi. Yuqorida aytilgan yer toifalari bo‘yicha yer fondining taqsimlanishi raqamlar asosida quyidagi jadvalda kengroq yoritilgan (6.2.4-jadval).

[40]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

6.2.4-jadval

Respublika yer fondining asosiy yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi[41]

№	Yer turlari	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015-2012 yilga nisbatan
1	Ekin yerlari	4057,2	4064,2	4068,1	4071,2	+3,1
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	3303,6	3308,5	3311,8	3313,9	+2,1
2	Ko‘p yillik daraxtzorlar	335,8	339,0	341,0	344,0	+3,0
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	322,7	325,5	327,7	329,8	+2,1
3	Bo‘z yerlar	83,6	82,6	82,6	82,5	-1,0
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	48,4	48,3	47,9	47,8	-0,1
4	Pichanzor va yaylovlar	21207,3	20858,0	20836,2	20846,2	+10,0
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	43,4	43,3	43,3	43,4	-0,1
5	Qishloq xo‘jalik yer turlari	25683,9	25343,8	25343,8	25343,9	-0,1
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	3718,1	3725,6	3728,8	3734,9	+6,1
6	Tomorqa yerlar	691,3	691,6	693,3	694,3	+1,0
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	522,0	521,1	520,2	518,3	-1,9
7	O‘rmonzor va butazorlar	2811,4	3219,6	3119,4	3129,1	+9,7
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	48,8	49,7	50,8	51,9	+1,1
8	Bog‘dorchilik-uzumchilik uyushmalari	7,5	7,7	7,7	7,8	+0,1
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	6,4	6,6	6,6	6,5	+0,1
9	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	78,6	77,1	76,2	76,5	-0,3
10	Boshqa yerlar	15137,6	15070,5	15090,3	15120,2	+29,9
	Jami yerlar	**44410,3**	**44410,3**	**44410,3**	**44410,3**	**-**
	Shu jumladan: sug‘oriladigani	4295,3	4303,0	4307,5	4311,6	+4,1

[41]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida yiliga 72,4 km³ suvdan foydalanib, shundan 61 km^3 oqova suvlar,11,4 km^3 yer osti suvlarini tashkil etadi. Iqlimimiz keskin kontinental ekanini, respublikamiz qurg‘oqchilik zonasida joylashganini (bundan tashqari, suv resurslari kam bo‘lgan yillar 2000, 2001, 2008 va 2011 yillar ekanligini) hisobga olib shuni aytib o‘tish kerakki, yoz oylari yerdagi suvnamlari parlanib havoga chiqib ketadi. Ekinlarimizning ham ko‘p qismi nobud bo‘lishi va sifatsiz bo‘lishi yuqoridagi omilga, ya’ni suvsizlikka bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi qolgan yana uchta – Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston respublikalari bilan birgalikda hududimizdan oqib o‘tuvchi ikki daryo – Amudaryo va Sirdaryolarning suvlarini iste’mol qiladi. Bu ikki daryoning yillik suv o‘tkazish quvvati 114400 mln m^3 bo‘lib, shundan eng ko‘p O‘zbekiston - 56190 mln m^3 foydalanadi. Qirg‘iziston 4430 mln m^3, Tojikiston 12260 mln m^3, Qozog‘iston 12290 mln m^3, Turkmaniston 21730 mln m^3 va Afg‘oniston 7440 mln m^3 suv iste’mol qiladilar. Bu suv resurslaridan qishloq xo‘jaligi uchun - 92,0%i, sanoat, energetika, baliqchilik va maishiy xizmatlarga 8% i foydalaniladi. Qishloq xo‘jalik ekinlari yetarli suv bilan ta’minlanmasa, hosildorlik pasayib, turli kasalliklar ortadi, shu bilan birga mahsulot sifati yomonlashadi. Mahsulot sifatini yaxshilash esa qishloq xo‘jaligidagi asosiy muammolardan biridir.

6.3. Yer-suv resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi



6.3.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish turlari**

Iqtisodiyotda muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlar mavjudki, ular yer-suv resurslaridan foydalanishda ham muhim rol o‘ynaydi. Eng avvalo, suv resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimiga to‘xtalamiz. Chunki yer resurslariga chuqurroq va batafsilroq to‘xtalishga to‘g‘ri kelali.

Iqtisodiyot tarmoqlarida suvdan foydalanish asosan to‘rt turga bo‘linadi (6.3.1-rasm).

Suvdan umumiy va maxsus foydalanishning 2 xili mavjud:

1. Suvdan umumiy foydalanish - suvning holatiga ta’sir qiladigan inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo‘llamay turib foydalanish;
2. Suvdan maxsus foydalanish - inshootlarni yoki qurilmalarni qo‘llash yo‘li bilan foydalanish.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda bevosita qishloq xo‘jaligi korxonasida ishlatilgan suv ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi yoki irrigatsiya tizimi havza boshqarmalarida inshoot va qurilmalarni qo‘llashdagi ko‘rsatkichlar asosida suv samaradorligi aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligida suvdan unumli foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi quyidagilardan iborat:

- limit bo‘yicha suv hajmi, m^3;
- suvdan foydalanish darajasi, %;
- suv bilan ta’minlanganlik darajasi;
- % suv bilan ta’minlash xarajatlari, so‘m;
- sug‘orish uchun ajratilgan pul mablag‘i, so‘m;
- sug‘orish suvidan foydalanish unumdorligi, so‘m;
- sof foyda, so‘m;
- rentabellik darajasi, %.

Yer resurslaridan samarali foydalanish, davlat organlari tomonidan yer va soliq siyosatining ratsional ravishda olib borilishi uchun avvalo, yer bahosini bilish zarur. Buning uchun eng avvalo, davlat tomonidan yer uchastkalarining kadastr bahosi hisobga olinadi (6.3.6-jadval).

Kadastr qiymati deganda hisobdagi rentadan kelayotgan daromad ham tushuniladi. Albatta quyidagi ko‘rsatkichlar tizimi yer resurslaridan foydalanishda ishlatiladi:

- ekin hosildorligi, s/ga;
- unumdorlik 1 ga yerdan olinadigan yalpi mahsulotning natural va qiymat shaklidagi ko‘rinishi;
- 1 ga sarflangan xarajatlar, so‘m;
- 1 ga yerdan olingan yalpi mahsulot qiymati, so‘m;
- 1 ga yerning kadastr qiymati, so‘m;
- yerni iqtisodiy baholash ko‘rsatkichi ball-boniteti, ball;
- sof foyda, so‘m va hokazo.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlariga esa yer qaytimi, yer sig‘imi, yo‘qotilgan hosil; qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish koeffitsiyenti, fond bilan ta’minlanganlik, tovar qaytimi kabi ko‘rsatkichlar kiritiladi.

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkich - yerni iqtisodiy baholash quyidagi formula yordamida topiladi:

$$E_b = \frac{YaM}{MT}$$

bunda:

E_b-yerni iqtisodiy baholash, so‘m;

YaM yalpi mahsulot, so‘m;

MT - mahsulot tannarxi, so‘m.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining samaradorligi va sof foyda quyidagicha hisoblanadi:

$$SF = YaM - MT$$

bunda:

SF - sof foyda, so‘m;

YaM - yalpi mahsulot, so‘m;

MT - mahsulot tannarxi, so‘m.

Yerning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari asosan qiymat ko‘rsatkichlaridir. Bunga yer sig‘imi, yer qaytimi, iqtisodiy samara ko‘rsatkichlaridir.

Yer sig‘imi (E_C) - bu qishloq xo‘jaligi yerlari bahosining yalpi mahsulotga nisbatidir:

$$E_s = \frac{E_b}{YaM}.$$

Yer qaytimi esa bu yer sig‘imiga teskari ko‘rsatkich bo‘lib, yalpi mahsulotning yer resurslari bahosiga nisbatidir:

$$Eq = \frac{YaM}{E_b}.$$

Iqtisodiy samaradorlik yalpi va tovar mahsulot hajmi orqali ifodalanib, ekin maydoniga nisbatan hisoblanadi:

$$S_1 = \frac{YaM\,(TM)}{S}$$

bunda:
S_1–samaradorlik, so‘m;
S - ekin maydoni, ga;
YaM - yalpi mahsulot, so‘m;
TM - tovar mahsulot, so‘m.

Yerlarning samaradorligini hisoblashning ikkinchi usuli quyidagicha aniqlanadi:

$$S_2 = \frac{YaD}{S}$$

bunda:
YaD - yalpi daromad, so‘m;
S - ekin maydoni, ga, bunda:
$YaD = YaM - MX$
(MX-moddiy xarajatlar, so‘m).

Yerlarning samaradorligini hisoblashning uchinchi usuli quyidagicha:

$$S_3 = \frac{SF}{S}.$$

SF - sof foyda, so‘m;
S - ekin maydoni, ga.

Bunda $SF = YaM - T$ (T-tannarx) yoki $SF = YaM - MH$ (MH - mehnat haqi)

Samaradorlikni hisobalashning to‘rtinchi usuli quyidagicha:

$$S_4 = \frac{F}{S}.$$

F – foyda, so‘m; S - ekin maydoni, ga;
Foydani aniqlash uchun:

$$F = UT - UX$$

bunda:
UT–jami tushum, so‘m;
UX–umumiy xarajat, so‘m.

Qishloq xo‘jaligida tovar qaytimi quyidagicha hisoblanadi:

$$T_q = \frac{YaM\ (TM)}{S}$$

bunda: T_q - tovar qaytimi, so‘m;

YaM - yalpi mahsulot, so‘m;

TM - tovar mahsulot, so‘m;

S - ekin maydoni, ga.

Qishloq xo‘jaligida fond bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$F_t = \frac{AF}{S}$$

bunda:

F_t - fond bilan ta’minlanganlik, so‘m;

AF - asosiy fondlar, so‘m;

S - ekin maydoni, ga.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi natural ko‘rsatkichlar – bu hosildorlik va yalpi mahsulotdir. Yerdan intensiv foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi oshib, bu holat qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish koeffitsiyenti orqali aniqlanadi:

1. **Yer resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti**:

$$YeFK = \frac{QXYe}{S}$$

bunda:

$YeFK$ - yer resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti;

$QXYe$ - qishloq xo‘jaligi yerlari, ga;

S - ekin maydoni, ga.

2. **Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish koeffitsiyenti**:

$$K_{qxe} = \frac{S}{QXYe}.$$

$QXYe$ -qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish koeffitsiyenti;

S - ekin maydoni, ga;

$QXYe$ - qishloq xo‘jaligi yerlari, ga.

Yer fondidan intensiv foydalanish uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yer resurslari bilan joylashtirish; mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash; mavjud resurslardan oqilona foydalanish; bozor talabi bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish. Yer resurslarining holatini hisobga olmasdan ishlab chiqarishni tashkil etish salbiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, tuproqning yomonlashib ketishi oqibatida hosildorlik tushib ketadi, ekinlarni joylashtirish samaradorligi pasayadiva hokazo. Shunday holatlardan biri – tuproq unumdorligining kamayishi natijasida yo‘qotilgan hosil quyidagicha aniqlanadi:

$$H_y = \frac{H_d * T_{up}}{T_{ub}}.$$

bunda:
H_y –yo‘qotilgan hosil, s/ga;
H_d - joriy yilda ushbu yerdan olingan o‘rtacha hosildorlik, st/ga;
T_{up} - tuproq unumdorligining pasayishi, st/ga;
T_{ub} - tuproqning umumiy ball-boniteti, ball.

Бонитет - tuproqning tabiiy unumdorligi bo‘lib, 100 ballik shkalada baholanadi. Yerni iqtisodiy jihatdan baholash quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$B = \frac{H * 10_0}{YaMQ}$$

bunda:

B - baholanadigan yerning bonitet bali, ball;

H - 1 gektardan olingan hosil, st/ga;

$YaMQ$ - yalpi mahsulot qiymati, so‘m.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarning barchasi yer resurslaridan samarali foydalanishda nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi.

6.4. Qishloq xo‘jaligi yerlarini baholash, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli

Qishloq xo‘jaligi yerlari xalqimiz uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish tuproqning sifat jihatdan baholanishiga bog‘liq. Chunki tuproq unumdorligi yuqori bo‘lsa, mahsulotning sifatli yetishtirilishi shuncha yaxshi bo‘ladi. Yerning sifat jihatdan baholanishi ekin maydoni-dalaning har bir kartasiga ko‘ra sifat ko‘rsatkichlari o‘tgan 3-5 yilning yakunlariga solishtiriladi. Bu usulni odatda **yerni pasportlash** deyiladi. **Yer kadastrlari** deb, dalalar kartalarini bir-biriga har tomonlama solishtirish asosida ularni iqtisodiy baholashga aytiladi.

Qishloq xo‘jaliklariga suvni o‘z vaqtida yetkazib berishni tashkil etish uchun boshqaruv tizimini bozor munosabatlarida shakllantirib, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish lozim. Qishloq xo‘jaligi korxonalariga suvni yetkazib berish va undan foydalanishda yerning meliorativ holatiga, shuningdek melioratsiya tizimiga e’tibor berish kerak.

Irrigatsiya deganda, suv resurslari bilan ta’minlash va suv inshootlari faoliyati tushuniladi. **Melioratsiya** esa yerning tabiiy unumdorligini yaxshilash chora-tadbirlarining jamlanmasidir.



6.4.1-rasm. **Respublikamizda 2011-2015 yillarda sug‘orishning zamonaviy usullari joriy etilgan ekin maydonlari, ga**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1958-sonli Qarori natijasida 1200 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi hamda ushbu tadbirlar uchun 2008-2014 yillar mobaynida 184,9 mlrd. so‘m sarflandi, kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar 105 ming gektarga kamaytirildi, 118 ming gektar maydonda sizot suvlari maqbul sathlarda ushlab turildi, 977 ming gektar maydonlarning meliorativ holati barqarorlashdi. Buning natijasida paxta hosildorligi 2,0-2,5 sentnerga va g‘alla hosildorligi 2,5-3,0 sentnerga ko‘paydi.

Respublikamizda 2011-2015 yillarda sug‘orishning zamonaviy usullari joriy etilgan ekin maydonlari (gektarda) 6.4.1-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda zamonaviy sug‘orish usullari qo‘llanilayotgan maydonlar yil sayin oshib bormoqda.

6.4.1-jadval

Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi sug‘orish usullaridan foydalanishning afzalliklari

Egatga plyonka to‘shab sug‘orish	***Egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish***	***Yomg‘irlatib sug‘orish***	***Tomchilatib sug‘orish***
(oqova suvlar miqdori kamayadi; (egatlar butun uzunligi bo‘yicha bir tekis namlanadi; (sug‘oriladigan maydondan bug‘lanish va shimilish kamayadi	(egiluvchan shlanglar o‘qariqning o‘rnida ishlatiladi; (suv har bir egatga bir tekis taqsimlanadi; (sug‘orish ishlari yengillashadi	(oqova suvlar bo‘lmaydi; (ekin dalasi butun kattaligi bo‘yicha bir tekis namlanadi; (dalada egat va o‘q ariq olishga hojat bo‘lmaydi	(ekinlar hosildorligi ortadi va sifati yaxshilanadi; (suv miqdori 20-60% tejaladi; (mehnat va resurslar sarfi kamayadi; (beriladigan o‘g‘it miqdori 50% gacha kamayadi; (tuproq erroziyasi to‘xtaydi va sho‘rlanish kamayadi; (suv bir tekis ekinlar ildizi joylashgan qismiga beriladi, ya’ni tuproq qotmaydi; (tuproqdan suv kam bug‘lanadi; (suv tuproqqa singib ketmaydi va yerning meliorativ holati yomonlashmaydi; (oqova suvlar bo‘lmaydi

Tomchilatib sug‘orilganda ekinlar hosildorligi ortadi va sifati yaxshilanadi, ya’ni paxta - 50-55 s/ga, makkajo‘xori (ko‘k poya) - 120-130 s/ga, makkajo‘xori (don) - 25-32 s/ga, pomidor (ochiq yerda) - 130-140 s/ga, pomidor (issiqxonada) - 500 s/ga, uzum - 50s/ga va olma - 60 s/ga dan hosil olish mumkin.

Yer-suv resurslaridan foydalanishda davlat roli nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat yer va suv xo‘jaligiga doir iqtisodiy islohotlar olib boradi, qonunlar, qaror va farmoyishlar ishlab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi yer resurslaridan unumli foydalanish uchun “Yer to‘g‘risida” gi qonuni va “Yer kodeksi”, Vazirlar Mahkamasining “Yer monitoringi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste’moli to‘g‘risida”, “Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste’mol qilish uchun ruxsatnoma berish tartibi”, “Tomchilatib va suvni tejaydigan boshqa texnologiyalarni joriy etish davlat dasturini shakllantirish” kabi Nizomlar, suv resurslaridan samarali foydalanish uchun “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi qonunlar qabul qilingan.

Yer resurslaridan foydalanish Yevropa ittifoqi davlatlaridan biri Gollandiyada bor-yo‘g‘i 500 ming gektar qishloq xo‘jaligiga taalluqli yerlar mavjud. Bu mamlakatda 16 mln. kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi va aholi soni juda zich joylashgan. Gollandiyaning 50% hududi 5-6 metr dengiz sathidan pastda joylashgan bo‘lib, 58% qishloq xo‘jaligi yerlari hisoblanadi, shundan o‘tloq yerlar – 31%, haydaladigan yerlar – 23,5% va issiqxona xo‘jaliklari yerlari 3,2% ni tashkil etadi.

Ushbu mamlakatda yalpi ichki mahsulotning 3-4% i qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga to‘g‘ri keladi, qayta ishlash, ya’ni agrobiznes sohasiga esa 10% ni tashkil etadi. Gollandiya mamlakati uzoq yillar davomida dengizdan o‘zlashtirib olgan yerlar 42-50 ming gektarni tashkil etadi. Bu joylarda yerlarning tuproq unumdorligi yuqori bo‘lgani uchun kartoshkadan olinadigan hosildorlik 1 gektardan 60-80 tonnani tashkil etadi. Boshqa yerlarda har 1 gektar yerdan 15-20 tonnadan kamroq hosil olinadi.

Yer monitoringi – yer tarkibidagi o‘zgarishni vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlarning oldini olish, yerlarni baholash, salbiy oqibatlarni tugatish uchun yer fondining umumiy holatini kuzatish tizimidir. Monitoring obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining barcha yerlari, (mulkchilik va xo‘jalik shaklining barchasiga tegishli ravishda) qanday maqsad va foydalanishiga qaramay, tan olingan.

Davlat yer kadastrlari yuritishni, yer resurslaridan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta’minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Yer monitoringi O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari bosh boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi va tegishli vazirlik hamda tashkilotlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Yer resurslari davlat qo‘mitasi yer monitoringi ma’lumotlarini umumlashtiradi. Monitoring tadqiqotlarini olib borishda asosiy maydonlarni tanlash, vaqt o‘tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari

o‘zgarishini tahlil etish, tadqiqot olib boriladigan ekologik maydonlarda tuproqning holatini isbotlovchi ko‘rsatkichlarni asoslash, tuproqning holatini kuzatish va ma’lumotlarni to‘plash hamda ularga o‘zgarishlar kiritish ishlarini olib boradi. Biz uchun qishloq xo‘jaligi yerlari tuproqning suvga, shamol erroziyasi ta’siri oqibatida o‘zgarishi monitoringi; qishloq xo‘jaligi yerlari tuproqlari sho‘rlanganlik darajasining o‘zgarishi jarayoni monitoringi; yerlarning zaharlanganlik darajasining o‘zgarishi monitoringi; qishloq xo‘jaligi yerlari tuproqlarining texnogen o‘zgarishi monitoringi; o‘simliklarning zaharli ximikatlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; organik va mineral o‘g‘itlardan foydalanish natijasida tuproq tarkibidagi o‘zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer kadarstrini tuzishda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

- yerdan foydalanishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
- yerning sifati va miqdori bo‘yicha hisobdan o‘tkazish;
- yerni baholash, bunda bonitetlash va iqtisodiy baholash ham hisobga kiritiladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish yerlarni xususiylashtirish, ularga egalik qilish, foydalanish va ijaraga berish tuman hokimlari tomonidan qaror qabul qilingach, yer uchastkalarining chegaralarini aniqlab, hujjatlarni rasmiylashtirib berilgandan keyin shu asosda amalga oshiriladi.

Yerning sifati va miqdori bo‘yicha hisobdan o‘tkazish yer mulkining obyektlari bo‘yicha foydalanuvchilar yer uchastkalariga qarab, shuningdek, ekin maydon turlariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Yerni iqtisodiy baholash orqali esa yerning ishlab chiqarishga qanchalik yaroqliligini, ayniqsa qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda ko‘rish mumkin. Bunda, albatta tuproq unumdorligi ham rol o‘ynaydi.

Tuproq unumdorligini aniqlashda hosildorlik, mahsulotni sotish bahosi, tannarx orqali aniqlanadi. Tuproq unumdorligini aniqlashda ball bonitetiga qarab e’tibor qaratiladi.

Yer bonitirovkasi – bu tuproqning unumdorligiga ko‘ra, yerlarni bir-biriga taqqoslash, solishtirish bahosidir. U agrotexnik tadbirlar va yerga ishlov berish intensivligi darajasida o‘tkaziladi. Bonitirovka qilishdagi ko‘rsatkichlar tizimda qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi bilan birgalikda tuproq turlari va tarkibi, xususiyatlari (o‘z ichiga olgan fizik holati, gumus, mineral o‘g‘itlar, namlik o‘tkazuvchanligi kabilarni) ham e’tiborga olinadi. Natijada ball-bonitet hisoblanib, guruhlar bo‘yicha hisob-kitob qilinadi. Shunga ko‘ra bonitet-tuproqning tabiiy unumdorlik ko‘rsatkichi bo‘lib, u 100 ballik shaklda baholanadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini suv bilan ta’minlashda esa suv obyektlaridan suvni me’yorlar bo‘yicha olishni tashkil etish va foydalanishni tartibga solishdan iborat. Davlat bu ishlarni nazorat qilish maqsadida “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi qonunni 1993 yil 6 mayda qabul qildi. Qonun

29 bob, 119 moddadan iborat bo‘lib, suvga doir munosabatlarni tartibga solish, suvdan oqilona foydalanish, suvni bug‘lanib ketishdan saqlash, uning zararli ta’sirini oldini olish, suv obyektlarining holatini yaxshilash, shuningdek suv ta’minoti korxonalari bilan suv iste’molchilari o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, suvdan unumli foydalanishning huquqiy asoslaridan iborat.

Suv uchun haq to‘lash, suvdan limit bo‘yicha foydalanish, nazorat qilishni Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Shuningdek, yer monitoringi kabi *suv monitoringi* degan tushuncha ham mavjud. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan suvni monitoring qilish orqali salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlarini o‘rganib, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Suvdan foydalanuvchilar qonunlarda belgilangan tartibda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini bajarishga jalb etiladilar.

Davlat yer va suv resurslarini isrof qilmasdan, ulardan unumli foydalanishni soliqlari bilan ham nazorat qilib turadi. Umumiy aytganda, yagona yer solig‘i bilan tartibga solib turadi.

Yagona yer solig‘ining maqsadi yerdan ratsional foydalanishni yo‘lga qo‘yish, yer muhofazasi va mulk sifatida qaratilishi, tuproq unumdorligini oshirish hamda turli toifadagi yerlarda ijtimoiy-iqtisodiy shaklda tenglik tamoyili asosida xo‘jalik yuritishni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Yagona yer solig‘iga har yili yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va mulk egalari tortiladilar. Ijara haqi vaqtincha foydalanish uchun ijaraga olganning yer egasiga beradigan xaqidir. Uning miqdori shartnomada ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Yer bahosi esa yer munosabatlarini amalga oshirish va yo‘lga qo‘yishda, yerni mulkka aylantirishda, meros qilishda va xokazolarda ahamiyatlidir.

6.5. Suv iste’molchilari uyushmasi. Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasida suvga bo‘lgan talabni qondirish muammolarini yechish barchaning zimmasidagi vazifadir. Qishloq xo‘jalik korxonalarini suv bilan ta’minlashda suv obyektlaridan tejamli foydalanish, suvni meyorlar bo‘yicha olishni tashkil etish va foydalanishni tartibga solish zarurdir. Suv bilan ta’minlash va sug‘orish ishlarini magistral kanallar, suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi obyektlari bajaradi. O‘zbekiston Respublikasida 2016 yil holatida suv xo‘jaligi obyektlari – 180 ming km sug‘orish tarmoqlari, 160 ming dona suv xo‘jaligi inshootlari, 800 ta yirik inshootlar, 1496 ta nasos stansiyalari, 19,1 mlrd. m^3 bo‘lgan 55 ta suv omborlari, 4124 dona sug‘orish tik quduqlari, 102,8 ming km ochiq zovur tarmoqlari, 38,3 ming km yopiq drenaj tarmoqlari, 3451 ta tik drenaj quduqlari, 153 ta meliorativ nasos stansiyalari va 24839 ta kuzatuv quduqlari mavjud. Suvlardan foydalanish ishlari ichki xo‘jalik va suv tizimi rejalariga asosan amalga oshiriladi.

Suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasi bo‘lganlarga suv limit bo‘yicha beriladi. Suvdan foydalanish tartibi suv xo‘jaligi organlari tomonidan ishlab

chiqiladi. Vazirlar Mahkamasi esa suv uchun haq to‘lash, suvdan limit bo‘yicha foydalanish, nazorat qilishni amalga oshiradi. Suv olish va uning hisob-kitobini yuritish suv xo‘jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi. Suvdan foydalanuvchilar sug‘orishni ichki suv yo‘llari, drenaj, suv chiqarish quduqlari yordamida amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3226-sonli Farmoniga asosan, respublikada fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish deb belgilandi. Farmonga muvofiq, respublika qishloq va suv xo‘jaligida o‘tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, soha boshqaruvini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 iyundagi 290-sonli va 21 iyuldagi 320-sonli qarorlari qabul qilindi. Respublika suv xo‘jaligida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Suv resurslarini ma’muriy-hududiy boshqarish prinsipidan havzaviy boshqarish prinsipiga o‘tkazildi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qayta qurish jarayoni tamoyilida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish va sohani bozor munosabatlari tamoyillariga asosan qayta qurishni taqozo etmoqda.

Respublikada suv xo‘jaligi majmuasini qayta qurish jarayoni uch yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilmoqda.

Birinchi yo‘nalish – qayta qurilayotgan qishloq xo‘jaligi korxonasi negizida tashkil etilgan fermer xo‘jaliklariga suv xizmati tuzilmasining bozor munosabatlari sharoitiga mos shaklini barpo qilish.

Ikkinchi yo‘nalish – respublika suv xo‘jaligi kompleksini boshqarishni takomillashtirish.

Uchinchi yo‘nalish – suv xo‘jaligi obyektlarini zamonaviylashtirish. Hozirgi kunda tugatilgan qishloq xo‘jaligi korxonalari negizida tashkil etilgan fermer xo‘jaliklariga suv xizmati ko‘rsatuvchi tuzilmaning bozor munosabatlari sharoitiga mos shakli barpo qilindi, xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarida suvdan foydalanuvchilar soni ko‘payib, suvning hisob-kitobini olib borish hamda suvdan oqilona va maqsadli foydalanishni yo‘lga qo‘yish muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qaroriga asosan “Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalari hududida o‘zaro suv xo‘jaligi munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida” gi tartib tasdiqlandi.

Mazkur tartibga asosan tugatilgan xo‘jaliklar hududida joylashgan barcha ikkilamchi suvdan foydalanuvchilar birlashtirilib, sug‘orish tarmog‘i bo‘yicha ularning “Uyushmasi” tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

Suv iste’molchilari uyushmasi (SIU) zimmasiga xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarini bir maromda ishlatish, ikkilamchi suvdan foydalanuvchilar o‘rtasida adolatli suv taqsimotini o‘rnatish, sug‘orishning ilg‘or texnologiyalarini joriy qilish kabi vazifalar belgilandi.

Suv iste’molchilari uyushmalariga qator imtiyozlar yaratilgan. Chunonchi, SIUlar notijorat shaklda faoliyat ko‘rsatgani uchun O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan notijorat tashkilotlarga berilgan barcha imtiyozlardan foydalanadilar.

Suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining ta’sischilari, asosan suv iste’molchilari, ya’ni fermer va dehqon xo‘jaliklari bo‘lganligi sababli keyinchalik ularni “Suv iste’molchilari uyushmasi” nomi bilan tashkil qilindi.

Suv iste’molchilari uyushmasi(SIU) bir yoki undan ortiq kanal atrofidagi suvdan foydalanuvchilarning xohish irodasi bilan tuziladigan va ular tomonidan boshqariladigan notijorat tashkilot bo‘lib, muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqovaga chiqarish bilan bog‘liq xo‘jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda boshqa yuridik, jismoniy shaxslar uyushmasidir.

Suv iste’molchilari – fermer, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa egalari va boshqalar bo‘lib, adolatli suv taqsimoti hamda irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali uyushma hududida sug‘orma dehqonchilikni rivojlantiradilar va buning uchun o‘zlarining moliyaviy va texnik imkoniyatlarini birlashtiradilar.

Suv iste’molchilari – cheklangan miqdordagi suvni olish, undan va ichki suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish bilan bog‘liq xo‘jalik hamda boshqa faoliyatlarni amalga oshiruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslardir.

SIU o‘z a’zolari bo‘lgan suvdan foydalanuvchilarga sug‘orish tarmog‘idagi suvni taqsimlash va uyushmani demokratik asosda boshqarishda faol qatnashish imkoniyatini beradi. Suv iste’molchilari(SIU) ning moliyaviy boshqaruvini oshkora tashkil etishlari uyushma faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini birlashtirgan holda nafaqat suv xo‘jaligi, balki qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq umumiy muammolarni hal qilishda ham yordam beradi. Bundan tashqari suvdan samarali foydalanish hisobiga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining oshishi fermerda ertangi kunga bo‘lgan ishonchini orttiradi.

Qishloq xo‘jaligidagi foydalaniladigan suvni monitoring qilish orqali salbiy jarayonlarning sabab va oqibatlari o‘rganilib, suvlardan foydalanish samaradorligini oshiradilar.

Suv iste’molchilari qonunlarda belgilangan tartibda irrigatsiya-melioratsiya ishlarini bajarishga jalb etiladilar. Suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari quyidagilar:

- ✓ suv resurslaridan foydalanishda suvning aniq hisob-kitobini joyiga qo‘yish;
- ✓ suv o‘lchash qurilmasi, ya’ni gidropostlar qurilishini tashkil etish;
- ✓ qishloq xo‘jaligi korxonalarida ekin maydonlari yaqinlaridagi ariq, kanal va zovurlar tozaligini doimiy nazorat qilish;
- ✓ eng asosiysi, suv sarfi isrofgarchiligiga yo‘l qo‘ymaslik;



6.5.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligi yerlaridan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi**

- ✓ belgilangan suv limitlari asosida suvdan tejamli foydalanishni yo‘lga qo‘yish va hokazolar.

Xo‘jaliklardagi miroblarning roli pasayib, xo‘jalik boshliqlari irrigatsiya ishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlari bilgancha bajarishi oqibatida suv ta’minotining buzilishi kundan-kunga ko‘paymoqda. Hatto xo‘jalik ichidagi suv bo‘linadigan inshootlarning darvozalariga bo‘lgan e’tiborsizlik tufayli yaroqsiz holga kelib qolgan. Suv taqsimoti ayrim xo‘jaliklarda eski usul bilan taxminiy raivshda bajarilayotganini inobatga olib, shu kamchiliklarni tugatish natijasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish mumkin (6.5.1-rasm).

Shuningdek, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun suv ta’minoti uchun zarur asbob-uskunalar, texnika va mablag‘lar bilan ta’minlanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Qishloq xo‘jaliklariga suvni o‘z vaqtida yetkazib berishni tashkil etish uchun boshqaruv tizimini bozor munosabatlarida shakllantirib, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish lozim. Suv ta’minoti korxonalarining asosiy vazifasi iste’molchilariga suvni o‘z vaqtida shartnoma asosida yetkazib berish va suv uchun sarf-xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

Respublikamizdagi mavjud suv xo‘jaligi tashkilotlari va xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar hamda ularning hududiy bo‘linmalari negizida irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tuzildi. Havza boshqarmasining vazifasi iqtisodiyot tarmoqlari hamda qishloq xo‘jaligi korxonalarida mahsulot yetishtirish uchun suv bilan ta’minlash va suv xo‘jaliklariga servis xizmati ko‘rsatishdan iborat.

Havza boshqarmasi o‘z funksiyalariga ega bo‘lib, suvdan foydalanish bashoratini umumlashtiradi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga suv limitlari bo‘yicha takliflar kiritib, tasdiqlangan limitlar asosida viloyatlar qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari, irrigatsiya tizimlari boshqarmalari, magistral kanal (tizim)lar, suv xo‘jaligi obyektlari, irrigatsiya tizimlari, viloyat va tumanlar bo‘yicha suv olish limitlarini belgilab beradi. Shuningdek, suv xo‘jaligi va suvdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi hisob-kitob ishlarini yuritadi, suv resurslari balansini tuzadi, suv kadastrlarini yuritadi. Suv o‘lchash vositalari ta’minoti, aloqa avtomatika, telemexanikaning zamonaviy tizimlarini joriy etadi; tizimlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi va ularni amalga oshiradi; havza suv xo‘jaligini istiqbolli rivojlantirish strategik rejalarni tuzadi; investitsiyalar kiritadi; irrigatsiya tizimlari va inshootlarini jihozlash va rekonstruksiya qilish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi, suv resurslarining byudjet mablag‘larini belgilab beradi va hokazo.

Suv va suvdan foydalanish uyushmalari Turkiya mamlakatida Tibra va Yevfrat daryolar sohilida joylashgan fermer xo‘jaliklari va dehqonlarga xizmat ko‘rsatadi. Suvdan foydalanish uyushmalari fermer va dehqonlar bilan shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. SFU yil boshida har bir fermer va dehqon uchun suv berish grafigini tasdiqlaydi. Suv pulli va sarflangan suv miqdoriga qarab to‘lanadi. Har bir ekin turi uchun suv miqdorining me’yori mavjud bo‘lib, bu meyor ta’minlab beriladi. Fermer suv kanalining boshidami

yoki oxirida bo‘ladimi qat’i nazar, elektron xarita va elektron grafik orqali amalga oshiriladi. Ortiqcha suv sarflanishiga yo‘l qo‘yilmaydi va suv miqdori tasdiqlangan grafik hamda miqdor bo‘yicha fermer va dehqonlarga yetkazib beriladi.

1 gektar sug‘oriladigan yerlardan fermer va dehqonlar suv miqdoriga haq to‘lashadi: paxta - 11 mln TL (Turkiya lirasi), g‘alla - 5 mln TL, piyoz va sarimsoqpiyoz - 12 mln TL, sitrusli ekinlar - 6 mln TL, pista ekinlari - 8 mln TL, mosh va loviya ekinlari - 10 mln TL va hokazo. Agar takroriy ekinlar ekilsa, 20% chegirmasi mavjud.



6.5.2-rasm. **Yerdan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash yo‘llari**

Yer resurslaridan samarali foydalanish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi lozim (6.5.2-rasm).

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun esa yerdan foydalanuvchilar ham bir qancha qonun-qoidalarga rioya etishlari kerak. Bular quyidagilar:

- yer resurslaridan qat’iy belgilangan maqsadda foydalanish;
- tabiiy resurs-obyekt bo‘lmish yerga zarar yetkazmaslik;
- yer uchastkasini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, uning unumdorligini saqlash va oshirish yuzasidan sarf-xarajatlar qilish;

- agar ijaraga olish shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, yer uchastkasini bir yil ichida o‘zlashtirish;
- yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda uning holatiga, unumdorligiga e’tibor berish;
- yer uchastkalarini turli kimyoviy o‘g‘itlar, yadoximikatlar bilan zararlantirib, nochor ahvolga solmaslik;
- yerga sarflanayotgan mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlash va undan kelayotgan daromadni to‘g‘ri sarflash va hokazo.

6.6. Yer-suv resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirish mexanizmlari

Yer resurslari, umuman tabiiy resurslar har bir mamlakatning umumiy holda jahon boyligining bir qismidir. Yer abadiy mavjud va ajdodlardan avlodlarga o‘tib keladi. Yer resurslarining sifati qishloq xo‘jaligi yerlarining hosildorligiga bog‘liq bo‘lib, insonlarning oziq-ovqat mahsulotlariga, yashash va dam olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga ko‘p jihatdan xarakterlanadi. Masalan, qishloq xo‘jaligi yerlaridan noratsional foydalanish ularning hosildorligining tushib ketishiga sabab bo‘ladi, bu esa o‘z o‘rnida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati va darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Yerlarga kimyoviy elementlar, yadoximikat unsurlar yordamida ishlov berish ularni zararlantiradi, bu esa yerlarning boshqa miqdorlarda ham ishlatib bo‘lmasligiga olib keladi. Shuning uchun jamiyat yerlarni hozirgi kun uchun va kelajak avlodlarning foydalanishi uchun asrash va muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi kerak.

Yer-suv resurslaridan foydalanish salbiy va ijobiy natijalarga bog‘liq. Ekin maydoniga yaqin joy yoki qo‘shni yer uchastkasida keraksiz qurilish unga qo‘shni bo‘lgan boshqa yer uchastkalariga, soya bo‘lishi, quyosh tegmasligi natijasida salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi yerlarida kimyoviy o‘g‘itlar yadoximikatlarning ko‘p ishlatilishi natijasida nafaqat mahsulotlar sifatiga, balki yer osti suvlarining ifloslanishiga, tuproq unumdorligining pasayishiga, ko‘l va daryolardagi baliqlarning nobud bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligida an’anaviy texnologiyalardan foydalanish, qishloq joylarida an’anaviy hayot tarzining saqlanib qolishi jamiyatda har doim ijobiy natija bergan. Chunki bu orqali tabiatni asrash - qishloq xo‘jaligi afzalliklari namoyish etiladi. Bundan, albatta qishloq aholisining “nimalardandur” voz kechishi kuzatiladiki, jamiyat va davlat bu “nimalarningdur” rag‘batlantirilishini ham yo‘lga qo‘yadi, imoratlarning qurilishi, yashash shart-sharoitlari (suv, gaz, elektr energiya, madaniy)ning yaxshilanishi qishloq aholisiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni jamiyat manfaatlari uchun yer-suv resurslaridan unumli foydalanishni rag‘batlantirish deyiladi. Ayniqsa, davlat rahbarligida qishloqlarda olib boradigan islohotlari qatoriga yuqoridagi dam olish maskanlari, sihatgohlar,

istirohat bog‘lari, tabiat manzarasiga boy tibbiy sanatoriylar, kinoteatrlar qurish va ishga tushirishda mas’uldir.

Bulardan tashqari, jamiyatimiz oldida turgan maqsadlarimizdan yana biri yer mulkchiligi bilan bog‘liq daromadlarning to‘g‘ri taqsimlanishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 iyundagi 176-sonli qarori bilan tomchilatib sug‘oriladigan yerlar joriy qilingan oydan boshlab, besh yil muddatga yagona yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi, tejalgan suv hisobidan boshoqli don ekinlaridan bo‘shagan maydonlarda takroriy ekin yetishtirishga ruxsat berildi va hokazo.

Davlat yer-suv resurslaridan foydalanuvchilarga shunday tartibni yo‘lga qo‘yishi kerakki, bunda faqat yer egasi - mulkdorgina emas, balki yerda yollanib ishlovchilar ham manfaatdor bo‘lishlari kerak.

Yer-suv resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirishda quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi:

- yer-suv resurslarini yanada yaxshilash va muhofaza qilish;
- atrof-muhit muhofazasi va inson hayoti uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish;
- yer-suv resurslaridan ijobiy natijalar keltiruvchi omillar sifatida foydalanish va yer resurslarini taqsimlashda tenglik tamoyiliga rioya qilish;
- yerga bo‘lgan huquqlarga kafolatlarning yaratilishi;
- yer resurslarini ishlatishdan kelgan daromadning to‘g‘ri taqsimlanishi.

Ushbu asosiy maqsadlardan kelib chiqib, davlatning rag‘batlantirish yo‘nalishlari belgilab berilgan, bu yo‘nalishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yer-suv resurslaridan foydalanishni nazorat qilish;
- yer-suv resurslarini taqsimlash ustidan nazorat o‘rnatish;
- yer-suv resurslaring soliq siyosatini olib borish;
- yer resurslarini ishlatish va taqsimlash;
- xususiy mulk egalarining yerlaridan jamiyat manfaatlari uchun foydalanishga olish va hokazo.

Yer-suv resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirish uchun davlat yer islohotini amalga oshiradi. Umuman olganda yer islohoti, suv islohoti kabilar amalga oshiriladi.

Yer islohoti – bu yer munosabatlarining shakllanishi bo‘lib, insonlar orasida yerdan foydalanish, taqsimlash va egalik qilish borasidagi munosabatlar yig‘indisidir. Respublikamizda yer islohotlarining asosiy yo‘nalishlari iqtisodiyotning agrar sektoriga qaratildi. Ayniqsa 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida” gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘grisida” gi Qonunlar yer uchastkalarining fermer va dehqonlarga taqsimlanishida bosh yo‘l ko‘rsatdi. Bu qonunlar orqali haqiqiy yer egalari, mulkdorlar sinfi shakllantirilib, ham aholiga, ham davlatga katta foyda keltirish yo‘llari ko‘rsatildi.

Ko‘pchilik davlatlarda agrar yer siyosati oilaviy xo‘jaliklar – fermer va dehqonlarga yo‘naltirilgan. Qoidalar ishlab chiqishda ko‘pincha fermer,

dehqonlar manfaatlari hisobga olinadi, chunki ular yer islohotiga hammadan ko‘ra muhtoj va mas’uldirlar. Yer islohotida ko‘pincha yer uchastkalari bilan bog‘liq masalalarda turli cheklanishlar ham qo‘llaniladi. Masalan, alohida talablarni ilgari suradigan masalalar qatoriga sotish va sotib olish, ijaraga olish, yerlarni meros qilish kabi masalalarni kiritish mumkin. Miqdori turli davlatlarda turlicha belgilangan. Masalan, Daniyada bu miqdor 150 gektarni, Germaniyaning janubiy hududlarida 400-500 gektarni, Shveysariyaning ba’zi hududlarida 20-30 gektarni tashkil etadi.

Suv islohoti – suvdan foydalanish, suvni to‘g‘ri taqsimlash va bu boradagi munosabatlar majmuidir.



6.6.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish tadbirlari**

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi ushbu vazirlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bosh boshqarma yer usti suvlaridan foydalanishni tartibga solish hamda respublika iqtisodiyot tarmoqlarini va aholini suv bilan ta’minlashga doir zarur tadbirlarni amalga oshiradi. Bunday tadbirlar zimmasida quyidagilar turadi (6.6.1-rasm).

Yuqoridagilar qatorida boshqarma vazifalari belgilangan, ular quyidagilardan iborat:

- suv xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilik shakllarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish va ular amalga oshirilishining monitoringini olib borish;
- suv to‘g‘risidagi qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishni ta’minlash;

- ❖ suv resurslaridan foydalanish va drenaj oqova suvlarini oqizib yuborish, yangi korxonalar qurish, ishlayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilish loyihalari bo‘yicha xulosalar berish;
- ❖ suvdan foydalanish uchun maxsus ruxsatnomalar berish va suv chiqarish inshootlarini ro‘yxatga olish, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va ulardan boshqa birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirish, ichki xo‘jalik suv hisobini tashkil etishda uslubiy va amaliy yordam berish va hokazo.

Asosiy tushunchalar

Yer resurslari - bu quruqlik yuzasining jami yig‘indisi bo‘lib, uning tarkibiga boshqa tabiiy obyektlar: o‘rmonlar, o‘simlik va boshqa tirik organizmlar, suv obyektlari kiritiladi.

Yer resurslarining xususiyatlari:

- ***birinchidan,*** yer – tabiat mahsuli, in’omi hisoblanib, u inson mehnati bilan yaratilmaydi, inson faqatgina yerga o‘z mehnatini yo‘naltirib, yoki yerning ahvolini yaxshilaydi, yoki umuman yomon ahvolga solishi mumkin;

- ***ikkinchidan,*** yer chegaralangan tabiiy resurs bo‘lib, inson xohlagancha yerni ko‘paytirib yoki kamaytira olmaydi. Shu sababli bosh maqsad - yerdan samarali va to‘g‘ri foydalanishdir;

- ***uchinchidan,*** yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir, shuningdek, yer har doim ishlab chiqarishdagi eng asosiy omil sifatidagi o‘rnini yo‘qotmaydi, undan mablag‘ni ko‘paytirish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalar orqali qishloq xo‘jaligidagi yerlardan unumli va samarali foydalanish, shuningdek sanoat va uy-joy qurilishi maqsadida ishlatish mumkin.

Yer balansi - yer turlarining yerga egalik qiluvchi xo‘jaliklar, korxonalar, muassasalar, uyushmalar, qo‘shma va kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklari bo‘yicha tarkibi, salmog‘i, maydoni va sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlangan hujjat.

Qishloq xo‘jaligida ekin maydoni - bu shunday yerlarki, u aniq maqsad yo‘lida, xo‘jaliklar shaklida foydalanishga yaroqlidir. Yer kategoriyalari yig‘ma va shartli tushuncha bo‘lsa, ekin maydoni ma’lum chegara, maydon va joylashuviga ega.

Bonitet- tuproqning tabiiy unumdorligi bo‘lib, 100 ballik shkalada baholanadi.

Yer kadastrlari - dalalarning xaritalarini bir-biriga har tomonlama solishtirish asosida ularni iqtisodiy baholashdir.

Irrigatsiya - suv resurslari bilan ta’minlash va suv inshootlari faoliyati tushuniladi.

Melioratsiya- yerning tabiiy unumdorligini yaxshilash chora-tadbirlarining jamlanmasidir.

Yer monitoringi - yer tarkibidagi o‘zgarishni vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlarning oldini olish, yerlarni baholash, salbiy oqibatlarni tugatish uchun yer fondining umumiy holatini kuzatish tizimidir.

Yer bonitirovkasi - bu tuproqning unumdorligiga ko‘ra, yerlarni bir-biriga taqqoslash, solishtirish bahosidir. U agrotexnik tadbirlar va yerga ishlov berish intensivligi darajasida o‘tkaziladi.

Suv monitoringi - qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan suvni monitoring qilish orqali salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlarini o‘rganib, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Suv iste’molchilari uyushmasi (SIU) – bu bir yoki undan ortiq kanal atrofidagi suvdan foydalanuvchilarning xohish irodasi bilan tuziladigan va ular tomonidan boshqariladigan notijorat tashkilot bo‘lib, muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqovaga chiqarish bilan bog‘liq xo‘jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda boshqa yuridik, jismoniy shaxslar uyushmasidir.

Yer islohoti – bu yer munosabatlarining shakllanishi bo‘lib, insonlar orasida yerdan foydalanish, taqsimlash va egalik qilish borasidagi munosabatlar yig‘indisidir.

Suv islohoti – suvdan foydalanish, suvni to‘g‘ri taqsimlash va bu boradagi munosabatlar majmuidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Respublika yer-suv fondiga nimalar kiradi?
2. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslarining iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatni bayon eting.
3. Yer-suv resurslari, ularning miqdori, turlari va tarkibi nimalardan iborat?
4. Yer-suv munosabatlarining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
5. Yer kadastri, qishloq xo‘jaligi yerlarini baholash qanday amalga oshiriladi?
6. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli qanday?
7. Yer-suv resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi qanday aniqlanadi?
8. Suv iste’molchilari uyushmasi (SIU) haqida tushuncha bering.
9. Yer-suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning qanday yo‘llari bor?
10. Yangi sug‘orish usullarini, ilg‘or texnologiyalarni, texnikalarni joriy etish qanday amalga oshiriladi?
11. Yer-suv resurslaridan foydalanishni rag‘batlantirishni bayon eting.
12. Yer-suv islohoti qanday amalga oshirilmoqda?
13. Yer-suv monitoringi nimalardan iborat?

VII-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI, FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

O‘quv maqsadi: Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion texnologiyalarning mazmun-mohiyati, qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining xususiyatlari, fan-texnika taraqqiyotining yo‘nalishlari va unga oid chet el ilg‘or tajribalari, moddiy-texnika resurslaridan oqilona, to‘liq va samarali foydalanishda ilg‘or, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati va moddiy-texnika resurslaridan iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiya, tuproq unumdorligi, chorva hayvonlarining mahsuldorligi, mehnat unumdorligi, mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish, kimyolashtirish.*

7.1. Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi

Xo‘jalik faoliyatining zarur elementi sifatida moddiy-texnika resurslari muhim ahamiyatga ega. Moddiy-texnika resurslari tarkibiga ko‘p turdagi unsurlar kiritiladi, ya’ni ishlab chiqarishning moddiy vositalari bo‘lgan binolar, inshootlar, mashinalar, urug‘liklar, o‘g‘itlar, qurilish materiallari va yoqilg‘i kiradi.

Moddiy-texnika resurslarisiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (tovar va xizmatlari) ishlab chiqarishni tashkil etib bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslari va boshqa turdagi resurslar o‘rtasida juda katta bog‘lanish mavjudki, bu bog‘lanish bevosita ishlab chiqarishga ta’sir qiladi. Masalan, ishlab chiqarishda bir turdagi moddiy-texnika vositalaridan (yem-xashak, o‘g‘itlar, qurilish materillari va hokazo) foydalanish moddiy biologik resurslar (mahsuldor chorva va parranda, baliq, suv, o‘simliklar va hokazo) bilan birgalikda mahsulotning moddiy asosini tashkil etadi. Boshqa turdagi moddiy-texnika resurslari (ish qurollari, mashinalar, texnologik uskunalar, yoqilg‘i-moylash materiallari, veterinar preparatlar, o‘simliklarni himoya qilish vositalari, xo‘jaligi asbob-uskunalari va hokazo) esa tayyor mahsulotni shakllantirishda faol ravishda ishtirok etadi. Moddiy-texnika resurslarining yana

bir qismi (energetik mashina, uzatish uskunalari, transport vositalari, ishlab chiqarish bino va inshootlari va hokazo) ishlab chiqarish jarayonining umumiy shart-sharoitlarini ta'minlaydi. Yana bir qismi esa xo'jalik yuritishdagi shart-sharoitlarni ta'minlab beradi. Bular umumxo'jalik xizmatlari uchun uskunalar va binolar, ta'mirlash ustaxonalari omborxonalar va hokazo.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining ba'zi bir tarmoqlarida (o'simlikchilik, chorvachilik, o'rmonchilik, baliqchilik va boshqalar) moddiy-texnika resurslarining bevosita yordami bilan mahsulot ishlab chiqarishning tabiiy-biologik jarayonlari amalga oshiriladi. Ba'zi tarmoqlarda esa (ovchilik, suv resurslarini qayta tiklash, sanoat va hokazo) chet mamlakatlarda inson qatnashmay turib, moddiy-texnika resurslari yordamida ishlab chiqarish amalga oshiriladi, ya'ni avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash orqali moddiy-texnika resurslarining o'zi ishlab chiqarishni amalga oshiradi.

Albatta, qishloq joylarda ishlab chiqarishni malakali ishchi kuchisiz, yer-suv, biologik va mineral resurslarsiz, umuman tabiiy resurslarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Moddiy-texnika resurslariga ega bo'lish uchun esa moliyaviy resurslar zarur bo'ladi.

Yerning cheklanganligi va biologik resurslarning muhim xususiyatlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan moddiy-texnika resurslarining muhim xususiyatlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan moddiy-texnika resurslarining, shuningdek ishlab chiqarish texnologiyasining sifati va miqdoriga, ularning o'zaro birikib ishlashlariga bo'lgan talablarini yanada kuchaytiradi. Maqsad - mahsulotni sifatli qilib, xarajatlarni kamaytirish ekan, avvalo resurslardan yuqori saviyada va tejamli foydalanish kerak.

Moddiy-texnika resurslariga bino-inshootlarning ichida joylashgan barcha mashina, transport vositalari, materiallar bilan birga ekin uchun urug'liklar, ko'p yillik o'simlik va daraxtlar, ko'chatlar, o'rmon, suv omborlari va hokazolar ham kiritiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish-texnik potensial degan tushuncha mavjudki, unga qishloq xo'jaligida istiqbolda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mavjud bo'lgan va yaratilajak moddiy-texnika resurslarining baholanishi, boshqa resurslar bilan bo'lgan munosabatlari ishlab chiqarishdagi kuch-quvvati va boshqa xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Moddiy-texnika resurslarining muhim ahamiyatga ega ekanini yuqoridagi fikr-mulohazalardan bilib oldik. Ularning xususiyatlari to'g'risida gapirsak, eng avvalo qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlariga to'xtalish lozim.

Birinchidan, resurslar tarkibida kelib chiqishi, ishlatilishi, vazifalari va turlariga ko'ra xilma-xillikka ega bo'lgan vositalar mavjudki, ularsiz ishlab chiqarish sodir bo'lmaydi. Xususan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tarkibida energetik va ishchi mashinalar, texnologik uskunalar, traktor, o'zi yurar shassi, statsionar issiq dvigatellar, yer qazuvchi, meliorativ va boshqa, texnologik mashinalar, yuk avtomobillari, transport mashinalar, traktor tirkamalari, chorvachilik fermalari uchun uskunalar, yerga ishlov berish va hosil

yig‘ish uchun maxsus ishchi mashinalari borki, ularsiz ishlab chiqarish to‘xtab qoladi. Faqatgina energetik mashinalarning o‘zi qishloq xo‘jaligida energetik quvvatning 80 %ini yaratadi. Ushbu mashinalarning alohida vazifasiga ko‘ra yoki tizimli ravishda ishlashi insonni og‘ir va charchatuvchi mehnatdan ozod qilib, qo‘l mehnati bilan bajarib bo‘lmaydigan ishlarni texnologik jarayonlarni amalga oshiradi. Shuning uchun alohida tarmoqlar uchun qishloq xo‘jaligi resurslar tarkibida kompleks mashinalardan foydalanish zaruriyati tug‘iladi.

Ikkinchidan, moddiy-texnika resurslari qayta yaratilishi mumkin. Bu hodisa esa sanoat ishlab chiqarishi hisobidan sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, xo‘jalik faoliyati jarayonida ushbu resurslarning jismonan va ma’naviy eskirishini hisobga olib, ularni yangi usul va texnologiyalar asosida yanada sifatliroq va miqdor jihatdan ko‘proq qilib yaratish talab etiladi.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslari joriy etish cheklangan hisoblanadi. Bu cheklanish iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqib, qayta ishlanishiga zamin yaratadi. Asosiy cheklanish omillariga sanoat quvvatlari, resurs ishlab chiqaruvchilar taklifi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning to‘lov qobiliyati, tovar ayirboshlash shart-sharoitlari kabilarni kiritish mumkin.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi uchun hududiy birlik xarakterlidir, shunga ko‘ra moddiy-texnika resurslarning ko‘p sonli qishloq joylarda birdek xizmat ko‘rsatish konsentratsiyasi ta’minlanadi.

Beshinchidan, moddiy-texnika vositalarining qishloq xo‘jaligi maqsadlariga mo‘ljallangan hissasi boshqa alohida tarmoqlarnikiga ko‘ra kattaroq bo‘ladi. Bulardan tashqari, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida moddiy-texnika vositalaridan foydalanishning yana quyidagi xususiyatlari mavjud:

- qishloq xo‘jaligining o‘zi mavsumiy xarakterga egaligini inobatga olib, moddiy-texnika vositalaridan foydalanish ham mavsumiy xarakterga egadir, bu esa ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi;
- moddiy buyumlashgan ko‘rinishdagi moddiy-texnika resurslari tabiiy sharoitlar ta’siriga uchraydi va ularni saqlash ma’lum miqdorda sarf-xarajatlarni talab etadi;
- qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan moddiy-texnika resurslari tarkibiga jonli organizmlar, o‘simliklar va chorva mollari ham kiradi;
- ishlab chiqarishda foydalaniladigan ayrim moddiy resurslar shu xo‘jalikning o‘zida yaratiladi (chorvachilikda foydalaniladigan yem-xashak, o‘simlikchilikda urug‘lik, organik o‘g‘itlar va boshqalar).

Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi asosan: kelib chiqishi, moddiy-ashyoviy turi, faoliyat turi, mulk shakllari, xo‘jalik subyektlari taqsimoti, amalda foydalanish imkoniyatlari va boshqalarga qarab amalga oshiriladi. Quyidagi chizmada moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi berilgan (7.1.1-rasm).

Chizmadan kelib chiqishiga koʻra, moddiy-texnika resurslari tabiiy va sun’iy moddiy resurslariga boʻlinadi. Sun’iy moddiy-texnika resurslari, asosan sanoatda va qisman qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilari yordamida ishlab chiqiladi.



7.1.1-rasm. **Qishloq xoʻjaligida moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi**

Tabiiy moddiy-texnika resurslariga biologik, mineral resurslari, quyosh energiyasi, yer, shamol, suv energiyasi, yer-suv resurslari kabilar kiradi. Moddiy-ashyoviy tarkib boʻyicha moddiy-texnika resurslarining turlanishi resurslarning jismonan miqdoriga koʻra umumiy texnik oʻlchovlar bilan belgilanadi. Bunday resurslarga ishchi mashinalar, ishlab chiqarish inshootlari, texnologik uskunalar, traktorlar, avtomobillar kiradi.

Faoliyat turi boʻyicha moddiy-texnika resurslari, asosan alohida tarmoqlarga ixtisoslashgan, bajarayotgan vazifasiga koʻra resurslarning taqsimlanishi koʻzda tutilgan resurslarni oʻz ichiga oladi. Masalan, sanoat korxonalari uchun alohida resurslar talab etilsa, qishloq xoʻjaligi uchun boshqa resurslar kerak boʻladi.

Mulk shakllariga koʻra, moddiy-texnika resurslari ham turkumlanadi. Masalan, fermer oʻzi texnika vositasini sotib oladi yoki uni ijaraga oladi va hokazo. Xoʻjalik subyektlari boʻyicha taqsimlashda resurslarning kim tomonidan foydalanishi e’tiborga olinadi. Masalan, qishloq xoʻjaligida ekish ishlariga kompyuter kerak emas, chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishda oʻrim kombayni kerak emas. Shunga koʻra, xoʻjalik subyektlarining oʻzi resurslarning kerakligini, talabga javob beradiganini tanlaydi.

Amaliy foydalanish imkoniyati bo‘yicha moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi, asosan fan-texnika taraqqiyotiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, yangi ixtiro qilingan kombayn yoki traktor sinovdan o‘tgach, amalda qancha muddat sifatli foydalaniladi, buni albatta ishlab chiqarish jarayoni belgilab beradi.

Shuninngdek, rossiyalik olimlar fikriga ko‘ra, moddiy-texnika resurslar takror ishlab chiqarish uslubiga ko‘ra takror ishlab chiqariladigan va takror ishlab chiqarilmaydigan moddiy – texnika resurslariga bo‘linadi

Yuqoridagilar bilan birga moddiy-texnika resurslari qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish va ijtimoiy obyekt bo‘yicha taqsimlanadi. Bular quyidagi chizmada aks ettirilgan (7.1.2-rasm).



7.1.2-rasm. **Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslari**

Chizmadan ko‘rinadiki, ishlab chiqarish qatlamiga mansub bo‘lgan moddiy-texnika resurslari tarkibiga asosan, qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi resurslar kiradi. Masalan, qishloq xo‘jaligining o‘zi (dehqonchilik va chorvachilik), qishloq xo‘jaligini qayta ishlovchi va mahalliy sanoat, o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik, qishloq xo‘jaligi qurilishi, savdo-sotiq va hokazo tarmoqlarga, moddiy-texnika resurslariga esa uy xo‘jaliklari, uy-joy qurilish xo‘jaliklari, o‘zini-o‘zi boshqarish xo‘jaliklari, sog‘liqni saqlash maskanlari, ta’lim va fan, maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat, ijtimoiy ta’minot, jamoa transporti va hokazoga xizmat qiluvchi resurslar kiradi.

Qishloq xo‘jaligi infrastrukturasi esa ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish uchun qishloq xo‘jaligida yaratilgan jami shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Bunga, ishlab chiqarish uchun va insonlar yashashiga zarur sharoitlar-issiqlik energiyasi, gaz, yorug‘lik bilan ta’minlanganlik, omborxonalar va hokazo resurslar kiradi.

Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash, moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yanada keng yo‘l ochib berish, bu borada yangi imtiyoz va imkoniyatlarni tug‘diradi, qisqacha aytganda, qishloqda paydo bo‘ladigan mulkiy

munosabatlarni, yangi o‘rta sinf vakillari-mulkdorlar, tadbirkor va ishbilarmonlarning manfaatlarini himoyalash bugungi kunda eng katta ahamiyatga ega.

Misol uchun, fermer xo‘jaliklari moddiy-texnika resurslarining tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari;
- fermer xo‘jaliklaridagi ko‘p yillik daraxtlar va uzumzorlar;
- chorva fermalarining mahsuldor va ishchi hayvonlari;
- fermer xo‘jaliklaridagi bino-inshootlar, texnikalar, mashinalar va boshqa ish qurollari;
- fermer xo‘jaliklaridagi aylanma mablag‘lar (urug‘lik, ozuqa, YOMM, mineral o‘g‘itlar va kimyo);
- fermer xo‘jaliklarining hisob raqamidagi pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar;
- fermer xo‘jaliklarining ta’sischiligi asosida tashkil qilingan muqobil MTP, SIU va agrofirmalar hisobidagi mol-mulki va hokazo.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini yuqori unumli mashinalar va texnika vositalari bilan ta’minlash borasida bir qator davlat dasturlari qabul qilingan va ularni hayotga tatbiq etish bo‘yicha yirik chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, qishloq xo‘jaligining ularga bo‘lgan talabi to‘liq qondirilgan deb bo‘lmaydi, (7.1.1 - jadval).

7.1.1-jadval

Respublikada mavjud asosiy qishloq xo‘jaligi texnikalari to‘g‘risida ma’lumot [42]

Texnika turlari	2005 y	2010 y	2014 y	2015 y	2016 y	2016 yilda 2005 yilga nisbatan o‘zgarishi, %
Yer haydovchi traktorlar	13 430	12 312	11 949	12 819	12 658	94,3
Shudgorlovchi traktorlar	18 692	12 919	11 865	12 242	10 906	58,3
Seyalkalar	20 113	13 720	12 694	12 661	10 237	50,9
Kultivatorlar	25 959	22 897	21 813	21 537	16 050	61,8
G‘alla o‘rib yig‘adigan kombaynlar	4 831	4 259	3 661	3 711	3 000	62,1

[42]S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, keyingi 11 yil davomida respublikada mavjud qishloq xo‘jaligi texnikalar soni asosan kamayib borgan, yer haydovchi traktorlar 5,7%ga, shudgorlovchi traktorlar 41,7%ga, seyalkalar 49,1%ga, kultivatorlar 38,2%ga va g‘alla o‘rib yig‘adigan kombaynlar 37,9%ga kamaygan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan ma’ruzalarida qishloq xo‘jaligi rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida: “**Oltinchidan,** hozirgi paytda mamlakatimizdagi 146 ming 295 ta qishloq xo‘jaligi texnikasining 38 foizi allaqachon o‘z umrini o‘tab bo‘lgan, ya’ni butunlay eskirgan”- deb ta‘kidlaydi.

7.2. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo‘nalishlari va innovatsion texnologiyalar

Har bir davlat iqtisodiyotining yuksalishida fan-texnika taraqqiyoti muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining shakllantirilishi va yanada rivojlantirilishi uchun fan-texnika taraqqiyoti katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, fan-texnika taraqqiyoti yirik ishlab chiqarish uchun xarakterli bo‘lgan fan va texnikaning muttasil ravishda va o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirilishidir. Insoniyatning kundan-kunga ortib boruvchi ehtiyojlarini qondirish uchun fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirish tabiiy jarayon bo‘lib bormoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti intellektual ong rivojlanish mahsuli bo‘lib, qishloq xo‘jaligida u bilan bog‘liq bo‘lgan jami fanlardagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar, ularning yanada taraqqiy etishi, texnika-texnologiyalarni yaratish va u bilan shug‘ullanuvchi malakali kadrlar tayyorlash natijasida yanada yuksakliklarga erishish demakdir. Uning asosiy maqsadi esa samarali, yangi qishloq xo‘jaligi texnikalarini, ekologik, jismonan va ma’nan talablarga javob beruvchi uskunalarni, texnologiyalarni, kimyoviy vositalar, o‘simlikchilikda yangi navlarni, chorvachilikda yangi zotlarni yaratish, mavjud vositalar va texnologiyalarni takomillashtirib, mehnat unumdorligini oshirishdan iborat. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini oshirish va sifatini yaxshilash, ularni qayta ishlash va iste’molchigacha yetkazib berish jarayonini muammosiz tashkil etish ham fan-texnika taraqqiyotining maqsadlaridan biridir. Ushbu maqsad negizida esa respublika iqtisodiyotini yuksaltirish yotadi.

Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati fan va texnikaning yuksak sur’atlar bilan o‘sishi uchun bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘lanib, taraqqiy etishdan iborat. Uni jadallashtirish zaruriyati bir nechta sabablarga asoslanadi.

Birinchidan, fan-texnika taraqqiyoti tufayli bir - birlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan mehnat sarfini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga erishish;

Ikkinchidan, yaroqsiz holga keltirilgan va eski, lekin ishlatilayotgan qishloq xo‘jaligi texnika, asbob-uskunalar, texnologiyalarini yangi, zamonaviy va sifatlisiga almashtirish hamda shu orqali moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanishga erishish. Ayniqsa, xom-ashyoni qayta ishlab toki tayyor mahsulot yaratgunga qadar bo‘lgan jarayonlarda yangi texnika-texnologiyalardan foydalanishda fan texnika taraqqiyotining ahamiyati beqiyos.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligi va sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etishda ixtisoslashtirish, korxonalarni bir joyda to‘plashning o‘z o‘rni bor. Ana shuni ta’minlash uchun ham fan-texnika taraqqiyoti zarurdir.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligini, umuman ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, rivojlantirish uchun kadrlarni to‘g‘ri tanlash ham muhim. Fan-texnika taraqqiyoti esa yangi-yangi kasblarning vujudga kelishini talab qiladi va ishlovchilarning kasb-mahoratini oshirishga undaydi.

Beshinchidan, fan-texnika taraqqiyoti orqali iqtisodiyotning, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari alohida-alohida va bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liq holda rivojlantiriladi.

Fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish texnika-texnologiyalarda tub o‘zgartirish kiritish negizida albatta mehnat unumdorligini oshirishga erishiladi. Fan-texnika taraqqiyoti ikki shaklda amalga oshiriladi: 1) evolyutsion yoki bosqichma-bosqich shakl (bunda fan va texnika me’yori bilan, sekinroq va qisman takomillashib boradi); 2) revolyutsion yoki inqilobiy shakl (bunda qonun-qoidaga asosan yangi texnika va texnologiyani vujudga keltirish hamda jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarni tubd an o‘zgartirishga erishiladi).

Fan-texnika taraqqiyotining jadal sur’atlar bilan rivojlantirilishi iqtisodiyotni har tomonlama intensivlashtirish hisobiga mahsulot sifatini qat’iy yaxshilashning hal qiluvchi vositasi hisobiga sodir bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligining texnikaviy jihatdan yangilash, yangi-yangi texnologiyalar yaratish, undagi moddiy-texnika bazasini tubdan o‘zgartiradi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida innovatsiya – bu fan yutuqlari va ilg‘or tajribadan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishni takomillashtirish va rivojlantirish jarayonlari, yangi iste’mol hususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulotlarini (tovar, mahsulot, texnika, texnologiya, boshqa tashkiliy shakl va vositalar) shakllantirish, amaliyotga joriy etishga asoslangan investitsion va ijodiy faoliyatning moddiylashgan yakuniy natijasi bo‘lib, bozor va ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga ko‘maklashadi, xarajatlarni iqtisod qiladi va insonlarning turli xil hayot va faoliyat sohalarida turlicha samara berishini ta’minlaydi.

Ilmiy tahlillar natijasida qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish deganda sohaning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, daromadlilik darajasini ko‘paytirish, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar majmuasini o‘tkazish, innovatsiyalarni yaratish va o‘zlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimiga aytiladi.

Infratuzilmani rivojlantirishda innovatsion siyosat davlatning agrar sohadagi innovatsion siyosatning bir qismi bo‘lib, mamlakatni modernizatsiyalash, tarmoqning barqarorlik va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlariga erishishdagi innovatsion strategiyasini amalga oshirish shaklidir.

Innovatsion infratuzilma tashkiliy-iqtisodiy institutlar majmuasi bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik prinsiplari asosida bevosita innovatsion jarayonlarni amalga oshirish uchun sharoitlarni ta’minlab beradi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini samarali boshqarish muammosining asosiy vazifalarini bajarishda innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish jarayonini boshqarish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsiya – innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi bo‘lib, yangi yoki takomillashtirilgan ko‘rinishda yuzaga chiqqan va bozorga kiritilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo‘llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon, eng so‘nggi tadqiqotlar yoki ixtirolarning natijalariga asoslangan tarzda ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv sifatida ta’riflash maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion faoliyat – ishlab chiqarishda yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot turini o‘zlashtirish, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni amaliyotga joriy etish, iste’molchilar uchun yoki mahsulot raqobatbardoshliligini oshiruvchi yanada sifatli tarkibga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi.

Innovatsion infratuzilma - ishlab chiqarishda yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot turini o‘zlashtirishni, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni amaliyotga joriy etishni tashkil qilish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlardan iboratdir.

Olib borilgan izlanishlar natijasida innovatsiyalarning tasnifiy belgilari ishlab chiqildi (7.2.1 – rasm).

Qishloq xo‘jaligida esa fan-texnika taraqqiyotining yo‘nalishlari iqtisodiyot tarmoqlari yo‘nalishlaridan birmuncha farq qiladi. Bular quyidagilar: yangi yerlarni o‘zlashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi sifatli sug‘orish vositalari va texnologiyalarini yaratish, dehqonchilikda kam suv talab etadigan, tezpishar va yuqori hosil beruvchi urug‘ navlarini, sermahsul chorva mollarini yaratish, mavjud innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish, qishloq xo‘jaligiga servis xizmatlarini ko‘rsatish, mahsulotlarni qayta ishlash, sifatli saqlash va iste’molchilarga o‘z vaqtida yetkazib berish qobiliyatiga ega bo‘lgan texnologiyalar va tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish hamda fan-texnika taraqqiyotini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga o‘z vaqtida joriy etishga xizmat qiluvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ularni rag‘batlantirish kabilar.



7.2.1-rasm. **Innovatsiyalarning tasnifiy belgilari**



7.2.2-rasm. **Qishloq xo‘jaligida innovatsion jarayonlarga ta’sir etuvchi ijobiy va salbiy omillar**[43]

Qishloq xo‘jaligida innovatsion jarayonlarning asosiy yo‘nalishlarini uch guruhga bo‘lish mumkin. Bular jumlasiga biologik, texnik-texnologik va tashkiliy-iqtisodiy-ijtimoiy yo‘nalishlar kiradi.

Agrar sohani innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish jarayonida ularni ijobiy (innovatsion jarayonlarning rivojlanishiga ko‘maklashuvchi) va salbiy (innovatsion jarayonlarga to‘sqinlik qiluvchi) omillarga bo‘lib o‘rganildi, (7.2.2 – rasm).

Fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning samaradorligini oshirishdagi hal qiluvchi yo‘nalishlaridan biridir.

Intensivlash - umumlashtirish, serunumlik degan ma’nolarni anglatadi. Fan-texnika taraqqiyoti joriy qilinib, yangi texnikani kiritish natijasida mahsulot tannarxi ham kamayadi, bu esa quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta S = (T_1 - T_t) * A_t$$

[43]S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.

bunda: ΔS - yangi texnikani joriy qilib, tannarxni kamaytirishdan kelib chiquvchi samaradorlik;

T_t - yangi mahsulot tannarxi (t yildagi);

T_1 - eski mahsulot tannarxi;

A_t - yangi mahsulotning t-yildagi hajmi.

Bundan esa foyda qay darajada o‘zgarishi formulasi ham kelib chiqadi:

$$\Delta F'_o t = \left((B_t - T_t) - (B_e - T_e)\right) * A_t$$

$\Delta F'_o t$ - yilda foydaning o‘sishi, so‘m hisobida;

B_t - texnika kiritgandan keyingi ulgurji baho;

T_t - texnika kiritgandan keyingi bir birlik mahsulot tannarxi;

B_e - yangi texnika kiritmasdan oldingi ulgurji baho;

T_e - yangi texnika kiritmasdan avvalgi bir birlik mahsulot tannarxi;

A_t - yangi mahsulotning t yildagi hajmi.

7.3. Qishloq xo‘jaligida zamonaviy, samarali, ekologik jihatdan foydali hisoblangan texnikalarni, kimyoviy vositalarni va intensiv texnologiyalarni yaratish

Moddiy - texnika resurslarining qishloq xo‘jaligidagi asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning umumiy to‘liq va talabga javob beruvchanligini batafsil va oqilona o‘rganishdir. Bunda esa ularning baholanish ko‘rsatkichlari mavjud.

Moddiy-texnika resurslarini baholashda natural, qiymat va miqdor ko‘rsatkichlardan foydalaniladi hamda sifati bo‘yicha izohlanadi.

Moddiy-texnika resurslarining natural baholanishi qishloq xo‘jaligida ularning miqdori, fizik shakli, quvvati ko‘rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, traktorlar miqdori birliklarda, shu bilan birga quvvati ot kuchi bilan hisoblanadi.

Fizik shakli - haydovchilik traktori yoki har tomonlama traktor deb hisobga olinadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash uskunalari texnologik liniyalar tarmoqlar asosida ularning quvvati bir smenada ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotiga qarab hisoblanadi.

Ishlab chiqarishda qatnashadigan moddiy-texnika resurslari ishlab chiqarish fondlari tarkibiga kiritiladi. **Ishlab chiqarish fondlari** - mehnat predmetlari va vositalari yig‘indisi bo‘lib, ular yordamida xo‘jalik faoliyati amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayoni sodir bo‘lgach, tayyor mahsulotga qiymatini o‘tkazish jihatidan ishlab chiqarish fondlari 2 ta, ya’ni asosiy va aylanma fondlarga bo‘linadi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarishda uzoq vaqt ishtirok etadigan moddiy-ashyoviy, qimmatbaho buyumlarni o‘z ichiga oladi: bino-inshootlar, mashinalar, uskunalar, transport vositalari, ishchi va mahsuldor chorva mollari, daraxtzorlar

va hokazo. **Aylanma fondlarga** esa shunday ishlab chiqarish vositalari kiradiki, ular bir ishlab chiqarish siklida to‘liq qatnashib, o‘z qiymatini to‘lig‘icha ishlab chiqariladigan mahsulotga o‘tkazadilar. Bularga yem-xashak, ozuqa, o‘g‘itlar, urug‘lik, yoqilg‘i-moylash materiallari, elektroenergiya va hokazolar kiradi.

Asosiy fondlarning qiymati asosiy vositalar bahosi bilan aniqlanadi. Aylanma fondlar aylanma vositalar bilan birgalikda muomala fondlarini ham hisobga oladi. Hamma asosiy ishlab chiqarish vositalari ham qiymat bahosiga ega emas. Ulardan ba’zilari to‘liq bo‘lmagan qiymat bahosiga ega, ba’zilari esa umuman ega emas va tashkilotlar balansida hisobga olinmaydi.

Moddiy-texnika resurslarining qiymati, shuningdek asosiy va aylanma kapital tarkibida hisobga olinadi. Asosiy kapital ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo‘lib, u o‘z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qisman o‘tkazadi. Aylanma kapital esa bu ishlab chiqarish kapitalining xom-ashyoga, materiallar va ishchi kuchiga qilinadigan sarf-xarajatlar ko‘rinishidagi qismi bo‘lib, ishlab chiqariladigan mahsulotga qiymatini to‘liq o‘tkazadi.

Moddiy-texnika resurslarining sifat bo‘yicha baholanishi bir qator ko‘rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi: yangi texnika va uskunalarning zamoanaviy turlari bo‘yicha hissasi; bino va inshootlar turlari; ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgandagi taqqoslama og‘irligi; asosiy vositalar eskirishi ko‘rsatkichlari; bino va inshootlarning taqqoslama og‘irligi hamda ularning kapital remont talab qilinishi yoki eskirgan ko‘rsatkichlari; asosiy moddiy-texnika vositalarining xizmat qilib berish muddati va hokazo. Alohida tarmoqlarda va faoliyat turlarida baholanish o‘zining maxsus ko‘rsatkichlari yordamida amalga oshiriladi. Masalan, muhandislik kommunikatsiyalari sifati ularning uzoq muddat xizmat qilib berishi, ishonchliligi, xavfsizligi, atrof-muhitga zarar yetkazish darajasi va hokazo ko‘rsatkichlar yordamida baholanadi.

Moddiy texnika resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati ularning qishloq joylarida ham mavjudligi bilan belgilanadi. Moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlikka oid ko‘rsatkichlar quyidagicha: alohida resurs turlarining umumiy hajmi bo‘yicha (hissasi), aholi soni bilan ularning to‘g‘ri kelish-kelmasligi, boshqa resurslar bilan aloqadorlik nisbati ko‘rsatkich dinamikasi va hokazo. Xususan, **qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi** quyidagi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi: mehnatning fond bilan qurollanganligi, ya’ni ishchilarning fond bilan qurollanganligi, fond bilan ta’minlanganlik, energiya bilan qurollanganlik, energiya bilan ta’minlanganlik va hokazo. Ushbu ko‘rsatkichlar meyoriy hujjatlar bilan solishtiriladi, shu bilan birga milliy va chet el tajribasi asosida solishtiriladi.

Mehnatning fond bilan qurollanganligi ko‘rsatkichi bir ishchi hisobida foydalanilayotgan moddiy-texnika resurslarining qiymati asosida aniqlanadi:

$$F_q = \frac{AFQ}{N}$$

bunda:

F_q - fond bilan qurollanganlik, so‘m/kishi;

AFQ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati so‘m;

N - ishchilar soni, kishi.

Fond bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichi ishlab chiqarish obyekti yoki asosi ishlab chiqarish resursi birligi yoki ishlab chiqarish maydoni hisobiga moddiy-texnika resurslarining to‘g‘ri kelishi, qiymatini bildiradi. Xususan, fond bilan ta’minlanganlik qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarning qishloq xo‘jaligi tadbirlariga ishlatilishi jihatidan baholanadi. Bunda yoki 100 gektar, 1000 gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydoniga fondlarning to‘g‘ri kelishi bo‘yicha baholanadi.

$$F_t = \frac{AFQ}{S}$$

bunda:

F_t -fond bilan ta’minlanganlik, so‘m/ga;

AFQ - asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati so‘m;

S- qishloq xo‘jalik ekinlari maydoniga.

Mehnatning energiya bilan qurollanganligi bir kishiga to‘g‘ri keladigan energiya quvvati miqdori bilan aniqlanadi:

$$E_q = \frac{EQ}{N}$$

bunda:

E_q - energiya bilan qurollanganlik, ot kuchi/kishi;

EQ - energiya quvvati, ot kuchi;

N - ishchilar soni, kishi.

Energiya bilan ta’minlanganlik ishlab chiqarilayotgan obyekt yoki ishlab chiqarish resursi birligiga yoki ishlab chiqarish maydoniga nisbatan hisoblanadi:

$$E_t = \frac{EQ}{S}$$

bunda:

E_t - energiya bilan ta’minlanganlik, ot kuchi/ga;

EQ - umumiy energiya quvvati, ot kuchi;

S - ekin maydoni, ga.

Bulardan tashqari, qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan to‘liq va samarali foydalanishni baholashda ***resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi ko‘rsatkichi*** muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MTP_t = \frac{QXE + \left(AV_q - AV_e\right) + Ay_q - BT_q}{S}$$

bunda:

MTP_t - moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi, so‘m;

QXE_q - qishloq xo‘jaligi yerlarining qiymati, so‘m;

AV_q - asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati, so‘m;

AV_e - asosiy vositalarning o‘rtacha yillik eskirish qiymati, so‘m;

Ay_q - aylanma vositalarning o‘rtacha yillik summasi, so‘m;

BT_q - bog‘ va tokzorlarning o‘rtacha yillik summasi, so‘m;

S - ekin maydoni, ga.

Ushbu ko‘rsatkich xo‘jalikning mavjud ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan moddiy-texnika resurslarini aniqlab beradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashuvi darajasi – mashina-traktorlar yordamida bajarilgan jami ish miqdorini korxona bo‘yicha bajarilgan jami ish hajmiga bo‘lib aniqlanadi.

$$M_d = \frac{M_i}{\Sigma \mathbf{I}} * \mathbf{100}$$

bunda:

M_d - mexanizatsiyalashganlik darajasi, %;

M_i - mashina-traktorlar yordamida bajarilgan ish, (etalon ga);

ΣI - xo‘jalikda jami bajarilgan ish miqdori (etalon ga).

Mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$MTP_{fk} = \frac{FMT}{MMT}$$

bunda:

MTP_{fk} - mashina traktor parkidan foydalanish koeffitsenti;

FMT - foydalanilgan mashina- traktorlar soni, (dona);

MMT - mavjud bo‘lgan mashina-traktorlar soni (dona).

Ishlab chiqarishda asosiy fondlardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlariga yana fond qaytimi va fond sig‘imi kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Fond qaytimi qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan yalpi mahsulot qiymatini asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$F_q = \frac{YaMQ}{AF}$$

bunda:

F_q - fond qaytimi, so‘m;

$YaMQ$ - yalpi mahsulot qiymati, so‘m;

AF -asosiy vosita (fond)larning o‘rtacha yillik qiymati, so‘m.

Fond sig‘imi fond qaytimiga teskari bo‘lgan ko‘rsatkich bo‘lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$F_s = \frac{AF}{YaMQ}.$$

Asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymatining yetishtirilgan qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti qiymatiga nisbati bilan aniqlanadigan ko‘rsatkich fond sig‘imidir. ***Foyda meyori*** asosida ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi:

$$FM = \frac{YaF}{AF + A_yF}.$$

bunda:

FM - foyda meyori;

YaF - yalpi foyda, so‘m;

AF - asosiy fondlar qiymati, so‘м;

A_yF - aylanma fondlar qiymati, so‘m.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanishi bir qancha omillarga borib taqaladi. Kelib chiqish xarakteriga ko‘ra, ikki asosiy manba: sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo‘jaligida resurslar ishlab chiqarish manbalariga ko‘ra moddiy-texnika resurslari ta’minoti amalga oshiriladi.

Sanoat ishlab chiqarishi shunday muhim faoliyatni, u xoh o‘zimizning, xoh import tovar ishlab chiqarsin, uning hammasi umumiy ishlab chiqarish

jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shuningdek, bu ishlab chiqarishning muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va iste’mol tovarlari yaratilib, fan-texnika taraqqiyoti aniqlanadi, jami ijtimoiy mahsulot chiqariladi va yaratiladi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning jadallashuvi birinchidan, iqlimga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, albatta mehnat resurslari bilan zamonaviy, ilg‘or texnologiyalarga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligida resurslar ishlab chiqarish tarkibiga turli materiallar, ishchi mashina va inventarlar tayyorlash, texnika vositalarini yangilash, alohida ehtiyot qismlari ishlab chiqarish, texnika va uskunalarni kompleks ishlatish, yem-xashak ishlab chiqarish, urug‘liklar, ko‘chatlar, shuningdek ko‘p yillik daraxtzorlar yaratish, bog‘ va tokzorlar yaratish, chorva mollar mahsuldorligini oshirish, parrandachilik va baliqchilikda, o‘rmon xo‘jaligida yangiliklar yaratish va ishlab chiqarish jarayonini yanada intensivlash kabilar kiritiladi. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarini ishlab chiqarish ishlab chiqarishni ta’minlash maqsadida olib boriladi.

Moddiy-texnika resurslarining zamonaviy ko‘rinishi 2 manba orqali ko‘zga tashlanadi: 1) mamlakatimizda fan-texnika taraqqiyoti yuksalishi natijasidagi ishlanmalar; 2) import ravishda, ya’ni chet el ilg‘or texnologiyalari kirib kelishi natijasida. Ikkinchi turdagi ishlab chiqarish orqali qishloq xo‘jaligining ko‘pgina qirralari rivojlantirilmoqda. Masalan, AQSH tajribasi (mashina-uskunalar keltiriladi); Gollandiya tajribasi (kartoshka va boshqa poliz sabzavot ekinlari); Kanada, Angliya, Fransiya va Germaniya tajribalari (yuqori unumli minizavodlar, ilg‘or texnologiyalar); Xitoy tajribasi (yuqori quvvatli minizavodlar) va hokazo. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining shakllanishi quyidagicha tasvirlanadi (7.3.1-rasm):



7.3.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida moddiy-texnika resusrlarining shakllanishi**

Moddiy-texnika resurslarining qishloq xo‘jaligida shakllantirishdagi asosiy xarakteristikasi bu ishlatilayotgan moddiy-texnika resurslari hajmini o‘zgartirish, shunga ko‘ra zamonaviy, sifatli yuqori samaraga ega bo‘lgan, ekologik jihatdan foydali hisoblangan texnik resurslarni kimyoviy vositalarni va texnologiyalarni yaratishdir. Bunga yana quyidagilarni qo‘shimcha qilish kerak: hozirgi fan-texnika yuksalayotgan bir davrda ratsional, iqtisodiy va ekologik jihatdan ilg‘or bo‘lgan moddiy-texnika resurslari nafaqat qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilganda, balki umuman qishloq hayoti va atmosferasi uchun hayotiy zaruriyatdir.

Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarini 2 katta guruhga bo‘lgan holda, ya’ni ishlab chiqarish moddiy-texnika resurslari va ijtimoiy moddiy-texnika resurslari asosida taqsimlash lozim[44]

Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilar: moddiy-texnika vositalari bilan ta’minlanganlik, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining umumiy iqtisodiy ahvoli va daromadliligi, investitsiya faoliyatini faollashtirish, moddiy-texnika ta’minoti tizimliligi, ishlab chiqarish va muhandislik infrastrukturasining rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti, davlatning qishloq xo‘jaligidagi moddiy-texnika ta’minoti borasidagi siyosati va hokazo.

Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchi) topshirig‘iga binoan, uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun 12 oydan ortiq muddatga beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida” gi qonuni 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan bo‘lib, 2002 yil, 2007 yillarda unga o‘zgartirishlar kiritildi. Lizing munosabatlarini kengaytirish qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Mamlakatimizdagi qator qonun va qarorlar asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga, jumladan, fermer xo‘jaliklariga qishloq xo‘jaligi texnikalarini lizing bo‘yicha yetkazib berish mexanizmi ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasida lizing beruvchilar 87 ta bo‘lib, shundan lizing kompaniyalari 46 ta, tijorat banklari 23 ta va boshqa lizing beruvchilar soni 18 tani tashkil etadi.

O‘zbekistonda faoliyat olib boruvchi ana shunday lizing kompaniyalaridan biri “O‘zqishloqxo‘jaligimashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi bo‘lib, uning asosiy vazifasi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va ularga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarga qishloq xo‘jalik texnikalarini lizingga yetkazib berishdan iborat. Hozirgi kunda kompaniya qishloq xo‘jalik korxonalariga 38 turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalarining 42890 donasi yetkazib berildi. Xarid qilingan texnikalarni ishlab chiqaruvchilarning 71% i mahalliy

[44]С.В. Киселёв и др. Сельская экономика. М.: Инфра-М, 2008. 309. (572)

ishlab chiqaruvchilar va 39 % i xorijiy ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Shu texnikalarning 92,9 % i kompaniya mablag‘lari va 7,1 % i davlat dasturi mablag‘lari hisobidan xarid qilindi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga texnika yetkazib berishda quyidagi 3 turdagi iqtisodiy mezanizmlardan foydalanilmoqda:

- lizing kompaniyasi tomonidan qarz (kredit)ga olingan mablag‘ hisobidan lizing obyektini sotib olib, lizing oluvchiga yetkazib berilishi;
- tijorat banklari tomonidan Markaziy bankdan olingan kredit yoki o‘z mablag‘i hisobidan lizing obyektini sotib olib, lizing oluvchiga yetkazib berilishi;
- tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jalik korxonasiga texnika sotib olish uchun kredit ajratish.

O‘zbekistonda 2015-2019 yillarda qishloq xo‘jaligiga ko‘rsatiladigan lizing xizmatlari hajmining yanada kengayishiga sharoit yaratib beradigan asoslar quyidagilardir:

- lizing beruvchi va lizing oluvchilarga bir qator soliq imtiyozlarining berilganligi;
- qishloq xo‘jalik korxonalariga imtiyozli shartlarda texnikalarni lizingga yetkazib berilishi;
- fermer xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligi ortganligi sababli texnikaga bo‘lgan talabning oshayotganligi;
- fermer xo‘jaliklari va MTPlar texnika parkining eskirganligi tufayli yangi texnikaga ehtiyojning yuqoriligi;
- respublika qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalarida yangi turdagi texnikalar ishlab chiqarishning ortayotganligi.

Bugungi kunda kompaniya tomonidan lizing oluvchilarga quyidagi konsalting xizmatlari ko‘rsatilmoqda:

- lizing qonunchiligi, lizingga texnikalar olish tartibi va lizing shartnomasini tuzish bo‘yicha huquqiy yordam;
- lizing sohasida buxgalteriya hisob-kitobini yuritish bo‘yicha maslahatlar;
- lizingga texnika olish uchun “biznes reja” tuzish tartibi bo‘yicha amaliy yordam;
- joylarda lizing faoliyatini tushuntirish bo‘yicha lizing oluvchilar ishtirokida davra suhbatlari va seminarlar o‘tkazish va hokazo.

Moddiy-texnika resurslarining shakllanishi, shuningdek, moliyaviy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bu moliyaviy vositalar zamonaviy, samaradorligi yuqori bo‘lgan hamda ekologik jihatdan foydali hisoblangan texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni yaratishda investitsiyalar va joriy kapital qo‘yilmalar shaklida safarbar etiladi. Joriy kapital qo‘yilmalar ishlab chiqarish jarayonida takror ishlab chiqarishning qaytarilishini ta’minlash uchun xom-ashyo va materiallarni yetkazish uchun foydalaniladi.

7.4. Fan-texnika yutuqlarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish

Tarixdan ma’lumki, jahondagi iqtisodiy faoliyatning hozirgi darajaga yetishigacha qancha ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davri o‘tdi. VII-VIII asrlarda iqlimning isishi oqibatida epidemiyalar tarqalishi kamaydi va demografik o‘sish kuzatildi. XI asrda hunarmandchilik rivojlanib, ishlab chiqarish asta-sekin rivojlantirildi va yer bilan ishlash birmuncha osonlashdi. Qo‘l mehnatidan foydalanish kamaydi va mahsulot ishlab chiqarish jarayoni yangi-yangi cho‘qqilarga erishdi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida mehnat unumdorligi oshdi, ayniqsa texnologiyalar borasidagi siljishlar natijasida sanoatda ham, qishloq xo‘jaligida ham ijobiy o‘zgartirishlar kiritildi.

XIII asrda butun Yevropada sanoat shaharlari barpo etilib, yengil sanoat, to‘quv sanoati rivojlandi. Angliyada qishloq xo‘jaligi rivojlanib, chorvachilikdan olingan jun butun Yevropa bo‘ylab sotildi. Jun evaziga XIVasrda Shimoliy Italiya, Venetsiya, Genuya va Florensiya sanoat mollari savdo-sotig‘i yo‘lga qo‘yildi. Shu asrda qurolsozlik, mashinasozlik, yangi texnologiyalar kashf qilinib, fan-texnika taraqqiyoti yanada ilgariladi.

Fan-texnika taraqqiyoti XIX-XX asrlarda yuksalish davriga erishdi. Butun iqtisodiyot tez sur’atlar bilan rivojlantirildi. Qishloq xo‘jaligida yangi navlar, ko‘chatlar, uzoq yil umr ko‘ruvchi zotdor mollar, nasldor chorvalar, daraxtzorlar yaratildi. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, texnika va texnologiyalarda tub o‘zgarishlar kiritish barcha texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni safarbar etish negizida mehnat unumdorligini ancha oshirishga erishildi. Fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishda texnikaning yangi-yangi avlodlarini, prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarni joriy etishni ta’minlovchi mashinasozlik yetakchi rol o‘ynaydi. Fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasi kuchaymoqda, ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning yangi, samarali shakllari vujudga kelmoqda, texnika yangiliklarini ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarni iqtisodiyot tarmoqlarida, qolaversa, qishloq xo‘jaligida o‘zlashtirish muddatlari qisqarmoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti samaradorligini aniqlash uchun yangi texnikani qo‘llash natijasida olingan iqtisodiy samarani uni ishlab chiqarishga qilingan barcha xarajatlar miqdoriga bo‘lish kerak:

$$FTT_s = \frac{YaTS}{IX}$$

bunda:

FTT_s - fan texnika taraqqiyoti samaradorligi;

$YaTS$ - yangi texnika natijasida iqtisodiy samara, so‘m;

IX - ishlab chiqarish xarajatlari, so‘m.

Fan-texnika taraqqiyoti samaradorligi orqali yillik iqtisodiy samaraga erishiladi. **Yillik iqtisodiy samara** deganda, iqtisodiyot tarmoqlari miqyosida olingan iqtisodiy tejam tushuniladi. Yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar qatoriga esa foydaning o‘sishi, tannarxning pasayishi kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Bular ham yangi texnikani qo‘llash natijasida amalga oshiriladi.

Yangi texnikani ixtiro qilish va foydalanishdan kelib chiqadigan xo‘jalik hisobi samarasi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{tx} = \Delta F_t - E_n \Sigma K_t$$

bunda:

E_{tx} - yig‘ma xo‘jaligi hisobi samarasi, t yildagi, so‘m;

ΔF_t - t yilda yangi texnika bo‘yicha qilingan tadbirlar natijasida foydaning o‘sishi, so‘m;

E_n - yangi texnika samaradorligining normativ koeffitsiyenti (E_n=0,15);

ΣK_t - t-yilda tadbirlar uchun sarflangan kapital mablag‘, so‘m.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolarni yechish bilan birga fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va undan oqilona foydalanish masalasini hal etishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, nazariy tadqiqotlar kengligi va samaradorligi asosan davlat tomonidan doimiy va o‘sib boruvchi moliyaviy madadga bog‘liqdir.

Yangi texnika va ishlanmalarni yaratish va ularni keng ko‘lamda amaliyotga joriy etish, albatta bozor mexanizmini qo‘llash natijasida, ya’ni xo‘jalik shartnomalari asosida amalga oshiriladi va olingan natijalar mahsulot sifatida qabul qilinadi.

Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish muhim rol o‘ynaydi.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish – bu qo‘l mehnatini mashina mehnatiga, kam samarali mashinalarni o‘ta mukammallashganlariga, buzilgan mashinalarni, yangi mashinalar tizimiga almashtirish jarayonidir.

Mexanizatsiyalashtirishning uchta darajasi mavjud:

- qo‘l mehnatining sezilarli ulushini saqlagan holda ishlab chiqarishning alohida jarayonlarini qamrab oluvchi qismi;
- mashinani qo‘l bilan boshqarish saqlab qolingani holda hamma jarayonlar mexanizatsiyalanuvchi kompleksi;
- avtomatlashtirish – inson ishtirokisiz ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, nazorat qilish va boshqarishni amalga oshiruvchi qurilma qo‘llaniladi.

Alohida ishlab chiqarish jarayonlarini va aniq mahsulot ishlab chiqarishni yoki tarmoqni mexanizatsiyalanish jarayoni darajasini aniqlash uchun qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

Alohida ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalanish darajasi texnik vositalar I_m yordamida bajarilgan ish hajmini jami ish hajmiga % nisbati bilan aniqlanadi.

$$M_d = \frac{I_m}{I_j} * 100 .$$

Chorvachilikda har bir jarayonning mexanizatsiyalanish darajasi M_{dch} mexanizatsiya vositalari yordamida ko‘rsatilgan xizmatlar chorva mollar bosh sonini B_{chm}, umumiy bosh soni nisbati bilan aniqlanadi B_j, %:

$$M_{dch} = \frac{B_{chm}}{B_j} * 100 .$$

Asosiy dala ishlari – shudgorlash, ekinlarni ekish, ekinlarga ishlov berish, paxta, g‘alla, silos va boshqa ekinlarni yig‘ib olishning hammasi to‘liq mexanizatsiyalashtirilgan. Biroq, o‘simlikchilikda ishlarning ayrim turlari (sabzavot ekinlarini ekish, mevali daraxtlarni qirqish, meva-sabzavotlarni yig‘ib olish va boshqa) mexanizatsiyalashning eng quyi darajasiga ega.

Chorvachilikda to‘liq mexanizatsiyalashtirishga suv bilan ta’minlash va sug‘orish, sigirlarni sog‘ish, qo‘ylar junini qirqish to‘liq mexanizatsiyalanishga yaqin. Shu bilan birga alohida ishlab chiqarish jarayonlarida (ozuqa tarqatish va boshqa) mexanizatsiyalash darajasi hali uncha baland emas. Chorvachilikda mexanizatsiyalashtirishni qo‘llash mehnat unumdorligini 1,5-2 martaga oshiradi.

Mahsulot ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishning umumiy darajasini UM_d aniqlashda boshqa usulni ham qo‘llash mumkin, %:

$$UM_d = \frac{T_m}{T_u} * 100$$

bunda:

T_m – mexanizatsiyalashtirilgan ishlarga mehnat sarfi, kishi/soat;

T_u – umumiy mehnat sarfi, kishi/soat.

O‘simlikchilikda mexanizatsiyalashtirish darajasining bilvosita ko‘rsatkichlari bo‘lib, mexanizatsiyalashtirilgan ishlarning zichligi xizmat qiladi. Bu 1 ga yerni shudgorlash yoki ekishdagi shartli etalon gektarlardagi mexanizatsiyalashtirilgan ishning hajmidir.

Mexanizatsiyalashtirishning yuqori darajasi (80 %) paxta, g‘alla va silos ekinlarini, kungaboqar yetishtirishda parrandachilikda ko‘rish mumkin, sabzavotchilik, bog‘dorchilikda esa 25 % dan past.

Qishloq xo‘jaligini kompleks mexanizatsiyalashtirishning zarur shartlari-mashinalar tizimini yaratish va joriy etish. **Mashinalar tizimi** deyilganda mahsulot ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida bevosita ishtirok etadigan har turli mashinalar kompleksi tushuniladi.

Kompleks mexanizatsiyalashtirish uchun mo‘ljallangan mashinalarning maqbul tizimi sifatida quyidagilarni ta’minlash kerak:

- hamma ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish;
- optimal agrotexnik va zootexnik muddatlarda ishlarni bajarish;
- mehnat unumdorligining oshishi, ishchilarni og‘ir va kam unumli ishlardan ozod qilish;
- yil davomida ishchi kuchidan nisbatan bir tekisda foydalanish;
- yer maydoni birligidan uning tannarxini pasaytirgan holda mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish.

Mashinalar tizimi tarkibi ko‘p jihatdan mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi bilan belgilanadi va qishloq xo‘jaligi hamda hududiy sharoitlarning o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ishlab chiqarish texnologiyalarining turli-tumanligi yil davomida foydalanib bo‘linmaydigan ko‘p miqdordagi ixtisoslashgan mashinalarga talab ehtiyojini keltirib chiqaradi. Mashinalar tizimi amalda paxta, g‘alla, muhim texnika va ayrim ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun yaratilgan. Biroq qator tarmoqlarda (bog‘dorchilik, uzumchilik, tamakichilik va hokazo) ayrim ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish uchun komplekslari mavjud, xolos.

Qishloq xo‘jaligini kompleks mexanizatsiyalashtirishning asosi-mexanik, elektr dvigatellar, elektr qurilmalar quvvati va mexanik kuchga aylantirilgan ishchi hayvonlari sonidan tashkil topgan energetik resurslardir.

Qishloq xo‘jaligini energetik resurslar bilan ta’minlanganligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar – bu energiya bilan ta’minlanganlik va energiya bilan jihozlanganlikdir.

Energiya bilan ta’minlanganlik energiya resurslari quvvatining shudgor maydoni yoki ekin maydoniga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$E_t = \frac{E_r}{S} * 10o$$

bunda: E_r –energiya bilan ta’minlanganlik, %;

S – ekin maydoni, ga.

Energiya bilan jihozlanganlik darajasi:

$$E_j = \frac{E_r}{N} * 10o$$

bunda:

E_r - Energiya bilan jihozlanganlik o‘zida bitta o‘rtacha yillik ishchi hisobiga to‘g‘ri keladigan energiya resurslarini ko‘rsatadi, %;

N – o‘rtacha yillik ishchilar soni, kishi.

Energetik resurslar strukturasida mexanik va elektr dvigatellarining kuchli quvvati eng ko‘p ulushiga ega. Ularning ulushiga 99,5 % quvvat to‘g‘ri keladi, shunday traktor dvigatellari 35 % avtomobillar 29 %, kombaynlar – 12 %, elektr dvigatellari va uskunalari – 23 % ni tashkil qiladi. Ish hayvonining ulushi – 0,5%.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga elektrifikatsiya yordam beradi. Qishloq xo‘jaligini elektr energiyasi bilan ta’minlanganligining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib, mehnatning elektr bilan ta’minlanganligi va elektr bilan qurollangani xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini elektr bilan ta’minlanganligi shudgor yoki ekish maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish maqsadlarida iste’mol qilingan elektr energiyasi miqdorini ko‘rsatadi (kvt./soat 1 ga).

Mehnatning elektr bilan qurollanganligi o‘rtacha yillik ishchi hisobiga ishlab chiqarish maqsadlarida iste’mol qilingan elektr energiyasi miqdori bilan izohlanadi (kvt./soat).

Kompleks mexanizatsiyalashning iqtisodiy samarasi jonli mehnatni iqtisod qilish, mahsulot tannarxining pasayishi, yo‘qotishlar kamayishi va ishlab chiqarish hajmining ko‘payishida ifodalanadi.

Qishloq xo‘jaligida mashina-traktor parkidan foydalanish samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar tizimi bilan izohlanadi:

1. Etalon gektar sharoitida smenali va kunlik ishlab chiqarish - mexanizatsiyalashtirilgan ish hajmining traktor bilan ishlangan smena yoki kun soniga nisbati.

2. Shartli etalon traktorda etalon gektardagi yillik ishlab chiqarish-mexanizatsiyalashtirilgan ish hajmining shartli traktorga nisbati.

3. Traktorlar ishining smenalik koeffitsiyenti - smenadagi mashina kun soniga nisbati yoki kunlik ishlab chiqarishining smenadagi ishlab chiqarishiga nisbati.

4. Etalon traktor bilan ishlangan mashina-kun va mashina-smena sonining traktorlar soniga mashina-kun va mashina-smenada ishlangan umumiy soniga nisbati.

5. Traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti - ish vaqtining yillik fondiga bitta traktor bilan ishlangan mashina-kun sonining nisbati.

6. Shartli etalon gektarda hisobida ekspluatatsiya xarajatlari miqdori - ekspluatatsion xarajatlarning mexanizatsiyalashtirgan ish hajmiga nisbati.

Ekspluatatsion xarajatlar mexanizatorlarga va yordamchi ishchilarga ish xaqi to‘lash, yoqilg‘i va moylash materiallarining qiymati, traktorlar va qishloq

xo‘jaligi mashinalari, texnik xizmat ko‘rsatish va traktor hamda mashinalarning joriy ta’miri, mashinalarni saqlash xarajatlarini o‘z ichiga oladi.

7. Mexanizatsiyalashtirilgan ishning shartli etalon gektarining tannarximexanizatsiyalashtirilgan ish hajmiga texnikalarni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarining nisbati.

Bundan ko‘rinadiki, traktorda bajarilgan ishlarning umumlashtirilgan hajmi hisobi birligi shartli *etalon gektar* deb olinmoqda, ya’ni 1 ga shudgorlashga mos keluvchi etalon shartlarida qabul qilinadigan ish hajmi:

- agregat xarakati tezligi 5 km/soat bo‘lganda 0,5 kg/sm ning taqqoslama qarshiligi;
- ishlov berish chuqurligi – 20-22 sm (o‘rtacha – 21 sm);
- relef tekisligi (qiyalik burchagi 1o gacha);
- haydash uzunligi 800 m;
- dengiz sathidan balandligi 200 m gacha;
- toshloqlilik va to‘sqinliklar yo‘qligi.

H - traktorning texnik asoslangan smenaliishlab chiqarish normasi, ga.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida mashina-traktor parklaridan foydalanish samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan izohlanadi: 1 ta traktorning yillik ishlab chiqarishi 1260 shart. et.ga, kunlik ishlab chiqarishi 8 shart et.ga, smenadagi ishlab chiqarishi 7 shart et.ga, smenalilik koeffitsiyenti 1,12; 157 mashina kun va 170 mashina smenada ishlagan 1 shart et.ga ning tannarxi.

Kombaynlardan foydalanish samaradorligi (paxta, g‘alla o‘rib-yig‘adigan va boshqalar) quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlanadi: mavsumiy ishlab chiqish, ga sutkalik ishlab chiqarish, ga, ishning kunlik soni.

Qishloq xo‘jaligida texnikadan foydalanish samaradorligini ikki usul bilan amalga oshirish mumkin: *intensiv va ekstensiv*. Ish vaqti birligida traktor va mashinalar unumdorligining oshishi (soatda, smenada) - **intensiv yo‘l,** yil davomida texnikani ekspluatatsiya qilish vaqtining uzaytirilishi **ekstensiv yo‘l** deyiladi. Ammo texnikadan foydalanishning har qanday uzaytirilishi ham foydali bo‘lavermaydi. Asosiy ishlarni cho‘zib o‘tirmasdan, eng yaxshi agrotexnika muddatlarida bajarish qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining oshishiga yordam beradi. Traktorlarning kunduzgi va smenali ishlab chiqarishni ko‘paytirish operatsiyalarni bajarish muddatlari qisqarishiga ta’sir etadi. Bu yerda agregatlar ishining smenaligining koeffitsiyentini oshirish muhim ahamiyatga ega. Hozircha qishloq xo‘jaligi korxonalarida bu ko‘rsatkich pasayishda davom etmoqda.

Qishloq xo‘jaligida texnikadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy omillari – unga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, ta’mirlash bazasini takomillashtirish, malakali mexanizator kadrlar bilan ta’minlash, tashkiliy mehnatga haq to‘lashning taraqqiy etgan shaklini joriy etish, texnik va tashkiliy kamchilik - nuqsonlar tufayli to‘xtab qolishning oldini olish, ikki smenali ishni qisqartirishdir.

Mashina - traktor parkidan foydalanishning yetarlicha samarali bo‘lmasligining sababi ko‘pincha uning ishchi mashinalar bilan komplekslanmaganidadir. Mashina - traktor parklaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun qishloq xo‘jaligi ishlarining hamma kompleksini belgilangan muddatda, eng kam xarajat va mablag‘ bilan har bir xo‘jaligida uning optimal strukturasini o‘rnatish kerak.

Qishloq xo‘jaligida transport vositalarining asosiy turi avtomobillardir. 85 % gacha tashiladigan yuk uning ulushiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, yuk tashishda traktorlar ham qatnashib ularning ulushi 13 % atrofida. Transportning sezilarli ulushi (40 % gacha) dan xo‘jalik ichida tashishda foydalaniladi. Xo‘jalik ichidagi transportga oid ishlarning afzallik qiluvchi qismi o‘simlikchilik va chorvachilikdagi texnologik jarayonlar bilan bevosita bog‘liq va ko‘pchilik holatlarda kuz, bahor oylaridagi yog‘ingarchiliklar davrida buzuq yo‘llarda avtomobil transportidan foydalanish mumkin bo‘lmay qoladi.

Qishloq xo‘jalik transporti o‘ta xilma-xil yuklarni tashiydi: pichan, g‘o‘za-poya, somon, qurilish materiallari, yog‘och materiallari, o‘g‘itlar, go‘ng, donali yuklar, sut va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari shular jumlasidandir. Qishloq xo‘jalik transportlarida tashiladigan yuklar ro‘yxati 250-300 nomda hisoblanadi. Qator yuklar kam miqdorda, lekin doimiy ravishda tashiladi, ba’zan esa o‘rim-yig‘im paytida qishloq xo‘jaligi transportlari qisqa muddatda katta hajmdagi yuklarni tashishlariga to‘g‘ri keladi.

Transport vositalarining asosiy vazifasi – yagona ishlab chiqarish jarayonining bir tekisligini, yuklar va ish kuchlarining tez va rejali ravishda harakatlanishini ta’minlash. Busiz ishlab chiqarish jarayoni to‘xtab qoladi. Bu ayniqsa, to‘xtovsiz ishlab chiqarish jarayoniga ega korxonalarga tegishli. Masalan, agar kombayn yoki g‘allani xirmonga tashiydigan transport vositasi ishdan chiqsa, o‘rim-yig‘im jarayoni deyarli to‘xtaydi.

Yuk avtomobil transportlari tonnalarda o‘lchanadigan yuklarni aralashtirib yuboradi va tonna-kilometrlarda o‘lchanadigan transport ishlarining ma’lum hajmlarini bajaradi.

Ushbu ishlab chiqarish jarayonining birligi - yurish, ya’ni yukni ortish paytidan boshlab to navbatdagi yuklashgacha bajariladigan yuklash, tashish va tushirish bo‘yicha operatsiyalar kompleksidir.

Transport vositasidan foydalanish samaradorligini quyidagi ko‘rsatkichlar izohlaydi:

1. Transport vositasining texnik tayyorligi koeffitsiyenti – texnik jihatdan soz holdagi transport vositasining bo‘lishi avtomobil - kuni sonining xo‘jaligida bo‘lgan umumiy avtomobil kuni soniga nisbati.
2. Transport vositasining yo‘lga chiqish koeffitsiyenti – ishdagi avtomobil-kunlar sonining xo‘jaligidagi avtomobil - kunlarga nisbati.
3. Yuk ko‘tarishidan foydalanish koeffitsiyenti. Yuk ko‘tarishdan foydalanishning statistik va dinamik koeffitsiyentlari aniqlanadi. Yuk ko‘tarishdan foydalanishning statistik va dinamik koeffitsiyenti haqiqiy

tashilgan yukning yuk tashishdan to‘liq foydalanish mumkin bo‘lgandagi tashilishi, ya’ni avtomobil nominal yuk tashish qobiliyati nisbatiga teng.

Iqtisodiy hisoblashda ko‘pincha yuk ko‘tarishdan foydalanishning dinamik koeffitsientidan - tonna kilometrda haqiqiy bajarilgan transport ishlarining ehtimolli bo‘lishi mumkin bo‘lgan transport ishiga (yuk tashish qobiliyatidan to‘liq foydalanilganda) nisbatidan ko‘proq foydalaniladi. Shu tarzda, yuk ko‘tarishning statistik koeffitsientidan farqli holda u nafaqat tashilgan yuk sonini, shuningdek, yuk tashiladigan masofani ham hisobga oladi.

4. Yo‘l bosishdan foydalanish koeffitsiyenti - yuk bilan yo‘l bosishning avtomobilning umumiy yurish masofasiga nisbati.
5. Yurishning o‘rtacha uzunligi - bu avtomobilning yuk ortish punktidan uni tushirish punktigacha bir marta borishi bo‘lib, umumiy yuk bilan yurishni bajarilgan hamma yurishlar soniga bo‘lib aniqlanadi.
6. Yuk tashishning o‘rtacha masofasi - 1 tonna yukni tashishning o‘rtacha uzoqligi tonna-kilometrlarda bajarilgan transport ishlarini tashilgan tonnalar miqdoriga bo‘lish bilan aniqlanadi.
7. Yuklash - tushirishda transport vositasining bo‘sh turib qolishi - transportga yuk jo‘natiladigan punktdan u olib borilgan joyda yuk tushirib olingunga qadar to‘xtab turilgan vaqt.
8. Naryad (ishga bo‘lish)dagi vaqt - avtomobilning garajdan chiqib ketgan vaqtidan to garajga qaytib kelgan vaqtigacha, haydovchini ovqatlanish uchun ketgan vaqti olib tashlanib, soatlar soni bilan hisoblanadi.
9. Texnik tezlik - transport vositasining ma’lum vaqt davrida harakatlanishidagi o‘rtacha tezlik bosib o‘tilgan masofaning harakat vaqtiga nisbati bilan aniqlanadi.
10. Ekspluatatsiya tezligi - transport vositasining yo‘lda bo‘lishi vaqtida xarakatlanishning shartli tezligi bosib o‘tilgan masofaning yo‘lda bo‘lingan umumiy vaqtga nisbati bilan aniqlanadi.

Avtotransportdan foydalanish samaradorligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Yurishlar soni - transport vositasining yo‘nalishdagi ish vaqti, ya’ni yo‘l yurishning bevosita bajarilishi (nol yurishga xarajatlarni ayirish bilan).
2. Transport vositasining ish unumdorligi - bir avtomobil bilan bir ish kunida tashilgan yuk hajmi yurilgan yo‘l sonini bir marta yurishda tashilgan yuk hajmiga ko‘paytmasi bilan aniqlanadi.
3. Transport vositalarining unumdorligi tashilgan yuk hajmi T yoki vaqt birligida bajarilgan ish T/km bilan xarakterlanadi. Bu - transport vositalaridan foydalanish darajasini xarakterlovchi eng muhim umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlardan biridir.
4. Tannarx T/km da – avtotransport ishining eng muhim natijaviy ko‘rsatkichi. Uni hisoblash uchun xo‘jalikda avtotransportni saqlash uchun ketadigan hamma xarajatlarining avtomobilning kapital ta’mirlash xarajatlarini ayirib, bajarilgan tonna - kilometrga bo‘linadi. Bu ko‘rsatkich ko‘p jihatdan

avtomobillarning ishlab chiqarish darajasiga bog‘liq. Avtotransport tonna-kilometrining tannarxiga haydovchilar mehnatiga haq to‘lash, joriy ta’mir chiqimlari, yoqilg‘i va moylash materiallari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shunga o‘xshash ko‘rsatkichlar transport ishlarida traktorlardan foydalanish darajasi va ulardan foydalanishning samaradorligini ham izohlaydi.

Asosiy tushunchalar

Moddiy-texnika resurslari – qishloq xo‘jaligida moddiy boylik ishlab chiqarish sharoitida band bo‘lgan mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig‘indisidir.

Fan-texnika taraqqiyoti intellektual ong rivojlanish mahsuli bo‘lib, qishloq xo‘jaligida u bilan bog‘liq bo‘lgan jami fanlardagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar, ularning yanada taraqqiy etishi, texnika-texnologiyalarni yaratish va u bilan shug‘ullanuvchi malakali kadrlar tayyorlash natijasida yanada yuksakliklarga erishish demakdir.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy maqsadi - samarali, yangi qishloq xo‘jalik texnikalarini, ekologik, jismonan va ma’nan talablarga javob beruvchi uskunalarni, texnologiyalarni, kimyoviy vositalar, o‘simlikchilikda yangi navlarni, chorvachilikda yangi zotlarni yaratish, mavjud vositalar va texnologiyalarni takomillashtirib, mehnat unumdorligini oshirishdir.

Innovatsiya – fan-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi.

Ishlab chiqarish fondlari - bu mehnat predmetlari va vositalari yig‘indisi bo‘lib, ular yordamida xo‘jalik faoliyati amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayoni sodir bo‘lgach, tayyor mahsulotga qiymatini o‘tkazish jihatidan ishlab chiqarish fondlari 2 ta: asosiy va aylanma fondlarga bo‘linadi.

Asosiy fondlar - ishlab chiqarishda uzoq vaqt ishtirok etadigan moddiy-ashyoviy, qimmatbaho buyumlarni o‘z ichiga oladi: bino-inshootlar, mashinalar, uskunalar, transport vositalari, ishchi va mahsuldor chorva mollari, daraxtzorlar va hokazo.

Aylanma fondlar - ular bir ishlab chiqarish siklida to‘liq qatnashib, o‘z qiymatini to‘lig‘icha ishlab chiqariladigan mahsulotga o‘tkazadigan ishlab chiqarish vositalaridir. Bularga yem-xashak, ozuqa, o‘g‘itlar, urug‘lik, yoqilg‘i-moylash materiallari, elektroenergiya va hokazolar kiradi.

Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchi) topshirig‘iga binoan, uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun 12 oydan ortiq muddatga beradi.

Yillik iqtisodiy samara – bu iqtisodiyot tarmoqlari miqyosida olingan iqtisodiy tejamdir.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish – bu qo‘l mehnatini mashina mehnatiga, kam samarali mashinalarni o‘ta mukammallashganlariga, buzilgan mashinalarni, yangi mashinalar tizimiga almashtirish jarayonidir.

Mashinalar tizimi - mahsulot ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida bevosita ishtirok etadigan har turli mashinalar kompleksidir.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining elektr bilan ta’minlanganligi – bu shudgor yoki ekish maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish maqsadlarida iste’mol qilingan elektr energiyasi miqdori.

Mehnatning elektr bilan qurollanganligi – bu o‘rtacha yillik ishchi hisobiga ishlab chiqarish maqsadlarida iste’mol qilingan elektr energiyasi miqdori.

Qishloq xo‘jaligida texnikadan foydalanish samaradorligini ikki usul bilan amalga oshirish mumkin: *intensiv va ekstensiv*.

Intensiv yo‘l - ish vaqti birligida traktor va mashinalar unumdorligining oshishi (soat, smena).

Ekstensiv yo‘l - yil davomida texnikani ekspluatatsiya qilish vaqtining uzaytirilishi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moddiy-texnika resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar, tuproq unumdorligi, chorva hayvonlari mahsuldorligini tushuntirib bering?
3. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining xususiyatlari va ularning tarkibiga nimalar kiradi?
4. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining turkumlanishini tushuntirib bering.
5. Fan-texnika taraqqiyotining yo‘nalishlari, yangiliklari, ilg‘or, samarali texnologiyalar bozori haqida nimalarni tushunasiz?
6. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan oqilona, to‘liq va samarali foydalanish darajasi va iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlarini izohlab bering.
7. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashganlik, elektrlashganlik, avtomatlashganlik va kimyolashganlik darajasini qanday ko‘rsatkichlarda ifodalash mumkin?
8. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining shakllanishini izohlang.
9. Zamonaviy, samarali, ekologik jihatdan foydali hisoblangan texnikalarni, kimyoviy vositalarni, yoqilg‘ilarni, texnologiyalarni yaratish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?

VIII-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING ASOSIY VA AYLANMA VOSITALARI, FONDLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

O‘quv maqsadi: Asosiy va aylanma vositalar haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, fondlarning aktivlarni ishlab chiqarishda qatnashishi bo‘yicha guruhlanishi va baholash, asosiy va aylanma vositalar tarkibi va ulardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi hamda ulardan foydalanishni yaxshilash samaradorligini oshirishga oid nazariy bilimlarni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *Asosiy va aylanma fondlar (vositalar), doimiy va o‘zgaruvchan kapital, asosiy va aylanma vositalar bozori, asosiy vositalar ijarasi, aylanma kapital, asosiy vositaning eskirishi, amortizatsiyasi.*

8.1. Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalar haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati va turkumlashtirilishi

Asosiy fond (vosita) – bu qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish va qayta ishlash ishlarini bajarish va xizmat ko‘rsatishda bir va undan ortiq yil davomida qismlarga bo‘lingan holda (amortizatsiya shaklida) foydalaniladigan mol-mulkining bir qismi bo‘lib, o‘z qiymatini mahsulot, ish va xizmatning tannarxiga aylantiradi. Qiymat (pul) shaklida asosiy mablag‘lar fond (jamg‘arma) nomida bo‘ladi.

Hozirgi paytda qishloq xo‘jaligida asosiy fondlar 10 ta guruhga bo‘linadi:

- yer uchastkalari va tabiatdan foydalanish obyektlari;
- binolar;
- inshootlar;
- mashinalar va uskunalar;
- transport vositalari;
- ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari;
- ishchi hayvonlar;
- mahsuldor hayvonlar;
- ko‘p yillik daraxtlar;
- asosiy mablag‘larning boshqa turlari.

Asosiy vositalarning qishloq xo‘jaligidagi vazifasiga ko‘ra, asosiy fondlar ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchiga bo‘linadilar.

Ishlab chiqaruvchi asosiy fondlar – bu mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishda bevosita ishtirok etuvchi mablag‘lardir.

Noishlab chiqarish fondlari mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat koʻrsatishda ishtirok etmaydi. Ular ijtimoiy xarakterga ega. Ularga qishloq xoʻjaligida tegishli uy-joy kommunal xoʻjaliklari, aholiga maishiy xizmat koʻrsatish obyektlari, ijtimoiy taʼminot, sogʻliqni saqlash, jismoniy tarbiya, maorif kabilar kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish mablagʻlari mahsulot ishlab chiqarishdagi ishtirokiga koʻra ikki qismga, faol va nofaolga boʻlinadi. *Faol qismiga* mahsulot ishlab chiqarishda (mashinalar va uskunalar, transport vositalari ishchi va mahsuldor chorva mollari) bevosita ishtirok etadigan mablagʻlar, *nofaol qismiga* -binolar va inshootlar kiradi.

Qishloq xoʻjalik korxonalarining asosiy ishlab chiqarish vositalari faol va nofaoldan tashqari yana ikkita guruhga: asosiy faoliyat turining asosiy ishlab chiqarish vositalari (qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan) va boshqa tarmoqlarning asosiy ishlab chiqarish mablagʻlari (qishloq xoʻjaligiga zid boʻlmagan).

Asosiy faoliyat turining asosiy ishlab chiqarish vositalariga quyidagilar kiradi:

- yer uchastkalari va tabiatdan foydalanish obyektlari (korxona mulkida boʻlgan va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarilishida foydalaniladigan);
- binolar, inshootlar va uzatish qurilmalari (silos chuqurlari, telefon va suv taqsimlash tarmoqlari);
- mashinalar va uskunalar, shu jumladan, mashinalar va uskunalar (traktorlar, elektrodvigatellar, mexanik dvigatellar); ishchi mashinalar va uskunalar (hamma turdagi kombaynlar, pluglar, seyalkalar, boronalar, kultivatorlar va boshqalar);
- laboratoriya va oʻlchov uskunalari, hisoblash texnikasi;
- transport vositalari (hamma turdagi avtomobillar, avtotirkamalar, traktor tirkamalari, yuk transportlari);
- ishlab chiqarish va xoʻjalik inventarlari (idora jihozlari, mehnatni muhofaza qilish vositalari, yongʻinga qarshi inventarlar va boshqalar);
- ishchi hayvonlar (otlar, hoʻkizlar);
- mahsuldor mollar (mahsuldor chorva mollarining asosiy podasi);
- koʻp yillik daraxtlar (mevali va boshqa daraxt koʻchatlari);
- asosiy vositalarning boshqa turlari (yerni yaxshilash boʻyicha kapital xarajatlar).

Faoliyat asosiy turining asosiy ishlab chiqarish vositalari qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish tarmoqlari foydalanilishi boʻyicha quyidagilarga boʻlinadi: oʻsimlikchilik, chorvachilik, umumiy foydalanish boʻyicha asosiy ishlab chiqarish vositalari (8.1.1-rasm).



8.1.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligi fondlarining turkumlashtirilishi**

Asosiy ishlab chiqarish vositalarining ikkinchi guruhi – boshqa tarmoqlar asosiy ishlab chiqarish vositalari sanoat – ishlab chiqarishning asosiy vositalari, qurilish savdo va umumiy ovqatlanish.

Sanoat ishlab chiqarishning asosiy vositalari mashina – traktor ustaxonalari yordamchi ishlab chiqarishning obyektlari va jihozlari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha ishlab chiqarish quvvatini qamrab oladi.

Asosiy vositalarning hisobi ***natural*** va ***qiymat*** o‘lchov birligida amalga oshiriladi. Vositalarni qiymat birligida baholashning asosiy ko‘rinishi boshlang‘ich tiklanishga doir va qoldiq qiymatida bo‘ladi. Shuningdek, balans qiymati va tugatish qiymat tushunchalari ham mavjud.

Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati – bu xarid qilish, yetkazib berish, mashina va uskunalarning montajiga, binolar va inshootlar qurilishiga va ularni ekspluatatsiyaga kiritishga hamda boshqalarga qilingan haqiqiy sarf – xarajatlarning hisob – kitobidir. Agar asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati butun xizmati davomida o‘zgarmasa, ular korxona balansida ana shu qiymat bilan hisobga olinadilar. Yillik amortizatsiya chegirmalari ham boshlang‘ich qiymat bo‘yicha bajariladi (8.1.1 - jadval).

8.1.1 -jadval

Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalar qiymati va ularning amortizatsiyasi[45]

№	Ko‘rsatkichlar	o‘lchov birligi	2005 yil	2010 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2016 yilda 2005 yilga nisbatan o‘zgarishi, %
1	Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymati	mln. so‘m	1030688,6	8330388,8	5918044,8	6076833,3	9914016,9	96,2
2	Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalarning yil oxiriga qoldiq qiymati	mln. so‘m	5992442,4	4422226,3	4264399,9	4213399,9	6902013,0	115,2
3	Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalar amortizatsiyasi	mln. so‘m	4314446,2	3908102,5	1653605,0	1863403,4	301203,9	69,8

Inflyatsiya va boshqa sabablarga ko‘ra asosiy vositalarning qiymati ba’zida obyektlarning haqiqiy bahosini aks ettira olmay qoladi. Mahsulotning aniq qiymati va amortizatsiyasini aniqlashda qiyinchiliklar kelib chiqadi. Asosiy vositalarning yangi bahosi asosiy vositalarning tiklanishga doir qiymati degan

[45] O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan

nom oladi. Asosiy vositalar qayta baholangandan keyin korxona balansida ana shu tiklanishga doir bahosi bilan hisobga olinadi. Yangidan sotib olingan asosiy vositalar – ushbu bosqichda bozorda shakllangan boshlang‘ich qiymat bo‘yicha hisobga olinadi.

8.2. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Korxona balansida asosiy vositalar ikki xil variantda: yangi boshlang‘ich bahosida va tiklanishga doir bahosida hisobga olinadi. Qishloq xo‘jaligi korxonasi balansidagi asosiy vositalarning ana shu aralash shakli asosiy vositalarning balans qiymati nomini oladi. Asosiy vositalar mulk tarkibida shuningdek, amortizatsiyaga ajratmani ham hisobga olgan holda yoziladi. Asosiy vositalarni hisobga olishning ana shunday shakli asosiy vositalarning qoldiq qiymati nomini oladi. U asosiy vositalarning balansli qiymati va amortizatsiya ajratmasi orasidagi farqni ko‘rsatadi.

Asosiy vositalarning ikki taraflama hisobi (amortizatsiya ajratmasisiz va uni qo‘shib) asosiy vositalarning normativ eskirish darajasini va uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini belgilaydi.

Asosiy vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilish uchun ularning o‘rtacha yillik qiymatlarini aniqlash kerak. Ularni quyidagi formula bo‘yicha hisoblash mumkin:

$$AV_q = \frac{\left[\left(AV\right]_{bq} + AV_{oq}\right) + \Sigma AV_1}{12} * 100$$

bunda:

AV_q – asosiy vositalarning yillik o‘rtacha qiymati;

AV_{bq} – asosiy vositalarning yil boshidagi (1 yanvardan) qiymati;

AV_{oq} – asosiy vositalarning yil oxiridagi (31 dekabr) qiymati;

ΣAV_1 – 1 yanvardan boshlab asosiy vositalarning har oyning birinchi kuniga qiymati.

Asosiy vositalarning yuqorida aytilgan turlaridan tashqari asosiy vositalarning tugatish qiymati ham bor. U o‘ziga asosiy vositalar hisobidan chiqarilgandan keyin qoladigan metallom, konstruksiyaga ehtiyot qismlar va boshqalarni qamrab oladi.

Ekspluatatsiya jarayonida asosiy vositalar asta-sekin eskiradi, o‘zining boshlang‘ich sifati va bahosini yo‘qotib boradi (binolar, traktorlar kombaynlar). Ekspluatatsiya hamda atmosfera omillari ta’sirida asosiy vositalarning eskirishi **fizik eskirish** nomini oladi.

Iqtisodiyotda fizik eskirishdan tashqari **ma’naviy eskirish** ham hisobga olinadi. U ikki turda bo‘lishi mumkin:

Birinchi tartibdagi ma’naviy eskirish smenada mehnat vositasi bilan korxona xarajatlarni qisqartirish va raqobatbardoshliroq mahsulot ishlab chiqarish ma’nan eskirgan vositalar bilan bajarila boshlaydi. Bunday hollarda korxonalarga eskirgan mehnat vositasini hisobdan chiqarish yoki sotish va ularning o‘rniga mahsuldorrog‘ini sotib olish iqtisodiy jihatdan foydali bo‘ladi.

Ikkinchi tartibdagi ma’naviy eskirish ishchilar uchun qulay bo‘lgan avvalgi unumdorlik bilan arzonroq mehnat vositasi ishlab chiqarila boshlanganda yuz beradi.

Eskirgan asosiy vositalarni tiklash va ularni yangilariga almashtirish uchun har yili asosiy vositalarning bir qismi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga o‘tkaziladi (ish va xizmatga). Asosiy vositalarning ana shu qismi **amortizatsiya** deb ataladi.

Amortizatsiya ajratmalarining o‘ziga xosligi shundaki, u asosiy vositalarning haqiqiy eskirishi asosida emas, normativ (foydali foydalanish muddati) bo‘yicha hisoblanadi, ya’ni amortizatsiya asosiy vositalarning haqiqiy eskirishini aks ettirmaydi. Amortizatsiyani mahsulot (ish va xizmat) tannarxiga qo‘shish mahsulot (ish xizmat) realizatsiyasidan tushgan daromadni pasaytiradi. Biroq, bu moliyaviy mablag‘larning chiqib ketishiga olib kelmaydi. Chunki, amortizatsiyaga ajratmalar korxonada qoladi. Binobarin ushbu pul mablag‘lari asosiy vositalarning har bir turi eskirganda ma’lum yildan keyin ularni tiklash uchun ishlatiladi, shuning uchun amortizatsiya ham daromadga o‘xshab kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va investitsiyalar uchun muhim manba hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalarning bir qancha turiga amortizatsiya ajratmalari ajratilmaydi. Ularga mahsuldor chorva mollari (sigirlar, zotdor buqalar, asosiy ona cho‘chqalar, erkak cho‘chqalar, sovliqlar, qo‘ylar va boshqalar)kiradi. Mahsuldor chorva molining qiymati u bo‘rdoqichilik chiqarilib, realizatsiya qilingandan keyin tutgan tushumdan tiklanadi.

Asosiy vositalarning hisobi ularning foydali foydalanish muddatiga bog‘liq holda 10 ta tasnif guruhiga bo‘linadigan inventor kartochkalarida yuritiladi. Masalan, birinchi guruh foydali foydalanish muddati 1 yildan ikki yilgacha bo‘lgan asosiy vositalarni; ikkinchisi – 2yildan ortiq uch yilgacha; uchinchisi – 3 yildan ortiq va besh yilgacha bo‘lgan va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Asosiy vositalar ekspluatatsiya jarayonida uzluksiz harakatda bo‘ladilar. Asosiy vositalarning bir qismi yangilanadi, boshqa qismi foydalanish muddati tugagach hisobdan chiqariladi, ayrim vositalar keraksizligi uchun sotiladi va boshqalar. Asosiy vositalarning bu harakati asosiy kapitalning takror ishlab chiqarish mohiyatining belgilaydi va asosiy vositalarning ko‘payishi yangilanishi va hisobdan chiqarilishi koeffitsiyentlari bilan izohlanadi.

Asosiy vositalarning ko‘payish koeffitsiyenti (K_{avk}):

$$K_{avk} = \frac{AV_{ya} - AV_b}{AV_b}$$

bunda:

AV_b – yil boshiga (1 yanvarga) asosiy vositalarning qiymati;

AV_{ya} – yil yakunida (31 dekabr) asosiy vositalarining qiymati.

Asosiy vositalarni yangilash koffitsiyenti (K_{ya}):

$$K_{ya} = \frac{AV_k}{AV_{ya}}$$

bunda:

AV_k – kirim qilingan asosiy vositalarning qiymati.

Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish koeffitsiyenti (K_h):

$$K_h = \frac{AV_h}{AV_b}$$

bunda:

AV_h – hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning qiymati.

Asosiy vositalardan foydalanishning o‘rtacha muddati (yil), (T):

$$T = \frac{AV_{eq}}{A}$$

bunda:

AV_{eq} – asosiy vositalarning eskirish qiymatisiz qiymati;

A-amortizatsiyaning yillik summasi.

Asosiy vositalarning eskirish darajasi (%), (O):

$$AV_{ed} = \frac{AV_b - AV_{eq}}{AV_b} * 10o$$

bunda:

AV_{ed} - asosiy vositalarning eskirish qiymati.

Asosiy vositalarning ko‘payish qiymati tahlil qilinayotgan davrda asosiy kapitalning ortishini izohlaydi. Yangilash koeffsiyenti ishlab chiqarishga yangi asosiy vositalar kiritilganini aks ettiradi. Ko‘payish va yangilanish koeffitsiyentlari bir-biriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsional bog‘liqlikda bo‘ladi.

Ko‘payish koeffitsiyenti qancha yuqori bo‘lsa, yangilanish koeffitsiyenti ham shunchalik yuqori bo‘ladi va aksincha. Hisobdan chiqarish koeffitsiyenti xo‘jaligida asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi sur’atini ko‘rsatadi.

Asosiy vositalardan foydalanishning o‘rtacha muddati xo‘jaligida amortizatsiya fondi hisobiga necha yilda asosiy vositalar yangilanishi mumkinligini, ya’ni normativ bo‘yicha asosiy vositalarning xizmat ko‘rsatish muddatini ko‘rsatadi.

Bu ko‘rsatkichlarni shartli misolda ko‘rib chiqamiz.

Xo‘jalikda asosiy ishlab chiqarish vositalari yil boshida AV_b 92912 ming so‘mni yil oxirida AV_{ya} – 93090 ming so‘mni tashkil etdi, 1484 ming so‘mni asosiy vosita (AV_k) kirim qilindi. 1306 ming so‘mlik asosiy vosita hisobdan chiqarildi (AV_h). Asosiy ishlab chiqarish vositalarining eskirish bahosisiz qiymati AV_{eq} – 45330 ming so‘m. Yillik amortizatsiya ajratmasi (A) 2295 ming so‘m. Yuqorida ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlarni aniqlaymiz.

Ko‘payish koeffitsiyenti:

$$K_{avk} = \frac{93090 - 92912}{92912} = \frac{178}{92912} = 0{,}002.$$

Hisob-kitobning ko‘rsatishicha, yil davomida xo‘jalik asosiy vositalarini deyarli ko‘paytirmagan, ular atigi 0,2 % ga o‘sgan.

$$K_{ya} = \frac{1484}{93090} = 0{,}016.$$

Yil davomida asosiy ishlab chiqarish vositalarining bor yo‘g‘i 1,6 % yangilangan hisobdan chiqarish koeffitsiyenti:

$$K_h = \frac{1306}{92912} = 0{,}014.$$

Yil davomida 1,4 % ishlab chiqarish vositalari hisobdan chiqarilgan.

Asosiy vositalardan foydalanishning o‘rtacha muddati:

$$T = \frac{45330}{2295} = 19{,}7.$$

Ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, asosiy vositalardan foydalanish muddati normativdagidan sezilarli darajada yuqori. Bu asosiy vositalarning yuqori darajada eskirgani va ularning o‘z vaqtida hisobdan chiqarilmagani bilan izohlanadi.

Asosiy vositalarning eskirganlik darajasi:

$$AV_{ed} = \frac{92912 - 45330}{92912} * 100 = 51\%$$

Kutilganidek, asosiy vositalarning eskirganlik darajasi juda yuqori.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining asosiy vositalar bilan ta’minlanganlik darajasi fond va asbob-uskunalar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Fond bilan ta’minlanganlik deganda, asosiy ishlab chiqarish vositalarining qishloq xo‘ajligining yer-suv maydoniga (1ga yoki 100 ga) o‘rtacha yillik qiymatining nisbati tushuniladi. Asbob-uskunalar fondi bilan ta’minlanganlik o‘rtacha yillik bir ishchiga qancha asosiy ishlab chiqarish vositasi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish uchun bir necha yil hisoblab chiqiladi.

Fond bilan ta’minlanganlik (ming so‘m/kishi), (F_t);

$$F_t = \frac{AV_q}{QX_{ye}}.$$

bunda:

AV_q – asosiy ishlab chiqarish vositalarining o‘rtacha yillik qiymati;

QX_{ye} – qishloq xo‘jaligining yer maydoni, ga.

Asbob-uskuna fondi bilan ta’minlanganlik (ming so‘m/kishi), (A_t);

$$A_t = \frac{AV_q}{N}$$

bunda:

N – ishchilarning yillik o‘rtacha soni, kishi.

Misol. Xo‘jalikda asosiy turdagi faoliyatning (qishloq xo‘jaligiga doir) asosiy ishlab chiqarish vositalarning yillik o‘rtacha qiymati 89492 ming so‘mdan iborat bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi ekin maydoni 56 ga o‘rtacha yillik ishchilar soni 12 kishi, fond bilan hamda asbob-uskunalar fondi bilan ta’minlanganlikni hisoblaymiz.

$$F_t = \frac{89492}{56} = 1598{,}07 \quad \textit{минг со‘м/га.}$$

$$A_t = \frac{89492}{12} = 74576{,}7 \quad \textit{минг со‘м/киши.}$$

Asosiy ishlab chiqarish vositalarida foydalanishning iqtisodiy samaradorligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining o‘rtacha yillik fond qaytimi, fond sig‘imi va 1 so‘m.ga olingan daromad so‘mmasi bo‘yicha aniqlanadi.

Fond qaytimi asosiy ishlab chiqarish vositalarining 1 so‘m.ga qancha yalpi mahsulot (tovar) ishlab chiqarilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga agar hisob-kitob qishloq xo‘jaligining yalpi mahsulotlari bo‘yicha olib borilsa, unda asosiy ishlab chiqarish vositalarining o‘rtacha yillik qiymati faoliyatning asosiy turi bo‘yicha (qishloq xo‘jaligi bo‘yicha) olinadi. Agar hisob-kitob tovar mahsulotlari bo‘yicha bajarilsa, unda hamma o‘rtacha yillik asosiy ishlab chiqarish vositalari hisobga olinadi.

Fond qaytimi, (F_q);

$$F_q = \frac{YaM}{AV_q}$$

bunda:

YaM - yalpi mahsulotning qiymati;

Fond sig‘imi - fond qaytimining teskari ko‘rsatkichi. U 1 so‘m. Yalpi yoki tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha asosiy vosita talab qilinishini ko‘rsatadi.

Fond sig‘imi, *(F_s);*

$$F_s = \frac{AV_q}{YaM}.$$

O‘rtacha yillik asosiy ishlab chiqarish vositalarining 1 so‘m.ga olingan daromadlari summasi, ($O_м$):

$$AV_{ds} = \frac{D_s}{AV_q}$$

bunda:

D_s – mahsulot (ish xizmat) realizatsiyasidan daromad.

*Misol.*Joriy baholardagi yalpi mahsulot bahosi 16170 ming so‘m.; tovar mahsulotlari, ish va xizmat bahosi 12673 ming so‘m.; daromad 1943 ming so‘m.ni tashkil etdi. Hamma asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati 93063 ming so‘m.ga teng. Shu jumladan asosiy faoliyatining asosiy ishlab chiqarish vositalari – 89492 ming so‘m. Yuqorida ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlarni hisoblaymiz.

$$F_q = \frac{16170}{89492} = 0{,}2$$

$$F_q = \frac{12673}{93063} = 0{,}14 \text{ so‘м}$$

$$F_s = \frac{89492}{16170} = 5{,}53 \text{ so‘м}$$

$$AV_{ds} = \frac{1943}{93063} = 0{,}02 \text{ so‘м}$$

Yalpi tovar mahsulotlari va daromadlarning ko‘rsatishicha, qishloq xo‘jaligida fond qaytimi juda past.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida qishloq xo‘jaligi va boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlashda ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatishda asosiy vositalar ham ishtirok etadi.

8.3. Aylanma vositalar haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlashtirilishi

Aylanma vositalar deganda ishlab chiqarish davrida bir marta ishtirok etadigan va o‘z qiymatini to‘lig‘icha tayyor mahsulot tannarxiga o‘tkazuvchi moddiy-pul mablag‘larining yig‘indisi tushuniladi.

Aylanma vositalar mehnat predmetlariga kiradi. Asosiy vositalardan farqli ravishda ular har bir ishlab chiqarish jarayonida nafaqat to‘liq sarflanadi, shuningdek, o‘zining dastlabki moddiy - asl shaklini o‘zgartiradi ham. Aylanma vositalar bilan ta’minlanganlik ishlab chiqarishning uzluksizligiga, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga, ishlab chiqarishning yangi davri o‘z vaqtida moliyalashtirilishiga hal qiluvchi ta’sir o‘tkazadi.

Ishlab chiqarish jarayonida aylanma vositalar muntazam harakatda bo‘ladi. Ishlab chiqarishning har bir davri aylanma harakatni yakunlaydi.

Aylanma vositalarning aylanishi uch bosqichdan iborat: pulga, ishlab chiqarishga va tovarga oid.

Pulga oid bosqichda pul mablag‘lari zarur moddiy aylanma vositalarni sotib olish uchun (urug‘lik, yem, yonilg‘i-moylash materiallari qayta ishlash uchun xom-ashyolar va boshqalar) moliyalashtiriladi.

Ishlab chiqarishga oid bosqichda sotib olingan moddiy aylanma vositalar yordamida tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayoni yuz beradi.

Tovarga oid bosqichda tayyor mahsulot realizatsiya qilinadi. Realizatsiyadan olingan tushum (pul shakli) yangi ishlab chiqarish davrining boshlanishi bo‘ladi.

Sxemadan farqli ravishda real ishlab chiqarishda aylanma vositalar bir vaqtning o‘zida aylanishning hamma bosqichlarida ishtirok etib, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlaydilar.

Funksional vazifalariga ko‘ra, aylanma vositalar ishlab chiqarishdagi aylanma fondlar va muomaladagi fondlarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarishdagi aylanma fondlar ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davrga xarajatlardan tashkil topadi. Aylanma mablag‘lar tuzilmasida ular 85-90 % ni egallaydilar.

Ishlab chiqarish zaxiralariga yosh chorva mollari va bo‘rdoqiga boqilayotgan chorva mollari, parrandalar, yem-xashak, urug‘lik va ekiladigan materiallar, ta’mir uchun ehtiyot qismlar va materiallar, neft mahsulotlari, qattiq yoqilg‘i, mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoyalash vositalari, ekinlarning sug‘urta jamg‘armalari, yordamchi sanoat ishlab chiqarishida qayta ishlash

uchun xom-ashyo va materiallar, bosh materiallar, asosiy faoliyatning ehtiyoji, ta'mirlash va boshqalar uchun qurilish materiallari, tara va tara materiallari narxi arzon va tez ishdan chiqadigan predmetlar kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish quyidagilarni qamrab oladi: o'simlikchilikda - kelgusi yil hosiliga sarf-xarajatlar, asosiy shudgorlash, organik va mineral o'g'itlar kiritish, kuzgi ekinlar, chorvachilikda boqish maqsadlarida indagi asallar, inkubatsiya jarayonidagi tuxumlar, sanoat yordamchi ishlab chiqarish - to'liq ishlab chiqish davridan o'tmagan va ish joyida bo'lgan yarim fabrikatlar va buyumlar, ustaxonalarda o'z uskuna (jihozlarining) transport vositalari, traktorlar, kombaynlar va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari va boshqalar.

Kelgusi davr xarajatlariga chorva mollari uchun yozgi o'tloqlar, molxonalar, bostirmalar, maydonchalar, donni vaqtincha saqlash va tozalash uchun ixtisoslashtirilgan omborxona, shuningdek, yangi mahsulotga tayyorgarlik va uni o'zlashtirishga qilingan xarajatlari kiradi.

Muomala fondlari quyidagilarni qamrab oladi: omborlardagi tayyor mahsulotlar, yo'ldagi va yuklangan tovarlar, pul mablag'lari, iste'molchilar bilan tovarga hisob-kitob qilingan mablag'lar. Aylanma vositalar tuzilmasida ular taxminan 10-15 % ni tashkil etadi.

Rejalashtirish darajasi bo'yicha aylanma vositalar normalangan va normalanmaganga bo'linadi. Normaga solingan asosiy vositalarga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish kelgusi davr xarajatlari, tayyor mahsulot tayyorlov tashkilotlari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Aylanma vositalarni normaga solish korxonaning normal ishlashi uchun zahira va normativlarning rejali normasini o'rnatishni bildiradi. Bu xom-ashyo va materiallarning normadan ortiq bo'lishidan saqlaydi, ularni saqlash xarajatlarini qisqartiradi, asoslanmagan pul mablag'ini jalb etishga yo'l qo'ymaydi, ularni ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sarflashga imkon beradi.

Aylanma vositalarning asosiy turlarini rejalashtirish asosida minimal ehtiyoj prinsipi yotadi. Urug'lik va ekiladigan materiallar, yosh chorva mollari va bo'rdoqiga chorvachilikda tugallanmagan ishlab chiqarish, boqilayotgan chorva mollari, o'simlikchilik va chorvachilikda tugallanmagan ishlab chiqarishlar bo'yicha asosiy vositalar normativlari ularning to'liq ehtiyojiga mos keladi. Hisob-varaqdagi qoldiq pul mablag'lari va hisob-kitobdagi mablag' bo'yicha normativ o'rnatilmaydi.

Rejalashtirish bo'yicha tavsiyalarga muvofiq, yem-xashak va to'shamalarga xususiy aylanma mablag'larning taxminiy normativlari quyidagicha bo'lishi kerak: don, yem-xashak bo'yicha pichan va somonga bo'lgan yillik ehtiyojning 15-20, 8,3 to'shamaga poxol – 15 % boqish maqsadida har bir asalari oilasiga 5 kg gacha asal. Mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish va chorva mollari uchun tibbiy dori-darmonlar bo'yicha xususiy aylanma vositalar normativi 8,3 %, qattiq yoqilg'i uchun 16,6 (ikki oylik talab) traktorlar uchun ehtiyot qismlar

va shinalarga – 10 %. Dizel yoqilg‘isi, benzin moy va boshqa neft mahsulotlari uchun xususiy aylanma mablag‘lar normativlari oylik talab miqdorida, ya’ni 8,3 % o‘rnatiladi.

Aylanma vositalarning boshqa turlari bo‘yicha ham normativlar ana shunday prinsiplarda o‘rnatiladi.

1. Aylanma vosita (mablag‘) lar.
2. Ishlab chiqarish aylanma vosita (mablag‘) lari.
3. Ishlab chiqarish zaxiralari.
4. Taralar va tarali materiallar.
5. Qurilish materiallari.
6. Instrumentlar, xo‘jalik inventar jihozlar.
7. Urug‘lik va ekiladigan materiallar.
8. O‘g‘itlar va zaharli ximikatlar.
9. Yem-xashaklar.
10. Yoqilg‘i va moylash materiallari.
11. Ehtiyot qismlar.
12. Bo‘rdoqiga boqilayotgan chorva mollari.
13. Tugallanmagan ishlab chiqarish.
    a) o‘simlikchilikda;
    b) chorvachilikda.
14. Kelgusi davr xarajatlari.
15. Muomaladagi fondlar.
16. Tayyor mahsulot.
17. Pul mablag‘lari.
18. Yuklangan tovarlar.
19. Hisob-kitobdagi vosita (mablag‘)lar.

Aylanma mablag‘lar shakllanish manbalari bo‘yicha xususiy, qarz va jalb etilganga bo‘linadi. Xususiy aylanma mablag‘lar miqdori korxona tomonidan mustaqil o‘rnatiladi va aylanma mablag‘lar normativlariga mos keladi.

Xususiy aylanma mablag‘lar miqdori turg‘un bo‘lmaydi. U har yili ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasining xom-ashyo va materiallar, ehtiyot qismlar, yoqilg‘i moylash materiallari, o‘g‘it, o‘simliklarni va chorva mollarini himoyalash vositalari, elektr tashuvchilar ta’riflariga baholarning o‘zgarishi ta’sirida o‘zgarib turadi.

Xususiy aylanma mablag‘larga talabning o‘sishi bilan mablag‘lardagi yetishmovchiliklar, ustav qo‘shimcha va rezerv kapitallar, taqsimlanmagan daromadlar, amortizatsiya ustamalari ta’mir fondi kelgusi davr daromadlari oldinda turgan xarajatlar rezervlari hisobiga qoplanadi.

Xususiy aylanma mablag‘larining manbalaridan biri ish haqi bo‘yicha har oylik qarzlar ijtimoiy ehtiyojlar va ta’tillarga ajratmalardir. Bu ishchilarning ish haqini ish bajarilgan yoki mahsulot ishlab chiqarilishi bilan bir vaqtda emas, kechroq olishlari bilan bog‘liq. Ta’tilga to‘lovlar bir yilda bir marta beriladi,

qarz asta-sekin yig‘iladi, ijtimoiy ehtiyojlar va byudjetdan tashqari fondlar bilan bo‘ladi.

Normal bozor iqtisodiyotida qishloq xo‘jalik tashkilotlari faqat xususiy manbalari hisobiga aylanma mablag‘larga talabni to‘liq shakllantirish foydali emas. Bu ishlab chiqarishning kengaytirish sur’ati pasayishiga, shuningdek, yilning alohida davriga ortiqcha aylanma mablag‘lar shakllanishiga olib kelgan bo‘lar edi. Shuning uchun xo‘jaliklarga aylanma mablag‘larning minimal zaxirasiga ega bo‘lish, bo‘sh pul mablag‘larini ishlab chiqarishga yo‘naltirish iqtisodiy jihatdan foydalidir.

Aylanma mablag‘lardagi yetishmovchilik banklardan olingan qisqa muddatli ssudalar, ya’ni qarz mablag‘lari hisobiga qoplanadi. Banklardan tashqari, hukumat tashkilotlari, moliyaviy kompaniyalar va boshqa tijorat tuzilmalari ham mablag‘ berishi mumkin. Ular qisqa muddatli ssudalar,imtiyozli tovar kreditlari, avans to‘lovlari, veksellar, soliq to‘lovlarining kechiktirilishi shaklida beriladi.

Aylanma mablag‘larni to‘ldirish xususiy va qarz mablag‘lari bilan bir qatorda jalb etilgan mablag‘lar hisobiga ham bajariladi. Ularga to maqsadli foydalangunga qadar kredit qarzlari va maqsadli moliyalashtirish mablag‘lari taalluqlidir.

8.4. Aylanma vositalar, ulardan foydalanish darajasining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Aylanma mablag‘lar va ulardan foydalanish qishloq xo‘jalik korxonalari ishlarining moliyaviy natijalariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ulardan samarali foydalanish ko‘pgina omillarga, birinchi navbatda aylanma mablag‘larning aylanishiga bog‘liq.

Aylanma mablag‘larning aylanishi deganda, aylanma mablag‘larning to‘liq aylanish davri-pul ishlab chiqarish shaklidan, tayyor tovar mahsulotlarini chiqarish va ularni realizatsiya qilgunga qadar bo‘lgan davr (pul mablag‘lari kelib tushishi) tushuniladi.

Aylanma mablag‘larning aylanishi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi: aylanma mablag‘lar aylanishining koeffitsiyenti, bir aylanishning uzunligi (davomiyligi), aylanma mablag‘larning bo‘shatilishi yoki ularga qo‘shimcha talab.

Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti, (K_{ay}):

$$K_{ay} = \frac{AyS}{AyV_q}$$

bunda:

AyS – aylanma vositalarning aylanish summasi;

AyV_q – aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati (aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i).

Sanoat korxonalarida shuningdek, yordamchi sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo‘jalik tashkilotlari sohalarida aylanma summasi tovar mahsulotlari qiymatiga mos keladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘yicha aylanma summasi mahsulot (ish xizmat) realizatsiyasidan olingan summaga mos kelmaydi. Bu shu bilan izohlanadiki, tovar mahsulotlarga bir qism hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar (asosiy podadan chorva molini chiqarish) o‘tadi va aksincha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa qismi (g‘unojinlari) asosiy podaga o‘tadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘yicha aylanma summa mahsulot (ish xizmat)ning realizatsiyasidan keyingi tushumidan asosiy podaga o‘tkazilgan yosh chorva molining qiymati chegirilib bolinadi, ya’ni asosiy podadan chiqarilgan va realizatsiya qilingan chorva molidan iborat bo‘ladi.

Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati (Ak)normalanadigan aylanma mablag‘ bo‘yicha hisoblanadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$AyV_q = \frac{(0{,}5AyV_b - 0{,}5AyV_o) + \Sigma AyV_1}{12}$$

bunda:

AyV_b – aylanma vositalarning yil boshidagi (1 yanvarga) qiymati;

AyV_o – aylanma vositalarning yil oxiriga (31 dekabrga) qiymati;

ΣAyV_1 – qolgan oylarning birinchi kuniga (fevraldan boshlab) aylanma vositalar qiymati summasi.

Ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda mualliflar aylanma mablag‘larning aylanma koeffitsiyenti o‘rniga aylanmadagi mablag‘lar ustamasi koeffitsiyentini – kattalikni aylanma mablag‘lar aylanishining teskari koeffitsiyentini hisoblashni tavsiya qiladilar.

Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti qancha yuqori bo‘lsa, aylanma mablag‘lardan shunchalik samaraliroq foydalaniladi va aksincha aylanmadagi yuklama koeffitsiyenti qanchalik kam bo‘lsa, aylanma mablag‘dan shunchalik samarasiz foydalaniladi.

Aylanma mablag‘dan foydalanishning navbatdagi muhim ko‘rsatkichi quyidagi formula bilan aniqlanadigan bitta ***aylanma vositaning aylanish davomiyligi*** (AyV_d kun)dir.

$$AyV_d = \frac{K_s}{AyV_q}$$

bunda:

K_s - ko‘rilayotgan davrdagi kunlar soni (odatda 365 kun).

Agar qavs ichida hisoblashlar natijalari bo‘yicha chap tomon o‘ng tomondan ko‘p bo‘lsa va aksincha agar o‘ng tomon chap tomondan ko‘p bo‘lsa, (manfiy belgi bilan) aylanma mablag‘ning iqtisod qilingan summasini olamiz.

Ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlardan tashqari, shuningdek ***aylanma mablag‘lardan foydalanish rentabelligi darajasini*** ham aniqlaydilar (%):

$$R_d = \frac{M_d}{AyV_q} * 10o$$

bunda:

M_d – mahsulot (ish xizmat) ni realizatsiya qilingandan olingan daromad;

AyV_q – aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati (8.4.1-jadval).

8.4.1-jadval

Xo‘jalikda aylanma mablag‘larning aylanishi va ulardan foydalanishning samaradorligi (ming so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1	Mahsulot (ish xizmat) realizatsiyasidan tushum	7866	12673
2	Asosiy podadan chiqarilgan chorva molining qiymati	558	564
3	Asosiy podaga o‘tkazilgan yosh chorva molining qiymati	530	1163
4	Aylanma summasi	7838	13272
5	Normalashtiriladigan aylanma mablag‘ning o‘rtacha yillik qiymati	8808	10640
6	Sotuvdan ko‘rilgan daromad yoki zarar	-817	1943

$A_{ай}$bazis yilida = 7838 : 8808 = 0,89;
$A_{ай}$hisobot yilida = 13272 : 10640 = 1,25;
$A_к$bazis yilida = 8808 : 7838 = 1,12;
$A_к$hisobot yilida = 10640 : 13272 = 0,80;
$A_д$ bazis yilida = 365 : 0,89 = 410 kun;
$A_д$ hisobot yilida = 365 : 1,25 = 292 kun;
$A_й$hisobot yilida = 13272 : 365 · (10640/13272 – 8808/7838) = 36,4 (0,80 – 1,12) = 11,6 ming so‘m.
$P_д$bazis yilida = (-817) : 8808 · 100 = 9,3 %;
$P_д$hisobot yilida = 1943: 10640 · 10 = 18,3 %.
Tahlil uchun olingan ko‘rsatkichlarni 8.4.2-jadvalga kiritamiz.

8.4.2-jadval

Aylanma mablag‘larning aylanishi va ulardan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1	Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti	0,89	1,25
2	Aylanmadagi mablag‘lar yuklamasi koeffitsiyenti	1,12	0,80
3	Bir aylanmaning davomiyligi, kun	410	292
4	Aylanma mablag‘larning iqtisodi (bo‘shatilishi) ming so‘m	-	- 11,6
5	Aylanma mablag‘lardan foydalanishning rentabelligi, %	- 93	18,3

Rejalashtirish darajasiga ko‘ra, aylanma mablag‘larni rejalashtirish norma asosida va normasiz guruhlarga bo‘linadi. Normaga solinadiganga ishlab chiqarishning aylanma fondlari (ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari) va moddiy aylanma mablag‘ni bildiruvchi tayyor mahsulotlar kiradi. Pul mablag‘lari, hisob-raqamlardagi mablag‘lar, ortilgan tovarlar - bular normasiz aylanma mablag‘lardir.

Aylanma mablag‘larning yetishmasligi ishlab chiqarishning qisqarishiga hamda uning dasturi bajarilmasligiga olib kelishi mumkin. Normativ (me’yor) dan ortiq zahiralar pul mablag‘larini aylanishdan chalg‘itadi. Bularning hammasi resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy aylanma mablag‘ bilan ta’minlanganligi moddiy aylanma mablag‘larning mavjudligi AyV_{mm} va ularga bo‘lgan normativ ehtiyoj (AyV_{ne}) orasidagi o‘zaro nisbat aks etadigan moddiy ta’minlanganlik koeffitsiyenti ($A_{МТК}$) bilan aniqlanadi:

$$AyV_{mtk} = \frac{AyV_{mm}}{AyV_{ne}}.$$

Ushbu koeffitsiyent yordamida qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy resurslar va ularning alohida turlari (masalan, urug‘lar, yem-xashak, o‘g‘it) bilan ta’minlanganligini aniqlash mumkin.

Korxonalar ishlab chiqarish moliyaviy reja ishlashlarida ularning aylanma mablag‘larga talablari aniqlanadi. Ularning miqdori doimiy emas. U ishlab chiqarish hajmi ta’minlanish va sotilish shartlari, mahsulotlar assortimenti, qo‘llaniladigan hisob-kitob shakllariga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida yil davomida aylanma mablag‘lardan davriy foydalanish kuzatiladi. Aylanma mablag‘larni shakllantirish va ko‘zda tutilgan qishloq xo‘jalik ishlarini

muvaffaqiyatli bajarish uchun resurslar zahirasini yaratishda buni hisobga olish kerak. Ishlab chiqarishning eng kuchaygan davrlaridagi minimal talabni aniqlash tavsiya etiladi.

Aylanma mablag‘larni normalashtirishda ularning talabi natural holda qanday bo‘lsa, pul shaklida ham shunday aniqlanadi. Xususiy aylanma mablag‘ (urug‘lik, yem-xashak va boshqalar) ushbu xo‘jalikda uni ishlab chiqarish tannarxi bo‘yicha baholanadi, sotib olinadiganlar (o‘g‘itlar ximikatlar, ehtiyot qismlari va boshqalar) – sotib olinish va talab etilgan joyga yetkazib berish bahosi bo‘yicha. Aylanma mablag‘larni norma asosida nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga, shuningdek sanoat yordamchi ishlab chiqarishga ham bo‘lgan talabni hisobga olish zarur.

Ishlab chiqarish aylanma fondlarining zarur hajmi ishlab chiqilgan normalar bo‘yicha belgilanadi. Masalan, urug‘likka ehtiyojni sug‘urta zaxirasi va ekish maydonining ilmiy asoslangan ekish normalarining e’tiborga olgan qismi hisoblanadi. Yem-xashak zahirasi miqdorini hayvonlar va qoramol bosh soni hamda parrandalarni boqish normasidan kelib chiqib aniqlanadi. Yoqilg‘i va moylash materiallariga ehtiyoj mavjud traktorlar va kombaynlar avtomobillar ularning markasi taxmin qilingan ish hajmi va yonilg‘i sarflash normasidan kelib chiqib belgilanadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining boshqa moddiy aylanma mablag‘larga talablari hisobi shunga o‘xshash tarzda o‘tkaziladi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanishning samaradorligi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining xo‘jaligi faoliyati moliyaviy natijalariga jiddiy ta’sir qiladi. Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi darajasini aniqlash uchun ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llaniladi: aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti, aylanmadagi mablag‘ning ish yoki yuk (yuklama) bilan ta’minlanganligi koeffitsiyenti, bir marta aylanishning davomiyligi, material (moddiy) sig‘imi.

Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti o‘zida PT - mahsulotni realizatsiya qilishdan tushgan pul tushumi va asosiy podaga o‘tkazilgan yosh mol M -ning qiymati, C -asosiy podadan sotilgan qoramol bahosini chiqarib tashlangandagi yiliga qolgan qoldiq aylanma mablag‘ A_{mak} ni ko‘rsatadi:

$$AK_{ay} = \frac{PT + M - C}{A_{mak}}.$$

Amaliyotda ko‘pincha aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyentini mahsulot realizatsiya qilingandan, aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘iga pul tushumining nisbati sifatida qaraladi:

$$AK_{ay} = \frac{PT}{A_{mak}}.$$

Aylanish koeffitsiyenti korxona aylanma mablag‘larini ma’lum davr (yil) dagi aylanishlar sonini aniqlaydi yoki 1 so‘m. aylanma mablag‘ga to‘g‘ri keladigan aylanma mablag‘ birligiga mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishiga yoki ushbu mahsulot hajmi kamroq aylanma mablag‘ talab qilishiga olib keladi. Binobarin, ushbu shart bo‘yicha aylanish koeffitsiyenti qancha yuqori bo‘lsa, aylanma mablag‘dan shunchalik samaraliroq foydalaniladi.

Aylanmadagi mablag‘larning ta’minlanganlik koeffitsiyenti aylanishning teskari koeffitsiyentiga ko‘rsatkichdir. U mahsulot realizatsiyasidan tushgan foydaning birligiga (1 so‘m) avanslashtiriladigan aylanma mablag‘lar summasini izohlaydi. Boshqacha aytganda, koeffitsiyent o‘zida realizatsiya qilingan mahsulot birligiga aylanma mablag‘lar sarfini ifodalaydi:

$$AK_t = \frac{A_{mak}}{PT}.$$

Aylanmada mablag‘larning ish bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti qancha kam bo‘lsa, aylanma mablag‘lardan shunchalik samaraliroq foydalaniladi.

Bitta aylanmaning aylanishi davomiyligi korxonaga uning aylanma mablag‘i mahsulot realizatsiyasidan foyda ko‘rinishida qanday muddatda qaytishini ko‘rsatadi:

$$K_d = \frac{365}{AK_{ay}}.$$

Bir marta aylanish davomiyligining qisqarishi aylanma mablag‘lardan foydalanish yaxshilanganligini ko‘rsatadi.

Aylanma mablag‘lar aylanishining tezlashuvi ham ularni aylanishdan mutloq yoki nisbiy bo‘shashi bo‘yicha aniqlanadi. **Mutloq bo‘shatish** deganda aylanma mablag‘lar summasini joriy yilda o‘tgan yildagiga nisbatan pasayganligi, shu bilan birga shu hajmda mahsulot realizatsiyasi yoki uning ko‘payganini bildiradi.

Sotuv hajmining o‘sish sur’ati aylanma mablag‘larning o‘sish sur’atidan o‘tib ketganda nisbiy bo‘shash paydo bo‘ladi. Bunday holatlarda aylanma mablag‘ning kichik hajmi bilan katta realizatsiya ta’minlanadi.

Aylanishning tezlashuvi hisobiga bo‘shagan aylanma mablag‘lar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi, so‘m:

$$AyM_t = \frac{H_d * (T_b - T_0)}{365}$$

bunda:

H_d – hisobot davrida mahsulot realizatsiyasidan tushgan daromad, so‘m, mos ravishda bir aylanma aylanishning o‘rtacha davomiyligi, kunlar.

Agar korxonada aylanma mablag‘larning aylanishi sekinlashgani kuzatilsa ($T_0 > T_b$) olingan manfiy kattalik sekinlashgani hisobiga qo‘shimcha aylanma mablag‘ga bo‘lgan talabda aks etadi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri **mahsulotlarning moddiy sig‘imidir**. U moddiy aylanma mablag‘lardan foydalanish darajasini izohlaydi. Moddiy sig‘im qishloq xo‘jaligi mahsulot birligi ishlab chiqarishda qancha moddiy resurslardan (M_r) foydalanilganligini ko‘rsatadi. U moddiy xarajatlarning yalpi mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi:

$$AM_S = \frac{M_r}{YaM}.$$

Mahsulotning moddiy sig‘imi pasayishi moddiy aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanganlik ishlab chiqarish samaradorligi oshganiga guvohlik beradi.

Asosiy ishlab chiqarish va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich – **daromad normasi**.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida aylanma mablag‘larning alohida elementlaridan foydalanishning samaradorligini xarakterlovchi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar sifatida 1 ga ekin yeriga yig‘ilgan hosil birligini mahsulot birligini ishlab chiqarish (yetishtirish) ga yem-xashak xarajatlari ishlatib yuborilgan ehtiyot qismlar summasi, mexanizatsiyalangan ish birligiga sarflangan yoqilg‘i va moylash materiallari 1 shartli et.ga.ga yoqilg‘i sarfi va boshqalar kiradi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi oshishi mahsulot tannarxining pasayishi va qishloq xo‘jaligi o‘sishiga olib keladi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Bu qishloq xo‘jaligi korxonalari manfaatlari va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tashqi hamda korxonaga faol ta’sir ko‘rsatishi mumkin va zarur bo‘lgan ichki omillar hamdir.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi: umumiy iqtisodiy vaziyat, soliq qonunchiligining o‘ziga xosligi, kredit olish va ular bo‘yicha foiz stavkalari shartlari, maqsadli moliyalashtirish imkoniyatlari, byudjetdan moliyalashtiriladigan dasturlarda ishtirok etish. Shularni va boshqa tashqi omillarni hisobga olib, korxonalar iqtisodiy samaradorliklarini oshiruvchi boshqa omillardan ham foydalanishlari mumkin.

Yuzaga kelgan sharoitlarda aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishi – qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini zarur material resurslari bilan (urug‘liklar, yem-xashak (ozuqa), yoqilg‘i va moylash materiallari, o‘g‘itlar, ximikatlar, ehtiyot qismlar va boshqalar) ta’minlashdir. Bu vositalarning yetishmasligi mahsulot ishlab chiqarish hajmi kamayishiga olib keladi.

Shu bilan birga, materiallar zahirasining me’yordan ortiq bo‘lishi ulardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etadi. Ishlab chiqarish zaxiralarini minimallashtirish mehnat predmetlarini meyorlashtirishni mukammallashtirish, yetkazib berish va ularni bajarilishini ta’minlashning aniq shartnoma shartlari yo‘li bilan ta’minotni yaxshilash, optimal ta’minotchilarni tanlash, transport ishlarini yo‘lga qo‘yishga imkon beradi.

Aylanma mablag‘lar aylanishining tezlashuviga mehnatni tashkil qilishni mukammallashtirish, vegetatsiyasi qisqa muddatli bo‘lgan qishloq xo‘jalik ekinlari navlari va gibridlarini qo‘llash, chorva mollari va parrandalarning tez yetiladigan zotlarini o‘stirish va bo‘rdoqiga boqish, ishlatiladigan texnikalarni yaxshilash, ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida mablag‘larni tejash yo‘li bilan erishiladi.

Aylanma mablag‘lar muomalada bo‘lganda yangi mahsulot yaratishda qatnashmaydi, balki uni iste’molchiga yetkazib berilishini ta’minlaydi xolos. Mablag‘larni muomalada bo‘lish doirasiga ortiqcha jalb etish xo‘jalik faoliyati natijalariga salbiy ta’sir etadi.

Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishning muhim nuqtai nazari – qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bozor konyunkturasini o‘rganish asosida oqilona tayyorlashni tashkillashtirish, marketing xizmatini tashkil etish, shartnoma va to‘lov intizomiga rioya etishdir.



8.4.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligida aylanma mablag‘lar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar**

Aylanma mablag‘lardan foydalanishni yaxshilash yo‘llaridan biri-ishlab chiqarish, saqlash, yuklash va realizatsiya jarayonida mahsulotlarni yo‘qotishni qisqartirishdir. Mahsulotlarning ayrim turlari bo‘yicha (meva, sabzavot va boshqalar) bu yo‘qotishlar 30-40 % ga yetadi. Shuningdek, aylanma

mablag‘larda foydalanish samaradorligini oshirishda material (moddiy) resurslarni (urug‘lik ozuqa va boshqalar) saqlashni to‘g‘ri tashkil etishdir.

Aylanma mablag‘lar yetishmaslik sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda resurslarni tejovchi texnologiyalarni qo‘llash hisobiga moddiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyatga ega. Bu mahsulotning moddiy sig‘imini sezilarli pasaytirish imkonini beradi.

Barcha ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishning asosiy sharti – asosiy va aylanma mablag‘larning optimal nisbati. Aylanma mablag‘larning yetishmasligi (ozuqa, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar va boshqalar) asosiy fondlardan (mahsuldor qoramollar, texnikalar, inshootlar va boshqalar) samarasiz foydalanishga olib keladi va bu qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish hajmiga salbiy ta’sir etadi (8.4.1-rasm).

Aylanma mablag‘larning o‘zgaruvchan qismi ishlab chiqarish hajmlarining mavsumiy o‘sishi va alohida davrlarda mavsumiy saqlashga tovar moddiy qimmatliklar zahirasini shakllantirish zarurati uchun mahsulot realizatsiyasi bilan bog‘liq.

Aylanma mablag‘lar strukturasi deganda, aylanma mablag‘larning alohida elementlari yoki ularning tarkibiy qismlari orasidagi foizli nisbat tushuniladi. 8.4.3-jadvalda qishloq xo‘jaligi korxonalari aylanma mablag‘larining namunali strukturasi keltirilgan.

8.4.3-jadval

Qishloq xo‘jalik korxonalarida aylanma mablag‘larning namunaviy tuzilishi

Aylanma mablag‘lar tarkibi	Struktura, %
Ishlab chiqarish aylanma mablag‘lari hammasi	85,0
Shu jumladan:	
Ishlab chiqarish zaxiralari	65,5
Tugallanmagan ishlab chiqarish	19,0
Kelgusi davr xarajatlari	0,5
Muomala fondlari	15,0
Shu jumladan:	
Tayyor mahsulot	7,2
Yuklangan tovarlar	0,1
Pul mablag‘lari	0,2
Hisoblashuvdagi mablag‘lar	7,5

Aylanma mablag‘lar tuzilishi doimiy emas, u ko‘plab omillar ta’siri ostida o‘zgaradi (ixtisoslashuv, konsentratsiyalar, tabiiy-iqlim sharoiti, ilmiy-texnika taraqqiyoti va hokazo).

Qishloq xo‘jaligida aylanma mablag‘lardan yilning turli davrlarida bir tekis foydalanilmaydi va bu ularning tuzilishlariga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Masalan, qishda aylanma mablag‘larning salmoqli qismi urug‘lik va ozuqa zaxiralarida saqlanadi, yozda esa ularning kattagina ulushi neft mahsulotlari zaxiralarida, texnika uchun ehtiyot qismlarga va tugallanmagan ishlab chiqarishda to‘planadi.

Aylanma mablag‘larning shakllanish manbalari – xususiy, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘lardir. Xususiy aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun daromad bilan bir qatorda turg‘un passivlardan ham foydalaniladi. Turg‘un passivlarga ish haqi bo‘yicha oydan-oyga normal ravishda o‘tiladigan qarzdorliklar va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha ajratmalar, rezerv fondi mablag‘lari qoldiqlari va boshqalar kiradi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida xususiy mablag‘lar, shuningdek tayyor mahsulot qismlari (urug‘lik, ozuqa va hokazo) hisobiga ham yaratiladi.

Yil davomida aylanma mablag‘ga talab o‘zgargani uchun ularni qarz mablag‘lari, ya’ni banklarning qisqa muddatli kreditlari hisobiga shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asosiy tushunchalar

Asosiy fond (vosita) – bu qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarish va qayta ishlash ishlarini bajarish va xizmat ko‘rsatishda bir va undan ortiq yil davomida qismlarga bo‘lingan holda (amortizatsiya shaklida) foydalaniladigan mol-mulkining bir qismi bo‘lib, o‘z qiymatini mahsulot, ish va xizmatning tannarxiga aylantiradi.

Ishlab chiqaruvchi asosiy fondlar – bu mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishda bevosita ishtirok etuvchi mablag‘lardir.

Noishlab chiqarish fondlari qishloq xo‘jaligida tegishli uy-joy kommunal xo‘jaliklari, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, ijtimoiy ta’minot, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya, maorif kabilar kiradi.

Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati - bu xarid qilish, yetkazib berish, mashina va uskunalarning montajiga, binolar va inshootlar qurilishiga va ularni ekspluatatsiyaga kiritishga hamda boshqalarga qilingan haqiqiy sarf-xarajatlarning hisob-kitobidir.

Fizik eskirish - ekspluatatsiya hamda atmosfera omillari ta’sirida asosiy vositalarning eskirishi.

Ma’naviy eskirish ham hisobga olinib, u ikki turda bo‘lishi mumkin. Birinchi tartibdagi ma’naviy eskirish smenada mehnat vositasi bilan korxona xarajatlarni qisqartirish va raqobatbardoshliroq mahsulot ishlab chiqarish ma’nan eskirgan vositalar bilan bajarila boshlanadi. Ikkinchi tartibdagi ma’naviy

eskirish ishchilar uchun qulay bo‘lgan avvalgi unumdorlik bilan arzonroq mehnat vositasi ishlab chiqarila boshlanganda yuz beradi.

Amortizatsiya - eskirgan asosiy vositalarni tiklash va ularni yangilariga almashtirish uchun har yili asosiy vositalarning bir qismi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga o‘tkazilishi.

Aylanma vositalar - ishlab chiqarish davrida bir marta ishtirok etadigan va o‘z qiymatini to‘lig‘icha tayyor mahsulot tannarxiga o‘tkazuvchi moddiy-pul mablag‘larining yig‘indisidir.

Aylanma mablag‘larning aylanishi - aylanma mablag‘larning to‘liq aylanish davri-pul ishlab chiqarish shaklidan, tayyor tovar mahsulotlarini chiqarish va ularni realizatsiya qilgunga qadar bo‘lgan davr (pul mablag‘lari kelib tushishi) dir.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi darajasini aniqlash uchun ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llaniladi: aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti, aylanmadagi mablag‘ning ish yoki yuk (yuklama) bilan ta’minlanganligi koeffitsiyenti, bir marta aylanishning davomiyligi, material (moddiy) sig‘imi.

Daromad normasi – bu asosiy ishlab chiqarish va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Asosiy va aylanma vositalar, fondlar hamda doimiy va o‘zgaruvchan kapital deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy va aylanma vositalarning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati qanday?
3. Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma vositalarning turkumlashtirilishini bayon eting.
4. Asosiy va aylanma vositalar bozori va asosiy vositalar ijarasi deganda nimani tushunasiz?
5. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni izohlang.
6. Korxonaning moliyaviy mablag‘lari, aylanma kapital va chetdan jalb etilgan mablag‘lar haqida tushuncha bering.
7. Aylanma vositalardan foydalanish darajasining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni izohlang.
8. Asosiy vositalarning eskirishi, amortizatsiyasini hisoblash usullarini aytib bering.
9. Asosiy va aylanma vositalardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni izohlang.

IX-BOB. MEHNAT RESURSLARI, ULARNING BOZORI, ULARDAN FOYDALANISH VA MEHNAT UNUMDORLIGI

O‘quv maqsadi: respublika qishloqlaridagi aholi va mehnat resurslari tarkibi, mehnat resurslarining huquqiy asoslari, mehnat bozori segmentini o‘rganish, mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, rivojlangan davlatlardagi mehnat unumdorligiga oid ilg‘or yutuqlarni joriy etish va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *mehnat va mehnat resursi, mehnat bozori, mehnat balansi, mehnat unumdorligi.*

9.1. Respublika qishloqlaridagi aholi, mehnat va mehnat resurslari

Mehnat - bu insonni maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, uning jarayonida moddiy va ma’naviy qiymatliklar yaratiladi.

Mehnat resurslari - mamlakat aholisining bir qismi bo‘lib, u iqtisodiyot tarmoqlarida ishlash uchun jismoniy imkoniyatlar, bilim va amaliy tajriba yig‘indisiga ega bo‘ladi. Ular o‘zlariga aholining 16 dan 60 yoshgacha bo‘lgan mehnatga qobiliyatli erkaklar va 16 dan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar, shuningdek mehnatga yaroqlilik yoshidan katta yoki kichik iqtisodiyot tarmoqlarida haqiqatan band bo‘lganlarni (ishlaydigan pensionerlar va 16 yoshgacha bo‘lgan maktab o‘quvchilari) qamrab oladi.

Mehnat resurslaridan jamiyatning asosiy va mahsuldor kuchi sifatida oqilona foydalanilganda, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish mahsulotlarining o‘sishini va ularning iqtisodiy samaradorligini ta’minlaydi.

Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi) - moddiy qiymatliklar ishlab chiqish va xizmat ko‘rsatishda ishtirok etishga imkoniyatli shaxslarning yig‘indisi.

Band aholi - ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgan shaxsdir. Bandlarga yollanib ishlaydiganlar tadbirkorlar, erkin kasb egasi bo‘lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar kiritiladi. Qishloq xo‘jaligida band aholi soni 15-16 mln kishini tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligida 3,7 mln kishi yoki iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning 27,7% i band. Bandlik iqtisodiy kategoriya sifatida ish joyi bilan ta’minlash va xo‘jalik faoliyatida ishtirok etish bo‘yicha odamlar orasidagi munosabatlar tizimini ifodalaydi. **Aholining bandligi** - odamlarning o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan va ularga mehnat daromadlari keltiruvchi, shuningdek, haq to‘laydigan ishlarni bajarishi bilan

bog‘liq bo‘lmagan (bola tarbiyasi, uy xo‘jaligini yuritish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qish, ijtimoiy faollik) faoliyatlardir. Bandlik odamlarning faoliyat turlari bo‘yicha taqismlashni izohlaydi. Aholining salmoqli qismi iqtisodiy faoliyat bilan bandlarni tashkil etadi.



9.1.1-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi aholisi va mehnatga layoqatli aholi soni dinamikasi**[46]

Iqtisodiy faoliyat bilan bandlar tovar ishlab chiqarish va turli xil xizmatlar ko‘rsatishida qatnashib, shunga bog‘liq holda o‘z daromadlari borasida boshqa odamlar guruhi - shaxslar yoki jamiyat bilan munosabatga kirishuvchi shaxslar. Ularga quyidagi shaxslar kiradi:

- haq olish uchun yollanib to‘liq va to‘liq bo‘lmagan ish vaqtida ishlovchilar;
- kasallik, kasalni parvarishlaganlik, ta’til, ish tashlash va shunga o‘xshash sabablar bilan vaqtincha ishga bora olmaydiganlar;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar;
- oilaviy korxonalarda ish bajaruvchilar (haq to‘lamasdan).

“Bandlik” atamasining ma’nosi odamlarning jamiyat uchun foydali faoliyatning turli ko‘rinishlariga ehtiyoji va bu ehtiyojni qondirilish darajasi va ish joyi bilan ta’minlanish sifatida anglanadi. Qishloq xo‘jaligida bandlikning ikki shakli mavjud: *to‘liq va to‘liqsiz*.To‘liq bandlikka odamlar yil davomida ish bilan ta’minlangan bo‘ladilar. To‘liqsiz bandlik ish kuchidan to‘liq foydalanmaslik bilan aniqlanadi. To‘liqsiz bandlikda odamlar to‘liqsiz ish kuni, to‘liqsiz ish haftasi, to‘liqsiz ish yili tartibida ishlashga majburlar.

Qishloq xo‘jaligida bandlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari quyidagilar:

- bandlarning umumiy soni;
- to‘liq ish kuniga qayta sanalganda bandlar soni;

[46]S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan

- ma’lum davrda (qoidaga ko‘ra, yilda) ishlangan odam/kunlar yoki odam/soatlar.

Ishsizlar deb, - O‘zbekiston Respublikasi aholining bandligi haqidagi qonunchiligiga ko‘ra, rasmiy ravishda mehnat qilish xususiyatiga ega, lekin ishi va ish haqi (mehnat daromadi) yo‘q, davlat bandlik xizmatidan ish qidirayotgan ish qobiliyatiga ega va ishlashga tayyor shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolar tan olinadi. Ishsizlarga biror sabab bilan ishdan bo‘shatilganlargina emas, o‘z ixtiyori bilan ishdan bo‘shab, yangi ish topishga urinayotgan shaxslar ham kiradi.

Ishsizlarni to‘rtta toifaga ajratadalar:

- bo‘shatilish natijasida ishini yo‘qotganlar;
- o‘z ixtiyori bilan ishini tashlab ketganlar;
- dam olish (tanaffus) dan keyin mehnat bozoriga kelganlar;
- mehnat bozoriga birinchi marta kelganlar.

Ishsizlikning son ko‘rsatkichi uning darajasi va davomiyligi hisoblanadi.

Ishsizlik darajasi(I_d) iqtisodiy faol aholi soniga rasman ro‘yxatga olingan ishsizlar ulushi sifatida foizlarda aniqlanadi:

$$I_d = \frac{I_s}{A_{ifs}}$$

bunda:

I_s – ishsizlik soni, odam;

A_{ifs} - aholining iqtisodiy faol soni (ishchi kuchi), odam.

Ishsizlikning davomiyligi – ishdagi o‘rtacha uzilish (tanaffus) vaqti ish joyini yo‘qotish va yangi ish joyiga joylashish orasidagi vaqt bilan aniqlanadi.

Ishsizlik darajasi qishloq joylarida 5-6 %, shahar joylarida 7-8 % ni tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligida ishsizlik ishlab chiqarishning pasayishi, mehnatning yuqori ishlab chiqarish vositalarini va mehnatni tejaydigan texnologiyalarni mahsulot ishlab chiqarishda tuzilmaviy o‘zgarishi, (sermehnat chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining keskin qisqarishi), mulkchilik shaklining va xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgarishi, ish haqining pastligi va mehnat sharoitining yomonligidan, odamlarning o‘z arizasi bilan bo‘shab ketishi, demografik jarayonlar (migratsiya, tug‘ilish, o‘lim) va boshqalar bilan paydo bo‘ladi.

Mehnat resurslari tuzilmasi – bu turli toifadagi ishchilarning ularning umumiy miqdoriga foizli nisbati. Qishloq xo‘jalik korxonalari xodimlari tuzilmasida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida band ishchilar ulushi 85-90 %, shu jumladan doimiylar 70-75 %, shundan traktorchi - mashinistlar 3-4 %, mavsumiy va vaqtinchalik 5-6 %, rahbarlar va mutaxassislar ulushiga 2-3 %

to‘g‘ri keladi. Tuzilma ko‘plab omillar bilan aniqlanadi: qishloq xo‘jalik korxonasining o‘lchami va ixtisoslashganligi, uning integratsiyalangan jarayonlarida qatnashuvi, tabiiy sharoitlar va boshqalar. U yoshi, jinsi, ma’lumot darajasi, ish staji, malakasi kabi qator belgilar bilan hisoblanishi mumkin.

Ishchilarning ro‘yxatga olingan o‘rtacha miqdori yiliga ularning ro‘yxatga olingan o‘rtacha miqdorining hamma oylar bo‘yicha jamlab olingan miqdorini 12 ga bo‘lish yo‘li bilan topiladi.

Ishchilarning bir oyga ro‘yxatga olingan miqdori ro‘yxatdan ishchilar tarkibi, sonini oyning har bir kalendar kuniga jamlash va olingan miqdorini oyning kalendar kunlari soniga bo‘lish bilan hisoblanadi.

Ishchilarning yillik o‘rtacha miqdori xo‘jalik ishchilarining bir yilda ishlagan vaqtini (kishi/soat, kishi/kun) ish vaqtining yillik fondiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Mehnat resurslarini qayta taqsimlash shakli – ishchi kuchi migratsiyasi, ya’ni mehnatga qobiliyatli aholining yashash joyini o‘zgartirishi va ko‘chirish. Bunda mamlakat chegarasidan o‘tib ketilishi yoki o‘tmasligiga qarab, ichki va tashqi migratsiyani farqlaydilar. Ichki migratsiya (mamlakat hududi ichida, qishloqdan shaharga) – aholi tarkibining va joylashuvining o‘zgarishi, bu bilan mamlakat aholisining soni o‘zgarmaydi albatta. Tashqi migratsiya esa mamlakat aholi sonini kengaytirib yoki miqdoriy saldosi miqdorini ko‘paytirib unga ta’sir etadi. Oxirgisi mamlakatdan tashqariga doimiy yashash uchun ketgan va mamlakatga xorijdan yashash uchun kelgan odamlar soni orasidagi farqni o‘zida aks ettiradi.

9.2. Mehnat bozori, mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Qishloq xo‘jaligida va qayta ishlovchi tarmoqlarda mehnat resurslaridan foydalanishning o‘ziga xosligi ishlab chiqarish davrlarining bir-biriga mos kelmasligi natijasi bo‘lgan mehnatning davriyligidir. Davriylik ekish, o‘simliklarni parvarishlash, hosilni yig‘ib olish, qishloq xo‘jalik xom-ashyolarini qayta ishlash davrida mehnatga ehtiyojning ortishi va uning qish davrida kamayishida ifodalanadi. Chorvachilikda, sanoat ishlab chiqarishida, avtotransportda mehnat sarfi yil davomida deyarli bir xil.

Mehnat mavsumiyligining asosiy ko‘rsatkichlarini keltiramiz.

Yillikka nisbatan mehnat sarfining oylik taqsimlanishi foizlarda mehnatdan bir tekis foydalanishda o‘rtacha mehnat sarfi 8,33 % (100:12) ni tashkil etadi.

Mavsumiylik faoliyat davri ko‘lami oylik maksimal mehnat sarfining (MM_{max}.) minimaliga ($MM_{мин}$.)nisbatidir(odam/soat).

$$M_{fd} = \frac{MM_{max}}{M_{\min}}.$$

Mehnat resurslaridan foydalanishning mavsumiylik koeffitsiyenti - xo‘jalikning o‘rtacha oylik mehnat sarfi bilan (M_s) maksimal yoki minimal ish hajmiga oylik mehnat sarfi nisbati bilan xarakterlanadi:

$$M_k = \frac{MM_{max}}{M_s} \text{ yoki } M_k = \frac{MM_{min}}{M_s}.$$

Qishloq xo‘jaligida mehnatning mavsumiyligini hozircha oldini olish imkoni yo‘q. Biroq ayrim qishloq xo‘jalik korxonalarining ko‘p yillik ish tajribalari uni minimumga tushirish mumkinligini aniqladi. Amaliyotda mavsumiylikni yumshatishning turli-tuman yo‘llari ishlab chiqildi:

- eng sermehnat ishlab chiqarish jarayonlarini iloji boricha maksimal darajada mexanizatsiyalashtirish, eng dolazrb davrda yuqori unumdor texnika va uskunalarni joriy etish mehnatni mexanizatsiyalashtirish imkonini beradi;
- turli muddatlarda ekiladigan navlardagi qishloq xo‘jalik ekinlarini va mehnat sarfini tenglashtirishga yordam beruvchi tarmoqlarni birga qo‘shib olib borish;
- qishda ishchilarni band qilish imkonini beruvchi yordamchi va qayta ishlash korxonalarini tashkil etish;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarilgan joyida qayta ishlash va uzoq vaqt integratsiyasini rivojlantirish;
- qayta ishlash korxonalarida kam mehnat talab qiladigan va yarim fabrikat xom-ashyolarni ommaviy keltirish davridagi ishlab chiqarishda uncha ko‘p kuch talab qilinmaydigan davrda (qishki, bahorgi) yakuniy mahsulotlar ishlab chiqish.

ASM tarmoqlarida mehnatning mavsumiyligini yengillashtirish ishchi kuchi soni optimal bo‘lganda yil davomida ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligida mehnatning mavsumiy xarakterida qishloq xo‘jaligi ishlari bo‘yicha ishchi kuchiga talabni (I_t) aniqlash zarur (ekish, yig‘ib olish, ishlov berilgan ekinlar parvarishi va boshqalar). Buni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$I_t = \frac{I_h}{I_n * A_m}$$

bunda:

I_h – ish hajmi, t, ga;

I_n – ishlab chiqarish normalari, t, ga;

A_m – agrotexnika ishlarini o‘tkazishning optimal muddatlari kunlari.

O‘simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha mehnat resurslariga talab har bir ekin va har bir chorva moli turi bo‘yicha tuzilgan texnologik karta asosida belgilanadi. Chorvachilikda mehnat kuchiga talab, shuningdek, chorva molining bir ishchiga to‘g‘ri kelishi me’yorini hisobga olib ham aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanishning boshqa o‘ziga xos xususiyatlari – ishning ko‘p qirraligi va ularni bajarish muddati qisqa bo‘lgan mehnat funksiyalarini ishchilarning birga olib borishidir.

Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanishi bilan agrar mehnat asta-sekin sanoatning bir ko‘rinishiga aylanmoqda. Bu alohida ishlab chiqarish jarayonlari sanoat asosiga qo‘yilgan (parrandachilik, chorvani sanoat asosida bo‘rdoqiga boqish va boshqa) chorvachilikda aniq ko‘rinadi. Biroq qishloq xo‘jaligi mehnatining o‘ziga xosligi tarmoqni sanoatlashtirish va ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlariga ta’sir etadi.

Qishloq xo‘jaligida ishchi kuchidan foydalanish darajasiga va agrosanoat ishlab chiqarishi samaradorligida ta’sir etuvchi muhim omil korxonaning mehnat resurslari bilan ta’minlanganligidir. Ishchi kuchi bilan yetarlicha ta’minlanmaganlik ishlab chiqarishning rejalashtirilgan hajmi bajarilmasligiga, dala ishlarini o‘tkazishning optimal agrotexnik muddatlariga amal qilmaslik oxir-oqibatda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Mehnat resurslari bilan keragidan ortiq ta’minlanganlik esa ishchi kuchidan to‘liq foydalanmaslik va mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi va ASM larning boshqa tarmoqlari mehnat resurslari bilan, mehnat bilan ta’minlanganlik va ta’minlanmaganlik koeffitsiyentini izohlaydi. Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasini mavjud talablarga yoki yer maydoni birligiga zarur ishchi sonini taqqoslash bilan aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligining mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi ($M_т$)100 ga yoki 1 ga yer maydoniga to‘g‘ri keladigan ishchilar soni bilan izohlanadi.

$$M_t = \frac{M_r}{S} * 10\text{0}$$

Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti- mavjud mehnat resurslarining (MR_m) ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun ularning talab qilinadigan soniga nisbati bilan aniqlanadi (MR_t):

$$M_{tk} = \frac{MR_m}{MR_t}.$$

Qishloq xo‘jalik korxonalarining mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi haqida qishloq xo‘jaligi ekini maydonining bir ishchiga (Is) to‘g‘ri keladigan hisobida ham aniqlash mumkin:

$$M_t = \frac{E_m}{I_s}.$$

Biroq, 100 ga qishloq xo‘jalik ekiniga ishchilar soni yoki bir ishchiga qishloq xo‘jalik ekini maydonining hisob-kitobi mehnat resurslari bilan ta’minlanganlikni yetarlicha aniq ravishda xarakterlay olmaydi. Chunki, bunda qishloq xo‘jalik korxonasining intensivlashtirish va ixtisosligi darajasi bo‘yicha farqi hisobga olinmaydi. Xo‘jalikning mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik

koeffitsiyenti yaxshiroq aniqlanadi. Qishloq xo‘jalik korxonalarini ishchi kuchi bilan ta’minlash muammosini hal etishda mehnat bozori muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat bozori – bu qishloq xo‘jalik tarmoqlarida band bo‘lgan ishchi kuchlari harakatining ijtimoiy-iqtisodiy shaklidir. Mehnat bozori tovar ishlab chiqarish va muomala qonuniyatlari bo‘yicha ishchi kuchini qayta tashkil etish uchun zarur bo‘lgan hayotiy farovonligi uchun mehnatga individual xususiyatlarni almashlash bo‘yicha munosabatlar tizimini o‘zida aks ettiradi. Bunda o‘ziga xos tovar sifatida ishchi kuchi chiqadi.

Har qanday tovar bozori singari mehnat bozori ham talab va takliflarga asoslangan. Bu holatda talab ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj shaklida, taklif esa bozorda mos ravishda mavjud bo‘ladigan ishchi kuchiga nisbatan bo‘ladi. Talab va taklif ishchilar tomonidan u yoki bu ishchi o‘rnini egallash, yoki u yoki bu ish joyini egallash maqsadida ishchilar orasidagi raqobatli kurash davomida, yoki zarur ishchilarni jalb etish uchun ish beruvchilar orasida amalga oshiriladi.

Mehnat bozori uchun quyidagi xususiyatlar xarakterli:

Birinchidan, agar ishchi kuchi mehnat jarayonida qiymat barpo etsa, resurslarning boshqa hamma turlari mehnatning o‘zi bilan yangi qiymatga o‘tadi xolos.

Ikkinchidan, ish kuchi taklifi demografik omillar bilan - tug‘ilish darajasi mehnatga layoqatli aholi sonining o‘sishi sur’ati uning jinsga doir yosh tuzilishi bilan belgilanadi.

Uchinchidan,I shchi kuchi dinamikasiga migratsiya jarayoni ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, ishchi kuchiga bo‘lgan talabga ilmiy-texnik taraqqiyot ham ta’sir etadi.

Agrar mehnat bozorining shakllanish jarayonida bandlik muammosi keskinlashadi. Qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar asosida yangi muammolar ham kelib chiqadi, yashirin ishsizlik ortadi, qishloq xo‘jaligining yuqori malakali ishchi va mutaxassislari soni kamayadi, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi soni qisqaradi, ishchilarning o‘rtacha yoshi ortadi. Ammo, qishloqdan aholining migratsiyasi kamayadi. Mehnatga qobiliyatli aholining qishloqdan shaharga oqib borishining kamayishi qishloqda vaziyatning yaxshilangani oqibati emas, balki shaharda ishchi kuchiga talabning qisqargani bilan bog‘liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, agrar mehnat bozori mehnat resurslaridan foydalanishni sezilarli yaxshilashga, ularga qishloq xo‘jaligidagi talabning keskin qisqartirishga qodir. Shu bilan birga bozor munosabatlari eng og‘iri ishsizlik bo‘lgan qator ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

G‘arbda ishsizlik ko‘lamining o‘sishi uchun normal asos-bozorning kelgusida kengayishi oziq-ovqat tovarlarini qayta ishlab chiqarishni, demak ishlab chiqarish samaradorligining pasayishini bildirsa, bozorning tugagani bo‘ladi.

Turkiyada jami aholi soni 56-57 mln kishini tashkil etadi. Iqlimi Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlimiga to‘g‘ri keladi, 72% hududi tog‘lardan iborat. Qishloqda 45-50% aholi yashaydi, shundan 50-55% aholi qishloq xo‘jaligida ishlaydi va oxirgi yillarda yalpi mahsulotda qishloq xo‘jalik ulushi 15%, sanoatda 28% va xizmatlar 57% ni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligining 57% i o‘simlikchilik, 37,2% chorvachilik va 5,8% i o‘rmon xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari – g‘alla, arpa, makkajo‘xori, qand lavlagi, piyoz, uzum, pista, apelsin, mandarin, go‘sht, sut va tuxumdan iborat. Turkiyada sitrus ekinlari yuqori darajada rivojlangan.

Mehnat bozorining shakllanishiga qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatining mavsumiyligi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jalik ekinlarining mexanizatsiyalashtirilishi darajasi past holda yetishtiriladigan xo‘jaliklarda mehnat resurslariga talab yuqori.

Ta’kidlash kerakki, qishloq joylarida ishchilarning ishdan bo‘sh qolishi sur’atining o‘sishi shaharga nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Ishsizlar sonini oshiruvchi rezervlar band bo‘lmagan aholi (uy bekalari va boshqalar) hisoblanadi. Qishloq joylarida ularning ulushiga 12 % mehnatga qobiliyatli aholi to‘g‘ri keladi. Qishloq aholisining ishsizlik darajasi 2000 yildan 2015 yilgacha 6,2 dan 3,1% ga qisqardi.

Agrosanoat majmualarida mehnat bozorlarini barqarorlashtirish, individual mehnat faoliyatining rivojlanishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning yangi shakllarini tashkil etilishi bilan qo‘shimcha ishchi o‘rinlari yaratish imkoni tug‘iladi. Buning uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ishsizlarning demografik tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ulardan 2/3 qismi ayollardan, 45 % dan ko‘prog‘i 16-29 yoshdagi yoshlardan iborat. Qishloqlardagi ishsizlar orasida ayollarning ham bo‘lishi, birinchi navbatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishi qishloq xo‘jalik korxonalaridagi mutaxassislar va xizmat qiluvchilar sonining kamayishi, shuningdek, qishloq ijtimoiy-madaniy sohasining vayron bo‘lishi bilan bog‘liq.

Mehnat bozoridagi siyosatga ishini yo‘qotgan, lekin samarali mehnat qilishni hohlovchi va faoliyatning yangi turini faol qidirayotgan qishloqning mehnatga qobiliyatli aholisini qo‘llab-quvvatlashning davlat chora-tadbirlarini ham qo‘shish kerak.

9.3. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi, birinchi navbatda mehnat unumdorligi bilan izohlanadi.

Mehnat unumdorligi – aniq mehnatning ish vaqti birligida malum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish xususiyati. Mehnat unumdorligi – ish vaqti

birligida yoki ma’lum davrda (soat, smena, oy, yil) ishlab chiqilgan mahsulot hajmidir.

Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi tizimli ko‘rsatgichlar bilan izohlanadi. Asosiy ko‘rsatkichlar – mahsulot ishlab chiqarish va uning mehnat sig‘imi (sermashaqqatliligi)dir. Mehnat unumdorligi mahsulot hajmi natural va qiymat ifodasida o‘lchanishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi (M_u) quydagi formula bilan hisoblanadi. Soatli mehnat unumdorligi vaqtning ishchi birligi hisobidagi natural yoki pul ifodasidagi yalpi mahsulot hajmi, kishi/soat, kishi/kun, (T):

$$M_u = \frac{YaM}{T}.$$

Mehnat unumdorligi – bitta o‘rtacha yillik ishchiga () hisobidagi pul ko‘rinishidagi yalpi mahsulot hajmi, so‘m:

$$M_u = \frac{YaM}{T_u}.$$

Mehnat unumdorligini aniqlashda, ko‘pincha ishlab chiqarishga aks bo‘lgan ko‘rsatkich – mehnat sig‘imi (sermehnatlilik) olinadi. Mehnat sig‘imi – mahsulot birligiga kishi/soat, ish vaqtining sarfi kishi/soat, s yoki tonna kishi/soat:

$$M_s = \frac{T_u}{YaM}.$$

Mehnat unumdorligining bilvosita ko‘rsatkichlari ma’lum ish hajmini bajarishga qilingan mehnat sarfini izohlaydi. Ularga: 1 ga yerga ekin, paxta, g‘alla, bog‘ va sabzavot ekinlar ekishga, hayvon turlariga qarab, bosh soniga, har bir ishchiga ekin ekishga sarflangan vaqt; vaqt birligida bajarilgan ish hajmi; alohida operatsiyalarni bajarishga sarflangan mehnat (yer haydash, kultivatsiya, ekish va boshqalar) bilvosita ko‘rsatkichlar mahsulot ishlab chiqarishning oraliq davrlariga hisoblanadi va yil davomida mehnat sarfining o‘zgarishini tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etish va shu yo‘l bilan mehnatnig yakuniy natijalariga faol ta’sir o‘tkazishga imkon beradi.

Mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat jonli inson mehnati, shuningdek, avvalgi ishlab chiqarish vositalariga sarflangan mashinalar, ekish materiallariga, yoqilg‘iga, urug‘likka, yem-xashakka va boshqalar ham kiradi. Ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish shunda ko‘rinadiki, jonli mehnat ulushi qisqaradi. Moddiy ishlab chiqarish o‘sadi. Shu tariqa mahsulot birligidagi mehnatning umumiy hajmi kamayadi.

Jonli mehnat sarfi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvositaga bo‘linadi. **Mehnatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarfi** – bu ishchilarning (mexanizatorlar, chorvadorlar va boshqalar) ma’lum turdagi mahsulot ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq mehnati. Ular turlicha mos keluvchi tarmoq mahsulotiga tegishli bo‘ladi. **Mehnatning bilvosita sarflari –** tarmoqlarga xizmat ko‘rsatish va xo‘jalikni boshqarish bilan butunlay band bo‘lgan ishchilarning (agronomlar, zootexniklar, muhandis-texnik xodimlar va boshqalar) mehnati. Bilvosita xarajatlarni mahsulot turlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish haqi summasiga proporsional tarzda taqsimlanadi.

Mehnat sarfi ish vaqti bilan ifodalanib, kishi/soat va kishi/kun bilan hisobga olinadi.

Faqat jonli mehnatning unumdorlik darajasini hisobga olish qabul qilingan. Bevosita ish vaqtidagi moddiylik mehnat sarfi hisobga olinmaydi, ularning hisobi mahsulot tannarxi hisoblanayotganda pul ifodasida bajariladi. Iqtisodchi olimlar tomonidan qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarishga jami mehnat sarfini hisobga olish (jonli va moddiy) metodi taklif etilgan. Metodning mohiyati shundaki, ishlab chiqarish vositalariga aylantirilgan (mashinalarga, uskunalarga, qurilishlarga va boshqalar) va pul sifatida ifodalanuvchi avvalgi mehnatni qishloq xo‘jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarda ishchilarga o‘rtacha ish haqiga taqqoslash bo‘yicha ish vaqtiga aylantiriladi (kishi/soat, kishi/kun).

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishga jami mehnat sarfini hisoblab chiqish davomida moddiylashgan mehnatga– 60,9 % va qolgan qismi jonli mehnatga tegishlidir.

Jonli mehnat ulushiga 39,1 % to‘g‘ri keladi, shu jumladan, undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat sarfi 24,3 % dan iborat.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun boshqa ko‘rsatkichlarni ham qo‘llash mumkin: kunning ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti, bir ishchi tomonidan yil davomida ishlangan kishi/soat soni, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi.

Kunning ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti (F_k) ish kunining o‘rtacha haqiqiy davomiyligi I_h ning xo‘jalikda o‘rnatilgan normativ ish miqdorining (I_m) nisbati sifatida aniqlanadi.

$$F_k = \frac{I_h}{I_m}.$$

Har bir ishchining qishloq xo‘jaligida ishlagan kishi/kuni soni quyidagiga teng:

$$M_{rd} = \frac{I_{ik}}{M_r}$$

bunda

I_{ik} – hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi/kun.

Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi – yil davomida ishchining haqiqiy ishlagan kishi/kunlarni sonining (M_d) mavjud ish vaqtining fondiga nisbati:

$$M_{rf} = \frac{M_d}{I_n}$$

bunda

I_n-ish vaqtining mavjud tutilgan fondi (290-320 kun).

Agrar islohotlar o‘tkazish davrida qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi oshdi. Qishloq xo‘jaligining bir ishchiga yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi deyarli 25 % ga ko‘paydi. Shunday bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagidan deyarli 2-3 marta kam.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ayrim turlari ayniqsa, jun, chorva mollari tirik vaznning o‘sishi, sut, paxta va g‘alla yetishtirishda mehnat sig‘imi sezilarli o‘sdi. Bu mahsulotlar birligiga qilingan mehnat sarfi deyarli 2 martaga ko‘paydi. Mehnat sig‘imining sezilarli o‘sishiga, asosan chorva mollari mahsuldorligining va ekinlar hosildorligining past bo‘lishi sabab bo‘ladi.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tasniflovchi asosiy iqtisodiy kategoriyalar mehnat unumdorligidir. U ishlab chiqarish hajmi va mehnat sarflari orasidagi aloqani ifodalaydi. Mehnat unumdorligi deganda, aniq jonli mehnatning birlik sifatida olingan vaqtning qandaydir davrida (soat, ish kuni, smena, yil) mahsulotning ma’lum sonini ishlab chiqarishni tushuniladi.

Ishlab chiqarish jarayonida hal qiluvchi rol jonli mehnatga taalluqli. Moddiylashgan mehnat sanoat ishchilarining mashinalarda, uskunalarda, mineral o‘g‘itlar va boshqalardagi mehnatini va qishloq xo‘jaligi ishchilarining urug‘larga, yem-xashak va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga aylangan mehnatlarini qamrab oladi.

Jonli va moddiylashgan mehnat orasidagi taqqoslash texnik qurollanish ortgani sayin o‘zgarib boradi. Dehqonchilik mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida moddiylashgan mehnat ulushiga 67% to‘g‘ri keladi, jonli mehnat esa 33%ni egallaydi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni joriy etish bilan moddiylashgan va jonli mehnat sarfi nisbati moddiylashgan mehnat sarfi ortishi va jonli mehnatning kamayishi tomon o‘zgarib boradi.

Ish vaqtida mehnatning jami sarfi hisobi mahsulot hisoblash uchun asos bo‘ladi, chunki tovarning bahosi unga sarflangan ish vaqti bilan aniqlanadi.

Mahsulotlarning alohida turlarini ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini aniqlash uchun oxirgisi natural birliklarda (kg.t) hisoblanadi. tabiiy holida summalanmaydigan turli xil mahsulotlar mehnat unumdorligini aniqlashda uni pul shaklida ifodalaydi.

Qishloq xo‘jalik tashkilotlarida mahsulot ishlab chiqilganda mehnat unumdorligi (so‘m)ni ishchilarning o‘rtacha yillik soniga joriy narxlarda yalpi mahsulot ishlab chiqarish narxiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$M_u = \frac{YaM_{jb}}{T'_o}$$

bunda:

YaM_{jb} – yalpi mahsulotning joriy bahodagi qiymati, so‘m.;

T'_o – ishchilarning o‘rtacha yillik soni, kishi.

O‘simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarida mehnat unumdorligini joriy baholardagi yalpi mahsulot qiymatini (yoki natural ifodadagi yalpi mahsulot) mehnatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarfiga nisbati sifatida hisoblash mumkin:

$$M_u = \frac{YaM_{jb}}{M_s} \text{ yoki } M_u = \frac{YaM_n}{M_s}$$

bunda:

YaM_n – natural ifodadagi yalpi mahsulot (o‘simlikchilik yoki chorvachilik), kg, s, tonna;

M_s -to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat sarfi, kishi/soat,kishi/kun.

Mehnat unumdorligi, aks ko‘rsatkichi alohida turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi mehnat sig‘imi ya’ni mehnat mahsulot birligi, kishi/soatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarfi hisoblanadi:

$$M_s = \frac{M_s}{YaM}.$$

Qayta ishlash tarmoqlarida mehnat unumdorligini baholash uchun xususiy va yordamchi ko‘rsatkichlarni umumlashtiruvchi tizimi qo‘llaniladi.

Umumlatiruvchi ko‘rsatkichlarga bir ishchining o‘rtacha yillik, o‘rtacha kunlik va o‘rtacha soatlik mahsulot ishlab chiqarishi, shuningdek qiymat ifodasida bitta ishlovchiga o‘rtacha yillik mahsulot ishlab chiqarishlari kiradi.

Xususiy ko‘rsatkichlar – ma’lum turdagi mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan vaqt (mahsulot, mehnat sig‘imi) yoki ma’lum turdagi mahsulotni 1 kishi/kuni yoki 1 kishi/soatiga natural ifodada chiqarish.

Yordamchi ko‘rsatkichlar – ma’lum ish turi birligini bajarishga vaqt sarfi yoki vaqt birligiga bajarilgan ishlar hajmi.

O‘simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarida mahsulotlarning asosiy turlaridan tashqari qo‘shimcha mahsulotlar ham ishlab chiqariladi. Masalan, don yetishtirishda dondan tashqari, don chiqindilari va somon, sut chorvachiligida buzoq nasllari yaratiladi.

Don ekinlari yetishtirishda mehnat sarfini don somon va don chiqindilari orasida taqsimlashda (buxgalteriya ma’lumotlariga ko‘ra) yetishtirilgan don mahsulotiga (t) ishlov berilgandan keyingi don chiqindilaridagi mavjud sof don foizlariga, kishi/soatini bilish kerak.

1-misol. Xo‘jalikda donli ekinlar yetishtirish uchun mehnat sarfi 37,0 ming kishi/soatini, shu jumladan somon yig‘ishga (yig‘ish va presslash) 1,5 ming kishi/soatni tashkil etdi. Xo‘jalikda ishlov berilgandan keyin 3850 t. don 1000 t. somon va 100 t. don chiqindilari tayyorlandi. Laboratoriya tahlili ma’lumotlari bo‘yicha don chiqindilarida 35% toza don mavjud. 1 t. don, 1 t. don chiqindilari va 1 t. somonga qilingan mehnat sarfini hisoblaymiz (kishi/soatda).

Hamma mehnat sarfidan somon yig‘ish uchun mehnat sarfini ajratib hisoblaymiz:

37,0 - 1,5 = 35,5 ming kishi/soat.

Shu tarzda don va don chiqindilariga qilingan mehnat sarfini olamiz. Don chiqindilaridagi toza don massasini aniqlaymiz:

(100·35:100) = 35 tonna.

Don chiqindisidagi toza donlarni haqiqiy yetishtirilgan donga qo‘shib (35 + 3850 = 3885 т.), 1 t. donga qilingan mehnat sarfini aniqlaymiz:

35,5 : 3885 = 9,1 kishi/soat

Don va don chiqindilariga tushuvchi hamma mehnat sarfini hisoblaymiz:

9,1 · 3850 = 35,03 ming kishi/soat.

Don chiqindilariga mehnat sarfi:

35,5 – 35,0 = 0,47 ming kishi/soat.

1 t. don chiqindisiga mehnat sarfi:

470:100= 4,7kishi/soat.

1 т. somonga mehnat sarfi:

1500:1000 = 1,5kishi/soat.

Don yetishtirishda soatli mehnat unumdorligi (t):

$$M_u = \frac{YaM}{M_s}$$

bunda

M_s – ekinlar yetishtirishga mehnat sarfi (somonga qilingan mehnat sarfidagi tashqari), kishi/soat.

Misolimizda

$$M_u = \frac{3885}{35500} = 0{,}11 \text{ т.}$$

Demak 1 kishi/soatida don yetishtirish 0,11 t.dan iborat.

Sut chorvachiligida mehnatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarfi sutga va buzoq olishga quyidagicha taqsimlanadi: 90 % sutga va 10% buzoqlarga.

2-misol. Sog‘in sigirlar podasi bo‘yicha mehnat sarflari 135 ming kishi/soatidan iborat bo‘ldi. Bir yilda 1380 t. sut sog‘ib olingan 422 ta tirik buzoq olingan. Sut va buzoq olishga sarflangan mehnat sarfini aniqlaymiz:

$$\text{сутга: } \frac{135000 \times 90}{100} = 121500 \text{ kishi/soat.}$$

Buzoq olishga: 135000 – 121500 = 13500 kishi/soat;

$$1 \text{ t. sutga : } \frac{121500}{1380} = 88 \text{ kishi/soat;}$$

$$1 \text{ bosh buzoqqa: } \frac{135000}{422} = 32 \text{ kishi /soat.}$$

9.4. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to‘liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo‘jaligining rivojlanishini e’tiborga olgan holda qo‘shimcha ish joylarini tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta’minotini yuksaltirish;
- qishloq xo‘jaligida yangi texnikalarni, samarali, innovatsion texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;
- qishloqda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;
- qishloqda ishlash va yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni takomillashtirish va hokazo.

Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish omillariga quyidagilar kiradi:

- tabiiy-iqlim sharoiti;
- yer maydonlariga ekinlarni oqilona joylashtirish, lalmi va sug‘oriladigan yerdan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishni jadallashtirish;

- moddiy-texnik resurslar sifatini oshirish;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash;
- kadrlar malakasini oshirish;
- mehnatni tashkil etish va moddiy rag‘batlantirishni takomillashtirish.

Qishloq xo‘jaligida mehnatning intensivligini oshirish masalasi o‘ta muhim bo‘lib, u ushbu tarmoqning o‘ziga xosligi bilan asoslanadi:

Birinchidan, qishloq xo‘jaligi uchun mavsumiylik va iqlim sharoitiga bog‘liqlik xarakterli, fasllarda mehnatning intensivligi bir xil emas. Ish davri yil bo‘yi davom etadi, ish vaqtidan intensiv va ekstensiv foydalanish shartli o‘zaro almashib turuvchi. Jadal mehnat davri past intensivlik bilan almashinib, ba’zan uni to‘ldirib turadi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi hozirgi paytda iqtisodiyotning xo‘jalik yuritish shakllari bo‘lgan eng ko‘p ukladli sektor. Bu mehnatni intensivlashtirish muammosi har yerda, har xil hal qilinadi, demak: ayrim holatlarda rag‘bat sifatida o‘ziga-o‘zi mehnat qilinadi (fermerlik, o‘z hududida; bu yerlarda mulk egasi ko‘pincha tekinga ishlaydi) boshqa joylarda – yuqoriroq ish haqi.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligini texnika bilan ta’minlash bo‘yicha Rossiya jahonning rivojlangan mamlakatlaridan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Masalan, 1000 ga haydaladigan yer 10 dona traktor bilan ta’minlangan, shu vaqtning o‘zida AQSH da, bu ko‘rsatkich 36 donaga yetadi. Qishloq xo‘jaligining texnika bilan past ta’minlanganligi sabab o‘simlikchilikda 250 dan ortiq texnologik operatsiyalar qo‘lda bajariladi. Shu bilan birga mehnat sarfi amerikalik fermerlarnikiga nisbatan 4 marta yuqori.

AQSH qishloq xo‘jaligida qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘sishi asosan, moddiy-texnik bazani o‘stirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish, qishloq xo‘jalik mehnatini intensivlashtirish hisobiga yuz beradi. Ana shu asosda keyingi 20 yilda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining alohida tarmoqlarida mehnat sarfi 2-3 martaga qisqardi.

Asosiy tushunchalar

Mehnat - bu insonni maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, uning jarayonida moddiy va ma’naviy qiymatliklar yaratiladi.

Mehnat resurslari - mamlakat aholisining bir qismi bo‘lib, u iqtisodiyot tarmoqlarida ishlash uchun jismoniy imkoniyatlar, bilim va amaliy tajriba yig‘indisiga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi) - moddiy qiymatliklar ishlab chiqish va xizmat ko‘rsatishda ishtirok etishga imkoniyatli shaxslarning yig‘indisi.

Band aholi - ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgan shaxsdir. Bandlarga yollanib ishlaydiganlar tadbirkorlar, erkin kasb egasi bo‘lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar kiritiladi.

Aholining bandligi - odamlarning o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan va ularga mehnat daromadlari keltiruvchi, shuningdek, haq to‘laydigan ishlarni bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan (bola tarbiyasi, uy xo‘jaligini yuritish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qish, ijtimoiy faollik) faoliyatlaridir.

Iqtisodiy faoliyat bilan bandlar - tovar ishlab chiqarish va turli xil xizmatlar ko‘rsatishda qatnashib, shunga bog‘liq holda o‘z daromadlari borasida boshqa odamlar guruhi - shaxslar yoki jamiyat bilan munosabatga kirishuvchi shaxslar.

Ishsizlar - O‘zbekiston Respublikasi aholining bandligi haqidagi qonunchiligiga ko‘ra, rasmiy ravishda mehnat qilish xususiyatiga ega, lekin ishi va ish haqi (mehnat daromadi) yo‘q, davlat bandlik xizmatidan ish qidirayotgan ish qobiliyatiga ega va ishlashga tayyor shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolar tan olinadi. Ishsizlarga biror sabab bilan ishdan bo‘shatilganlargina emas, o‘z ixtiyori bilan ishdan bo‘shab, yangi ish topishga urinayotgan shaxslar ham kiradi.

Ishsizlikning davomiyligi – ishdagi o‘rtacha uzilish (tanaffus) vaqti ish joyini yo‘qotish va yangi ish joyiga joylashish orasidagi vaqt bilan aniqlanadi.

Mehnat resurslari tuzilmasi – bu turli toifadagi ishchilarning ularning umumiy miqdoriga foizli nisbatidir.

Mehnat resurslarini qayta taqsimlash shakli – ishchi kuchi migratsiyasi, ya’ni mehnatga qobiliyatli aholining yashash joyini o‘zgartirishi va ko‘chirish. Bunda mamlakat chegarasidan o‘tib ketilishi yoki o‘tmasligiga qarab, ichki va tashqi migratsiyani farqlaydilar.

Mehnatning mavsumiylik asosiy ko‘rsatkichlari - mavsumiylik faoliyat davri ko‘lami, mehnat resurslaridan foydalanishning mavsumiylik koeffitsiyenti, mehnat mavsumiyligining yillik koeffitsiyenti.

Qishloq xo‘jaligining mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi - 100 ga yoki 1 ga yer maydoniga to‘g‘ri keladigan ishchilar soni bilan izohlanadi.

Mehnat bozori – bu qishloq xo‘jalik tarmoqlarida band bo‘lgan ishchi kuchlari harakatining ijtimoiy-iqtisodiy shaklidir. Mehnat bozori tovar ishlab chiqarish va muomala qonuniyatlari bo‘yicha ishchi kuchini qayta tashkil etish uchun zarur bo‘lgan hayotiy farovonligi uchun mehnatga individual xususiyatlarni almashlash bo‘yicha munosabatlar tizimini o‘zida aks ettiradi.

Mehnat unumdorligi – aniq mehnatning ish vaqti birligida ma’lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish xususiyati. Mehnat unumdorligi – ish vaqti birligida yoki ma’lum davrda (soat, smena, oy, yil) ishlab chiqilgan mahsulot hajmidir.

Jonli mehnat sarfi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvositaga bo‘linadi. *Mehnatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarfi* – bu ishchilarning (mexanizatorlar, chorvadorlar va boshqalar) ma’lum turdagi mahsulot ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq mehnati. *Mehnatning bilvosita sarflari* – tarmoqlarga xizmat ko‘rsatish va xo‘jalikni boshqarish bilan butunlay band bo‘lgan ishchilar mehnati.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydlanish samaradorligini baholash uchun boshqa ko‘rsatkichlarni ham qo‘llash mumkin: kunning ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti, bir ishchi tomonidan yil davomida ishlangan kishi/soat soni, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mehnat va mehnat resurslari haqida tushuncha bering.
2. Qishloq xo‘jaligida aholi bandligi va ularning ko‘rsatkichlarini izohlang.
3. Mehnat resurslarining huquqiy asoslarini aytib bering.
4. Qishloqda ishsizlar, ishsizlik darajasi haqida tushuncha bering.
5. Mehnat bozori nima?
6. Mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar qanday aniqlanadi?
7. Mehnat resurslariga bo‘lgan talab va mehnat balansi nima?
8. Mehnat unumdorligi haqida tushuncha bering.
9. Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va unga ta’sir etuvchi asosiy omillarni bayon eting.
10. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishning qanday yo‘llari bor?

X-BOB. INVESTITSIYALAR (KAPITAL QO‘YILMALAR) MANBALARI, ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

O‘quv maqsadi: Investitsiya haqida tushuncha, uning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, investitsiyalarning huquqiy asoslari, investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)dan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *investitsiya, kapital qo‘yilma, ichki va tashqi investitsiya, irrigatsiya va melioratsiya, yangi texnika, innovatsion texnologiya.*

10.1. Investitsiya haqida tushuncha, uning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati

Qishloq xo‘jaligining samarali va barqaror rivojlanishining zarur sharti ularni yetarlicha investitsiyalashdir. Agrar siyosatning muhim vazifasi esa qishloq xo‘jaliklarini investitsiyalash darajasini oshirish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat.

Investitsiya – daromad (foyda) olish maqsadida pul mablag‘lari (kapital)ni iqtisodiyot tarmoqlariga uzoq muddatga qo‘yishdir. Ular o‘zlarida asosiy vositalarni yaratish, kengaytirish, rekonstruksiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlashni, shuningdek, bular bilan bog‘liq aylanma fondlar o‘zgarishini aks ettiradi. Bundan tashqari, investitsiyalar – bu qimmatli qog‘ozlarga patentli intellektual huquqlarga ega bo‘lish va boshqalar. Investitsiyalar daromad (foyda) shakllantiruvchi yoki ma’lum ijtimoiy samaraga erishuvchi tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo‘yiladi.

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriyalar uchun quyidagi xarakterli tuzilishlarga ega: u qishloq xo‘jaligida va tarmoqlarning iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi; resurslarni sarflash va samara olishni ko‘zda tutadi; investitsiya qo‘yilmalaridan kelishi mumkin bo‘lgan samara ehtimoli, tavakkalchilik xarakteriga ega; resurslarni sarflash va samara olish orasida ma’lum (qoidaga ko‘ra, uzoq muddatli) vaqtinchalik (o‘lchov birligi) mavjud bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida investitsion faoliyat o‘zida yuridik shaxs, dehqon va fermer, fuqaro va davlatning investitsiyalarni realizatsiya qilish bo‘yicha amaliy harakatlari yig‘indisini ifodalaydi. Investitsion faoliyat obyektlari 10.1.1-rasmda aks ettirilgan.

Qishloq xo‘jaligida investitsiyalar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, moliyaviy va real investitsiyalarga farqlanadi.

Moliyaviy investitsiyalar – bu aksiyalar, obligatsiyalar, boshqa qimmatli qog‘ozlar sotib olish, pullarni foiz hisobiga banklardagi depozit hisob raqamlariga qo‘yish.



10.1.1-rasm. **Qishloq ho‘jaligida investitsion faoliyat obyektlari**[47]

Real investitsiyalar – pul mablag‘larini kapital qurilishlar, ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish uchun qo‘yishdir. Real investitsiyalar – bu qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga kapital qo‘yish.

Qishloq xo‘jaligining kapital qo‘yilmalari investitsiyaning asosiy turi bo‘lib, o‘zida harakatdagi asosiy vositalarni yaratish, kengaytirish, rekonstruksiyalash va modernizatsiyalashga qilingan xarajatlardir. Kapital qo‘yilmalar obyektlarni ekspluatatsiyaga berilgunga qadar bo‘lgan davrdagi qurilishlarni amalga oshirishga qilingan xarajatlar hisoblanadi.

Foydalanish yo‘nalishlariga qarab, kapital qo‘yilmalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo‘linadi. *Ishlab chiqarish kapital qo‘yilmalari* mahsulot

[47] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.

ishlab chiqarishni rivojlantirishga, *noishlab chiqarish kapital qo‘yilmalari* esa ijtimoiy muhitni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Qishloq xo‘jaligida kapital qo‘yilmalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga mo‘ljallangan obyektlar qurilishi;
- texnika (qishloq xo‘jaligi mashinalari, traktorlari) uskunalar va transport vositalarini sotib olish;
- ko‘p yillik ko‘chatlar ekish, ularni ekspluatatsiya yoshigacha (hosilga kirguncha) o‘stirish;
- mahsuldor va ishchi chorva hayvonlarining asosiy podasini shakllantirish;
- yerni yaxshilash (inshootlarsiz).

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish shakli bo‘yicha kapital qo‘yilmalar quyidagicha farqlanadi:

- yangi qurilishlarga;
- harakat (amal)dagi obyektlarni rekonstruksiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlash;
- harakatdagi obyektlarni kengaytirish;
- uskunalarni modernizatsiyalash;

Kapital qo‘yilmalardan foydalanish samaradorligi salmoqli darajada ularning strukturalariga bog‘liq. Kapital qo‘yilmalarining texnologik takror ishlab chiqarish tarmoqqa oid va hududiy strukturalari farqlanadi.

Texnologik struktura deganda, umumiy smeta qiymatidagi alohida xarajatlar ulushi (qurilish – montaj ishlari, mashina va uskunalar sotib olish, loyiha – sinov ishlar va boshqa) tushuniladi. Mohiyatan texnologik struktura asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismi orasidagi nisbati bilan shakllantiradi.

Takror ishlab chiqarish kapital qo‘yilmalarining ulardan foydalanish bo‘yicha turlicha yo‘nalishlar bo‘yicha ulushlarini ko‘rsatadi (yangi qurilish, ishlab chiqarishni rekonstruksiyalash va texnik qayta jihozlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish). Rekonstruksiya va texnik qayta jihozlash yangi qurilishga nisbatan ancha foydaliroq, chunki ishlab chiqarishga quvvatlarning kiritish muddati qisqaradi va taqqoslama kapital qo‘yilmalar sezilarli qisqaradi.

Tarmoq strukturalari deyilganda, kapital qo‘yilmalarining ASM ning turli tarmoqlari va xalq xo‘jaligiga butunicha nisbati tushuniladi. Yuzaga kelgan sharoitlarda kapital qo‘yilmalarning qoplanish muddatlari eng kam va mahsulot ishlab chiqarishni tez o‘stirish imkoniyatiga ega (parrandachilik, sabzavotchilik, issiqxona, qoramolchilik, qorako‘lchilik, cho‘chqachilik va boshqalar) tarmoqlarga qo‘yish afzal ko‘rilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida investitsiya faolligiga ta’sir etuvchi omillarni ikki guruhga ichki va tashqi omillarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq, (10.1.2 – rasm.). Shuningdek, investitsiya faolligini ta’minlovchi omillarni tovar ishlab chiqaruvchilarga bog‘liq bo‘lgan va ularga bog‘liq bo‘lmagan omillar sifatida o‘rganish ham ahamiyatlidir. Xususan, rossiyalik olimlar fikriga ko‘ra, birinchi

omillar guruhiga ishlab chiqarishni konsentratsiyalash va ixtisoslashtirish, asosiy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyalari, tovar ishlab chiqaruvchilarga bog‘liq bo‘lmagan omillarga qishloq xo‘jalik mahsulotlarning mavsumiylik hususiyati, inflyatsiya darajasi, kreditlarga qo‘yilgan foizlar, qishloq xo‘jalik va sanoat mahsulotlarning narxlar kiradi[48].



10.1.2-rasm. **Qishloq xo‘jaligida investitsiya faolligini oshirish omillari**

[48]Экономика сельского хозяйства: Учебник для студентов вузов /Н.Я.Коваленко, Ю.И. Агирбов, Н.А.Серова и др. М.: ЮРКНИГА, 2004. 212.

10.1.1-jadval

Respublika qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar dinamikasi[49] (2010-2016yillar) (foizda)

	2010 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Qishloq xo‘jaligi asosiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mln so‘m	530021,3	1087399,7	1333515,4	1445378,5	1375484,4	1646442,6
Qishloq xo‘jaligi asosiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi jamiga nisbatan foizda, %	3,5	4,8	4,6	4,1	3,3	3,3
Qishloq xo‘jaligi asosiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi, mln so‘m	37677,8	133406,3	167781,2	157491,8	64832,7	171764,9
Qishloq xo‘jaligi asosiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi ulushi jamiga nisbatan foizda, %	0,9	2,9	3	2,2	0,8	1,6
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish, mln so‘m	525456,3	1077600,8	1321430	1429799,8	1361611,5	1605746,1

Qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligini oshirish, asosiy ishlab chiqarish vositalarini tiklash va sotib olish, yangi texnologiyani joriy etish, qishloqning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilash oxir-oqibat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun investitsion resurslarning jiddiy oshishini ta’minlanmoqda.

Qishloq xo‘jaligida investitsiya jalb qilishni to‘xtatib turgan omillar quyidagilar: *birinchidan,* investorlar ajratgan mablag‘lari qaytishi bo‘yicha yetarli kafolatga ega emaslar; *ikkinchidan,* qoidaga ko‘ra, investitsion

[49] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

loyihalarni realizatsiya qilish uchun kerak bo‘ladigan investitsiya hajmi, loyihani ta’minlash uchun tashabbuskor tomonidan taqdim etiladigan garov hajmidan sezilarli ortadi; *uchinchidan,* garov sifatida taqdim etiladigan mulkning likvidligi o‘ta past; *to‘rtinchidan,* rivojlangan sug‘urta bozori yo‘q sharoitda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish riski (tavakkali) yuqori; *beshinchidan,* amalda zamonaviy va samarali moliyaviy menejmentning yo‘qligi investitsion loyihalar realizatsiyasi monitoringini qiyinlashtiradi.

10.2. Qishloq xo‘jaligida sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)ning manbalari, sarflanish yo‘nalishlari

Davlat investitsion siyosatining asosiy tamoyillari zamonaviy bosqichda mavjud foiz stavkalarining pasayishi iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarning mos keluvchi samaradorligi darajasigacha pasayishi kerak: mavjud soliq tizimini soddalashtirishdek, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish; tashqi va ichki investorlarning bevosita investitsiyalarini rag‘batlantirish maqsadida investitsion risklarni pasaytirish uchun tashkiliy-huquqiy nuqtai nazarlarni shakllantirish; byudjet investitsion resurslarini tanlov asosida joylashtirishdan foydalanish samaradorligini oshirish.

Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarning jozibadorligini belgilovchi omillar juda katta ahamiyatga ega. Bular jumlasiga qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanish sur’atlari va istiqbollari, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining o‘rtacha rentabellik darajasi, tarmoqqa xos bo‘lgan investitsiya tavakkalchiligi xatarlari va qonunchilikda belgilangan investitsiya imtiyozlari va kafolatlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat ehtiyojlari uchun paxta va g‘alla yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklariga ajratilgan imtiyozli kreditlar 2013 yilda 1683,7 mln so‘mga yetkazildi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda mamlakatimiz yerlarining qariyb 49% i turli darajada sho‘rlangan bo‘lib, shundan 18% i kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan va 23% yerlar boniteti past yerlar hisoblanadi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligiga investitsiya mablag‘lari yo‘naltirilmoqda.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan kapital qo‘yilmalari manbalari va usullari ham o‘zgaradi. Hozirgi zamon bosqichida investitsiyalar quyidagicha moliyalashtiriladi:

- xususiy moliyaviy resurslar va investorlarning xo‘jalik ichidagi rezervlari (daromad va amortizatsiya ajratmalari, fuqarolar va yuridik shaxslarning jamg‘armalari va omonatlari, sug‘urta idoralari tomonidan tabiiy ofatlar, avariyalar va boshqalardagi yo‘qotishlarni qoplash ko‘rinishidagi to‘lov mablag‘lari va boshqa);
- investorlarning qarz ko‘rinishidagi moliyaviy mablag‘lari (bank va byudjet kreditlari, obligatsiya zayomlari);
- jalb qilingan moliyaviy mablag‘lar (mehnat jamoalari a’zolari, fuqarolar, yuridik shaxslarning aksiya sotishdan olgan mablag‘lari, pay va boshqa to‘lovlari;

- davlat, mahalliy byudjetlari va byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligiga kapital qo‘yishning asosiy manbasi – xususiy mablag‘, daromad va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi. Qoidaga ko‘ra, amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarning takror ishlab chiqarishini, daromad esa kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini ta’minlaydi.

Qishloq xo‘jaligida 2015 yilda 81,94 mln AQSH dollari miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki 5,4% jami investitsiyalar ulushini tashkil qiladi (10.2.1-jadval).

10.2.1-jadval

Investitsiyalarni qishloq xo‘jaligining asosiy kapitaliga moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlash[50], %

№	Investitsiya manbalari	2000 y	2012 y	2013 y	2014 y	2015 y
1	Xususiy mablag‘lar	77,8	74,2	74,9	75,0	74,2
2	Qarz va jalb qilingan mablag‘lar	22,2	25,8	25,1	24,9	25,8
3	Shu jumladan, byudjetdan	16,8	4,2	5,0	5,3	5,4
	Shundan:					
4	Davlat byudjetidan	10,0	2,5	3,0	3,0	2,9
5	Mahalliy byudjetdan	6,5	1,7	2,0	2,3	2,5

Investitsiyalarni moliyalashtirishda xususiy mablag‘lar ulushi o‘zini-o‘zi moliyalashtirish koeffitsiyentini ko‘rsatib, quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi.

$$I_m = \frac{K_{xm}}{I} * 100 .$$

bunda

K_{xm} - korxonaning xususiy mablag‘i;

I -investitsiyaning umumiy summasi.

Agar investitsiyaning xususiy manbalari ulushi moliyalashtirishning umumiy hajmidan 60 % va undan ortiq bo‘lsa, o‘zini-o‘zi moliyalashtirish darajasi yuqori hisoblanadi.

Moliyalashtirish usuli bo‘yicha investitsiyaning hamma manbalarini markazlashtirilmaganga bo‘lish mumkin. *Markazlashtirilgan usulda kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbalari* - davlat byudjeti va mahalliy byudjetdan tashqari investitsion fondlar; markazlashtirilganda – asosan

[50]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

korxonalar manbalari. Bugun markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari o‘rtasidagi nisbat o‘zgardi: birinchisining ulushi keskin kamaydi, ikkinchisiniki ortdi. Bu bozor iqtisodiyoti uchun xosdir.

Davlat kredit, pul va moliya siyosati vositasida korxonalarning investitsion faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Uning faollashuvi davlat markazlashtirilgan investitsiyalari, bank kreditlari va boshqa jalb etilgan mablag‘lar hisobiga hamda soliq to‘lovlarini pasaytirish vositasida korxonaning jamlangan fondlarini bevosita tartibga solish hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligida suv resurslarini boshqarishni yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida” gi PQ-2458-sonli qaroriga asosan Navoiy, Namangan, Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish, sug‘orish kanallarini qayta tiklash, nasos stansiyasini qurish va boshqarish uchun Fransiya, Xitoy, Osiyo taraqqiyot Banki, Islom taraqqiyot Banki va Jahon banklarining jami bo‘lib, 1438,34 mln AQSH dollarini, shundan O‘zbekiston hukumatining ulushi 53,8% ni tashkil etadi. Bu investitsiya dasturi qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirishga ko‘maklashadi.

10.2.2-jadval

Turli hududlar, mulkchilik shakllari va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha investitsiyalarning taqsimlanishi[51]

№	Ko‘rsatkichlar	2000 yil	2015 yil
	Jami investitsiyalar	100,0	100,0
1	Davlat mulkchiligi	73,9	14,0
2	Nodavlat mulkchiligi	26,1	86,0
	Jami investitsiyalar	100,0	100,0
	Shundan:		
1	Moddiy ishlab chiqarish sohasi	81,7	80,4
2	Sanoat	60,9	54,3
3	Qishloq xo‘jaligi	2,0	5,4
4	Qurilish	0	10,1
5	Transport va aloqa	1,3	13,4
6	Boshqalar	3,3	6,8
7	Noishlab chiqarish sohasi	18,3	10,0

[51] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalaga investitsiyalarning tarkibi

jamiga nisbatan foizda

	2016y.	Ma’lumot uchun		
		2005y	2010y	2015y
Asosiy kapitalga investitsiyalar	**100**	**100**	**100**	**100**
Xususiy mulki	83,4	69,1	78,2	83,7
Ommaviy (Davlat) mulki	16,6	30,9	21,8	16,3

Nodavlat mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2016 yilda 83,4 foizni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich 2010 yilga nisbatan 5,2 foiz punktga ko‘paydi. Moliyalashtirishning asosiy hajmi, ya’ni 61,4 foizni xo‘jalik yurituvchi subyektlar va xususiy mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar amalga oshirdi va mos ravishda 15,8 foiz punktga ko‘paydi.

O‘zbekiston Respublikasiga kiritilgan investitsiyalar mulkchilik sohalari bo‘yicha taqsimlanganda davlat sektoriga 14% va nodavlat sektoriga 86 % hajmida bo‘lgan. Shu jumladan, kiritilgan investitsiyalar hajmida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ulushi 5,4%ni tashkil etmoqda.

Kiritilgan investitsiyalarning manbalari bo‘yicha taqsimlanishini tahlil qilganimizda, asosan ichki investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilmoqda (10.2.3 - jadval).

10.2.3-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi

	2016y.		***ma`lumot uchun***		
	mlrd.	***jamiga nisbatan foizda***	***jamiga nisbatan foizda***		
	so‘m		***2005y***	***2010y***	***2015y***
Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami	**49770,6**	**100**	**100**	**100**	**100**
Shu jumladan mablag‘lar xisobidan moliyalashtirildi:					
respublika byudjeti	2221,2	4,5	12,3	5,6	4,5
korxona va aholi	26404,0	53,0	57,5	49,0	52,9
bank kreditlari va boshqa qarz mablag’lari	5523,9	11,1	3,8	9,7	11,8
xorijiy investitsiya va kreditlar	10611,4	21,3	21,7	28,3	19,9
Byudjetdan tashqari fondlar, tiklanish va taraqqiyot fondi, sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash fondlarini qo‘shgan holda	x	x	4,8	7,4	x
Davlat maqsadli fondlari, bolalar sportini rivojlantirish va rekonstruktsiya qilish fondini qo‘shgan holda	5010,1	10,1	x	x	10,9

2016 yilda Davlat **maqsadli dasturlarini** amalga oshirish uchun amalda 2362,6 mlrd so‘m ajratildi, ulardan 43,3 foizini Umumta’lim va tibbiyot muassasalarini kapital ta’mirlash va jihozlash, rekonstruktsiya qilish fondi hisobidan (1021,7 mlrd so‘m); mos ravishda 37,7 foiz Respublika yo‘l jamg‘armasi (891,1 mlrd so‘m), 11,7 foiz OOMning material texnik bazasini rivojlantirish fondi (276,4 mlrd so‘m), 7,3 foiz sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash fondi (173,4 mlrd so‘m) hisobidan investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Qishloq xo‘jaligida innovatsiya deyilganda jamiyatning turli yacheykalarida amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish)ni, uning moddiy-texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan maxsus innovatsion faoliyat tushuniladi.



10.2.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligining innovatsion rivojlanishi**

Qishloq xo‘jaligining investitsion-innovatsion rivojlanishi – bu keng qamrovli faol jarayon bo‘lib, moliyaviy resurslardan foydalanish, qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish, investorlarni izlash jarayoni, yangi bilim va g‘oyalar, yangi texnologiyalarni qo‘llash, joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruvning yangi shakllarini amaliyotda qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamiyatning kelajagi yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq innovatsiyalarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot bo‘lib hisoblanadi. Bunday sharoitda oddiy malakasiz va arzon ishchi kuchi barham topadi. Jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch intellektual salohiyatga ega bo‘lgan insonlar bo‘lib hisoblanadi.



10.2.2-rasm. **Qishloq xo‘jaligida innovatsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari**[52]

Insonda mujassamlashgan intellektual salohiyatning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ fan, texnika va ularning hosilasi bo‘lgan yuqori texnologiyalar, ular o‘rtasidagi integratsion jarayonlar, ularning insonlar tomonidan yaratilishi;
- ✓ ta’lim tizimi va ularda ko‘rsatiladigan zamonaviy xizmatlar;
- ✓ ilm, uning hosilasi bo‘lgan innovatsiya va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tatbig‘i;
- ✓ yuqori texnologiyaga asoslangan xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj va ularni amalga oshirish jarayonida insonning ishtiroki.

Tadqiqot davomida mamlakatimizda qishloq infratuzilmasining rivojlanganlik holati, agrar sohani rivojlantirish maqsadida hukumat tomonidan olib borilayotgan agrar siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda qishloq infratuzilmasini investitsion-innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqildi, (10.2.3 – rasm).

[52] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.



10.2.3-rasm. **Qishloq infratuzilmasini investitsion-innovatsion rivojlantirish strategiyasi**[53]

[53] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.

Agrar majmuaning zamonaviy faoliyatini sohaning innovatsion rivojlantirishda ilmiy – texnologik, boshqaruv va tashkiliy sharoitlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy mexanizmlar ta’sirida amalga oshirilishi lozim[54].

Hozirgi kunda turli mamlakatlarning hukumatlari ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish uchun katta hajmda investitsiyalarni sarflaydilar. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari ilmiy – tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga o‘rtacha YAIMga nisbatan 1,97 %, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga kiruvchi mamlakatlar – YAIMning 2,4 %.

Lider mamlakatlar bular - Finlyandiya, Isroil, Koreya mamlakatlari bo‘lib, mos ravishda innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar o‘rtacha YAIMga nisbatan 3,55 %, 4,2 % va 4,36 %ni tashkil etadi.[55]

10.3. Investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Investitsiyalarning iqtisodiy samarasini qo‘yilmalar miqdoridan olingan samarani taqqoslash bilan aniqlanadi. Tahlilning maqsadiga bog‘liq holda investitsiyalarining umumiy (mutloq) va taqqoslama iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi.

Investitsiyalarining umumiy iqtisodiy samaradorligi ularni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini aniqlashda hisoblab chiqiladi. Ularning ko‘rsatkichlari - investitsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorligi koeffitsiyenti, ularning qoplanish muddati, qurilishi va o‘zlashtirishlari.

Investitsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (I_{is}) - investitsiyalarning o‘sishini keltirib chiqaradigan Kning daromadi o‘sishiga nisbati (sof foydadan, sof daromad) bilan o‘lchanadi $\Delta F\ (SF, SD)$:

$$I_{is} = \frac{\Delta F\ (SF, SD)}{K}.$$

Investitsiyalarning qoplanish muddati (I_{qm}) - umumiy iqtisodiy koeffitsiyentning teskari koeffitsiyenti, yil:

$$I_{qm} = \frac{K}{\Delta F\ (SF, SD)}.$$

[54] Санду И.С. Проблемные вопросы инновационного развития АПК. М.: РосАКО АПК, 2005. 5-6.

[55] Аналитический отчет декабрь 2014. Ежегодный мониторинг средств, выделенных из федерального бюджета на финансирование НИОКР (в том числе по приоритетным направлениям инновационного развития России).

Zarar ko‘radigan tarmoqlar va korxonalar uchun investitsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_{is} = \frac{(S_1 - S_2) * M}{K}$$

bunda

$S_1 - S_2$ – investitsiya qo‘yilgunga qadar va qo‘yilgandan keyin mahsulot birligi tannarxi, so‘m;

M – investitsiyalardan foydalanilgandan keyin mahsulotning chiqishi, tonna,dona, kg.

Bu holatda *qoplash muddatini* quydagicha formula bilan hisoblab chiqiladi, yil:

$$K_{km} = \frac{K}{[(S]_1 - S_2) * U}$$

Iqtisodiy rejaga investitsiya qo‘yilishi shunday holatda asoslanganki, agar umumiy iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyent investitsiyaning normativ koeffitsiyentiga (0,12 ga) teng bo‘lsa yoki uning qiymatidan oshib ketsa.

Biroq investitsiya miqdori va daromadlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirish anchagina xato natijalar beradi, chunki bu qiymatlar vaqtga qarab bir necha yilga qo‘yilgan. Masalan, mevali bog‘ yaratish uchun qo‘yilgan kapitallar ko‘chatlar ekilib, parvarishlanib, keyin 5-8 yil o‘tgandagina foyda bera boshlaydi. Pul kelgusida olinadi, mevali bog‘ yaratish uchun kapital qo‘yilmalar amalga oshirilgan paytdagi tannarxga keltirilib, baholanishi kerak.

Kelgusida olinadigan daromadlar ularning kutilayotgan qiymatidan hozirgi paytdagisi kam qiymatda bo‘ladi. Bunday farqning sabablari quyidagilar:

a) *mavjud kapitalga ijobiy foiz olish;* hatto pul investitsiya qilinmasdan, bankdagi depozit hisobida yotgan bo‘lsa ham, ularning summasi vaqt o‘tishi bilan foiz stavkasi miqdoriga ko‘ra ortib boradi, ana shundan kelib chiqib daromadni, ana shu foizlar tufayli ortadigan investitsiyalarga tenglashtirish kerak;

b) *vaqt o‘tishi bilan pulni qadrsizlanishga olib keluvchi inqirozni hisobga olish;* keluvchi inqiroz davrida ma’lum miqdordagi pulga bugundagiga nisbatan ancha kam tovar sotib olinadi;

d) *investitsiya kutilganidan kam daromad olib kelishi mumkinligini yoki hatto o‘zini ham qoplay olmasligi xavfi (risk) ni hisobga olish.*

Noaniqlik bois, bugun 100 so‘mdan olinadigan daromad kelgusida kutilayotgani o‘sha 100 so‘mning o‘zidan ham kam qiymatda bo‘lishi mumkin.

“Jonli” pullarni kelgusidagi pullar bilan taqqoslash **diskontlash** deb nomlanuvchi maxsus iqtisodiy usulga imkon beradi.

Bank stavkasi 10% bo‘lganda, qo‘yilgan kapitalning faqat ijobiy foizini hisobga olib, biz bugun bankka qo‘yilgan 100 so‘m bir yildan keyin 10 so‘mga ortib qaytishi kerak, deb hisoblaymiz. Boshqacha qilib aytganda, biz kelgusida olishimiz kerak bo‘lgan 110 so‘m hozir 100 so‘mga teng. Ikki yildan keyin 100 so‘m (1+0,1)2=121 so‘m olamiz va boshqalar.

Investitsiyalarni qoplash muddati. Bu metod eng sodda bo‘lib, u keng tarqalgan. Qoplash muddatini hisoblash algoritmi investitsiyalardan bashoratlanayotgan, daromadlar bir tekis taqsimlanishga bog‘liq. Agar olingan daromad vaqtlarga qarab bir tekis taqsimlangan bo‘lsa, unda qoplash muddatini bir paytdagi kapital qo‘yilmalarini yillik daromad miqdoriga bo‘lish bilan hisoblanadi. Qoldiq son qolsa, uni yaqin oradagi yaxlit songacha butunlanadi. Agar daromad bir tekis taqsimlanmagan bo‘lsa, qoplash muddati olingan daromadlar dastlabki kapital qo‘yilmalaridan oshgan yillarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblab chiqish bilan hisoblanadi.

Biroq bu ko‘rsatkich tahlil jarayonida hisobga olinishi kerak bo‘lgan qator kamchiliklarga ega. U daromadlarni olish davomiyligini hisobga olmaydi. Misol uchun, bir xildagi xarajatlar - 10 ming so‘m bo‘lgan, lekin yillik daromadi bashorati turlicha bo‘lgan: A loyiha bo‘yicha uch yil davomida 4,2 mln so‘m, B loyiha bo‘yicha o‘n yil davomida 3,8 mln so‘m daromad bashoratlangan, ikkita innovatsion loyihani ko‘rib chiqamiz. Ikkala loyiha ham dastlabki uch yilda kapital qo‘yilmalarini qoplaydi, shu bois berilganligi bo‘yicha ularning huquqlari bir xil. Ammo B loyiha anchagina samarali, chunki uning daromadi loyiha mavjud bo‘lgan hamma vaqtlarga ko‘ra yuqori bo‘ladi. Investitsiyalarning xarakterlarini qoplash hisobida asoslangan samaradorlik bahosi maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin bo‘lgan qator holatlar bor. Chunonchi, bu vaziyat, loyihaning daromadligi emas likvidligi muhimroq bo‘lganda, asosiy investitsiyalar iloji boricha tezroq qoplanishi zarur. Metod shuningdek, investitsiyalar yuqori darajali tavakkal bilan kuzatilganda ham yaxshi: qoplanish muddati qancha qisqa bo‘lsa, loyiha shuncha kam riskli bo‘ladi. Bunday vaziyat yuqori texnologik o‘zgarishlarni katta ehtimoli mavjud bo‘lgan tarmoqlar yoki faoliyat turi uchun ham xarakterli.

10.4. Investitsiya (kapital qo‘yilma)lar ko‘lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo‘llari

Qishloq xo‘jaligida investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda ularni moliyalashtirish uchun mablag‘lar kelib chiqishini ham hisobga olish zarur. Xususiy mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilganda ko‘rsatkichlar hisob-kitobi ushbu investitsion loyihaning sarfi va daromadi ham qo‘shilgan pul oqimi asosida o‘tkaziladi. Qarzga olingan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirilganda esa

investitsion loyihaning pul oqimi tartibiga qarzga xizmat qilish bilan bog‘liq sarflarni ham kiritish kerak bo‘ladi.

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini ikkita guruhga bo‘lish mumkin bo‘lgan ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Birinchi guruh - korxona bilan bog‘liq ichki omillar, ikkinchi guruh - korxonaga bog‘liq bo‘lmagan tashqi omillardir.

Qishloq xo‘jaligidagi investitsiyalar iqtisodiy samaradorligining pastligi sezilarli darajada ikkinchi guruh omillari bilan belgilanadi. Bular: inqirozlar, narx disparitetlari, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, qishloq tovar ishlab chiqaruvchilariga nisbatan foiz stavkalari kabilardir.

Davlat ishlab chiqarishda investitsiyalar hajmini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rmoqda. Masalan, daromadga soliq hisoblanganda hamma korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning soliqqa tortiladigan daromadlari summasi (miqdori)ni kamaytirish huquqini oladilar. Bu muammolarni davlat darajasida hal etmay turib, investitsiyalar samaradorligini oshirish mumkin emas. Imtiyoz korxona tomonidan amortizatsiya ajratmalari summasidan to‘liq foydalanilgandagina beriladi. Lekin imtiyoz soliqning haqiqiysi uchun hisobga olinmay, uni hisobga olingan miqdoridan 50% dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Bundan tashqari, ayrim obyektlar bo‘yicha (ko‘p yillik daraxtlar o‘tqazish, yosh ko‘chatlarni parvarishlash, tuproq unumdorligini oshirish va boshqalar) kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish byudjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

I .Investitsiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar:

1. Ichki omillar:

a) investitsiyalash obyekti to‘g‘ri tanlangani;
b) qurilish va obyektni o‘zlashtirish muddatlari;
d) qo‘yilmalarning kompleksligi;
e) qo‘yilmalarni obyektlar bo‘yicha jamlash;
f) iqtisod qilish tartibiga amal qilish;
g) korxonaning ixtisoslashganligi, ishlab chiqarish faoliyati turi;
h) ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil qilish;
i) mahsulotlar marketingi;
j) mahsulotlar tannarxi;
k) mehnat unumdorligi.

2. Tashqi omillar:

a) kreditga foiz stavkalari;
b) inqiroz jarayonlari;
d) narxlarning qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlariga nisbati;
e) daromadga soliq;
f) mahsulotga talab;
g) ishlab chiqarishning mavsumiyligi;
h) tabiiy iqlim sharoiti.

Investitsiyalarning investitsion faoliyatlari faollashuvi va iqtisodiy samaradorligining ortishi qishloq xo‘jaligiga imtiyozli kapital qo‘yilmalarni qo‘llash imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligida investitsiyalar samaradorligini oshirish orqali quyidagi muammolarning hal etilishiga olib keladi:

- qishloqda ixcham korxonalarni qurish orqali yangi ish o‘rinlari yaratilib, yoshlarni ish bilan ta’minlash darajasi oshadi;
- mahalliy bozorlarni tabiiy, ekologik toza qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan to‘ldirish mumkin bo‘ladi;
- eksportbop mahsulotlarni xorijga sotish orqali ishlab chiqarish sur’atlari yanada oshadi;
- kichik ishlab chiqaruvchilar sonining ko‘payishi davlat byudjetiga soliq to‘lovchilar sonini ko‘paytiradi, bu esa davlat byudjeti daromadlari oshishiga olib keladi;
- sanoatni xom-ashyo bilan ta’minlash darajasi oshadi;
- qayta ishlovchi korxonalardagi mahsulotlar import qilinuvchi tovarlar o‘rniga iste’molga chiqarilib, respublika valyuta zahiralari oshib borishiga olib keladi.

Mamlakatimizda agrar sohaga investitsiyalar olib kirishning to‘liq huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, bu huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya faoliyatini tartibga solishda davlatning rolini yanada oshirish;
- chet el investorlariga qulay investitsiya muhitini yaratish;
- qishloq xo‘jaligi tizimidagi sug‘urtalash amaliyotini izchillashtirish;
- inqiroz davridagi holat uchun maxsus moliya-soliq munosabatlarida yengilliklar yaratish va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligini investitsion-innovatsion rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- lizing faoliyatni faollashtirish, bu esa o‘z navbatida moliyaviy mablag‘larning yetishmasligini yumshatadi, lizing to‘lovlarini belgilangan grafik asosida va soddalashgan shartnoma va sxemalar asosida amalga oshirish imkonini beradi, davlat va lizing kompaniyalarining o‘zaro manfaatlarini yaqinlashtiradi va pirovard natijada ASM tarmoqlarida tavakkalchilikni pasaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun optimal iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarini yaratib beradi;
- qishloq xo‘jaligida yer-ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish;
- byudjet ssudalarini, investitsion soliq kreditlarini taqdim etish, kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash;
- imtiyozli soliq to‘lovlarini joriy etish;
- qishloq xo‘jalik texnikalari bozorini rivojlantirishning davlat dasturlarini shakllantirish.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilar ta’minlanadi:

- qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etishning jozibadorligi oshadi;

- ASM korxonalarida investitsion faollik oshadi;
- jami ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibida raqobatdosh va sifatli mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko‘payadi;
- tarmoqda innovatsion faoliyat kuchayadi;
- qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayoni barqarorlashadi.

Asosiy tushunchalar

Investitsiya – daromad (foyda) olish maqsadida pul mablag‘lari (kapital)ni iqtisodiyot tarmoqlariga uzoq muddatga qo‘yishdir. Ular o‘zlarida asosiy vositalarni yaratish, kengaytirish, rekonstruksiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlashni, shuningdek, bular bilan bog‘liq aylanma fondlar o‘zgarishini aks ettiradi. Investitsiyalar daromad (foyda) shakllantiruvchi yoki ma’lum ijtimoiy samaraga erishuvchi tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo‘yiladi.

Moliyaviy investitsiyalar – bu aksiyalar, obligatsiyalar, boshqa qimmatli qog‘ozlar sotib olish, pullarni foiz hisobiga banklardagi depozit hisob raqamlariga qo‘yish.

Real investitsiyalar – pul mablag‘larini kapital qurilishlar, ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish uchun qo‘yishdir. Real investitsiyalar – bu qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga kapital qo‘yish.

Ishlab chiqarish kapital qo‘yilmalari mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Noishlab chiqarish kapital qo‘yilmalari esa ijtimoiy muhitni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Texnologik tuzilma deganda, umumiy smeta qiymatidagi alohida xarajatlar ulushi (qurilish – montaj ishlari, mashina va uskunalar sotib olish, loyiha – sinov ishlar va boshqa) tushuniladi. Mohiyatan texnologik struktura asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismi orasidagi nisbati bilan shakllantiradi.

Tarmoq strukturalari deyilganda, kapital qo‘yilmalarining ASM ning turli tarmoqlari va xalq xo‘jaligiga butunicha nisbati tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligida innovatsiya deyilganda jamiyatning turli yacheykalarida amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish)ni, uning moddiy-texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan maxsus innovatsion faoliyat tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligining investitsion-innovatsion rivojlanishi – bu keng qamrovli faol jarayon bo‘lib, moliyaviy resurslardan foydalanish, qo‘shimcha

moliyalashtirish manbalarini jalb etish, investorlarni izlash jarayoni, yangi bilim va g‘oyalar, yangi texnologiyalarni qo‘llash, joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruvning yangi shakllarini amaliyotda qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Investitsiyalarining umumiy iqtisodiy samaradorligi ularni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini aniqlashda hisoblab chiqiladi. Ularning ko‘rsatkichlari - investitsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorligi koeffitsiyenti, ularning qoplanish muddati, qurilishi va o‘zlashtirishlari.

Diskontlash - “jonli” pullarni kelgusidagi pullar bilan taqqoslashdir.

Investitsiyalarni qoplash muddati - qoplash muddatini hisoblash algoritmi investitsiyalardan bashoratlanayotgan, daromadlar bir tekis taqsimlanishga bog‘liq. Agar olingan daromad vaqtlarga qarab bir tekis taqsimlangan bo‘lsa, unda qoplash muddatini bir paytdagi kapital qo‘yilmalarini yillik daromad miqdoriga bo‘lish bilan hisoblanadi. Qoldiq son qolsa, uni yaqin oradagi yaxlit songacha butunlanadi. Agar daromad bir tekis taqsimlanmagan bo‘lsa, qoplash muddati olingan daromadlar dastlabki kapital qo‘yilmalaridan oshgan yillarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblab chiqish bilan hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Investitsiya (kapital qo‘yilma) tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini bayon eting.
2. Investitsiyaning kapital qo‘yilmadan qanday farqi bor?
3. Ichki va tashqi investitsiyalar va bu bo‘yicha davlatning siyosati nimalardan iborat?
4. Qishloq xo‘jaligida investitsiya faolligini oshirish omillarini bayon eting.
5. Investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)dan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi qanday ko‘rsatkichlar yordamida aniqlanadi?
6. Kapital qo‘yilmalarni loyihalashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Investitsiyalarni qishloq xo‘jaligiga jalb etish manbalari va sarflanish yo‘nalishlari qanday?
8. Qishloq xo‘jaligida innovatsiya va innovatsion texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
9. Irrigatsiya va melioratsiyaga, yangi texnika, samarali texnologiya, chorvachilik va boshqa sohalarga sarflanayotgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi qanday ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi?
10. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning qanday yo‘llari mavjud?

XI-БОБ. QISHLOQ XO‘JALIGIDA SERVIS, UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

O‘quv maqsadi: Servis haqida tushuncha, uning mazmuni va mohiyati, hukumatning qishloqda servisni rivojlantirish borasidagi tadbirlarini yoritish, qishloq xo‘jaligidagi servisning hozirgi holatini tahlil qilish, servis bo‘yicha chet el tajribalarini joriy etish yo‘llariga oid bilimlarni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *servis, infratuzilma, ishlab chiqarish servisi, iqtisodiy servis, ijtimoiy servis, bozor servisi.*

11.1. Qishloq xo‘jaligida servis haqida tushuncha, uning mazmuni va ahamiyati

Qishloq xo‘jalik mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash va sotish jarayonida turli toifadagi korxona va tashkilotlar ishtirok etadi. Ushbu korxona va tashkilotlarni yagona bozorga birlashtiruvchi, ularning o‘zaro munosabatlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi tashkilotlar infratuzilma muassasalari hisoblanadi. Ularning bir qismi qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun texnika, o‘g‘it, yonilg‘i, pul mablag‘i va shu kabi resurslar yetkazib bersa, boshqalari esa qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash uchun sotib oladi yoki sotishga ko‘maklashadi va ijtimoiy xizmat ko‘rsatadi.

Servis - inglizcha service so‘zidan olingan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish ma’nosini bildiradi.

Infratuzilma - (lot. infra - ostida, structura - tuzilishi, o‘zaro joylashuvi; ingl. infrastructure) - takror ishlab chiqarish (yo‘llar, aloqa transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalari va boshqalar) sharoitlarini ta’minlaydigan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmuidir. Boshqacha qilib aytganda, infratuzilma ishlab chiqarishning me’yorda ishlashi va tovarning me’yorda aylanishi hamda odamlarning me’yor darajasida hayotiy faoliyatini yuritish uchun sharoitni yaratib berishga qaratilgan sohalar hamda ushbu sohalarga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar majmuasidir.

Amerikalik olimlar Makkonel K.R., Bryu S.L. ta’kidlashicha: infratuzilmani milliy iqtisodiyot darajasida “fuqarolar va firmalar tomonidan ulardan foydalanish odatda davlat tomonidan ta’minlanadigan kapital qurilmalardir (yo‘llar, shahar transport tizimlari, suv tozalash qurilmalari, munitsipal suv ta’minoti tizimlari, aeroport) ”, shuningdek, “infratuzilma firma uchun – bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xizmatlar va qurilmalardir (suv ta’minoti, elektroenergiya, ishlab chiqarish chiqimlarini olib ketish, yuklarni tashish, ilmiy – tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlari,

moliyaviy va bank xizmati)"[56]. Ularni o‘z mablag‘lari bilan tashkil etish qimmatga tushganligi bois davlat va boshqa firmalar tomonidan ta’minlanadi deb ta’kidlaganlar.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, infratuzilma sohasiga ta’rif berilganda uning bir nechta jihatlariga e’tibor berish lozim:

- xizmatlar ko‘rsatish tizimida iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi;
- infratuzilmaning rivojlanishi va taraqqiy etishi ko‘pgina hollarda u xizmat qilayotgan sohaning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi va aksincha;
- infratuzilma tarmog‘ining turlari qaysi sohaga xizmat qilishiga bog‘liq;
- jamiyat rivojlanishi, taraqqiy etishi bilan infratuzilma tarmog‘ining xizmat ko‘rsatish turlari kengayib boradi.

Ilmiy xulosaga ko‘ra, **infratuzilma (majmua) - iqtisodiyotning maxsus tarmog‘i va iqtisodiy faoliyatning maxsus ko‘rinishi bo‘lib, ijtimoiy-xususiy hamkorlik asosida va davlat ko‘magida amalga oshiriladi hamda global, milliy-hududiy va korxona miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanish uchun shart-sharoitlarni yaratish va yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.**

Infratuzilma muassasalari xizmatlarining yetarli bo‘lishi va uning sifati korxonani bozor munosabatlari sharoitida samarali ishlashini ta’minlashning zaruriy shartlaridan hisoblanadi.

Har qanday hududda mavjud servis muassasalari ularning xizmat ko‘rsatish sohalari nuqtai nazaridan uch guruhga bo‘linadi. ***Birinchi guruh*** bu ishlab chiqarish servisi muassasalaridir. Bu korxonalar ishlab chiqarishni amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar bo‘lib, ular o‘z xizmatlari uchun ma’lum miqdorda pul mablag‘lari oliadilar. ***Ikkinchi guruhga*** hududdagi ijtimoiy soha muassasalari kiradi. Ular ishchi va mutaxassislar tayyorlash, maorif, ta’lim, sog‘liqni saqlash va shu kabi xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadilar. Ushbu muassasalarni pul mablag‘lari bilan ta’minlash davlat yoki mahalliy byudjet hamda boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. ***Uchinchi guruh*** servis muassasalari bozorida mahsulot, pul va ishchi kuchlari harakatini ta’minlovchi korxona va tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. Ular jumlasiga hududdagi tijorat banklari, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlovchi turli jamg‘armalar, investitsiya fondlari, tovar xom-ashyo, ko‘chmas mulk va qimmatli qog‘ozlar birjalari, brokerlik idoralari, auditorlik, axborot-maslahat hamda reklama tashkilotlari va boshqalar kiradi. Ular o‘z faoliyatini to‘liq xizmat ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiradi.

Hozirgi adabiyotlarda asosan servisning to‘rtta turiga ta’rif berib kelinmoqda (11.1.1-rasm).

---

[56] Макконел Кэмпбелл Р., Брю Стенли Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2–х т. М.: Республика, 1992. 388 с.



11.1.1-rasm. **Qishloq servisi va uning tarkibi**

1. Ishlab chiqarish servisi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Uning tarkibiga:

- moddiy-texnika ta’minoti;
- mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash;
- texnik xizmat ko‘rsatish;

- suv va elektr ta’minoti kabi bo‘linmalar kiradi.

Bu turdagi xizmatlarni ishlab chiqarish servisiga kiritishdan asosiy maqsad – bu xizmatlar ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ijobiy ta’sir etadi.

Ishlab chiqarish servisi o‘ziga xos bir qator belgilarga ega:

- bu turdagi xizmatlar bevosita mahsulot ishlab chiqarmaydi, lekin ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ijobiy ta’sir etadi;
- ko‘rsatilgan xizmatlar samaradorligi faqat xizmat qilayotgan tarmoq, korxona, xizmat ko‘rsatish punktlari ta’sirida amalga oshadi;
- servis tarmoqlarining rivojlanish darajasi asosiy ishlab chiqarish jarayonining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi;
- servis tarmoqlari, bo‘g‘inlarini ishga safarbar qilish, talablarning tezligi bevosita tovar ishlab chiqarish jarayonida paydo bo‘ladigan talab darajasi bilan belgilanadi.

2. Bozor servisi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatmasa-da, xo‘jalikning umumiy faoliyatini ta’minlashga xizmat ko‘rsatadi.

Masalan, marketing va reklama, bank-moliya, axborot-maslahat, auditorlik, investitsion va shu kabi boshqa xizmat turlari xo‘jalik faoliyatining turli tomonlari samaradorligini oshirishga xizmat ko‘rsatadi.

Bozor servisi huquqiy va jismoniy shaxs maqomidagi barcha sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi) va xaridor (iste’molchi)lar o‘rtasida sodir bo‘ladigan ko‘p qirrali bozor munosabatlarining bevosita ishtirok etuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi, tekshiruvchi, maqsadli yo‘naltiruvchi va ishlab chiqarishdan toki iste’mol qilishgacha bo‘lgan jarayonlarning bir tekis va to‘xtovsiz kechishi uchun shart-sharoit, imkoniyatlar yaratish maqsadida xizmat ko‘rsatuvchi jabha va muassasalarni o‘z ichiga oluvchi butun bir yaxlit majmuadir.

Bozor servisining rivojlanishi ko‘p jihatdan milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, bozor infratuzilmasi bozor ishtirokchilarining turli iqtisodiy manfaatlarini samarali amalga oshirish muhiti hisoblanadi. Bozor infratuzilmasining maqsadi tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlarga qulay shart-sharoitlar yaratish orqali yagona iqtisodiy tizim bo‘lgan milliy iqtisodiyot faoliyatining samaradorligini oshirishdan iborat.

Hududlarda bozor servis muassasalarini tashkil etish, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi uchun respublikada to‘liq huquqiy asoslar yaratilgan. Ular negizini O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi, “Lizing to‘g‘risida”gi, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi, “Sug‘urta to‘g‘risida”gi, “Reklama to‘g‘risida”gi, “Kredit ittifoqlari to‘g‘risida”gi va shu kabi boshqa qonunlari, hukumat qarorlari, me’yoriy hujjatlar tashkil etadi. Ushbu qonunlarning har biri joylarda, korxona va tashkilotlarga bank-moliya, birja, auditorlik, sug‘urta, axborot, reklama, axborot-maslahat va shu kabi xizmatlar ko‘rsatuvchi

muassasalarini tuzish va faoliyatini yuritishning to‘liq kafolatlarini belgilab beradi.

3. Ijtimoiy servis tarkibi agrar sohada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar: maorif va madaniy muassasalar, sport, turar joy va kommunal xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va himoya qilish muassasalari, bog‘chagacha, maktabgacha bo‘lgan bolalar muassasalari, umumiy ovqatlanish korxonalari, savdo, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi transport, mehnatni muhofaza qilish xizmatlari, texnika xavfsizligi, o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlari, sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi. Ijtimoiy servis - insonning har tomonlama kamol topishi va unga erishish sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlar yig‘indisidir.Ijtimoiy servis ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatchilarga normal mehnat faoliyati yaratish va ishchi kuchini takror hosil qilish uchun, shuningdek qishloq aholisining turli maishiy xizmat turlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

4. Institutsional servis iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo‘llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalarning faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, moliya-kredit muassasalari va boshqalar kiradi.

Infratuzilma tarmoqlarini ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etish darajasi, hududiy belgilari, soha, tarmoqlar, xo‘jaliklar belgisiga hamda foydalanish jihatlariga qarab ham tasniflangan[57].

11.2. Qishloq xo‘jaliklarining faoliyat samaradorligini oshirishda servisni rivojlantirish masalalari

Qishloq xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish uchun ularga xizmat ko‘rsata oladigan zamonaviy servis tizimini tashkil etish hamda jadal rivojlantirishni davrning o‘zi talab qilmoqda. O‘zbekistonda agrar islohotlarning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri qishloqda servis asoslarini shakllantirish va uning muassasalari faoliyatini takomillashtirishdir. Ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda servisning o‘rni alohida ajralib turadi. Zero, qishloq servisi ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi va iste’molchilar o‘rtasida keng miqyosda sodir bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, ularga ko‘p qirrali xizmatlar ko‘rsatuvchi hamda shu bilan bir qatorda ishchi kuchlarni oqilona takror ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynaydigan turli muassasalar majmuidir. Bu muassasalar faoliyatini rivojlantirish o‘z navbatida mahsulot ishlab chiqarishdan toki uni iste’molchiga yetkazish tizimini yaratish, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka keng imkoniyatlar

[57] Плащинский П.А. Инфраструктура и эффективность общественного производства / П.А. Плащинский. Мн.: Беларусь, 1985. С.12-19.

ochib berish, huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini muttasil ko‘paytirish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni talab va taklif doirasida tashkil etish, ya’ni ish o‘rinlarini barpo etish, haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirish kabi qator bozor iqtisodiyotiga mos muammolarni hal etishda keng imkoniyatlar ochib beradi.

Qishloq xo‘jaligini barqarorlashtirishda infratuzilma tarmog‘ining ahamiyatini hisobga olgan holda fermer xo‘jaliklari tashkil etilgan hududlarda ushbu tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirshga e’tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 – yanvar 8 – sonli Qaroriga asosan respublikada 5 ta qishloq xo‘jalik infratuzilmasi obyektlarining turlari (MMTP, SFU, YOMM, mineral o‘g‘itlarini sotish shoxobchalari, minibank) tashkil etilgan bo‘lsa hozirgi kunda ushbu infratuzilma turlari va soni ko‘paygan, (11.2.1 - jadval).

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha jami 9028ta turli xildagi infratuzilma shoxobchalari faoliyat ko‘rstaib kelayotgan bo‘lsa, bulardan eng katta ulush Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo va Toshkent viloyati hissalariga to‘g‘ri keladi.

Biroq shuni aytish lozimki, respublikamizda, ayniqsa uning agrosanoat majmuida infratuzilma tarmoqlari yetarli darajada rivojlanmaganligi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste’molchilar talabini to‘la qondirishgacha bo‘lgan oraliqda nomutanosibliklar vujudga kelishiga, ishlab chiqarish sarflarining o‘sishi va mahsulot nobudgarchiligining ko‘payishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga va yil davomida iste’mol darajasining turlicha bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham qishloq servisi tizimi rivojini bosqichma-bosqich samarali amalga oshirmasdan turib, qishloqda dehqonlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun qonunlar doirasida ishlab chiqarishni kengaytirish, aholi daromadlarini oshirish va mamlakatimizning ulkan eksport salohiyatidan foydalanish kabi masalalarning yechimini topish qiyindir. Shu bois, hozirgi davr talabiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida servis tarmoqlarini, xususan, agrosanoat majmuida tashkil etish va rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Infratuzilma tarmog‘ining mohiyati va mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun uning tasnifiy shakllarini, ya’ni tarkibi va turlarini o‘rganish lozim. Ilmiy tahlillar natijasida, infratuzilma tarmog‘ini tasniflash zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, infratuzilma turlarini guruhlash asosida ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida nafaqat alohida turlarini, balki uning tarmoqlari o‘rnini ham belgilab olish;

Ikkinchidan, tarmoqlararo aloqalarni o‘rganish va buning asosida asosiy ishlab chiqarish va unga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va korxonalar o‘rtasida optimal mutanosiblikni o‘rnatish;

Uchinchidan, yakuniy natijani ta’minlab beruvchi o‘zaro bog‘liq tarmoqlar majmuining boshqaruvini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkonini beradi.

11.2.1-jadval

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi infratuzilma obyektlari soni to‘g‘risida ma’lumot, 2016[58]

Hududlar	Jami infratu-zilma shoxobcha-lar soni	Muqobil MTP	SIU	YOMM sotish shoxobchalari	Mineral o‘g‘it sotish shoxobchalari	Biola-bora-toriya-lar	Mini banklar	Zoovete-rinariya xizmati shoxobcha-lari	Axborot konsal-ting xizmati	Agrofirmalar	Tara qadoqlash material-larini i/ch shoxobchalari
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	690	127	119	65	102	65	58	128	8	15	3
Andijon	706	186	102	76	65	91	17	151		15	3
Buxoro	621	55	131	78	71	35	12	215	4	18	2
Jizzax	484	2	116	74	20	44	51	147	8	20	2
Qashqadaryo	874	169	152	95	90	60	11	279	2	11	5
Navoiy	296	8	56	47	18	12	40	78		37	
Namangan	599	113	134	56	34	20	50	142	4	35	11
Samarqand	1099	243	40	120	85	36	54	434	8	79	
Surxondaryo	761	54	147	65	50	65	56	280	3	41	
Sirdaryo	496	25	111	87	47	50	16	80	1	79	
Toshkent	855	149	148	84	108	38	37	194	15	80	2
Farg‘ona	906	156	127	110	71	85	14	174		118	51
Xorazm	641	49	113	77	92	92	12	180		20	6
Respublika bo‘yicha	**9028**	**1336**	**1496**	**1034**	**853**	**693**	**428**	**2482**	**53**	**568**	**85**

[58] O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari.

Infratuzilma majmua shaklida tadqiq qilinganda, infratuzilma tarmog‘ini faoliyat xususiyatiga ko‘ra, foydalanish va mulk shakliga ko‘ra hamda faoliyat turiga qarab turkumlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, (11.2.1 - rasm).

Qishloq infratuzilmasining maqsadi, vazifasi va o‘ziga xos hususiyatidan kelib chiqqan holda, uni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir, (11.2.2 - rasm).

Qishloq servisining asosiy vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin. Servisning asosiy vazifalari:

1. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘yicha qabul qilish, yuvish-tozalash, quritish, saralash (buzuq va chiriy boshlagan mahsulotni chiqarib tashlash), ajratish, qadoqlash, o‘rash, paketlash, konteynerlash, saqlash, to‘plash, (zarur holatlarda) sovutish va iste’molchilarga bir maromda yetkazib berish. Sanoat mahsuloti bo‘yicha: qabul qilish, o‘rash, qadoqlash, saqlash, talabga binoan iste’mol uchun yetkazib berish.

2. Barcha turdagi mahsulotlar bo‘yicha: ulgurji iste’molchilarga yetkazib berish uchun tovarlarni to‘plash va aksincha katta turkumdagi tovarni chakana iste’molchilarga talabga binoan yetkazib berish uchun kichik turkumlarga bo‘lish.

3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar va qishloq xo‘jalik xom-ashyosini qayta ishlovchilar avans olishlarini ta’minlovchi fyuchers va forvard bitimlari asosida mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish.

4. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlash.

5. Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug‘urtalash.

6. Tovarlar tashilishini ta’minlash (transportirovka).

7. Tadbirkorlarni ro‘yxatga olish.

9. Bitimlarni ro‘yxatga olish.

10. Tadbirkorlar manfaatlarini huquqiy himoyalash.

11. Tadbirkorlarga konsalting, injinering, auditorlik, loyiha-smeta va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish.



11.2.1-rasm. **Infratuzilma majmuining tarkibiy tuzilishi va tasniflanishi**[59]

[59] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.



11.2.2-rasm. **Qishloq infratuzilmasi va ularning maqsadi**[60]

[60] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi servis shaxobchalarini tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2009-2016 yillar davomida deyarli barcha qishloq xo‘jalik infratuzilma obyektlari qisqargan, masalan, minibanklar 71%, muqobil MTPlar 24%, mineral o‘g‘it sotish shoxobchasi 8,8%, SIU 12,6%, YOMM sotish shoxobchalari 25,6%, axborot ta’minoti, konsalting va marketing xizmati ko‘rsatish shoxobchalari 82,3%ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning natijasida bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jaliklari soni (MMTP - 128,8%, mineral o‘g‘it sotish shoxobchasi - 105,4%, SIU - 111,5%, YOMM sotish shoxobchasi - 130,7%,), xizmat ko‘rsatish maydoni (MMTP – 135,1%, mineral o‘g‘it sotish shoxobchasi – 112,6%, SIU – 117,5%, YOMM sotish shoxobchasi - 138%,) hamda qishloq xo‘jaligi mahsuloti (MMTP – 458,2%, mineral o‘g‘it sotish shoxobchasi – 381,9%, SIU – 398,7%, YOMM sotish shoxobchasi – 468,1%) ko‘paygan, (11.2.1 - jadval). Demak fermer xo‘jaliklarining infratuzilma xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasi kamayib borgan. Shuningdek, MMTP, SIU va boshqa qishloq xo‘jalik infratuzilma obyektlari moddiy-texnika bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligini hisobga oladigan bo‘lsak, qishloq xo‘jalik mahsuloti yetishtiruvchilarga o‘z vaqtida sifatli xizmat ko‘rsatish uchun yetarli darajada shart-sharoitlar mavjud emasligi ma’lum bo‘ladi.

Endilikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta tayyorlash shoxobchalarini, transport xizmati ko‘rsatish, tara idishlari tayyorlash va qadoqlash shoxobchalari, yog‘-moy mahsulotlarini sotish shoxobchalari hamda agrofirmalarni tashkil etishga ko‘proq e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘it va yoqilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlaydigan servis shoxobchalari tashkil etilgandan boshlab, yer va mulk solig‘idan, suv iste’molchilari uyushmasi qo‘shimcha qiymat solig‘idan, daromad va mulk solig‘idan 3 yil muddatga ozod qilinishi o‘z navbatida xizmat ko‘rsatish darajasining oshishiga hamda ularning iqtisodiy barqarorlikka erishishiga olib keladi. Bir so‘z bilan aytganda, xizmat ko‘rsatish sohalari obyektlari bozor munosabatlari tamoyillari asosida tashkil etila boshlandi.

Bu yo‘nalishdagi harakatni astoydil qo‘llab-quvvatlash borasida joylarda bir qator ishlar qilinmoqda. Hukumatimizning tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan fermerlarga dala boshida xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan keng ko‘lamli infratuzilma majmui vujudga keltirilmoqda. Ular birinchi navbatda yangi fermer xo‘jaliklari tashkil etilayotgan hududlarda barpo etilmoqda. Fermerlarga ko‘plab minibanklar, muqobil MTPlar, suv iste’molchilari uyushmalari, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari va mineral o‘g‘it sotish shaxobchalari xizmat ko‘rsatmoqda.

11.2.1- jadval

Qishloq xo‘jalik infratuzilmasining rivojlanganlik va ta’minlanganlik dinamikasi tahlili[61]

№	Infratuzilma obyektlari	2009 yil				2012 yil				2016 yil				2016 yilda 2009 yilga nisbatan o‘zgarishi, %			
		soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jaliklar soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan xizmat ko‘rsatish maydoni, gektar	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan yalpi q. x. mahsuloti, mln. so‘m	soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jaliklar soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan xizmat ko‘rsatish maydoni, gektar	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan yalpiq .x. mahsuloti, mln .so‘m	soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jaliklar soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan xizmat ko‘rsatish maydoni, gektar	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan yalpi q.x. mahsuloti, mln .so‘m	soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jaliklar soni, dona	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘ri keladigan xizmat ko‘rsatish maydoni, gektar	Bitta infratuzilma obyektiga to‘g‘rikeladigan yalpi q.x. mahsuloti, mln .so‘m
1	Mini bank	1478	71	2441,5	9221,0	1397	47	2597,1	19444,7	428	236	8660,5	110948,8	29,0	332,4	354,7	1203,2
2	Muqobil MTP	1757	59	2053,8	7756,7	1647	40	2202,9	16493,1	1336	76	2774,5	35543,5	76,0	128,8	135,1	458,2
3	Mineral o‘g‘itlar sotish shoxob-chasi	935	112	3859,5	14576,0	899	74	4035,7	30216,0	853	118	4345,5	55669,5	91,2	105,4	112,6	381,9

[61] O‘zbekistonRespublikasiqishloqvasuvxo‘jaligivazirligihamdaDavlatstatistikaqo‘mitasima’lumotlariasosidamualliftomonidanhisoblangan.

	Suv iste’molchilari uyushmasi	1712	61	2107,8	7960,6	1501	44	2417,1	18097,4	1496	68	2477,7	31742,0	87,4	111,5	117,5	398,7
4	YOMM sotish shoxobchasi	1389	75	2598,0	9811,8	1366	48	2656,0	19885,9	1034	98	3584,8	45924,7	74,4	130,7	138,0	468,1
5	Axborot ta’minoti, konsalting va marketing xizmati ko‘rsatish shoxobcha-lari	300	348	12028,7	45428,7	318	208	11409,1	85422,0	53	1907	69937,7	895964,2	17,7	548,0	581,4	1972,2
6	Tara idish va qadoqlash materiallari bilan ta’minlash shoxobcha-lari	78	1337	46264,1	174725,6	77	859	47118,2	352781,8	85	1189	43608,2	558660,0	109,0	88,9	94,3	319,7

Qishloq xo‘jaligining boshqa sohalardan farqli ravishda o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, shunga muvofiq ravishda xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish servisi tarmoqlarini tashkil etishda mavjud quyidagi shart-sharoitlar hisobga olinishi kerak:

- qishloq xo‘jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, uni boshqa joyga ko‘chirish imkoni yo‘q va shuning uchun ishlab chiqarish servisi obyektlarini xo‘jaliklarga qulay joylarda tashkil etish lozim bo‘ladi;
- qishloq xo‘jaligi mavsumiy xususiyatidan kelib chiqqan holda, ya’ni ekin ekish, sug‘orish, o‘g‘itlash, agrotexnika, hosilni yig‘ib olish va yerlarni keyingi yil mavsumga tayyorlash ishlarining o‘z vaqtida bajarilishi uchun, shunga mos ravishda xizmat ko‘rsatuvchi servis tarmoqlari faoliyatida ham mavsumiylik xususiyati mavjud;
- tabiiy-biologik sharoitning ta’siri natijasida, ob-havo iqlimining o‘zgarib turishi (qurg‘oqchilik yoki yog‘ingarchilik va boshqa, shu kabi holatlar) natijasida ayrim ishlab chiqarish servisiga bo‘lgan talab turli hudud va davrlarda turlicha bo‘ladi va ular o‘zgarib turadi;
- qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan mahsulotlarning asosiy qismi yilning kuz faslida pishib yetiladi. Lekin mahsulotlar bilan iste’molchilarni yil davomida uzluksiz ta’minlash maqsadida ularni saqlash uchun mo‘ljallangan omborxona va sovutgichlar quvvatlarini tashkil etishda bu omil e’tiborga olinishi kerak va hokazo.

Biroq **ishlab chiqarish servisi** tarmoqlari rivojining hozirgi holati tahlili ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun quyidagilarni e’tiborga olish lozimligini taqozo etmoqda:

- ayni paytda ishlab chiqarish servisining ko‘plab obyektlari monopolistik sharoitda xizmat ko‘rsatayotganligini e’tiborga olgan holda, ular faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilib va tartibga solib turish lozimligi;
- ishlab chiqarish servisi obyektlarining ular xizmatidan foydalanuvchi sohalarga qulay joylashganligi va ko‘rsatiladigan xizmatlarning narxi arzon hamda sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi;
- ishlab chiqarish servisi obyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyatini kengaytirish uchun moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash darajasini to‘g‘ri tashkil etish zarurligi;
- qishloq joylarida muqobil xizmat turlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni vujudga keltirish zarurligi.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi va unga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish servisi tarmoqlarining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda hamda mavjud muammolarni hal etish orqali ular xizmatini bozor talablaridan kelib chiqib tashkil etish lozim. Hayotiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda ishlab chiqarish servisi tizimidagi, jumladan, qishloq xo‘jaligi texnikalari, meliorativ qurilmalarning aksariyati ishga yaroqsiz holatga kelib qolganligi, agro-kimyo, elektr energiyasidan foydalanish va texnika xizmatlari narxining keskin oshib ketganligi, shuningdek, mahsulotlarni saqlash

quvvatlarining yetishmasligi va mavjudlarining talab darajasida emasligi ushbu sohadagi kamchiliklarni tubdan bartaraf etish va ular faoliyatini rivojlantirishni talab etadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda eng muhim omil ularni moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlashni yaxshilashdir. Buning uchun davlat qishloq xo‘jaligini moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirib borishi lozim bo‘ladi. Bu mexanizm tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy dastak va vositalarni o‘z ichiga oladi (11.2.2-rasm).



11.2.2-rasm. **Qishloq xo‘jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmi**

Endilikda qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash, rivojlantirish uchun asosiy yo‘nalishlarni belgilab olish kerak bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika ta’minotini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- har bir qishloq xo‘jaligi zonasiga mos keladigan iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lgan texnika ishlab chiqarish va shu asosda ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish vositalaridan keng ko‘lamda foydalanish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida o‘g‘itlardan foydalanishni to‘g‘ri tashkil etish va iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lgan biologik vositalarga yondashish;
- ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurishni keng ko‘lamda avj oldirish va qurilishni takomillashtirish;
- yerlarning melioratsiya holatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligini suv bilan to‘la ta’minlanishiga erishish, ya’ni yerlarga mahalliy o‘g‘itlar solish hamda sug‘orishning ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash;
- chorvachilik fermalarini mahsuldor zotli hayvonlar bilan ta’minlash va elektrlashtirish darajasini oshirish hamda qishloq xo‘jalik ekinlarining kasalliklarga bardosh bera oladigan yuqori hosilli, tezpishar urug‘ navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Qishloq ijtimoiy servisi va uning ajralmas qismi xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali ***birinchidan,***aholining turli xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji qondirilsa, ***ikkinchidan,***ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash muammosining hal qilinishiga yordam beradi. Bu hozirgi agrar siyosatning g‘oyat muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Qishloqda yashovchilarning ijtimoiy hayoti tubdan yaxshilansagina, butun qishloq xo‘jaligini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, unga industrial tus berish mumkin. Shuningdek, ortiqcha mehnat resurslarini bevosita qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasidan industrial sohalarga, servis va xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb qilish qishloqning eng muhim muammolaridan biridir. Har bir posyolkada, har bir qishloqda mayda ulgurji do‘konlar, ta’mirlash ustaxonalari va boshqa xizmat turlariga ega bo‘lgan obyektlar barpo qilish juda dolzarbdir. Chunki, biz istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq, islohotlar nomigagina emas, balki inson manfaatlari yo‘lida o‘tkazilishini aniqlab olgan, jamiyatimizning barcha tomonlarini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ana shunga bo‘ysundirilgan edi.

Hal etilishi talab qilinayotgan yana bir yo‘nalish hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ortiqcha ishchi kuchini bo‘shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalariga jalb etish. Shu o‘rinda bir gap, ma’lumki, AQSH, Yaponiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya, Janubiy Koreya va boshqa shu kabi iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlarda qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlarning ulushi mehnatga qobiliyatli aholining 5-7 foizini tashkil etsa, bizda bu

koʻrsatkich 40 foizdan ortiq. Xizmat koʻrsatish sohalarida ishlayotganlarning ulushi rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotda band aholining 55-77 foizini tashkil etsa, bizda bu koʻrsatkich 10-15 foizga boradi, xolos.

Servis sohasi Gollandiya va rivojlangan Yevropa mamlakatlarida hamda AQSHda juda yuqori darajada faoliyat koʻrsatadi. Gollandiyada gullar auksionida gullarni fermerlardan qabul qilib olish hamda gullarning navlari, uzunligi yoki kaltaligi, narxlari boʻyicha seksiyalarga joylashtirishda yuqori darajada servis xizmati yoʻlga qoʻyilgan. Gullarni qadoqlash, transportirovkasi, olib chiqishi, saqlanishi, joʻnatilishi, oʻsha kunning oʻzida barcha mamlakatlarga yetkazilishi va ularning sifatini taʼminlash boʻyicha servis xizmatlari koʻrsatiladi. Gullar auksioni 54 gektardan iborat boʻlib, toʻrtta 450 kishidan iborat dilerlar faoliyat olib boradigan zallar mavjud hamda ularda shanba va yakshanbadan tashqari har kuni 3500 fermerlar tomonidan 3000 xildagi bir million donadan ortiq gullar savdoga chiqariladi.

AQSHning Shimoliy Dakota shtatida har bir fermer xoʻjaligi qishloq xoʻjalik mahsulotlarini talab va taklif asosida yetishtiradi. Shuning uchun ham fermer xoʻjaliklarida mahsulot sifatiga va raqobatbardoshligiga alohida eʼtibor qaratiladi. AQSHda fermer xoʻjaliklarining hajmi katta boʻlgani holda koʻp tarmoqlidir. Barcha ishlar mexanizatsiyalashgan va avtomatizatsiyalashgan hamda servis xizmati yuqori darajada yoʻlga qoʻyilgan. U yerda texnik servis shundan iboratki, barcha texnikalarga oid xizmatlarni, yaʼni taʼmirlash, ehtiyot qismlar yetkazib berish, transportirovka boshqalarni servis xizmati amalga oshiradi. Ammo mahsulot tannarxini pasaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun AQSHda koʻpgina fermer xoʻjaliklari texnik servis va boshqa xizmat turlarini oʻzlari bajarishadi. Buning uchun esa barcha qulayliklar mavjud va xizmat haqi arzonga tushadi.

Avstraliyada esa paxta xom-ashyosini yetishtirish ishlarining barchasi, yaʼni terish, gʻoʻzapoyani maydalash, yerni shudgor qilish, paxta xom-ashyosini presslash, ularni plyonkaga qadoqlash va transportirovkasi texnikalarda bajariladi.

Hisob-kitoblar bugungi kunda qishloqda 8,5 million mehnatga layoqatli aholi borligini koʻrsatmoqda. Qishloq xoʻjaligining oʻzi buncha miqdordagi ishchi kuchini ish bilan taʼminlay olmaydi. Shu sababli qishloq joylarda zamonaviy texnologiyaga ega, ish shaklini tez oʻzgartira oluvchi kichik korxonalarni ochish hisobiga yangi ish joylari yaratish ustuvor vazifalardan biri boʻlib qilmoqda. Bular faqat qishloq xoʻjalik xom-ashyosini qayta ishlovchi korxonalargina emas, balki boshqa sohalarga asoslangan sermehnat ishlab chiqarishlar, xalq hunarmandchiligi korxonalari ham boʻlishi kerak. Shuningdek, respublikamiz xoʻjaliklarida uncha katta boʻlmagan, lekin zamonaviy texnologiya va texnika asosida xom-ashyoni qayta ishlaydigan korxonalar qurish va ularni mehnat resurslari ortiqcha boʻlgan yerlarda joylashtirish choralarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, respublika agrar sohasida amalga oshirilayotgan juda katta ko‘lamdagi iqtisodiy islohotlar asta-sekin o‘z natijalarini bermoqda. Shu bois, agrar islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichdagi asosiy vazifasi islohotlarning borishini sekinlashtirayotgan sabablarni tezroq bartaraf etish va agrar munosabatlarni yangilashni yanada jadallashtirishdan iborat bo‘lib turibdi.

11.3. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy servis samaradorligini ta’minlash yo‘nalishlari

Tadqiqotlar jarayonida innovatsion infratuzilmaning samarasini to‘rtta subyekt tomonidan oladigan subyektlar nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq: davlat va hududiy hokimiyat (hukumat), agrar sohadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar (fermer va dehqon xo‘jaliklar, innovatsion infratuzilma xizmatlarining iste’molchilari) hamda innovatsion infratuzilma obyektlari rahbarlari. Bunda olinadigan samara 3 xil turi bo‘yicha baholanadi strategik, iqtisodiy va ijtimoiy samara, (11.3.1 – jadval).

Taklif etilayotgan baholash tizimi universal bo‘lib, turli xil innovatsion infratuzilma obyektlarining faoliyatini monitoringini o‘tkazishda qo‘llash mumkin.

11.3.1-jadval

Agrar sohada innovatsion infratuzilma faoliyatidan olinadigan samara turlari[62]

Samara oluvchilar	Samara turlari		
	Strategik	**Iqtisodiy**	**Ijtimoiy**
Davlat va hududiy xokimiyat	- Innovatsion mahsulot hajmi - YAIM va YAHMda innovatsion mahsulot ulushi - Innovatsion korxonalarning umumiy soni - Patent va kashfiyotlar soni - Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi	- Innovatsion infratuzilmasi foydalanayotgan innovatsion korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi - Davlat va hududiy xokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan loyihalar soni va qiymati	Tashkil etilgan yangi ish joylar soni Agrar sohadagi innovatsion tadbirkorlikda band bo‘lgan OTM iqtidorli talabalari, tadqiqotchilar, katta ilmiy-xodim izlanuvchilari va professor-o‘qituvchilar soni

[62] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida tuzilgan.

		-Jalb etilgan investitsiyalar hajmi - Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalar (innovatsiyalar) hajmi - Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan xarajatlarda davlatning ulushi - Davlat va mahalliy byudjetga kiritilgan soliqlar hajmi	
Agrar soha	- Yalpi qishloq xo‘jaligida innovatsion mahsulot hajmi va ulushi - Yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotining o‘sishi - Tarmoqning rentabelligi	-ishlab chiqarishning diversifikatsiyala-shuvi - agrar soha va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi	- yangi ish joylarning tashkil etilishi - qishloq aholisi turmush darajasining oshishi
Agrar sohadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar	- Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori hajmining oshishi - Ishlab chiqarish hajmining oshishi - Korxonaning daromadliligining oshishi (rentabellik darajasi)	- Xarajatlar hajmi (uroven zatrat) - Investitsiyadan foydalanish imkoniyati	- Rezidentlarning innovatsion infratuzilma xizmatlaridan qoniqishi - Agrar sohadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion infratuzilma xizmatlaridan qoniqishi
Innovatsion infratuzilma obyektlari rahbarlari	- Innovatsion infratuzilma obyektlar soni, shujumladan yangi tashkil etilganlar va bir necha yillardan	Byudjetdan tashqari jalb etilgan investitsiyalar hajmi	Tashkil etilgan yangi ish joylar soni Agrar sohadagi innovatsion

	buyon faoliyat ko‘rsatib kelayotganlar - Sotilgan va joriy etilgan ishlanmalar soni - Innovatsion infratuzilma xizmatlarining sifati va ularga bo‘lgan talab - Iste’molchilarning qoniqishi	Samaradorlik (rentabellik darajasi) Kiritilgan investitsiyalarning qoplash muddati	tadbirkorlikda band bo‘lgan OTM iqtidorli talabalari, tadqiqotchilar, katta ilmiy-xodim izlanuvchilari va professor-o‘qituvchilar ulushi O‘rtacha ish haqi

Olib borilgan tahlillarga ko‘ra, agrar sohada innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali tarmoqda innovatsion jarayonlarning jadallashuvi, olinadigan innovatsion mahsulot hajmining oshishi va pirovardda ushbu tarmoqning barqarorlashuviga erishamiz.

Hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan infratuzilma muassasalarining aksariyati texnika, yonilg‘i, mineral o‘g‘it va shu kabi boshqa ishlab chiqarish servisi tizimiga mansub tashkilot va korxonalardir. Axborot-maslahat, konsalting, auditorlik va boshqa bozor servisi muassasalari ular umumiy sonining 20 foizgacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, respublika viloyatlari bo‘yicha bozor infratuzilmasi muassasalari (bank tizimlaridan tashqari) joylashuvi hozirgi talab darajasida emas. Hozirgacha qishloq tadbirkorlari konsalting, axborot va shu kabi xizmatlar uchun viloyat markaziga, aksariyat hollarda esa Toshkent shahriga qatnashlariga to‘g‘ri kelmoqda. Bu borada ayrim viloyatlarda ushbu soha korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalarini o‘rganish va boshqa hududlarga keng joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Qishloqda bozor servisini rivojlantirish, asosan sohada ishlash uchun kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan bog‘liq. Shuni hisobga olganda, viloyatlarda mavjud oliy o‘quv yurtlari hamda boshqa o‘quv tizimlarda investitsion loyihalarni tuzish, mulkni baholash, brokerlik, korxona menejeri, marketing sohalari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash va ularni qayta o‘qitishni kengaytirish zarurdir.

Bu sohada yana bir muhim masala - bozor servis muassasalarining xizmatlari uchun to‘lanadigan haq doimo o‘sib bormoqda. Viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan aksariyat bozor servis muassasalarining bosh tashkilotlari Toshkent shahrida joylashgan, shuni hisobga olganda, ular o‘z tasarrufidagi viloyat bo‘limlariga xizmat xarajatlarini pasaytirishga har tomonlama yordam berishlari lozim. Shu bilan birga, viloyatlarda qishloqdagi tadbirkorlarga turli xizmatlar ko‘rsatayotgan konsalting, axborot-maslahat, auditorlik markazlarga soliq bo‘yicha imtiyozlar berish ham, bu yo‘nalishdagi ishlar rivojiga muhim iqtisodiy asos bo‘lar edi.

Shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiyotning erkinlashuvi bozorda raqobatni yuzaga kelishini tezlashtiradi, ana shunday sharoitda xizmatlar ko‘rsatuvchi servis muassasalari xizmatiga, ayniqsa, konsalting, axborot va shu kabi xizmatlariga bo‘lgan talab yanada oshadi. Shuni hisobga olganda, ular ishini yanada faollashtirish chora-tadbirlarini hozirdan belgilash va amalga oshirish kerak.

Ma’lumki, har qanday ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchi o‘z faoliyatini yuritish uchun bozor haqida aniq va to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishlari kerak. Bunday ma’lumotlar xilma-xil bo‘lib, ular rejalashtirish, investitsiyalarni jalb etish, baholar belgilash va shu kabi boshqa jarayonlarda foydalanilishi mumkin yoki dehqon, fermer xo‘jaliklari o‘zlarining sodda bo‘lsada, aniq rejalarini, hisobot balanslarini tuzishlari yoki soliq to‘lashlari lozim. Ana shu ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarga bozor haqida moliyaviy, iqtisodiy axborotlarni to‘plab, maslahatlar berishni axborot-konsalting muassasalari amalga oshiradi.

Hozir ushbu faoliyat bilan Respublika Savdo-sanoat palatasi tizimiga kiruvchi tuman va shahar palatalari qoshida tashkil etilgan axborot-maslahat markazlari shug‘ullanmoqda. Bulardan tashqari, mulkni baholash bilan shug‘ullanuvchi mustaqil markazlar ham axborot-maslahat ishlarini olib borish imkoniyatiga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, respublika bo‘yicha bitta axborot-maslahat markaziga murojaat qilgan va murojaat qilgan tadbirkorga ko‘rsatilgan pul hisobidagi axborot-maslahat xizmati hali past darajada.

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatadiki, respublika tumanlarida qishloq xo‘jalik korxonalariga va tadbirkorlariga axborot-maslahat ko‘rsatish faoliyati bilan band bo‘lgan muassasalar shakllanish jarayonida bo‘lib, ular faoliyatini takomillashtirish quyidagilarni hal etishni taqozo etadi:

- axborot-maslahat markazlari faoliyatiga malakali kadrlar, shu jumladan huquqshunoslarni jalb qilishni tashkil etish;
- tuman hududida fermer, dehqon va boshqa toifadagi tadbirkorlarga axborot-maslahat, auditorlik xizmatlari ko‘rsatuvchi xususiy korxonalarni tashkil etish;
- faoliyat ko‘rsatayotgan axborot-maslahat markazlarining xizmat turlarini ko‘paytirish, ular faoliyatini tadbirkorlar o‘rtasida targ‘ibot qilish va ularni hokimiyat va boshqa davlat boshqaruv idoralari tomonidan qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish;
- tadbirkorlarda axborot-maslahat markazlari xizmatlaridan foydalanishga ehtiyoj uyg‘otish va unga ko‘maklashish.

Ushbu va boshqa tadbirlarni faol amalga oshirish tuman hududida faoliyat ko‘rsatayotgan qishloq xo‘jalik korxonalari va tadbirkorlarning ish samaralarini oshirish bilan birga, ularning tezroq bozorga moslashishi va bozor ko‘nikmalarini hosil qilishiga imkoniyat tug‘diradi.

Respublika qishloq xo‘jalik amaliyotiga lizingning kiritilishi, foydalanishdagi texnika ijarasi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab

chiqaruvchilarga ko‘rsatilayotgan servis xizmatlar turlarini kengaytirishni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, to‘liq servis xizmati ko‘rsatilgan holdagi lizing eng istiqbolli hisoblanadi. Bu mavjud ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish korxonalarining bajariladigan xizmatlarning qishloq tovar ishlab chiqaruvchisiga yaqinlashuvida ko‘proq ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Lizing bo‘yicha sotiladigan texnikaga texnik holatni inobatga olgan holda kredit stavkalarining belgilanishi ularning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Lizingning ushbu sxemasi tovar ishlab chiqaruvchilarning xizmatlarga bo‘lgan xarajatlarini 5-7 foiz kamaytiradi, qishloq xo‘jalik ishlarining talab etilayotgan agrotexnik muddatlarda o‘tkazilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida texnik servis xizmati ko‘rsatish uchun “O‘zagrotexta’mir” servis tashkiloti mavjud.

Texnik xizmat ko‘rsatishda dilerlik tizimini amalda keng joriy qilish uchun quyidagilar talab etiladi:

- tayyorlovchi zavodlarning texnik servisida ishtirok etishi;
- tuman servis markazlarida iqtisodiy faoliyatning texnik xizmat ko‘rsatishni hisobga olgan holdagi lizing, texnika ijarasi va shu kabi yangi shakllarini joriy qilish;
- ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish korxonalari negizida dilerlik punktlari barpo etishga davlat dotatsiyalari ko‘rinishdagi investitsiyalar bilan ta’minlash.

Qishloq tovar ishlab chiqaruvchilari uchun texnik servisning bunday tizimini barpo etish davrida mintaqalarda talab etiladigan investitsion muhit, xorijiy sarmoyadorlarning ishtiroki zarur.

Bunda investitsion jozibadorlikni oshirish tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Investitsiyalardan samarali foydalanish uchun ularni optimallashtirish ham juda muhim. Qishloq xo‘jalik tarmog‘i uchun investision dasturlarning ishlab chiqilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Texnik servis tarmog‘i va ASMning butun muhandislik-texnikaviy sohasining qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan uzviy aloqalarini inobatga olgan holda qishloq xo‘jaligida muhandislik-texnikaviy sohasi ishlashining huquqiy, yuridik va qonuniy asoslarini yaratish zarur.

Shu sababli “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining muhandislik-texnikaviy sohasi to‘g‘risida”, “Texnik servis to‘g‘risida”, “Mashina-traktor parklari to‘g‘risida”, “Agrosanoat majmuasini texnik vositalar bilan ta’minlash to‘g‘risida”, “Agrosanoat majmuasidagi texnikadan foydalanishda atrof-muhitni muhofaza qilish va insonning hayotiy faoliyatini ta’minlash to‘g‘risida” va shu kabi boshqa qator qonunlarni ishlab chiqish hamda qabul qilish lozim. Yuqoridagilar quyidagilarni ta’minlaydi:

- fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasi va uni mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatlar, ularning mohiyati hamda amalga oshirilayotgan tadbirlar ko‘lami;

- respublika hududlari kesimida fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish va ta’minot yo‘nalishidagi infratuzilma subyektlarining turlari, ularni tashkil qilish va rivojlantirish darajasi;
- qishloq hududlarida infratuzilma subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar va ularni bartaraf qilish yo‘llari;
- fermer xo‘jaliklarining talablarini hisobga olgan holda infratuzilma subyektlarini rivojlantirishda tuman hokimlarining, shuningdek, tegishli tashkilot va korxona rahbarlarining asosiy vazifalari.

Asosiy tushunchalar

Servis - inglizcha service so‘zidan olingan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish ma’nosini bildiradi. Har qanday hududda mavjud servis muassasalari ularning xizmat ko‘rsatish sohalari nuqtai nazaridan uch guruhga bo‘linadi. *Birinchi guruh* bu ishlab chiqarish servisi muassasalaridir. *Ikkinchi guruhga* hududdagi ijtimoiy soha muassasalari kiradi. *Uchinchi guruh* servis muassasalari bozorda mahsulot, pul va ishchi kuchlari harakatini ta’minlovchi korxona va tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish servisi - bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni o‘z ichiga olib, uning tarkibiga: moddiy-texnika ta’minoti; mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash; texnik xizmat ko‘rsatish; suv va elektr ta’minoti kabi bo‘linmalar kiradi.

Bozor servisi - bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatmasa-da, xo‘jalikning umumiy faoliyatini ta’minlashga xizmat ko‘rsatadi. Masalan, marketing va reklama, bank-moliya, axborot-maslahat, auditorlik, investitsion va shu kabi boshqa xizmat turlari xo‘jalik faoliyatining turli tomonlari samaradorligini oshirishga xizmat ko‘rsatadi.

Ijtimoiy servis - insonning har tomonlama kamol topishi va unga erishish sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlar yig‘indisidir. Ijtimoiy servis ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatchilarga normal mehnat faoliyati yaratish va ishchi kuchini takror hosil qilish uchun, shuningdek qishloq aholisining turli maishiy xizmat turlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

Institutsional servis - iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo‘llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalarning faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, moliya-kredit muassasalari va boshqalar kiradi.

Infratuzilma - (lot. infra - ostida, structura - tuzilishi, o‘zaro joylashuvi; ingl. infrastructure) - takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta’minlaydigan ishlab chiqarish

va noishlab chiqarish majmuidir. Infratuzilma ishlab chiqarishning me’yorda ishlashi va tovarning me’yorda aylanishi hamda odamlarning me’yor darajasida hayotiy faoliyatini yuritish uchun sharoitni yaratib berishga qaratilgan sohalar hamda ushbu sohalarga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar majmuasidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Servis haqida tushuncha va uning mazmun-mohiyatini bayon eting.
2. Qishloq xo‘jaligida servisning zarurligi va ahamiyati nimalardan iborat?
3. Servis turlari, subyektlari nima?
4. Qishloq xo‘jaligida servisning vazifalari nimalardan iborat?
5. Infratuzilma turlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Qishloq xo‘jaligidagi servisning hozirgi holati va muammolarini bayon eting.
7. Qishloq xo‘jaligida servisning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
8. Qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilayotgan servis xizmati turlarini izohlab bering.
9. Servis bo‘yicha chet el tajribalari qanday va ular haqida bayon eting.
10. Qishloq xo‘jaligida servisni rivojlantirish uchun nimalarga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaysiz?
11. Qishloq xo‘jaligida texnik servis tushunchasiga izoh bering.

XII-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI (YALPI VA O‘RTACHA) XARAJATLAR,ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

O‘quv maqsadi: Qishloq xo‘jaligida turli xildagi xarajatlar qilishning obyektiv zarurligini asoslash, xarajatlarning huquqiy va me’yoriy asoslari, xarajatlar (turlari bo‘yicha) darajasi, tarmoqda yetishtirilayotgan mahsulotlarning o‘rtacha xarajatlari (tannarxi), o‘rtacha xarajatga ta’sir etuvchi omillar va qishloq xo‘jaligidagi xarajatlarni tejash yo‘llarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *yalpi, o‘rtacha, joriy, uzoq, qisqa, qo‘shimcha, ishlab chiqarish, davr va moliyaviy xarajatlar, tannarx, boy berilgan imkoniyatlar, xarajatlarni tejash.*

12.1. Qishloq xo‘jaligida turli xildagi xarajatlarning obyektiv zarurligi

Moddiy ishlab chiqarish jarayonida jonli va moddiylashgan mehnatlar sarflanadi. U yoki bu mahsulotlarni olish uchun sarflanadigan, jamiyat uchun zarur bo‘lgan barcha moddiylashgan va jonli xarajatlar ishlab chiqarishning ijtimoiy xarajatlarini tashkil etadi. Ular ish vaqti bilan o‘lchanadi. Ijtimoiy xarajatlar mahsulot tannarxiga mos keladi. Jamiyatga mahsulotlar nimalar hisobiga ishlab chiqarilishini ko‘rsatadi.

Mahsulot tannarxi (S+V+M) quyidagilarni qamrab oladi: S – avvalgi mehnat bilan yaratilgan va yangidan ishlab chiqarishga o‘tkaziladigan ishlab chiqarish talab qiladigan mablag‘ qiymati (sarflangan); V+M – jonli, zarur va qo‘shimcha qilingan mehnatning bajarilish natijasi sifatida yangidan yaratilgan qiymat (V – zarur mehnat bilan yaratilgan mahsulot qiymati; M – qo‘shimcha mehnat bilan yaratilgan mahsulot qiymati).

Jamiyatniki bilan bir qatorda aniq korxona sarflarini aks ettiruvchi turli xildagi xarajatlar ham mavjud. Mahsulot ishlab chiqarish va uning realizatsiyasi uchun qilingan jonli mehnat va moddiy mablag‘lar xarajatlarining yig‘indisi – **korxona xarajatlaridir.** Ular mahsulot tannarxining asosini tashkil etadi.

Xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchanga bo‘linadi.

Doimiy xarajatlar – miqdori ishlab chiqariladigan mahsulot hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlardir. Ular korxona o‘z aktivi va ishchilari sonini o‘zgartirmagunga qadar har yili bir xil darajada mavjud bo‘ladi. Ularga asosiy vositalar amortizatsiyasi, korxonadan olinadigan ayrim turdagi soliqlar, asosiy vositalar sug‘urtasi, amortizatsiya ajratmalari, ishlab chiqarishning asosiy vositalarini ta’mirlashga ketgan mablag‘lar, urug‘lik va ekiladigan materiallar, o‘simliklar va hayvonlarni himoyalash vositalari, kreditlarga foizlar, reklama xarajatlari, qo‘shimcha xarajatlar va shu kabilar kiradi.

O‘zgaruvchan xarajatlar - ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq. Ularga ish haqlari, ozuqaga, o‘g‘itga, ishlab chiqarish materiallariga (dizel yoqilg‘isi, moylash materiallari va boshqalar), energiya, yordamchi materiallar, noqulay ob-havo sharoitidan sug‘urtalar (do‘l, qurg‘oqchilik), mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari kiradi. Xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchanga taqsimlash korxona faoliyati tahlilida, shuningdek, me’yoriy xarajatlarning hisob-kitobini osonlashtirish va berilgan parametrlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq holda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlari ortishi yoki pasayishi mumkin. Bu bir tekis, jadal yoki regressiv tarzda yuz beradi. Shu sababli, o‘zgaruvchan ishlab chiqarish hajmida xarajatlarning uchta guruhi farqlanadi.

Bir tekis xarajatlar. Ishlab chiqarish kengaytirilganda daromadning har bir qo‘shimcha birligi qo‘shimcha xarajatlarning teng miqdordagi sonini keltirib chiqaradi. Masalan, ijara to‘lovi 1 t donga, kartoshkaga to‘langanda 1 t donni quritishga ketgan xarajatligicha qoladi, bunda qo‘shimcha mahsulot qo‘shimcha maydonni ijaraga olish hisobiga yetishtiriladi.

O‘sib boruvchi (progressiv) xarajatlar. Ishlab chiqarish kengayishi bilan yetishtirilgan har bir qo‘shimcha mahsulot birligiga sarflangan xarajat ham ortib boradi. Masalan, 1 ga yerdan olingan har bir qo‘shimcha sentner qishloq xo‘jalik mahsulotiga sarflangan o‘g‘it xarajatini orttiradi. Konsentratsiyalangan ozuqaga xarajat har bir sigirdan qo‘shimcha olingan qo‘shimcha 1 kg sut yoki bo‘rdoqiga boqilayotgan qoramolni boqish yakuniga yetgandan keyingi uning tirik massasiga qo‘shilgan qo‘shimcha har bir kg hisobiga ortib boradi.

Kamayib boruvchi (regressiv) xarajatlar. Ishlab chiqarish kengayishi bilan mahsulot birligiga xarajat kamayib boradi. Masalan, 1 ga hisobiga texnikaga qilingan doimiy xarajat yillik ish hajmi o‘sganda kamayadi, sog‘ish ortganda 1 kg sutga sarflangan ozuqani qo‘llab turuvchi xarajat qisqaradi.

Pul shaklida ifodalangan korxona xarajati o‘zida mahsulot tannarxini aks ettiradi.

12.2. Qishloq xo‘jaligida xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi

Xarajat elementlari deganda, iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir xildagi xarajatlar tushuniladi.

Mahsulot tannarxini paydo qiluvchi hamma xarajatlar quyidagi elementlariga ko‘ra guruhlanadilar, (12.2.1-rasm).



12.2.1-rasm. **Qishloq ho‘jalik mahsulotlar tannarxi elementlar bo‘yicha guruhlanishi**

“Moddiy xarajatlar” elementida xususiy ishlab chiqarish va sotib olinadiganlarga urug‘lik va ekish materiallari, mineral o‘g‘itlar, mahalliy o‘g‘it, neft mahsulotlari, ehtiyot qismlar, o‘simliklar va hayvonlarni himoyalash vositalari, ishlab chiqarish xarakteridagi ishlar va xizmatlar xarajatlari, mahsulotlarni saqlash va transportga yuklashda tabiiy me’yor chegarasidagi yo‘qotishlar va boshqa xarajatlar aks etadi.

“Mehnatga haq to‘lash” elementi bo‘yicha mos keluvchi xarajatlarga ishlab chiqarish natijalariga mukofotlar, qonunchilikda ko‘zda tutilgan norma doirasida rag‘batlantiruvchi va tovon shaklidagi to‘lovlar, ishchilarga natural to‘lov shaklida beriladigan mahsulot qiymati, ishga kelinmagan vaqtlarga to‘lov (ta’tillarga, shtat qisqarganda, majburiy progullarga va boshqalar), mehnatga haq to‘lash fondida belgilangan tartibga muvofiq to‘lanadigan xarajatlar kiradi.

“Ijtimoiy ehtiyojlarga chegirma” elementi bo‘yicha davlat ijtimoiy sug‘urta organlari, pensiya jamg‘armasi, davlat bandlik jamg‘armasi va tibbiy sug‘urtalarga davlat qonunchiligida o‘rnatilgan me’yor bo‘yicha ishchilarning mehnatiga haq to‘lovlardan chegirma qilinadi.

“Asosiy fondlar amortizatsiyasi” elementi bo‘yicha qonunchilikka mos ravishda asosiy ishlab chiqarish fondlarini to‘liq tiklash uchun ajratilgan amortizatsiya ajratmalari summasi aks ettiriladi.

“Boshqa xarajatlar” elementi tarkibiga davlat qonunchiligida o‘rnatilgan tartibga muvofiq mahsulot tannarxiga soliqlar, sug‘urta fondlariga va boshqalarga ajratmalar, ya’ni olingan kreditlar va boshqa qarz mablag‘larning

foizlariga to‘lovlar, xizmat safari xarajatlari, aloqa xizmati va boshqalarga to‘lovlar kiradi.

Xarajatlarni elementlar bo‘yicha guruhlash ulardan foydalanishning aniq yo‘nalishini aniqlash (ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi asosiy faoliyat) va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini yetarlicha to‘liq tahlil qilish imkonini bermaydi.

U yoki bu mahsulotni (ishni, xizmatni) ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni hisoblash uchun ular moddalar bo‘yicha guruhlanadi. Bu xarajatlar mazmunini tahlil qila olish va ularni hisob obyektlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi.

Xarajat moddalari deyilganda, bir yoki bir necha elementlarni qamrab olgan xarajatlar tushuniladi. Moddalar bo‘yicha xarajatlarni guruhlash alohida elementlar yoki ularning majmualari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tannarxga kiruvchi xarajatlar quyidagi moddalar bo‘yicha guruhlanadi (12.2.2-rasm).

“Ijtimoiy chegirmalar bilan mehnatga haq to‘lash” moddasida haqiqiy bajarilgan ishlarga to‘langan asosiy va qo‘shimcha ish haqi, ishchilarga natural qiymati, rag‘batlantiruvchi xarakterdagi to‘lovlar, ish tartibi va sharoiti bilan bog‘liq holdagi tovon to‘lovlari, amaldagi qonunchilikka asosan navbatdagi va qo‘shimcha ta’tillarga to‘lovlar (foydalanilmagan ta’tillar uchun kompensatsiyalar), mehnatga haq to‘lash fondida belgilangan tartibga mos holdagi boshqa turdagi to‘lovlar kiradi.

Shu moddaning o‘zida ijtimoiy ehtiyojlarga majburiy chegirmalar – ijtimoiy sug‘urtaga, Pensiya jamg‘armasi, Davlat bandlik fondi va tibbiy sug‘urtalarga ajratmalar ham qonunchilikda belgilangan meyorlarda aks etadi.

*“Urug‘lik va ekish materiallari”*moddasi urug‘lik o‘zi ishlab chiqqan va sotib olingan mos keluvchi ekinlarni ekish uchun sotib olinadigan ekish materiallari va ko‘chatlar (ko‘p yillik yosh ko‘chatlardan, kapital jamg‘armalar hisobidan bog‘ yaratish kabilardan tashqari): urug‘lik va ekishga urug‘likka xarajatlar (zararkunandalarni zaharlash, yuk ortish)ni o‘z ichiga oladi.

“*Mineral va organik o‘g‘itlar”*moddasi qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladigan yerga solinadigan o‘g‘itlar shu jumladan, sanoat yo‘li bilan ishlab chiqariladigan mikroo‘g‘itlar, bakterial shuningdek, organik o‘g‘itlar (go‘ng, kompost)ga xarajatlar kiradi.



12.2.2-rasm. **Qishloq xo‘jalik xarajatlarining moddalar bo‘yicha guruhlanishi**

“O‘simliklarni va hayvonlarni himoyalash” moddasiga pestitsidlar, zaharlovchi moddalar, gerbitsidlar, difaliantlar va boshqa kimyoviy hamda biologik moddalarni-begona o‘tlar, qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalari va kasalliklariga qarshi ishlatiladigan vositalarni sotib olish xarajatlari: foydalaniladigan biopreparatlar, medikamentlar va dezinfeksiyalovchi vositalar bahosi va ularda chorvachilikda foydalanish bilan bog‘liq chiqimlar kiradi.

“Yem-xashak ozuqasi” moddasida o‘zlari yetishtirgan va sotib olingan ozuqalarga qilingan xarajatlar, ozuqa sexlarida ozuqa tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar aks etadi.

“Qayta ishlash uchun xom-ashyolar” moddasiga tayyorlanadigan mahsulotning asosini tashkil etuvchi yoki uni tayyorlash uchun zarur tarkibiy qism bo‘lgan xom-ashyo sotib olishga qilingan xarajatlar: kombikorma ishlab chiqarishda - bu don, aralash donlar, o‘t (ko‘chat) dan tayyorlangan un, ozuqa xamirturishi, suyak va baliq uni va boshqa komponentlardan iborat; sut mahsulotlari tayyorlashda – sutning narxi, sut mahsulotlari, shakar, vanilin va boshqalarning bahosi kiradi.

“Ishlar va xizmatlar” moddasi bo‘yicha ishlab chiqarish ehtiyojlarini va tashqaridagi tashkilotlarning ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlarini qoplash uchun o‘z tashkilotining yordamchi ishlab chiqarishidagi ishlarga va xizmatlarga sarflangan xarajatlar aks etadi. Qishloq xo‘jalik tashkilotlarining yordamchi ishlab chiqarishiga quyidagilar kiradi: avtomobil yuk tashish transporti, ot-arava, tashkilot traktorlari bilan bajariladigan ishlar, ishlab chiqarish va xizmatni elektr, issiqlik, gaz va suv bilan ta’minlash, qurilmalarini ta’mirlash ustaxonalarini (agar u yordamchi sanoat ishlab chiqarishiga ajratilmagan bo‘lsa) ham yuqoridagilar bilan ta’minlash.

“Asosiy vositalarni saqlash” moddasiga bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlar: asosiy vositalarga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar mehnatiga haq to‘lash (qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida band bo‘lgan traktorchi mashinistlardan tashqari) yoqilg‘i va moylash materiallariga qilingan sarflar, asosiy ishlab chiqarish fondlarini to‘liq tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari (eskirish), ta’mirlashning hamma turiga va asosiy vositalarga texnik xizmat ko‘rsatish uchun qilingan xarajalar va boshqalar kiradi.

“Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish” moddasi bo‘yicha umumishlab chiqarish (brigadalarda, fermalarda, sexlarda va korxonaning boshqa bo‘linmalarida) va umumxo‘jalik (korxona bo‘yicha umuman ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq) xarajatlari aks etadi.

Umumishlab chiqarish va umumxo‘jalik xarajatlarini ishlab chiqarishning turli tarmoqlari va mahsulot qiymatini hisoblab chiqish obyektlari (ish xizmat) orasida xarajatlarning umumiy summasi proporsional taqsimlanadi (ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlaridan tashqari), bunda urug‘lik, ozuqa shuningdek, yordamchi sanoat ishlab chiqarishda xom-ashyo materiallar va yarim fabrikatlar narxi istisno qilinadi.

“Kreditlar bo‘yicha to‘lovlar” moddasi bo‘yicha banklardan olingan foizlar to‘lovi (asosiy vositalarni sotib olish bilan bog‘liq ssudalar nomoddiy va boshqa oborotlar, tashqariaktivlar istisno), yetkazib berilgan tovar moddiy boyliklarga kechiktirilgan to‘lovlar foizlari, olingan qarz mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar aks etadi. Ular mahsulot turlari bo‘yicha ishlab chiqarishga bevosita xarajat tarzida proporsional taqsimlanadi.

“Hayvonlarga tekkan ofatlardan yo‘qotishlar” moddasiga boquvda bo‘lgan yosh va katta chorva mollari, parrandalar, shuningdek, asalari oilalari (aybdor shaxslarga tegishli va tabiiy ofatlar tufayli yo‘qotishlardan tashqari)ning halokati tufayli yo‘qotishlar kiritiladi.

*“Boshqa xarajatlar”*moddasida mahsulot ishab chiqarish bilan bevosita bog‘liq, lekin yuqoridagi moddalardan birortasiga ham tegishli bo‘lmagan xarajatlar: yer uchun to‘lov, maxsus kiyimlar va oyoq kiyimlarning eskirishi, hayvonlarga to‘shamalarga (somon, poxol) xarajat, chorva mollarini sun’iy urug‘lantirish uchun xarajatlar, fermani o‘rab olish uchun, yozgi lager (yaylov)lar qurish va ularni saqlash kabilar, yangi ishlab chiqarish obyektlarini ekspluatatsiyaga kiritishni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ishga tushirish-sozlash ishlari (chorvachilik komplekslari, issiqxona kombinatlari, parniklar, parrandachilik fabrikalari va boshqalar).

Boshqa bevosita xarajatlar mos keluvchi qishloq xo‘jalik ekinlari (ekinlar guruhi)ga hayvonlar turlariga, yordamchi sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari va boshqalarga tegishli.

Tarmoqlar va mahsulot turlari bo‘yicha tannarxlar tahlil qilinganda alohida elementlar va moddalar bo‘yicha haqiqiy xarajatlarning rejadagidan ortiq bo‘lish sabablari aniqlanadi. Tahlil natijalaridan ishlab chiqarishning kelgusida iqtisodiy samaradorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish choralarini ishlab chiqarishni rejalashtirishda foydalaniladi. Qishloq xo‘jaligini intensifikatsiyalash sharoitida tannarxni rejalashtirishda ishlab chiqarishning texnik darajasi ortishi texnologiyani, hayvonlarning yuqori mahsuldor zotlarini, qishloq xo‘jalik ekinlarining gibrid va navlari natijasida xarajatlar qisqarishi ehtimolini hisobga olish lozim.

Qishloq xo‘jaligida o‘simlikchilik, chorvachilik va yordamchi ishlab chiqarishning hamma asosiy turdagi mahsulotlari tannarxi aniqlanadi. Mos keluvchi ekin va hayvon turidan olingan alohida turdagi mahsulotlarning tannarxi ushbu turdagi (guruh) ekin va hayvonlarga qilingan xarajatlardan kelib chiqib, aniqlanadi.

12.3. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o‘rtacha xarajatlar) va uning turlari

Tannarx – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun pul shaklida ifodalanuvchi iqtisodiy kategoriyadir.

Tannarx – bu aniq korxona sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining asoslangan qismi. U har bir korxonada mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish nimaga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarishga ma’lum miqdorda ishlab chiqarish mablag‘i va ishchilarning jonli mehnati sarflanadi. Ishlab chiqarishga sarflangan mablag‘ korxonaning urug‘lik, yoqilg‘i, o‘g‘itlar, elektr quvvati, asosiy vositalar ko‘rinishida sarflangan va uning vositalarida moddiylashtirilgan mehnatni ko‘rsatadi. Jonli mehnat haqiqiy to‘lov bo‘yicha hisobga olinadi.

Tannarx o‘zida qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan birini ifodalaydi, chunki unda ularning ishlarini sifatli tomoni, ishlab chiqarish vositalari va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasi ko‘rsatiladi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligining oshirilishi ish yakunida tannarxni pasaytirgan holda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilishi bilan belgilanadi. Chunki, tannarxning darajasi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini joylashtirish va ixtisoslashtirish mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tannarxni hisoblab chiqish ishlab chiqarishning rentabelligini belgilaydi.

Yalpi mahsulot tannarxi o‘zida korxonaning ishlab chiqarishga sarflangan hamma mablag‘ini ifodalaydi. Qishloq xo‘jalik korxonalarining ishlab chiqarishga qilgan sarf-xarajatlari qishloq xo‘jaligi ekin yerlariga ishlov berish jarayonida foydalanilgan mashinalar, mexanizmlar, boshqa asosiy fondlar, moddiy, mehnat va boshqa ishlab chiqarish resurslari sarfidan yuzaga keladi.

Mahsulot birligi tannarxi – ishlab chiqarish xarajatlarini natural ko‘rinishdagi yalpi mahsulot hajmiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:

$$T = \frac{I_x}{YaM}.$$

Mahsulot birligi ishlab chiqarishga xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarini qiymat (so‘m) ko‘rinishida yalpi mahsulot hajmiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi (12.3.1-jadval).

Mahsulot tannarxidan tashqari ish birligining tannarxi ham (traktorlar bo‘yicha – 1 shartli etalonga, avtomobillar bo‘yicha – 1 t km, ish hayvonlari bo‘yicha 1 ot kuchi va boshqalar), shuningdek, 1 bosh hayvon bilan yetishtirilgan 1 ga qishloq xo‘jalik ekinlari ekish uchun yerga ishlov berish tannarxi ham aniqlanadi.

Qo‘shilgan xarajatlar hajmiga bog‘liq holda tannarx ishlab chiqarishga doir va to‘liq (tijorat) tannarxlarga bo‘linadi. ***Ishlab chiqarish tannarxlariga*** ishlab chiqarish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar kiradi.

Xo‘jalik faoliyati yil oxirida ma’lumotlar manbalariga tayangan holda kalkulyatsiya qilinadi. U alohida ishlab chiqarish jarayonlarning ish natijalarini baholashga imkon beradi. Mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash bilan uni pasaytirishning aniq yo‘llarini belgilash, joriy yil ko‘rsatkichlarini avvalgi yildagisi yoki rejali tannarx bilan taqqoslash mumkin.

12.3.1-jadval

Qishloq xo‘jalik korxonalarida 1 tonna asosiy mahsulot turining tannarxi[63], ming so‘m

№	Mahsulot turi	2005 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	Paxta-xom ashyosi	425,4	716,2	775,2	839,7	909,9
2	G‘alla (don)	245,0	305,2	360,6	390,2	423,7
3	Kartoshka	375	552	597	647	686
4	Sabzavot	286	377	408	442	468
5	Meva	525	634	686	743	788
6	Sut	618	853	923	1000	1060
7	Tirik vaznning ortishi:	6900	7510	8500	13520	15700
8	Tuxum (1000 dona)	105	176	180	190	200

Rejali tannarx o‘tgan yilgi haqiqiy tannarxni hisobga olgan holda normativ ko‘rsatkichlar asosida hisoblab chiqiladi. Ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar hisobi moddiy resurslarning asoslangan texnik me’yoridan kelib chiqib (urug‘liklar, o‘g‘itlar, yadoximikatlar, zaharli kimyoviy moddalar, yoqilg‘i, energiya va boshqalar) amalga oshiriladi. Hisob-kitoblar qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish va turli xil hayvon hamda parrandalarni boqish bo‘yicha texnologik xarita asosida bajariladi. Rejali tannarxni hisoblashda moddiy, mehnat va pul xarajatlari, umumxo‘jalik xarajatlari, shuningdek, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi rezervlaridan eng to‘liq holda foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanadi.

Oldindan belgilangan (taxminiy) tannarx 9 oy uchun qilingan haqiqiy xarajatlar (uch kvartal) va normativlardan foydalanib, to‘rtinchi kvartal uchun kutilayotgan ko‘rsatkichlar asosida xo‘jalik yili yakunlangunga qadar (qoidaga ko‘ra 1 oktabrgacha) aniqlanadi.

Mahsulot tannarxi turli ishlab chiqarish maqsadlari bo‘lgan xarajatlarning bir qancha turidan yaratiladi. Xarajat turlari ularning umumiy summasiga foizli nisbati tannarx strukturasini bildiradi. Ular korxonaning ixtisosiga, uning texnik jihozlanganligi va ishlab chiqarishni tashkil etishiga bog‘liq. Tannarx strukturasining tahlili foydalanilayotgan resurslarni ochish va xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini belgilab beradi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra turlichadir. Ularni to‘g‘ri turkumlashtirish tannarxni rejalashtirish, hisob va tahlilida katta rol o‘ynaydi. Ahamiyati va paydo bo‘lish o‘rniga qarab

[63] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

xarajatlarni *ishlab chiqarishga* va *noishlab chiqarishga* oid xarajatlarga bo‘lish mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlari–mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari bilan bog‘liq. Ularga o‘simlikchilik, chorvachilik, sanoat va yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish va umumxo‘jalik xarajatlari kiradi.

Noishlab chiqarish xarajatlari–mahsulot realizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar, realizatsiya qilingan mahsulotlarning tabiiy kamayish chegarasidagi kamomadi, yuqori tashkilotlarga qilingan sarflar va shu kabilarni qamrab oladi.

Korxonaning belgilangan maqsad bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga qilgan xarajatlarini asosiy va ma’muriyga bo‘lish mumkin.

Asosiy xarajatlar ma’lum turdagi mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bilan bevosita bog‘liq (urug‘lik, ozuqa, ish haqi va boshqalar).

Ma’muriy xarajatlar ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish va uni boshqarish bilan bog‘liq va yaxlitligicha tarmoq yoki xo‘jalik bo‘yicha hisoblanadi. Ularga ishlab chiqarish xarajatlarini qanday bo‘lsa, ma’muriy-boshqaruv xodimlarining (ish haqi, pochta, devonxona, telegraf, xizmat safari xarajatlari, ishga transport xizmati ko‘rsatish, dala shiyponlariga qilingan sarflar va boshqalar), barcha noishlab chiqarish va unumdorligi bo‘lmagan ishlarga xarajatlar ham shunday bo‘ladi (xo‘jalik hisobidagi materiallarning buzilishi va yetishmasligi, sud va arbitraj to‘lov xarajatlari). Ular *umumishlab chiqarish xarajatlari* va *umumxo‘jalik xarajatlariga* bo‘linadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari–umum brigada, umumferma, umumsex va umumtarmoq xarajatlaridan tarkib topadi. Ular o‘simlikchilik, chorvachilik kabi xizmat ko‘rsatish va ularni boshqarish mutaxassislari - agronom, zootexnik, vetvrachlar ish haqi, agrokimyoviy laboratoriyalar, veterinariya shifoxonalari, chorva mollarini so‘yish xonalarini ta’minlash, tibbiy dori-darmonlar olish, ishlarga transport xizmati ko‘rsatish, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va boshqalarni mablag‘ bilan ta’minlashdan iborat.

Umumxo‘jalik xarajatlari–xo‘jalik bo‘yicha butunicha ishni boshqarish va tashkil etish bilan bog‘liq: ma’muriy-boshqaruv xodimlari - boshliqlar, bosh mutaxassislar, iqtisodchilar, hisobchilar va boshqalarning ish haqi, xizmat safarlari va idora-devonxona xarajatlari, umuxo‘jalik ahamiyatiga molik asosiy vositalar amortizatsiyasi va boshqalar. Ularga noishlab chiqarish ham kiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari taqsimoti usuli bo‘yicha harajatlar *bevosita* va *bilvositaga* ajratiladi.

Bevosita xarajatlar - alohida ekinlar, hayvonlar guruhi (turi)ga taalluqli. Ularga quyidagilar kiradi: ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar, chegirilgan asosiy va qo‘shimcha ish haqlari, urug‘lik, ekish materiallari, o‘g‘itlar (organik va mineral), zaharli kimyoviy moddalar, ozuqa va to‘shama, qishloq xo‘jalik mashinalariga uskunalar, qurilish va inshootlar, ishlab chiqarishda

foydalanadigan aniq turdagi mahsulotlar, joriy ta’mirlash, avtotransportlar va boshqalar.

Bevosita xarajatlar o‘z navbatida bir turdagi yoki har xil turdagi xarajatdan iborat sodda (urug‘likka, ozuqaga va b.) va oldindan hisoblab chiqishni talab qiluvchi (yuk tortuvchi kuchlar, joriy ta’mirlash, avtotransport, elektr quvvati, suv ta’minnoti va boshqalar)lardan iborat bo‘lgan *murakkab yoki kompleks xarajatlarga* bo‘linadi. Murakkab xarajatlar mahsulot turlari va tarmoqlar bo‘yicha bajarilgan ish hamda, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmiga qarab proporsional ravishda taqsimlanadi.

12.3.2-jadval

Qishloq xo‘jalik korxonalarida asosiy turdagi mahsulotlar tannarxining strukturasi (hamma xarajatlar – 100 %)

Xarajat moddalari	G‘alla (don)	Paxta	Sut	Yirik shoxli qoramolchilik vaznining ortishi
Ijtimoiy ehtiyojlarga chegirmalar bilan mehnatga haq to‘lash	-	24,4	15,0	11,9
Urug‘lik va ekish materiallari	20,4			
Mineral va organik o‘g‘itlar	5,2	4,9	-	-
O‘simlik va hayvonlarni himoyalash vositalari	7,9	8,1	-	-
Ozuqa	0,4	0,5	0,9	1,1
Asosiy vositalarni saqlash	-	-	40,6	58,8
Shundan:				
Neft mahsulotlari				
Amortizatsiya	40,3	31,9	5,8	7,2
Ta’mirlash	4,2	4,7	6,5	5,6
Ishlar va xizmatlar	1,9	2,8	1,7	1,0
Ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish	5,3	7,7	19,1	12,4
Boshqalar	8,9	11,4	8,3	1,9
	5,5	3,6	2,1	0,1

Bilvosita xarajatlar - qishloq xo‘jalik ekinlari yoki chorvachilik mahsulotlarining bir necha turi uchun umumiy bo‘ladi. Ularni bevosita alohida ekin, hayvonlar guruhi (turi)ga, sanoat va yordamchi ishlab chiqarishga bo‘lish mumkin emas, chunki ular brigada, ferma, bo‘linma, barcha xo‘jalik bilan (umumishlab chiqarish, umumxo‘jalik) bog‘liq.

Hisobot davriga nisbati bo‘yicha xarajatlar *hisobot davri, kelgusi davr va oldindan turgan sarf-xarajatlarga* bo‘linadilar.

Hisobot davri xarajatlari - (oy, kvartal, yil) ushbu davrda bajarilgan xo‘jalik opreatsiyalari bilan bog‘liq va shu vaqtning o‘zidagi ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘shilishiga mansub.

Kelgusi davr xarajatlari - hisobot davrining ishlab chiqarishning kelgusi davrini ham o‘z ichiga oluvchi haqiqiy xarajatlari (hayvonlar uchun vaqtincha yaylovlar qurish xarajatlari, OAVga obuna va boshqalar).

Oldinda turgan sarf-xarajatlar - hali aslida ular ishlab chiqarilmagan bo‘lsa ham, hisobot davri mahsulotlari tannarxini qamrab oladi (ishchilarning ta’tillariga haq to‘lash).

Amaliyotda mahsulot tannarxiga kiruvchi barcha ko‘p tarzli xarajatlarning tahlili, hisobi va rejalashtirilishi uchun bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi ikkita turi qo‘llaniladi: elementlar bo‘yicha va xarajat turlari bo‘yicha.

Tannarxni kalkulyatsiya qilish bu mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, ish xizmatga qilingan xarajatlarning puldagi ifodasini hisoblash tizimi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish qishloq xo‘jaligi iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Ushbu muammoni hal qilishning bir-biri bilan bog‘liq ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud: yer maydoni birligidan mahsulot olishni maksimal darajada ko‘paytirish va uning birligiga mehnat va mablag‘ sarfini kamaytirish. Rezervlar har bir korxonada mavjud. Tannarx tuzilmasini jiddiy tahlil qilish bilan ularni aniqlash mumkin.

Tannarxning strukturasi qator omillar ta’sirida doimiy o‘zgarib turadi:

- tarmoqning o‘ziga xosligi - ko‘p mehnat talab qiladigan (tannarx xarajatlarining katta ulushi mehnatga haq to‘lashga to‘g‘ri keladi), ko‘p mablag‘ talab qiluvchi (moddiy xarajatlar ulushi juda katta) fond hajmi katta (amortizatsiyaning ulushi juda ko‘p) va ko‘p quvvat sarflanadigan (yoqilg‘i quvvat resurslari ko‘p) ishlab chiqarishlarda mavjud bo‘ladi;
- jonli mehnatning ulushi qisqarishiga va moddiylashuv ulushi ortishiga olib keluvchi ilmiy-texnika taraqqiyoti;
- ishlab chiqarishning ixtisoslashuv kooperatsiyalashuv darajasi;
- korxonaning geografik joylashuvi;
- bank krediti uchun foiz stavkalari va inqiroz.

Tannarx strukturasining tahlili uni pasaytirish uchun qaysi yo‘nalishda choralar ko‘rish lozimligini aniqlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarish mahsulotlarining alohida turlari, tannarxi strukturasi umuman farqlanadi. O‘simlikchilikda xarajatlarning asosiy ulushini ish haqi (mehnatga haq to‘lash), urug‘lik, o‘g‘itlar, yoqilg‘i moylash materiallarining qiymati, chorvachilik-da, ish haqi (mehnatga haq to‘lash) va ozuqa qiymati tashkil etadi (12.3.1-jadval).

Xarajatlar strukturasiga inqiroz katta ta’sir o‘tkazadi. Tannarx strukturasida xarajatlar alohida moddalari ulushlari va uning kuchayishi yoki pasayishiga bog‘liq holda ortishi yoki kamayishi mumkin.

12.4. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘rtacha xarajatlarini (tannarxini) hisoblash usullari

Qishloq xo‘jaligida tannarxni hisoblab chiqish bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. *Birinchidan,* dehqonchilikda ishlab chiqishning yillik sikli, shuningdek, ishlab chiqarish va ish davri orasidagi farqlar tannarxni faqat xo‘jalik yili tugagandan keyingina hisoblab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘simlikchilik mahsulotlarininig salmoqli qismi o‘z xo‘jaligida ozuqa sifatida ishlatiladi, shuning uchun avval o‘simlikchilik mahsulotlarining tannarxi, undan keyingina chorvachilikning tannarxi aniqlanadi. *Ikkinchidan,* ko‘pgina qishloq xo‘jalik ekinlari va hayvonlardan birdaniga bir necha turdagi mahsulot olinadi va xarajatlarni ular orasida taqsimlash zarurati kelib chiqadi. Uchinchidan, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini faqat yil oxirida (1 yanvar holati bo‘yicha) aniqlash mumkin. *To‘rtinchidan,* alohida turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish yakunlanishi joyi umuman farqlanadi.

Tannarxni hisoblab chiqishda xarajatlarning umumiy miqdori mos keluvchi ekinlar va hayvonlardan olinadigan mahsulotlar bo‘yicha taqsimlanadi. Shu bilan quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- xarajatlarni mahsulotlarning mos keluvchi turiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqsimlash (paxta xom-ashyosi, go‘sht, asal va hokazo);
- xarajatlarni alohida qishloq xo‘jalik ekinlari, hayvonlarining mahsulotlari o‘rtasida mahsulot olinganlar uchun umumiy bo‘lgan belgilardan biri bo‘yicha proporsional ravishda taqsimlash (donli ekinlar, chorva mahsulotlari);
- maxsus yo‘l bilan olingan mahsulotning alohida turiga qilingan xarajatni baholash va ularni ma’lum nisbiy ko‘rsatkichlarda ifodalash hamda shu yo‘l bilan xarajatlarni mahsulotning qiymatiga qarab proporsional taqsimlash;
- rejali tartibda belgilanadigan, iqtisodiy asoslangan koeffitsiyentlarni qo‘llash yordamida xarajatlarni taqsimlash, bunda mahsulotlardan birining turiga boshqa bir asosiy turdagi koeffitsiyent orqali xarajatlar qabul qilinadi (ozuqa ekinlari, donli ekinlar, chorvachilik mahsulotlari);
- pul shaklida ifodalanuvchi xarajatlarning umumiy miqdoridan yondosh mahsulotlarga qilingan xarajatlarni chegirib tashlash, yondosh mahsulotlarning pulda baholash normativ (hisob-kitobli) yoki haqiqiy xarajatdan kelib chiqib, amalga oshiriladi (paxta, don, kartoshka, chorvachilik mahsulotlari va hokazo);
- xarajatlarni mahsulot qiymatining realizatsiya bahosiga proporsional ravishda taqsimlash (kartoshka, sabzavot, poliz, meva, uzum, chorvachilik mahsulotlari va hokazo);
- yopiq yerdagi sabzavotlar, limon, apelsin va boshqalarning xarajatlarini mahsulotlar o‘rtasida taqsimlash, ekin turlari bo‘yicha metr-kunlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi, ya’ni vegetatsiya davri hisobga olinib, parvarishlangan kunlar miqdoriga ko‘paytiriladi hamda urug‘lik ekin turlari bo‘yicha alohida hisob-kitob qilinadi.

O‘simlikchilikda tannarxni hisoblab chiqish obyekti - har bir qishloq xo‘jalik ekinidan olinadigan asosiy, yondosh va qo‘shimcha mahsulotlarning har xil turi - paxta, g‘o‘za poyasi, don, don chiqindilari, somon, yog‘li ekinlar urug‘i, kartoshka, so‘talar, (karam) piyozlar, mevalari va boshqalar. Bundan tashqari, bu yil keyingi yilgi hosil uchun qilingan va tugallanmagan ishlab chiqarishga kiruvchi, kelgusi davr xarajatlariga kiruvchi qishloq xo‘jaligi ishlarining tannarxi ham aniqlanadi.

Chorvachilikda tannarxni hisoblab chiqish obyektlari - sut, go‘sht, nasl olish, tirik vaznning oshishi, jun, tuxum, asal va boshqalar.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishlarida tannarxni hisoblab chiqish - aralash ozuqalar, ozuqa aralashmalari, qo‘shimchalar (ozuqaga) donador, briketlar, un, yorma, konservalar, sharbatlar, o‘simlik yog‘i, sut mahsulotlari va boshqalar.

Yordamchi ishlab chiqarishdagi tannarxni hisoblab chiqish obyekti quyidagilar: yuk tashishda tonna-kilometr, maxsus mashinalarning ishida mashina-kun, ishning etalon gektari, issiqlik energiyasi birligi, suvning kub metri, ta’mirlash ustaxonasida tayyorlanadigan buyumlar va o‘sha yerda bajariladigan ishlar.

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxini hisoblab chiqish quyidagi izchillikda bajariladi:

- asosiy vositalarni saqlash bo‘yicha xarajatlar rejalashtirish va xarajatlarni hisobga olish obyektlariga taqsimlanadi;
- asosiy ishlab chiaqrishga xizmat ko‘rsatuvchi yordamchi va qo‘shimcha sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari (ishi xizmati) tannarxi hisoblab chiqiladi;
- yerga ishlov berish va uni quritish bo‘yicha xarajatlar taqsimlanib, o‘simliklarni changlatish bo‘yicha asalarichilikning xizmati hisobdan chiqariladi;
- brigada (fermerlik) tarmoqqa oid (sexga oid) va umumxo‘jalik sarflar taqsimlanadi;
- rejalashtirish va hisob obyektlari bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy miqdori aniqlanadi;
- o‘simlikchilik mahsulotlari tannarxi hisoblab chiqiladi;
- ozuqa sexlarini saqlash bo‘yicha qilinadigan sarflar taqsimlanadi;
- chorvachilik mahsulotlari tannarxi hisoblab chiqiladi;
- har bosh (qoramol)ning tirik vazni tannarxi aniqlanadi;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog‘liq qo‘shimcha (sanoat) ishlab chiqarish mahsulotlarining tannarxi hisoblab chiqiladi;
- realizatsiyaga ishlab chiqarish xarajatlari tannarxini qo‘shish yo‘li bilan o‘simlikchilik, chorvachilik va sanoat ishlab chiqarishi tovar mahsulotlarining to‘liq tannarxi hisoblab chiqiladi.

Va nihoyat, hisoblangan xarajatlarni, mahsulotlarning birlashtirilgan turiga taqsimlanadi va uning o‘simlikchilikdagi, keyin chorvachilikdagi birligining tannarxi aniqlanadi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi jarayonida bir vaqtning o‘zida bir necha tur mahsulot olinadi: *asosiy, yondosh va qo‘shimcha*. **Asosiy mahsulot** olish uchun ishlab chiqarish tashkil etilgani (masalan, don ishlab chiqarishda–don, sutchilikda–sut va boshqalar). **Yondosh mahsulot** – bitta qishloq xo‘jalik ekinidan yoki bir turdagi hayvondan olinadigan ikki yoki undan ortiq turdagi mahsulot. Masalan, qoramolchilikda sut va nasl, qo‘ychilikda jun va nasl olish, parrandachilikda tuxum va go‘sht va boshqalar. **Qo‘shimcha mahsulot** – bir vaqtning o‘zida asosiy mahsulotdan olinadigan, lekin ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladigan mahsulotdir (somon, poxol, poya, go‘ng va boshqalar).

Qishloq xo‘jalik korxonalarida hamma turdagi mahsulotlar tannarxi hisoblab chiqiladi: asosiy, yondosh va qo‘shimcha. Mahsulot tannarxini hisoblash o‘simlikchilik va chorvachilik ekinlari tarmoqlari bo‘yicha yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni taqsimlashdan boshlanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari asosiy turlari tannarxini kalkulyatsiyalash ishlab chiqarish jarayoni tugagach, hamma xarajatlar va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi aniqlangach, bajariladi: xarajatlarning hamma turini qo‘shish bilan bevosita va bilvosita o‘simlikchilikda va chorvachilikda ishlab chiqarilgan har bir tur mahsulotga qilingan umumiy xarajatlar miqdori aniqlanadi. Keyin asosiy, yondosh va qo‘shimcha mahsulotlar soni aniqlanadi, shundan keyin xarajatlarning umumiy miqdori ana shu turdagi mahsulotlarga taqsimlanadi. Qo‘shimcha mahsulotlar tannarxi uning xo‘jalik ehtiyoji uchun ishlatiladigan qismi bo‘yicha hisoblanadi, xolos.

Donli ekinlarni yetishtirish va yig‘ib olishga qilingan umumiy xarajatlar donni tozalash va quritish xarajatlari ham qo‘shiladi va don, don chiqindilari va somon tannarxiga kiritiladi. Xarajatlarning umumiy miqdorini (somonning qiymatini hisobga olmasdan) don va don chiqindilariga proporsional holda, ulardagi to‘liq qiymatli don ulushini hisobga olib taqsimlanadi.

Somonning tannarxi unga qilingan normativ bo‘yicha xarajatlardan kelib chiqqan (yig‘ib olish, presslash, transportda tashish va g‘aramlashga ketgan chiqimlar asosida) aniqlanadi.

1 tonnadan va don chiqindilarining tannarxi har bir turdagi mahsulotga qilingan xarajatlarni, donning mos keluvchi va tozalangandan va quritilgandan keyingi don chiqindilarining natural massasiga bo‘lish bilan hisoblab chiqiladi.

Misol. Faraz qilaylik, xo‘jalik yili uchun 1800 tonna (ishlov berilgandan keyingi og‘irlikda) kuzgi bug‘doy doni, 200 tonna foydalaniladigan don chiqindilari va 3000 tonna somon olindi. Chiqindilar ichida, laboratoriya ma’lumotlariga ko‘ra 50% don bor. Kuzgi bug‘doyga qilingan umumiy

xarajatlar 1700 ming so‘m. Shu jumladan, somonni yig‘ib olish, transportda tashish va g‘aramlashga 100 ming so‘m sarflangan.

1 tonna don, don chiqindilari va somonning tannarxini hisoblash quyidagi tarzda bajariladi.

1. Somonning tannarxi hisoblab chiqiladi:

100 ming so‘m.: 3000 t = 33,3 so‘m/t.

2. Foydalaniladigan don chiqindilari to‘la qiymatga ega donga aylantiriladi:

(200 t (50 %) : 100 % = 100 t.

3. Don chiqindilari hisobga olingan holda donning umumiy miqdori aniqlanadi:

1800 t + 100 t = 1900 t.

4. 1 tonna donning tannarxi hisoblanadi:

(1700 ming so‘m. – 100 ming so‘m.) : 1900 = 842 so‘m.

5. 1 tonna don chiqindisining tannarxi hisoblab chiqiladi:

(842 so‘m. . 50 %) : 100 % = 421 so‘m.

Chorvachilikda ham mahsulot tannarxi ana shunday usulda hisoblab chiqiladi. Go‘ngga qilingan xarajatlar normativ (hisob-kitobli) xarajatlardagi uni yig‘ish va to‘shama qiymatidan kelib chiqib, aniqlanadi. 1 tonna go‘ng tannarxi xarajatlarning umumiy miqdorini uning natural massasiga bo‘lish bilan aniqlanadi.

Sutchilik, qoramolchilikda sut va nasl tannarxiga sog‘in sigirlar va mahsuldor buqalarni parvarishlashga (go‘ngga xarajatlardan tashqari) qilingan xarajatlar kiritiladi.

Xarajatlarning umumiy miqdoridan go‘ngning qiymati chiqarib tashlangach, qolgan xarajatlar ozuqalarga almashtirilgan energiya sarfiga mos holda taqsimlanadi: sutga 90 % nasl (buzoq)ga 10%.

Chorvachilikda 1 s tirik vaznning tannarxi hisoblab chiqiladi. Ma’lum turdagi chorva moli (parrandalar)ga mos guruh bo‘yicha uni ushbu guruhga kiruvchi tirik vaznning ortishini ushbu o‘sishning og‘irligiga bo‘lish bilan xususiy sifatida hisoblanadi.

Misol. Xo‘jalikda sog‘in sigirlarning asosiy podasiga qilingan sarflar 4291 ming so‘mni, shu jumladan, go‘ngni tozalash xarajatlari 40 ming so‘mni tashkil etdi. 1379,3 t sut yetishtirilib, 421 bosh buzoq olindi. Mahsulotlarning tannarxini hisoblash kerak bo‘ladi.

Hamma xarajatlardan go‘ngni yig‘ish uchun ketgan xarajatni ajratib olamiz:

4291 ming – 40 ming = 4251 ming so‘m.

Sut va nasl olish uchun qilingan xarajatlarni aniqlaymiz:

4251 ming so‘mning 90% = 3826 ming so‘m, 10% - 425 ming so‘m.

1 t sutning tannarxi

3826:1379,3=2790 so‘m.

Yangi tug‘ilgan 1 bosh buzoqning tannarxi:

425:421=1009 so‘m.

1 t yirik shoxli qoramol tirik vaznining o‘sish tannarxini aniqlashda uni o‘stirish va boqishga qilingan hamma xarajatlardan go‘ngni tozalashga ketgan xarajatlar hisoblab chiqiladi, qolgan xarajatlarni tirik vaznda olingan o‘sishga (tonnalarda) bo‘linadi. Tirik vaznning ortishi quyidagi tarzda (nobud bo‘lishlar ajratilgan holda) hisoblanadi:

O‘stirilayotgan va bo‘rdoqiga boqilayotgan hayvonlarning yil oxiridagi tirik vazni *plyus* yil davomida hayvonlarning realizatsiyasi va chiqarilishi (hayvonlarning nobud bo‘lganidan tashqari) *minus* nobud bo‘lganlari *minus* yil davomida qo‘shilgan *minus* hayvonlarning yil boshidagi tirik vazni.

Misol. Fermer xo‘jaligida o‘stirilayotgan va boqilayotgan yirik shoxli qoramollarning tirik vazni yil oxirida 185 t., realizatsiya, boshqa guruhga o‘tkazish va boshqa nobud bo‘lishlar – 175,6 t., boshqa hisobdagi guruhdan kelib qo‘shilgan va nasl olingan – 59,9 t., nobud bo‘lish – 3,1 t., hayvonlarning yil boshiga tirik vazni – 203,2 t. Yirik shoxli qoramolning tirik vazndagi o‘sish tannarxini hisoblaymiz:

Tirik vaznining ortishi:

185 + 175,6 = 360,6 t;

360,6 – 59,9 – 3,1 – 203,2 = 94,4 t.

Keyin tirik vaznining 1 t ortishi tannarxini hisoblaymiz. Yirik shoxli qoramolni o‘stirish va boqish uchun ketgan hamma xarajatlar 2900 ming so‘mni, shu jumladan, go‘ngni tozalash uchun xarajat – 57 ming so‘mni tashkil etdi.

2900 ming – 57 ming = 2843 ming;

2843 ming : 94,4 = 30120 so‘m.

Cho‘chqachilik mahsulotlari yetishtirishda tannarxning quyidagi ko‘rsatkichlari hisoblab chiqiladi: yangi tug‘ilgan cho‘chqa bolasining 1 t tirik vazni tannarxi, cho‘chqa bolalari boqilganda 1 t tirik vaznining o‘sishi, o‘stirilgan va boqilgan 2 oylik cho‘chqa bolalarining 1 t boqishdagi tirik vazni. Cho‘chqachilikda mahsulot tannarxini hisoblab chiqish metodikasi o‘sgandagi yirik shoxli qoramollarning 1 t tirik vazni tannarxini aniqlashga o‘xshash.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida 1 t tirik vaznda o‘sishning tannarxini hisoblashdan tashqari hamma yoshdagi yosh mollarning bo‘rdoqiga boqilayotgan katta yoshdagi chorva mollari va parrandalarning ishlab chiqarishdagi 1 t tirik vazni tannarxi ham hisoblanadi. Bu yosh mollarni asosiy podaga o‘tkazilayotganda qiymatini aniqlashda, realizatsiya qilingan va so‘yilgan chorva mollarning to‘liq tannarxini hisoblashda va chorva molining yil oxiridagi qiymatini hisoblashda kerak bo‘ladi.

12.5. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tannarxini kamaytirish yo‘llari

Qishloq xo‘jaligida mahsulot tannarxini pasaytirishning muhim omili - yerdan foydalanish samaradorligining o‘sishi, ekinlarning hosildorligi va hayvonlarning mahsuldorligidir. Zamonaviy texnikadan foydalanish va dehqonchilikning taraqqiy etgan tizimini joriy etish, organik va mineral o‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanish, zararkunandalar va o‘simliklarning kasalliklariga qarshi kurashish vositalari, o‘simliklarning va hayvonlarning sermahsul nav va zotlarini keng qo‘llash,1 ga ekin yerga va 1 bosh qoramolga moddiy pul mablag‘lari xarajatlarni oshiradi, ammo bir vaqtning o‘zida ularning mahsulot birligidagi hisobini qisqartiradi. Shuning uchun ekinlar hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligi qancha yuqori bo‘lsa, o‘simlikchilik va chorvachilikdagi mahsulotlar tannarxi shuncha past bo‘ladi.

Chorvachilikda chorva mollarining mahsuldorligi pasayganda mahsulot birligiga ozuqa sarfi ortadi. Agar yil davomida sigirlardan 1800 kg sut sog‘ib olinganda 1 s sut ishlab chiqarish uchun 3000 kg sut sog‘ib olishga qaraganda 35 % ko‘p ozuqa sarflanadi, ya’ni ozuqalarning salmoqli qismi hayvonlarning hayot faoliyatini qo‘llab turishga sarflanadi. Mahsuldorlik ortganda, mahsulot birligiga ozuqa sarfi kamayadi. *Misol, b*ir bosh sigirdan yil davomida 3000 kg sut sog‘ib olinganda ozuqalarning umumiy sarfida qo‘llab turuvchi ozuqa 48 % 1800 kg sog‘ib olinganda esa 60 % bo‘ladi. Qoramol go‘sht uchun boqilganda agar, sutkalik tirik vaznining ortishi 500 g. bo‘lsa, 1 kg tirik vaznining ortishi uchun 4,6 ozuqa birligi, sutkalik tirik vazni 400 g. oshganda esa – 5,3 ozuqa birligi sarflanadi.

Hayvonlar mahsuldorligining oshishiga proteinga, aminokislotalarga, mikroelementlar va vitaminlarga balanslashtirilgan to‘laqonli ozuqalar to‘g‘ri va yaxshi parvarishlash va boqish, bo‘rdoqiga va yaylovda boqishning jadal usullarini joriy etish, naslchilik ishlarini mukammallashtirish kabilar bevosita ta’sir qiladi.

Chorvachilik mahsulotlari tannarxini kamaytirishda to‘laqonli ozuqalar alohida o‘rin tutadi. Ozuqalarda u yoki bu elementning yetishmasligi mahsulot birligiga qo‘shimcha sarf qilinishiga olib keladi.

To‘laqonli boqishda 1 kg sut ishlab chiqarish uchun 1-1,2 ozuqa birligi, yirik shoxli qoramollarning tirik vazni 1 kg ga ortishi uchun-kamida 5-6 ozuqa birligi sarflanadi. Hayvonlarning yoshini, fiziologik holatini, yil faslini, o‘stirish va boqish davrini hisobga olib, ratsionlar to‘g‘ri tuzilsa, ozuqalar sezilarli tejaladi.

Tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘llaridan biri – mehnat unumdorligini oshirishdir. Buning hisobiga qishloq xo‘jaligidan olinadigan har qanday mahsulotning ko‘payib, o‘sishiga erishiladi. Mehnat unumdorligi va tannarx orasida chambarchas bog‘liqlik mavjud. Mehnat unumdorligining oshirilishi tannarxning pasayishi uchun salmoqli ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mehnat unumdorligining o‘sish sur’ati ish haqining o‘sish sur’atidan oldinga o‘tib

ketmog‘i muhim. Qishloq xo‘jaligi mehnat resurslaridan yaxshiroq foydalanish, kompleks mexanizatsiyani, mashinalar tizimini, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini joriy etish zarur. Boshqa tomondan, mahsulot ishlab chiqarishni oshirish va sifatini yaxshilash uchun ishchilarning moddiy va ma’naviy manfaatdorligini yaratish talab etiladi.

Mahsulot tannarxini pasaytirishning yana bir yo‘li - moddiy xarajatlarni iqtisod qilish: urug‘lik (yuqori sifatli urug‘larni ekish), ozuqa (ularning narxini arzonlashtirish, oqilona foydalanish, saqlash va transportga yuklab tushirishdagi yo‘qotishlarni bartaraf etish hisobiga), transport sarflarini yoqilg‘I - moylash xarajatlarini ehtiyot qismlar va boshqalarga sarflarni qisqartirish.

Qishloq xo‘jalik ekinlariga ishlov berishda resurslarni tejovchi texnologyalardan foydalanib, moddiy resurslar sarfini qisqartirish mumkin. Bunday texnologiyalarni joriy etish moddiy xarajatlarni 30-40 % ga, ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini 15-20 % ga pasaytirish imkonini beradi.

Mahsulotlar tannarxining pasayishiga ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilash ham katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki xarajatlarning sezilarli ulushi amortizatsiya chegirmalariga to‘g‘ri keladi. Xo‘jalik ishlab chiqarish vositalari bilan qanchalik yaxshi ta’minlangan bo‘lsa, ulardan shunchalik yaxshi foydalaniladi, mahsulot esa ko‘proq ishlab chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni ularning strukturasini mukammallashtirish, ortiqcha vositalarni ishlab chiqarishdan olib tashlash yo‘li bilan yaxshilash mumkin. Bularga iqtisodiy ishlab chiqarish, bino (inshoot) qurish, ularning umumiy hajmidagi asosiy vositalarning faol qisminingulushini ko‘paytirish, mashina va uskunalardan yaxshiroq foydalanish, bitta traktor, kombayn, avtomobil hisobiga ishlab chiqarishni (kunduzgi smenadagi, mavsumdagi) oshirish, davr strukturasini yaxshilash, ishlab chiqarish fondlarining xarajatlarini qoplashni tezlashtirish kiradi.

Tannarx strukturasida umumishlab chiqarish va umumxo‘jalik xarajatlari ham sezilarli ulushni tashkil qiladi. Ma’muriy-boshqaruv apparatidagi ortiqcha shtatlarni bartaraf etish, korxonaning tashkiliy-xo‘jalik strukturasini mukammallashtirish yo‘llari bilan ularni pasaytirish zarur.

Bularga qishloq xo‘jaligi uchun xarakterli bo‘lgan ko‘p tarmoqli ishlab chiqarishda hosilni yig‘ib olish, saqlash va qayta ishlashdagi yo‘qotishlarni bartaraf etish, xo‘jalikda tez buziladigan va transportda tashishga qulayligi ham mahsulotlarni qayta ishlashni tashkil etish, eng kam mehnat va mablag‘ sarflagan holda mahsulot ishlab chiqarishni maksimal darajada ko‘paytirish maqsadida ilmiy asoslangan ixtisoslatirish, mahsulotlarni o‘z vaqtida realizatsiya qilish va har qanday noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va boshqalar kiradi.

Tannarxni kamaytirish (pasaytirish)ning ko‘rib chiqilgan yo‘llari tarmoqlarda va qishloq xo‘jalik korxonalarida ehtimol tutilgan choralarning hamma kompleksini batafsil yoritmaydi. Ular faqat ishning umumiy yo‘nalishi haqida tasavvur beradi va korxonalarda ishlab chiqarishning tabiiy va iqtisodiy

o‘ziga xosliklarni hisobga olib, ishlab chiqiladigan aniq dasturlarga asos bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, qo‘shimcha moddiy xarajatlarni qoplash va mahsulot tannarxi pasayishi oqibatida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi oshishi uchun xo‘jalikni ishlab chiqarishini mukammalroq vositalari bilan ta’minlash zarur.

Bozor iqtisodiyotida tannarxning roli va ahamiyati keskin ortadi. Iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan uning pasayishi quyidagilarga imkon beradi:

- korxona ixtiyorida qoladigan oddiygina mahsulot emas, kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishga imkon beruvchi foyda (daromad)larni ko‘paytirish;
- ishchilarni moddiy rag‘batlantirishni yaxshilash va ijtimoiy muammolarni hal etish;
- korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash;
- o‘z mahsulotlarining narxini pasaytirish va diversifikatsiyalash, shu bilan uning raqobatbardoshligini oshirish va realizatsiya hajmini ko‘paytirish;
- aksionerlik jamiyatlarida dividendlar bo‘yicha to‘lovlarni ko‘paytirish va ularning stavkasini oshirish.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxi bevosita korxonaga bog‘liq bo‘lgan (ichki) va bog‘liq bo‘lmagan qator omillarga bog‘liq. ***Tashqi omillar*** - inqiroz, xom-ashyo, yoqilg‘i va boshqalarning tarifi va narxi oshishi kabilardan iborat.

Ichki omillar esa korxonaning moddiy mehnat va (material) pul mablag‘lari resurslaridan to‘liqroq va tejamkorlik bilan foydalinishdir (ilg‘or texnika va texnologiyani joriy etish, mehnatni optimal tashkil etish va boshqarish va boshqalar).

Keyingi yillarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablari turlicha, ya’ni ishlab chiqarish vositalari, ehtiyot qismlar, yoqilg‘I - moylash materiallari, xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishlar, xizmatlar bahosining ortib borishi, ishlab chiqarish resurslaridan yetarlicha samarali foydalanilmayotganidir.

Asosiy tushunchalar

Korxona xarajatlari - mahsulot ishlab chiqarish va uning realizatsiyasi uchun qilingan jonli mehnat va moddiy mablag‘lar xarajatlarining yig‘indisidir. Ular mahsulot tannarxining asosini tashkil etadi. Xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchanga bo‘linadi.

Doimiy xarajatlar - miqdori ishlab chiqariladigan mahsulot hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlardir. Ular korxona o‘z aktivi va ishchilari sonini o‘zgartirmagunicha har yili bir xil darajada mavjud bo‘ladi.

O‘zgaruvchan xarajatlar - ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lgan xarajatlardir. Ularga ish haqlari, ozuqaga, o‘g‘itga, ishlab chiqarish materiallari, energiya, yordamchi materiallar, noqulay ob-havo sharoitidan sug‘urtalar, mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari kiradi.

Bir tekis xarajatlar. Ishlab chiqarish kengaytirilganda daromadning har bir qo‘shimcha birligi qo‘shimcha xarajatlarning teng miqdordagi sonini keltirib chiqaradi.

O‘sib boruvchi (progressiv) xarajatlar - ishlab chiqarish kengayishi bilan yetishtirilgan har bir qo‘shimcha mahsulot birligiga nisbatan ortib boruvchi xarajatlardir.

Kamayib boruvchi (regressiv) xarajatlar - ishlab chiqarish kengayishi bilan mahsulot birligiga nisbatan kamayib boruvchi xarajatlardir.

Xarajat elementlari deganda, iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir xildagi xarajatlar tushuniladi. Mahsulot tannarxini paydo qiluvchi hamma xarajatlar quyidagi elementlariga ko‘ra guruhlanadilar:

- moddiy;
- mehnatga haq to‘lash;
- ijtimoiy ehtiyojlarga chegirma;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- boshqa xarajatlar.

Xarajat moddalari deyilganda, bir yoki bir necha elementlarni qamrab olgan xarajatlar tushuniladi. Moddalar bo‘yicha xarajatlarni guruhlash alohida elementlar yoki ularning majmualari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tannarx - bu aniq korxona sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining asoslangan qismi bo‘lib, u har bir korxonada mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish nimaga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Tannarx korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun pul shaklida ifodalanuvchi iqtisodiy kategoriyasidir.

Mahsulot birligi tannarxi – ishlab chiqarish xarajatlarini natural ko‘rinishdagi yalpi mahsulot hajmiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish tannarxi -ishlab chiqarish bilan bog‘liq sarf-xarajatlardir.

Tijorat (to‘liq) tannarx - bu ishlab chiqarishga ham, mahsulot realizatsiyasiga ham qilingan sarf-xarajatlardir.

Ishlab chiqarish xarajatlari - mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari bilan bog‘liq. Ularga o‘simlikchilik, chorvachilik, sanoat va yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish va umumxo‘jalik xarajatlari kiradi.

Noishlab chiqarish xarajatlari - mahsulot realizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar, realizatsiya qilingan mahsulotlarning tabiiy kamayish chegarasidagi kamomadi, yuqori tashkilotlarga qilingan sarflar va shu kabilarni qamrab oladi.

Asosiy xarajatlar - ma’lum turdagi mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bilan bevosita bog‘liq xarajatlardir (urug‘lik, ozuqa, ish haqi va boshqalar).

Ma’muriy xarajatlar - ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish va uni boshqarish bilan bog‘liq va yaxlitligicha tarmoq yoki xo‘jalik bo‘yicha hisoblanadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari - umum brigada, umumferma, umumsex va umumtarmoq xarajatlaridan tarkib topadi.

Umumxo‘jalik xarajatlari - xo‘jalik bo‘yicha butunicha ishni boshqarish va tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar.

Bevosita xarajatlar - alohida ekinlar, hayvonlar guruhi (turi)ga taalluqli. Ularga quyidagilar kiradi: ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar, chegirilgan asosiy va qo‘shimcha ish haqlari, urug‘lik, ekish materiallari, o‘g‘itlar, zaharli kimyoviy moddalar, ozuqa va to‘shama, qishloq xo‘jalik mashinalariga uskunalar, qurilish va inshootlar, ishlab chiqarishda foydalanadigan aniq turdagi mahsulotlar, joriy ta’mirlash, avtotransportlar va boshqalar.

Bilvosita xarajatlar - qishloq xo‘jalik ekinlari yoki chorvachilik mahsulotlarining bir necha turi uchun umumiy bo‘ladi.

Hisobot davri xarajatlari (oy, kvartal, yil) ushbu davrda bajarilgan xo‘jalik opreatsiyalari bilan bog‘liq va shu vaqtning o‘zidagi ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘shilishiga mansub xarajatlar.

Kelgusi davr xarajatlari - hisobot davrining ishlab chiqarishning kelgusi davrini ham o‘z ichiga oluvchi haqiqiy xarajatlari (hayvonlar uchun vaqtincha yaylovlar qurish xarajatlari, OAV ga obuna va boshqalar).

Oldinda turgan sarf-xarajatlar - hali aslida ular ishlab chiqarilmagan bo‘lsa ham, hisobot davri mahsulotlari tannarxini qamrab oluvchi xarajatlar (ishchilarning ta’tillariga haq to‘lash).

Tannarxni kalkulyatsiya qilish - bu mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, ish xizmatga qilingan xarajatlarning puldagi ifodasini hisoblash tizimidir.

O‘simlikchilikda tannarxni hisoblab chiqish obyekti - har bir qishloq xo‘jalik ekinidan olinadigan asosiy, yondosh va qo‘shimcha mahsulotlarning har xil turidir.

Chorvachilikda tannarxni hisoblab chiqish obyektlari - sut, go‘sht, nasl olish, tirik vaznning oshishi, jun, tuxum, asal va boshqalar.

Yordamchi ishlab chiqarishdagi tannarxni hisoblab chiqish obyekti quyidagilar: yuk tashishda tonna-kilometr, maxsus mashinalarning ishida

mashina-kun, ishning etalon gektari, issiqlik energiyasi birligi, suvning kub metri, ta’mirlash ustaxonasida tayyorlanadigan buyumlar va o‘sha yerda bajariladigan ishlar.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari asosiy turlari tannarxini kalkulyatsiyalash - ishlab chiqarish jarayoni tugagach, hamma xarajatlar va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi aniqlangach, bajariladigan hisob-kitob.

Tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘llari - mehnat unumdorligini oshirish, moddiy xarajatlarni tejash, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilash va boshqalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga nimalar kiradi?
2. Qanday xarajatlar joriy va o‘rtacha xarajatlar deb ataladi?
3. Uzoq va qisqa muddatli xarajatlarga nimalar kiradi?
4. Qo‘shimcha, ishlab chiqarish, davr, moliyaviy hamda ko‘zda tutilmagan xarajatlar tasnifini aytib bering.
5. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘rtacha xarajatlari, ya’ni tannarxi va uning aniqlash usullarini bayon eting.
6. Qishloq xo‘jaliki mahsulotlarining xarajatlar moddalariga nimalar kiradi?
7. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘rtacha xarajatiga (tannarxiga) ta’sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?
8. Xarajat turlarining mahsulot tannarxidagi salmog‘ini aniqlash deganda, nimani tushunasiz?
9. Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikda boy berilgan imkoniyatlarni ayting.
10. Qishloq xo‘jaligida xarajatlarni tejashning qanday yo‘llari bor?

XIII-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING YALPI VA TOVAR MAHSULOTI, ULARNING TAQSIMLANISHI VA KO‘PAYTIRISH YO‘LLARI

O‘quv maqsadi: Qishloq xo‘jaligining yalpi va tovar mahsuloti va tarmoqda unga bo‘lgan talabni aniqlash, yalpi mahsulotni baholash turlarini asoslash, yalpi mahsulotni ko‘paytirish yo‘llari (ekstensiv va intensiv), qishloq xo‘jalik mahsulotlar bozorini rivojlantirish yo‘llarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *yalpi va tovar mahsulot, mahsulot turlari, baholash, qiymat, dehqonchilik va chorvachilik yalpi mahsuloti, ekstensiv va intensiv yo‘l, tovarlilik, mahsulot bozori, tarkibiy o‘zgarish, diversifikatsiya.*

13.1. Qishloq xo‘jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati

Yalpi mahsulot – bu tarmoqda ma’lum davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barcha hajmini bildiradi. U o‘simlikchilikning yalpi mahsuloti va chorvachilikning yalpi mahsulotidan iborat bo‘ladi. **O‘simlikchilikning yalpi mahsuloti** qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini, ko‘p yillik ko‘chatlarni ekish, ularni parvarishlab o‘stirish va tugallanmagan ishlab chiqarishning o‘sib borish qiymatlarini hisobga olgan holda yalpi yig‘imini qamrab oladi. **Chorvachilikdagi yalpi mahsulot** – bu hayvonlarni so‘yish bilan bog‘liq bo‘lmagan tayyor mahsulotlar (sut, jun, tuxum) nasl olish, yosh buzoqlar va katta yoshli qoramollarni o‘sishidan vazn ortishi, shuningdek, qo‘shimcha mahsulotlardir.

Qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulot *natural* va *qiymat baholarda* ifodalanadi va hisobga olinadi. Natural ko‘rsatkichlarda u mahsulotning alohida turlari bo‘yicha aniqlanadi. Yalpi mahsulot qiymati taqqoslama va amaldagi haqiqiy joriy baholar (uning tovar qismi-realizatsiya bahosida, tovar bo‘lmagani - tannarxi bo‘yicha) shuningdek, tannarxlar bo‘yicha ham hisoblab chiqiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmini, unig yillar bo‘yicha o‘zgarishini, shuningdek yerdan, moddiy va mehnat resurslaridan (yerning unumdorligi, fondlaridan foyda, mehnat unumdorligi va boshqalar) va boshqa maqsadlarda foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqish uchun yalpi mahsulotlarni taqqoslama baholarda baholanadi. Hozir qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun ularning pul qiymatining o‘zgarishini hisobga olgan holda 2000 va 2015 yilgi taqqoslama narxlar amal qiladi. Masalan, 1 t. bug‘doyning narxi 405,5 ming so‘mga, paxta – 1057,1 so‘mga, sut

– 600 ming so‘mga teng. Amaldagi (joriy) narxlardan yalpi mahsulotlarni baholashda yalpi va sof daromadni hisoblab chiqishda foydalaniladi. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotlarining narxi amaldagi baholarda inqiroz tufayli narx oshishi hisobiga keskin ko‘tarildi. Natural ifodadagi taqqoslama narxlarda qisqardi.

13.1.1-jadval

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining yalpi mahsulotlari[64]
(2012-2016 yillar)

Ko‘rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Amaldagi narxlarda yalpi mahsulot, mlrd so‘m	24370,3	30849,4	36957,0	37986,3	47486,1
Qishloq xo‘jaligida YAMning o‘sishi, %	107,0	106,8	106,5	106,1	106,6
Shu jumladan					
O‘simlikchilikda, mlrd so‘m	14159,1	18447,9	21656,8	22487,9	29042,4
O‘simlikchilik mahsulotlarining o‘sishi, %	107,0	106,4	107,2	106,9	106,2
Chorvachilikda, mlrd so‘m	10211,2	12401,5	15300,2	15498,4	18443,7
Chorvachilik mahsulotlarining o‘sishi, %	107,1	107,4	107,7	106,1	107,1
Yalpi mahsulot: paxta, ming tonna	3500,0	3460,1	3361,2	3350,4	2959,0
g‘alla, ming tonna	7140,1	7519,5	7804,8	7501,8	8261,3
sabzavot, ming tonna	6993,7	7767,4	8515,9	8717,8	11275,8
kartoshka, ming tonna	1862,4	2057,1	2250,4	2414,3	2958,4
poliz, ming tonna	1294,7	1418,4	1558,0	1799,3	2044,9
meva, ming tonna	1871,1	2052,8	2260,9	2391,1	3042,8
uzum, ming tonna	1090,2	1206,0	1322,1	1457,3	1735,8
go‘sht (tirik vaznda), ming tonna	1564,2	1672,9	1787,5	1893,4	2148,8
sut, ming tonna	6766,2	7310,9	7884,7	8039,3	9638,0
tuxum, mln dona	3441,7	3873,7	4379,1	5051,4	6098,8

[64] Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2012-2016 yillar) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi davrda agrar-iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiyalash natijasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yildan yilga o‘sib bormoqda (13.1.1-jadval).

Diversifikatsiya – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorini kengaytirish maqsadida qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatini kengaytirish, mahsulot va xizmatlarning assortimentini ko‘paytirishdir.

Tarkibiy o‘zgarishlar – qishloq xo‘jaligida yangi tarmoqlarni barpo etish, ba’zilarini kengaytirish, ayrim samarasiz, istiqbolga ega bo‘lmagan tarmoqlarni qisqartirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Yalpi mahsulot – bu ma’lum davrda korxonaning hamma tarmoqlari tomonidan ushbu mahsulot korxona ichida foydalaniladimi yoki kelgusi ishlab chiqarilishi uchunmi yoki boshqa tomonga realizatsiya qilinishidan qat’iy nazar ishlab chiqarilgan mahsulot. Mahsulotlar hajmining qiymati yalpi mahsulotni aniqlashda oraliq mahsulotlarni hisobga olishda – urug‘liklar, ozuqa va boshqa yo‘lga qo‘yiladi.

Yalpi mahsulot – qishloq xo‘jaligini birlashtirilgan ijtimoiy mahsulotlaridagi ulushining ishlab chiqarishning tarmoq strukturalari ishlab chiqarilgan mahsulotlardagi xo‘jalikning alohida tarmoqlari bo‘yicha aniqlash uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish miqyosini xarakterlovchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkichdir.

Shu bilan birga ushbu ko‘rsatkich uning yordamida korxona xo‘jaligi faoliyatining natijalarini obyektiv baholashga imkon bermaydigan qator kamchiliklarga ham ega. *Birinchidan,* yalpi mahsulot o‘zida jonli mehnatni qanday bo‘lsa, moddiylashgan mehnatni ham shunday qo‘llanganlik natijalarini aks ettiradi, buning oqibatida yalpi mahsulot bo‘yicha hisoblab chiqilgan ko‘rsatkichlar, jonli mehnatning roli haqida aniq tasavvur bera olmaydi, chunki uning hajmi moddiy resurslar miqdori bilan bog‘liq. *Ikkinchidan,* qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining uning o‘simlikchilik va chorvachilik bo‘yicha summasi sifatida hisoblangan va u qayta hisoblashga yo‘l qo‘yadi (korxonada ishlab chiqilgan va o‘sha yilning o‘zidayoq iste’mol qilingan ozuqa ikki marta hisobga olinadi: o‘simlikchilik mahsulotlarining bir qismi va chorvalik mahsulotlari tannarxiga qilingan xarajatlarning tarkibiy elementi sifatida). *Uchinchidan,* yalpi mahsulotlarni joriy narxlarda baholashda uning haqiqiy bahosi pasayib yoki ko‘tarilib ketadi, chunki mahsulotning tovar bo‘lmagan qismi bozor narxidan past yoki baland bo‘lishi mumkin bo‘lgan tannarx bo‘yicha baholanadi. *To‘rtinchidan*, taqqoslangan baholarda hisoblab chiqilgan yalpi mahsulot ko‘rsatkichi mahsulot sifatini aks ettirmaydi.

Tovar mahsulotlar – bu yalpi mahsulotning realizatsiyaga mo‘ljallangan bir qismidir. Qishloq xo‘jalik korxonasining tashqarisiga chiqarilgan hamda iste’molchi yoki savdolashuvchi tashkilot tomonidan haqi to‘langan tovar mahsulotining qismi realizatsiya qilingan mahsulot deyiladi. Biroq, amaliyotda va qishloq xo‘jalik adabiyotlarida bu tushuncha sinonim sifatida ishlatiladi va

tovar mahsuloti deganda realizatsiya qilingan pul tushumi sifatida ko‘rinadigan mahsulotlar tushuniladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarining hisobot-statistik materiallaridan tovar mahsulotlari o‘tkazilmaydi. Tovar va realizatsiya qilinadigan mahsulotlar amaldagi narxlarda hisoblab chiqiladi.

Qishloq xo‘jalik korxonasi va ular tarmoqlarining tovar mahsulotlarini farqlash lozim. Qishloq xo‘jalik tarmoqlarining alohida turdagi mahsulotlarining tovarliligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar - yer maydoni birligiga yoki chorva moli bosh soni hisobiga tovarlilik darajasi, tovar mahsulotlarining umumiy hajmi, tovar mahsulotining hajmi hisoblanadi.

Tovar (realizatsiya qilingan) mahsulotining (TM) yalpi mahsulotga nisbatini anglatuvchi muhim ko‘rsatkich - ***tovarlilik darajasi*** deyiladi, %:

$$T_d = \frac{TM}{YaM} * 100 .$$

Alohida turdagi mahsulotlarning tovarlilik darajasini aniqlashda (g‘alla, paxta, sut va hokazo) yalpi va realizatsiya hajmini natural ifoda etish uchun tarmoqlar yoki korxonalar bo‘yicha bir butun-qiymat ko‘rsatkichlarida hisoblab chiqishi mumkin.

Bu holda yalpi va realizatsiya qilingan mahsulot yagona narxda masalan, taqqoslama baholarda hisoblab chiqilishi muhim.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining tovarlilik darajasi xo‘jaligi toifalari bo‘yicha keskin farqlanadi. Tovarlilikning eng yuqori darajasifermer, eng pasti-dehqonxo‘jaliklaridir. Bu qishloq xo‘jaligini yuritish maqsadlariga bog‘liq. Qishloq xo‘jalik korxonalarining maqsadi sotish uchun mahsulot ishlab chiqarish, aholi xo‘jaliginiki esa - oilasining oziq- ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining tovarlilik darajasini oshirishning zamonaviy sharoitdagi asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligining ortishi va chorva mollarining mahsuldorligi hisobiga (masalan, qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan navlarning va gibridlarning hosildorligi, faqat 30-50 %) yalpi mahsulotning ortishi (13.1.2-jadval);
- mahsulotlarni xo‘jalik ichidagi ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflashni qisqartirish (urug‘lik, ozuqa, xom-ashyo va boshqalar);
- urug‘lik va ozuqalar sifatini yaxshilash, ularni sarflashda tejamkorlik;
- ishlab chiqarishni saqlash va yuklab-tushirish jarayonida yo‘qotishlarni kamaytirish;
- mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- qishloq xo‘jalik korxonalarida marketing xizmatini tashkil etish.

13.1.2-jadval

2012-2015 yillarda barcha qishloq xo‘jalik tarmoqlarida ishlab chiqarishining tovarlilik darajasi (ishlab chiqarishning umumiy hajmidan realizatsiya qilingan)[65], foizda

Mahsulotlar	2005	2012	2013	2014	2015	2016
Paxta	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
G‘alla	52,8	52,6	50,9	51,2	62,0	63,4
Kartoshka	11,0	11,2	12,5	12,8	12,0	12,8
Sabzavotlar	21,4	22,4	21,5	20,8	20,9	25,3
Chorva mollari va parrandalar (tirik vaznda)	57,1	58,7	56,3	57,1	58,2	58,8
Sut	50,0	49,9	50,5	51,8	50,8	55,2
Tuxum	68,3	68,6	68,4	68,5	70,1	73,1

13.2. Qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti tarkibi, o‘zgarishi, sifati va raqobatbardoshligi

Agrasanoat majmuasida ishlab chiqarishning (ASM) tovarlilik darajasi salmoqli darajada bozor konyunkturasi, taklif va talablar bilan belgilanadi.

Qishloq xo‘jalik korxonasining chidamliligi (yashovchanligi) uning tovar va xizmatlar bozorida barqaror holati raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi.

Bozorga chiqarilgan har qanday qishloq xo‘jalik mahsuloti xaridorlar talabini qondira olish darajasi tekshiruvidan o‘tadi. Xaridor hamisha o‘z ehtiyojini yaxshiroq qondiradigan mahsulotni sotib oladi.

Respublika aholisining aksariyat qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji ham to‘liq qondirilmayapti. Ularning ayrimlarini chetdan olib kelib sotish orqali ham bu muammo to‘liq yechilganicha yo‘q. Bu asosan don, qand, shakar mahsulotlari, kartoshka va chorvachilik mahsulotlari, ayniqsa, go‘sht va sut mahsulotlariga tegishlidir. Shuning uchun barcha turdagi korxonalarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish eng dolzarb muammodir. U siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu muhim muammoni hal etishning asosan ikki yo‘li mavjud:

- **Ekstensiv yo‘l.** Ya’ni, ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko‘paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko‘paytirish. Bu usulni adabiyotlarda Amerika usuli, deb ham atashadi. Lekin uning rivojlantirilishi

[65] Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

ayrim ishlab chiqarish resurslari, jumladan, yer va suv resurslari tabiatan cheklanganligi sababli to‘liq ta’minlanmaydi.

Bu usulda qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmini ko‘paytirish uchun moddiy mablag‘ hamda mehnat sarflari asosan yangi yerlarni o‘zlashtirib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi muomalasiga kiritishga hamda chorva hayvonlari bosh sonini ko‘paytirishga qaratiladi. Natijada o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdori ko‘paytiriladi. Shu bilan birga, bu jarayonda yangi texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni, zooveterinariya ishlarini ham amalga oshirish talab qilinadi. Demak, bu usul yordamida yalpi mahsulot hajmi ko‘payishi va sifati yaxshilanishi ta’minlanadi.

Intensiv yo‘l. Ya’ni, foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, chorvachilikda zootexnologiya, veterinariya ishlarini rivojlantirish asosida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish. Bu usul adabiyotlarda Prussiya yo‘li, deb ham ataladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hajmini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash asosan, moddiy mablag‘ va mehnat sarflarini, fan yutuqlarini, yangi texnikalarni hamda ilg‘or texnologiyalarni, hayvonlarning nasl va zotlarini, o‘simlik navlarini yaxshilashga qaratish orqali, binobarin, qo‘shimcha investitsiyalarni amalga oshirish hisobiga ta’minlanadi.

Raqobatbardosh qishloq xo‘jalik mahsuloti bozordagi o‘xshashiga nisbatan yuqori darajada, iste’molchilar talab qiladigan xususiyatlarga ega bo‘ladi va buning natijasida yuqori talabga erishadi. Raqobatbardoshlikni raqobatchilar mahsulotiga solishtirish yo‘li bilan aniqlash mumkin.

Chunki qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlarining raqobatbardoshligi nisbiy tushuncha, u aniq bozorga va sotish vaqtiga (ayniqsa, qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun) qattiq bog‘langan.

Raqobatbardoshlik asosan, ikki usul bilan aniqlanadi: mahsulotning bahosi va sifati bilan, binobarin, ikkinchi omil asta-sekin yetakchi bo‘lib oladi. Mahsulot sifati iste’molchilar qiymati bilan ajralmas holda bog‘liq. Iste’molchilarni mahsulotning tabiati emas, uning tovar bo‘la olishi qiziqtiradi. Oldi - sotdi amalga oshirilayotgan paytda xaridor ushbu tovarning bozor shartlariga mosligini tasdiqlaydi. Bunday mahsulotning raqobatbardoshligi yuqori bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifati - uning o‘z vazifasiga ko‘ra mos ravishda ma’lum talabni qondirishga asoslanadigan xususiyatlarining yig‘indisidir. Xaridor uning qanday o‘ziga xos talabini qondirishiga qaramasdan, o‘zining iste’mol talabiga javob beradigan mahsulotni sifatli deb biladi. Bir mahsulotning sifati, undan bitta maqsad yo‘lida foydalanish uchun yuqori yoki past deb bilinishi mumkin. Masalan, arpadagi oqsilning ortishi uning yem-xashak sifatida qimmatini oshirsa-da, pivo tayyorlash mahsuloti sifatini pasaytiradi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotining raqobatbardoshligi xaridor uchun qiziqish uyg‘ota oladigan o‘ziga xos xususiyatlari (masalan, o‘lchami, yangiligi, mevasining mazasi) bilangina belgilanadi. Boshqa hamma parametrlari (masalan, shakli, meva rangi) raqobatbardoshlikni baholashda hisobga olinmaydi. Raqobatli bozorning rivojlanishini mahsulot sifatini yaxshilash darajasi va o‘sishi ko‘rsatib beradi. Shu sababli, tovar ishlab chiqaruvchilar oldida sifatni rejalashtirish va uni boshqarish uning ma’lum darajasiga yetish xarajatlarining eng tejamli variantini tanlashni hisobga olish masalasi turadi. Bu muammolarning hammasi korxonada sifat standartlari tizimini joriy etish bilan hal etiladi.

Standartlashtirish - bu iste’molchining o‘ziga qulay narxda ko‘nglidagidek tovarni sotib olish huquqini ta’minlovchi talablarni me’yor, tartib-qoida va xarakteristikalarni ishlab chiqish va o‘rnatishga yo‘naltirilgan faoliyat. U standartlarni ishlab chiqish, nashr etish va qabul qilishda ifodalanadi.

Standart - ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan, standartlashtirishning ma’lum obyektiga tegishli umumiy qoidalari, xarakteristikalari, talab va uslublari belgilangan normativ texnik hujjat, standartlashtirish obyekti aniq mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar, normalar, metodlar va boshqa bo‘lishi mumkin.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlariga standartlar ushbu mahsulot tovar sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha javob berishi kerak bo‘lgan shart va talablarni belgilaydi. Ularda shuningdek, mahsulotni o‘lchash, nazorat qilish va sinov usullari ham reglamentlanadi. Standartlar majburiy standartlar qat’iy bajarilishiga mo‘ljallangan. Tavsiya qilinadigan istiqbolli standartlarning farqi shundaki, ularda nafaqat ishlab chiqarishda foydalanib bo‘lingan sifatning talab va ko‘rsatkichlari, shuningdek, kelajakda o‘zlashtirilishi zarur bo‘lganlari ham belgilab qo‘yilgan.

Mahsulot sifati xarakteristikasi uchun xalqaro (ISO) davlat va davlatlararo standartlardan (GOST), O‘zbekistonning davlat standartlaridan (GOSTR), tarmoqlarga oid standartlardan (TST), korxona standartlaridan (KTP) foydalaniladi va ular korxonalar o‘zlarining ichki ehtiyojlari va ularning birlashmalari uchun tuzilgan ilmiy-texnik va injenerlik jamiyatlari (ITI), texnik shart-sharoitlar (TSH) standartlaridan foydalaniladi.

Korxonalarning standartlarini korxonalarning o‘zlari ishlab chiqadi va qabul qiladi. Bunday hollarda standartlashtirish obyektlari odatda faqat ushbu korxonada qo‘llaniladigan texnologik operatsiyalar, qoidalar, talablar va boshqa metod hamda yo‘llardan iborat bo‘ladi. Korxonaning ta’minlanadigan standartlari tasdiqlanmaydi.

Ilmiy-texnik muhandislik jamiyatlarining standartlari qoidaga ko‘ra umuman, mahsulotlarning yangi turlariga ishlab chiqiladi. Ijtimoiy birlashmalari, ushbu standartlar orqali jahon ilmiy-texnika yutuqlari, fundamental va amaliy tadqiqotlarning diqqatga sazovor tomonlarining

tarqatilish maqsadlarini kuzatib boradilar. Bunday standartlardan ixtiyoriylik asosida foydalaniladi.

Texnik shartlari davlat yoki tarmoq standartlashtirilishiga istisno qilingan holda (masalan, “sabzavot ekinlari urug‘larining sifatiga talablar”) mahsulotlarning alohida turiga belgilanadi. Texnik shartlar tarmoqlar nuqtai nazari bo‘yicha tasdiqlanadi.

Davlat standartlarini O‘zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarining hammasida qo‘llash majburiydir: tarmoqlarga oid va texnik - ushbu tarmoqning hamma korxonalari va ushbu tarmoq mahsulotining iste’molchilari, korxona standartlari faqat ma’lum xo‘jaliklar uchun majburiydir.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan standartlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- sifatiga, tayyorlovchi va realizatsiya qiluvchi tashkilotlar talablar qo‘yadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari;
- qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga kelib tushuvchi mahsulotlarga (o‘g‘itlar, texnika, materiallar va boshqa);
- texnik standartlar - mexanizatsiyalashgan ishlov berishning namunaviy texnologiyalariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yig‘ib olish, tovar sifatida ishlov berishi, joylashtirish (o‘rash), yuklab-tushirish va saqlash.

Hozirgi sharoitda mahsulot sifati korxona xo‘jalik faoliyati rentabelligini oshiruvchi muhim omil, shuning uchun unga doimiy ahamiyat berish zarur. Sifatni ta’minlash va saqlash bo‘yicha hamma jarayonlar sifatini boshqarish tizimiga biriktirilgan.

Qishloq xo‘jalik korxonasi mahsulotlarining sifatlari ko‘pgina omillar, birinchi navbatda ishlab chiqarish resurslari sifati, ishtiroki va ta’sirida shakllanadi (yerga, moddiy va mehnatga oid).

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifati va ishlab chiqarish resurslari sifati orasida chambarchas bog‘liqlik bor.

Tuproq - o‘simliklarning rivojlanishi va oziqlanishidagi asosiy muhitdir, uning xususiyatlariga nafaqat hosildorlik, shuningdek qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifati ham bog‘liq. Serunum tuproqda o‘stirilgan ko‘pgina mahsulot turlari o‘ta yuqori sifatga ega bo‘ladi.

Asosiy va moddiy aylanma vositalarning eng yuqori sifatiga oid xarakteristikalari bevosita eng yaxshi sifatli mahsulot olish imkonini beradi. Masalan, yuqori ekish konditsiyasi bo‘lgan urug‘likdan foydalanish nafaqat qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirish, shuningdek, hosilning sifatini ham oshirish imkonini beradi, chorvachilik mahsulotlari va ishlab chiqarishini ko‘paytirishga esa ozuqalarning to‘yimlilik sifati katta ta’sir o‘tkazadi. Ishonchli, yuqori unumli texnika hamma agrotexnik usullarni o‘z vaqtida optimal muddatlarda va sifatli o‘tkazish ham mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi.

Mahsulot sifatini ta’minlash va uni doimiy yaxshilab borishdagi hal qiluvchi omil mehnat resurslari tarkibini mukammallashtirishdir. Ishchilarning

malakasi sezilarli darajada bajariladigan ish sifatini belgilaydi. I klassli mexanizator III klassliga nisbatan qishloq xo‘jaligi ishlarini yuqoriroq sifatda bajaradi. Shu bilan birga, bajariladigan ish sifati, ko‘p darajada moddiy rag‘batlantirishlarga ham bog‘liqligini unutmaslik kerak, bajarilgan ish va ishlab chiqarilgan mahsulot sifati o‘zaro bog‘lanishi zarur.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifati yetishtiriladigan ekinlar navining o‘ziga xos xususiyatlari, chorva mollari va parrandalarning zot tarkibiga bog‘liq.

O‘g‘itlar tarkibi-qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifatini belgilovchi haqiqiy omillardan yana biri. O‘simliklarning har bir turi uchun yuqori sifatli hosilni ta’minlovchi mineral o‘g‘itlarning optimal dozasi aniqlangan. Yuqoriroq dozada o‘g‘it solish hosildorlikni orttirmaydi, hosil sifatini pasaytiradi, shu bilan birga meva va sabzavotlarda eriydigan quruq modda-qand kamayadi, kartoshkada esa kraxmal kamayib, kasalliklarga chalinishi ortadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari hosildorligini va sifatini tartibga solishdagi muhim vosita - sug‘orishdir. Biroq, ortiqcha sug‘orish mahsulotning tovar sifatini sezilarli pasaytiradi. Har bir ekin uchun sug‘orishning optimal norma va muddati mavjud. Mevali ekinlar uchun tuproq namligini 65-70 % darajada to‘liq dala namligi hajmida tutib turish tavsiya qilinadi. Mamlakatning ko‘pgina hududlarida sug‘ormasdan yuqori sifatli sabzavot mahsulotlarini yetishtirishning iloji yo‘q.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tovar sifati yana ko‘plab omillarga ham bog‘liq (yig‘ishtirishning muddat va usullari, avval ekilgan ekinlar va boshqa). Ularni yetishtirishda bularning hammasini hisobga olish kerak.

Sifatni boshqarish tizimidagi muhim element - **sertifikatsiya** bo‘lib, bunda tovar yoki xizmat sifatining ko‘rsatkichlari standartlar yoki boshqa normativ-texnik hujjatlar talablariga mos kelishini tasdiqlash jarayoni tushuniladi.

Sertifikatlar ikkiga bo‘linadi: *majburiy* va *ixtiyoriy. Majburiy sertifikatlash* qonun va qonunchilik holatlari asosida amalga oshiriladi va tovarni standartning majburiy talablariga mos kelish nisbatini ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan tovarlar majburiy sertifikatlash obyektlariga mansub. Ixtiyoriy sertifikatlash davlat tomonidan ushbu mahsulotga nisbatan mavjud standartlar yoki boshqa normativ hujjatlarning talablariga qat’iy rioya qilish ko‘zda tutilmaganda qilinadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining raqobatbardoshligi ularni o‘rash, reklama qilish kabi boshqa omillar bilan ham belgilanadi. Raqobatbardoshlik muntazam va doimo o‘rganilishi zarur. Bu uning o‘z vaqtida aniqlashni va o‘z vaqtida zarur qaror qabul qilishga ushbu mahsulotni ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, uning sifatini yaxshilash, boshqa bozorga o‘tkazish imkonini beradi. Boshqa holatlarda raqobatbardoshlik mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, ya’ni tarkibiy o‘zgarishlar haqida qaror qabul qilishning asosiy vaqti bo‘lishi mumkin.

13.3. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini taqsimlash, sotish va tovarlilik darajasini oshirish yo‘llari

Qishloq xo‘jaligida marketing - korxonaning ishlab chiqarish, sotish va ilmiy-texnik faoliyatining bozor va uning konyunkturalarini, iste’molchilarning aniq talablarini kompleks o‘rganish majmuasidir. Marketing mohiyatini shunday ifodalash mumkin: qaysi mahsulot maksimal foyda bilan sotilsa, shu mahsulotni ishlab chiqarish.

Marketingga yo‘naltirilgan korxonaning mantiqiy harakat chizmasi quyidagicha: avval ishlab chiqarilmoqchi bo‘lgan mahsulotga iste’molchilar talabi o‘rganiladi, raqobatchilarning o‘xshash tovarlari parametrlari baholanadi va shundan keyingina mahsulotni ishlab chiqarish hamda sotish haqida o‘ylanadi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari hamma xaridorlarga birdek yoqishi mumkin emas, chunki ularning ehtiyojlari, imkoniyatlari, odat va an’analari, hatto didi ham turlicha. Ana shularni hisobga olib bozorni sigmentlash zarur.

Bozorni sigmentlash - bu tovarga bir xilda talab qo‘yuvchi iste’molchilar guruhini ajratish. Agar raqobat darajasi yuqori, lekin qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish qiyin bo‘lib qolgan hollarda sigmentlash iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi. Bunday holat, qayta ishlash sanoatining ko‘pgina tarmoqlarida (go‘sht, meva-sabzavot konservasi, non mahsulotlari va boshqa) yuzaga kelgan.

U yoki bu prinsip bilan sigmentlashda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi bozorni o‘xshash guruhlarga bo‘ladi, keyin maqsadli deb ataluvchi sigmentni yoki bir nechta shunday sigmentni tanlab oladi, ularning har biri uchun tovar assortimentini belgilaydi, shundan keyingina ishlab chiqarish va mahsulot sotishni boshlaydi.

Sigmentlashtirishning quyidagi to‘rt tamoyili keng tarqalgan: geografik (hududiy), psixografik (iste’molchilarning hayot tarzi, shaxs tipi), fe’l atvorga oid (iste’molchi ushbu tovardan qidiradigan foyda, iste’molning jadalligi) va demografik (jinsi, yoshi, oilasining tarkibi, daromadining darajasi).

Iste’molchilar sigmentlariga ajratilgan quyidagi qarorlarni qabul qilish zarur:

- qancha sigmentni qamrab olish kerak bo‘ladi;
- sigmentlarni qo‘llash uchun eng foydalisini qanday aniqlash kerak?

Qishloq xo‘jalik mahsulotini ishlab chiqaruvchi bozorni qamrab olishning uchta variantidan birini tanlashi mumkin:

1. Agar ajratib olingan sigment tahlili ularning orasida farq mavjud emasligini ko‘rsatsa, tadbirkor ularga e’tibor qilmasligi va bozorning hammasiga tovarini taklif qilishi mumkin. Bunday hollarda maqsadi bir xil talab va ehtiyojli xaridorlarni ko‘plab jalb etish bo‘lgan marketing dasturi tuziladi. Bozorni qamrab olishning bunday strategiyasi **differensiallashmagan marketing** deb ataladi. Bunday marketing tejamli bo‘lib, katta sarf talab

qilmaydi. Biroq, bir necha korxona bir vaqtning o‘zida bunday strategiyani qo‘llay boshlasa, shafqatsiz raqobat boshlanadi va boshqa variantlarni qidirishga to‘g‘ri keladi.

2. Korxona bozorning bir nechta sigmentiga ishlashga qaror qildi, ularning har biri uchun o‘zga xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida marketing dasturi tayyorlaydilar (tovar, baholar, reklama va boshqa). Bunday holatlarda mahsulotlar sotib olinishining o‘sishiga umid qilish mumkin, chunki u bozorning har bir sigmenti talabiga moslashadi.

Bu **differensiallashgan marketing**. Bunday strategiyadan keng doirada tovar ishlab chiqarib, ularni bozorga chiqara olishga qurbi yetadigan, yetarli mablag‘ga ega yirik kompaniyalarning foydalanishi tavsiya etiladi.

3. Tovar ishlab chiqaruvchi kuchlarni bitta sigmentga konsentratsiyalash haqida qaror qabul qiladi. Bozorni qamrab olishning bunday strategiyasi **konsentratsiyalashgan marketing** deb ataladi. U riskning yuqori darajadaligi bilan bog‘liq, chunki tanlangan sigment ishonchni oqlay olmasligi mumkin: unga raqobatchi paydo bo‘lib, mahsulotga talab tushib ketish ehtimoli bor.

Bozorni qamrab olish sigmentini tanlashda quyidagilarni e’tiborga olish lozim:

- resurslar cheklangan holatida konsentratsiyalashtirilgan marketing strategiyasi eng afzali hisoblanadi;
- sifat jihatdan o‘xshash tovarlarga, masalan, tuz, shakar, kraxmal va boshqa) differensiallanmagan marketing, turli parametrlari bo‘yicha bir-biridan farqlanadiganlarga (go‘sht va sut mahsulotlari, meva-sabzavot konservalari va hokazo) differensiallashgan yoki konsentratsiyalashgan marketing ko‘proq mos keladi;
- bozorga yangi tovar bilan chiqishda differensiallangan yoki konsentratsiyalangan marketingdan foydalanib, yangilikning bitta variantini taklif qilish maqsadga muvofiq.

Bozorning eng foydali sigmenti quyidagi talablarga javob berishi kerak: sotuvning eng yuqori hajmi va uning o‘sishining yuqori sur’atlari, rentabellikning eng yuqori darajasi (daromad normasi), sust raqobat.

Bozorni sigmentlagandan keyin korxona raqobatchilarni aniqlash va sotishning maksimal hajmini ta’minlash uchun tovarlarning guruhlanishi haqidagi masalani hal qilishi zarur.

Bozorda tovarlarning bozor sigmenti raqobatchilarning tovarlariga taqqoslash bo‘yicha unga aniq farqlanuvchi ustunlikni ta’minlashni anglatadi.

Bozor sigmentining ikki varianti mavjud:

- korxona tovarlari bilan bir qatorda chiqariladigan o‘xshash mahsulotlar;
- bozorda yo‘q tovarni ishlab chiqish yo‘li bilan.

Agar korxona tovari raqobatchilarning tovaridan afzal bo‘lsa, bozor sig‘imi yetarlicha bo‘lsa, yirik korxona esa raqobatchilariga nisbatan katta moddiy-texnik resurslarga ega bo‘lsa, birinchi variant samara beradi.

Ikkinchi variantni tanlab borib, korxona yangilikka intiluvchi iste'molchilarni zabt etadi. Lekin oldindan baholash zarur. Yangi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan salmoqli xarajatlar o'zini oqlarmikan?

Bozor sigmenti reklamalar, ko'rgazmalar, yarmarkalar, firma do'konlarida tovar sotish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sotish tovar assortimentini rejalashtirish va korxona mahsulotlarining realizatsiya narxini belgilashni o'rganish uchun marketing xizmati zarur. Maxsus xizmatni tashkil etishning maqsadga muvofiqligi qator omillarga bog'liq, ular: ishlab chiqariladigan mahsulotlar sonining nomi, ularni chiqarishning rejalashtirilayotgan hajmi, raqobatchi korxonalar va raqobatchi tovarlar soni hamda hajmi, bozorning sig'imi, sotishni reklama qilish va rag'batlantirish bo'yicha ish hajmi. Masalan, agar qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqargan mahsulotlarining asosiy qismini ma'muriy to'lgan chegarasida, yog' zavodi yoki go'sht kombinatiga realizatsiya qilsa, u marketing xizmati barpo etishdan qo'shimcha samara olmaydi. Mamlakatning boshqa hududlari bozorlarida doimiy ishlovchi, shuningdek, xususiy qayta ishlash sanoatiga ega korxonalar marketing bo'yicha mutaxassissiz mahsulot realizatsiyasining yuqori samarasini ta'minlay olmaydi.

Marketing xizmatini quyidagi hollarda barpo etish maqsadga muvofiq: *birinchidan,* keng assortimentda mahsulot ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarda (agrofirmalar, assotsiatsiyalar, yirik bog'dorchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari), *ikkinchidan,* salmoqli qismdagi mahsulotlarini o'zlarining ma'muriy tumanlari yoki viloyatlari chegarasidan tashqarida realizatsiya qiluvchi xo'jaliklarda qoidaga ko'ra, ushbular ixtisoslashgan korxonalardir (urug'chilik, bog'dorchilik va boshqa).

Marketing xizmatining tuzilmasi sotuvga taklif qilingan tovarlar va korxona o'z oldiga qo'ygan maqsadlar bilan belgilanadi. Masalan, o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari marketingining asosiy vazifasi - bozor talablaridan kelib chiqib, sotishni bashoratlashdan iborat. Chunki marketing bo'yicha mutaxassisning funksiyalari - bozor konyunkturalarini o'rganish va sotishni tashkil etish, marketing bozorda qanday mahsulot va qanday sifat talab qilinishini aniqlashi, aniq iste'molchilarni topishi va ular bilan xo'jalik shartlari uchun maksimal foydali bitimlar tuzishdan iborat.

Marketing faoliyati ayniqsa, bozor va reklama tadqiqoti anchagina xarajatlar bilan bog'liq. Lekin raqobat sharoitida bu xarajatlarning zarurligi ma'lum va butun jahonda tan olinadi. Xorij qishloq xo'jaligi va qayta ishlash korxonalari ishining amaliy tajribasining ko'rsatishicha, marketing usullarini qo'llashdan qo'shimcha foyda marketing xizmatdan 10-20 marta yuqori.

Ishlab chiqarish hajmi unga salmoqli bo'lmagan xo'jaliklarda marketing xizmati tuzish maqsadga muvofiq emas. Ma'muriy tuman yoki viloyat chegarasida mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik va o'rta korxonalar, u yoki bu mahsulotning qay birini ishlab chiqarish va kimga sotish foydaliroqligi hamda bozordagi narxlar haqidagi axborotlarsiz iste'molchilar bilan bitim tuzish uning

yordamisiz bo‘lavermaydi, degani emas. Ushbu ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishni bunday ma’lumotlarga muhtoj bo‘lgan tumanning barcha korxonalarini tijorat asosida xizmat qiluvchi markazlashgan marketing xizmati ta’minlashi lozim. Ko‘pchilik ma’muriy tumanlarda qishloq xo‘jaligini boshqarish asosida bunday bo‘linmalar tuzilgan.

Marketing xizmati mustaqil korxona bo‘lishi ham mumkin. Masalan, tovar ishlab chiqaruvchilarda aksiyalarning nazorat paketi bilan, aksionerlik jamiyati bilan. Bunday holatlarda kim mahsulot ishlab chiqarsa, o‘shaning manfaatlari birinchiligi ta’minlanadi.

Tuman marketing xizmatining asosiy funksiyalari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- oziq-ovqat bozorlarining iste’molchilar talabi mahsulotlarining mavjudligi va harakati, narx monitoringi haqida axborotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlariga iste’molchilar talabini prognozlash, iste’molchilar buyurtmalarini yig‘ish va mamlakatning boshqa hududlaridagi mahsulot reklamasi haqida, biznes-reja va mahsulot marketingi, ularning bajarilish risklarini baholash va foyda o‘lchami, marketing qarorlarining samaradorligi masalalarini ishlab chiqish bo‘yicha maslahatlar berish.

Tuman marketing xizmati tarkibida marketing bo‘yicha mutaxassislar dasturchi faoliyatni avtomatlashtirish, dasturiy ta’minlash va xizmat boshlig‘i bo‘lishi zarur. Uning ishchilari soni bajariladigan ish hajmiga bog‘liq bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligi mahsulotlarni sotish, ularni realizatsiya qilish yo‘llariga salmoqli darajada bog‘liq. Ko‘pchilik tovar ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini iste’molchilarga tovar realizatsiyasi bilan bog‘liq ishlar hajmini kamaytirishga yordam beruvchi vositachilar orqali taklif etadilar.

Mahsulotlarni realizatsiya qilish vositalari - sotishda vositachi yoki qatnashchi bo‘luvchi, aniq tovarni o‘ziga qabul qiluvchi yoki boshqa birovga ishlab chiqarishdan iste’molchiga egalik huquqini berishga yordamlashuvchi yuridik va jismoniy shaxslar yig‘indisidir.

Ayni paytda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tayyorlov va sotuv kanallari quyidagilardir (13.3.1-rasm).

Realizatsiya qilinadigan mahsulotning har bir turiga o‘zining sotish (o‘tkazish) yo‘llari va savdoning tashkiliy shakli mos keladi. Vositachilarning soniga bog‘liq holda nol, bir, ikki va hokazo darajadagi realizatsiya vositalarini ajratadilar. *Nol darajadagi vosita* - tovarini bevosita iste’molchilarga sotadigan tovar ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Bevosita savdoning eng keng tarqalgan usuli-tovar ishlab chiqaruvchiga tegishli do‘konlar orqali savdo qilishdir.

Bir darajali vosita chakana savdoda bo‘ladigan birgina vositachini o‘z ichiga qamrab oladi. *Ikki darajali vosita* - bu ikkita vositachi (ulgurji va chakana savdo) *uch darajali vosita* - uchta vositachi (ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo)dan iborat.

O‘simlikchilik mahsulotlarining (paxta, don, kartoshka, sabzavot va boshqa) va sanoat tovarlarining asosiy qismi ulgurji savdo orqali sotiladi. Sut yetishtiriladigan chorvachilikda tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini mayda partiyalarda va har kuni realizatsiya qiladilar.



13.3.1-rasm. **Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotish kanallari**

Ulgurji savdo - tovarlarni sotib olib saqlaydigan, keyin ularni boshqa savdo tashkilotlariga chakana savdoda qayta sotadigan yuridik va jismoniy shaxslar yig‘indisi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ulgurji xaridorlari sifatida tayyorlov tashkilotlari, tovar birjalari, qayta ishlovchi korxonalar kabilar chiqadi. Ulgurji savdo tovar ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarni joyida iste’molchilar bilan minimum kontaktda bo‘lgan holda sotish imkonini beradi.

Chakana savdo - bu tovarlarni shaxsiy oilaviy va uyda foydalanish uchun oxirgi iste'molchilarga sotish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati. Ulgurji savdoning birjalar, auksionlar, yarmarkalar orqali o'tkazilishi keng tarqalgan. Savdolarni birja orqali o'tkazishning natijasi-sotuvchi va xaridor o'rtasida bitim tuzilishidir.

Birja bitimi - birja savdolari davomida uning qatnashchilari tomonidan birjaga muomalaga kiritilgan tovarga nisbatan birja shartnomasi (kontrakti) shaklida huquq va majburiyatlarni o'zaro oldi-berdisi haqidagi kelishuv.

Birja bitimlarini aniq tovar bilan va aniq tovarlarsiz guruhlarga bo'lish qabul qilingan.

Aniq tovarlar bilan bitimlarning oddiy turi-zudlik bilan yetkazib berish bo'yicha bitim (qisqa muddatda yetkazib berish). U savdo paytida birja hududida bo'lgan yoki shu kuni kelishi kutilayotgan tovarga tuziladi.

Aniq tovar bitim tuzishning boshqa bir ko'rinishi-forvard yoki shoshilinch bitimlar, ya'ni real tovarga nisbatan huquq va majburiyatlarni kechiktirilgan muddatda yetkazib berish bo'yicha o'zaro almashish.

Aniq tovarsiz bitimlar fyuchersli va opsionliga bo'linadi.

Fyuchers bitimlar birja tovarini yetkazib berishga nisbatan standart kontraktlarning huquq va majburiyatlarini o'zaro bir-biriga berishni bildiradi. Bunday bitimning farqlanuvchi tomoni-obyekt sifatida tovar emas, birja kontrakti chiqadi. Fyuchers bitimlari qishloq xo'jalik tovarlari uchun xarakterli bo'lib, ular hosil yig'ilmasdan ancha oldin tuziladi.

Opsion bitimlar fyuchers bitimlarning mantiqiy davomidir. Ularning farqlanuvchi tomoni bitim obyekti kelgusida kelishilgan muddatlarda topshirilgan narxlar bo'yicha bir nechta fyuchers yoki naqd kontraktlarni sotib olish yoki sotish majburiyati (huquqi)dan iborat.

Bozor infratuzilmasida birja savdosi ma'lum o'rin egallaydi, u orqali qoidaga ko'ra, hamma tovar hajmining 5-10% realizatsiyasi amalga oshiriladi. Bu esa bozordagi narxni baholashga yetarli. Ulgurji oziq-ovqat bozorlari 20-25 % tovarlarning o'tishini ta'minlaydi. Ularning asosiy massalari (65-75 %) esa tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan xususiy o'zlarining tijorat tuzilmalari va xom-ashyo iste'molchilariga realizatsiya qilinishi kerak, bu esa vositachilar sonining kamayishi va yakuniy mahsulot narxining pasayishiga imkon beradi.

Yaqin - yaqingacha va hozirgi vaqtda O'zbekistonda mahsulot realizatsiyasida davlat xaridi paxta va g'alla uchun davlat tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xom-ashyo oziq-ovqat mahsulotlarini tovar ishlab chiqaruvchi (ta'minotchi)lardan qayta ishlash yoki o'zaro foydali shartlarda istemolchi (xaridor)larga realizatsiya qilish uchun tashkiliy tarzda sotib olish shakli ustun edi. Bundan tashqari, ehtiyojlarni va subyektlar ehtiyojlarini qondirish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini va oziq-ovqatni yetkazib berish, tovar ishlab chiqaruvchi va iste'molchi (xaridor) orasida qishloq xo'jalik mahsulotlaridan va oziq-ovqatlardan foydalanish uchun tashkiliy shartnoma munosabatlari shakli ham mavjud.

Tovar ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlash sanoati va savdo korxonalari bilan bevosita aloqalari o‘ta samarali hisoblanadi. Bu qishloq xo‘jalik mahsulotlarini, uni ishlab chiqarish, yuklab-tushirish, qayta ishlash va saqlashda yo‘qotishlarni kamaytirishning haqiqiy amaldagi choralaridan biridir.

O‘z oldida turgan masaladan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchilar uning mahsulotlari iste’molchiga realizatsiya qilinishi amalga oshishi bo‘yicha eng optimal vositani tanlab oladilar.

Mahsulotlarni muvaffaqiyatli realizatsiya qilish, qishloq xo‘jalik xom-ashyosi va oziq-ovqatlari bozorlarining rivojlanish va xo‘jaliklarning ixtisoslashuv darajasiga ham bog‘liq.

Asosiy tushunchalar

Yalpi mahsulot – bu tarmoqda ma’lum davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barcha hajmidir. U o‘simlikchilikning yalpi mahsuloti va chorvachilikning yalpi mahsulotidan iborat bo‘ladi.

O‘simlikchilikdagi yalpi mahsulot – qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini, ko‘p yillik ko‘chatlarni ekish, ularni parvarishlab o‘stirish va tugallanmagan ishlab chiqarishning o‘sib borish qiymatlarini hisobga olgan holda yalpi yig‘imini qamrab olishidir.

Chorvachilikdagi yalpi mahsulot – bu hayvonlarni so‘yish bilan bog‘liq bo‘lmagan tayyor mahsulotlar (sut, jun, tuxum) nasl olish, yosh buzoqlar va katta yoshli qoramollarni o‘sishidan vazn ortishi, shuningdek, qo‘shimcha mahsulotlardir.

Diversifikatsiya – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorini kengaytirish maqsadida qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatini kengaytirish, mahsulot va xizmatlarning assortimentini ko‘paytirishdir.

Tarkibiy o‘zgarishlar – qishloq xo‘jaligida yangi tarmoqlarni barpo etish, ba’zilarini kengaytirish, ayrim samarasiz, istiqbolga ega bo‘lmagan tarmoqlarni qisqartirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Tovar mahsulotlar – bu yalpi mahsulotning realizatsiyaga mo‘ljallangan bir qismidir.

Realizatsiya qilingan mahsulot – bu qishloq xo‘jalik korxonasining tashqarisiga chiqarilgan hamda iste’molchi yoki savdolashuvchi tashkilot tomonidan haqi to‘langan tovar mahsulotining qismi.

Tovarlilik darajasi – bu tovar (realizatsiya qilingan) mahsulotining (TM) yalpi mahsulotga nisbatini anglatuvchi muhim ko‘rsatkich va u foiz ko‘rinishida ifodalanadi.

Ekstensiv yo‘l – bu ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko‘paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko‘paytirish. Bu usulni ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda Amerika usuli, deb ham atashadi.

Intensiv yo‘l – bu foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, chorvachilikda zootexnologiya, veterinariya ishlarini rivojlantirish asosida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish. Bu usulni ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda Prussiya yo‘li, deb ham ataladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifati – uning o‘z vazifasiga ko‘ra mos ravishda ma’lum talabni qondirishga asoslanadigan xususiyatlarining yig‘indisidir.

Standartlashtirish – bu iste’molchining o‘ziga qulay narxda ko‘nglidagidek tovarni sotib olish huquqini ta’minlovchi talablarni me’yor, tartib-qoida va xarakteristikalarni ishlab chiqish va o‘rnatishga yo‘naltirilgan faoliyat. U standartlarni ishlab chiqish, nashr etish va qabul qilishda ifodalanadi.

Standart – ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan, standartlashtirishning ma’lum obyektiga tegishli umumiy qoidalari, xarakteristikalari, talab va uslublari belgilangan normativ texnik hujjat, standartlashtirish obyekti aniq mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar, normalar, metodlar va boshqalar.

Sertifikatsiya – bu tovar yoki xizmat sifatining ko‘rsatkichlari standartlar yoki boshqa normativ-texnik hujjatlar talablariga mos kelishini tasdiqlash jarayonidir.

Qishloq xo‘jaligida marketing – korxonaning ishlab chiqarish, sotish va ilmiy-texnik faoliyatining bozor va uning konyunkturalarini, iste’molchilarning aniq talablarini kompleks o‘rganish majmuasidir. Marketing mohiyatini shunday ifodalash mumkin: qaysi mahsulot maksimal foyda bilan sotilsa, shu mahsulotni ishlab chiqarish.

Bozorni sigmentlash – bu tovarga bir xilda talab qo‘yuvchi iste’molchilar guruhini ajratishdir.

Mahsulotlarni realizatsiya qilish vositalari - sotishda vositachi yoki qatnashchi bo‘luvchi, aniq tovarni o‘ziga qabul qiluvchi yoki boshqa birovga ishlab chiqarishdan iste’molchiga egalik huquqini berishga yordamlashuvchi yuridik va jismoniy shaxslar yig‘indisidir.

Ulgurji savdo – bu tovarlarni sotib olib saqlaydigan, keyin ularni boshqa savdo tashkilotlariga chakana savdoda qayta sotadigan yuridik va jismoniy shaxslar yig‘indisi.

Chakana savdo – bu tovarlarni shaxsiy oilaviy va uyda foydalanish uchun oxirgi iste’molchilarga sotish bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyati.

Birja bitimi – bu birja savdolari davomida uning qatnashchilari tomonidan birjaga muomalaga kiritilgan tovarga nisbatan birja shartnomasi (kontrakti) shaklida huquq va majburiyatlarni o‘zaro oldi-berdisi haqidagi kelishuv.

Fyuchers bitimlar birja tovarini yetkazib berishga nisbatan standart kontraktlarning huquq va majburiyatlarini o‘zaro bir-biriga berishni bildiradi.

Opsion bitimlar – fyuchers bitimlarning mantiqiy davomidir. Ularning farqlanuvchi tomoni bitim obyekti kelgusida kelishilgan muddatlarda topshirilgan narxlar bo‘yicha bir nechta fyuchers yoki naqd kontraktlarni sotib olish yoki sotish majburiyati (huquqi)dan iborat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo‘jaligining yalpi va tovar mahsuloti deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi va tovar mahsulotga bo‘lgan talab qanday aniqlanadi?
3. Yalpi mahsulot turlarini aytib bering.
4. Yalpi mahsulot qanday baholanadi?
5. Yalpi mahsulotni ko‘paytirishning qanday yo‘llari mavjud?
6. Ekstensiv va intensiv yo‘llar haqida tushuncha bering.
7. Yalpi mahsulot qanday taqsimlanadi va sotish yo‘llari qanday?
8. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
9. Qishloq xo‘jalik mahsulotlar bozori va raqobatbardoshlik qanday tashkil qilinadi?
10. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari marketingi deganda nimani tushunasiz?

XIV-BOB. QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINING BAHOLARI, ULARNING TAKOMILLASHTIRILISHI

O‘quv maqsadi: Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlarining iqtisodiy asoslari, mahsulotlarning, xizmatlarning baholarini belgilash tartibini aniqlash, sanoat mahsulotlari bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar, davlat buyurtmalariga o‘rnatiladigan baholar haqidagi bilimlarni o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *tovar-pul munosabatlari, baho (narx), xizmatlar, mahsulot bahosi, sanoat mahsulotlar bahosi, nomutanosiblik, davlat buyurtmasi.*

14.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlari

Baho (narx) bozor iqtisodiyotining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda “baho” tushunchasining bir qancha belgilari mavjud.

Baho – tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Qiymat tovar ishlab chiqarishga qilingan mehnat sarflari bilan belgilanadi, ya’ni mehnat tabiatiga ega. Biroq, bunday belgilash tabiiy cheklashlarga ega, chunki baho faqat mehnat mahsulotlariga qo‘llanadi. Shunga asosan, inson mehnatining mahsuli bo‘lmagan predmetlarga, yer mahsulotiga bunday narxlarni qo‘llab bo‘lmaydi. Ana shunday yondashuvga muvofiq, ular mehnat o‘tmish qiymatiga, demak bahoga ega bo‘lmaydi.

Baho – bu qimmatliklarning pul shaklidagi ko‘rinishi va u almashuv jarayonida hosil bo‘ladi. Bunday shakllanishda baholarning ikkita shakli ajratiladi: *birinchidan,* tovar narxining u iste’mol obyekti sifatida ega bo‘lgan qimmatlilik, foydalilik bilan bevosita aloqasi ta’kidlanadi; *ikkinchidan,* tovarning bahosi uni pulga yoki boshqa tovarga almashtirilgandagina iqtisodiy mohiyati sifatida yuzaga chiqadi. Bozorlarsiz, oldi-sottisiz baho haqida gapirilmaydi, baho (narx)ni faqat bozor belgilashga qodir. **Tovarning bahosi** – bu xaridor ma’lum iste’mol sifatiga ega bo‘lgan tovarga to‘lashga tayyor bo‘lgan pul miqdoridir. Bahoni belgilashga bunday yondashuv anchagina universal va maqbuldir.

Narxlar iqtisodiyot tarmoqlarining oziq-ovqat bozorlarini to‘ldirish orasida ustuvor va samarali ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga almashuv ekvivalentligini ta’minlashini talab qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarining o‘rnini to‘ldirish ham, daromad ham (mahsulot) narxga bog‘liq. Baholarning yuzaga kelgan darajasi qishloq xo‘jaligining ko‘pgina tarmoqlarida ishlab chiqarish rentabelligining past darajasini asoslaydi.

Bozor sharoitida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining yuqori samaradorligi faqat baho va baholarni shakllantirishning iqtisodiy asoslangan tizimi mavjud bo‘lgandagina mumkin, chunki baholar nafaqat bozor muvozanatiga, balki qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va har bir tovar ishlab chiqaruvchining iqtisodiy imkoniyatlari muvozanatiga ham bog‘liq.

Tovar ishlab chiqaruvchi uchun realizatsiya (sotish) baholari daromad olishga va takror ishlab chiqarishga imkon berishi muhim. Biroq, hozir qishloq xo‘jalik mahsulotlari va oziq-ovqatlarning ko‘plab turiga hamma vaqt ham rentabellikning zarur darajasini ta’minlayvermaydigan, ko‘pincha, ayniqsa chorvachilikda sarflangan mehnatga haq to‘lash va moddiy xarajatlarni to‘ldirish imkonini bermaydigan narxlar amalda bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalariga taqqoslanganda, o‘ta nomutanosib baholar yuzaga keladi. 1990-2015 yillar uchun sanoat mahsulotlari bahosi 35,4 marta o‘sdi, qishloq xo‘jalik mahsulotlariniki esa 17,3 marta ortdi, xolos. Shu tariqa narxlar dispariteti paydo bo‘ldi va chuqurlashdi.

Disparitet shu darajaga yetdiki, qishloq xo‘jalik va sanoat mahsulotlarining avvalgi shakllangan narxlar nisbatini hatto uzoq muddatda ham davlatning aralashuvisiz tiklashning iloji bo‘lmay qoldi. Shuning uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bahosini tartibga solishda davlatning roli ortishi kerak.

Baho funksiyalari uning iqtisodiyotda o‘ynaydigan rolini xarakterlaydi. Uning dastlabki vazifasi – o‘lchovchi. Baholarning sharofati bilan tovarning qiymatini o‘lchash, belgilashga imkon tug‘iladi.

Baho (narx) o‘lchovchi sifatida hisoblash vazifasini olib boradi. Tovarning son va sifat ko‘rsatkichlarini pul birligida o‘lchanadigan moddiy ashyoviy ifodadagi ko‘rsatkichlarga o‘girilganda narx hisoblash vositasiga aylanadi. Narxlar yordamida hamma qiymatli ko‘rsatkichlar hisoblab chiqiladi: yalpi va tovar mahsulotlar, yalpi va sof daromad, tannarx, foyda va boshqalar.

Narx tartibga soluvchi vazifasini bajarishi mumkin. Bozor iqtisodiyotida narx – talab va taklifni muvofiqlashtirish imkonini beruvchi asosiy vosita. Narxlarning ortishi yoki pasayishi talab va taklifning tenglashishiga olib keladi va shu bilan birga tovar ishlab chiqarilishining ko‘payishi yoki qisqarishiga sabab bo‘ladi.

Narxlarning taqsimlovchi vazifasi shundaki, davlat narx shakllanishi orqali milliy daromadlarni iqtisodiyot tarmoqlari, mintaqalar, jamg‘arish va iste’mol fondlari, aholining ijtimoiy guruhlari orasida qayta taqsimlashni amalga oshiradi. Bu funksiya narxni qiymatdan ortishi, shuningdek, tannarxga, keyinchalik yo‘l fondiga, pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy sug‘urta, aholi bandligi fondlari va boshqalarga jamg‘arish manbasiga aylanuvchi ko‘pgina soliqlarni qo‘shish bilan amalga oshiriladi.

Rag‘batlantiruvchi vazifasi shunda ko‘rinadiki, narx ma’lum sharoitlarda mahsulot ishlab chiqarishni va uning sifati ortishini (narx o‘sishi) rag‘batlantira oladi.

Shu tariqa, narx – bozor iqtisodiyotining nafaqat asosiy elementi, balki vositasi, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning qudratli dastagi hamdir. Narx (baho) – obyektiv kategoriya, uning kattaligi qiymat, talab va taklif qonuniyatlarining harakati (ta'siri)ga asoslangan. Ularda tovarlarga ijtimoiy xarajatlar, ularga talab va takliflari aks etadi.

Narxlarning shakllanish mexanizmi o'zida yangi narxlarning shakllanishi va narxni shakllantiruvchi omillar ta'sirida amaldagisining o'zgarishini aks ettiradi. Narxlarning shakllanishiga ikki xil yondashuv: *xarajatli (ishlab chiqariladigan) va bozor narxi* farqlanadi. Birinchi holatda tovar narxini belgilash asosiga uni ishlab chiqarish bilan bog'liq ishlab chiqarish xarajatlari qo'shib yuboriladi; ikkinchisida belgilovchi bozor konyunkturasi, tovarga talab va taklif bo'ladi.

Narxni shakllantirishning xarajatli metodining mohiyati shundaki, bunda tovarning bahosi mahsulot birligini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga pul shaklida qilingan xarajatlarni bildiruvchi ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga bog'liq bo'ladi. Biroq, bunday yondashuvga muvofiq tovar bahosi mahsulot birligini ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlariga teng summada qabul qilinadi, deb xulosalab bo'lmaydi. Narxni shakllantirishning xarajatli mexanizmi ishlab chiqaruvchi va sotuvchi xarajatlarni qoplabgina qolmay, ma'lum foyda ham olish kerakligini hisobga olgan holda quriladi. Xarajatli yondashuvga asosan aniqlanadigan mos holdagi narx formulasi (N) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$N = X + D$$

bunda

X – tovar birligi ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga ketgan o'rtacha xarajat, so'm;

D – ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) tovar birligiga olgan daromad, so'm.

Narx shakllanishining bozor metodi mohiyati shundaki, narx ikki tomonning manfaatlari erkin bozorda to'qnashgan sotuvchi va xaridorning talab va takliflarini tenglashtirish asosida belgilanadi. Bunday baho "bozor bahosi (narxi)" nomini olgan.

Ushbu jarayonni don (g'alla) ekinlari misolida ko'rib chiqamiz. Ekishga qadar ishlab chiqaruvchilar rasmiy manbalardan olingan marketing axborotlari yordamida, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari va birja ma'lumotlari asosida g'allaga bo'ladigan talab darajasini bashorat qiladi. Bu ular stol atrofida o'tirib, egri talab va takliflarni hisoblab chiqadi, degani emas. Ular o'tgan yilgi don zahirasi va bu yilgi hosildan qanchasi bozorga chiqarilishi mumkinligini, chorvachilik, eksport va qayta ishlash uchun g'allaga talab qanday bo'lishi mumkinligini baholaydilar. Shundan keyin egri talab va takliflar ishlay boshlaydi. Ishlab chiqaruvchilar yalpi yig'imni rejalashtiradi, iste'molchilar esa qancha g'alla sotib olishni belgilaydi. Ehtimoliy takliflar hajmi bashorat qilingan talabga taqqoslanadi, natijada g'allaga kutilayotgan narx shakllanadi (H_6). Bu

narxlardan sotish haqidagi kelishuvlarda foydalaniladi, elevatorlarga kelgusida keltirish shartnomalarida ifodalanadi. O‘stirish mavsumida egri talab va takliflarni surilishini keltirib chiqaruvchi boshqa omillar ham kelib chiqib, o‘z navbatida g‘allaning bozor bahosiga ta’sir etishi mumkin (gap inqiroz tufayli narx o‘sishi haqida ketayotgani yo‘q). Kutilayotgan hosil haqidagi bashoratlarning kelib tushishiga qarab narx ham o‘zgaradi. Masalan, vegetatsiya davrida tuproqda namlikning yetishmasligidan hosil kutilganidan past bo‘ladi, demak, egri taklif chapga suriladi va narx oshadi. Chorvachilikda mahsulot narxining tushishi har bosh mol sonini qisqarishiga olib kelishi mumkin, bu esa ozuqaga talabni pasaytiradi.

Qishloq xo‘jaligida narxlash davrining davomiyligi ishlab chiqarish jarayonining uzunligiga bog‘liq. Masalan, broyler parrandachiligida narxlash davrini bir necha oy egallaydi, ko‘pchilik dala ekinlarini yetishtirishda esa yilni egallaydi. Go‘sht chorvachiligida narxlash sikli olti yilgacha, chorva molini yetishtirish va bo‘rdoqiga boqish uchun zarur vaqtni hisobga olgan holda davom etadi. Bunday hollarda bozorning taklifga kechikish reaksiyasini kuzatish mumkin va bu tez-tez kuzatiladi.

Tabiiyki, ishlab chiqaruvchilar mahsulotga bozor narxi eng yuqori bo‘lgan vaqtni tanlashga urinadilar. Bu eng past holatda tez buziluvchi mahsulotlarga, eng yuqorisida – sifati buzilmasdan uzoq vaqt saqlash mumkin bo‘lgan g‘allaga tegishli. Realizatsiya muddatlarini tanlash ehtimoli bo‘yicha oraliq holatni mol va broyler go‘shtlari egallaydi.

Bozor bahosining darajasi va dinamikasiga talab va taklifning baho elastikligi singari omillar katta ta’sir o‘tkazadi.

Quyidagi holatlarda talab, qoidaga ko‘ra elastik emas, agar:

- bozorda raqobatchi tovarlar yo‘q bo‘lganda;
- tovar birinchi zarurat yoki ortiqcha predmeti bo‘lsa;
- tovar qiymati xaridor byudjetidagi sezilmas ulushni tashkil etsa.

Agar tovarga talab elastik bo‘lmasa, ishlab chiqaruvchi narxni oshirish evaziga daromadni oshirishi mumkin, agar elastik bo‘lsa, qo‘shimcha daromad narxning pasayishi hisobidan olinadi va talabning keskin ortishi va tovar realizatsiya hajmi o‘sadi. Bu reaksiya resurslarni foydaliroq ishlab chiqarishga qayta taqsimlashda ifodalanishi mumkin[66].

Taklifning elastikligi qancha yuqori bo‘lsa, sotuvchida qaror qabul qilish uchun shunchalik ko‘p vaqt bo‘ladi. U talab elastikligi kabi hisoblab chiqiladi (talabning foizli o‘zgarishi o‘rniga kasrning suratida tovarga taklifning foizli qiymati qo‘yiladi). Masalan, sabzavotlarga taklifning elastikligi ekilguncha, ishlab chiqaruvchi ekin maydonining tuzilishini yaxshilash imkoniga ega bo‘lgunga qadar va aksincha, sabzavotlar yig‘ib olingandan keyingi takliflar elastik emas, bunda narxning har qanday tebranishida realizatsiya qilingan mahsulot hajmi o‘zgarmaydi.

[66]Киселёв С.В. и др. Сельская экономика. М., Инфра-М, 2008. 391стр.

14.2. Qishloq xo‘jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi

Hozirgi zamon iqtisodiyotida narx shakllanishining bozorga oid va xarajat mexanizmlari o‘ziga xos hamda xarajat mexanizmi boshqariladigan iqtisodiyotda narx shakllanishiga eng mos keladigan bo‘lsa ham bozor mexanizmining bir qismi hisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxi barqaror emas va qator omillar ta’siriga bog‘liq (14.2.1-rasm).



14.2.1-расм. **Qishloq ho‘jalik maxsulotlarining baholariga ta’sir etuvchi omillar**

Narxlarning minimal darajasini korxona xarajatlari, maksimal darajasini iste’molchilar talabi belgilaydi, o‘rtachasi raqobat ta’siri ostida shakllanadi. Yuqori inqiroz sharoitida narxlar sezilarli darajada mahsulotni realizatsiya qilish muddatlariga bog‘liq bo‘ladi, shu bois ko‘pchilik xo‘jaliklar mahsulotlarni uzoq muddatga g‘amlab qo‘yadilar, keyin ularni yuqoriroq narxda sotadilar.

Narx (baho) tizimi – turli xil narxlarning o‘zaro aloqasi va bir-biriga bog‘liqligidir. Bitta narxning ortishi yoki pasayishi, qoidaga ko‘ra, boshqa narx darajalarida o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi (14.2.2-rasm).



14.2.2-rasm. **Qishloq ho‘jaligida baholar tizimi**

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxining shakllanishida sanoat tovarlariga (texnika, o‘g‘it, yoqilg‘i - moylash materiallari, zaharli kimyoviy moddalar va bosh.) narxlar hamda transport tariflari alohida rol o‘ynaydi. Bu narxlarning ortishi qishloq xo‘jaligida narx o‘sishiga olib keladi (14.2.1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2016 yil 12 apreldagi qaroriga

asosan, mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlash uchun xarid qilish, mahsulot yetkazib beruvchilar – fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda iste’molchilar – “O‘zbekoziq-ovqatholding” kompaniyasi tarkibiga kiradigan xususiy mulk shaklidagi qayta ishlash korxonalari o‘rtasida tuziladigan kontraktatsiya shartnomalari asosida shartnoma qiymatining 40 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda bo‘nak berish belgilandi va bozor narxlarida xarid qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sheriklar bilan eksport shartnomalari tuzish hamda fermer va dehqon xo‘jaliklari, agrofirmalar va qayta ishlash korxonalari o‘rtasida komissiya shartnomalarini tuzish va komissiya xizmati 1% dan oshmasligi belgilab qo‘yildi. Quritilgan va qayta ishlangan meva-sabzavot eksporti oldindan 100% to‘lash yo‘lga qo‘yildi.

14.2.1-jadval

Qishloq xo‘jaliл korxonalarida ishlab chiqarilgan 1 tonna mahsulotning o‘rtacha bahosi[67], ming so‘m

Ko‘rsatkichlar	2005 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Paxta	475	807	873	946	1025	1175
G‘alla	305	404	437	473	513	640
Meva	615	840	909	984	1067	1200
Kartoshka	423	770	833	902	987	1500
Sabzavotlar	325	511	553	599	649	832
Go‘sht (tirik vaznda)	6342	6584	7124	7732	8358	12300
Sut	850	1036	1136	1214	1316	1612
Parranda, tirik vaznda, jami	2800	4300	4567	5646	6700	8540
Tuxum, ming dona	185	216	234	253	274	350

Qator belgilariga ko‘ra, narxlar turlarga bo‘linadi. Savdo sohasi yoki xizmat ko‘rsatish oboroti xarakteriga bog‘liq holda ular ulgurji, chakana, xarid va tarif narxlarga bo‘linadi.

Ulgurji baho – bu ulgurji savdo deb ataladigan sharoitlarda yirik partiyalar bilan sotiladigan mahsulotlar narxidir. Odatda ulgurji narxlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchi korxonalari mahsulotlarni bir-birlariga yoki savdo tashkilotlariga sotadilar.

Chakana baholar deb, tovarlar chakana savdo tarmoqlari orqali sotiladigan baholarga aytiladi. Chakana narxlar bo‘yicha odatda, tovarlar

[67] Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar)ma’lumotlari asosida tuzilgan.

kamroq hajmda aholiga va undan ham kamrog‘i korxonalarga realizatsiya qilinadi. Chakana baholar muomala xarajatlari hisobiga qoplanadigan miqdori bilan ulgurji narxdan yuqori va chakana savdoni tashkil etishdan foyda olinadi.

Xarid baho – bu davlatning qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan o‘z ehtiyoji uchun sotib oladigan narxidir (paxta, g‘alla va pilla).

Faoliyat turi sifatida taqdim etiladigan, moddiy-ashyoviy sifatida mahsulot yaratmaydigan, lekin mavjud mahsulot sifati o‘zgaradigan xizmatlarning narxlari ma’lum o‘ziga xoslikka ega. Turli xildagi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xizmatlariga (transport, kommunal, aloqa va boshqalar) belgilanadigan narxlar **tarif baholar** deyiladi.

Shartnoma asosidagi (kontraktli) baholar tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, sotuvchi va xaridor shartnoma-kontrakt tuzib, ularning darajasini aniqlaydi. Qator holatlarda shartnomada narxlarning mutlaq miqdori emas, ularning yuqori yoki pastki darajasi yohud boshqa narxlar bilan aloqasi ko‘rsatiladi. Shuningdek, inqiroz sharoitida yangi qonunlar qabul qilinishidan narxlarning o‘zgarishi ham ko‘zda tutiladi.

Erkin (bozor) baho davlat organlarining bevosita narxga aralashuvlaridan ozod bo‘lib, bozor konyunkturasi, talab va takliflar ta’sirida shakllanadi. Qayd etilgan davlat narxlarining erkin bozor narxlariga o‘tishiga **narxlarning liberallashuvi** deyiladi.

Narx monopoliyasi. Odatda, monopoliyalar o‘z tovarlariga yuqori, sotib olingan tovarlarga past narx qo‘yadilar. Monopoliya bahosi davlat tomonidan tartibga solinmaydi.

Vaqt ta’siri bo‘yicha narxlar quyidagilarga bo‘linadi:

- shartnomaning hamma amalda bo‘lish muddatida o‘zgarmaydigan doimiy (mustahkam) naxlar;
- bitta shartnoma doirasida o‘zgaruvchi va bozordagi vaziyatlar o‘zgarishini aks ettiruvchi joriy narxlar;
- ma’lum davr mobaynida (chegarasida) amalda bo‘luvchi mavsumiy narxlar.

Iqtisodiy tahlilda va statistikada taqqoslama narxlardan keng foydalaniladi.

Taqqoslama baholar – qaysidir bir holdagi bazaga yoki yilga nisbatan ishlab chiqarish hajmini qiymatda ifodalab taqqoslanadigan yagona mamlakat narxlaridir.

Ko‘pincha narx turi bozorda shakllanadigan turdan belgilanadi. Shu belgi bilan *birja, auksion, komission narxlarga* ajratiladi.

Turli mamlakatlarda bir xildagi tovarlarga turlicha narxlarning mavjudligi jahon narxi, ya’ni jahon bozori narxidan foydalanish ehtiyojini keltirib chiqaradi. **Jahon baholari** o‘zida yoq butun jahon bozorlarida amalda bo‘lgan haqiqiy narxlarni yoki xalqaro savdo olib boruvchi tashkilotlarning ma’lum davrda tan olgan narxlarini aks ettiradi.

Tartibga solinadigan narxlarni davlat nazorat qiladi. Tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Bevosita tartibga solish qayd etilgan,

chegaralangan narxlarni, qo‘shimchalar, narx o‘zgarishining chegaraviy koeffitsiyentlari, rentabellikning chegara darajalarini belgilash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bilvosita tartibga solish soliqlar va foiz stavkalarining o‘zgarishi orqali narxlarga ta’sir etishni ko‘zda tutadi.

Bugungi kunda bozor narxlari chorvachilikning deyarli hamma, o‘simlikchilikning esa alohida turdagi mahsulotlarini ishlab chiqarish zarar keltiradigan darajada, ya’ni tannarxdan past. Shundan davlat organlari tomonidan o‘rnatiladigan tartibga solinadigan narx darajasida, hech bo‘lmasa, ishlab chiqarishning minimal rentabelligiga erishish ehtiyoji kelib chiqadi. Tartibga solinadigan narxlarning turlichaligi - maqsadli va kafolatlangan narxlardir.

Maqsadli baholar hukumat sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining paritetli tenglashtirilishini ta’minlash, soliq olish va boshqa to‘lovlar tufayli kelib chiqqan sarflarni qoplash, qishloq xo‘jaliki ishchilari, iqtisodiyot tarmoqlari ishchilari o‘rtacha daromad olishlari va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun yetarlicha daromad olish maqsadida foydalaniladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga maqsadli narxlar, kafolatlangan narxlarni qishloq xo‘jalik mahsulotlarining garovida garov stavkalarini belgilash, shuningdek, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga dotatsiya va kompensatsiyalarni hisoblash uchun asos sifatida foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga **kafolatlangan baholar,** agar o‘rtacha bozor narxi kafolatlangandan past bo‘lsa, shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini bevosita davlatga sotganda yoki tovar ishlab chiqaruvchilarga qo‘shimcha to‘lov amalga oshirilganda qo‘llaniladi. Ular maqsadli narxlar asosida hisoblab chiqiladi va davlat organlari tomonidan belgilanadi. Kafolatlangan narxlar qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yetarli bo‘ladigan daromad olishni davlat tomonidan qo‘llanadigan boshqa shakllarini hisobga olgan holda ta’minlashi kerak. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ro‘yxati uning realizatsiya hajmi (kvotasi) kafolatlangan narx darajasi va ularni qo‘llash tartibi hukumat tomonidan belgilanadi.

Mahsulot ishlab chiqaruvchi va iste’molchi orasidagi aloqalarning ikki turi bor. *Birinchisi* – bozor yordamida tovar ishlab chiqarish va muomala qonunlariga mos ravishda amalga oshiriladigan almashtirish sifatida; *ikkinchisi*– ishlab chiqarilgan mahsulotlarning talab va balans tuzilishini (hisobga olgan holda) o‘rganib taqsimlash. Birinchi holatda bozor ishlab chiqaruvchi va iste’molchi orasidagi munosabatlar tizimi sifatida maydonga chiqadi; ikkinchisida – aloqa taqsimlovchi organlar qiyofasidagi vositachilar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga yetakchi rol mahsulot ishlab chiqaruvchiga tegishli bo‘ladi.

Dastlab bozorga bo‘shliqdagi savdo operatsiyalari amalga oshiriladigan aniq joy sifatida qaralgan. Mehnatni ajratish va tovar ishlab chiqarishning

chuqurlashuvi bilan bozor tushunchasi yanada murakkabroq ahamiyat kasb eta boradi.

Bozorning quyidagi belgilari mavjud. **Bozor** – bu tovar, mahsulot, ish yoki xizmatlarning realizatsiya qilinishi bois yuzaga keladigan almashuv sohasidagi iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Shunday qilib, u bozor iqtisodiyoti sharoitida ham, rejali iqtisodiyot sharoitida ham birdek mavjud bo‘ladi. Farqi shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida almashish bevosita ishlab chiqaruvchi va xaridor o‘rtasida amalga oshiriladi, rejali iqtisodiyotda esa bu jarayon davlat tomonidan bajariladi.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi sohasida davlatning ishtiroki savdo va sanoat tarmoqlaridagidan farqli ravishda, mavjudligicha qolmoqda. Shu bilan birga, bozor sharoitida almashish jarayoni qatnashchilarining iqtisodiy erkinligi saqlanib qoladi: ishlab chiqaruvchi, chiqariladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tarkibi va strukturasini, moddiy texnik resurslar ta’minotchisini, sotish bahosini o‘zi tanlaydi.

14.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari baholarini takomillashtirish va raqobat muhitini shakllantirish

Mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida bozor munosabatlariga o‘tish zarurati quyidagi omillarga asoslanadi:

- mamlakat iqtisodiyoti ma’muriy choralarga emas, tovar-pul munosabatlariga asoslanadigan bozor munosabatlariga o‘tishi bilan;
- avval amalda bo‘lgan, ishlab chiqaruvchilarga ham, xaridorlarga ham iqtisodiy erkinlik chegaralanishida ko‘rinadigan agrosanoat majmuasini boshqarish tizimining samarasizligi bilan.

Bozor strukturasi – bu bozor raqobati mavjud bo‘lgan shart-sharoit. U o‘ziga firma (korxona, tashkilot)larning soni va hajmini, mahsulot turi, narxlar ustidan nazorat darajasini, tarmoqqa kirish va chiqish shartlarini, axborotlar imkoniyatlarini qo‘shib oladi.

Bozor mexanizmi – bu bozor muvozanatining talab va taklif orasida shakllanishi. Bozor mexanizmining asosiy elementlari: talab, taklif, raqobat, narx.

Talab – aniq bozorda xaridor uchun to‘g‘ri keladigan narxda sotib olinishi mumkin bo‘lgan ma’lum nomenklaturadagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari soni.

Taklif – sotuvchi uchun maqbul narxda, aniq bozorda sotilishi mumkin bo‘lgan ma’lum nomenklaturadagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari soni.

Raqobat – qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchining ko‘proq daromad olish maqsadida o‘z mahsulotlarini foydaliroq sharoitda ishlab chiqarish va sotish uchun raqobatlashuvi. Mahsulotini realizatsiya qiladigan alohida korxona bozorga qanchalik kam ta’sir o‘tkazsa, bozor shunchalik raqobatli hisoblanadi.

Narx (baho) – tovar qiymatining puldagi ifodasi bo‘lib, mehnatning uni ishlab chiqarishga qilgan xarajati jamiyat zaruriyatiga ko‘ra aniqlanadi.

Bozor sharoitida aholi sotib olishi mumkin bo‘lgan narx o‘zgarishi va tovar miqdori orasida ma’lum o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Ushbu bog‘liqlik iqtisodiy adabiyotlarda talabning narxga nisbatan elastikligi nomini olgan. U xaridorlarning tovar va xizmatlar narxi o‘zgarishiga reaksiyalari jadalligini anglatadi:

- tovarning uzoq saqlanish xususiyati va saqlash qiymati. Bu uzoq muddat saqlanmaydigan tovarlar (sut, qatiq mahsulotlari va boshqalar);
- ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xosligi. Agar korxona narxni oshirib, ma’lum tovar ishlab chiqarilishini diversifikatsiyalasa yoki yangi mahsulot ishlab chiqarishga o‘tsa-yu, bu mahsulotning narxini pasaytirsa - tovarning taklifi elastik bo‘ladi;
- vaqtinchalik omillar. Korxona (tovar ishlab chiqaruvchi) aniq tovarning narxi o‘zgarganligiga bir zumda javob bera olmaydi. Buning uchun ishlab chiqaruvchi uskunalar sotib olishi, ma’lum xom-ashyolar keltirishi, bankdan kredit olishi kabilar uchun ma’lum vaqt talab qilinadi.

Xaridor tanloviga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar (ushbu tovarning narxidan tashqari) quyidagilar hisoblanadi:

- iste’molda ushbu tovarning o‘rnini bosuvchi tovarlar narxi;
- iste’molda ushbu tovarni to‘ldiruvchi tovarlar narxi;
- ushbu tovarni sotib oluvchi iste’molchining daromadlari;
- iste’molchilarning didi va afzal ko‘rishi va hokazolar.

Misol tariqasida Janubiy Koreya qishloq xo‘jaligini olaylik. Ushbu mamlakat qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish bilan shug‘ullanadigan Xanora taqsimot markazi ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloq hududlarida tayyorlov omborlari tashkil etish, fermerlarni oziq-ovqat talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘rgatish, mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini fermerlardan avvaldan tuzilgan shartnoma asosida sotib olib, ularni sifati, ko‘rinishi, hajmi bo‘yicha ajratib, turli og‘irliklarda qadoqlab, markazning o‘zida chakana savdoga chiqarib sotish hamda yirik yoki boshqa supermarketlarga ularning talablariga ko‘ra, ulgurji holatda yetkazib berish, yosh avlodga milliy mahsulotlarga nisbatan qiziqishini oshirishda trening darslarini uyushtirish, qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlari tajribalarini qo‘llash kabilar bilan shug‘ullanadi.

Anseong qishloq xo‘jalik logistika markazining qishloq xo‘jalik mahsulotlarini: fermer – markaz – magazin tizimida sotib olish va sotishni amalga oshiradi, iste’molchilar uchun qulay holatda mahsulotga aylantirish: yuvish, yarim tayyor mahsulotlar, qadoqlash, mahsulotlarni sotib olish va sotishdagi ustama xarajatlarni past darajada belgilaydi. Ushbi tajribalar asosida O‘zbekistonda bu kabi logistika markazlarini qishloq xo‘jaligini

rivojlantirishning keyingi bosqichlarida, asosan avtomobil va temir yo‘llarga yaqin joyda qurish mumkin.

14.4. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish omillari

Iste’mol paytida tovarni almashtirish boshqa tovarlarga narx oshishi tufayli yuz beradi. Masalan, qahvali quyultirilgan sut narxining keskin oshishi va quyultirilgan sutning turg‘un narxi o‘z-o‘zidan qahvalisiga iste’mol talabi pasayib, oddiysiga talab oshishi bilan kuzatiladi.

Iste’molda mavjud tovarga qo‘shimcha bo‘ladigan tovarlar – bu asosiy tovardan ularsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish qiyin bo‘lgan tovarlardir. Masalan, tez buziladigan mahsulotlar (sut, go‘sht va boshqalar) sotib olish uchun sovutgich zarur bo‘ladi, iste’molga tayyor mahsulotni tayyorlash uchun esa yog‘, go‘sht va hokazo kabilar zarur.

Raqobat deganda, bozorda ko‘p sonli mustaqil xaridorlar va sotuvchilar mavjudligi va ular uchun bozorga kirib, xarid qilish uchun teng imkoniyatlar berilishi tushuniladi.

Raqobatning ikki turi farqlanadi:

Tarmoq ichidagi raqobat har bir qishloq xo‘jalik tarmog‘idagi ishlab chiqarish darajasi turlicha bo‘lgan ko‘plab korxonalar xarakterlanadi. Shu bilan birga, bozor qiymati jamiyatga zarur mehnat bilan aniqlanadi va ushbu tovar mahsulotining salmoqli qismi ishlab chiqaradigan korxonalarning individual qiymatlariga yaqinlashadi.

ASM sharoitida tarmoq ichidagi raqobat ikkita omil bilan chegaralanadi:

- qishloq xo‘jaligida turli mintaqalarda mahsulot ishlab chiqarishga ta’sir etadigan va tovar ishlab chiqaruvchiga teng bo‘lmagan shartlar;
- davlat qishloq xo‘jaligini tartibga solish, ya’ni qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirlar tizimi bilan kam rentabelli yoki hatto zarar bilan ishlaydigan korxonalarni qo‘llash va tabiiy iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari yaxshi bo‘lib, ish yuritayotgan korxonalardan yuqori daromad olish.

Bundan tashqari, boshqa teng sharoitlarda ham minimal xarajat qilishga erisha oladigan ishlab chiqaruvchi yuqori darajada daromad va foyda oladi.

Bozor qiymati va mahsulot hamda xizmatning bozor bahosi orasida ma’lum o‘zaro aloqa mavjud. Agar mahsulotga talab taklifdan ortib ketsa, unda bozor narxi bozor qiymati darajasidan ortib ketadi. Agar bozordagi mahsulotga taklif ularga bo‘lgan talabdan ortsa, unda bozor narxi bozor qiymatidan pastga tushadi.

Bu o‘zaro aloqani quyidagi tarzda tasavvur qilish mumkin:

$$\text{agar } Б_т > Т_б, \text{ unda } Н_м > Б_к ;$$

$$\text{agar } Б_т < Т_б, \text{ unda } Н_м < Б_к$$

bunda

$Б_т$ va $Т_б$ – bozordagi mahsulotga talab va taklif birlikda;

$Н_м$va $Б_к$– mahsulotning bozor narxi va bozor qiymati.

Raqobat tarmoq ichidagina emas, turli tarmoqlardagi korxonalar orasida ham rivojlanadi. Tarmoqlararo raqobat shunga asoslanganki, potensial investor o‘z kapitalini moliyaviy yo‘qotishlari xavfi kam, lekin maksimal darajada daromad keltira oladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga qo‘yishga moyil, ya’ni aytish mumkinki, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi mablag‘ qo‘yishning jozibadorligi kamroq yo‘nalish hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning daromadliligi oldindan aytishning umuman imkoni bo‘lmagan ko‘plab tabiiy-iqlim sharoitlariga bog‘liq.

Monopolistik raqobatda iqtisodiy raqobat nafaqat narxga, balki mahsulot sifati, reklama kabi omillarga ham e’tibor beriladi.

Bozorga kelib tushadigan mahsulot o‘z differensiyasiga ega bo‘ladi va ma’lum vaqt oralig‘ida o‘zgarishi mumkin. Alohida turdagi mahsulotlar parametrlari ishlab chiqaruvchining reklamasida savdoni rag‘batlantirish uchun aks etishi kerak. Raqobatchisining mahsulotiga nisbatan ushbu mahsulot yaxshiroqligiga iste’molchilarni ishontirish uchun ko‘pgina tovar ishlab chiqaruvchilar turli usullar yordamida bozorni tadqiq etadilar: bozor ishtirokchilari bilan shaxsiy intervyu, raqobatni, aholining daromad darajasini o‘rganish, mahsulot chiqarish haqida axborotlar (soni, assortimenti), savdo belgilariga alohida urg‘u berish.

Mukammal va nomukammal raqobat bozorlari ham mavjud.

Mukammal raqobatda bozor maqsadiga unchalik ta’sir ko‘rsata olmaydigan ko‘p miqdordagi mayda ishlab chiqaruvchilarning mavjudligi ko‘zda tutiladi. Bu hozirgi sharoitda deyarli uchramaydigan bozor raqobatining ideal holatidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jalik korxonalari bitta bozorni o‘zlashtirib olsalar, ularning orasida raqobat paydo bo‘ladi. Bunday holatlarda korxonalar o‘zlari kelishgandek narx belgilash imkonini beradigan darajagacha yiriklashtiriladi. Bu monopoliyaning turlicha ko‘rinishi bo‘lib, **nomukammal raqobatni** paydo qiladi.

Amaliyotda tovarga narx talab darajasiga qarabgina emas, yirik ishlab chiqaruvchilarning o‘zaro kelishuvlari bo‘yicha ham o‘rnatiladi. Agar ishlab chiqaruvchi bitta bo‘lsa, bu – **monopoliya,** agar ikki va undar ortiq bo‘lsa **oligopoliya** bo‘ladi.

Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) turlari, ASMda bozorlarning quyidagi turlari mavjud:

- ASM uchun moddiy-texnika resurslari bozori;
- qishloq xo‘jalik bozorlari (dehqon bozorlari);
- xizmat sohasi bozori;
- savdo sohasi bozori (marketing xizmati).

Moddiy-texnika resurslari bozori qishloq xo‘jalik va yordamchi korxonalarni zarur texnika, uskunalar, yakuniy mahsulotlar (sut, g‘alla va boshqalar) uchun moddiy ishlab chiqarish zaxiralari bilan ta’minlaydi. Bunday bozorlarda to‘rtta asosiy segmentni ajratish mumkin:

- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash uchun uskunalar, mashinalar, mexanizmlar bozori;
- moddiy ishlab chiqarish zaxiralari bozori (yoqilg‘i, energiya, sanoat xom-ashyosi);
- mineral o‘g‘itlar bozori;
- chorvachilik uchun ozuqalar bozori.

Qishloq xo‘jalik bozorlarida korxona olingan mahsulotlarni mustaqil realizatsiya qiladi. Bozor xizmatini rad etishda savdo sohasi ushbu mintaqada mos keluvchi tashkilotlar yo‘qligiga asoslanishi mumkin, lekin ko‘pincha buning sababi, korxonaning qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash bo‘yicha bunday xizmatlarga haq to‘lash, shuningdek, realizatsiya narxidagi yo‘qotishlardan iborat moddiy yo‘qotishlardan qochish bilan bog‘liq istagi bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik bozorlarini o‘simlikchilik mahsulotlari bozori, chorvachilik mahsulotlari bozori va qayta ishlash mahsulotlari bozoriga bo‘lish mumkin.

Bu sohadagi raqobat bilan cheklashlar darajasi bo‘yicha bozorlarning to‘rtta turi ajratiladi: sof raqobat bozori, monopolistik raqobat bozori, oligopoliya bozori, sof monopoliya bozori.

Sof raqobat bozori qandaydir o‘xshash tovar mahsulotiga ko‘plab sotuvchilar va xaridorlar majmuidan iborat bo‘ladi. Shu bilan birga, birorta alohida xaridor yoki sotuvchi tovarning joriy bahosi darajasiga katta ta’sir o‘tkaza olmaydi.

Monopolistik raqobat bozori yagona emas, keng diapozonli narxlar bilan savdo qilayotgan ko‘plab sotuvchilar va xaridorlardan iborat bo‘ladi. Bu sotuvchilarning sifat, xossasi, tashqi shakliga ko‘ra bir-biridan farqlanadigan tovarlarning har xil turini xaridorlarga taklif eta bilish qobiliyati bilan sharhlanadi.

Oligopolistik bozor sotuvchilarning uncha ko‘p bo‘lmagan sonidan iborat bo‘ladi, chunki yangi talabgorlar bu bozorga kira olmaydilar. Agar biror korxona o‘z narxini 10-15% ga pasaytirsa, xaridorlar ushbu ta’minotchiga o‘tib ketadilar, boshqa ishlab chiqaruvchilar esa yo narxlarni pasaytirishga e’tibor qaratishlari yoki katta hajmda tovar (xizmat) taklif qilishlari kerak bo‘ladi.

Xizmat sohasi bozorida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalar ishlab chiqarish jarayonini yuritish uchun zarur xizmatlar bilan ta’minlanadilar.

Asosiy xizmatlar orasidan quyidagilarni ajratish mumkin: axborot konsaltingi, ilmiy-tadqiqot (elita urug‘chiligini ham qo‘shgan holda), texnik (shu

jumladan, ASM korxonalari ixtisoslashtirilgan korxonalarning texnik quvvatidan foydalanganda), meliorativ, veterinariya va boshqalar.

Savdo sohasidagi bozor qishloq xo‘jaligi hamda yordamchi sanoat ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlarini o‘zlari mustaqil realizatsiya qilmasdan, ixtisoslashgan savdo tashkilotlari xizmatidan foydalanganda paydo bo‘ladi. Bu xizmatlar ulgurji va chakana savdo tashkilotlari, umumumiy ovqatlanish, qayta ishlovchi korxonalar kabilar bo‘lishi mumkin.

Bozorlar, shuningdek, hajmi (ko‘lam)ga qarab ham tasniflanadi. **Bozor ko‘lami (almashuv sohasi)** – bu xaridorlarni qiziqtiradigan mahsulotlarni almashlash amalga oshiriladigan hududdir. Agar almashuv sohasi viloyat, tuman, qishloq hududini qamrab olsa, unda mahalliy tovar bozori bo‘ladi. Agar u butun milliy hududni qamrab olsa “mamlakat bozori” bo‘ladi.

Aloqalari xalqaro savdo-sotiqqa bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, litsenziya va xizmatlar savdosi mavjud bo‘lgan davlatlarning milliy bozorlari jahon bozorini shakllantiradi.

Qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash korxonalarining asosiy qismi uchun mahalliy bozorlar katta ahamiyatga ega. Bozor hajmi (sig‘imi)ni aniqlashda bozorni mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘ldirishda ushbu mahalliy joylarga joylashgan o‘xshash korxonalar sonidan va mahsulot chiqarishga ta’sir etuvchi tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqib, muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Xorij mahsulotlariga kelganda, bunday vaziyat ta’minlash hajmlari nazorat qilinmasligi va tartibga solinmasligi bilan izohlanadi.

Qishloq xo‘jalik masulotlari bozorlari bir-biri bilan bog‘liq hudud va mintaqa ichidagi tarkibiy qismlarning murakkab tizimlarini o‘zlarida aks ettiradi.

Mamlakatning ko‘pchilik mintaqalari uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozorlarining normal faoliyat yuritishlarining asosi ularning bosh ta’minotchilari tarkibiga qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini, transport va boshqa tashkilotlarni qamrab olgan, oziq-ovqat resurslarini ishlab chiqarish, yetkazib berish va ASM tarmoqlariga xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi agrosanoat majmuasidir.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozorining mohiyati, realizatsiya qilinadigan tovar mahsulotlarning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini, uning kelib tushish manbalarini, iste’molchilar tarkibini, oziq-ovqat turlari bo‘yicha talab va takliflar strukturasini, uning sifatini, assortimentini, bahosini qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish iste’moldan kelib chiqadi, iste’molchiga xizmat qiladi va uning talablarini qondirishga yo‘naltiriladi. Aynan talab mahsulot ishlab chiqarilishining assortimenti va sifatini belgilaydi, bozor esa narx orqali uning jamiyat uchun foydaliligini tan oladi.

Raqobat sharoitida ishlab chiqaruvchining iste’molchiga bog‘liqligi va maksimal foyda olish istagi uni ishlab chiqarish chiqimlarini pasaytirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga, o‘z resurslarini tejashga majbur qiladi. Bu ishlab

chiqarishga ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etishni tezlashtiradi (energiyani tejaydigan texnologiyalar, hosildor navlar, texnikaning yangi turlari).

Bozor qonunlari real ishlashlari uchun quyidagi ma'lum shartlar zarur:

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarining xo'jalik yuritish shakli va xususiy mulk egaligi shakli qayta ishlanadigan mahsulotlari ko'p qirraliligi, g'alla va paxta mahsulotlari kompleks ostidagi hamma bo'g'inlarida monopolizmni bartaraf etish, tashqi va ichki raqobat darajasining yuqoriligi;
- bozordagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish strukturalarini, realizatsiya vositalarini tanlashda, narx o'rnatishda, daromadlarni taqsimlashdagi mustaqilligi;
- davlatning bozor subyektlari xo'jalik faoliyatlarining yuqori darajadagi tartibga soluvchilik rolini saqlashlariga aralashmasligi;
- bozor infratuzilmasining yaxshi rivojlangan tizimi borligi.

Paxta va g'alla bozorini shakllantirish – kompleks yondashuvni, puxta o'ylanganlikni, qabul qilinadigan qarorlar izchilligini talab qiluvchi jarayon. U davlat tomonidan majburiy tartibga solinish va g'alla ishlab chiqarilishiga mamlakat qishloq xo'jaligi va agrar sektorida yetakchi rol tegishliligi anglanganda vujudga keladi.

Paxta va g'alla – nafaqat agrar sanoat ishlab chiqarilishida, balki mamlakat iqtisodiyotida ham umuman, tarmoqlararo proporsiyani belgilovchi muhim mahsulot hisoblanadi. Qishloq tovar ishlab chiqaruvchilari uchun u oddiy yoki kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkonini beruvchi daromadlarning asosiy manbasidir. Bir vaqtning o'zida g'allaning narxi chorvachilikda to'yintirilgan ozuqalar narxlarini va aholining asosiy oziqlanish mahsulotlari bahosini belgilaydi. Xulosa qilib aytganda, paxta va g'alla ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari, paxta va g'allani qayta ishlash sanoati va iqtisodiyot tarmoqlari butunicha va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ham ko'p jihatdan bog'liq.

Paxta va g'alla bozorini rivojlantirishning davlat darajasidagi vazifalari mamlakatni o'zini-o'zi g'alla va uni qayta ishlash mahsulotlari bilan ta'minlay olishidan iborat. Chunki narxga oid kredit, soliq va tashqi iqtisodiy siyosat davlat darajasidagi hal qilinadigan masalalardir.

Oziq-ovqat bozorlarining tarkibiy qismlari go'sht bozori va sut mahsulotlari bozoridan iborat. Bu bozorlarning alohida o'rinlarining shartlari shuki, ular eng qimmatli ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiyasini qamrab oladi.

Go'sht va go'sht mahsulotlari nisbatan qimmatli mahsulotlar hisoblanadi, shuning uchun ularni iste'mol qilish, birinchi navbatda, jismoniy normalarga emas, aholining to'lov qobiliyatiga bog'liq.

Mol go'shti realizatsiya qilish strukturasi keyingi yillarda prinsipial o'zgarishlarsiz bo'lmoqda. Tayyorlov tashkilotlari bilan o'zaro aloqalar uchun xarakterli bo'lgan to'lay olmaslik muammosi tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z

mahsulotlarini arzonroq narxda, ammo naqd pulga sotish yoki boshqa tovarga ayirboshlashning muqobil vositalarini izlashga majbur qilmoqda. Qishloq xo‘jalik korxonalari o‘z mahsulotlarini realizatsiya qilishdan tayyorlovchilarga ularning bozordagi vositalari bo‘yicha sotish uchun o‘tkazmoqdalar.

Hozirgi paytda mol go‘shtiga talab sezilarli darajada xususiy ishlab chiqarish hisobidan (95%) va kamroq darajada – import ta’minot yordamida (5%) qondirilmoqda.

Keyingi yillarda chorva mollarini parvarishlash va bo‘rdoqiga boqishga sarflangan yuqori xarajatlar tarmoq mahsulotlarining realizatsiya baholari bilan qoplandi, bu esa go‘sht ishlab chiqarish, ayniqsa, yirik shoxli qoramol go‘shti yetishtirishning foyda ko‘rishiga olib keldi.

Asosiy tushunchalar

Baho – bozor iqtisodiyotining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Ularda tovarlarga ijtimoiy xarajatlar, ularga talab va takliflari aks etadi.

Tovarning bahosi – bu xaridor ma’lum iste’mol sifatiga ega bo‘lgan tovarga to‘lashga tayyor bo‘lgan pul miqdoridir. Bahoni belgilashga bunday yondashuv anchagina universal va maqbuldir.

Baho funksiyalari: o‘lchovchi, tartibga soluvchi, taqsimlovchi, rag‘batlantiruvchi funksiyalari.

Narx shakllanishining bozor usulimohiyati shundaki, narx ikki tomonning manfaatlari erkin bozorda to‘qnashgan sotuvchi va xaridorning talab va takliflarini tenglashtirish asosida belgilanadi.

Narx (baho) tizimi – turli xil narxlarning o‘zaro aloqasi va bir-biriga bog‘liqligidir. Bitta narxning ortishi yoki pasayishi, qoidaga ko‘ra, boshqa narx darajalarida o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Ulgurji baho – bu ulgurji savdo deb ataladigan sharoitlarda yirik partiyalar bilan sotiladigan mahsulotlar narxidir.

Chakana baholar – bu tovarlar chakana savdo tarmoqlari orqali sotiladigan narxlardir.

Xarid baho – bu davlatning qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan o‘z ehtiyoji uchun sotib oladigan narxidir (paxta, g‘alla va pilla).

Tarif baholar – turli xildagi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xizmatlariga (transport, kommunal, aloqa va boshqalar) belgilanadigan narxlar.

Shartnoma asosidagi (kontraktli) baholar – tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi va sotuvchi va xaridor shartnoma-kontrakt tuzib, ularning darajasini aniqlaydi.

Erkin (bozor) baho davlat organlarining bevosita narxga aralashuvlaridan ozod bo‘lib, bozor konyunkturasi, talab va takliflar ta’sirida shakllanadi.

Narxlarning liberallashuvi – qayd etilgan davlat narxlarining erkin bozor narxlariga o‘tishidir.

Taqqoslama baholar – qaysidir bir holdagi bazaga yoki yilga nisbatan ishlab chiqarish hajmini qiymatda ifodalab taqqoslanadigan yagona mamlakat narxlaridir.

Jahon baholari o‘zida yo butun jahon bozorlarida amalda bo‘lgan haqiqiy narxlarni yoki xalqaro savdo olib boruvchi tashkilotlarning ma’lum davrda tan olgan narxlarini aks ettiradi.

Bozor– bu tovar, mahsulot, ish yoki xizmatlarning realizatsiya qilinishi bois yuzaga keladigan almashuv sohasidagi iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Bozor strukturasi – bu bozor raqobati mavjud bo‘lgan shart-sharoit. U o‘ziga firma (korxona, tashkilot)larning soni va hajmini, mahsulot turi, narxlar ustidan nazorat darajasini, tarmoqqa kirish va chiqish shartlarini, axborotlar imkoniyatlarini qo‘shib oladi.

Bozor mexanizmi – bu bozor muvozanatining talab va taklif orasida shakllanishi. Bozor mexanizmining asosiy elementlari: *talab, taklif, raqobat, narx.*

Talab – aniq bozorda xaridor uchun to‘g‘ri keladigan narxda sotib olinishi mumkin bo‘lgan ma’lum nomenklaturadagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari soni.

Taklif – sotuvchi uchun maqbul narxda, aniq bozorda sotilishi mumkin bo‘lgan ma’lum nomenklaturadagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari soni.

Raqobat – qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchining ko‘proq daromad olish maqsadida o‘z mahsulotlarini foydaliroq sharoitda ishlab chiqarish va sotish uchun raqobatlashuvi.

Narx (baho) – tovar qiymatining puldagi ifodasi bo‘lib, mehnatning uni ishlab chiqarishga qilgan xarajati jamiyat zaruriyatiga ko‘ra aniqlanadi.

Mukammal raqobatda bozor maqsadiga unchalik ta’sir ko‘rsata olmaydigan ko‘p miqdordagi mayda ishlab chiqaruvchilarning mavjudligi ko‘zda tutiladi.

Nomukammal raqobatda bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jalik korxonalari bitta bozorni o‘zlashtirib olsalar, ularning orasida raqobat paydo bo‘ladi. Bunday holatlarda korxonalar o‘zlari kelishgandek narx belgilash imkonini beradigan darajagacha yiriklashtiriladi.

Sof raqobat bozori qandaydir o‘xshash tovar mahsulotiga ko‘plab sotuvchilar va xaridorlar majmuidan iborat bo‘ladi. Shu bilan birga, birorta

alohida xaridor yoki sotuvchi tovarning joriy bahosi darajasiga katta ta’sir o‘tkaza olmaydi.

Monopolistik raqobat bozori yagona emas, keng diapozonli narxlar bilan savdo qilayotgan ko‘plab sotuvchilar va xaridorlardan iborat bo‘ladi. Bu sotuvchilarning sifat, xossasi, tashqi shakliga ko‘ra bir-biridan farqlanadigan tovarlarning har xil turini xaridorlarga taklif eta bilish qobiliyati bilan sharhlanadi.

Oligopolistik bozor sotuvchilarning uncha ko‘p bo‘lmagan sonidan iborat bo‘ladi, chunki yangi talabgorlar bu bozorga kira olmaydilar. Agar biror korxona o‘z narxini 10-15% ga pasaytirsa, xaridorlar ushbu ta’minotchiga o‘tib ketadilar, boshqa ishlab chiqaruvchilar esa yo narxlarni pasaytirishga e’tibor qaratishlari yoki katta hajmda tovar (xizmat) taklif qilishlari kerak bo‘ladi.

Bozor ko‘lami (almashuv sohasi) – bu xaridorlarni qiziqtiradigan mahsulotlarni almashlash amalga oshiriladigan hududdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlari haqida tushuncha bering.
2. Qishloq xo‘jaligida qiymat, baho (narx) deganda nimani tushunasiz?
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlari qanday baholanadi?
4. Bahoning qanday vazifalari mavjud?
5. Bahoning qanday funksiyalarini bilasiz?
6. Baho (narx) larning shakllanishi nimalardan iborat?
7. Qishloq xo‘jaligidagi baholarning turlarini aytib bering.
8. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘rtasidagi nomutanosiblikdeganda nimani tushunasiz?
9. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligiga nimalar ta’sir ko‘rsatadi?
10. Qishloq xo‘jaligida qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bozori nimalardan iborat?

XV-BOB. KORXONALARNING DAROMADLARI, FOYDALARI, ULARNING TAQSIMLANISHI. ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

O‘quv maqsadi: qishloq xo‘jalik korxonalarida takror ishlab chiqarish, uning turlari, qishloq xo‘jaligida yaratilgan yalpi ichki mahsulot, korxonaning yalpi va pul daromadi, ularni taqsimlash tartibi, tarmoqning iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, tarmoqning yalpi ichki mahsuloti, korxonalarning yalpi va pul daromadlari hamda foydalarini ko‘paytirish masalalarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *takror ishlab chiqarish, yalpi ichki mahsulot, yalpi va pul daromadi, yalpi, sof, iqtisodiy foyda, iqtisodiy samaradorlik, rentabellik darajasi.*

15.1. Qishloq xo‘jalik korxonalarida takror ishlab chiqarish, uning turlari, ularning korxona ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdagi ahamiyati

Insoniyat jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishning muhim shartlari-moddiy boyliklar ishlab chiqarishning uzluksiz jarayonidir.

Takror ishlab chiqarish jarayoni – bu doimiy aloqadorligi ko‘rib chiqiladigan va muntazam yangidan boshlanib turadigan ishlab chiqarish jarayonidir.

Jamiyat mahsulotlari yig‘indisini takror ishlab chiqarish – o‘ziga ishlab chiqarishning muntazam jarayonini, taqsimlash, almashish va iste’mol qismini qamrab oladi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hozirgi zamon ishchisi - ijodiy, ilmiy-texnika taraqqiyotini o‘zlashtirishga qodir xo‘jalik ishlab chiqarish tashkilotchisi, ishlab chiqarish samaradorligi oshishidan iqtisodiy manfaatdor bo‘la oladigan ishchilarni tayyorlashda ifodalanadi.

Ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish – ko‘p ukladlilik, demokratiya, bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiy mexanizmlarni yangilash asosida mulk egaligi munosabatlarini takror ishlab chiqarishni bildiradi.

Takror ishlab chiqarishning uchta turi mavjud (15.1.1-rasm).

Takror ishlab chiqarishning har bir turi miqdorigina emas, balki sifat tomonlariga ham ega. Toraygan takror ishlab chiqarishda son ko‘rsatkichlari kamayishi bilan bir qatorda sifat parametrlarining tanazzulga yuz tutishi va iqtisodda inqiroz paydo bo‘lish tahlili bilan ham izohlanadi. Bunday takror

ishlab chiqarish noiqtisodiy tomondan kelib chiqqan (urushlar, siyosiy silsilalar) omillarga ham, iqtisodiy faoliyatining noto‘g‘ri tanlangan maqsadlari yo tabiiy yoki boshqaruvdagi xato natijasida kelib chiqqan nomutanosiblik omillariga ham birdek bog‘liq bo‘ladi. Toraygan takror ishlab chiqarish alohida tarmoqlarda, hududlarda va yaxlitligicha iqtisodiyot tarmoqlarida mavjud bo‘lishi mumkin.



15.1.1-rasm. **Qishloq ho‘jaligida takror ishlab chiqarish turlari**

Oddiy takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni avvalgi son va sifat ko‘rsatkichlarida qoldirilgan holda qayta tuzishni bildiradi. Oddiy takror ishlab chiqarish barqarorlikning iqtisodiy asosi-ishlab chiqarishning kelgusi rivojlanishi shartlari sifatida chiqadi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, avvalgi davrdagiga taqqoslanganda katta miqdorda mahsulot yaratish va ijtimoiy ishlab chiqarishda sifat o‘zgarishlari bilan izohlanadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarida birinchi navbatda, ishlab chiqarish vositalari, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida mukammallashtiriladi.

Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga ega:

1. Iqtisodiy takror ishlab chiqarish tabiiylik bilan bog‘liq. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning iqtisodiy jarayonlari o‘simliklar va hayvonlar rivojlanishi bo‘ysunadigan tabiiy takror ishlab chiqarish bilan chatishib ketgan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini olish muddatlari o‘simlik va hayvonlarning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq.

2. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayoniga tabiiy sharoit katta ta’sir o‘tkazadi. Tuproq - iqlim sharoiti korxona xo‘jaligi faoliyati natijalarini belgilaydi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
3. Yer qishloq xo‘jaligidagi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida o‘z moddiy shaklida takror ishlab chiqarilmaydi. Tuproq unumdordigini oshirish-tarmoqdagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning so‘zsiz shartidir.
4. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning mavsumiylik xarakteri unda ishchi davri va ishlab chiqarish davrining bir-biriga muvofiq kelmasligi bilan bog‘liq.
5. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayoniga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish muddatlariga mos keluvchi yillik siklning davomiyligi o‘ziga xos bo‘ladi.
6. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatida ham, iste’mol predmeti sifatida ham foydalaniladigan mahsulotlar yaratiladi, shuning uchun qator mahsulotlar navbatdagi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi (ozuqa, urug‘lik, chorva, xom-ashyo).

Qishloq xo‘jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun ma’lum sharoitlar zarur. Ulardan eng muhimi - to‘g‘ri iqtisodiy mexanizmni yaratish, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyot tarmoqlarining boshqa tarmoqlar orasida tovar almashishida narx paritetini o‘rnatish, inqiroz sur’atini pasaytirishdir. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarishda qo‘llanilgan (iste’mol qilingan) mablag‘larning natural va qiymat shaklida doimiy qoplab borish va qo‘shimcha resurslar sotib olish uchun jamg‘armalar ta’minlanishi talab qilinadi.

Qishloq xo‘jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning so‘zsiz sharti-izchillik bilan ishlab chiqarishni taqsimlash, almashish va iste’mol jarayonlari o‘tadigan vositalarning to‘xtovsiz doirasimon aylanishi. Buning uchun kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasi asosida qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarining ta’minotchi, savdo, moliya tashkilotlarining o‘zaro uyg‘unlikdagi ishlari zarur.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tarmoqda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari, modernizatsiyalashni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradigan ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlashni talab etadi.

Kengaytirilgan takror ishlab chqarishning manbalari asosiy va aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun foydalaniladigan o‘z mablag‘lari va jalb etilgan mablag‘lar bo‘lishi mumkin. O‘z mablag‘lari manbalariga - daromad, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bir qismi (ozuqa, urug‘lik, chorva, xom-ashyo), qarzga banklarning qisqa va uzoq muddatli kreditlari, tovar krediti, jalb etilganiga esa - pay badallari, dotatsiyalar kompensatsiyalar kiradi.

Iqtisodiy samaradorlik kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini amalga oshirishdagi ma’lum bir samaradorlikni tavsiflaydi. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni o‘zlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun qo‘shimcha foyda,

qo‘shimchayalpi daromad, xarajatlarni tejash, qo‘shimcha tushum, mahsulotlarning tannarxi (mahsulotlar turi bo‘yicha), ishlab chiqarish rentabelligi (mahsulotlar turi bo‘yicha) kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Alohida ekin turlari yoki chorva hayvonlari (parranda) turlari bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda, xo‘jaliklarda mahsulot ishlab chiqarish samardorligini nisbiy baholash imkoniyatini beruvchi bir gektar ekin maydoni yoki bir bosh chorva hayvoni (parranda) hisobiga olinadigan yalpi daromad va foyda kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish lozimdir.

Ilmiy tahlillar natijasida, agrar sohada innovatsiyalarning va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini rivojlantirishning samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi, (1.3.2 – rasm.)

Qishloq xo‘jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ko‘rsatkichlari o‘ta ko‘p sonli, ammo asosiysi yalpi mahsulotning o‘sishi (YAMU) hisoblanadi:

$$\Delta YaM = \frac{YaM_b - YaM_o}{YaM_o}$$

bunda

YaM_b, YaM_o – mos holda yilning boshi va oxirida yalpi mahsulotlar taqqoslama qiymati, so‘m.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ($K_т$) uchun foydaning o‘sgan qismini (ΔF) sof daromadga (SD)yoki sof foydaga (SF) nisbati sifatida foydalanish mumkin, %:

$$K_t = \frac{\Delta F}{SD\ (SF)} * 100$$

.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning bilvosita ko‘rsatkichlari sifatida ishlab chiqarish fondlarining o‘sishi, ishlab chiqarish quvvati, ekin maydonlarining kengayishi, chorva mollari bosh sonining ortishi, ishchilar malakasining oshishi kabilardan foydalanish mumkin.

Qishloq xo‘jaligining tabiiy-moddiy shaklidagi yalpi mahsuloti, ishlab chiqarish vositalari va iste’mol predmetlari ko‘rinishida ifodalangan ishlab chiqarish vositalariga qishloq xo‘jaligining ichida ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan mahsulotlar (urug‘lik ozuqa va boshqalar), shuningdek sanoat uchun xom-ashyo sifatida foydalaniladigan mahsulotlar kiradi.

Takror ishlab chiqarishning asosiy sharti - oddiy va kengaytirilgan ishlab chiqarish vositalarining iste’mol qilingan qismini qoplashdir. Buning uchun xarajatlarni qoplash fondi shakllantiriladi. Yalpi daromad, shaxsiy iste’mol fondi (ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar bilan mehnatga haq to‘lash) va sof daromadga bo‘linadi.

1. Yalpi mahsulot (c+v+m).



15.1.2-rasm. **Agrar sohada innovatsiyalarni va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini rivojlantirishning samaradorlik ko‘rsatkichlari**[68]

[68] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida ishlab chiqilgan

1. Qoplash fondi (moddiy xarajatlar, s).
2. Shaxsiy iste’mol fondi (mehnatga xaq to‘lash, v).
3. Byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar.
4. Yalpi daromad (sof mahsulot, v+m).
5. Sof daromad (m).
6. Jamg‘arilgan fond.
7. Ijtimoiy iste’mol jamg‘armalari (bepul ta’lim olish, davolanish, dam olish va boshqalar).

Sof daromaddan byudjetga soliq to‘lash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratmalar (nafaqa, ijtimoiy sug‘urta, bandlik va boshqalar), ijtimoiy iste’mol jamg‘armasi va jamg‘arilgan fondlarni shakllantirish uchun foydalaniladi.

Shu tariqa qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotlarini taqsimlashdan takror ishlab chiqarishning qoplash, iste’mol va jamg‘arilgan fondlari shakllanadi.

Qoplash fondi o‘zida ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan predmet va mehnat vositalari yalpi mahsuloti qiymatining bir qismini ifodalaydi. U amortizatsiya ajratmalarini hisobga olish bilan moddiy xarajatlar summasiga teng.

Iste’mol fondi – yalpi daromadning bir qismi, ya’ni mehnatga haq to‘lash va jamoaning shaxsiy va umumiy ehtiyoj (talab)larini qondirishga ketadigan yangidan yaratilgan qiymat. U mehnatga haq to‘lash fondi va sof daromadning iste’molda foydalaniladigan bir qismidan iborat.

To‘plangan fond – sof daromadning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun ajratilgan bir qismi.

Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish, *qiymat* va *natural* shaklda amalga oshiriladi. Bu takror ishlab chiqarish fondlariga ham taalluqlidir. Qishloq xo‘jaligida bu fondlarni natural holda shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda natural-moddiy tarkib bo‘yicha fondlarning sezilarli qismi xususiy ishlab chiqarish mahsulotlaridan shakllantiriladi.

Iste’mol predmetlari - bu yalpi mahsulotning qayta ishlanmasdan bevosita iste’molga tushadigan qismi (sabzavotlar, mevalar, sut, tuxum va hokazo).

Qiymati bo‘yicha qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti ikki qismdan iborat bo‘ladi: ishlab chiqarishning iste’mol qilingan vositalari (S) qiymati va yangidan yaratilgan qiymat (v+m). Umuman, yalpi mahsulot qiymat shaklida quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi: c+v+m.

Takror ishlab chiqarishning asosiy sharti - oddiy va kengaytirilgan ishlab chiqarish vositalarining iste’mol qilingan qismini qoplashdir. Buning uchun xarajatlarni qoplash fondi shakllantiriladi. Yalpi daromad, shaxsiy iste’mol fondi (ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar bilan mehnatga haq to‘lash) va sof daromadga bo‘linadi.

1. Yalpi mahsulot (c+v+m).
2. Qoplash fondi (moddiy xarajatlar, s).

3. Shaxsiy iste’mol fondi (mehnatga haq to‘lash, v).
4. Byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar.
5. Yalpi daromad (sof mahsulot, v+m).
6. Sof daromad (m).
7. Jamg‘arilgan fond.
8. Ijtimoiy iste’mol jamg‘armalari (bepul ta’lim olish, davolanish, dam olish va boshqalar).

Sof daromaddan byudjetga soliq to‘lash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratmalar (nafaqa, ijtimoiy sug‘urta, bandlik va boshqalar), ijtimoiy iste’mol jamg‘armasi va jamg‘arilgan fondlarni shakllantirish uchun foydalaniladi.

Shu tariqa qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotlarini taqsimlashdan takror ishlab chiqarishning qoplash, iste’mol va jamg‘arilgan fondlari shakllanadi.

Qoplash fondi o‘zida ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan predmet va mehnat vositalari yalpi mahsuloti qiymatining bir qismini ifodalaydi. U amortizatsiya ajratmalarini hisobga olish bilan moddiy xarajatlar summasiga teng.

Iste’mol fondi – yalpi daromadning bir qismi, ya’ni mehnatga haq to‘lash va jamoaning shaxsiy va umumiy ehtiyoj (talab)larini qondirishga ketadigan yangidan yaratilgan qiymat. U mehnatga haq to‘lash fondi va sof daromadning iste’molda foydalaniladigan bir qismidan iborat.

To‘plangan fond – sof daromadning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun ajratilgan bir qismi.

Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish, *qiymat* va *natural* shaklda amalga oshiriladi. Bu takror ishlab chiqarish fondlariga ham taalluqlidir. Qishloq xo‘jaligida bu fondlarni natural holda shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda natural-moddiy tarkib bo‘yicha fondlarning sezilarli qismi xususiy ishlab chiqarish mahsulotlaridan shakllantiriladi.

Sarflangan urug‘lik va ozuqa yig‘ilgan hosilning bir qismi bilan qoplanadi. Urug‘lik va yem-xashak fondlarining ko‘payishi (jamg‘arilgan fond) ham asosan o‘z mahsulotlari hisobiga ishlab chiqariladi. O‘rtacha darajada xo‘jalikda natural shaklda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta’minlanadi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish iqtisodiy rivojlanishning mezoni bo‘lgan iqisodiy o‘sish kuzatilishini ifodalaydi.

Iqtisodiy o‘sish – bu ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ijtimoiy mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish omillarining miqdorini ko‘paytirish va sifat jihatdan mukammallashtirish ko‘rinishida ifodalangan maqsadli vazifasi. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘sish yalpi mahsulotning mutloq hajmda, ham aholi jon boshiga, ham ko‘payishi sifatida aniqlanadi. Uning qishloq xo‘jaligidagi asosiy maqsadi – aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan qondirish, uning moddiy farovonligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdir.

Iqtisodiy o‘sish iste’molining mavjud darajasini pasaytirmasdan, investitsiya hajmini va ishlab chiqarishni qisqartirmasdan yangi ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Iqtisodiy o‘sishning ekstensiv va intensiv turlarini farqlash qabul qilingan.

Ekstensiv turga iqtisodiy o‘sishga ishlab chiqarish fondlarining miqdorini orttirish bilan erishiladi. Yer, mehnat, ishlab chiqarish fondlari, avvalgi texnik jihozlanish saqlanib qoladi. Natijada mehnat unumdorligi ortmaydi. Masalan, katta miqdorda qishloq xo‘jalik mahsulotlari olish maqsadida quruq yerlarni o‘zlashtirish-bu ekstensiv yo‘l.

Intensiv turi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgarishlar, texnikani, ilg‘or texnologiyani, o‘simlik va hayvonlarning yangi navlari va zotlarini, fan yutuqlarini qo‘llash, ishchilar malakasini oshirish hisobiga ko‘paytirish bilan xarakterlanadi. Bu holatda mehnat unumdorligining o‘sishi, mahsulot sifatining oshishi ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalanish evaziga erishiladi.

Qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiyalash hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini o‘zlashtirish bilan iqtisodiy o‘sishning intensiv turi ustunlik kasb etadi. Biroq amalda bu turlar sof holda mavjud bo‘lmaydi, shuning uchun iqtisodiy o‘sishning ikkala turi haqida ham izoh berib o‘tish ma’qul.

Agar mahsulotning o‘sish ulushi o‘sishning intensiv omillari hisobiga olinib 50% dan oshsa, iqtisod uchun intensiv tur afzal bo‘ladi. Va aksincha intensiv omillar hisobiga mahsulot o‘sishining ulushi mahsulotni umumiy o‘sishining 50% dan kamni tashkil etsa, o‘sishning ekstensiv turi afzal ko‘riladi.

Iqtisodiy o‘sish qator omillar bilan belgilanadi. **Iqtisodiy o‘sish omillari** deganda, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, o‘sish samaradorligi va sifatini orttirish imkoniyatlarini belgilaydigan holat va jarayonlar tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘sish omillari quyidagilar(15.1.2-rasm).

Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarishning mahsulot qiymatini yaratishda mos holda ishtirok etadigan uch omil nazariyasi – mehnat, yer, kapital (ishlab chiqarishdagi asosiy va aylanma mablag‘) keng tarqalgan. Biroq, keyingi yillarda ishlab chiqarish omillarini sharhlash chuqurroq va kengroq tus oldi. Ularga mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, tarmoqni modernizatsiyalashva ilmiy-texnik jarayonlar kiradi. Dastlabki ikki omil-moddiy, qolganlari - nomoddiy omillarga kiradi, biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida ular yetakchi bo‘lib qoladilar.

Agar ishlab chiqarishning hamma omillaridan to‘liq va o‘ta samarali foydalanilsa, ishlab chiqarishning hayotiy hajmi o‘zining maksimal qiymatiga - ishlab chiqarishning potensial hajmiga yetadi.

Iqtisodiy o‘sish tahlilining asosiy vositalaridan biri ishlab chiqarish vazifasidir. Qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ta’minlash uchun ishlab chiqarishning uchta omili zarur: mehnat, yer, kapital. Binobarin, qishloq

xo‘jalik yalpi mahsulotining hajmi mehnat resurslari (M), yer (S), kapital (K) o‘lchamlarida ifodalanadi:



15.1.3-rasm. **Qishloq ho‘jaligida iqtisodiy o‘sish omillari**

$$H=f(M, S, K)$$

Iqtisodiy o‘sishning vazifasi uchun ishlab chiqarish omillarining ayrimlarini qo‘llash samaradorligi o‘lchanadigan qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ular: mehnat unumdorligi, yerdan olinadigan foyda, yer hajmi, qaytimi va fond sig‘imi kabilardan iborat.

Iqtisodiy o‘sish omillari o‘zaro aloqada va chatishib ketgan. Masalan, agar ishchi to‘g‘ri iqtisodiy mexanizm sharoitida, iqtidorli tadbirkor rahbarligida,

zamonaviy uskunalardan foydalansa, mehnat unumdorligi bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sishning u yoki bu omili ta’sir darajasini aniqlash qiyin.

15.2. Qishloq xo‘jalik korxonalarining daromadlari, olingan foyda va iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati

Tovar ishlab chiqaruvchilarning iste’mol qiymatini ishlab chiqarishda resurslarni maksimal ravishda tejashdagi manfaatdorligi bilan samaradorlik muammosi vujudga keladi. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati va tavakkalchilik asosida amalga oshiriladigan bir sharoitda ishlab chiqarish samaradorligi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi o‘zida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni, mohiyatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyani ko‘rsatadi. U kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan va iqtisodiy qonunlar tizimi bilan belgilanadigan asosiy maqsadlariga erishilganlik darajasini ifodalaydi.

Qator iqtisodchi olimlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini quyidagi turlarga ajratadilar: texnologik ishlab chiqarish, iqtisodiy ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy(15.2.1-rasm).



15.2.1-rasm. **Qishloq ho‘jaligida samaradorlik ko‘rsatkichlari turlari**

Texnologik ishlab chiqarish samaradorligi–ishlab chiqarish jarayonida yerga oid, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar yordamida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasini aniqlaydi. Asosiy ko‘rsatkichlar – yer fondidan foydalanish darajasi, moddiy va mehnat xarajatlari va boshqalar.

Iqtisodiy ishlab chiqarish – iqtisodiy samaradorlik – texnologik ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy mexanizmlarining birgalikdagi ta’sir natijalari. U qiymat ko‘rsatkichlari – tannarx, yalpi daromad va sof foyda va boshqalar bilan o‘lchanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – tayyorlangan iqtisodiy ishlab chiqarish samaradorligi, iqtisodiy manfaatlar realizatsiyasini ifodalaydi va korxonaning butunicha ish samaradorligini aniqlaydi. Uning tavsifnomasi uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: yer maydoni birligiga mahsulot qiymati, daromad normasi, rentabellik darajasi, bir ishchi hisobiga iste’mol fondi.

Ekologik-iqtisodiy samaradorlik – qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarish jarayonining qishloq xo‘jaligiga atrof-muhitning ekologik ta’sirini hisobga olgan holda birgalikdagi iqtisodiy natijaviyligini ko‘rsatadi. U moddiy va mehnat xarajatlari bilan bir qatorda qishloq xo‘jalik faoliyati jarayonida atrof-muhitning ifloslanganligi va buzilishining kelib chiqishini oldini olish, shuningdek, atrof-muhit ifloslanishi tufayli qishloq xo‘jalik mahsulotlaridagi yo‘qotishlar natijaviyligini ifodalaydi.

Boshqa guruh omillar faqat ikki turdagi: ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka bo‘linadi.

Ijtimoiy samaradorlik birinchi navbatda, ishchi kuchlarning takror ishlab chiqarishi uchun yaxshi sharoit yaratiladi va xalq farovonligi orttiriladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ijtimoiy samaradorlik nafaqat iqtisodiy nuqtai nazardan, balki ijtimoiy natijalarni hisobga olish bilan ham baholanadi (mehnat sharoitini yaxshilash, qishloqda ijtimoiy-madaniy xizmat, aniq ish haqini oshirish va hokazo).

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi samaradorligi ijtimoiy baholash, ekspertlik bahosi va hisoblash usuli bilan aniqlanishi mumkin.

Insonlar farovonligi o‘sishini kuzatib borish uchun birgalikdagi real daromad ko‘rsatkichlari jiddiy ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish daromadlardagi keskinlik muammosini oshiradi, shuning uchun nafaqat daromadlar indeksini, balki iste’mol savatidan kelib chiqib, hayot qiymati indeksini ham aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Daromadlar va hayot qiymati indekslari dinamikasini taqqoslash tahlil qilinayotgan davrda ishchi va uning oilasi farovonligi o‘zgarishi haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Ijtimoiy samaradorlikni baholashda ishsizlik darajasini ishsizlar sonining barcha mehnatga qobiliyatlilar nisbatiga solishtirib hisobga olmoq zarur.

Iqtisodiy samaradorlik olingan samarani foylanilgan resurslar yoki xarajatga taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi. Jonli va moddiylashgan mehnatning umumiy xarajatlari bilan qanday bo‘lsa, ishlab chiqarish resurslari bilan ham shu tarzda taqqoslama asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash shuni bildiradiki, ishlab chiqarish natijasi uning xarajatlari, shuningdek, ushbu jarayonga jalb etilgan barcha resurslar hajmi bilan ham oldindan belgilanadi.

“Samara” va “iqtisodiy samaradorlik” tushunchalarini farqlash zarur. **Samara** – bu o‘tkazilgan chora-tadbirlar natijasi. Masalan, o‘g‘itlarni qo‘llash samarasi hosildorlik ko‘payishida foydaliligini bildiradi. Buni olingan samarani uni olishga sarflangan xarajat bilan solishtiribgina bilish mumkin. Chunki samara emas, iqtisodiy samaradorlik o‘g‘itlardan foydalanishning foydaliligini

belgilaydi. Masalan, bir holatda 1 ga yerga o‘g‘it solingandan keyin g‘alla hosildorligi 3 s yoki pulda ifodalanganda 600 pul birligi, ikkinchisida – mos ravishda 6 s va 1200 pul birligi, ularni qo‘llash uchun qilingan ishlab chiqarish xarajatlari 1 gektar yerga 900 pul birligi. Bu sharoitlarda birinchi variantda o‘g‘it foydasiz, ikkinchisida esa foydali qo‘llanilgan.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikning quyidagi turlarimavjud: iqtisodiyot tarmoqlari, qishloq xo‘jaligining ayrim tarmoqlariga, xo‘jalik yuritishning turlicha shakllarida ishlab chiqarish, xo‘jalik ichidagi tarmoqlar alohida turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish (paxta, g‘alla, sabzavot, sut va hokazo), alohida xo‘jalik tadbirlari (agrotexnik, zootexnika, veterinariya, iqtisodiy, tashkiliyga oid).

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiyot tarmoqlariga doir samaradorligi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish nuqtai nazaridan, sanoatda – xom-ashyoga, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari masalalarini hal qilishda tarmoqning moliyaviy qo‘yilmalariga qarab baholanadi. Tarmoqqa doir samaradorlik qishloq xo‘jaligi resurslaridan va resurs salohiyatidan foydalanishning natijaviyligini aks ettiradi. Samaradorlikning boshqa turlari ham tarmoqqa oidga o‘xshash, lekin ishlab chiqarishning turlicha shakllarini, xo‘jalik ichidagi bo‘limlar, alohida turdagi mahsulot ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida o‘tkazilgan chora-tadbirlardan olingan samaralarni resurslar yoki xarajatlar bilan taqqoslab, natijalar aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi mezon va ko‘rsatkichlar orqali ifodalanishi mumkin.

Mezon asosida samaradorlik baholanadigan belgidir. U maqsadga yetishda ishlab chiqarishni rivojlantirishning muqobil variantlarini o‘lchab va tanlab olish yordami bilan eng yaxshi vositalarni ko‘rsatib beradi.

Samaradorlikning asosiy mezoni – vaqt iqtisodining hamma uchun umumiy qonuni. Jamiyatda samaradorlik va iqtisodiy manfaatlarning turli xillari asosiysiga bo‘ysunadigan va uning modifikatsiyasi bo‘lgan boshqa mezonlarning ham mavjudligini oldindan belgilaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik mezoni – bu umumiy ko‘rinishda samaraning ijtimoiy mehnatning har bir birligiga xarajatlarning maksimum samarasi. Alohida tovar ishlab chiqaruvchilar uchun daromadning maksimumi – xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi mezoni, boshqalar uchun mezon sifatida raqobatbardoshlik chiqadi. Bu mezonlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi maqsadlariga javob beradi. Bundan tashqari, ular integrallashgan ishlab chiqarish manfaatlarini ham, hamma korxonalar – integratsiya qatnashchilari manfaatlarini ham birdek aks ettiradi.

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ularning darajalarining miqdoriy o‘lchash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikning o‘sishi, shu resurs salohiyati bilan yakuniy mahsulot ishlab chiqarishni oshirish va mahsulot birligiga mehnat hamda moddiy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jalik samaradorligi – takror ishlab chiqarish – mahsulot ishlab chiqarishgina emas, taqsimlash, almashish, iste’mol kabi davrlar faoliyatining natijaviyligiga ham bog‘liq. Iqtisodiy samaradorlik darajasiga ob-havo sharoiti ham ta’sir qiladi, shuning uchun uni aniqlashdagi majburiy paytlardan biri kamida 3-5 yillik o‘sishni aks ettiruvchi haqiqiy ko‘rsatkichlar tahlilidir. Bu qishloq xo‘jaligi rivojlanish tendensiya va qonuniyatlarini obyektiv ravishda aniqlash va ishlab chiqarish natijalariga ob-havo sharoitining ta’sirini imkon darajasida kamaytirishga imkon beradi.

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini ikki xil usulda hisoblab chiqish mumkin: samaradorlikni samara ko‘rsatiladigan suratda kasr sifatida, maxrajda – resurslar yoki xarajatlar sifatida ifodalash, samaradan xarajatlarni uning yutuqlariga ajratish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun samarani turlicha omillar bilan qanday o‘lchasa, iqtisodiy tabiati bilan ajralib turadigan va hammaga ham taqqoslab bo‘lavermaydigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi hamma ko‘rsatkichlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Bir guruh qo‘llanilgan resurslardan foydalanish samaradorligini, boshqasi –joriy ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalaydi. *Birinchi guruhga* yerdan olinadigan foyda, fond sig‘imi, mehnat unumdorligi, resurslardan keladigan foyda va boshqalar, *ikkinchisiga* – tannarx, moddiy sarflar, sermehnatlilik, rentabellik darajasi va boshqalar kiradi. Maqsad va o‘rganish obyektiga qarab, ikkala guruh ko‘rsatkichlaridan ham bir vaqtda foydalanish mumkin.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari *xususiy* va *umumlashtiruvchiga* bo‘linadi. ***Xususiy ko‘rsatkichlar*** alohida turdagi resurslaridan yoki xarajatlardan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi, umumlashtiruvchi esa resurs salohiyati va hamma joriy ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligiga to‘liq baho beradi. Resurslardan foydalanishning xususiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga yerdan, fonddan keladigan foydalar, ***umumlashtiruvchiga*** – resurslardan foydalar kiritiladi; xarajatlardan foydalanishning ***xususiy ko‘rsatkichlariga*** – tannarx, moddiy sarflar, sermehnatlilik, umumlashtiruv-chiga – rentabellik darajasi kiradi.

Xarajatlardan foydalanish iqtisodiy samaradorligining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari:

Rentabellik – bu korxona, tarmoqning foyda olishi, daromadliligini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Ishlab chiqarish rentabelligi yalpi va sof foydani, daromad, mahsulot sotish darajasini, asosiy fondlarni, xarajatlarning qoplanishi, daromad normasini ta’minlaydi.

Yalpi foyda (Yaf) – bu yalpi mahsulot qiymati (Yam) va moddiy xarajatlar (MX) orasidagi farq, so‘m:

$$YaF = YaM - MX$$

Соф даромад(SD) – bu yalpi mahsulot qiymati va uni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlar (JX) o‘rtasidagi farq, so‘m:

$$SD = YaM - JX \text{ yoki} SD = YaF - M_x$$

bunda

M_x – mehnat to‘lovlariga xarajatlar.

Daromad iqtisodiy kategoriya sifatida korxonaning tadbirkorlik faoliyati moliyaviy natijalarini izohlaydi. Yalpi daromad mahsulot sotishdan va xizmatdan daromad va sof daromadlar bilan aniqlanadi.

Yalpi daromad o‘zida korxonaning umumiy daromadini ko‘rsatadi: asosiy fondlar va boshqa jihozlar, mahsulot va xizmatlar realizatsiyasi, realizatsiyadan tashqari foydalar va sarflar (inshootni ijaraga berishdan foydalar, dividendlar, korxonaga tegishli aksiyalar va qimmatli qog‘ozlardan foizlar, jarimalar va hokazo).

Mahsulotlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan daromadlarni pul tushumlarini to‘liq (tijorat) tannarxini olib tashlash bilan hisoblab chiqiladi va so‘mda ifodalanadi:

Korxonaning sof foydasi – yalpi foyda minus tannarxga kirmaydigan soliqlar.

Biroq, daromadlarning mutlaq vazni ham samaradorlik darajasiga guvohlik bera olmaydi. Uni rentabellik darajasi – ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ifodalaydi.

Ishlab chiqarish va mahsulot realizatsiyasi rentabelligining darajasi – bu olingan sof foydaning(SF) mahsulot tannarxiga (T_m) nisbati:

$$R_d = \frac{SF}{T_m} * 100$$

Bu ko‘rsatkich iste’mol qilingan har bir resurs birligiga to‘g‘ri keladigan sof foydaning miqdorini ifodalaydi. Masalan, 30% rentabellik darajasida qilingan har bir so‘m xarajatga 30 tiyin yoki 100 so‘m xarajatga 30 so‘m sof foyda beradi. Xo‘jalik yuritish samaradorligi haqida ham yuqorida ko‘rib o‘tilgan asosiy fondlar rentabelligi darajasi va daromad me’yorlarida aytiladi.

Agar mahsulot ishlab chiqarish foyda emas, zarar (Z) keltirsa (rentabelli emas), salbiy belgi bilan rentabellik darajasi o‘rniga (zarar darajasi) xarajatlarni

qoplash darajasi (Z_q) qo‘llanilishi mumkin va u o‘zida pul tushumlarining (*PT*) mahsulot tannarxiga nisbatini ko‘rsatadi:

$$Z_q = \frac{PT}{T_m} * 100.$$

Ko‘rsatkich xarajat birligiga pul tushumini xarakterlaydi. Ishlab chiqarish xarajatlarini qoplanish darajasi 100% dan ortgandagina rentabelli bo‘ladi.

Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi xususiy ko‘rsatkichlari ko‘rsatkichlar tizimi bilan aniqlanadi. Yerdan foydalanish samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari – yerdan foyda olish, yerga ishlov berishning ko‘pligi, yalpi (tovar) mahsulot ishlab chiqarish hajmi, yalpi va sof daromad, daromadlar, 1 ga yer maydoniga asosiy mahsulotlar turlari, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligidan iborat. *Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari* – fondlardan olinadigan foyda, fondlar sig‘imi, asosiy fondlarning qoplanish muddatlari, aylanma mablag‘larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, aylanma mablag‘larning ta’minlanganlik koeffitsiyenti, bitta aylanishning davomiyligi, materiallar sig‘imi. *Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari*– yillik, kunlik va soatlik mahsulot ishlab chiqarish, mahsulotlarning sermehnatliligi, mehnat resurslaridan foydalanish resurslari – resurslardan olingan foyda va resurslar sig‘imi:

$$M_r = \frac{YaM}{R_s}$$

bunda

R_s – resurs salohiyati kattaligi, so‘m.

Ishlab chiqarish resurslaridan foylanish samaradorligining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarini (Irs) quyidagi formula bo‘yicha hisoblash ham mumkin:

$$I_{rs} = \frac{YaM_e}{YaM_m}.$$

bunda

YaM_e – 1 ga qishloq xo‘jaligi ekin yeridan olingan yalpi mahsulot, so‘m; – qishloq xo‘jaligi korxonasi ishlab chiqarish salohiyatlarini aks ettiruvchi yalpi mahsulot ishlab chiqarishning me’yoriy darajasi, so‘m/ga.

Yalpi mahsulotning me’yoriy darajasini xo‘jalikning ishlab chiqarish resurslari bilan ta’minlanganligi hisobi bilan ko‘pgina regressiyalarni tenglashtirish orqali hisoblab chiqiladi.

Resurslar salohiyati – har bir resursning soni, sifati, ichki tuzilishi bilan belgilanadigan mehnat, tabiiy va moddiy resurslar jamlanmasi.

Ishlab chiqarish salohiyati – korxonaning moddiy, mehnat va natural resurslar soni, sifati va taqqoslanishga bog‘liq holda, shuningdek xo‘jalik vazifasining obyektiv shartlari bilan belgilanadigan, ularning foydalilik darajasiga bog‘liq bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishdagi obyektiv hususiyati. Ishlab chiqarish obyektining hisob-kitobi korxona ushbu resurslar bilan ishlab chiqara oladigan mahsulot hajmida belgilanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatini resurs salohiyati bilan taqqoslab, resurslardan foydalanishning obyektiv samaradorligini tashkil etuvchi bahosini olamiz, ya’ni tabiiy-iqtisodiy omillarning mahsulot ishlab chiqarish darajasiga ta’sirini bilib olamiz. Ishlab chiqarilgan mahsulotning resurs salohiyatiga nisbati esa uning obyektiv va subyektiv tomonlarini qo‘shgan holda resurslardan foydalanishning to‘liq samarasini ifodalaydi.

Joriy ishlab chiqarish xarajatlarining samaradorligi ishlab chiqarish rentabelligi darajasini, mahsulot birligining to‘liq va ishlab chiqarish tannarxining moddiy sarf hajmini ifodalaydi.

Alohida turdagi mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ularni olish uchun sarflangan resurslar yoki xarajatlarni taqqoslash bilan aniqlanadi. Uning tavsifnomasi uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. *O‘simlikchilikda tovar mahsulotlar ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlari* – qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi, 1 s mahsulotga mehnat sarfi (mehnat sig‘imi), 1 s mahsulot tannarxi, ma’lum turdagi mahsulotni sotishdan daromad, 1 ga ekindan daromad, rentabellik darajasi, tovar bo‘lmagan ozuqalar – ozuqa ekinlarining hosildorligi, 1 ga dan chiqadigan ozuqa birligi va hazm bo‘ladigan protein, natural holdagi 1 s ozuqa, bir ozuqa birligi va 1 s hazm bo‘ladigan proteinga mehnat sarfi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari – bir bosh sigirdan sut sog‘ib olish, chorva moli va parranda tirik vaznining ortishi, bitta qo‘ydan jun qirqib olish, tovuqlarning yillik o‘rtacha tuxum qo‘yishi, sotilgan bir bosh chorva molining o‘rtacha vazni, 100 ta sigirdan olinadigan buzoq, 1 s mahsulotga ozuqa sarfi, mahsulot sotishdan daromad, 1 s mahsulot yoki bir bosh qoramoldan olingan daromad, rentabellik darajasi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun yakuniy mahsulot birligiga xom-ashyo sarfi, qishloq xo‘jalik xom-ashyosi birligiga yakuniy mahsulotning chiqishi, mahsulot birligiga xarajatlar, mahsulot birligi tannarxi, mahsulot sotishdan daromad, rentabellik darajasi kabi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlashning iqtisodiy samaradorligi ombor sig‘imi, saqlashda mahsulotning yo‘qotilishi, mahsulot birligini saqlashga qilingan moddiy-pul mablag‘lari xarajatlari koeffitsiyentlari, saqlashdan kelgan daromad va rentabellik darajasi kabilar bilan aniqlanadi.

15.3. Qishloq xo‘jaligi daromadlarini, foydani va iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqning o‘ziga xosligini unutmaslik kerak. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq, shu bois qishloq xo‘jaligini har tomonlama rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilganda atrof-muhitni saqlashga doir talablar hisobga olinmog‘i lozim.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishning zaruriy shartlari – turli agrotexnik va zootexnikaga oid tadbirlar o‘tkazish asosida qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligining o‘sishi va chorva hayvonlarining mahsuldorligidir. Shu bilan birga, taklif etilayotgan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash ham mumkin.

Agrotexnik va zootexnika tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi ushbu tadbirlarni uning uchun belgilangan xarajatlar yoki qo‘llanilgan resurslarga taqqoslangan holda olingan samaraga qarab aniqlanadi.

Asosiy agrotexnik tadbirlar – ekin maydonlari tuzilishini optimallashtirish, tarkibiy o‘zgartirish, almashlab ekishni o‘zlashtirish, jadal va resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qiladigan vositalardan foydalanish, qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi navlarini ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

Ekin maydonlarining tuzilishini optimallashtirish – tarkibiy o‘zgartirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish, chorvachilik tarmoqlarining ozuqaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydi, o‘simlikchilikning samaradorligi oshishiga yordam beradi, tuproq va iqlim xususiyatlariga mos kelishi kerak. Shunday ekinlarni tanlash kerakki, 1 ga yerga kam xarajat va mehnat sarflab, ko‘p mahsulot olinishi lozim.

Ekin maydoni tuzilishini iqtisodiy baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: 1 ga ekin maydoni va bir kishi/soat, 1 ga maydonga mehnat va moddiy-pul mablag‘lari hamda mahsulot birligi xarajatlari hisobiga 1 ga maydon va 100 so‘m xarajatdan sof foyda.

Sof daromadning o‘lchami hosildorlik darajasi, tannarx va sotish bahosiga bog‘liq. Agar xarajatlar ekin guruhlari bo‘yicha hisobga olinsa, har bir ekin mahsuloti tannarxi hisob-kitob yo‘li bilan aniqlanadi. Shu bilan birga, hosildorlik va oxirgi 3-5 yilda 1 ga yerga o‘rtacha xarajatlar aniqlanib, realizatsiya baholari korxonada keyingi yillarda yig‘ilgan haqiqiy baholardan olinadi.

Ekin maydonlarining tuzilishini tarkibiy o‘zgartirishning yaxshilanishi hisobiga o‘simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkoniyatlari hisob-kitobida hamma imkoniyatlar va cheklashlarni hisobga olgan holda ekishning optimal tuzilmalarini ishlab chiqish lozim (hisoblash-

konstruktiv va iqtisodiy-matematik usullar yordami bilan), keyin mahsulotlarning haqiqiy hajmini, haqiqiy umumiy maydondan ekinlarning haqiqiy hosildorligida, lekin ekin yerlari tuzilishi yaxshilanganda, ekinlardan olinish ehtimoli bo‘lgan mahsulot bilan solishtiriladi. Optimallik mezoni sifatida sof daromadning maksimumidan foydalanish mumkin.

Almashlab ekishni o‘zlashtirish va uning samaradorligini hisoblashda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- almashlab ekishlar ma’lum assortiment va sifatdagi tovar qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ko‘zda tutilgan sotish hajmini ta’minlashi lozim;
- o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlariga (ozuqalar, urug‘liklar va boshqalar) xo‘jalikning ichki talab-ehtiyojlari qondirilishi;
- tarmoqlar, ferma va brigadalarning o‘lchamlarini va yerdan foydalanish yo‘nalishini hisobga olishni tashkil etish;
- qishloq xo‘jalik ekinlari va navlarning, ekin maydonlarining maqbul tuzilmalarini iqtisodiy baholari haqidagi ilmiy asoslangan ma’lumotlar asosida joriy etishi;
- qishloq xo‘jalik korxonasining ishlab chiqarish tarmoqlari texnikadan yuqori unumdorlik bilan foydalanishni ta’minlovchi almashlab ekishni tashkil etish;
- lalmi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini kengaytirish imkonini ko‘zda tutish kerak.

Ikkita-uchta almashlab ekish variantni iqtisodiy baholash va taqqoslagandan keyingina eng maqsadga muvofiq almashlab ekishni tanlash yoki ularning tizimini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

Almashlab ekishni taqqoslash iqtisodiy baholash ko‘rsatkichlarining quyidagi tizimi bo‘yicha o‘tkaziladi:

- 1 ga almashlab ekish maydoniga natural (ozuqa birligi) va pul (so‘m) ifodasidagi yalpi mahsulotning chiqishi;
- 1 so‘m/ishlab chiqarish xarajatlari va 1 kishi/soatga, yalpi mahsulotning chiqishi;
- 1 ga almashlab ekish maydoni va 100 ozuqa birligiga mehnat va moddiy-pul mablag‘lari xarajatlari;
- 100 ozuqa birligining tannarxi;
- 1 ga almashlab ekish maydoni va 1 kishi/soatga olingan sof foyda;
- ishlab chiqarish rentabelligi darajasini foizlarda ifodalangan moddiy-pul xarajatlariga sof daromad nisbati sifatida;
- yerdan foydalanish koeffitsiyenti almashlab ekish maydonining haydaladigan maydonga nisbati sifatida.

Taqqoslanadigan almashlab ekiladigan yer iqtisodiy bahosining mezoni – o‘simlikchilik mahsulotlarining mahsulot birligiga eng kam mehnat va mablag‘ sarflab, ko‘p mahsulot ishlab chiqarishdir.

Intensiv va resurslarni tejash texnologiyasining samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi, 1 ga ekinga pul ko‘rinishidagi yalpi mahsulotning chiqishi, 1 ga

yerga ekin ekishga mehnat va moddiy-pul mablag‘lari xarajati, qo‘shimcha mablag‘larni qoplash, mahsulot birligiga mehnat sarfi va tannarx, 1 ga ekin ekishdan sof foyda, rentabellik darajasi.

Intensiv va resurslarni tejash texnologiyasining samaradorligini aniqlash uchun asos hosildorlikning o‘sishi, mahsulot sifatini avvalgi yillardagiga yoki an’anaviy texnologiyadagiga solishtirgandagiga nisbatan yuqoriligi bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning turlicha texnologiyalarini baholashda, ularning iqtisodiy samaradorligini (Is) aniqlash kerak bo‘ladi:

$$I_s = (N_b - T_b) * X_b - (N_o - T_o) * X_o .$$

Bunda N_b, N_o– 1 s mahsulotni yangi va bazaviy variantlarda sotish bahosi, so‘m;

T_b, T_o – 1 s g‘allaning yangi va bazaviy variantdagi tannarxi, so‘m;

X_b, X_o – 1 ga dan yangi va bazaviy variantda hosildorlik, s.

Qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishning intensiv texnologiyasi ozuqa elementlarini balanslashtirilganidan farq qiladi. Ularni xarakterli xususiyatlari – o‘g‘itlarni, o‘simliklarni himoyalash vositalarini qo‘llashning yuqori darajasigina emas, balki ularni kiritishning miqdori, muddat va usullari hamdir.

Turli tadqiqotlar xulosalariga ko‘ra, g‘allaning va paxtaning hosildorligi oshishida mineral va organik o‘g‘itlarning ulushi – 53% ga, tuproqqa ishlov berish hamda ishlarni bajarish muddati – 24%, avvalgilariniki – 9%, o‘simliklarni himoya qilish vositalari va eroziyaga qarshi tadbirlar – 4%, navlar va boshqa omillar – 10% ni tashkil etadi.

O‘g‘itlarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi ko‘plab o‘zaro aloqador shart-sharoitlar va omillarga, o‘g‘itning assortimenti (turi) va sifatiga bog‘liq. Masalan, ozuqaliligi bilan 1 t diammofosning o‘rnini 1 t sulfat ammoniy va 3 t oddiy superfosfat bosadi, shu bilan birga tashish va kiritish (sepish) xarajatlari to‘rt marta qisqaradi. Donador superfosfat kukunsimonga nisbatan 1,5-2 marta samaraliroq.

Organik va mineral o‘g‘itlarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini nazorat (o‘g‘itsiz) va tajriba (go‘ng+NPK) variantlarini solishtirib, quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisoblab chiqiladi:

- 1 ga yerning hosildorligi, s;
- 1 ga va 1 s o‘g‘itlarni ozuqa moddalari hisobida hosilning natural va puldagi ifodasi, s va so‘m;
- 1 ga yerga qo‘shimcha xarajatlar, so‘m;
- 1 ga sotish narxi bilan qo‘shimcha mahsulot qiymati, so‘m;
- qo‘shimcha xarajatlarning qoplanishi, %;
- 1 ga yerdan daromad (sof foyda), so‘m;
- rentabellik darajasi, %.

Olimlarning tavsiyasiga ko‘ra, birinchi ekinga ishlatilgan o‘g‘it sarfini taqsim qilganda, azotga nisbatan 100%, fosforga 50% (superfosfat), kaliyga

70% (xlorli kaliy) sifatida bo‘lishi mumkin. Go‘ng va boshqa kompostlarni qo‘llash bo‘yicha xarajatlar 2-5 yilga yerga taqsimlanadi. Agar korxona bo‘yicha hisob qilish uchun xo‘jalik tajribalari bo‘lmasa, ilmiy muassasalar, hududiy qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyalari, o‘g‘itlar va agrotuproqshunoslik bo‘yicha ilmiy-tekshirish institutlari ma’lumotlaridan foydalanish mumkin.

Mineral o‘g‘itlarni yoki dehqonchilikda kimyolashtirishning o‘zga usullarini qo‘llashning boshqa vositalarini iqtisodiy baholashda ko‘pincha ulardan foydalanish rentabelligi darajasi (Rd) hisoblab chiqiladi, %:

$$R_d = \left(YaM_q : QX : T_m + H_q + X_s - 1\right) * 10_0$$

bunda

YaM_q – qo‘shimcha yalpi mahsulot;

QX – agrotadbirlarni o‘tkazish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar, so‘m;

T_m – o‘tkaziladigan tadbirning ta’sir muddati, yil;

H_q – qo‘shimcha hosilni yig‘ishga xarajatlar, so‘m;

X_s – olingan qo‘shimcha mahsulotni sotish xarajatlari, so‘m.

Qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini iqtisodiy baholashda asosiysi – hosildorlik, sermehnatlilik va mahsulot birligi tannarxi, 1 ga ekindan va 1 s hosildan sof foyda, rentabellik darajasi bo‘lgan ko‘rsatkichlar kompleksidan foydalaniladi. Yangi navlarning samaradorligi ularni xo‘jaligida ekiladigani bilan solishtirib aniqlanadi.

Mevali ekinlar navlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda ularning ko‘p yillik ekanligi, mevalarni realizatsiya qilish uzoq vaqtga cho‘zilish mumkinligi va bu saqlash usullari hamda muddatiga ta’sir qilishi hisobga olinadi. Shuning uchun mevali daraxtlar va uzumnavlarini baholashda qo‘yilgan kapitalning qoplanishida ekin ekish, parvarishlash, saqlashdagi yo‘qotishlar, 1 s mevani saqlash hisobiga sof foyda va saqlash rentabelligi darajasi kabilar hisobga olinadi.

Sof foyda mahsulotni realizatsiya qilingandan tushgan tushum va uni ishlab chiqarish, saqlash va sotishga ketgan xarajatlar orasidagi farqqa teng.

Mahsulotning realizatsiyasidan tushgan daromad quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi, so‘m:

$$YaD = T_1X_1 + T_2X_2 + T_3X_3$$

bunda

$T_1T_2T_3$ – I, II, III tovar navlariga mos holda mahsulot hajmi, st;

$X_1X_2X_3$ – I,II,III tovar navlariga mos ravishda sotish narxlari, so‘m.

Mevalarni ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va sotish xarajatlaridan yig‘iladi, so‘m:

$$X = X_e + X_k + X_s.$$

1 ga dagi mevali daraxtlardan olinadigan sof foyda (SF) mevalarning realizatsiyasidan olingan umumiy daromadning bog‘ maydoniga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$SF = YaD - X$$

Mevali bog‘ yaratish yoki yosh ko‘chatlarni parvarishlashda qo‘yilgan kapitallar (Sok) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi, yosh:

$$S_{ok} = K_k + T$$

bunda

K_k – bog‘ va yosh ko‘chatlar mevaga kirguncha garovga qo‘yilgan kapital qo‘yilmalari, so‘m;

T – ko‘chatlarni ekilgandan to meva bera boshlagunga qadar o‘tgan davri.

Asosiy zootexnika tadbirlari – chorva mollarini oziqlantirishni optimal-lashtirish, ularni saqlash va podani qayta ishlab chiqishdan iborat.

Ratsionlar va oziqlantirish turlarining iqtisodiy bahosi. Qishloq xo‘jalik hayvonlarining ratsionlari va oziqlantirish turi ularni boqish tizimlari va ishlab chiqarish intensifikatsiyasiga bog‘liq.

Oziqlantirish turlari va ratsionlarni iqtisodiy baholashda ozuqa ishlab chiqarishning strukturasini, ozuqalar sifati, ularning tannarxi va foydali ta’sir koeffitsiyentini hisobga olish kerak.

Sog‘in sigirlar uchun molxonada va yaylovga boqilish davri bo‘yicha tahlillar qilinib, bunda ikki-uch variant ko‘rib chiqiladi va eng asoslangani tanlab olinadi. Bu variantlarni *iqtisodiy baholash* quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha bajariladi: o‘rtacha sutkalik sog‘im, kg; sigirdan o‘rtacha yillik sog‘im, kg; 1 s sutga ozuqa sarfi; ozuqa birligidagi mavjud hazm bo‘luvchi protein, g; 1 s sutga sarflangan konsentratlar, ozuqa birligi; ratsionning ozuqa birligi tannarxi, so‘m; har bir bosh sigir hisobiga ozuqa xarajatlari, so‘m; 1 s mahsulot tannarxi, so‘m.

Ishlar turli darajada mexanizatsiyalanganda sigirlarni turlicha usulda boqish samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi: sigirdan yillik sut sog‘ib olish, kg; yiliga bir bosh sigirga qilingan mehnat sarfi va 1 s sut, kishi/soat; 1 s sutga qilingan ozuqa xarajati, ozuqa birligi; 1 chorva moli o‘rniga kapital qo‘yilma, so‘m; 1 s sut tannarxi, so‘m; 1 s sut sotishdan sof foyda, so‘m; sut ishlab chiqarish rentabellik darajasi, %.

Hayvonlar zotini iqtisodiy baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi: hayvonning mahsuldorligi, kg; bir bosh hayvon va 1 s mahsulotga mehnat sarfi, kishi/soat; 1 s mahsulotga ozuqa sarfi, ozuqa birligi; 1 s mahsulot tannarxi, so‘m; bir bosh hayvondan daromad, so‘m; rentabellik darajasi, %.

Chorvachilikda ko‘p yo‘qotishlar sigirlarning bepushtligi sababli sodir bo‘ladi. Fan va amaliyotning ko‘rsatishicha, o‘rtacha yillik qisir sigir sut mahsuldorligi bo‘yicha bepusht bo‘lmagan sigirga 0,5 ekvivalentda, 100 bosh sigirdan buzoq tug‘ilishining optimal varianti 90-105 bosh. Bosh hisobiga bepushtlik tufayli sut yo‘qotilishi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi, kg:

$$B_s = S_u * 0{,}5 S_k$$

bunda

S_u – hisobot yilida poda bo‘yicha o‘rtacha sut sog‘ib olish; 0,5 – sog‘in va pushtsiz sigirlar sut ko‘rsatkichlari taqqoslanishini xarakterlovchi qisirlik koeffitsiyenti; S_k – sigirlarning qisirlik koeffitsiyenti.

$$K_{\downarrow}ya = 1 - (B_{\downarrow}s/365 * 100 : (284 + t_{\downarrow}s)$$

bunda

B_s – 100 bosh sigirdan olinadigan haqiqiy buzoq soni, bosh;

365 – kalendar yilidagi kunlar soni;

285 – sigirlarning bug‘ozlik (buzoqlash) davriyligi, kun;

t_s – serviz – davr davomiyligi, kun (tarmoqli yuritilish darajasiga qarab (30-60 kun)).

Poda bo‘yicha sigirning qisir qolishidan sutning yo‘qotilishi, kg:

$$K_k = B_s * P_s$$

bunda

P_s – podadagi sigir bosh soni;

B_s –qisir sigirlar soni, bosh.

Poda bo‘yicha umuman olinmagan nasl tufayli shartli sut yo‘qotilishi:

$$C_y = (106 - B_u) * \left(\frac{P_s}{100}\right) * 2{,}36$$

bunda

2,36– buzoqning shartli sutga aylanish koeffitsiyenti.

Yo‘qotilgan sut yig‘indisi:

$$S_y = S_k + S_u .$$

Sigirlarning bepushtligidan ko‘rilgan zarar, so‘m:

$$S_k = N * S_y$$

bunda

N – 1 st sutni sotishning haqiqiy narxi, so‘m.

Sigirlarning bepushtligidan keladigan zarar shunda ko‘rinadiki, xo‘jalik qishloq xo‘jaligi mahsulotini (sut, buzoq) va puldan ko‘riladigan foydani to‘liq

ololmaydi. Ma’lum zootexnik va veterinariya tadbirlarining o‘tkazilishi bunday holning oldini olib, sutchilik samaradorligining sezilarli o‘sishiga yordam beradi.

Yuqori inqiroz va qishloq xo‘jaligi hamda sanoat mahsulotlari dispariteti sharoitida hamma agrotexnik va zootexnik tadbirlar ham qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi oshishiga yordam bera olmaydi, shuning uchun ularni o‘tkazishning uzluksiz sharti oldindan iqtisodiy baholanadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ekologik-iqtisodiy samaradorligining mezoni bo‘lib, daromad va sof foyda, odamlar sog‘ligi va tabiatni muhofaza qilish manfaatlariga javob beruvchi atrof-muhit sifatining normativ talablariga rioya qilish hisoblanadi. Ushbu mezonga erishish darajasi joriy xarajat va kapital qo‘yilmalarining ekologik-iqtisodiy ta’sir etish ko‘rsatkichlari tizimi hisoblanadi.

Ekologik-iqtisodiy ta’sir etish – bu ishlab chiqarish ta’siri ostida yuz beruvchi ekologik parametrlar o‘zgarishining pulda baholanishi. U ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Ijobiy miqdor sifatida ekologik-iqtisodiy samara, salbiy sifatida ekologik-iqtisodiy zarar chiqadi.

Ekologik-iqtisodiy samara – tabiatni qo‘riqlash tadbirlarini amalga oshirish natijasida foydaning qiymatli o‘sishidir. Uni hisoblashning asosi bo‘lib, tuproq, suv, havodagi ifloslanish darajasining pasayishi, tuproq hosildorligining oshishi, ekologik toza mahsulotlar chiqishining ortishi kabilar bo‘lishi mumkin.

Ekologik-iqtisodiy zarar – atrof-muhit holatining yomonlashuvi natijasida qishloq xo‘jaligining qiymat shaklidagi haqiqiy yoki ehtimoliy zarari yoki bu zararlarni qoplash uchun qo‘shimcha xarajatlardir.

Qishloq xo‘jaligida zarar birinchi navbatda, havoning ifloslanishi va sug‘orish uchun ifloslangan suvdan foydalanishdan paydo bo‘ladi, natijada qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi kamayadi, tuproq sho‘rlanishiga qarshi kurash sarflari ortadi, ayrim holatlarda qishloq xo‘jaligi ekinlari assortimenti o‘zgaradi. Chorvachilikda zarar chorva mollari mahsuldorligining kamayishi ko‘rinishida, ya’ni yirik vazn, sut sog‘ib olish, tuxum soni kamayishi ko‘rinishida bo‘ladi. Ekstremal holatlarda ko‘p miqdordagi o‘ta ifloslangan oqova suvlarning tashlanishi chorva mollari va parrandalarning to‘liq halokatiga olib keladi.

Ekologik ta’sirni hisoblashda tabiiy muhitning natural ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishi aniqlanadi, ya’ni korxona ishining ekologik parametrlarga ta’siri belgilanadi:

- bevosita xarajatlar, zararga tovon to‘lash;
- qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi, chorvachilikda chorva mollari mahsuldorligi o‘zgarishi natijasida mahsulot kamayishi.

Qishloq xo‘jaligida yerga yetkazilgan ekologik-iqtisodiy zarar birinchi navbatda, tuproq unumdorligining pasayishi va qishloq xo‘jalik ekin maydonlari, hosildorlikning pasayishi natijasida mahsulotlarning yo‘qotilishi

sifatida ifodalanidagan holatining sifat jihatdan yomonlashuvini qiymatli baholashda ko‘rinadi.

Dehqonchilik va ozuqa ishlab chiqarishda tuproq unumdorligining pasayishidan ekologik-iqtisodiy zarar (Ez) formula bo‘yicha hisoblab chiqiladi:

$$E_z = E_t * S$$

bunda

E_t – tuproq unumdorligi pasayishidan taqqoslama ekologik-iqtisodiy zarar, 1 gektarga so‘mda;

S – hosildorligi pasaygan qishloq xo‘jalik ekinlar turining maydoni, ga.

1 ga yerdagi hosildorlik yo‘qolgan tuproqdan taqqoslama ekologik-iqtisodiy zarar (E_{tz}) uni tiklash uchun zarur xarajatlar summasi (Z) va amalda olinmagan qishloq xo‘jalik mahsulotlari qiymatlari (Q_{eq}) bilan aniqlanadi, so‘m:

$$E_{tz} = Z + Q_{eq}.$$

Yo‘qotilgan tuproq unumdorligini tiklash uchun xarajatlar gumus va ozuqa moddasi yo‘qolishidan yuzaga kelgan zararni bartaraf etish uchun zarur xarajatlarning qiymat bahosi, asosida hisoblab chiqiladi, so‘m:

Tuproq unumdorligini tiklash xarajatlariga o‘g‘it va melioativlarning yetkazib berish, yuklab-tushirish, tashish, yerga sepish kabilarni hisobga olgandagi qiymatlar ham kiritiladi, so‘m:

$$Z_i = C_y + C_p + C_t + C_r + C_v$$

bunda: Z_i – tuproqning i-turdagi ko‘rsatkichlarini tiklash uchun zarur xarajatlar (azot, fosfor, kaliy va boshqalar tarkibi), 1 ga yerga so‘m.

C_y, - o‘g‘it va meliorantlar qiymati, so‘m;

C_p, C_t, C_r,C_v– o‘g‘it va melioativlarni yuklash, tashish va yerga solishga mos holda qiymati, so‘m.

To‘liq olinmagan qishloq xo‘jalik mahsulotlari qiymati yoki o‘simlikchilikdagi zarar qiymati tuproq unumdorligi yo‘qolishidan hosildorlikning pasayishi sifatida formula bo‘yicha aniqlanadi, 1 gektarga so‘m:

$$QX_o = \Delta H * N$$

bunda

ΔH – i-qishloq xo‘jalik ekini hosildorligining yo‘qolishi, st/ga;

N – i-qishloq xo‘jalik ekinining yo‘qolgan birliklari narxi, so‘m.

Qishloq xo‘jaliki amaliyotida tabiatni asrash vazifalari xarajatlarining joriy va kapital kategoriyalari farqlanadi. Bu boradagi faoliyatning joriy xarajatlariga eroziyaga qarshi agrotexnika tadbirlari, ifloslanish o‘choqlarini yo‘q qilish, tuproq unumdorligini oshirish uchun o‘g‘it solish, tabiatni asrashga mo‘ljallangan vositalarni saqlash va xizmat ko‘rsatish sarflari (shu jumladan, ushbu xizmat xodimlari mehnatiga haq to‘lash, joriy ta’mir, amortizatsiya

ajratmalari, energiya sarfi), shuningdek, atrof-muhitni asrash bilan bog‘liq boshqa tashkilot xizmatiga haq to‘lash (ekologiya auditi, ekspertni jalb qilish va boshqalar) xarajatlari kiritiladi. Kapital xarajatlari esa tabiatni asrashga mo‘ljallangan asosiy fondlarni yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va qayta uskunalash, yerni tubdan yaxshilash, agro-o‘rmon melioratsiyasini, sanitariya-himoya zonasini yaratish kabilarni o‘zida aks ettiradi.

Shu munosabat bilan tabiatni asrash joriy va kapital xarajatlarining ekologik-iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi.

Bu boradagi tadbirlarni ekologik ta’sir kattaligiga korrektlangan iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari yordami bilan aniqlanadi (zarar yoki samara). Ekologik ta’sirni hisobga olgan holda daromad yoki sof foyda hisoblab chiqilishi mumkin:

$$SF = SD \pm E_x.$$

Ekologik ta’sirni hisobga olgan holda rentabellik darajasi quyidagicha hisoblab chiqiladi, %:

$$R_d = \frac{SF \pm E_x}{T} * 100$$

Joriy xarajatlarning ekologik-iqtisodiy samaradorlik hisobi metodikasini eroziyaga qarshi tadbirlarida qo‘llash misolida ko‘rib chiqamiz.

Eroziyaga qarshi tadbirlarni ekologik-iqtisodiy baholash bosqichma-bosqich o‘tkaziladi. *Birinchi bosqichda* joriy etilayotgan tadbirning xo‘jaligi nuqtai nazaridan iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. U qo‘shimcha sof daromad bilan izohlanadi. *Ikkinchi bosqichda* ekologik samarani tuproqning yo‘qolgan unumdorligini tiklashga sarflanadigan mablag‘larni tejash sifatida hisoblab chiqiladi. *Uchinchi bosqichda* joriy etilgan tadbirlar kompleksidan ekologik va iqtisodiy samara sifatida ekologik-iqtisodiy samaradorlik ajratiladi.

O‘g‘itlarni qo‘llashning ekologik-iqtisodiy samaradorligi ham shunga o‘xshash tarzda hisoblanadi. Birinchi navbatda o‘g‘itdan foydalanish, qo‘shilgan hosil qiymati va sof daromad asosida qo‘shimcha xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. Keyin ekologik ta’sir, ya’ni gumus balansi va tuproqdagi asosiy ozuqa elementlari, ularning yetishmasligini qoplash xarajatlari hisoblab chiqiladi.

15.4. Qishloq xo‘jaligining pul daromadlari, yalpi va sof foydalarini ko‘paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishinining iqtisodiy samaradorligi asosan omillarning ikki guruhi bilan belgilanadi:

- korxonaning xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan, *tashqi* – narxni shakllantirish, soliqqa tortish, kreditlash, inqiroz jarayonlari, dotatsiyalar va tovon (kompensatsiya) to‘lovlari, agrar qonunchilik va boshqalar;

- *ichki* – korxona ta’sir eta oladigan qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi, hayvonlar mahsuldorligi, mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish, ixtisoslashuv va boshqalar.

Bugun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi sezilarli ravishda iqtisodiy mexanizm shakllantiradigan omillarning birinchi guruhi bilan belgilanadi. Ularning iqtisodiy mexanizmida omillarning ikkinchi guruhi asosiy rol o‘ynaydi.

Murakkab sharoitda agrar sektorda inqirozni bartaraf etish, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun davlat tomonidan tartibga solinish, tarmoqni tarkibiy o‘zgartirish va ASM iqtisodiy munosabatlarini optimallashtirish yo‘li bilan amaliy natija beradigan iqtisodiy mexanizm yaratish zarur.

Bozor munosabatlari tizimida ahamiyati (qiymati) bo‘yicha ikkita teng tuzuvchini ajratish mumkin: talab va taklifning optimal nisbatini belgilovchi qishloq xo‘jaligi va tovar ishlab chiqaruvchilar hamda turli darajadagi xaridorlarning bozordagi erkin muomalasi kafolati va maqsadi, bozor subyektlarining samarali faoliyat va ishlab chiqarishni ekologiyalashtirishga yo‘naltirish bo‘lgan bozor munosabatlarini iqtisodiy tartibga solish mexanizmlaridan iborat.

Qishloq xo‘jaligining iqtisodiy samardorligi sezilarli darajada intensiv ishlab chiqarish darajasiga bog‘liq. Yuzaga kelgan sharoitlarda ishlab chiqarishni jadallashtirishning muhim yo‘nalishi – mahsulot ishlab chiqarishning jadal, resurslarni tejovchi texnologiyasini qo‘llash, chorvachilikda, naslchilik ishlarini, urug‘chilikni yaxshilash, o‘simliklarning tez pishar, yuqori hosilli, samarali navlaridan, chorva mollari va parrandalarning mahsuldor zotlaridan foydalanish, mineral va organik o‘g‘itlarning gerbitsid va qishloq xo‘jaligi ekinlarini himoyalashning optimal dozalarini kiritish,ozuqa bazalarini mustahkamlash va hokazolar.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda intensiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy jihatdan foydali. Ulardan foydalanib, kuzgi bug‘doy yetishtirilganda hosildorlik 35-40%ga ortishiga, tannarx 4-6% pasayib, 1 ga ekin maydoni hisobiga daromad 50-60% oshishiga erishiladi.

Moddiy mablag‘lar tanqisligi sharoitida resurslarni tejovchi texnologiyalardan foydalanish zarur. Hisob-kitoblarning ko‘rsatishicha, paxta yetishtirishda ana shunday texnologiyadan foydalanish mehnat unumdorligini 1,5-2 marta oshirish, yoqilg‘i va moylash materiallari sarfini 25-30%, mahsulot birligi tannarxini esa 35-40% ga kamaytirishga imkon beradi.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishdagi muhim shart – almashlab ekishga amal qilish. Mamlakatning ko‘pgina mintaqalarida dehqonchilikni jadallashtirish talablariga yarmini g‘alla, paxta, beda, makka, texnika ekinlari va boshqa oziq-ovqat ekinlari almashlab ekilishi bilan javob beriladi. Ammo ko‘pgina xo‘jaliklarda zarur texnika yo‘qligi bois, bu shartga amal qilinmaydi va natijada hosil yo‘qotiladi. G‘alla ekinlarini optimal muddatlarda (10-14 kun) yig‘ib olish qo‘shimcha ravishda 15-20% ekinni saqlab qolishga imkon beradi.

Yuzaga kelgan inqiroz sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini oshirishda qo‘shimcha investitsiya talab qilmaydigan, lekin ishlab chiqariladigan mahsulotning ortishiga yordam beradigan ekinlar strukturasini yoki tarkibiy o‘zgarishlarni optimallashtirishdir.

Chorvachilikni kelgusi rivojlanishi va uning iqtisodiy samaradorligi ortishining hal qiluvchi yo‘nalishlaridan biri – mustahkam va barqaror ozuqa bazasini yaratishdir. Har bir qishloq xo‘jaligi korxonasida ozuqa bazasini mutsahkamlash bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bu chorvachilikda hayvonlar mahsuldorligining ortishi va mahsulot tannarxining pasayishiga yordam beradi.

Mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligida ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish muhim rol o‘ynaydi. Ayrim qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishning (paxta, g‘alla va boshqalar) mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi juda yuqori (20-25%).

Paxta, g‘alla, muhim texnika va ayrim ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun mashinalar tizimi ishlab chiqilgan. Biroq, qator tarmoqlarda (bog‘dorchilik, uzumchilik, tamakichilik va boshqalar) hozircha alohida mashinalar va ayrim ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish uchun ularning komplekslari mavjud, xolos.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi muhim shart – *qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash*. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifati qancha yuqori bo‘lsa, uning realizatsiya bahosi ham shunchalik yuqori, shuningdek, ishlab chiqarish rentabelligi ham baland bo‘ladi. Masalan, 23% dan ortiq shiradorlikka ega (kleykovina) bug‘doy oziq-ovqat maqsadlarida foydalaniladi. Bunday bug‘doyning narxi yem-xashakliga nisbatan 1,5-1,7 marta yuqori.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifati ko‘pgina omillarga bog‘liq. Bular: o‘simliklar navlari va chorva mollari zoti, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etish, tarmoqning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ishchilar malakasi, iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi, saqlash va tashish shartlari va hokazolar.

Qishloq xo‘jaligini rentabelli yuritishning muhim sharti – uning to‘lovi darajasi bilan belgilanuvchi *yuqori unumli mehnat motivatsiyasidir*. Sezilarli darajadagi bozor iqtisodiyotida mehnatga haq to‘lash, ishchi kuchining ishchi va uning oilasini moddiy va ma’naviy jihatdan zarur talablarini qondirish va mehnat resurlarini kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish uchun imkon beruvchi bahosi asosida shakllanishi kerak.

Bozor infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmaganligidan mahsulot sotishda to‘lamaslik va boshqa qiyinchiliklar yuz beradi va bunda xom-ashyoni emas, qayta ishlangan holdagi mahsulotni realizatsiya qilish maqsadga muvofiq. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga joyida ishlov berish iqtisodiy jihatdan foydali, chunki hamma ishlab chiqilgan mahsulotlardan, shu jumladan, nostandartlarini ham tovar aylanishiga jalb etib, foydalanish imkonini beradi. Natijada qishloq xo‘jaligi korxonalari sharoitida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi ko‘payadi. Shu bilan birga, mos keluvchi ishlab chiqarish quvvatiga ega,

to‘liqroq va oqilona qayta ishlash imkonini beruvchi, shuningdek, yuqori sifatli va keng assortimentda mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari ulardan 20-35% foydalanadilar.

Yirik korxonalar va uncha katta bo‘lmagan qayta ishlash bo‘linmalari quvvatidan to‘liq foydalanish, shuningdek, qayta ishlash sohasidagi lokal monopolizmni zabt etish uchun koopreatsiyani va qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini, hamda xom-ashyo ishlab chiqaruvchilar integratsiyasini integrallashgan tizim tuzish bilan rivojlantirish zarur. Ular: agrofirmalar, assotsiatsiyalar, agrosanoat birlashmalari, holding kompaniyalar, moliyaviy-sanoat guruhlaridir.

Ishlab chiqarish samaradorligi salmoqli darajada mahsulotni muvaffaqiyatli realizatsiya qilishga, ya’ni qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining marketing faoliyatiga bog‘liq. Shu bois keng assortimentda mahsulot ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarda, shuningdek, o‘z mahsulotlarining sezilarli qismini o‘z ma’muriy tuman va viloyatlaridan tashqarida sotuvchi xo‘jaliklarda marketing xizmati zarur. Uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun bunday xizmatni tuman yoki viloyat miqyosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Marketingni alohida korxona tuman va viloyat darajasida tashkil etish xo‘jalik rahbariyati va mutaxassislarini mahsulotga talab va taklifning mavjudligi, ularni qayerda va qanday narxlarda sotish foydaliroqligi haqidagi axborotlar bilan ta’minlash, marketing tadqiqotini amalga oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda realizatsiyaga yordam beruvchi u yoki bu marketing strategiyasini amalga oshirishda ko‘maklashadi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini to‘liqroq qondirish uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlarining zamon talablari asosidagi bozorlari bo‘lishi kerak. Rivojlangan mamlakatlar tajribalarining ko‘rsatishicha, oziq-ovqat bozori o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi tizim emas. U iqtisodiy metodlar yordamida, davlat tomonidan doimiy maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirini talab qiladi. Narxlar dispariteti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilarga mineral o‘g‘itlar, texnikalar, yoqilg‘i va moylash materiallari sotib olish uchun, shuningdek, lizing operatsiyalari, bahorgi dala va yig‘im-terim ishlari uchun imtiyozli kreditlar (yillik 10% gacha) kompensatsiyalar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Agrosanoat ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solinishi asosida korxonaning normal funksiyalanishi uchun minimal daromadliligini ta’minlash prinsipi yotadi.

Yuzaga kelgan sharoitda bunga narx, soliq va kredit, agrar siyosatini optimallashtirish yo‘li bilangina erishish mumkin.

Asosiy tushunchalar

Takror ishlab chiqarish jarayoni – bu doimiy aloqadorligi ko‘rib chiqiladigan va muntazam yangidan boshlanib turadigan ishlab chiqarish jarayonidir.

Jamiyat mahsulotlari yig‘indisini takror ishlab chiqarish – o‘ziga ishlab chiqarishning muntazam jarayonini, taqsimlash, almashish va iste’mol qismini qamrab oladi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hozirgi zamon ishchisi-ijodiy, ilmiy-texnika taraqqiyotini o‘zlashtirishga qodir xo‘jalik ishlab chiqarish tashkilotchisi, ishlab chiqarish samaradorligi oshishidan iqtisodiy manfaatdor bo‘la oladigan ishchilarni tayyorlashda ifodalanadi.

Ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish – ko‘p ukladlilik, demokratiya, bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiy mexanizmlarni yangilash asosida mulk egaligi munosabatlarini takror ishlab chiqarishni bildiradi.

Iste’mol predmetlari – бу yalpi mahsulotning qayta ishlanmasdan bevosita iste’molga tushadigan qismi (sabzavotlar, mevalar, sut, tuxum va hokazo).

Iste’mol fondi – yalpi daromadning bir qismi, ya’ni mehnatga xaq to‘lash va jamoaning shaxsiy va umumiy ehtiyoj (talab)larini qondirishga ketadigan yangidan yaratilgan qiymat.

To‘plangan fond – sof daromadning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun ajratilgan bir qismi.

Iqtisodiy o‘sish – bu ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ijtimoiy mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish omillarining miqdorini ko‘paytirish va sifat jihatdan mukammallashtirish ko‘rinishida ifodalangan maqsadli vazifasidir.

Iqtisodiy o‘sish omillari deganda, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, o‘sish samaradorligi va sifatini orttirish imkoniyatlarini belgilaydigan holat va jarayonlar tushuniladi.

Texnologik ishlab chiqarish samaradorligi ishlabchiqarish jarayonida yergaoid, moddiy va mehnatresurslaridan foydalanish darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatgichlar yordamida ishlab chiqarish resurslaridan faydalanish darajasinianiqlaydi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish – iqtisodiy samaradorlik – texnologik ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy mexanizmlarining birgalikdagi ta’siri natijalari. U qiymat ko‘rsatkichlari – tannarx, yalpi daromad va sof foyda va boshqalar bilan o‘lchanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – tayyorlangan iqtisodiy ishlab chiqarish samaradorligi, iqtisodiy manfaatlar realizatsiyasini ifodalaydi va korxonaning butunicha ish samaradorligini aniqlaydi.

Ekologik-iqtisodiy samaradorlik – qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish jarayonining qishloq xo‘jaligiga atrof-muhitning ekologik ta’sirini hisobga olgan holda birgalikdagi iqtisodiy natijaviyligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy samaradorlik ishchi kuchlarning takror ishlab chiqarishi uchun yaxshi sharoit yaratish va xalq farovonligini orttirishni anglatadi.

Iqtisodiy samaradorlik olingan samarani foylanilgan resurslar yoki xarajatga taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi.

Samara – bu o‘tkazilgan chora-tadbirlar natijasidir. Masalan, o‘g‘itlarni qo‘llash samarasi hosildorlik ko‘payishida foydaliligini bildiradi. Buni olingan samarani uni olishga sarflangan xarajat bilan solishtirish orqali bilish mumkin.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik mezoni – bu umumiy ko‘rinishda samaraning ijtimoiy mehnatining har bir birligiga xarajatlarning maksimum samarasi.

Qishloq xo‘jaligi samaradorligi – takror ishlab chiqarish – mahsulot ishlab chiqarishgina emas, taqsimlash, almashish, iste’mol kabi davrlar faoliyatining natijaviyligiga ham bog‘liq bo‘lgan samaradorlik.

Rentabellik– bu korxona, tarmoqning foyda olishi, daromadliligini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Yalpi foyda – bu yalpi mahsulot qiymati va moddiy xarajatlar orasidagi farq va u so‘mda ifodalanadi.

Sof daromad – bu yalpi mahsulot qiymati va uni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlar o‘rtasidagi farq va u so‘mda ifodalanadi.

Sof foyda mahsulotni realizatsiya qilingandan tushgan tushum va uni ishlab chiqarish, saqlash va sotishga ketgan xarajatlar orasidagi farqqa teng.

Resurslar salohiyati – har bir resursning soni, sifati, ichki tuzilishi bilan belgilanadigan mehnat, tabiiy va moddiy resurslar jamlanmasi.

Ishlab chiqarish salohiyati – korxonaning moddiy, mehnat va natural resurslar soni, sifati va taqqoslanishga bog‘liq holda, shuningdek xo‘jalik vazifasining obyektiv shartlari bilan belgilanadigan, ularning foydalilik darajasiga bog‘liq bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishdagi obyektiv xususiyati.

Asosiy agrotexnik tadbirlar – ekin maydonlari tuzilishini optimallashtirish, tarkibiy o‘zgartirish, almashlab ekishni o‘zlashtirish, jadal va resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘g‘itlar va

o‘simliklarni himoya qiladigan vositalardan foydalanish, qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlarini ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

Asosiy zootexnika tadbirlari – chorva mollarini oziqlantirishni optimallashtirish, ularni saqlash va podani qayta ishlab chiqishdan iborat.

Ekologik-iqtisodiy ta’sir etish – bu ishlab chiqarish ta’siri ostida yuz beruvchi ekologik parametrlar o‘zgarishining pulda baholanishi.

Ekologik-iqtisodiy samara – tabiatni qo‘riqlash tadbirlarini amalga oshirish natijasida foydaning qiymatli o‘sishidir.

Ekologik-iqtisodiy zarar – atrof-muhit holatining yomonlashuvi natijasida qishloq xo‘jaligining qiymat shaklidagi haqiqiy yoki ehtimoliy zarari yoki bu zararlarni qoplash uchun qo‘shimcha xarajatlardir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida takror ishlab chiqarish va uning turlarini bayon eting.
2. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
3. Qishloqxo‘jaligidayalpiichki mahsulotnima?
4. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining yalpi va pul daromadi qanday hisoblanadi?
5. Korxona foydasi haqida tushuncha va uni hisoblash tartibi qanday?
6. Yalpi, sof, iqtisodiy foyda qanday aniqlanadi?
7. Iqtisodiy samaradorlik deganda nimani tushunasiz?
8. Iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday ko‘rsatkichlarda aniqlanadi?
9. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining rentabellik darajasi nima va u qanday aniqlanadi?
10. Yalpi ichki mahsulotni, korxonalarning yalpi va pul daromadlarini hamda foydalarini ko‘paytirishning qanday yo‘llari mavjud?

XVI-BOB. O‘SIMLIKCHILIK TARMOQLARI IQTISODI

O‘quv maqsadi: O‘simlikchilik tarmoqlarining tarkibi va rivojlanishini tahlil qilish, iqtisodiy samaradorlik darajasini isbotlovchi ko‘rsatkichlarni va tarmoqnirivojlantirish yo‘llarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *o‘simlikchilik, iqtisodiy samaradorlik, g‘alla mustaqilligi siyosati, donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik, uzumchilik, bog‘dorchilik, mevachilik.*

16.1. O‘simlikchilik tarmoqlarining ahamiyati

O‘simlikchilik – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, o‘z ichiga dalachilikda ekinlarni yetishtirish,paxtachilik, g‘allachilik, kartoshkachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, mevachilik, bog‘dorchilik va shu kabilarni oladi. Odam undan oziq-ovqat mahsulotlari, yengil va oziq-ovqat sanoati qayta ishlash uchun xom-ashyo, chorvachilik esa ozuqa oladi.

Tarmoq tuzilmasining ko‘rsatkichi bo‘lib, umumiy hajmda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning har bir tarmog‘idan sotilgan mahsulotningulushi xizmat qiladi. Hozirgi paytda o‘simlikchilik qishloq xo‘jaligining hamma mahsulotlari orasida eng ko‘p ulushni egallaydi.

O‘simlikchilik yoki dehqonchilikda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ustuvorlik berilishi hamda tarmoqda tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiyalash natijasida ularga ajratilayotgan ekin maydonlarining kengaytirilishi, hosildorligini oshirishga oid agrotexnologik tadbirlarni amalga oshirish evaziga dehqonchilik ulushi 2005 yildagi 55,6% dan 2015 yilda 59,6% ga oshishiga erishildi.

O‘simlikchilik yem-xashak, dag‘al, yashil, shirali ozuqa bo‘lib, chorvachilikning rivojlanishi uchun baza hisoblanadi. O‘z navbatida chorvachilik ham somon, poya, shuningdek, oziq-ovqat sanoati chiqindilari (kunjara, sheluxa, kepak, barda va b.) kabi qo‘shimcha mahsulotlarni chiqaradi.

O‘simlikchilikda foydalaniladigan asosiy resurs – bu yerhisoblanadi (pichanzor, yaylov, bog‘lar). Haydaladigan yer maydonini ekinlar bo‘yicha taqsimlash uzoq vaqtlargacha qabul qilingan dehqonchilik tizimiga bog‘liq bo‘ldi. Xo‘jaliklar daromadliroq ekinlarni tanlay boshladilar va ekin ekiladigan yer maydoni strukturasi narx ta’siri ostida o‘zgara boshladi.

Shu tarzda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hamma turini, chorvachilikni va qayta ishlashni ham qo‘shib ishlab chiqish, bevosita o‘simlikchilikni shartli ravishda quyidagi tarmoqlarga ajratish mumkin: paxta ishlab chiqarish,g‘alla

ishlab chiqarish, yog‘li ekinlar ishlab chiqarish, kartoshka va sabzavot ishlab chiqarish, meva, uzum va polizlar o‘stirish. Bu tarmoqlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish texnologiyasi har biri o‘ziga xosligi bilan farqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulot turlari bo‘yicha tuzilishi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida qiymat tuzilishi 2005-2015 yillar mobaynida quyidagicha o‘zgardi (16.1.1-rasm).



16.1.1-rasm. **Qishloq xo‘jaligi mahsulot turlari bo‘yicha qiymat tuzilishi[69] (%да)**

Ushbu sharoitda eng rentabelli bo‘ladigan qishloq xo‘jaligi ekinlarini tanlashda tabiiy-iqlim omillari, transport tarmoqlarining rivojlanishi, mintaqada u yoki bu mahsulotlarni qayta ishlashga mo‘ljallangan qayta ishlash korxonalarining mavjudligi katta ta’sir o‘tkazadi.

Barcha g‘alla mahsulotlarini oziq-ovqat va yem-xashakka ajratish qabul qilingan. Shu bilan birga, oziq-ovqatga oid ekinlar tarkibidan non va non mahsulotlariga doirlari ajratiladi.

Umuman, asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari sanab o‘tilgan guruhlar bo‘yicha quyidagi tarzda klassifikatsiyalanadi:

- paxta – paxta xom-ashyosi;
- oziq-ovqat – non mahsulotlari olinadigan g‘alla ekinlari, bug‘doy, javdar;
- oziq-ovqat – so‘li-g‘alla ekinlari: tariq, marjumak, makkajo‘xori, sholi;
- yem-xashak ekinlari;
- dukkakli ekinlar;
- yog‘li ekinlar – kungaboqar, kanop, zig‘ir;
- texnika ekinlari – kartoshka, qand lavlagi;
- sabzavotlar–pomidor, bodring, piyoz, sarimsoq piyoz, karam, sabzi, ko‘katlar;
- mevalar – danakli mevalar, pista mevalar, uzum va boshqa ekinlar;

[69]Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar)ma’lumotlari asosida tuzilgan.

- sitrusli ekinlar – limon, apelsin, mandarin;
- gullar.

Keltirilgan ro‘yxat mamlakatimiz hududida o‘stiriladigan hamma ekinlarni qamrab ololmaydi. Ro‘yxatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning umumiy hajmida eng ko‘p ulushiga ega bo‘lganlari bor, xolos.

O‘simlikchilikda ishlab chiqarishning asosiy vositasi – yer. Undan to‘g‘ri foydalanish tuproq unumdorligining oshishiga yordam beradi, bu esa qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘stirishga samarali ta’sir qiladi. Yerdan foydalanishda xo‘jalik yuritishning hududiy tizimini yuritishning hisobi katta ahamiyatga ega.

Dehqonchilik tizimi deganda tuproq unumdorligini oshirishga, o‘simlikchilik mahsulotlarining yer maydoni, birligidan mehnat sarfini va mahsulot birligiga mablag‘ va mehnat sarflarini kamaytirib, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida tuproqni suv va shamol eroziyasidan himoyalashga yo‘naltirilgan tashkiliy va agrotexnik tadbirlar kompleksi tushuniladi.

Dehqonchilik tizimining asosiy elementlari: almashlab ekish tizimlari, mashinalar tizimi, o‘g‘itlar tizimi, urug‘chilik tizimi, o‘simliklarni himoya qilish tizimi, melioratsiya tadbirlari tizimi (sug‘orish, quritish, kimyoviy melioratsiya va boshqalar), suv va shamol eroziyasiga qarshi kurash bo‘yicha tadbirlar tizimi, dalani himoyalash, ixota daraxtlarini yaratish.

Mamlakatning hamma mintaqalarida dehqonchilikning yagona tizimidan foydalanishning imkoni yo‘q, chunki turlicha tuproq-iqlim sharoitlarida tizimdagi alohida elementlarning ahamiyati har xil bo‘ladi.

Quruq iqlimli tumanlarda – sug‘orish, shamol eroziyasiga qarshi kurashish, namlik ko‘p tumanlarda – yerning melioratsiya holatini yaxshilash, sug‘oriladigan dehqonchilik tumanlarida – o‘g‘itlardan oqilona foydalanish, sho‘rlangan va kislotasi yuqori tuproqlarda – kimyoviy melioratsiya katta ahamiyatga ega.

Dehqonchilik tizimining asosini *almashlab ekish tizimi* – dala, o‘tloq- beda, makkajo‘xori, sabzavot, tuproqni himoya qiluvchi va boshqa ekinlarni almashlab ekish tashkil etadi. Ilmiy asoslangan almashlab ekishlar – tuproqqa ishlov berishning tavsiya etilgan tizimini joriy etish uchun sharoit yaratadi, uning suv-havo tizimini yaxshilaydi, yuqori samarali texnikadan, organik va mineral o‘g‘itlardan foydalanishga imkon beradi.

Unumdor tuproqqa mexanizatsiyalash (mashinalar tizimi) ulkan ta’sir etadi. Mashinalardan oqilona foydalanish tuproqda namlik yig‘ilishiga, havo va issiqlik tartibi to‘g‘rilanishiga, dalaning ifloslanishiga qarshi kurashga, qishloq xo‘jaligi ishlarini optimal muddatlarda o‘tkazishga yordam beradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalash o‘simlikchilikda mehnat unumdorligini oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga texnik xizmat ko‘rsatish, hamma turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini

oshirish uchun ma’lum maqsadlarni ko‘zda tutadigan mintaqaviy dasturlar ishlab chiqiladi.

Dehqonchilik tizimi mineral va organik o‘g‘itlarni qo‘llashni ko‘zda tutadi. Kiritiladigan o‘g‘itlar dozasi ko‘paytirilgan sug‘oriladigan yerlarda o‘g‘itni yuqori darajada qoplash kuzatiladi. Qisqa muddatlarda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish imkoni bo‘lgan intensiv texnologiyalarda ishlab chiqarish xarajatlari strukturasida o‘g‘it va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining ulushi ortishi (masalan, paxta va g‘alla ekinlari bo‘yicha 1,5 dan 3,5 martagacha) ko‘zda tutiladi.

Hozirgi paytda o‘g‘itlar qiymati yuqoriligi bilan bog‘liq holda ularning qoplanishi normativdan 60% ni tashkil etadi, shu bois muhim masala optimal usullar va ularni kiritish muddatlari, ozuqa elementlari nisbatining to‘g‘riligi muhim masala hisoblanadi.

O‘g‘itlashning pasayishi tuproqdan ozuqa moddalar to‘liq chiqmasligiga sabab bo‘ladi. Tuproqda chirindi va ozuqa moddalarining defitsitsiz balansini yaratish uchun 1 ga shudgorlanadigan ekin maydoniga har yili 7-8 t organik modda zarur. Dehqonchilik tizimida urug‘chilik tizimi katta rol o‘ynaydi, chunki urug‘ning sifati past bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sezilarli darajada to‘liq bo‘lmaydi. Mamlakatimizda u yoki bu tuproq iqlimiga moslashtirilgan minglab nav va gibridlar yaratilgan va ishlab chiqarishga joriy etilgan. Biroq, urug‘chilikning yaxshi tashkil etilmaganligi, urug‘chilik xo‘jaliklari birinchi va ikkinchi reproduksiyadagi yaxshi urug‘lar bilan ta’minlanmaganligi tufayli rayonlashtirilgan sifatli urug‘larga talab to‘liq qondirilmayapti.

16.2. O‘simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotining hozirgi holati

Mamlakatni oziq-ovqat bilan ta’minlashning muhim rezervi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xom-ashyo va oziq-ovqatning mintaqaviy fondlarini yaratishdir. O‘simlikchilik mahsulotlarini xarid va yetkazib berish hajmi hamda ro‘yxati xukumat tomonidan, mintaqaviy fondlar - O‘zbekiston Respublikasi subyektlari ijroiya hokimiyati subyektlari tomonidan belgilanadi. Xarid va yetkazib berish hajmi yillik aniqlashtirish bilan besh yilga belgilanadi va davlat tomonidan kafolatlanadi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar natijasida paxta,g‘alla, sabzavot va mevalardan yuqori hamda sifatli hosil olinmoqda.

Respublikamizda 2015 yilgi paxtachilik va g‘allachilik sohasida olib borilgan ishlarning yakunini tahlil qiladigan bo‘lsak, murakkab ob-havo sharoitida ham hosildorlik har yilgidan yuqori bo‘lganligi dehqonlarimizning samarali mehnatlari natijasi hisoblanadi. Respublikamizda 2015 yilda g‘alla hosildorligi gektaridan o‘rtacha 45,4 sentnerni, suvli yerlarda 51,2 sentnerni, paxta hosildorligi esa 25,8 sentnerni tashkil etdi. Yalpi yetishtirilgan don hosili 7 mln 500 ming va paxta hosili 3 mln 350 ming tonnani tashkil etdi. O‘zbekiston

Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimovni mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq aholimizni don va don maxsulotlari bilan ta’minlash, o‘z donimiz va o‘z nonimizga ega bo‘lishimiz, buning uchun g‘alla mustaqilligiga erishishimiz kerakligi to‘g‘risidagi oqilona yo‘l-yo‘riqlari va ko‘rsatmalari naqadar to‘g‘ri ekanligining isbotidir.

Bugungi kunda Respublikamiz g‘alla yetishtirish va hosildorligi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy oldi.

G‘alla dunyodagi barcha insonlarning asosiy oziq-ovqati hisoblanishini hammamiz yaxshi bilamiz. Dunyoda 220 mln gektardan ortiqroq maydonda g‘alla ekiladi. Yalpi don hosili esa 650 mln tonnani tashkil etadi(16.2.1-jadval).

16.2.1-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlarida g‘alla yetishtirish[70]

№	Mamlakatlar	Ekin maydoni, ming ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, mlntonna
1	Belgiya	213	78,0	1,660
2	Fransiya	5206	73,0	38,139
3	Germaniya	2794	73,0	20,479
4	Niderlandiya	127	81,0	1,025
5	Angliya	1993	79,0	15,68
6	AQSH	23400	29,0	67,860
7	Xitoy	28426	38,0	107,659
8	Hindiston	26945	26,0	72,458
9	Meksika	719	45,0	3,202
10	Kanada	1060	24,0	25,929
11	Rossiya	21300	30,0	65,100
12	Ukraina	5575	23	15,900
13	Qozog‘iston	9304	0,9	11,500
14	Turkmaniston	508	29,0	1,484
15	Qirg‘iziston	463	24,0	1,117
16	Tojikiston	330	11,0	365
	Jami dunyo bo‘yicha	**220258**	**30,2**	**650,727**

Sug‘oriladigan yerlarda o‘rtacha hosildorlik Andijon viloyatida 62,1 s., Qashqadaryo 57,9 s, Surxondaryo 56,3 s, Buxoro viloyatida 56,1 s, Samarqand

[70]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

viloyatida 54,0 s, Toshkent viloyatida 53,0 s, Farg‘ona viloyatida 50,6 sentnerni tashkil etdi. Shuni aytish joizki, ayrim ilg‘or fermer xo‘jaliklarida hosildorlik gektaridan 60-70 sentnerni, hattoki, undan ortiqni tashkil etdi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqni diversifikatsiyalash hamda modernizatsiyalash hisobiga qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekin maydonlari o‘zgardi, shu jumladan paxta ekin maydoni (1472,5 ming gektardan 1287,1 ming gektargacha) vadonli ekinlar (1616,0 ming gektardan 1600,6 ming gektargacha) ham. Paxta va g‘alla ekin maydonlari qisqarishi hisobiga kartoshka, sabzavot va poliz ekin maydonlari miqdori 2005 yilda 5,9% dan 2015 yilda 7,8% gacha kengaygan (16.2.1-rasm).



16.2.1-rasm. **Barcha turdagi mulkchilik shakllarida bo‘lgan xo‘jaliklar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonining tarkibi[71], (%da)**

Ushbu yillar davomida paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish hajmi 3002,4 ming tonnadan3350,0ming tonnagacha va donli ekinlar 3929,4 ming tonnadan7500,6 ming tonnagacha oshdi. Bu ekin turlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining oshishi nafaqat respublika ehtiyojini qondirishni, balki eksport salohiyatini oshirish imkonini berdi. Meva-sabzavot ekinlari ishlab chiqarish hajmi ham oshdi: kartoshka 2,8 martaga, poliz – 2,5 martaga, meva va rezavorlar – 2,9 martaga va uzum mahsulotlari – 2,4 martaga. Agrar sohada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sishi nafaqat ekin maydonlarining ko‘payishiga, balki ularning o‘rtacha hosildorlik darajasining oshishiga ham bog‘liqdir (16.2.2 - jadval).

[71]Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar)ma’lumotlari asosida tuzilgan.

16.2.2-jadval

Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi, (ts/ga)

	2000 y.	**2005 y.**	**2010 y.**	**2015 y.**	**2016 y.**
Don va dukkakli don ekinlari, jami	28,2	40,7	44,2	45,3	45,0
Paxta	21,8	25,3	25,4	25,9	23,4
Kartoshka	129,3	170,3	194,9	219,1	225,1
Sabzavotlar, jami	183,8	215,8	252,5	271,0	271,1
Oziqbop poliz	132,4	169,1	192,6	203,6	209,4
Meva va rezavorlar	56,9	62,3	92,6	128,1	134,1
Uzum	63,1	64,7	90,8	133,1	141,9

Bunday natijalarga navlarning biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir mintaqaning tabiy-iqlim sharoitiga mos navlarni to‘g‘ri tanlash va joylashtirish gektaridan 60-70 sentnerdan hosil yetishtirish bo‘yicha aniq agrotexnik tavsiyalar va ilmiy asoslangan intensiv texnologiyalarning ishlab chiqilganligi va keng joriy etilayotganligi hisobiga erishilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlardan biri Gollandiya hududida o‘simlikchilikdan yuqori hosil olinadi. Gollandiya mamlakatining 60% yerlari dengiz sathidan 5-6 metr balandlikda, 40% i esa 4-5 metr pastda joylashganligiga qaramasdan, g‘alladan o‘rtacha hosil 100-110 sentnerni, kartoshkadan 600-800 sentnerni, qand lavlagidan 600-700 sentnerni, makkajo‘xoridan 100-120 sentnerni tashkil etadi. Dengizdan o‘zlashtirilgan yerlardan esa 800-900 sentner kartoshka olinmoqda.

Bundan tashqari, Gollandiya gullar mamlakati hisoblanadi. Ushbu mamlakatda 3000 xildagi gullar yetishtiriladi, shundan 200 xil sadbarg gullar, 80 xildagi gvozdika gullari va boshqalar. Fermerlar ushbu gullarni haftaning shanba va yakshanba kunlaridan tashqari, har kuni gullar auksionida sotishadi va butun dunyoni gullar bilan ta’minlab turishadi.

Seleksiya va urug‘chilik ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida xorijiy ilmiy muassasalardan 100 dan ortiq yangi bug‘doy navlari keltirilib, ular mahalliy sharoitimizda har tomonlama sinovdan o‘tkazilib, serhosil, yuqori sifatli, kasallik va zararkunandalarga chidamli bo‘lgan 23 ta yangi navlari ishlab chiqarishga joriy etildi.

Bu navlar ichida Krasnodarskaya-99, Turkiston, Yaksart, Tanya, Hazrati Bashir, Hisorak kabi intensiv navlar ishlab chiqarish sharoitida har gektaridan 60-70 sentnerdan oshirib hosil bermoqda.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan qurg‘oqchilikka va sho‘rga chidamli hosildorligi yuqori Chillaki, Bobur, Andijon-1, Andijon-2, Andijon-4, Elomon, O‘zbekiston-1, Hosildor, Zamin-1, Do‘stlik, Omad, Makonat, Asr kabi mahalliy bug‘doy navlari yaratilib, Davlat nav sinoviga berildi. Kelgusida har bir mintaqa sharoiti uchun mos yangi navlar yaratish bo‘yicha ilmiy ishlar jadal olib

borilmoqda. Buning uchun Rossiyaning “Saratov”, “Yugo-Vostok”, Serbiyaning “Noviy sad” ilmiy tadqiqot institutlari, IKARDA, SIMMIT Xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlikda shu mintaqaga xos bo‘lgan yangi navlar yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Biroq ayrim viloyat, tuman hamda fermer xo‘jaliklarida boshoqli don ekinlarini o‘stirishda agrotexnik tadbirlarni bajarishning texnologik talablariga rioya qilinmaganligi natijasida dondan yuqori va sifatli hosil olinmayapti.

Buning asosiy sababi boshoqli don ekinlarini yetishtirish texnologiyasidagi agrotexnika tadbirlarini o‘z vaqtida sifatli qilib o‘tkazmasligidir.

Ayniqsa tuproq unumdorligiga ahamiyat bermaslik, yerni ekishga sifatli tayyorlanmasligi, organik va ma’dan o‘g‘itlar yetarli miqdorda va to‘g‘ri nisbatlarda qo‘llanilmasligi, g‘allani sug‘orishni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazmaslik, kasallik va zararkunandalarga hamda begona o‘tlarga qarshi o‘z vaqtida choralar ko‘rmaslik, g‘alla navlarining hosildorlik imkoniyatidan to‘la foydalana olmaslik don sifatining pasayishiga olib kelmoqda.

Boshoqli don ekinlarini parvarishlashda qo‘llaniladigan agrotexnik tadbirlarning bajarilishining texnologik talablariga to‘la rioya qilingandagina yanada yuqori va sifatli don hosili olishga erishiladi.

Umuman olganda, g‘alla hosildorligi tuproq-iqlim sharoiti, ekilayotgan nav xususiyati, qo‘llanilayotgan agrotexnik tadbirlarga bog‘liq. Boshoqli don o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligi va don sifatiga ta’sir etuvchi agrotexnik tadbirlardan har bir mintaqaning tuproq va iqlim sharoitiga mos nav tanlash, yerni ekishga sifatli tayyorlash, navdor va ekish sifati yuqori urug‘lik bilan mintaqa uchun maqbul muddat va meyorda ekish, ekilgan urug‘likni bir tekisda undirib olish, bug‘doy maysalari to‘la to‘plangan holda tinim davriga kirishi uchun barcha agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish, sug‘orish, ma’dan va organik o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, o‘suv davrida ildizdan tashqari azotli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, suspenziya sepish, begona o‘tlar, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash, yetishtirilgan hosilni nobutgarchiliksiz yig‘ib olishga bog‘liq.

Yuqorida keltirilgan boshoqli don ekinlarini yetishtirish texnologiyasidagi agrotexnik tadbirlarni maqbullashtirilgan holda o‘z vaqtida sifatli qilib o‘tkazilishi hosildorlik va don sifatini oshiradi. Bularni bajarilishidagi texnologik talablar:

1. Yerni ekishga tayyorlash

A). Ochiq yer maydonlarini ekishga tayyorlash

- fosforli va kaliyli mineral o‘g‘itlarning yillik meyorini yerni ekishga tayyorlashdan oldin solish;
- yerni shudgorlash (35-40 sm);
- tekislash;
- mola bosish;
- sho‘r yuvish;
- to‘liq karta hosil qilish.

B). G‘o‘za qator orasiga bug‘doy ekish uchun yer tayyorlash

- g‘o‘za ekilgan maydon qirg‘oqlarini 10-15 metr masofada g‘o‘zapoyadan tozalash;
- fosforli va kaliyli mineral o‘g‘itlarning yillik me’yorini sepish;
- kultivatsiya yordamida g‘o‘za qator oraliqlarini 14-15 sm chuqurlikda yumshatish;
- birinchi kultivatsiyani to‘liq mayda ishchi organlar bilan amalga oshirish;
- ikkinchi kultivatsiyani mayda ishchi organlar bilan birgalikda britvalar yordamida amalga oshirish;
- qator orasiga ishlov berilganda ishchi organlarni g‘o‘za o‘simligidan 3-4 sm. masofada amalga oshirish.

2.Nav tanlash

Boshoqli don ekinlarida yuqori va sifatli don yetishtirishda navning o‘rni katta. Eng yaxshi nav tanlash hisobidan hosildorlikni gektaridan 5-10 sentnerga oshirish mumkin.

Ertapishar navlar – Chillaki, Bobur, Mars-1, Andijon-4, Zamin-1, Kuma, Yesaul, Omad, Matonat, Selyanka.

O‘rtapishar navlar – Kroshka, Tanya, Pamyat, Nota, Krasnodarskaya-99, Andijon-2, Moskvich, Kupava, Nikoniy.

Kechpishar navlar – Polovchanka, Andijon-1, Durdona, Vostorg, Fortuna.

16.2.3-jadval

Ekish muddatlarini to‘g‘ri belgilash

№	O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari	Oylar va sanalar, maqbul ekish maddatlari
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1.IX.-1.X.
2	Andijon viloyati	15.IX.-20.X.
3	Buxoro viloyati	15.IX.-20.X.
4	Jizzax viloyati	15.IX.-20.X.
5	Qashqadaryo viloyati	15.IX.-20.X.
6	Namangan viloyati	15.IX.-20.X.
7	Navoyi viloyati	15.IX.-20.X.
8	Samarqand viloyati	15.IX.-20.X.
9	Sirdaryo viloyati	15.IX.-20.X.
10	Surxondaryo viloyati	15.IX.-20.X.
11	Toshkent viloyati	15.IX.-20.X.
12	Farg‘ona viloyati	15.IX.-20.X.
13	Xorazm viloyati	1.IX.-1.X.

3. Ekish meyorlarini belgilash

- Ekish meyori urug‘ unuvchanligi hamda 1000 dona don vaznini hisobga olgan xolda belgilanadi.

- Ekish muddatiga qarab:

- *Erta muddatlarda* gektariga 4,0 mln unuvchan urug‘ ya’ni 200 kg. hisobida belgilanadi.

- *O‘rta muddatlarda*gektariga 4,5 mln unuvchan urug‘ ya’ni 220 kg. hisobida belgilanadi.

- *Kechki muddatlarda* gektariga 5,0 mln unuvchan urug‘ ya’ni 240 kg. hisobida belgilanadi.

- G‘o‘za qator orasiga ekishda urug‘ sarfi 10-15 foizga oshiriladi.

Dunyoda paxtachilik bilan shug‘ullanuvchi mamlakatlar anchani tashkil etadi. O‘zbekiston esa ularning orasida eng shimoliy mintaqada joylashgan. Shunday bo‘lsa-da, mamlakatimiz “oq oltin” yetishtirish bo‘yicha jahonda oltinchi, uni eksport qilish bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinda turadi.

Ochig‘i, bu maqomga erishish va uni barqaror saqlab turish bugungi raqobat tobora keskinlashib borayotgan bir sharoitda oson emas. Mazkur jarayonda, tabiiyki, respublikamizda paxtachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish maqsadida tizimli islohotlar izchil amalga oshirilayotgani, xususan, dehqon va fermerlar mehnati munosib qadrlanayotgani muvaffaqiyatlar omili bo‘layotir. Shu bilan birga, yurtimizda paxtachilik bo‘yicha boy tajriba to‘plangani, fermerlar hukumatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani, ularning samarali mehnat qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani tufayli, tabiat injiqliklariga qaramay, har yili mo‘l va sifatli hosil olishga erishilayotganini alohida ta’kidlab o‘tish kerak.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz iqlim va tuproq sharoitiga mos tezpishar hamda serhosil, qishloq xo‘jaligi ekinlari zararkunandalari va kasalliklarga chidamli o‘nlab yangi g‘o‘za navlari yaratildi. Xususan, bugungi kunda asosiy maydonlarda S-6524, “Buxoro-6”, “Buxoro-8”, “Buxoro-102”, “Besh qahramon”, “Sulton”, “Porloq-2”, “Namangan-77”, “An-Boyovut-2” singari shunday xususiyatlarga ega paxta yetishtirilmoqda. Ularning tolasi sanoatbopligi esa o‘zbek paxtasining mavqei yanada yuksalishini ta’minlamoqda. Gap shundaki, tolamizning oppoq rangi, pishiqligi, mikroneyr ko‘rsatkichlari ustunligiga xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baho berilgan. Jahon to‘qimachilarining O‘zbekistonga intilishi, tolamizni sotib olishga katta umid bog‘lashining sababi shunda. Qolaversa, an’anaviy o‘tkazib kelinayotgan Xalqaro O‘zbekiston paxta yarmarkasi ana shu masalalarning ro‘yobga chiqishi yo‘lida jahon paxta bozorining muhim voqeasiga aylanib bormoqda. Buni yarmarkaning ochilish marosimida so‘zga chiqqan paxta bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasining ijrochi direktori T.Taunsend, «Cotton Outlook» xalqaro agentligi bosh muharriri R.Batler, Xitoy paxta uyushmasining vitse-prezidenti Sh.Jianvey, «Cotton Vangladesh» xalqaro agentligining bosh muharriri K.Axsan, «Dubai Multi Commodites Center» ijrochi direktori D.Rutlej va

boshqalar alohida e’tirof etishdi. Quvonarlisi, ular tomonidan mamlakatimiz nafaqat sifatli paxta yetishtiruvchi, balki xom-ashyoni kafolatli ravishda yetkazib beruvchi ishonchli hamkor sifatida tan olindi.

Paxtachilik sohasidagi agrotexnik tadbirlarni (bu tadbirlar asosan, ishlab chiqarish va bozor infratuzilma subyektlari tomonidan amalga oshiriladi) o‘z muddatida bajarilmasligi yoki ayrim resurslarni belgilangan meyorlarda berilmasligi natijasida mumkin bo‘ladigan nobudgarchiliklar miqdori hisob-kitoblarini keltirish mumkin, ya’ni:

- chigit ekishni o‘z muddatida o‘tkazilmasligi, g‘o‘zaning kech unib chiqishi hosildorlikni o‘rtacha 3,4 s/ga gacha;
- sho‘rlangan maydonlarning sho‘rini yuvmaslik yoki sifatsiz sho‘r yuvish 9,0 s/ga gacha;
- nam saqlash uchun boronalashni o‘tkazilmasligi o‘rtacha 3,4 s/ga gacha;
- chigit ekishdan oldin tuproqning yumshatilmasligi o‘rtacha 2,8 s/ga gacha;
- chigit ekishdan oldin mola bilan tekislamaslik esa 1,6 s/ga gacha;
- umumiy chigit ekishdan oldin maydondagi kesaklarni maydalab tuproqni ekishga tayyorlamaslik o‘rtacha 8,8 s/ga gacha;
- chigit ekishdan oldin mineral o‘g‘itlarni bermaslik 2,5 s/ga gacha;
- chigitni agrotexnik talablar asosida sifatli tayyorlamaslik 1,3 s/ga gacha;
- barcha turdagi mineral o‘g‘itlar berishni 1 iyulgacha tugatmaslik 10,3 s/ga gacha;
- yagonani kechikib o‘tkazish yoki chigitni qayta ekish hosildorlikni 2,2 s/ga gacha kamayishiga sabab bo‘ladi;
- begona o‘tlar to‘liq tozalansa, hosildorlik 3,6 s/ga gacha;
- paxta maydonlarini har 3 yilda joriy tekislash o‘rtacha 6,6 s/ga gacha;
- har gektar maydonga 12 tonna organik o‘g‘itlarni berish hosildorlikni o‘rtacha 2,1 s/ga gacha oshiradi.

Hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, paxtachilik umuman qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish, eng avvalo, fermer xo‘jaliklariga infratuzilma subyektlarining samarali xizmat ko‘rsatishi va ta’minot korxonalari tomonidan moddiy resurslarni o‘z vaqtida yetkazib berilishiga bog‘liq.

16.3. Davlatning g‘alla mustaqilligi siyosati

G‘alla yetishtirish –qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosini tashkil etadi. G‘alla aholining non, makaron mahsulotlariga, non mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondiribgina qolmasdan, shuningdek, sut, go‘sht, tuxum va boshqa mahsulotlarning ishlab chiqarilishini ham belgilaydi. Chunki, u hayvonlar va parrandalarni ham muhim ozuqa bilan ta’minlaydi. G‘alla oziq-ovqat, kimyo, yengil sanoatning qator tarmoqlari uchun xom-ashyo bo‘lib xizmat qiladi. U davlat non mahsulotlari resurslarini yaratish va yangilashda ham zarur, bundan tashqari muhim eksport mahsuloti hamdir.

G‘allani barqaror yetishtirish ilg‘or texnologiyalarni joriy etmasdan, intensifikatsiyaning sifat jihatdan mehnat, moddiy va energiya resurslaridan, zamonaviy o‘simliklarning biologik jihatdan hosildor navlarini asoslangan, hosildorlik salohiyatiga asoslangan sifat jihatdan yangi darajalariga o‘tmay turib, erishib bo‘lmaydi.

Non mahsulotlari tayyorlashda bug‘doy (g‘alla) tarkibidagi shira, uning sifati, miqdori o‘ta muhim ahamiyatga ega. G‘alla naturasi g‘allaning 1 kg massasida aniqlanadigan tegirmon jihozlari partiyasining muhim sifat ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Bug‘doy doni 720 grammdan yuqori naturada yuqori texnologik xossaga ega bo‘ladi. Bu miqdordan past bo‘lsa, don maydalanganda (tegirmonda) uncha yuqori sifatli bo‘lmagan va kutilganidan kam un beradi. Donning shiraligi 50-60% bo‘lishi kerak.G‘alla ishlab chiqarish iqtisodiy ko‘rsatkichlari samaradorligi quyidagicha: g‘alla ekinlarining hosildorligi, mehnat unumdorligi, mahsulot birligi tannarxi va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan g‘alla mustaqilligiga erishish vazifasi qo‘yildi va bu vazifa sharaf bilan uddalandi (16.3.1-rasm).



16.3.1-rasm. **Don mustaqiligigacha xorijdan xarid qilingan don, ming tonna**[72]

[72] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.



16.3.2-rasm. **Dunyo bo‘yicha 2013 yilda bug‘doy yetishtiruvchi asosiy davlatlarda hosildorlik[73], t/ga**

Qishloq xo‘jaligida resurs tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi va boshqa agroinnovatsion chora-tadbirlar hisobiga g‘alla hosildorligi yildan-yilga ortib bormoqda (16.3.2-rasm).

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Jahonda va O‘zbekistonda g‘alla mustaqilligiga erishilgandan keyingi yillarda g‘alla ishlab chiqarish tez sur’atlar bilan rivojlandi (16.3.1-jadval).

[73]Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

16.3.1-jadval

Jahon bo‘yicha g‘alla yetishtirish, mln. tonna (2014 yil)[74]

№	Mamlakatlar nomi	2014 yil	
		%	mln. tonna
1	Chexiya	0,7	5,10
2	Avg‘oniston	0,9	6,56
3	Bolgariya	0,7	5,10
4	Vengriya	0,7	5,10
5	Marakko	0,7	5,10
6	Daniya	0,7	5,10
7	Efiopiya	0,6	4,37
8	Iroq	0,5	3,65
9	Xitoy	17,3	126,12
10	Hindiston	13	94,77
11	Rossiya	8,2	59,78
12	AQSH	7,6	55,40
13	Fansiya	5,3	38,64
14	Kanada	4	29,16
15	Germaniya	3,8	27,70
16	Pokiston	3,6	26,24
17	Avstraliya	3,5	25,52
18	Ukraina	3,3	24,06

[74] Manba: FAO ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

19	Turkiya	2,6	18,95
20	Buyuk Britaniya	2,3	16,77
21	Argentina	1,9	13,85
22	Qozog‘iston	1,8	13,12
23	Polsha	1,6	11,66
24	Yegipet	1,3	9,48
25	Eron	1,2	8,75
26	Ruminiya	1	7,29
27	Italiya	1	7,29
28	O‘zbekiston	1	7,29
29	Ispaniya	0,9	6,56
30	Braziliya	0,9	6,56
31	Boshqa mamlakatlar	7,4	53,95
Jami		**100,0**	**729,0**

G‘alla ekinlarining hosildorligi, tannarx va realizatsiya qilinadigan g‘alla narxi ushbu tarmoqdagi daromadni belgilaydi. Hosildorlik va tannarx, tannarx va rentabellik darajasi orasida teskari bog‘liqlik mavjud. Hosildorlik qancha yuqori bo‘lsa, tannarx shuncha past bo‘ladi. Don tannarxi qancha past bo‘lsa, rentabellik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Don ekinlari hosildorligi tuproq-iqlim sharoitigagina emas, balki organik va mineral o‘g‘itlardan foydalanish, o‘simliklarni himoya qilish vositalari, texnika bilan ta’minlanganlik, ishlarni optimal muddatlarda bajarish, ishchilarning o‘z mehnati natijasidan moddiy manfaatdorliklari kabilarga ham bog‘liq.

G‘alla ishlab chiqarishning ko‘payishiga asosiy omil donli ekinlar hosildorligining ortishidir. Hosildorlikka ta’sir qiladigan haqiqiy omil yangi, yuqori hosilli, rayonlashtirilgan navlarni joriy etish, yuqori sifatli urug‘lik materiallaridan foydalanishdir. Qishloq xo‘jalik korxonalari muntazam ravishda navlarni yangilashlari, ya’ni seleksiya stansiyalari yoki urug‘chilik xo‘jaliklaridan elita urug‘lar yoki birinchi reproduksiyalarni olishlari kerak.

16.4. Kelajakda o‘simlikchilik tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari

Ishlab chiqarish samaradorligining muhim omili – navga bog‘liq bo‘lgandon sifatidir. Don sifatiga qo‘yiladigan yuqori talablar, ushbu ozuqa mahsulotining uzoq vaqt saqlashda zarur bo‘ladigan alohida qiymatiga bog‘liq.

Saqlash uchun omborlarga to‘planadigan donlar namligi va iflos chiqindilar aralashib qolishi talab qilinadigan konditsiyalarga mos kelmog‘i zarur.

G‘alla yetishtirishda paxta, kartoshka, sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘stirishga nisbatan kamroq mehnat talab qiladi. 1 ga yerga ekilgan g‘alla ekinlariga qilingan mehnat sarfi o‘rtacha 17 kishi /soat, 1 t donga esa 10 kishi/soatni tashkil etadi.

Mahsulot birligiga bevosita mehnat sarfini kamaytirish, g‘alla hosildorligi va sifatini oshirish g‘alla ekinlarini intensiv texnologiyasi asosida yetishtiriladi, ekinni optimal joylashtirish, ilmiy asoslangan dozadagi organik va mineral o‘g‘itlarni berish, hamma texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash, mehnatni oqilona tashkil etish ushbu masalalarni ko‘zda tutadi.

Intensiv texnikadan foydalanish 1 ga ekin maydoniga qilingan moddiy-pul mablag‘lari va mehnat sarflarini oshiradi, biroq mahsulot birligida ular hosildorlik ortishi bilan pasayadi. Don sifatining ortishi g‘alla ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etadi, chunki uni yuqori narxlarda sotish ishlab chiqarishning yakuniy natijalariga ta’sir qiladi.

16.4.1-jadval

Tomchilatib sug‘orishni qo‘llashning samarasi

№	Ekin turlari	Suv tejalishi, %	Mehnat sarfining kamayishi, %	Hosildorlik oshishi, %
1	Paxta	30-40	50-60	90-150
2	Bog‘-tokzor	40-60	25-30	20-25
3	Sabzavot-poliz	50-55	50-60	55-65

Intensiv texnologiyada 1 ga ekin maydoniga yoqilg‘i va mineral o‘g‘itlar sarfi omili, shu bois mineral o‘g‘itlar olib kelish, intensiv texnikani intensiv qo‘llashni susaytiradi.

G‘alla yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini orttirishning muhim omili yig‘ishtirish va qayta ishlashdagi yo‘qotishlarni kamaytirish hisoblanadi. Yig‘ishtirib-tozalash paytida g‘alla yo‘qotilishini muddatning cho‘zilib

ketganidan (sepilib, donning yotib qolishi) yuz beradi. Yana bir sabab, g‘alla yig‘uvchi kombaynlarning yetishmasligidir.

Energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash ham katta ahamiyatga ega.

G‘alla bozoriningshakllanishida asosiy vazifa – mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini himoyalash, don va don mahsulotlariga talab va taklifni bashorat qilish balanslarini ishlab chiqishda ishtirok etish muhim rol o‘ynaydi.

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi ko‘rsatkichlar belgilaydi:

- hosildorlik, s/ga;
- 1 t mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, so‘m;
- 1 ga ekindan yalpi foyda yoki daromad, so‘m;
- 1 so‘m ishlab chiqarish xarajatlaridan yalpi daromad yoki foyda, so‘m;
- 1 kishi/soatga yalpi daromad yoki foyda, so‘m;
- 1 ga joriy baholarda pul narxida yalpi daromadning chiqishi, so‘m;
- mehnat unumdorligi (1 kishi/soat, o‘rtacha bir yillik ishchi hisobida mahsulot ishlab chiqarilishi);
- mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi, %.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari ishining yakuniy natijasiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati katta ta’sir o‘tkazadi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining texnik jihatdan ta’minlanganlik darajasi hozircha o‘ta pastligicha qolmoqda. Bu borada O‘zbekiston dehqonlari AQShning g‘arbiy mamlakatlaridan 5 va undan ortiq marta orqada qolmoqdalar.

O‘simlikchilikdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT) – bu tarmoqlarni eng kam sarf bilan yuqori sifatli mahsulotlarni maksimal miqdorda olishga yo‘naltirilgan fan, texnika va texnologiyaning uzluksiz va o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishiga asoslangan doimiy sifat jihatdan takomillashuvini reja asosida amalga oshiruvchi jarayondir.

O‘simlikchilikda ITT deb, tuproqqa ishlov berish usullarini mukammallashtirish, innovatsion texnologiyalarni hamda tarmoqni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash natijasida almashlab ekishni joriy etish, ekin maydonlarining oqilona strukturasi, organik va mineral o‘g‘itlar dozasini oshirish, ulardan samarali foydalanish, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurash usullarini optimallashtirish, urug‘chilikni yaxshilash va yuqori hosilli nav va gibridlarni yaratish, xo‘jalik yuritish tizimini shakllantirish, mahsulotlarni yig‘ish, tashish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida yangilarini ishlab chiqish, mavjudlarini optimallashtirish asosida ekin yerlarini yaxshilash, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, ular mahsuldorligining ortishida qo‘llanadigan agrotexnik jarayonlarni aytish mumkin.

Qishloq xo‘jaligida oxirgi besh yilda tarkibiy o‘zgartirish va sohani modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalash jadal sur’atlarda olib borilmoqda.

Aniq ilmiy-texnika taraqqiyoti mashinalarni, mehnat qurollari va ishlab chiqarishning boshqa vositalarini uzluksiz ta’minlashda, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyalari va uni tashkil etishda ifodalanadi. Qishloq xo‘jaligida ayniqsa, mehnatning mexanik vositalari muhim rol o‘ynaydi. Ular ilmiy-texnika yutuqlarining asosiy elementlari hisoblanadi, o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sishiga yordam beradi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti ta’siri ostida ishlab chiqarishning yangi moddiy pul resurslari zarur bo‘ladigan ekstensiv o‘sishidan yuqoriroq mehnat unumi, ishlab chiqarish texnologiyasini optimallashtirish, mahsulot sifatini oshirish, kelgusida tannarxni pasaytirish hisobiga intensiv o‘sishga o‘tish amalga oshiriladi.

Janubiy Koreyaning Sangjudagi xurmo tajriba stansiyasi xurmoga tegishli tadqiqotlar – uni yetishtirishdan iste’molchilarga yetkazishdagi jarayonlarigacha tadqiq etadigan yagona stansiya hisoblanadi.

Ushbu stansiya eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. U yerda 27 kishi, jumladan, 6 professor, 2 oddiy ishchi va 4 texnik xodim hamda 15 nafar boshqa mutaxassislar faoliyat yuritadi. Yer maydoni 11 gektardan iborat. Stansiya uch yo‘nalishda ishlaydi: yangi xurmo navlarini yaratish, yangi texnologiya va usullarni ishlab chiqish, yangi qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish.

Chungdo xurmo-klasteri esa 2009 yilda fermerlar tashabbusi bilan tashkil etilgan. Ushbu hududda Janubiy Koreyadagi urug‘siz xurmoning 65% yetishtiriladi. Fermerlar tomonidan birgalikda boshqariladigan ushbu klaster xurmodan yil davomida yangi uzilgan, yarim quritilgan, quritilgan, fermentatsiya qilingan, xurmo yog‘i va vinosi, rang va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan.

Xurmo harakati: xurmo yetishtirish – qayta ishlash – narxini saqlash – marketing va reklamani rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu klasterni ko‘rib, yana bir bor agroklasterda “biznes – universitet – ilmiy tadqiqot – davlat” ning birgalikdagi harakati va bunda ilmiy tadqiqotlarga asosiy e’tibor berilganligiga amin bo‘lish mumkin.

Fermerlarning ushbu klasterga qo‘shilishi natijasida oladigan daromadlari keskin oshgan. Munkiyeong olmani qayta ishlash klasteri biznes korxonalari harakati asosida tuzilgan. U iste’molchilarga olma bilan bog‘liq 100 dan ziyod mahsulot va xizmatlar taklif etadi. Avval ushbu hududda ko‘mir qazib olingan. 1994 yilda ko‘mir qazib olish tugatilgach, aholining shaharga ketishining oldini olish maqsadida olma klasteri va turizmni tashkil etish uchun davlat tomonidan 50 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilgan. Ushbu olma klasteri 2004 yilda 4 million AQSH dollari miqdorida foyda olgan bo‘lsa, 2012 yilga kelib, mahsulotlar miqdorining turli-tumanligi, qo‘shimcha xizmatlar, agroturizm va mehmonxona xizmatini



16.4.1-rasm. **O‘simlikchilik sohasini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari**[75]

[75] S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan

taklif etish orqali 90 million AQSH dollari miqdorida foyda olishga erishgan.

Qishloq xo‘jaligida ilmiy-texnik jarayoni iqtisodiy samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilar: 1 ga yer maydonidan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi, fond daromadlari, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi.

Dehqonchilik sohasiga kiritilgan yangiliklar hilma-xilligini tahlil qilish va umumlashtirish natijasida innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari klassifikatsiyasi aniqlanib olindi, (16.4.1 – rasm).

Asosiy tushunchalar

O‘simlikchilik – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, o‘z ichiga dalachilikda ekinlarni yetishtirish, paxtachilik, g‘allachilik, kartoshkachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, mevachilik, bog‘dorchilik va shu kabilarni oladi. Odam undan oziq-ovqat mahsulotlari, yengil va oziq-ovqat sanoati qayta ishlash uchun xom-ashyo, chorvachilik esa ozuqa oladi.

Dehqonchilik tizimi – bu tuproq unumdorligini oshirishga, o‘simlikchilik mahsulotlarining yer maydoni, birligidan mehnat sarfini va mahsulot birligiga mablag‘ va mehnat sarflarini kamaytirib, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida tuproqni suv va shamol eroziyasidan himoyalashga yo‘naltirilgan tashkiliy va agrotexnik tadbirlar majmuidir.

Dehqonchilik tizimining asosiy elementlari –almashlab ekish tizimlari, mashinalar tizimi, o‘g‘itlar tizimi, urug‘chilik tizimi, o‘simliklarni himoya qilish tizimi, melioratsiya tadbirlari tizimi (sug‘orish, quritish, kimyoviy melioratsiya va boshqalar), suv va shamol eroziyasiga qarshi kurash bo‘yicha tadbirlar tizimi, dalani himoyalash, ixota daraxtlarini yaratish.

G‘alla yetishtirish – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosini tashkil etadi va g‘alla aholining non, makaron mahsulotlariga, non mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondiribgina qolmasdan, shuningdek, sut, go‘sht, tuxum va boshqa mahsulotlarning ishlab chiqarilishini ham belgilaydi. Chunki u hayvonlar va parrandalarni ham muhim ozuqa bilan ta’minlaydi.

O‘simlikchilikdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT) – bu tarmoqlarni eng kam sarf bilan yuqori sifatli mahsulotlarni maksimal miqdorda olishga yo‘naltirilgan fan, texnika va texnologiyaning uzluksiz va o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishiga asoslangan doimiy sifat jihatdan takomillashuvini reja asosida amalga oshiruvchi jarayondir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘simlikchilik tarmoqlarining jahon va respublika iqtisodiyotidagi o‘rni hamda ahamiyatini bayon eting.
2. O‘simlikchilik mahsulotlarining inson hayotidagi, sanoatdagi va chorvachilik tarmoqlaridagi ahamiyatini izohlab bering.
3. O‘simlikchilik tarmoqlari va mahsulotlari deganda nimani tushunasiz?
4. O‘simlikchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligi qanday ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi?
5. Davlatning g‘alla mustaqilligi siyosati deganda nimani tushunasiz?
6. Kelajakda o‘simlikchilik tarmoqlarini rivojlantirishning qanday yo‘llari mavjud?
7. Donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini tushuntirib bering.
8. Bog‘dorchilik va uzumchilik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini tushuntirib bering.
9. O‘simlikchilikda agrotexnik tadbirlar va innovatsion texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
10. O‘simlikchilikda tarkibiy o‘zgarishlar, tarmoqni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash deganda nimalarni tushunasiz?

XVII-BOB. CHORVACHILIK (QORAMOLCHILIK, QO‘YCHILIK, ECHKICHILIK)TARMOQLARI IQTISODI

O‘quv maqsadi: Chorvachilik tarmoqlarining tarkibi va rivojlanishini tahlil qilish, chorvachilik mahsulotiga bo‘lgan talabni aniqlash, iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar vachorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch iboralar: *chorvachilik, mahsulotga bo‘lgan talab, iqtisodiy samaradorlik, qo‘ychilik, qoramolchilik, parrandachilik, echkichilik iqtisodi.*

17.1. Chorvachilik tarmoqlarining ahamiyati

O‘zbekiston chorvachilikning qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Respublikaning tuproq va tabiiy-iqlim sharoitlari – unumdor sug‘oriladigan yerlar, bepoyon qir-adirlar, dasht-cho‘l va tog‘ oldi yaylovlari chorvachilikning rivojlanishi uchun qulay.

Chorvachilik – qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biridir. U muhim ozuqa mahsulotlarini – sut, go‘sht, tuxum, asal, baliq kabi chorvachilikdan olinadigan oqsil moddasi manbasi, sanoat ishlab chiqarishi, qayta ishlovchi sanoat uchun xom-ashyo (sut, pishloq, qatiq, go‘sht, kolbasa, teri, jun, pilla va boshqalar) bo‘lib xizmat qiladi(17.1.1-rasm).

Chorvachilik sohasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar hamda diversifikatsiyalash natijasida 2005 yilda qoramollar bosh soni 6 mln 571,8 ming boshdan 2015 yilda 11 mln 612,8 ming boshga yoki 176,7 foizga, shundan sigirlar soni mos ravishda 2 mln 821,3 ming boshdan 4 mln 545,3 ming boshga yoki 161,1 foizga, qo‘y va echkilar soni 11 mln 351,9 ming boshdan 18 mln 498,2 ming boshga yoki 162,9 foizga, parrandalar soni esa 18 mln 775,7 ming boshdan 35 mln 851,3 ming boshga yoki 190,9 foizga o‘sdi.

Chorvachilik tarmog‘ining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi 2015 yilga kelib, 41,4% ni tashkil etdi hamda chorvachilikni jadal rivojlantirishda ixtisoslashgan xo‘jaligilarni nasldor chorva mollari bilan ta’minlash, turli yo‘nalishdagi zooveterinariya va zootexnik xizmatlar ko‘rsatuvchi infratuzilmani rivojlantirish natijasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish oxirgi yillarda o‘sib bormoqda.



17.1.1-rasm. **Chorvachilik tarmog‘inig tarkibi**

2016 yilda 2005 yilga nisbatan chorvachilik mahsulotlari, jumladan, go‘sht ishlab chiqarish 1061,2 ming tonnadan 2 mln 172,5 ming tonnaga, yoki 104,7 foizga, sut ishlab chiqarish 4 mln. 554,9 ming tonnadan 9 mln 703,3 ming tonnaga yoki 113 foizga, tuxum ishlab chiqarish 1 mlrd 966,7 mln donadan 6 mlrd 111,7 mln donaga yoki 210,8 foizga oshdi, (17.1.1-jadval).

17.1.1-jadval

Barcha toifadagi xo‘jaligilarda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish[76]

№	Mahsulot nomi	O‘lchov birligi		Yillar					2016 yil 2005 yilga nisbatan, %
			2005	2012	2013	2014	2015	2016	
1	Go‘sht (tirik vaznda)	ming tonna	1061,2	1564,2	1672,9	1787,5	1893,4	2172,5	204,7
2	Sut	ming tonna	4554,9	6766,2	7310,9	7884,7	8039,3	9703,3	213,0
3	Tuxum	mln dona	1966,7	3441,7	3873,7	4379,1	5051,4	6152,5	310,8
4	Qorako‘l teri	ming dona	688,8	1022,3	1116,9	1060,6	1121,3	1058,2	153,6
5	Pilla	ming tonna	16,2	24,7	25,0	25,4	26,7	28,2	174,1
6	Asal	tonna	2108	3795,1	4887,5	7177,0	8019,9	9123,7	432,8
7	Baliq	tonna	11100	17234,9	25885,1	38156,0	44347,8	48561,3	437,5

O‘zbekiston Respublikasining barcha turdagi xo‘jaliklarida chorva mollari tarkibi iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar hamda diversifikatsiyalash natijasida quyidagicha o‘zgardi (17.1.2-jadval).

17.1.2-jadval

Barcha turdagi xo‘jaligilarda chorva mollari tarkibi (2005-2016 yillar), foizda[77]

Yillar	Barcha turdagi xo‘jaliklarda	shu jumladan:		
		Qishloq xo‘jaligi korxonalari	Fermer xo‘jaligi	Dehqon xo‘jaligi
Qoramollar				
2005 y	100	3,7	5,0	91,3
2015 y	100	1,0	5,1	93,9
2016 y	100	1,2	4,7	94,1
Qo‘y va echkilar				

[76] Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

[77] Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari (2005-2015 yillar) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Yillar	Barcha turdagi xo‘jaliklarda	shu jumladan:		
		Qishloq xo‘jaligi korxonalari	Fermer xo‘jaligi	Dehqon xo‘jaligi
2005 y	100	23,2	4,0	72,8
2015 y	100	9,2	7,4	83,4
2016 y	100	8,4	7,7	83,9
Parrandalar				
2005 y	100	27,7	4,1	68,2
2015 y	100	24,3	12,3	63,4
2016 y	100	26,4	11,6	62,0
Otlar				
2005 y	100	15,0	7,1	77,9
2015 y	100	5,8	9,9	84,3
2016 y	100	4,3	10,5	85,2
Cho‘chqalar				
2005 y	100	25,8	17,4	56,8
2015 y	100	10,5	8,6	80,9
2016 y	100	9,6	9,1	81,3

Chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida oxirgi besh yil ichida ushbu maqsadlar uchun 213 mlrd. so‘mlik kreditlar yo‘naltirildi va bugungi kungacha chet davlatlardan 18 ming 191 bosh naslli qoramollar olib kelindi.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari chorva mollariga malakali veterinariya xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida zooveterinariya punktlari soni 2 ming 486 taga yetkazildi.

Respublikada 2015 yilda mavjud 4,5 mingdan ortiq zooveterinariya va sun’iy urug‘lantirish shoxobchalari tomonidan 2 million 106 ming bosh sigirlar sun’iy urug‘lantirildi va chorvachilik xo‘jaliklariga 11,5 mlrd. so‘mlik servis xizmatlari ko‘rsatildi.

Baliqchilikni rivojlantirish uchun asosan 761 ta baliqchilik xo‘jaliklari tashkil etilib, ularning umumiy soni 3281 taga yetkazildi va 2015 yilda 45 mlrd. so‘m mablag‘lar sarflandi.

Asalarichilikni rivojlantirishda asosan 424145 ta asalari oilalari parvarish qilinmoqda va asalarichilik uyushmalari tomonidan chetdan 2320 ta naslli ona arilar olib kelindi hamda shuning hisobidan 80 mingdan ortiq asalari paketlari tayyorlandi va chetga sotilmoqda.

Parrandachilik bo‘yicha respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan 320 ta inkubatorlarda 30 mln 500 ming dona naslli tuxumlar ochirilib, jo‘jalar yangi tashkil etilgan parrandachilik xo‘jaliklariga yetkazib berildi. Parrandalar zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirib borish maqsadida chetdan 900 ming bosh naslli jo‘jalar va 11 mln dona naslli tuxumlar olib kelindi.

Chorvachilik o‘simlikchilik bilan chambarchas bog‘liq, chunki tarmoq faoliyatining samarasi ozuqa bazasining holati bilan belgilanadi. Chorvachilikda

dalachilik (don chiqindilari, somon), sabzavotchilik (nostandart sabzavotlar, barglar, poya), qayta ishlash sanoatida (sheluxa, kepak, kunjara, shrot) kabilardan foydalaniladi. O‘z navbatida, chorvachilik o‘simlikchilikni organik o‘g‘itlar bilan ta’minlab, tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Chorvachilikdagi asosiy xususiyat shundaki, beriladigan ozuqalarning bir qismidangina chorva mollari mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalanadilar, ozuqaning qolgan qismi ularni saqlash uchun sarflanadi, qo‘shimcha ozuqa bilan aniqlanadi. Shu bois, chorvachilikdan samarali foydalanish uchun balanslashtirilgan ratsional ozuqa zarur.

Chorvachilik o‘simlikchilik bilan solishtirilganda, kamida tabiiy-iqlim sharoitiga kam darajada bog‘liqligi bilan farqlanadi. Shuning uchun chorvachilikda yil bo‘yi asosiy va aylanma ishlab chiqarish mablag‘lardan, mehnat resurslaridan bir tekisda foydalaniladi va yil davomida mahsulot realizatsiyasidan foyda kelib turadi.

Chorvachilik sutchilik va go‘sht chorvachiligi, parrandachilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, baliqchilik, asalarichilik, yilqichilik, mo‘ynali hayvonlar va boshqa tarmoqlarni qamrab oladi.

Chorvachilik mamlakatimiz hududida tarqalib ketgan. Tabiat va iqtisodiy sharoitlarning turli-tumanligi har turli chorva mollari tarkibida va nisbatida har xil turlarni farqlash imkonini beradi.

Chorvachilik tizimini tanlab olishga qishloq xo‘jaligi korxonasining joylashgan o‘rni, ozuqa ekinlarining tarkibi va nisbati, ishchi kuchi bilan ta’minlanganlik, ishlarni mexanizatsiyalash darajasi, chorvachilik mahsuloti bozorlarining ahvoli kabi qator omillar ta’sir qiladi.

Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishi va joylashishi aholini chorvachilik mahsulotlariga talabini qondirish, ishlab chiqarish resurslaridan, ayniqsa, ozuqalar va mehnatdan oqilona foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish butun mamlakat mintaqalari bo‘yicha intensifikatsiya, hayvonlar mahsuldorligini oshirish asosida rivojlanishi kerak.

Chorvachilikning yetakchi tarmog‘i chorva mollari tarmog‘idir. Uning iqtisodiyot tarmog‘idagi ahamiyati eng avval mahsulotlarning yuqori to‘yimliligi xossalari bilan belgilanadi. Bu mahsulotlar orasida ozuqaliligi yuqoriligi bilan sut birinchi o‘rinda turadi. U yangi holicha ham, qayta ishlanib ham keng qo‘llaniladi. Yirik shoxli qoramol va qo‘y go‘shti mazalilik sifati bo‘yicha eng qimmatli hisoblanadi. Bu tarmoqdan, shuningdek, qimmatbaho charm va qo‘ychilik xom-ashyosi olinadi.

Chorvachilik tarmoq sifatida qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. O‘simlikchilikda u qimmatli organik o‘g‘it – go‘ng. Yirik shoxli qoramol o‘stirishni boshqa turdagi hayvonlar bilan solishtirilganda yuqori samaradorligi, mahsulot ozuqasiga yuqori haq to‘lanishi, arzon o‘simlik ozuqalari va qayta ishlash sanoati chiqindilarini iste’mol qilishi bilan izohlanadi.

17.2. Chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Chorvachilikni joylashtirishda mehnat resurslarining mavjudligi, fermani mexanizatsiya bilan ta’minlash kabilar ham hisobga olinadi. Sutchilikka ixtisoslashgan chorvachilik bu sohaning eng sermehnat tarmoqlaridan hisoblanadi va nisbatan ko‘p mehnat sarfi talab qiladi. Sigirlarni sog‘ib olish uchun mehnat sarfi yiliga bir bosh sigirga 40-50 kishi/soat, ya’ni sigirlarga xizmat qilishdagi umumiy mehnat sarfining 32% gacha tashkil etadi. Bu sohada mehnat sarfini faqat taraqqiy etgan texnologiyani joriy etish bilangina pasaytirish mumkin.

Sut ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi:

- qoramollar bosh soni, bosh;
- shu jumladan, sigirlar soni, bosh;
- sog‘ib olingan sut miqdori, tonna;
- bir yilda bir sigirdan sog‘ib olingan sut miqdori, tonna;
- 100 bosh sigirlardan olingan buzoqlar soni, bosh;
- 1 tonna sut uchun sarflangan ozuqa birligi;
- 1 tonna sut uchun sarflangan mehnat sarfi, kishi/kun; kishi/soat;
- 1 tonna sut tannarxi, so‘m;
- 1 tonna sutning sotish bahosi, so‘m;
- 1 tonna sutdan olingan sof foyda yoki zarar, so‘m;
- rentabellik darajasi, foiz.

Bundan tashqari, qoramolchilikda qoramol go‘shti yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ham aniqlanadi:

- olingan go‘sht (tirik vaznda), tonna;
- bir sutkalik semirishi, gramm;
- 1 tonna tirik vazn uchun mehnat sarfi, kishi/kun; kishi/soat;
- 1 tonna tirik vazn uchun sarflangan ozuqa birligi;
- o‘rtacha bir bosh sotilgan qoramol vazni, kg;
- 1 tonna tirik vaznda go‘sht tannarxi, so‘m;
- 1 tonna go‘shtning o‘rtacha sotish bahosi, so‘m;
- 1 tonna go‘shtdan olingan sof foyda yoki zarar, so‘m;
- rentabellik darajasi, foiz.

Chorvachilikni rivojlantirishdagiasosiy muammolar ham mavjudki, bular chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishga to‘siq bo‘ladi:

- chorva mollari uchun ozuqa ekin maydonlarining chorva bosh soniga mutanosib ravishda ajratilmaganligi;
- ozuqa ekinlari hosildorlik darajasining pastligi;
- yem-xashak o‘rim-yig‘imi texnikalar bilan bajarilmasligi;
- naslchilik ishlarining talab darajasida yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- to‘la qamrovli zooveterinariya xizmatining vaqtida ko‘rsatilmayotganligi;
- naslli mol tayyorlab sotish va chetdan naslli mollarni keltirishni kamaytirish;
- imtiyozli kreditlarning yetarli darajada ta’minlanmaganligi va hokazo.

Qishloq xo‘jaligida chorvachilikni rivojlantirishda qo‘ychilik va echkichilikning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ham aniqlanadi:

- qo‘y va echkilar bosh soni, bosh;
- yetishtirilgan:
  - tirik vaznda go‘sht, tonna;
  - jun, tonna;
  - sut, tonna;
  - teri, dona.
- 100 bosh ona qo‘ydan olingan qo‘zilar soni, bosh;
- o‘rtacha bir bosh sotilgan qo‘y vazni, kg;
- bir sutkalik semirish vazni, gramm;
- o‘rtacha bir qo‘ydan qirqib olingan jun, kg;
- 1 tonna uchun mehnat sarfi, kishi/kun; kishi/soat: *go‘sht (tirik vaznda); teri; sut; jun.*
- 1 birlik mahsulot tannarxi, so‘m:*go‘sht (tirik vaznda); teri; sut; jun.*
- 1 birlik mahsulotning o‘rtacha sotish bahosi, so‘m:*go‘sht (tirik vaznda); teri; sut; jun.*
- 1 birlik mahsulot uchun sof foyda yoki zarar, so‘m:*go‘sht (tirik vaznda); teri; sut; jun.*
- rentabellik darajasi, foiz: *go‘sht (tirik vaznda); teri; sut; jun.*

Hozirgi paytda parhezli go‘sht va tuxum yetishtirish inson salomatligi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligida ushbu sohaning serdaromadligini hisobga olib, parrandachilik tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini aniqlash lozim. Bu iqtisodiy ko‘rsatkichlar quyidagilardir:

- o‘rtacha parrandalar soni, bosh;
- xo‘jaligida yetishtirilgan:*parranda go‘shti, tonna; tuxum, dona.*
- bir tovuqdan bir yilda olingan tuxum miqdori, dona;
- tovuqlarning bir sutkalik semirishi, gramm;
- mehnat sarfi, kishi/kun; kishi/soat: *1 st parranda go‘shti, 1000 dona tuxum.*
- Sarflangan ozuqa, ozuqa birligi:*1 st parranda go‘shti, 1000 dona tuxum.*
- 1 birlik mahsulot tannarxi, so‘m: *1 st parranda go‘shti, 1000 dona tuxum.*
- 1 birlik mahsulotning o‘rtacha sotish bahosi, so‘m: *1 st parranda go‘shti, 1000 dona tuxum.*
- 1 birlik mahsulotdan olingan sof foyda yoki zarar, so‘m: *1 st parranda go‘shti, 1000 dona tuxum.*
- rentabellik darajasi, so‘m: *1 st parranda go‘shti, 1000 dona tuxumva h.k.*

Ma’lumki, respublikada chorvachilik mahsulotlari, ya’ni go‘shtning 94,4%, sutning 95,7%, junning 85,5%i va qorako‘l terining 83,5%i dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Ammo zooveterinariya shoxobchalari asosan chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarga xizmat qilmoqda. Shu sababli chorvachilik mahsuloti yetishtiruvchi dehqon xo‘jaliklari esa zooveterinariya xizmatlariga bo‘lgan talabi qondirilmay kelmoqda, chorva mollarning mahsuldorligini oshirish, chorvachilik mahsulotlarining sifatini oshirib borish bo‘yicha tegishli ilmiy maslahat va yordam ko‘rsatilmay kelinmoqda.

Buning natijasida respublikada chorva mollarning mahsuldorlik darajasi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha past bo‘lib kelmoqda, (17.2.1-jadval).

17.2.1-jadval

O‘zbekistonda va rivojlangan mamlakatlarda chorva mollarning mahsuldorlik ko‘rsatkichichi[78] (2014 yil)

Mamlakatlar	**O‘rtacha bir bosh sigirdan olingan sut, kg/bosh**	**O‘rtacha bir bosh qoramolning semirishi, kg/bosh**	**O‘rtacha bir tovuqdan olingan tuxum, dona/bosh**
O‘zbekiston	1200	160	181
Rivojlangan mamlakatlardagi eng yuqori mahsuldorlik	9800-10000	430	300
Farqi, %	***833,3***	***268,8***	***165,7***

Chorvachilik sermahsul va sermehnat soha hisoblanadi. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida chorvachilik sohasining mahsuldorligi yuqori bo‘lib, fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanilmoqda. Masalan, Gollandiyada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 55% i chorvachilik mahsulotlariga to‘g‘ri keladi. o‘rtacha bir sog‘in sigirdan sog‘ib olinadigan sut miqdori 8500-9500 kg ni tashkil etadi, ayrim fermer xo‘jaliklarida bu ko‘rsatkich 12000-13000 kg dan iborat bo‘lishi mumkin. Chorva mollarining sutkalik semirish darajasi qoramolchilikda 700-800 gr ni, ilg‘or fermer xo‘jaliklarida esa 1000-1100 gr ni tashkil etadi. Gollandiya mamlakatida shunday fermer xo‘jaliklari mavjudki, faqat naslli buqa urug‘ini eksport qilish bilan shug‘ullanadi, bunday fermer xo‘jaliklarida 1 bosh naslli buqadan sof foyda yiliga 90-100 ming AQSH dollarini tashkil etadi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor beriladi:

- chorvachilik tarmog‘ining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- naslchilikni tubdan yaxshilash va modernizatsiya qilish;
- xo‘jaliklarga zooveterinariya xizmatlari ko‘rsatish tizimini rivojlantirish;

[78] https://knoema.ru/atlas/topics/vaO‘zbekistonDavlatStatistikaqo‘mitasima’lumotlari

- tarmoqda servis xizmatlari ko‘rsatish sifati va assortimentini oshirish;
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish, qayta jihozlash va modernizatsiya qilish, sohaga investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish;
- chorva mollarini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va kasalliklarga qarshi kurashda davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
- ayniqsa, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish;
- yem-xashak bazasini mustahkamlash va sifatini yaxshilash;
- ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajalariga erishish, bunda lalmi yerlardan chorva ozuqasi yetishtirish uchun foydalanishni kengaytirish lozim.

17.3. Chorvachilik tarmoqlarida mahsulot yetishtirishni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari

Hozirgi kunda mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirish asosan uch yo‘nalishda amalga oshirilmoqda (17.3.1-rasm).

Chorvachilikdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT)ni zootexnika taraqqiyoti deyish mumkin. U chorva mollari va parrandalarning yangi yuqori mahsuldor zotlarini yaratish, mavjud zotlarning nasldorlik sifatlarini yaxshilash, parvarishlash, boqish, o‘stirish kabilar tizimini yaxshilash, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini oshirish kabilarda ko‘rinadi. Chorvachilikning hamma tarmoqlari samaradorligiga mehnatni texnik qayta jihozlash va hamma mahsulotlar ishlab chiqarishiga eng taraqqiy etgan texnologiyalarni joriy etish asosida sanoat asosiga o‘tkazilganda erishiladi.

Bugungi kunda respublikada aholi bandligi va daromadini oshirish maqsadida kam ta’minlangan oilalarga bepul qoramol tarqatib berish yo‘lga qo‘yildi. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga qoramol sotib olish uchun tijorat banklari tomonidan jami 5,5 mlrd so‘m miqdorida mikrokreditlar ajratildi.

Chorva mollarining kuchli ozuqalarga bo‘lgan talabini qondirish va shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari chorva mollariga omuxta yem, paxta shroti va sheluxasini uzluksiz yetkazib berish maqsadida 1950 ta shaxobchalar tashkil etildi.

Bugungi kunda Respublikada naslchilik xo‘jaligi maqomini olgan xo‘jaligi yurituvchi subyektlar soni jami 633 tani, shundan 344 tasi naslchilik xo‘jaliklari tashkil etadi.

Rejaga asosan 37 ta zooveterinariya punktlari tashkil etish rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda 43 ta zooveterinariya punktlari tashkil etildi va ularning soni 2486 taga yetkazildi.

Pullik xizmat ko‘rsatish esa 2015 yilda 1774,8 mlnso‘mlik pullik xizmatlar ko‘rsatildi.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida mahsuldor naslli mollarni ko‘paytirish maqsadida joriy yilning o‘tgan davrida 2 mln. 106 ming bosh sigirlar sun’iy urug‘lantirildi.

Respublikamizda 2007 yilgacha bir doza ham naslli buqa urug‘i ishlab chiqarilmagan bo‘lsa, 2010 yilda 1 mln. 437 ming doza naslli buqa urug‘ini qadoqlash amalga oshirildi, 2015 yilda bor-yo‘g‘i 20 ming 100 doza chetdan olib kelindi.

Sigirlarni sun’iy urug‘lantirishning afzalligi va mohiyati to‘g‘risida joylarda veterinariya mutaxassislari tomonidan aholiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ommaviy axborot vositalar orqali tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida oxirgi besh yil ichida ushbu maqsadlar uchun 213 mlrd. so‘mlik kreditlar yo‘naltirilib, bugungi kungacha chet davlatlardan 18 ming 191 bosh naslli qoramollar olib kelindi.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari chorva mollariga malakali veterinariya xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida zooveterinariya punktlari soni 2 ming 486 taga yetkazildi.

Keyingi 5 yilda zoovetpunktlar orqali pullik xizmat ko‘rsatish 6 baravarga oshib, 2015 yilning o‘zida 11 mlrd. 300 mln so‘mni tashkil etdi.

Shu davr ichida sigir va tanalarni sun’iy urug‘lantirish 10 baravarga oshib, 1 mln boshni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasini inovatsion rivojlantirish samaradorlik ko‘rsatkichlaridan olingan samara turlarini tizimlashtirish va turlicha xarajatlar bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir.

17.3.2-jadval

Chorvachilik sohasida innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri[79]

Samaradorlik ko‘rinishlari	**Olingan samara**	**Ko‘rsatkichlar**	**Izoh**
Biologik samaradorlik	Chorva mollarning genetik imkoniyatlarini oshirish va ozuqaning	$B_s = \frac{YaM}{I_m}$	*Bs – innovatsion rivojlantirishning biologik samaradorlik ko‘rsatkichi* *Yam – chorvachilik mahsulotlari hajmi;* *Im - chorva mollarning genetik potensialini takomillashtirish, yuqori mahsuldor chorva mollar, biotexnologiyalar, gennetik injener-likdan unumli foydalanish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishga*

[79]S.N.Xamrayevaning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida tuzilgan

	tuyimliligini yaxshilash hisobiga chorvachilikda mahsuldorlik-ning oshishi va mahsulot sifatining yaxshilanilishi		*sarflangan xarajatlar*
		$B_{so} = \frac{YaM}{O_b}$	*Bso – innovatsion rivojlan-tirishning biologik (iqtisodiy) samaradorlik ko‘rsatkichi (ozuqa bazasini yaxshilash hisobiga)* *Ob - ozuqa sifati va chorva mollarning oziqlantirish darajasini yaxshilashga sarflangan xarajatlar*
		$K_{so} = \frac{O_h}{YaM}$	*K_{so} - ozyqaningkonversiyakotffisiynti, ya’nibirbirlikolinganmahsulothisobiga (1кг mahsuloto‘sishi, 1кг sut, 1кг junvaboshq) sarflanganozuqahajmi;* *O_h - sarflanganozuqamiqdori;* *Yam – chorvachilikdaolinganmahsulothajmi*
Texnik-texnologik samaradorlik	1ta shartli bosh chorva molga sarflangan moddiy-texnik resurslar hisobiga chorva-chilik mahsulot-larining ko‘payishi	$T_t = \frac{YaM}{F_{as} + F_{ay}}$	*It– chorvachiliksohasinieningtexnik-texnologiksamaradorligi;* *Yam - chorvachiliksohasinitexnik-texnologikjihatdanqaytajihozlash(energetikresurslarnitakomillash-tirish, innovatsionishlanmalarnijoriyetish) hisobigaolinganmahsulot;* *Fa +Fay – chorvachiliksohasinitexnik-texnologikqaytajihozlashuchunsarflanganasosiyvaaylanmavositalarqiymati*
		$T_e = \frac{YaM}{E_r}$	*Te–energetik resurslarni takomil-lashtirish hisobiga olingan texnik-texnologik samaradorlik* *Er - chorvachilik sohasini texnik-texnologik qayta jihozlash uchun sarflangan energetik resurslar qiymati*
		$T_i = \frac{YaM}{I_{in}}$	*Ti – ishlab chiqarishga innovatsion ishlanma va loyihalarni (sun’iy urug‘lantirish, yangi zot) joriy etish hisobiga olingan texnik texnologik samaradorlik;* *Iin – innovatsion ishlanmalarga sarflangan mablag‘*
Iqtisodiy samaradorlik	Chorvachilikda tovar mahsulo-tining o‘sishi, innovatsiyalarni o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini qoplash	$I_t = \frac{T_1 - T_2}{I_{in}}$	*It – innovatsiyalarni kiritish hisobiga xarajatlarni tejashdan olingan iqtisodiy samaradorlik;* *T1 – T2 – innovatsiyalarni kiritishdan oldingi va keyingi xarajatlar;* *Iin – innovatsion ishlanma-larga sarflangan mablag‘*
		$I_f = \frac{F}{I_{in}}$	*I_f – инновасиуаларни киритишда фойданинг ко‘пайиши нисобига олинган иқтисодий самарадорлик;* *F – инновасиуаларни киритишда олинган фойда*
		$R = \frac{F}{I_{in}} * 100\%$	*R – инновасион фаолиуатнинг рентабеллик даражаси, %*

	muddatlarning qisqarishi, chorvachilik mahsulotlari sifatining yaxshilanilishi	$M_u = \frac{YaM}{V}$	*Mu - innovatsion rivojlantirishning mehnat unumdorligi;* *V – innovatsion faoliyat natijasida mehnat sarfining kamayishi*
Ijtimoiy samaradorlik	Chorvachilik sohasida band bo‘lgan ishchi xodimlarning turmush sifati va ularning turli xil extiyojlarining qoniqish darajasining yaxshilanilishi	$RID = (ND - ST) * J_{pxq}$ [80]	*RID – real ixtiyordagi daromadlar;* *ND – nominal daromad;* *ST – soliqlar, majburiy to‘lovlar* J_{pxq} *- pulning xarid qobiliyati indeksi (narxlar indeksiga teskari ko‘rsatkich).*
		$RIH = (NIH - SA) * J_{pxq}$ [81]	*RIH – real ish haqi;* *NIH – nominal ish haqi;* *SA - soliqlar, ish haqidan majburiy ajratmalar*
Ekologik samaradorlik	Atrof-muhit muhofazasi, ishlab chiqarilgan ekologik toza mahsulot hajmining ortishi	$E_s = \frac{EM}{X}$	*Es –ekologik samaradorlik;* *EM – ishlab chiqarilgan ekologik toza mahsulot hajmi;* *X – ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar summasi*

Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni sifatli amalga oshirish lozim:

1. Zooveterinariya xizmatlari:

- tabiiy va sun’iy urug‘lantirish;
- chorva mollarning ozuqa bazasini yaxshilash;
- chorva mollarni joylashtirish va yer maydonlari bilan ta’minlash;

[80]Q.X.Abdurahmanov. Mehnat iqtisodiyoti. Inson taraqqiyoti. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013, 177b (205)
[81]O‘sha yerda

- chorva mollarning epidemik kasalliklariga qarshi kurashish (choʻchqa grippi, parranda grippi, sibir yarasi);
- emlash ishlarini olib borish;
- profilaktika ishlarini olib borish (bir joydan boshqa joyga koʻchirganda, yaylovlarga olib chiqqanda tuyoq ostini dorilash);
- chorva mollarning boshqa turli kasalliklariga qarshi kurashish va h.k.

2. Chorvachilikda axborot konsalting xizmati:

- ratsion tuzishda (chorva mollar zotiga, turiga, yoshiga, joylashganligiga, ogʻirligiga qarab);
- chorvachilikda mahsuldorlikni oshirishda;
- chorvachilik mahsulotlarini realizatsiya qilishda;
- bozor konyunkturasini oʻrganish va h.k.

3. Naslchilik va seleksiya ishlari;

4. Chorvachilikda texnik servis xizmatlarini koʻrsatish (muqobil MTP, transport xizmati, SIU);

5. Bank, sugʻurta, birja va boshqa bozor infratuzilmasi xizmatlaridan toʻgʻri foydalanish va h.k.

17.4. Chorvachilikda yem-xashak bazasini shakllantirish yoʻllari

Turli chorva mollarini boqish tartibi mamlakatimizning u yoki bu hududidagi mavjud yem-xashak turlari, ularni yetishtirish usullari, chorva mollarini asrash hamda tarmoqning intensivlik darajasiga koʻra belgilanadi. Chorvachilikda foydalaniladigan yem-xashak bir necha turga boʻlinadi. Yem-xashak asosan, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yoki uni qayta ishlashdan hosil qilinadi. Hayvon mahsulotlaridan tayyorlanadigan ozuqa sut va uning chiqindilari goʻsht, baliq, suyak unlari va boshqa chorvachilik chiqindilaridan tayyorlangan ozuqalarga suyak uni, fosfor, har xil tuzlar va turli mikroelementli yemlar kiradi.

Har bir qishloq xoʻjaligi hududi va korxonasida yem-xashak yetishtirishni toʻgʻri tashkil etish va chorvaning ozuqa bazasini mustahkamlash, chorva mollarini ozuqalantirishni maqsadga muvofiq tashkil etishning asosiy sharti chorva ratsionida mollar oʻzlashtirishi uchun zarur hamma moddalar mavjud yem-xashaklarning optimal tartibini tanlab olish va mahsulot birligiga eng kam ozuqa birligi sarflashdir. Ozuqa ratsioni chorva mollariga beriladigan yem-xashak turlari va ularning ozuqa meyoridagi salmogʻini ifoda etadi. Ozuqa ratsioni har bir chorva turi boʻyicha har qaysi korxonaning oʻziga xos xususiyatlari, ya’ni yem-xashak turlari, ularni yetishtirish usul va yoʻllari hisobga olingan holda belgilanadi.

Ozuqa ratsioni chorva mollarining biologik ehtiyojlarini toʻla qondirish va yem-xashak sarfiga chorva mollarini asrash usullari va mollar mahsuldorligi katta ta’sir etadi. Mahsuldorlik qancha katta boʻlsa, mahsulot birligiga shuncha kam yem-xashak sarflanadi. Chunki chorva mollarining hayotini saqlab turish

uchun talab qilinadigan yem bo‘lsa, u shuncha ko‘p mahsulot o‘sishiga taqsimlanadi. Masalan, sigirlardan 2000 kg sut olinganda, 1kg sut yetishtirish uchun 1,4 kg ozuqa birligi, 125 gr oqsil modda, 3000 kg sut olinganda, 1,14 kg ozuqa birligi sarflanadi.

Chorva mollari uchun foydalaniladigan yem-xashaklar to‘rtta guruhga bo‘linadi: *konsentrat, dag‘al, shirali va ko‘k yem-xashaklar.*

Ayrim turdagi yem-xashak, shirali ozuqa, suvli, dag‘al va ko‘k ozuqaga talab shu turdagi chorva moli uchun qabul qilingan ratsiondagi uning salmog‘iga ko‘paytiriladi. Yuqoridagi misolda sigirlar uchun qabul qilingan ratsiondagi shirali ozuqalar 22 foizni tashkil etishi kerak bo‘lganda, rejalashtirilgan mahsulot uchun talab etiladigan shirali ozuqalarning umumiy hajmi 9029 s ni (41041 x 22) : 100 tashkil etadi.

Zarur umumiy yem-xashak talabi miqdori aniqlangach, **yem-xashak balansi** tuziladi. Balansda yem-xashakning hamma turlari ko‘rsatiladi. Balansda yem-xashaklar jismoniy holidagina emas, balki ozuqa turlalarida va o‘zlashtiriladigan oqsil moddalari tarzida ham hisobga olinadi. Chorvachilikning ishlab chiqarish dasturini rejalashtirishda uning yem-xashakka talabini to‘g‘ri aniqlashga asosiy e’tibor qaratilishi kerak.

Chorvachilikning yem-xashakka talabi chorva mollarining o‘rtacha yillik soni va boqish me’yorlariga ko‘ra aniqlanadi. Yirik chorva mollarini boqishni tashkil etishda ratsionga qo‘yiladigan zootexnika talablari to‘la hisobga olinishi kerak. Xo‘jalikda qo‘llaniladigan ratsion ham zootexnika talablari hamda iqtisodiy talablar, ya’ni chorva mollarining yuqori mahsuldorligini ta’minlash uchun turli-tuman va to‘yimli bo‘lishi bilan birga ratsion qiymati arzon bo‘lishini ta’minlash kerak.

O‘simlikchilik tarmoqlari bilan chorvachilikni to‘g‘ri bog‘lash, o‘simlikchilik tarmoqlari chorvachilikda yem-xashakka bo‘lgan talabni qay darajada qondirayotganini aniqlash, agar yem-xashak ishlab chiqarish bilan unga bo‘lgan talab o‘rtasida biror-bir farq sodir bo‘lsa, uni bartaraf etish tadbirlarini belgilash uchun yem-xashak balansi tuziladi. U ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida talab etiladigan yem-xashaklar, ikkinchi qismida yetishtiriladigan yem-xashaklar va farq ko‘rsatiladi. Agar ayrim yem-xashak turlari bo‘yicha biror-bir farq sodir bo‘lsa, uni bartaraf etish choralari ko‘riladi.

Bunga korxonaning ichki imkoniyatlarini ishga solishga asosiy e’tibor qaratilishi kerak. Buning uchun birinchi navbatda boqish ratsioniga rioya qilgan holda o‘zaro o‘rnini qoplaydigan ekinlarning hosildorligiga ko‘ra ekin maydonlarini qayta ko‘rib chiqish, kam hosilli ekinlarni yuqori hosilligi bilan almashtirish yoki ekinlarning hosildorligini oshirish tadbirlarini ko‘rish talab etiladi.

Chorvachilikda yem-xashaklarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi:

- ozuqa ekinlarining hosildorligi, s/ga yoki ozuqa birligi/ga;

- 1 gektar ozuqa ekin maydonlaridan olingan: *yalpi mahsulot, so‘m; ozuqa birligi.*
- 1 so‘m ozuqa ekinlariga qilingan xarajat evaziga olingan: yalpi mahsulot, so‘m; ozuqa birligi.
- ozuqa ekinlarining tannarxi, so‘m;
- 1 kishi/kuni yoki 1 kishi/soatga olingan: *ozuqa birligi.*
- chorva mollari uchun jami sarflangan yem-xashak, ozuqa birligida;
- jami ozuqa ekinlari maydoni, ga.

Chorvachilikda yem-xashak bazasi yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu sababli Gollandiyada yem-xashak tayyorlashga alohida e’tibor beriladi. Ayniqsa, senaj, silos va boshqa ozuqalarni maxsus yangi texnologiyalar orqali tayyorlanadi. Senaj va silos tayyorlash uchun maxsus yerto‘la, ya’ni uzunligi 40-50 metr, eni 9-10 metr va balandligi 1,5-2 metr bo‘lgan chuqurlik tayyorlanib, ust qismidan tashqari hamma tomonlari beton qilinadi. Har bir shunday yerto‘lada 400 m3 yoki 80 tonna senaj va silos tayyorlanadi. Barcha yem-xashaklar maydalanib, yerto‘laga solinadi va 33 xildagi ozuqa komponentlari qo‘shib aralashtiriladi, traktorlar yordamida bosiladi va havo kirmaydigan darajada plyonka bilan yopiladi. Silos va senaj 2-3 oydan keyin tayyor yem-xashak holatiga keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yem-xashaklarning iqtisodiy samaradorligiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bular jumlasiga tabiiy-biologik, texnik, texnologik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillardir.

Asosiy tushunchalar

Chorvachilik – qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u muhim ozuqa mahsulotlarini – sut, go‘sht, tuxum, asal, baliq kabi chorvachilikdan olinadigan oqsil moddasi manbasi, sanoat ishlab chiqarishi, qayta ishlovchi sanoat uchun xom-ashyo (sut, pishloq, qatiq, go‘sht, kolbasa, teri, jun, pilla va boshqalar) bo‘lib xizmat qiladi.

Chorvachilikdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT) – bu chorva mollari va parrandalarning yangi yuqori mahsuldor zotlarini yaratish, mavjud zotlarning nasldorlik sifatlarini yaxshilash, parvarishlash, boqish, o‘stirish kabilar tizimini yaxshilash, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini oshirish kabilarda ko‘rinadi. Chorvachilikning hamma tarmoqlari samaradorligiga mehnatni texnik qayta jihozlash va hamma mahsulotlar ishlab chiqarishiga eng taraqqiy etgan texnologiyalarni joriy etish asosida sanoat asosiga o‘tkazilganda erishiladi.

Veterinariya xizmati – mamlakat, hududiy zonalar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida, korxonalar, transport, davlat chegarasi, qurolli kuchlarda jami veterinariya tadbirlarini amalga oshiradigan veterinariya tashkilotlari va muassasalari majmui. Veterinariya xizmati mamlakatda hayvonlar (jumladan,

chorva mollari, parranda, baliqlar, asalarilar) kasalliklarining oldini olish va ularni yo‘qotish bilan shug‘ullanadi.

Chorvachilik sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari: ***1-yo‘nalish-*** xo‘jaligilarga qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish, turli tashkilotlar qoshida chorvachilik yordamchi xo‘jaligilarini tashkil etish; ***2-yo‘nalish*** **-** chetdan naslli mollarni keltirish, chorva mahsuldorligini oshirish, zooveterinariya punktlari sonini ko‘paytirish; ***3-yo‘nalish***mavjud ozuqa ekinlari maydonlaridan unumli foydalanish, ekinlar hosildorligini oshirish, chorva ozuqa mahsulotlarini maxsus shoxobchalar orqali aholi va fermer xo‘jaliklariga yetkazib berish.

Asalarichilik – qishloq xo‘jaligining tarmoqlaridan biri bo‘lib, asalarilarni asal, mum va boshqa mahsulotlar (asalari suti, asalari yelimi, asalari zahari) olish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun ularni changlatish maqsadlarida boqish.

Baliqchilik – xalq xo‘jaligining suv havzalarida baliq zahirasini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug‘ullanuvchi sohasi. O‘zbekiston daryo va ko‘llarida baliqning 65 ga yaqin turi yashaydi.

Parrandachilik –xo‘jaliklarda parhez taomlar, parranda mahsulotlari olish uchun tovuq,kurka, g‘oz, o‘rdak, bedana va boshqa turdagi parrandalarni ko‘paytirish va boqish.

Yem-xashak – qishloq xo‘jaligi hayvonlarini boqishda ishlatiladigan, tarkibida o‘zlashtiriladigan (hazm bo‘ladigan) ozuqa moddalari bo‘lgan, asosan, o‘simlik, hayvonot, mikrobiologik va kimyoviy mahsulotlardan iborat ozuqalar. Yem-xashak asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoki uni qayta ishlashdan hosil qilinadi.

Yem-xashak ekinlari –chorva mollari va parrandalarga yem-xashak (ko‘kat, pichan, yem, silos) tayyorlash maqsadida ekiladigan o‘simliklar. Yem-xashak ekinlariga bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar, xashaki ildizmevali, xashaki poliz ekinlari, silos bostirish va yem uchun ekiladigan donli ekinlar kiradi.

Yem-xashak balansi –xo‘jalikdagi mavjud yem-xashak miqdorini unga bo‘lgan ehtiyoj bilan qiyoslash. Odatda, u chorva mollarining belgilangan davrda yem-xashak bilan qanchalik ta’minlanganligini aniqlash, agar kam bo‘lsa, uni tayyorlash tadbirlarini ko‘rish maqsadida kelgusi yil uchun, shuningdek, istiqbol rejaga asosan bir necha yilga mo‘ljallab tuziladi.

Yem-xashak ratsioni – ozuqa moddalari bilan chorva mollarining talab va ehtiyojini qondiruvchi, xo‘jalikdagi mavjud turli yem-xashakdan tuzilgan sutkalik ozuqa rejasidir.

Chorva mollari uchun foydalaniladigan yem-xashaklar to‘rtta guruhga bo‘linadi: *konsentrat, dag‘al, shirali va ko‘k yem-xashaklar*.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Chorvachilik tarmoqlari respublika iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi?
2. Chorvachilik tarmoqlarining ahamiyatli tomonlari nimalardan iborat?
3. Chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talab qanday aniqlanadi?
4. Chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari qanday aniqlanadi?
5. Chorvachilik tarmoqlarining samaradorlik darajasini izohlab bering.
6. Qoramolchilikning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlab bering.
7. Parrandachilikning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlab bering.
8. Qo‘ychilik va echkichilikning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlab bering.
9. Chorvachilik tarmoqlarining mustaqillik yillaridagi holati hamda tarmoqda agrar-iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar, sohani modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni qanday qilib chuqurlashtirish mumkin?
10. Kelajakda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rasmiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari

1.1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2008.

1.1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrirda) // Xalq so‘zi. 2004. 15 oktabr.

1.1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonuni. T.: O‘zbekiston, 1992.

1.1.4. O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”. T.: Sharq, 1998.

1.1.5. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. 1993. 6 may.

1.1.6. O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni. Xalq so‘zi. 1998. 6 iyun.

1.1.7. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni. 1999.14 aprel.

1.1.8. O‘zbekiston Respublikasining “Yer solig‘i to‘g‘risida”gi qonuni. T.: Sharq, 1995.

1.1.9. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni // Xalq so‘zi. 2012. 7 yanvar.

1.1.10. O‘zbekiston Respublikasining “Veterinariya to‘g‘risida”gi qonuni. 1993. 3 sentabr (2015 yil 5 oktabr o‘zgartirish kiritildi).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari

1.2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28 avgustdagi “Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // Xalq so‘zi. 2002. 30 avgust.

1.2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi farmoni. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. T.: Fan, 2003.

1.2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaligilarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. T.: Fan, 2003.

1.2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4053-sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi farmoni

1.2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘rsida”gi farmoni //xalq so‘zi. 2012. 22 oktabr.

1.2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qarori // Xalq so‘zi. 2013. 19 aprel.

1.2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat Dasturi to‘g‘risida”gi 1046-sonli qarori // Xalq so‘zi. 2009. 26 yanvar.

1.2.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2012-2016 yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to‘g‘risida”gi 1758-sonli Qarori. Xalq so‘zi. 2012. 21 may.

1.2.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013-2015 yillar davrida respublikada uzumchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1937-sonli qarori // Xalq so‘zi. 2013. 13mart.

1.2.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013-2016 yillarda qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1957-sonli qarori // Xalq so‘zi. 2013. 17 aprel.

1.2.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 362-sonli qarori // Xalq so‘zi. 2015. 15 dekabr.

1.2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tarkibiy o‘zgartirishlarni ta’minlash chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PF-4707-sonli farmoni // Xalq so‘zi. 2015. 5 may.

1.2.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Xalq so‘zi. 2016. 12 aprel.

1.2.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi Investitsiya to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qarori. 2015. 25 dekabr.

1.2.15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2016 — 2020 yillarda

qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–2460-sonli qarori. 2015.29 dekabr.

1.2.16 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni. 2017. 7 fevral.

1.2.17 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”PF-5308-sonfarmoni.2018. 22 yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1.3.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zmeliomashlizing” dalat lizing kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 266-sonli qarori. 2007. 21 dekabr.

1.3.2. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g‘alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlarsh tartibi to‘g‘risida nizom. 2007.

1.3.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta tolasini sotishning ichki va amaldagi narxlari o‘rtasidagi ijobiy tafovutdan tushadigan mablag‘larning bir qismini jamlash va ulardan fermer xo‘jaliklarining foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 30-sonli qarori. 2011. 4 fevral.

1.3.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hosildorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom-ashyosi yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risida nizom”. 106-sonli qarori. 2012. 11 aprel.

1.3.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tomchilatib sug‘orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalarni joriy etish va moliyalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 176-sonli qarori. 2013. 14 iyun.

1.3.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste’mol qilish uchun ruxsatnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizom” 171-sonli qarori. 2013. 14 iyun.

1.3.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 55-sonli qarori. 2016. 26 fevral.

II. Maxsus adabiyotlar

1. Karimov I.A.O‘zbekistoniqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1995. 273.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O‘zbekiston, 1998. 211.
3. KarimovI.A. Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti-to‘kin hayot manbai.T.: O‘zbekiston, 1998, 22 bet.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O‘zbekiston, 1999. 125.
5. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlash-tirish eng muhim vazifa. T.: O‘zbekiston, 2000.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O‘zbekiston, 2011. 125.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009. 56.
8. Karimov I.A. BMT sammiti mingyillik rivojlanishi maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisdagi nutqi // Xalq so‘zi. 2010. 22 sentabr.
9. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz–mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Halq so‘zi. 2016. 16 yanvar.
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak // Xalq so‘zi. 2017. 16 yanvar.
11. MirziyoyevSh.M. Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamizdir // Xalq so‘zi. 2017. 10.12.
12. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi // 2017. 22.12.
13. Abdurahmonov Q.X. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk shakllarining rivojlanib borishi. T.: Fan, 2002. 144.
14. AllaxverdiyevA.I.Razvitiye form koopreatsii v agrarnom sektore APK. M.: Ekonomika, 2003. 253.
15. Abdullayev A.A., Aybeshov X.A. Fermer xo‘jaligi iqtisodi. T.: Aloqachi, 2008. 172.
16. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik. T.: O‘zbekistan Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg‘armasi, 2011, 244.

17. Водянникова В. Т.Экономика сельского хозяйства : Учебник для вузов. 2015.
18. A.SH. Bekmurodov va bosh. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakatlari. T.: TDIU, 2006, 59.
19. Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo‘nalishlari. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2007. 44.
20. Емеянова М.А. Экономика села: Учебник. М.: ИНФРА, 2010, 506 с.
21. Jo‘rayev F. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. T.: Istiqlol, 2004, 344.
22. Zokirov O., Pardayev A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik. T.: O‘AJBNT, 2003, 456.
23. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Moliya, 2005, 268.
24. С. В. Киселеви др. СельскаяЭкономика: Учебник.2016.
25. С.В. Киселёв и др. Сельская Экономика. М.: Инфра-М, 2008. 110.
26. КундиусВ.А.Экономика агропромышленного комплекса: Учебное пособие.2015.
27. Коваленко Н.Й.Экономика сельского хозяйства. М.: YUPKНИГА, 2004. 392.
28. Кандиус В.А. Экономика агропромышленного комплекса. Учебное пособие. – М.: Кнорус, 2010, 544 стр.
29. Лимарев В.Y., Алферьев В.П. Економические проблемі организасии логистических процессов и маркетинга в системе ресурсообеспечениуа АПК. – М.: АгриПресс ЛТД, 2001, 327 стр.
30. Макконел Кемпбелл Р., Брю Стенли Л. Экономикс: Принсипі, проблемы и политика. В 2-х т. М.: Республика, 1992. 388.
31. Murodov Ch. Qishloqda bozor infratuzilmasi asoslarini shakllantirish. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. T. 1999. №3. 2-4.
32. Минаков И. Экономика сельскохозяйственного предприятия. Учебник. М.: Колос, 2004 314.
33. И.А. Минаков и др. Экономика сельского хозяйства. М., Колос, 2009.400.
34. Mirzayev Q.J. Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik masalalari: Monografiya. T.: Iqtisod-moliya, 2010. 164.
35. В.И.Назаренко, А.Г.Налсов и др. Кооперасия в сельском хозяйстве за убежом. М.: ВНИИТЕИ АПК, 1991.
36. O. Olimjonov, T. Farmonov va boshq. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari // O.Olimjonov tahriri ostida. – T.: Universitet, 2005. 212.

37. Oripov M.A. O‘zbekiston dehqonchiligida infratuzilma xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish. T.: Fan, 2007. 192.
38. Pardayev M.Q. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. T.: Iqtisod-moliya, 2008. 280.
39. Плашинский П.А. Инфраструктура и Эффективность общественного производства. Мнц.: Беларусь, 1985. С.12-19.
40. Санду И.С. Проблемные вопросы инновационного развития АПК. М.: РосАКО АПК 2005. 5-6.
41. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В 2-х т. М.: Наука, 1992. Т.1. С.13.
42. Salimov B.T., O‘roqov N.I. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti: O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekistan Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi, 2004. 112 b.
43. B.T. Salimov va boshqalar. Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi. T.: O‘zbekistan Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg‘armasi, 2004. 176.
44. М.П. Тушканов и др. Организасиуа сельскохозуайственного производства: Учебник. 2015.
45. М.П. Тушканов и др.Организация производства и предпринимательства в АПК: Учебник2016.
46. U.T.Umurzoqov, A.SH.Toshboyev, Sh.Rashidov, A.A.Toshboyev Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. T.: Iqtisod-moliya, 2008. 267.
47. Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. T.: Yangi asr avlodi, 2004. 143.
48. Choriyev K.A., Xushmatov N. Dehqon va fermer xo‘jaligilarini rag‘batlantirish. T.: Sharq, 2002. 32.
49. Ergashev R.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T.: Fan va texnologiya, 2010. 470.
50. Ergashev R.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik. T.: Extremum Press, 2011. 416.
51. Ergashev R.X., Hamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. T.: Yangi asr avlodi, 2012. 332.
52. Egamberdiyev F.T. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2014. 380.
53 Н.Y.Коваленко, Y.И. Агирбов, Н.А.Серова и др. Экономика сельского хозяйства: Учебник для студентов ВУЗ. М.: YUPКНИГА, 2004. 384.
54. Qudratov Q.H. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekiston g‘allachiligidagi iqtisodiy munosabatlar. Monografiya.T.: Iqtisod-moliya, 2006. 250.

55. Husanov R.H., Hamdamov A.N., Rafiqov I.E. Qishloq xo‘jaligida servis xizmati. Muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish muammolari. T.: Yangi asr avlodi, 2001. 76.

56. R.Hakimov, M.Otaqulov, E.Yusupov, M.Yusupov Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. T. 2004. 159.

Hamdamov Q.S. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2004. 191.

Hamrayeva S.N. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari. T.: Fan va texnologiya, 2010. 148.

III. Statistik ma’lumotlar

1. Аналитический отчет декабрь 2014.Ежегодный мониторинг средств, выделенных из федерального бюджета на финансирование НИОКР (в том числе по приоритетным направлениям инновационного развития России).
2. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami. 1990-2010 yillar.
3. O‘zbekiston Respublikasi statistik to‘plami. 2011-2015 yillar.
4. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетеньза 2014 год.
5. Основные индикаторы развития сельского хозяйства Республики Узбекистан (2005-2013 гг.).
6. Основные индикаторы развития сельского хозяйства Республики Узбекистан (2010-2015 гг.).
7. Сельское хозяйство Узбекистана:Статистический сборник. 2010-2015.

XXРнинг статистик йиллик то‘пламлари, турли йилларда.

IV. Интернет ресурслари

1. http://agro.uz/uz/
2. http://stat.uz/
3. http://www.mfer.uz
4. http://www.usda_programs
5. http://www.iuf.ru/
6. http://geliopax.tele-kom.ru
7. http://www.usaidmicro.org
8. http://ab-centre.ru/
9. http://www.fao.org/

R.X.ERGASHEV, SH.SH.FAYZIYEVA,
S.N.XAMRAYEVA

QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI

Darslik

Muharrir **Z. Bozorova**
Badiiy muharrir **K. Boyxo‘jayev**
Kompyuterda sahifalovchi **Z. Ulug‘bekova**

Nashr lits. AI[1] 305. Bosishga ruxsat etildi 3.05.2018.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i, 23,2.
Hisob-nashr tabog‘i 24,3. Adadi 100.
8-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60[a].

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60[a].